O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NARZIYEVA NARGIZA NORKUZIYEVNA

KASBIY PSIXOLOGIYA

5111000-Kasb ta’limi (5410600-Zootexniya(Turlari bo’yicha)) va 5111000- Kasb ta’limi (5440100-Veterinariya) ta’lim yo’nalishlari uchun maruzalar matni

Samarqand - 2017

1-MAVZU: KASBIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI.

REJA:

1.1.“Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunni hayotga tadbiq etishda psixologiya fanining o’rni.

1.2. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.

1.3 Kasbiy psixologiyada yagona konseptual asosning ehtiyoji

1.4. G’arb olimlarining psixologik qarashlari.

1.5. Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalari

Tayanch tushunchalar

Ong - ob'ektiv borliqni psixik aks etgirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo’lgan.

Ongsizlik - odam ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

Ong osti holatlari - aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig’indisi. Odamning xatti -harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.

Psixika (yunon. psychikos - ruhiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya - miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg’ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko’rinishida aks etirishdan iborat.

Psixik jarayonlar - u yoki bu psixik mahsulot va natijalarni (psixik obrazlar,holatlar, tushunchalar, hissiyot va x.k.) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixologiya (yunon. Psyche - puh logos - bilim) - odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg’u - hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o’rganadigan fan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримова В.М. Психология. Т.: Шарқ, Дарслик. 2000.

2. Немов Р.С. Психология. М.: Владос, Учебное пособие. 2003. 1-2-т.

3.Timothy P. Melchert. Foundations Professional Psychology: The end of Theoretical Orentations and the Emergence of the Biopsychosial Approach.USA 2011.

1.1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunni hayotga tadbiq etishda kasbiy psixologiya fanining o’rni.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ko’rsatilganidek, yosh avlodni har tomonlama sog’lom, yetuk va barkamol qilib tarbiyalash pedagog - o’qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Albatta bu vazifalarni amalga oshirilishi uchun yuqori malakali pedagogik kadrlarga ega bo’lishimizga ko’p jihatdan bog’liq. Kasbiy psixologiya fanini ta’lim-tarbiya tizimiga tadbiq etish borasida oliy ta’limda, kasb-hunar kollejlarida faoliyat olib borayotgan psixologlar hamda kasbga yo’naltiruvchi mutaxassis kadrlar “Psixologiya masalalari” bo’yicha quyidagi davlat talablariga e’tibor berishi lozim. O’zbek halqining etnopsixologik xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo’lishi; Oliy ta’limi tizimida psixologik xizmat, uning maqsad va vazifalarini bilishi; Psixologik tadqiqot metodlarini bilishi va o’z faoliyati davomida ulardan foydalana olish malakasiga ega bo’lishi; Pedagogik hamkorlik psixologiyasini bilishi va uni amaliyotda qo’llash malakasiga ega bo’lishi; Psixologiyaning sohalari, uning nazariy va amaliy masalalari haqida tasavvurga ega bo’lishi; Pedagogik qobiliyat turlarini bilishi va egallashi; Psixologik-pedagogik tashxis va uning ta’lim-tarbiya jarayonida tashkil qilishdagi o’rni va rolini bilishi, ayrim psixologik tashxis metodikalaridan foydalanish malakasiga ega bo’lishi; Yosh davrlari psixologiyasi, bola ruhiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, bola shaxsi shakllanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning roli haqida zamonaviy ta’limotlardan xabardor bo’lishi; O’quvchilarni tarbiyalashda “Oila, maktab, mahalla hamkorligi” konsepsiyasining asosiy g’oyalarini bilishi; Ota-onalar bilan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsining shakllanishiga ta’siri haqidagi psixologik bilimlardan foydalana bilishi; Ta’lim-tarbiya jarayoni psixologiyasi (pedagogik psixologiya) muammolari, izlanishlar, bu sohadagi yangilik va yutuqlar haqida ma’lumotga ega

bo'lishi; Pedagogik jamoa va o'quvchi-tarbiyalanuvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlar xususiyatlari haqida hamda jamoadagi psixologik iqlim va uni yaxshilash yo'llari haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak. Hozirgi zamon psixologiya fanining dolzarb muammolari mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda milliy dasturdan kelib chiqqan holda diqqat-e'tiborimizni quyidagilarga qaratish lozim: O'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish, tashxis va psixologik xizmatni yo'lga qo'yish; Iqtidorli yoshlarni psixologik tanlash uslublarini yaratish; Oila va oiladagi shaxslararo munosabatlarini o'rganish metodlarini takomillashtirish; Shaxs xususiyatlarini o'rganishda psixodianostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, maslahat, konsultasiya, ma'rifiy ishlarni to'g'ri amalga oshirish; Shaxsni muloqatga o'rgatishga oid trening mashqlari tizimini yo'lga qo'yish; Ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi yoshlarning intellektual-zehn, bilim, qobiliyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirish; Talaba shaxsi faoliyatiga yakka tartibda yondashish; Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish; Pedagogik jamoa va o'quvchilar guruhlaridagi o'zaro psixologik iqlimni hisobga olish; O'quvchi shaxsi xulq-atvori xususiyatlarini o'rganishda psixologik-pedagogik konsiliumlar o'tkazish; Zamonaviy psixologiya fanining yangiliklaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

1.2. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan o'zviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Shuning uchun ham nafaqat psixologiyadan mutaxassislar tayyorlaydigan bilim dargohlarida, balki barcha bilim dargohlarida, hattoki yangi tipdagi maktablar – litseylar va kollejlarda ham psixologiyadan saboq berish rejalashtirilganligi sababli nopedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalariga kasbiy psixologiya kiritilgan. Mazkur kursning asosiy maqsadi – o'zlari o'qitadigan fanlardan ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari tashkil etish metodikasi – ya'ni ularni pedagogik texnologiya asosida qanday tashkil etish qaysi ilg'or usul va vositalardan foydalanilsa, samaradorlikka erishish mumkinligi talabalar bilan birgalikda o'rganiladi hamda talabalar bilimini baholash, pedagogik amaliyot davomida olib boriladigan ishlar, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish haqida ma'lumotlar beriladi. Bularning barchasi bo'lajak mutaxassis uchun o'zish faoliyatlarini tashkil etishga katta yordam beradi, ta'lim jarayonini, darsdan tashqari talabalar faoliyatini to'la va oqilona boshqara olishlariga ko'maklashadi. Bu vazifalarni mukammal egallash ayniqsa bo'lg'usi pedagoglar uchun zarur. Chunki o'qituvchilik kasbi barcha kasblarning onasidir – ya'ni o'qituvchi barcha kasb egalarini tarbiyalaydi. O'qituvchi maktabdagi ta'lim – tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. Ta'lim-tarbiya davriy hodisa emas, u muttasil davom etadigan o'zluksiz jarayondir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi "O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzuidagi ma'ruzasida ***yettinchi ustuvor yo'nalish*** deb, barcha islohotlarning pirovard natijasini belgilab beradigan ***inson omili*** va mezoni ekanligi besabab ko'rsatib berilmagandir.[1]

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

---

[1]Каримов И. А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.- "Туркистон," 2002 йил 31 август.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o’z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o’z davrida «O’z - o’zingni bil!» degan shiorni o’rtaga tashlagan bo’lsa, yangi davr «o’z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo’ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o’rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug’ullanadigan kimsalar o’rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo’lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o’zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxasislari bo’lishidan qat’iy nazar ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda kelajak avlodni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda o’qituvchilarning o’rni benihoya toshgan. Shuning uchun bo’lajak o’qituvchidan oliy o’quv yurtida o’z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari talabalar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to’g’ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o’rganish talab etilmoqda. Chunki bu – ta’lim va tarbiya sirlarini mukammal egallagan o’qituvchilar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Agar pedagog insonni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalamoqchi bo’lsa, ya’ni komil insonni voyaga yetkazish uchun uni har tomonlama o’rganishi kerak.

Psixologiyaning nazariy muammolarini chuqur o’rganmay turib, mazkur fandan hech bo’lmaganda sodda va bajarilishi oson bo’lgan amaliy mashg’ulotlar o’tkazish ko’nikma va malakalarini egallamay turib, talabalarning psixik xususiyatlarini bilishga erishib bo’lmaydi, albatta.

Ko’hna va hamisha navqiron mamlakatimiz uchun ijtimoiy taraqqiyot psixologik nuqtai nazardan idrok qilinsa, mantiqiy tahlil etilsa, halqimizning etnopsixologik bilimlardan ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanganligi, harbiy yurishlarda jangchilarga psixologik ta’sir o’tkazganligi, ularda ishonch va e’tiqod hissi uyg’otganligi, muomalaning verbal va noverbal ko’rinishlarini amaliyotda qo’llanganligi, o’rta asrlarning Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino singari zabardast olimlarining ijodiy mahsullaridan tortib, to XX asrning 30-yillari oralig’ida ilmiy tadqiqotlar qilinganligi bu isbottalab qilinmaydigan haqiqatdir.

Inson o’zini o’rab olgan ijtimoiy muhitda yashaydi va harakat qiladi. Uhar qanday ehtiyojga muhtojdir va uni qanoatlantirishga (qondirishga) intiladi. Tevarak – atrofdagi muhitdan har xil axborotlar (informasiyalar) qabul qiladi va o’zini shunga muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Dunyodagi real obrazlarni miyasida ongli shakllantirishga kirishadi, shunga qarab o’zining shu muhitda qanday harakat qilish kerakligi to’g’risida, u yoki bu voqyeaga qanday yondashish uchun rejalar tuzadi. O’zining oldiga qo’ygan maqsadlarini o’z harakat natijalariga solishtirib ko’radi, o’z boshidan juda katta hissiy (emosional) holatni kechiradi. Hayot faoliyatidagi ba’zi kamchilik va xatoliklarni to’g’rilash yo’llarini ajratadi.

Buning uchun o'ylaydi, fikr yuritadi, hayajonlanadi. Ba'zan o'zini tuta olmay pessimizmga berilib ketadi. Nihoyat, o'zini tutib oladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishga butun kuchini qaratadi. Mana shu holatlarning hammasi kishining psixik faoliyati hisoblanadi. Ana shu psixik faoliyat qonuniyatlarni o'rganuvchi fan psixologiya fanidir. "Psixologiya" so'zi ikkita grek so'zlaridan - "psyche" - jon, ruh va "logos" - ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador bo'lgan holatlar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta'riflaydi. Psixika **–** bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimiz, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan obyektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lishi bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi.

1879-yilda Vilgelm Vundt Germaniyaning Leypxt universiteti birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini va AQSH ning dunyoga kelishiga sabab bo'ladi. Shundan keyin psixologiya Yevropaning boshqa universitetlari bo'ylab ham vujudga kela boshlaydi.

Filosofiya ma'lum tarmoqlarda xarakterga ega bo'lishi, psixologiyaning ham rivojlanishi va Germaniya bo'ylab psixologiya markazlari rivojlanishiga sabab bo'ldi. Psixologlar V.Vundt, German Ebbinghaus, Emil Kreepelin bu sohaga katta hissa qo'shdilar. AQSH da vaqtida Vilyam Jems va uning tarafdorlari nazariyaga ega falsafa yo'nalishini joriy etdilar.

Parij nevrologi Jen Martin Sharkot jazavadan azob chekadiganlarni gipnozga solish haqidagi g'oya va urinishlar ham tarqala boshladi va bu maktab, Pyer Janet singari psixologlarni o'ziga jalb eta boshladi.

19 asrning so'nggi ikkinchi dikadasida psixologiyadagi yangi fanlarning ahamiyati oshdi va miya faoliyatini o'rganish sohasi ham joriy qilindi.

Ilk davrlarda psixologiya anglash, tushunish, xotirani o'rganish, aql hamda uni amaliyotdagi roli kabi boshqa tushunchalar psixologiya sohasida ko'plab yangi dasturlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Bunday fenomenlar dastlabki psixologlar tamonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay ularni amaliyotda tadbiq qilish keying avlod psixologlari uchun qo'yilgan vazifadir.

(*THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012)*

William James and Mary Whiton Calkins James, legendary teacher-writer, mentored Calkins, who became a pioneering memory researcher and the first woman to be president of the American Psychological

Association. Monika Sutes!

P.7 Some of the brain structures crucial for emotional memory

This diagram shows the brain as if semitransparent, so that we can

peer inside and see the location of the amygdala and hippocampus

Psixikaning 3 ta tarkibiy qismi mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

Psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat).

Psixik holatlar (emosional holatlar).

Psixologik (ruhiy) xususiyatlar (temperament-mijoz, xarakter, qobiliyatlar).

Agar psixologiya tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning qadim o'tmishlarga borib taqalishini e'tirof etish mumkin. Chunki odamzod o'zining o'zgalardan, atrof-muhitdan ayri anglay boshlagan davrdan boshlab, unda o'ziga xos ruhiy holatlar va jarayonlar to'g'risida tasavvurlar shakllana boshlagan. Lekin ana shu tasavvurlar va tushunchalarni yaxlit tizimga solib, uning qonuniyatlari to'g'risidagi dastlabki urinishlar uning fan sifatida shakllanishining ibtidosiga to'g'ri keladi. Umuman ruh haqidagi g'oyalar qadimdayoq Suqrot, Platon, Arastularning falsafiy qarashlarida shakllangan. Psixologiya fanining o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan muammolari juda xilma-xil bo'lib, u eng avvalo, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik jarayonning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini ochib berish masalalarini o'rganadi. Psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoitda qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ullanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi. Shuning uchun ham ilmiy psixologiya boshqa barcha o'rganilayotgan predmetlar orasida eng asosiy fanlardan hisoblanadiki, uning jamiyat rivojlanishi bilan ahamiyati yanada ortib va takomillashib boraveradi.

Turli mazmundagi ta'sirotlar tufayli paydo bo'ladigan hissiy holatlar psixik (ruhiy) hayotimizning turli-tuman ko'rinishlaridirki, bularning hammasini psixologiya fani, jumladan, umumiy psixologiya o'rganadi.

Tashqi muhit ta'sirotlari bilan munosabatda bo'lish tufayli odamda vujudga keladigan ruhiy (psixik) holatlarning yig'indisi psixika deb yuritiladi.

"Psixika" termini yunon tilidagi psuxikos (ruhiy, jongaoid) so'zidan olingan bo'lib, yuksak darajada tashkil topgan tirik materiya – bosh miyaning obyektiv olamni sezgilar, idrok, tasavvur, xotira, hissiyot, irodaviy harakatlar kabi shakllarda aks ettirish demakdir.

1.3.Kasbiy psixologiyada yagona konseptual asosning ehtiyoji.

Psixologiyaga 1800-yillarning oxirida asos solingan. Shundan so'ng u fan sifatida tan olina boshlandi. Asosan 2-jahon urushidan beri klinik amaliyotda psixologiya fanini qo'llash avjiga chiqdi.

1961-yilda Amerika psixologiya assotsatsiyasining klinik psixologiya bo'limining o'sha paytdagi oldingi prezidenti E.Lobel Kelli psixologiya sohasidagi o'sishlar allaqachon yuqori darajada ekanligini e'lon qilgandi. 2-jahon urushidan oldin klinik psixologlar kam edi, ularga kam haq to'lanardi, unchalik yuqori bo'lmagan statusga ega edi. 1945-yilgacha Qo'shma Shtatlarda psixologlar uchun litsenziyalash qonuni chiqquniga qadar psixologlar sog'liqni saqlashda uncha muhim ahamiyatga ega emas edi. Qonun kuchga kirganidan so'ng bu soha juda tez suratlarda o'sdi va hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga egadir. (2006-yil ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda Amerikada 85000 ga yaqin litsenziyaga ega psixologlar ish yuritmoqda).

Juda yuqori natijalarga erishganiga qaramay bu sohada haligacha yechilmagan munozara va mojorolarga sabab bo'ladigan muammolar borligi ko'rsatilgan. Inson psixologiyasi va psixoterapiyasining maqsad va jarayonlarining nazariy orientatsiyasida juda katta farq borligi, bu sohaning butun tarixida nazariy va fikr maktablarida juda chuqur ziddiyatlar orasida so'ngi yillarda psixologiyaga kompleks yondashuvlar va boshqa faktorlar tufayli to'xtatildi. Shunga qaramay, bu soha oldingiday shaxsiy kontseptualizyatsiyadagi xilma-xillik, psixopotologiya va psixik kasalliklarni davolash bilan harakterlanadi.

Inson psixologiyasi tabiatini o'rganish jarayonida, xulq-atvorni o'zgartirish olimlar uchun qiyin muammoga aylandi. Tadqiqotlar natijasida ko'pchilik psixologik jarayonlarga ishonarli yechimlar topildi, lekin inson psixologiyasining boshqa jihatlarini yechimini toppish qiyin bo'ldi va bugungi kunda umumiy ma'noda tushuniladi.

Bu asosan juda qiyin protsesslar yani inson shaxsiy harakterini rivojlanishi, psixopotologiyaning sabablarini, aql idrokni harakterlash va baholash hamda psixoterapiftik o'zgarishlarni hisobga oluvchi mexanizmlar uchu kerak bo'ladi, lekin perofessional psixologiya yetishi mumkin. Oxirgi yillarda psixologik rivojlanish va faoliyatning bir necha jihatlarini o'rganishdagi jarayonlar barqaror o'sib kelmoqda. O'rganishlar sababli genomikadan tortib ijtimoiy madaniyatga qadar bizning ongimiz psixologiyasining ko'pchilik muhim jihatlarini tushunish yaxshilanganini ko'rsatadi. Shuningdek tadqiqotlar meditsina, ta'lim va insonlarga xizmat ko'rsatishning barcha turlariga psixologiyaning aralashuvi samara berishini tasdiqladi.

Ayniqsa muhim rivojlanishlardan biri tadqiqotlarning takomillashgani hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Hozirgi kunda tadqiqot hamda klinik amaliyotda yetarlicha haqiqatni qo'llab-quvvatlash uchun dalil isbotlar bor. Nazariy ma'lumotlar va terapivtik asosda tajribasiz yondashuvlar endi o'tmishda qoldi. Baholash natijalari, davolash natijalari amal bilan bog'liq standart xulosalarning barchasi 10 yil oldingi holatga qaraganda yuqori ko'rsatgichda. Muhim jihatlarda haligacha konsessus kuzatilmoqda, ozgina o'zgarishlar bor lekin oldingisidan unchalik farq qilmaydi. ***(Timothy P. Melchert. Foundations Professional Psychology: The end of Theoretical Orentations and the Emergence of the Biopsychosial Approach.USA 2011)***

1.4. G'arb olimlarining psixologik qarashlari.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo'lishiga oid bir qancha fikrlar mavjuddir. Bulardan biri filosofiya tarixida Dekart nomi bilan bog'liq bo'lgan "antropopsixizm" nazariyasidir. Bu nazariyaning mohiyati shundaki, u psixikaning paydo bo'lishini odamning paydo bo'lishi bilan bog'laydi va psixika faqat odamlarda mavjuddir degan g'oyani olg'a suradi. Bu psixikaning paydo bo'lishi muammosiga bir tomonlama yondashishdir.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo'lishi haqida yana bir qancha turli-tuman fikrlar bor. Uzoq asrlar davomida psixika (ruhiy hayot) va uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti masalalariga har xil nuqtai nazardan yondashib kelindi. Bundan milliard yillar burun neorganik (jonsiz) materiya negizida organik (jonli) materiya vujudga keldi. Ruhiy hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi ana shu davrdan boshlandi. Uzoq tarixiy davr jarayonida rivojlangan jonli organizm oddiy hujayradan oliy bosqichgacha - insongacha bo'lgan taraqqiyot davrini bosib o'tdi.

Psixikaning taraqqiyoti uning harakati, o'zgarishidir.Qadimgi filosoflar ruhiy hodisalarning rivojlanishini turlicha talqin etib keldilar, uni ilohiy kuchga bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar. Masalan, grek filosofi Fales (eradan avvalgi 624-547 yillar) odamning ruhiy hayotini bug' shaklida tasavvur qilgan va uning asosida suv yotadi degan. Anaksimen esa (eradan avvalgi 588-525 yillar) ruhiy hayotning manbai havodir deb ta'lim bergan. Geraklit (eradan avvalgi 544-488 yillar) ruhiy hayotning manbaini olov deb targ'ib qilgan.

Qadimgi filosofiyaning mashhur namoyandalari Suqrot (eradan avvalgi 469-399) va Platon (eradan avvalgi 427-347 yillar) ham inson psixikasi, ruhiy hayoti haqida butunlay boshqacha nazariyani olg'a surganlar. Ularning fikricha, tana va jon boshqa-boshqa qismlardir. Guyoki jon inson tanasiga "ideal" dunyodan kiradi-yu, ma'lum vaqtdan so'ng yana o'sha dunyoga qaytib ketadi.

Mashhur filosof Demokrit esa (eradan avvalgi 460-370 yillar) inson organizmi atomlardan tashkil topgan, uning ruhi mayda atomlardan iborat degan fikrni olga suradi.

Psixologiya tarixida psixika va uning taraqqiyoti haqida turli-tuman fikrlar yuqoridagilardan tashqari ham juda ko'p.

Psixik hodisalarni materialistik nuqtai nazardan talqin etishda mashhur grek filosofi Aristotelning(eradan avvalgi 384-322 yillar) xizmati kattadir.

Aristotel qadimgi filosoflardan birinchi bo'lib psixologiyani alohida fan sifatida qaradi, psixik hodisalarga materialistik nuqtai nazardan yondashdi. Mashhur filosofning "Etika", "Ritorika", "Metafizika", "Hayvonlar tarixi" kabi asarlarida turli psixik hodisalarga oid fikrlar juda ko'p. Buyuk olimning "Jon haqida" nomli asari psixologiya tarixida birinchi sof psixologik asardir.

Aristotel o'zigacha bo'lgan filosoflarning, jumladan, o'z ustozi Platonning psixologik qarashlarini tahlil qildi.

Aristotelning psixologik ta'limotida ruh va tananing o'zaro munosabati problemasi muhim o'rin tutadi. "Ruh, - deydi Aristotel, o'z tabiatiga ko'ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir. Forma materiyaga nisbatan qanday bo'lsa, ruh ham tanaga nisbatan xuddi shunday. U (ruh) hayotga ma'no va yo'nalish beradi, ruh ta'sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta'sirlanadi va harakatga keladi. Ruh tirik tananing sababi va manbaidir".

Aristotelning ruh va tana munosabatiga oid ta'limotiga xos g'oya shundan iboratki, ruh va tanani alohida-alohida qarash ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'lmaganidek, ruhni birlamchi, tananing manbai deyish ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bu kabi jo'z'iy yetishmovchiliklarning manbai Aristotel yashagan davr, muhit va sharoitning ta'siri natijasidir.

Aristotelning turli psixik hodisalar haqidagi fikrlari hozirgi psixologiya fani uchun ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Uning sezgilar, hissiyot, irodaviy harakatlar, tafakkur, tasavvur haqidagi va boshqa psixik hodisalarga oid fikrlari buning dalili hisoblanadi.

Aristoteldan keyin ham filosoflarning psixologiyaga oid fikrlari turlicha shaklda bayon qilinib kelindi.

Epikurning (eradan avvalgi 342-271 yillar) fikricha ruh butun organizmga tarqalgan juda nozik jismdir, uni g'ayrijismiy deyish alahsirashdan boshqa narsa emas.

O'rta asrlarga kelib Sharqda ham , G'arbda ham Aristotelning psixologik ta'limoti hukmron bo'lib qoldi. Bu ta'limot keyinchalik metafik yoki rasionalistik psixologiya ismi bilan yuritildi.

Metafizik deb atalishining sababi shundaki, bu ta'limotga asosan ruh g'ayrijismiy bir narsa deb tushuntiriladi. Uning tekshirish metodi quruq mulohazadan iborat bo'lib, tajribadan ajralgan holda bo'lganligi uchun rasionalistik nomi bilan ham yuritiladi.

Ruhning mohiyati, kuchi, tanaga bo'lgan munosabati, tana o'lgandan keyingi taqdiri masalalarida o'rta asr mutafakkirlari turli-tuman mulohazalar bayon qildilar. Ammo, ular bu sohada Platon va Aristotelning fikrlariga hech qanday yangilik kirita olmadilar.

X1X asrning oxirlariga kelib psixologiyada tarixiy psixologiya, yosh psixologiyasi va zoopsixologiya kabi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Tarixiy psixologiya odam psixikasi va ongining paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari masalalarini o'rganadi.

XX asr boshlariga kelib barcha fanlar uchun bo'lganidek, psixologiya fanining taraqqiyoti uchun ham keng yo'l ochib berildi. Biz XX asr psixologiyasini taraqqiyot nuqtai nazaridan quyidagicha davrlashtirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1. 20-yillar psixologiyasi - bu davr psixologiyasining tarixida turli oqimlar o'rtasidagi kurash, kuchli munozara yillari hisoblanadi.

20-yillar psixologlari oldida bixeviorizm va refleksologiyaga qarshi kurash vazifasi turar edi. Chunki bu davrda bu oqimlar keng tarqalgan bo'lib, refleksologiya hatto oliy o'quv yurtlariga fan sifatida kiritilgan edi.

20-yillar psixologiyasida har xil fikrlarga qarshi kurashda psixonevrologiya fanlari bo'yicha birinchi (1923 yil) va ikkinchi (1924 yil) Butunrossiya syezdlarining ahamiyati katta bo'ldi. Bu syezdlarda empirik psixologiya va refleksologiya vakillari qattiq tanqidga uchradilar va 1930 yilga kelib bu oqimlar tugatildi.

2. 30-yillar psixologiyasi - bu yillar psixologiyasi mashhur rus psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy va I.P.Pavlovlar nomi bilan bog'liqdir. Bu davrda umumiy psixologiya, bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya sohasida bir qancha muhim tadqiqotlar vujudga keldi.

L.S.Vigotskiy (1896-1934) umumiy, bolalar va pedagogik psixologiya bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib bordi. 1917 yilda Moskva universitetining tarix-filosofiya fakultetini tamomlagach, Gomelda ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlaydi. A.S.Vigotskiy 1924 yilda MGUga ishga chaqiriladi, shunday so'ng psixologiya institutida, N.K.Krupskaya nomidagi tarbiya Akademiyasida ishlaydi. Ana shu davrda uning psixologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi faoliyati boshlanadi.

Odamda oliy nerv psixik funksiyalarining paydo bo'lishi, psixik jarayonlarni o'rganish usullari, odam ongining ijtimoiy-tarixiy mohiyati, logik xotira, ixtiyoriy diqqat, tushuncha va tafakkurga oid fikrlari 30-yillar psixologiyasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

L.S.Vigotskiyning "Tanlangan psixologik tadqiqotlar" (Moskva, 1966), "Yuqori psixik funksiyalar taraqqiyoti" (Moskva, 1960) kabi asarlari 30-yillar psixologiyasiga qo'shilgan munosib hissadir.

Ivan Petrovich Pavlov (1849-1936) mashhur rus fiziolog-psixolog olimidir. I.P.Pavlov birinchi bo'lib oliy nerv faoliyatining qonuniyatlari haqidagi ta'limotni yaratdi.

Ryazandagi diniy bilim yurtini 1864 yilda tamomlab, seminariyada o'qishni davom ettirishga kirishgan I.P.Pavlovni seminariya ta'limi qiziqtirmaydi. Shundan so'ng I.P.Pavlov Peterburg universitetiga o'qishga kiradi. U universitetda a'lo baholarga o'qish bilan birga ilmiy ish ham olib boradi. I.P.Pavlov 1874 yilda universitetni oltin medal bilan tugatgach, medisina-xirurgiya akademiyasining uchinchi kursidan o'qishni davom ettiradi. Akademiyada o'qish davomida 10 dan ortiq ilmiy asar yaratadi. Bu asarlari uchun ham u oltin medal bilan mukofotlanadi.

I.P.Pavlov 1879 yilda o'qishni a'lo baholar bilan tugatib, professor S.P.Botkin laboratoriyasida ishlaydi va 1883 yilda medisina fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya yoqlaydi. 1890 yilda akademiyaning professor lavozimiga ko'tariladi va 1891 yildan boshlab eksperimental medisina institutining fiziologiya bo'limini boshqaradi.

I.P.Pavlovning 1904 yilda ovqat hazm qilish organlari sohasidagi tadqiqotlari Nobel mukofotini oladi. Shundan so'ng I.P.Pavlov keng shuhrat qozona boshlaydi. 1913 yilda uning tashabbusi bilan oliy nerv faoliyatini o'rganish uchun eksperimayental medisina instituti qoshida maxsus bino quriladi va bu yerda maxsus kameralarda shartli reflekslar o'rganila boshlaydi.

I.P.Pavlov rahbarligida 1921 yilda Leningrad yaqinidagi Koltushi (hozirgi Pavlovo) qishlog'ida biologik stansiya qurildi. Keyinchalik bu stansiya psixologik tadqiqotlarning ilmiy markaziga aylantirildi.

Akademik I.P.Pavlov umrining oxirigacha eksperimental medisina laboratoriyasi va Koltushi qishlog'idagi biologik stansiyaga rahbarlik qildi.

Shunday qilib, akademik I.P.Pavlov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan psixologik tadqiqotlar 30-yillar psixologiyasi taraqqiyotida muhim o'rin egalladi va bu davrga kelib psixologiya fani o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi.

3. Vatan urushi yillari psixologiyasi. Vatan urushi davri barcha fanlarga bo'lganidek, psixologiya fani oldiga ham nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bu yillar psixologiyasining asosiy masalalari jangchilarda va front orqasi mehnatkashlarida yuqori harbiy - irodaviy sifatlarning tarkib topishiga (chidam, toqat, qat'iyat, jasorat, mardlik, qahramonlik, hujumkorlik, saqlanish, harbiy qurollardan mohirona foydalanish, uchuvchilik mahorati, ko'rish, eshitish sezgirligi, samimiy o'zaro hurmat, do'stlik, birodarlik, mehribonlik va h.k.) munosib hissa qo'shishdan iborat edi. Psixologiyafanibukabivazifalarnimuvaffaqiyatbilanuddaladi.

4. Vatan urushidan keyingi davr psixologiyasi. Bu davrda barcha fanlar qatori psixologiya fani ham o'z taraqqiyoti sari dadil odimladi. Psixologik bilim turmushning barcha sohalariga kirib bordi. Buning natijasida psixologiya fanlari tizimida bir qancha yangi tarmoqlar vujudga keldi. Lekin sovet ijtimoiy to'zumi hukmron bo'lgan bu sharoitda milliy psixologik xususiyatlarni o'rganish yo'lga qo'yilmadi. Psixologiya sohasida yirik mutaxassislar tayyorlash uchun respublikamizda shart-sharoit yaratilmadi.

1.4.Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalari

Sharq mutafakkirlari ta’limotida o’g’il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o’rgatish g’oyasi ham muhim o’rin egallaydi. Bundan ko’rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo’naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo’lmay, balki azaliy muammo sifatida o’rganib kelinmoqda. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jomiy, Ahmad Donish, Davoniy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to’g’risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta’lim-so’z va ko’nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo’lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko’rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo’lib kelgan.

Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, “ta’lim-degan so’z xalqlar va shaharliklar o’rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o’rtasidagi tug’ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so’zdir.

Ta’lim faqat so’z va o’rganish bilangina bo’ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo’lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo’lishi, o’rganishidir” – deydi.

Forobiy ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo’l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

“Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlantirish masalasi”ga kelganda, bu odam ikki yo’l bilan hosil qilinadi; bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so’zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so’zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g’ayrat, intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo’l yoki usul – majbur etish yo’li. Bu usul gapga ko’nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroiy xalqlarga nisbatan qo’llaniladi. Chunki ular o’z istaklarigacha so’z bilan g’ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o’rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo’ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo’lmasa bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Tabiblik kasbining moyasi inson tani va uning a’zosidir. Uning maqsadi shu a’zolar uchun kerakli bo’lgan sog’lomlikni hosil qilish va ularni kasal bo’lishdan saqlashdir.

Tabiblik uchun zarur bo’lgan faoliyat agar u kasal bo’lsa, sog’lig’ini tiklashdir. Bu ishni asbob va vositalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Tabiblar kasalliklarning har biri uchun dori-darmon topadilar.

Tabiblik hunari yetti turli bilimni o’z ichiga oladi.

1) inson a’zolarini ayrim-ayrim jihatlarini o’rganish;

2) salomatlik holati, ularning ta’sirlanishini o’rganish ;

3) turli kasaliklarning sabablari va ular bilan bog’liq bo’lgan tasodifiy hodisalarni o’rganish;

4) salomatlik va kasallikning belgilari, sabablari, dalillari, butun badanda, ayrim a’zolarda ko’rinadigan kasallik alomatlarini o’rganish va bilish;

5) sodda va murakkab dorilarni bilish, tabiblik hunarida ishlatiladigan asboblarni o’rganish va ularni ishlata olish;

6) sog’lom badanda salomatlikni saqlash uchun zarur bo’lgan qonun-qoida harakatlarni o’rganishni bilish;

7) badanda sog’lik-salomatlikni tiklash uchun zarur bo’lgan qonun-qoida va harakatlarni bilish.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug’ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug’lik bo’lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug’ma bo’lganda podshohlar ham o’zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo’lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo’lib qolar edi.

Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug’ tug’ma fazilat va ulug’ (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo’lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo’ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan so'ng u o'zidagidek go'zal fazilat va irodani xalqlar va shahar ahillarida hosil qilish yo'llarini o'rganishi kerak. Lekin xalqlar va shahar ahillarida ahloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilgani uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir .

Ta'lim so'z va o'rganish yo'li bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rgatishdir. Ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatlariga kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar.

Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallanganligini bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar yoki hikmatlar o'rgatadilar.

Yoshlar yuqorida aytib o'tilgan narsalar, kasb-hunar shu tajriba jahd va g'ayratga ega bo'lganlari va shu narsalarni o'z vujudlarida singdirganlaridan so'ng ularni asta-sekin egallay boradilar hamda yuqorida aytib o'tilgan fazilatlarni aniqlab borib, nazariy bilimlarning hammasida mantiqiy fikrlash yo'lini ishlatishga odatlanadilar. Shu tartibda bolalarga o'rgatish yo'li bilan ular kamolga yetguncha ana shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi.

Forobiyning fikricha, baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uch xil alomatga qarab aniqlanadi. Biz quyida ko'rib chiqyotgan hunar va san'atlarning bir-biridan afzalligi ham xuddi shu alomatlarga qarab aniqlanadi.

Hunar va san'atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko'ra bir-biridan afzal ko'rinadi. Masalan bo'z to'qish, shoyi to'qish, attorlik, hovli supurish, raqs san'ati, fiqx ilmi, tabiblik yoki so'z san'ati bir-biridan qanchalik afzal bo'lsa, baxtga erishuv darajalari ham shunga o'xshashdir.

Bundan tashqari bir turdagi san'at, hunar sohiblari ham malaka miqdori jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir hattot o'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri o'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin. Mazkur hunar xattotlikni yaxshi egallash uchun hattot tilni, so'z san'atini, husnixatni va hisob-kitob, riyoziyotni puxta bilishi zarur. Shu hunar egalaridan biri, masalan, husnixatni va riyoziyotni yaxshi biladi, boshqasi ishni, so'z san'atini va husnixatning ba'zi jihatlarini yaxshi biladi, uchinchisi – mana shu ilmlarning hammasida mohir.

Xattotning sifat jihatidan bir-biridan afzalligi shundaki, masalan, husnixat san'atini egallagan ikki xattotdan biri o'zi tanlagan shu sohada kuchliroq, biri kuchsizroq bo'lishi mumkin. Bu sifatdagi afzallikdir.

Baxtlilik darajasiga erishuvda ham insonlar yuqoridagiga o'xshash bir-biridan afzalroq bo'lishi mumkin. Boshqa shaharlarning aholisiga kelsak, bu odamlarning fe'li yomon bo'lganligi uchun hunarlari ham ularning ko'ngli yomonligini tuzata olmaydi. Yomon xattot tabiatdan badbaxtligi tufayli yozuvi ham tobora xunuklashib boraveradi, uning hunarlari san'ati tobora orqaga ketaveradi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrihoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb biladi. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amxo'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi deb ta'kidlaydi.

Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasi o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta, ahamiyat beradi.

Hunarmandchilikning bunday yakka holda o'rgatilishi malakali kasb egalarining yetishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga yetishida muhim pog'ona bo'lgan. Zero, qadimdan har bir yetuk inson shohmi yoki oddiy fuqaromi

hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga buyuk shaxslar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham oddiy fuqaro ham o'z farzandini bilimli bo'lishi bilan birga hunarli bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, kishilar o'z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi asoratida qabul qilingan.

Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmli bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak deydi.

Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshash insonlar kamdan-kam bo'ladi.

Yusuf Xos Hojibning o'sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar hayrihohligi o'z-o'zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqyei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog'liq edi. Zero, kasb-hunar ta'limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi sanalardi.

Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o'ringa ega bo'lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi.

Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydi va ular mehnati eng ulug' va sharafli muqaddas ekanligini ta'riflaydi.

Ko'rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligini ta'kidlaydi: "Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim qiladur, nasl-nasab qila emas. Ismni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmagin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lg'il". Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanaladi.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi. Aynan keltirilgan fikrlardan kasb-hunarning inson hayotidagi o'rni mohiyati yuzasidan qarashlari ilgari surilgan. Ey farzand ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hyech kishiga naf' yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo'qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo'lsa ammo hunari bo'lmasa xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va hunar bezak bo'lmasa undan battaroqdir. Jahd qilg'il asl bo'lsa unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari ziynati bilan ziynatlangan bo'lmasa u hyech narsaga arzimagusidir. Andoqkim debdurlar: ulug'lik aql va donishmandlik biladur, gavhar va nasab bila bo'lmas".

Asarda munajjimlik, yer o'lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazaridan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama yetuk, bilimga ega kishi bo'lganligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o'ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, "Dabirlik va kotiblik zikrida" bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda saj'ga rioya etish, har bir

so’zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo’lishni ta’kidlaydi. Hattotlikning ulug’ hunar ekanligi, ammo bu hunarda hyech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada ibratli hikoyatlar keltiriladi.

Sa’diy bilim olish bilan birga hunarning hali inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki “Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, – deydi u, agar hunarmand molidan mahrum bo’lsa qayg’usi yo’qdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to’ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi”.

Bu – Sa’diyning inson uchun ilm-hunarning qay darajada ulug’ligini ta’kidlovchi fikrlarining ifodasidir.

Sa’diyning “Guliston” asari ahloqiy ta’limoti bilan ayniqsa mashhurdir. Zero, mazkur asarda insoniylik, saxovat, qanoat, adolat kabi xislatlar ulug’lanadi.

Jomiy ham xuddi Forobiy singari biror foydali kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb hisoblaydi. U bir odam ikki ishni eplay olmasligini ta’kidlaydi, faqat muayyan bir hunar bilan shug’ullanish uni puxta o’zlashtirish lozimligi haqida gapiradi.

Jomiy hunar egallashni u bilan shug’ullanishni har qanday boylikdan afzal ko’radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi.

Jomiy o’sha davrda bilim va hunar egallamay, o’zining nasl-nasabi bilan maqtanib yurgan ota-onasining molu davlatiga ishonib taralla-bedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevasiz daraxtga o’xshaydilar, bunday odamlarning jamiyatga nafi tegmaydi.

Jomiy bilim-hunarsiz kishini o’tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o’xshatadi. U har bir yoshni ota obro’si, shon-shuhratidan mag’rurlanmay, o’z yo’lini tanlashiga, ilmu-hunar o’rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o’rganish har bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, – deb ta’kidlaydi.

Demak, Jomiy inson uchun ilmu-hunarning qay darajada zarurligini to’g’ri talqin qilgan. Alloma ilm va hunarni e’zozlagan rahbar ham o’z elining e’zozida bo’lishi, bunday o’lka gullab yashnashi mumkinligini uqtiradi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy mehnatkash insonni ulug’laydi, ayniqsa, dehqonlar mehnati haqida fikr yuritar ekan, ular moddiy ne’matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini ta’kidlaydi.

Sharqning qomusiy olimlaridan Davoniy bolalarning kasb-hunar egallashi to’g’risida ham e’tiborga sazovor fikrlar bildirgan. Muallim talabalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma’lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan shug’ullansa, uni har tomonlama qo’llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallash uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish lozim. Har bir kishining, deb yozadi Davoniy, hamma kasbni egallashga qobiliyati bo’lmaydi, balki muayyan odamning kasbga qobiliyati bo’ladi.

Bir kasb-hunarni o’rganishga intiluvchilar butun iste’dodlarini ana shu kasbni egallashga qaratadilar, natijada o’z sevgan kasb-hunarlarini tezda va puxta o’zlashtirib oladilar. Davoniyning bu fikrlari Forobiyning quyidagi fikrlariga juda o’xshab ketadi: “Kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o’z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san’at ahllaridir”.

Agar kishining muayyan bir kasbga ishtiyoqi bo’lmasa uni hyech vaqt shu kasbni egallash uchun majbur qilmaslik kerak, aks holda u faqat o’zini qiynashi mumkin.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo’ladi, ya’ni ular kishining ruhiy (ma’naviy) quvvatiga bog’liq bo’lib, birinchisi, inson aqliga tegishlidir, bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi, ta’lim-tarbiya natijasida vujudga keladi. Bunga astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya fanlari bilan shug’ullanish kiradi. Uchinchisi, kishining shijoati va jasurligi namoyon bo’ladigan kasblardir: bular – dushmanga qarshi kurash, chegarani qo’riqlash va boshqalardir.

Ustoz olim biror ish yoki kasb bilan shug’ullanishni hohlamaydigan kishilarni tanqid qiladi. U ham xuddi Jomiy singari o’z otasining boyligiga ishonib kasb-hunar egallamagan yoshlarni qoralaydi. U yoshlarni mehnat, hunar egallashga chaqiradi, uningcha, kishi faqat mehnatda kamolot va baxt-saodatga erishishi mumkin.

Shunday qilib, Davoniy kasb-hunar egallashni kishining eng go'zal fazilatlaridan biri, deb hisobladi. Inson kasb-hunarni egallashga uni takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga ham foyda keltiradi, demak bunday kishi har qanday tahsinga sazovordir.

U kishilarni eng avvalo kasb-hunariga qarab toifalarga bo'ladi. Birinchi toifaga qalam ahillarini olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, injenerlar, musulmon qonunshunoslarini; ikkinchi toifaga harbiylarni; uchinchi toifaga esa savdogarlar, hunarmandlar va boshqalarni kiritadi. To'rtinchi toifaga esa dehqonlar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilardan iboratligini ko'rsatib o'tadi.

Davoniy ayniqsa dehqonchilik kasbini ulug'laydi. Xuddi Alisher Navoiy singari Davoniy ham dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi, chunki dehqonlar hamma toifadagi kishilarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlovchi kishilar hisoblanadi. Ularning g'ayratisiz inson zoti xuddi mayda savdogarlar singari yo'q bo'lib ketadi, chunki boshqa toifadagi kishilar hayot kechirish uchun ularchalik narsa yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishiga beradilar, bir joydan ikkinchi joyga olib boradilar, yoki shaklini o'zgartiradilar.

Davoniyning kasb-hunar egallash to'g'risida ijobiy qarashlaridan biri shuki, u birinchi navbatda oddiy xalq mehnatini, xususan, dehqon mehnatini kuylaydi, inson faqat o'z halol mehnati tufayli baxt-saodatga erishuvi barkamol shaxs bo'lib yetishishi mumkinligini isbotladi. Shuning uchun u kasb-hunar egalarini doimo hurmatlash, mehnatini qadrlashga chaqiradi.

Davoniy bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish kasb-hunarga o'rganishi haqida ham qimmatli fikrlarni bildirgan. Davoniy muallimning bolalarni qaysi kasbga qiziqishi, qobiliyatini yaxshi bilishi zarurligi haqida gapirib, bola qiziqib, biror hunar yoki ilm bilan shug'ullansa, unga har qanday sharoitda ham imkoniyat yaratib berish kerak, deb uqtiradi. Albatta, hamma kasblarni egallab bo'lmaydi, ammo har bir odamning biror kasbga qobiliyati bo'ladi deydi olim. Biror kasbni egallab olishga intilgan kishi butun iste'dodini sarf etib, ana shu kasbni tezda o'rganib oladi. Bunday fikrni buyuk mutafakkir Forobiy ham o'z vaqtida ta'kidlab o'tgan edi.

Agar u yoki bu shaxsning muayyan kasb-hunarga ishtiyoqi bo'lmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks holda u o'zini qiynaydi va bu kasb-hunar unga baxt-saodat keltirmaydi, deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi: buni kishilarning ruhiy quvvatiga bog'lagan holda tushuntiradi: birinchisini inson aqliga tegishlisi deb ko'rsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi, ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga astronomiya, matematika, tibbiyot, geometriya fanlari bilan shug'ullanishni kiritadi. Uchinchisiga, kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq kasblarni, ya'ni dushmanga qarshi kurash, chegarani qo'riqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi bo'lmagan biror kasb bilan shug'ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib, kasb-hunar egallamaydigan yoshlarni qoralaydi. Mehnat qilish hunar egallashni targ'ib qilar ekan, mehnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai deb hisoblaydi.

Davoniyning kasb-hunar haqidagi qarashlari shu bilan ahamiyatliki, u oddiy xalq mehnatini, dehqon mehnatini ulug'laydi. Insonning faqat mehnati tufayligina baxt-saodatga erishish mumkinligini, mehnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezoni ekanligini isbotlaydi.

O'zining ta'lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o'qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo'naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning o'qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e'tibor berganligini ko'ramiz. U o'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlod o'rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustilarida ko'p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal sifati deb biladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarni o'rganish, ularni amaliy hayotga tadbiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o'rgatish

jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

Nazorat uchun cavollar?

1.Psixologiya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2.Psixologiya faninig yaratilish tarixi?
3.Hozirgi zamon psixologiyasi fanining dolzarb muammolari?
4.Psixologik xizmatning vazifasi?
5.Sharqdagi psixologik qarashlar?
6.G'arbda psixologik qarashlar?

TEST TOPSHIRIQLARI

1.Psixologiya fani nimani o'rganadi?

A) idrok qilish shakllarini B) jon va ruh haqidagi ta'limot V) ruhiy jarayonlar bilish faoliyatlari, indvidual pshologik xususiyatlarni G) psixik faktlar va uning mexanizmlari, qonuniyatlari haqidagi fan D) inson shaxsi uning psixologik xususiyatlarini

2.Psixik faktlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat B) bilish jarayonlari: sezgi, idrok xotira, tafakkur va xayol V) ruhiy holatlar yoki shaxsning hissiy irodaviy sohasi: hissiyot, iroda G) ruhiy xususiyatlar yoki individual psixologik xususiyatlar: temperament, xarakter, qobiliyat D) barcha javoblar to'g'ri

3. Qaysi qatorda psixik aks ettirish xususiyatlari ko'rsatilgan?

A) obektiv borliqni to'g'ri aks ettirish imkonini beradi B) obektiv borliqni to'g'ri aks ettirish xususiyatlari ko'rsatilgan V) doimo rivojlanib va shakllanib boradi.

G) shaxsning individualligi orqali namoyon bo'ladi D) barcha javoblar to'g'ri

4. Qaysi qatorda dastlabki psixologiya to'g'risidagi ilk tasavvur ko'rsatilgan?

A) dualism B) animism V) afaziya G) ideyalar tug'ma bo'ladi D)to'g'ri javob berilmagan

5.Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iboratligini ilgari surgan olim?

A) Geraqlit B) Demokrit V) Aflotun G) Arastu D) Fales

6.Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon atomdan iboratligini ilgari surgan olim?

A) Geraqlit B) Demokrit V) Aflotun G) Arastu D) Fales

7."Ideyalar abadiy va o'zgarmas mohiyatdir, ularning tabiiy olamidan tash harida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi" mazkur fikr muallifini toping?

A) Geraqlit B) Demokrit V) Aflotun G) Arastu D) Fales

8."Dualizm" oqimining asoschisi qaysi katorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Geraqlit B) Demokrit V) Aflotun G) Arastu D) Fales

9. Dualizm talimotining mohiyati?

A) moddiy va ruhiy olam tana va psixikasining bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama- qarshi narsalar deb tushuntiradi B) ideyalar adabiy va o'zgarmas moxiyatdir. V) jon va tana bir-biriga bog'liqdir. G) jon va tana bo'linmas birlika ega, lekin faoliyatlar jarayonida ular bir-birlarini tark etadilar. D) to'g'ri javob berilmagan

10. Kishilik tafakkuri tarixida kim birinchi bo'lib, ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi?

A) Aflotun B) Anakseman V) Arastu G) Geraqlit D) Fales

11. "Jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faolyatning oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarni namoyon qiladi" mazkur fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

A) Aflotun B) Anakseman V) Arastu G) Geraqlit D) Fales

12. Dunyoda kim birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llagan?

A) Aflotun B) Arastu V) Abu Ali ibn Sino G) Abu Nasr Farobiy D) Abu Rayxon Beruniy

2-MAVZU: KASBIY PSIXOLOGIYA: FANLARARO ALOQA, TATBIQIY VA AMALIY SOHALAR, ILMIY TADQIQOT METODLARI.

REJA:

2.1.Kasbiy psixologiya fanining asosiy metodlari.

2.2.Yordamchi metodlar (test, anketa, suhbat, biografiya)

2.3. Hozirgi zamon psixologiyasining tarmoqlari.

2.4. Kasbiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Tayanch tushunchalar

Aviasiya psixologiyasi (lot. Avis - qush - yunon, psyche - pyx logos - tushuncha, ta'limot) - psixologiya tarmoqi bo'lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatining psixik xususiyatlarini o'rganadi.

Akmeologiya (yunon. Akme yuksak pog'ona, ziyraqlik, yuqori, logos - tushuncha ta'limot) - tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganadigan fan.

Biografik metod (yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko'rsataman) - odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli.

Boshqarish psixologiyasi - psixologiya fanining boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi.

Genetik metod (denetikos - kelib chiqishga oid, methodos - tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Genetik psixologiya (yunon. Denetikos - kelib chiqishga oid, psycko -pyh) odamning individual psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning roli o'rganadi.

Determinizm (lot, determinare - aniqlamoq) - tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro'y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi degan ta'limot.

Din psixologiyasi - diniy ong xususiyatlari, tizimi va funksiyalarining ijtimoiy - psixologik omillarini o'rganuvchi psixologiya tarmoqi.

Differnsial psixologiya - (lot. differentia - far?) psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rganadi.

Yosh psixologiyasi - psixologiya fani tarmoqlaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Zoopsixologiya (yunon. zoon hayvon, psyche - pyx, lodos ta'limot) - psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan soha.

Intervyu (interview - suhbat)- bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.

Introspetiv metod - bu odamning o'z- o'zini kuzatishga asoslangan psixologik metodi.

Kuzatish **-**psixologik metodlaridan biri bo'lib, odamning xatti- harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

Laboratoriya tajribasi (lot . laborate - ishlamoq) - psixologiya metodlaridan biri tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

Longityud tadqiqot (ing. longitude - uzoq muddat) - tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish.

Metod (yunon. Methodos tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Mehnat psixologiyasi - turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Modellashtirish - bilim ob'ektlarini modellar asosida qarama - qarshi qilish qandaydir hodisa va jarayonlarning o'rnini bosuvchi, taqdim etuvchi bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq qilish va yaratish.

Musiqiy psixologiya - san'at psixologiyasining sohasi bo'lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.

Muhandislik psixologiyasi - psixologiyaning tarmog'i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo'lishini o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Б.М.Умаров. Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

2. THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012

3. A-level Psychology pre-course assignment. Miss Harris – Summer 2015 – eharris@moseleypark.org

4. Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA 2-5st

2.1. Kasbiy pixologiya fanining asosiy metodlari

Barcha ilm-fanlar ichida psixologiyaning jamiyatga juda katta sirli va chalg`itishga moyillik ehtimoli bordir. Har kungi madaniyatimizga til va g`oyalar kirib borishiga qaramay ko`pgina odamlar bu fan va psixologlar haqida haqiqatda noaniq tasavvurga egalar. Ba`zilar uchun psixologiya- oq xalat kiyganlar huddi odamlarni sehrlaydiganday ko`rinishadi yoki ilmiy institutlarda, labarotoriyalarda, kalamushlarda tajriba olib boradiganlarni tasavvur qilishadi. Boshqalar esa o`zlariga o`rtamiyon Yevropacha urg`u bilan divanda bemorni ruhiy tahlilga tayyorlaydigan odamni tasavvur qilishadi yoki filmning ssenariysi ishonchli bo`lsa syujetli aqlni boshqarishni ba`zi shakllarini foydalanishadi. Garchi ularning qolipi ba`zilariniki yolg`on haqiqat ostiga bo`rttirilgan. Balki bu psixologiya fani katta ko`lamli qamrab olar lekin u psixologiya faqatgina psixologlarni o`zini davolay oladiki degan chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Psixologiya qadimgi Yunon yuragidan kelib chiqqan, ruh yoki aql va lohiya o`qimoq yoki tafsilot bermoq degan ma`nolarni anglatadi, bu esa fanning faoliyat doirasi kengligi haqida xulosa beradi. Bugungi kunda bu so`z ilm-fanning aql va hatti-harakatini aniq tasvirlaydi.

Ilm-fan yangiliklari

Psixologiya shuningdek filosofiya va fiziologiya o`rtasidagi ko`prikdir. U nerv sistemasi va miyadagi jismoniy ko`rinishni tasvirlaydi va tushuntiradi. Psixologiya aqliy mehnat jarayonomizdagi hatti-harakat va so`zlashish qobiliyatida sodir bo`ladigan ko`rinishlarni o`rganadi. Qayerda filosofiya g`oyalarimiz va farazlarimiz aloqadordir. Bir-biriga psixologiyada bizga aqlni ishlash qobiliyati haqida va qanday o`qishga ega bo`lishimizni aytadi. Falsafada ham hamma fanlardagi kabi falsafashunoslikka oid savollar ilmiy metodlar bor. Ammo tabiatdagi noaniqliklar fanning ko`pgina tushunchalarni idroki va xotira ma`nolarini anglatadi,psixologlar uni falsafiy nuqta`i nazaridan juda asta sekin taxminiy qarashlar orqali o`rganib yaratilgan.

AQSHning ba`zi bir universitetlarida ayniqsa psixologiya bo`limlarida olib borilayotgan ishlar psixologiya idoralarining o`zlari shaxsiy faoliyatlarini boshlashgan. Huddi Germaniyadagidek ularning bunday idoralar ochishlariga ilm-fandagi qobiliyatlarini 19-asrning oxirlarida ilm-fanda o`zlarining tartib intizomlariga asos solishdi.

Dunyodagi birinchi tajriba o`tkazadigan laborotoriya psixolog Wilyelm Wund tomonidan Leypsig universiteti ko`chasida 1879-yilda psixologiyaning o`rganib chiqilmigan qirralarini ilm-fan nuqtai nazaridan ko`rsatib berdi. 20 asrda psixologiya o`sib bora boshladi. Muhim bo`limlari va harakati rivojlandi. Hamma ilm-fanlar singari uning tarixi teoriyalari asosiga qurilgan va bir avlod uchun bu ochilishlar bilan ko`pgina eski teoriyalarni zamonaviy psixologlar uchun qoldirishdi. Bu sohadagi o`zgarishlar psixologiyaning fan darsliklari bo`lgan.[2] (THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish uchun davlat ta’lim standartlari asosidagi o’zluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish yo’lda keng miqiyosidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ta’limning insoniyligi, milliy mustaqillik prinsiplariga, halqimizning boy ma’naviy va

[2] **THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012**

intellektual merosi, umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlash ruhiga alohida e'tibor berilmoqda. Milliy dasturning strategik maqadlariga erishish yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, yangi o'quv reja va dasturlari, o'quv metodik majmualar, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning, zamonaviy shakl va uslublarini qo'llashning o'rni, ahamiyati kattadir. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning boy milliy tarixiy-madaniy an'analar, urf-odatlari, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Ta'lim-tarbiya va shaxsni har tomonlama kamol toptirish ustivorligini ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida halq ta'limi tizimida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga mos ravishda isloh qilish, shubhasiz, ta'limimizni rivojlangan, demakratik mamlakatlardagi ta'lim tizimi yutuqlari bilan boyitish, uyg'unlashtirish orqali yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarini yuksak darajaga ko'tarish, ularda mustaqillik ruhi, e'tiqod va axloqiy sifatlarni shakllantirishdek ma'suliyatli vazifalarni qo'yadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismida ta'kidlanganidek, shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida e'tirof etilgan.

Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab-ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlar ma'naviyatini boyitish uchun ularning dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi, umuman olganda ongini o'stirish zarur. Buning uchun eksperimental ishlarni kuchaytirishi, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida qayta qurishi lozim. Hozirda Respublikamiz universitetlarining psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalari ilmiy fikrlar markaziga aylantirildi.

Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o'tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, fan sohasida tadqiqotlar shu darajada ko'paydiki, ular ma'lum qonun qoidaga tayanishi lozim. Shu bois olib borilayotgan izlanishlarga asos bo'lishi uchun tamoyillar ishlab chiqildi.

Shunga ko'ra psixologiyaning tamoyillari quyidagicha:

1. Determinizm tamoyili;

2. Ong va faoliyat birligi tamoyili;

3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili.

Tamoyil - ma'lum faoliyatni bajarishda tayaniladigan dastlabki qoidalar tizimidir. **Determinizm tamoyiliga** ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshiham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va faoliyatlarini o'rganish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlar ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vigotskiy ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini, P.P.Blonskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn "Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi" degan edi.

Har bir fanda bo'lganidek, psixologiya fanida ham turli-tuman psixik hodisalarni va har bir shaxsga xos bo'lgan individual xususiyatlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan bir qancha usullar - yo'l-yo'riqlar bor. Bu usullarning mohiyati shu fanning mavzu bahsiga asoslanadi. Psixologiyaning mavzu bahsi harakatdagi materiyaning alohida xususiyati bilan bog'liq bo'lganligi tufayli uning usullari ham o'ziga xos mazmunga egadir. Har qanday usul ma'lum metodologik tamoyillarga asoslanadi.

Psixologiya fani tarixida psixologik hodisalarni o'rganish uchun qo'llanilgan birinchi usul o'z-o'zini kuzatish usulidir. Bu usul psixologiya fani tarixida "introspeksiya", ya'ni ichdan kuzatish, ko'rish deb yuritilgan.

Shunday ekan, o’z-o’zini kuzatish usulidan foydalanish kerakmi, yo’qmi. Albatta kerak. Chunki psixologik tadqiqotlarda o’z-o’zini kuzatish bilan bog’liq hollar juda ko’p.Subyektiv usulsiz istagan shaxsning psixologik sifatlarini to’liq o’rganib bo’lmaydi. Bu usulsiz tibbiyotda bemorni davolash mumkin emas. Shuning uchun kuzatish usuli psixologiya fani uchun juda zarurdir. Lekin o’z-o’zini kuzatishning salbiy tomonlari ham bor. Bu usul bilan tadqiqot olib borganda har bir shaxs o’z manfaati yuzasidan subyektiv xulosa chiqarishi, o’z shaxsidagi ayrim salbiy sifatlarni boshqarishda ham mavjud deb hisoblashi, buning natijasida boshqalar haqida noto’g’ri xulosa chiqarishi mumkin.

Kuzatish metodi qadimgi empirik metodlar guruhiga mansub bo’lib, unda hozirgi kunda sifat jihatidan katta o’zgarishlar yuz berdi. Uning obyekti ko’lami kengaydi, murakkab jarayonlarni o’rganish imkoniyati tug’ildi. Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, shakli va vositalari ko’paydi, obyektivlik darajasi ortdi. Kuzatish psixologiya fanining barcha sohalarini universal tadqiq qilish metodiga aylanib qoldi. Shu boisdan bugungi kunda uning ahamiyati yangi bir yuksak darajaga ko’tarildi. Tatbiqiylik ko’lami yanada kengaydi, statistik metodlarga moslashuvchanligi bilan boshqa tadqiqot metodlaridan ajralib turadi.

Yo’qoridagi mulohazalarga asoslangan holda uning yoritilmay qolgan jihatlari to’g’risida mulohaza yuritamiz.

Kuzatish texnikasi.

1. Voqyelikni kuzatish oqimini muayyan qismlarga ajratish (klasifikatsiyalash).
2. Kuzatishning ko’lami va xarakterini aniqlash.
3. Kuzatishni qayd qilish (fiksatsiyalash).
4. Olingan natijalarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish.

Kuzatish obyekti va predmeti.

1. Kuzatishning obyekti – inson, guruhiy va jamoaviy munosabatlar, obyektiv va subyektiv kechinmalar, hayvonot olami, shaxs faoliyati kabilarni o’rganishdan iboratdir.
2. Kuzatishning predmeti – insonning holati, uning harakat te’zligi, harakatning kuchi, hamkorlik harakati, odamning ongsiz, ongosti va ongli holatlari (faoliyat, muloqot)ni eksteriorizatsiyalashdan iboratdir. Bunda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

A) amaliy va gnostik harakat;

B) nutq aktlari, ma’nosi, mazmuni, mohiyati, yo’nalishi, chastotasi, ritmi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi va fonetik qurilishi;

V) mimika, imo-ishora, pantamimika, vokal mimikasi;

G) vegetativ reaksiyalarning ayrim ko’rinishlari (qizarishi, terlash, oharish, nafas olishning tezlashuvi va qiyinlashuvi)

Kuzatish iyerarxiyasi

1. Kuzatishning maqsadi
2. Kuzatishning vazifalari
3. Kuzatishning dasturi
4. Kuzatish fiksatsiyasi.

Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

a) umumiy talablarga rioya qilish;

B) yaxlit qayd qilib borish;

V) kundalik;

G) texnik vositalardan foydalanish.

Kuzatishning ifodalanishi

1.Olingan ma’lumotlarning alomat va belgilar orqali ifodalanishi (piktogramma, grafiksxema).

2.Standart protokollarning aks ettirilishi.

Kuzatish turlari

1. Sistematik
2. Epizodik
3. Dala sharoitida
4. Labaratoriya sharoiti
5. Tabiiy sharoitda

6. Xronologik
7. Davriy
8. Bir martalik

Mehnat faoliyatini kuzatish

1. F. Gil'bertning ish kuni fotografiyasi metodikasi (harakatni taxlil qilish)
2. A. F. Gostevning xronokartasi (2 yoki 3 marta 30 minutdan smenadan keyin talabalarda dars boshida o'rtasida darsdan keyin).

Kuzatish formalari

1. Aralashib yashirin kuzatish
2.Psixologik portret
3. Ochiq aralashib kuzatish(o'smirlarda)
4. Xulq portreti

Kuzatishni qayd qilish turlari

1.Kundalik
2.Ta'kidlovchi
3.Umumlashtiruvchi
4.Faktik (foto video magnit lentasi)

Kuzatish natijalarini qayta ishlash

1.Sifat tahlili
2.Miqdoriy tahlil

Kuzatishhisobotini jihozlash

1.Kirish (muqaddima)
2.Metodika tavsifi
3.Natijalarni tartibga keltirish
4.Natijalarning muhokamasi va tahlili
5.Xulosalar
6.Tavsiyalar
7. Adabiytlar ro'yxati
8.Ilovalar

Konfliktliholatini aniqlash

1.Nizo (konflikt) mohiyatiga kirish
2.Nizoning kuchayishi
3.Nizoning yechilishi
4.Nizodan keyingi psixologik holat

Kuzatish yakuni

1. Umumpsixologik xulosalar chiqarish
2. Milliy etnopsixologik va regional xususiyatlarni sharhlash

Psixologik tadqiqotlarning asosiy mahsuldor usuli eksperiment (tajriba) usulidir. Bu usulning asosiy usul sifatida keng qo'llanilishiga sabab shuki, bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixologik hodisa laboratoriya sharoitida istagan vaqtda vujudga keltiriladi va u zamonaviy asboblar yordamida mukammal o'rganiladi.

Psixologiya fanida eksperiment usulining ikki turi bor;

a) laboratoriya eksperimenti;

b) tabiiy eksperiment.

Eksperiment usulining bu ikki turi psixologiya fani sohalarining hammasi uchun baravar qo'llaniladi. Laboratoriya eksperimentining o'ziga xos ustunligi shundaki, u eksperimentator (tajriba o'tkazuvchi) ga alohida qulayliklar beradi. Eksperimentator o'rganilishi lozim bo'lgan psixologik hodisani istalgan vaqtda vujudga keltiradi va unga sarflanadigan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Laboratoriya eksperimentining ayniqsa; psixik holatlarning fiziologik asoslarini o'rganishdagi imkoniyati kattadir. Shunday qilib, laboratoriya eksperimenti psixologiya fanining eng mahsuldor usuli sifatida ahamiyatga egadir.

2.2.Yordamchi metodlar (test, anketa, suhbat, biografiya)
Psixologiyaning evolyutsiyasi

Ma’lumotlarni tahlil qilishning korrelyatsion metodi bizga munosabatning ta’sirlari va sabablari taklif qilmaydi. Uning o’rniga esa munosabatlar bilan narsalar orasida bir yoki boshqa o’zgaruvchilar tomonidan sabab bo’ladi.

Psixologiyani baholash

Psixologiyaning bu bosqichida, tadqiqotlar va nazariyalar qat’iy baholanadi. Insonlarning o’zini tutishi haqidagi xulosa va topilmalar asosida rost va yolg’on dalillar bo’lishi mumkin. Psixologiyani baholashning AS bosqichida mnemonic PERVED tomonidan eslanganlar o’rganiladi.

Amaliy – bu o’qish qanday rejalashtirilganligini anglatadi. U o’z ichiga:

1. Ko’rsatmalar bo’yicha amaliyot tushunish qiyinmi?
2. Har bir sinovchi noto’g’ri fikrlaydi, chunki biror narsa sodir bo’lganga o’xshaydimi.
3. Har bir qatnashchi uchun o’qish aniq bir yo’lni belgilab beradi?

Etika – o’qish qatnashchilarni himoyalaydimi?

1. Rozilik haqida bildiradi.
2. O’qish davomida aldovlarsiz o’qish
3. Ruhiy va jismoniy zarardan himoyalash.
4. Qatnashchilarning shaxsiyati ishonchli saqlanadi.
5. Har qanday payti o’qishdan tiyadi.

Ishonchlilik – agar o’qish avval qilingan aniq bir yo’l bo’yicha takrorlansa, natijalar bir xil bo’lishini ko’rsatadi. Bu bazida baholashning doimiyligi deb ham qaraladi, o’z ichiga:

1. Tekshirilib boshqarilmaydigan hamma narsa o’zgaradi, chunki u hamma borku?
2. Hamma sinovchilar bir xil raqsda yozib olinsa, bir xil natija ko’rsatishadimi.

Yaroqlilik – bu maqsadni baholash o’qishni obyektiv baholash degani. O’z ichiga:

1. Baholash ilmiymi
2. O’qish nimaga sodir bo’lishini tushuntirib beroladi.
3. Natijalar boshqa o’qish natijalarini solishtirib ko’riladimi.

Ekologik. Yaroqlilik – realistr o’qishni anglatadi.

1. Realistic vaziyatni
2. Realistic topshiriqlarini
3. Aholining ma’lum qismini o’z ichiga oladimi.

To’plangan ma’lumotlar – ma’lumotlar nima uchun to’planganligini anglatadi. U sifat yoki miqdorda bo’ladi. Hamma ma’lumotlarda 2 ta xislat ham bor.

Psixologik muzokara

Har tomonlama psixologiyada nima uchun izlanishlar olib borilishidagi asosiy sabablarga katta savollar qo'yadi. Bu degani argument yoki boshqa narsalardan dalillarday foydalanadigan turli xil izlanishlar yetishilgan muzokara hisoblanadi.

Asosiy muzokara: ilmiy psixologiya, psixologik izlanishning foydaliligi, erkin qaror aniqlikka qarshi, tabiat himoyaga qarshi, individuallik. Situatsiyaga qarshi. Ilmiy psixologik muzokaralar psixologlar foydalanadigan xarakterlarni tur xil usulda hal qilishadi. Ba'zi birlari tomondan psixologlar xarakterni fakt va dalil bilan yaratishni xoxlashadi. Boshqa tomondan esa xarakterni mulohazalash yoki jarayonni tasvirlashni hohlashadi. Psixologiya uchun ilmiylik, obyektiv va subyektivlik metodlari bilan, agar xato bo'lsa tekshirilgan bo'lishi kerak. Erkin hohish insonlarga nimani o'ylagan bo'lsa yoki o'zini tutishni imkonini beradi.

Psixologik hodisalarni tadqiq etish uchun qo'llaniladigan usullardan yana biri suhbat yoki savol-javob usulidir. Bu usulning kuzatish usuliga nisbatan afzalligi shundaki, bunda tadqiqotchi va o'rganiluvchi o'rtasida bevosita aloqa, muloqot mavjud bo'ladi. Suhbat jarayonida shaxsning turmush voqyealariga, boshqa odamlarga va uning hatti-harakatlariga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan psixologik sifatlari o'rganiladi.

Suhbat usulining tadqiqotchi zimmasiga yuklaydigan mas'uliyatli tomoni shundaki, tadqiqotchi birinchi navbatda o'rganilayotgan shaxsning tushuncha doirasini, turmush tajribasini va individual sifatlarini aniqlashi kerak. Bundan tashqari, suhbat usulining muvaffaqiyati uchun tadqiqotchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir;

a) tadqiqotchi va o'rganiluvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni o'zaro ishonch, xayrixohlik va samimiylikka asoslanishi;

b) suhbat jarayonining tabiiy, jonli va bamaylixotirlik sharoitida o'tishi;

v) suhbat jarayoniga tadqiqotchining puxta tayyorlanishi, uning maqsadini olinadigan xulosalarni to'g'ri tasavvur qilishi, suhbatni aniq vaqtga mo'ljallangan qat'iy reja asosida o'tkazishi, tuzilgan savollarning aniq, puxta va tushunarli bo'lishi va h.k. Demak, suhbat usuli yordamida psixologik hodisalarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun tadqiqotchi bu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rgan va avvaldan o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan bo'lishi kerak.

Psixologik hodisalarni o'rganish uchun qo'llaniladigan usullardan biri a n k e t a usulidir. Bu usul psixologiya fani sohalarining deyarlik hammasida keng qo'llaniladi. Anketa usulining o'ziga xos afzal tomoni shundaki, bir vaqtning o'zida bir qancha odamlarni, guruh yoki jamoani ham o'rganish mumkin. Bunda anketa varahalariga o'rganuvchi tomonidan avvaldan tayyorlangan savollar yoziladi va o'rganiluvchilarga tarqatiladi. Ular o'rganuvchi tomonidan belglangan muddatda bu savollarga yozma javob qaytaradilar. Tadqiqotchi bu javoblarni tahlil qilib, har bir shaxsdagi, guruh yoki jamoadagi o'rganilishi lozim bo'lgan psixologik hodisaning darajasini aniqlaydi.

Odamning psixologik sifatlarini o'rganish uchun qo'llaniladigan yana bir usul faoliyat mahsullarini tahlil etish usulidir. Ma'lumki, shaxs hamma vaqt ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanadi. Har bir faoliyat o'z mahsuliga ega bo'ladi. Ana shu faoliyat tufayli yuzaga keladigan mahsulda shaxsning psixologik sifatlari o'z aksini topadi. Shuning uchun har bir odamning (u qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar) faoliyati mahsuli shu odamga xos bo'lgan bir qancha psixologik sifatlarni anglatadi. Masalan, talaba tomonidan yozilgan she'rning mazmuni o'sha talabaning ijodiy qobiliyatini, mehnatsevarligini, tafakkurini, irodaviy sifatlari kabilarni bilishga imkon beradi, undagi mustaqillik va yaratuvchilikka intilishni ko'rsatib turadi. Shuning uchun psixologiya fanida odamni faoliyati mahsullarini tahlil etish usulidan yordamchi usul sifatida foydalaniladi.

Psixologik hodisalarni o'rganish uchun qo'llaniladigan yordamchi usullardan biri biografiya usulidir. Bu usuldan shaxsga xos ayrim psixologik sifatlarni o'rganish uchun foydalaniladi. Ma'lumki, har bir odam o'zining biografik ma'lumotlariga ega bo'ladi. Bu ma'lumotlar shaxsning yoshini, oilaviy muhitini, geografik sharoitini, ulg'ayish jarayonini, uning kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, biografik ma'lumotlarda shaxsning g'oyaviy yo'nalishi, dunyoqarashi, ishonch-e'tidoqi, axloqiy olami, ijtimoiy burchiga sadoqati, maslak va maqsadi ham aks etgan bo'ladiki, bularning barchasi uning psixologik dunyosini bilishga asos bo'ladi.

Shaxsga xos psixologik sifatlarning turli tomonlarini tadqiq etishda psixologiya fanida test usulidan ham foydalaniladi (test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish ma'nolarini anglatadi). Test

usuli psixologiyada faqat ilmiy tadqiqot emas, balki sinab ko'rish, u yoki bu psixologik sifatlarning darajasini aniqlash uchun ham ishlatiladi. Test usuli yordamida qisqa vaqt ichida shaxsda ayrim psixologik funksiyalarning, qobiliyat, malaka va uquvlarning qay darajada takomillashgani aniqlanadi, odamdagi ayrim sifatlarga aniq tavsif berilib, uning ma'lum sohasiga, kasbiga layoqati sinaladi.

Test usuli yordamida psixologik hodisalarni texnik vositalarsiz qisqa muddat davomida standartlashtirilgan holda tekshiriladi va aniqlangan xulosalarni matematik yo'l bilan hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Ba'zi testlar diagnostik xarakterga ega bo'ladi. Diagnostik testlarning qimmati testlarning mazmunan qanday tuzilganiga bog'liq bo'ladi. Masalan, talabaning fizikaga, matematikaga, adabiyotga yoki fanning boshqa sohalariga nisbatan bo'lgan qobiliyatiga diagnoz qo'yish testlari va h.k. Hozirgi kunda psixologik tadqiqotlar olib borishda ilmiy asosda tuzilgan testlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. So'nggi yillarda fan sohalarining ayniqsa, texnika fanlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida psixologiyada yangi usul - modellashtirish usuli yuzaga keldi. Model o'rganilishi lozim bo'lgan psixologik hodisaning yasama andozasi hisoblanadi. Modellashtirish usulining o'ziga xosligi shundaki, bu usul yordamida ayrim psixologik jarayonlar bevosita o'rganiladi. Lekin, psixik jarayonning (ko'rish, eshitish, hid bilish va h.k.) modelini yuzaga keltirish uchun shu psixik jarayonni mukammal bilish zarur. Shuning uchun modelning mukammal bo'lishi o'rganilayotgan psixik hodisaga doir bilim darajasiga bog'liq bo'ladi. Ammo, model psixik jarayonning o'zi bo'la olmaydi. Modelda psixik hodisa soddalashtiriladi. Bu esa modelning yanglishligiga, psixologik hodisaning noto'g'ri o'rganilishiga olib kelishi mumkin. Umuman, modellashtirish usuli orqali turli psixologik sifatlarni (sezgi, idrok, xotira va h.k.) o'rganish mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi usullar bilan psixologik tadqikot olib borilganda, avvalo tadqiqot jarayoniga tayyorgarlik ko'riladi, so'ngra eksperiment bosqichiga o'tiladi (tajriba jarayoni), undan so'ng tadqiqot jarayonida olingan ma'umotlar ilmiy tahlil etiladi va nihoyat, tahlil tufayli aniqlangan xulosalar psixologik nazariya asosida izohlanadi va tadqiqot taxminining to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi

2.3. Hozirgi zamon psixologiyasining tarmoqlari.

Respublikamizda demokratlashuv jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati odamlar ma'naviyatidagi tub o'zgarishlarga bog'liq. Odamlar kundalik hayotdagi ikir-chikirlarni qanchalik tez va to'g'ri idrok qilsalar, jamiyatimizning ma'naviy muhiti shuncha tez rivoj topadi va yuksaladi. Turmushning shu talabiga asoslangan holda psixologiya fanida turli tarmoqlarga bo'linish yuzaga keldi. Buning natijasida umumiy psixologiyadan dastavval bolalar psixologiyasi, medisina psixologiyasi, san'at psixologiyasi kabi sohalar ajralib chiqdi. Keyinchalik obyektiv zaruriyatga asoslangan holda bu ajralish yanada jadallashdi. Psixologiya fani oldiga hayot va turmush tomonidan yangi-yangi vazifalar qo'yila boshladi. Bu yangi vazifalar, birinchidan, respublikamizda yuzaga kelgan yangi ijtimoiy muhit, mustaqillik sharoiti tufayli bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimiz halqlari ongidagi sifatiy o'zgarishlar istiqlol mafkurasi tufayli sodir bo'ldi. Bu ikki hol insoniyat tarixida yangi mazmundagi o'zaro munosabatlarni va yangicha faoliyat formalarini vujudga keltirdi.

Mustaqillik tufayli jamiyat hayotida yuz bergan o'zgarishlar natijasida psixologiya fanining yangi zamonaviy tarmoqlari yuzaga keldi. Bu yangi tarmoqlar jumlasiga boshqarish psixologiyasi, aviasiya psixologiyasi, kosmik psixologiya, fermer psixologiyasi, mulkdor psixologiyasi, tijorat psixologiyasi va h.k.lar kiradi. Shuni aytish kerakki, bu tarmoqlar orasida endigina shaklllanayotgan, bugunning dolzarb muammolarini yechishda nazariy va amaliy ahamiyati katta bo'lgan sohalar ham bor. Fermer psixologiyasi, mulkdor psixologiyasi, rahbar psixologiyasi kabilar shular jumlasidandir.

Hozirgi zamon psixologiyasining turli tarmoqlarga bo'linishi psixologiya faniga boshqa fanlarning ko'rsatayotgan faol ta'siriga ham bog'liqdir. Masalan, falsafa, iqtisod nazariyasi, fizika, matematika, biologiya, adabiyot fanlarining rivojlanishi davomida o'z mohiyati jihatidan psixologik muammolar tug'iladi. Bu muammolar shu fanlarning uslublari asosida o'rganiladi. Ayrim hollarda esa, bunday muammolarni hal etishda psixologik uslublarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Buning oqibatida hozirgi zamon psixologiyasida tobora yangi-yangi sohalar va yo'nalishlar yuzaga kelmoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasida turli sohalarning yuzaga kelishi jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan murakkab o'zgarishlar bilan bog'liq. Chunki psixologiya fanining obyekti odamdir.

Odamni o'rganishning zarurligi shundaki, u jamiyat ishlab chiqarishning asosiy elementi, ijtimoiy munosabatlarning subyektidir. Odamning tashqi muhit bilan munosabatlariga bog'liq holda unda turli-tuman fazilatlar namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasi shakllanishining turli bosqichlarida va amaliyotning har xil sohalari bilan bog'liq ilmiy fanlarning juda ham keng tarmoqli tizimi tashkil etadi.

Psixologiya tarmoqlarini tasnif qilish uchun quyidagi psixologik jihatlar asos qilib olinadi: 1. Konkret faoliyat; 2. Rivojlanish; 3. Odamning jamiyatga, o'zi yashayotgan muhitga munosabatlari.

Hozirgi zamon psixologiyasi tarmoqlarini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari-umumiy psixologiya, zoopsixologiya.

2. Kishilarga ta'sir etish, ularga ta'lim va tarbiya berish, psixik rivojlanishni boshqarish, ya'ni psixik taraqqiyot sharoitlarini o'rganadigan soha psixologiyasi (yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya) 3. Har turli faoliyat sohalaridagi kishilar psixikasini o'rganuvchi psixologiya-mehnat psixologiyasi, muxan-dislik psixologiyasi, sport psixologiyasi, yuridik psixologiya, savdo psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, san'at psixologiyasi va h.

Quyida psixologiya fani uchun nazariy asos rolini o'ynovchi umumiy psixologiya o'rganuvchi sohalar haqida to'xtalib o'tamiz.

Umumiy psixologiya - psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;

*I. Mehnat psixologiyasi.*Bu inson mehnat faoliyatining psixologik asoslarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

Mehnat psixologiyasi ma'lum darajada mustaqil bo'lgan, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'langan turlarga bo'linadi:

1) Injenerlar psixologiyasi
2) Aviasiya psixologiyasi.
3) Kosmik psixologiya.

II. Pedagogik psixologiya. Bu ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi:

1) Ta'lim psixologiyasi.(didaktika va xususiy metodikalarning psixologik asoslari, programmalashtirilgan ta'lim va aqliy faoliyatlarning shakllanishi va boshqalar).

2) Tarbiya psixologiyasi. (tarbiya metodikasining psixologik asoslari, o'quvchilar jamoasi psixologiyasi, mehnat – axloq tuzatish pedagogikasining psixologik asoslari).

3) O'qituvchipsixologiyasi.

4) Aqli zaif bolalar tarbiyasi psixologiyasi.

*III. Meditsina psixologiyasi.*Bu shifokor faoliyatining psixologik tomonlarini va kasal xulqini o'rganadigan fandir. Bufanhamo'znavbatidaquyidagilargabo'linadi:

1) Neyropsixologiya – bu bosh miya nervlari faoliyati asosida vujudga keladigan psixologik holatlarni o'rganadi.

2) Psixofarmakologiya. – bu turli dorilarning inson psixik faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.

3) Psixoterapeya – bu kasallarni davolashda psixologik ta'sir qilishdan foydalanish yo'llarini o'rganadi.

4) Psixoprofilaktika va psixogigiyena – bu kishilarni psixik tomondan sog'lom bo'lishini ta'minlashga oid tadbirlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

*IV. Yuridik psixologiya.*Bu o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

1) Sud psixologiyasi.
2) Kriminal psixologiya.
3) Mehnat – tuzatish psixologiyasi.

V. Harbiy psixologiya.

VI. Sport psixologiyasi.

VII. Savdo psixologiyasi.

Bordiyu, psixologiya sohalarini klassifikasiya qilishda psixikaning rivojlanishini asos qilib olsak, unda psixologiyaning yana quyidagi sohalari mavjudligini ko'ramiz:

1. Yosh psixologiyasi. Bu o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

a) bolalar psixologiyasi.

b) o'smirlar psixologiyasi.

v) yoshlar psixologiyasi.

g) katta kishilar psixologiyasi.

d) gerantopsixologiya. (qarilar psixologiyasi).

2. Maxsus psixologiya.

a) patopsixologiya – miyaning o'sish davrida kasallanishi tufayli psixikada yuz beradigan o'zgarishlarni o'rganadi.

b) olegofrenopsixologiya – bu miyasida tug'ma kamchiligi bor bolalar psixikasining o'sish masalalari bilan shug'ullanadi.

v) surdopsixologiya– karlarning psixik taraqqiyotini o'rganadi.

g) tiflopsixologiya – ko'rlar va ko'rish qobiliyati pastlarning psixologik taraqqiyotini o'rganadi.

3. Solishtirma psixologiya– bu hayvonlar psixikasi bilan inson psixikasini taqqoslab o'rganadigan fandir. Uning tarmog'i zoopsixologiyadir.

4. Ijtimoiy psixologiya. Ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi fan sifatida rivojlanishida 1920-1930 yillarda yashab o'tgan aka-uka Olport Floyd va Gordanlar katta hissa qo'shgan. Shunisi ajablanarliki, keyingi 10 yillar davomida bu fan ikki tarmoqqa ajralib ketdi. Ijtimoiy psixologiya mutaxassislari umumiy insonlarni o'rganishga va insonlarning o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlarni, faoliyatlarini o'rgana boshladi. Shaxs psixologiyasi esa insonlarning bir-biridan individual farqlari, ruhiy jarayonlarni diagnostika qilish usullarini o'rgana boshladi. Bu bo'lim ma'lum bir ma'noda ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasidagi aniqlanmagan taxminlarni o'rnini asta-sekin asosiy tamoyillar, xulosalar va boshqa usullarning individual farqlarni egallashi amaliyotchi psixologlarga qulaylik tug'dirdi.

Taniqli ijtimoiy psixologi Roger Brovn o'z xotiralarida 2 an'analar orasidagi noqulay to'qnashuvlarni shunday eslaydi: Psixolog sifatida men yillar davomida shaxs individual xususiyatlari bo'rttirib ko'rsatiladi deb o'ylardim. Men qachonlardir, Garvard universiteti shaxsshunosi Genri Murreyga: "Men o'ylaymanki, odamlar hammasi bir xil." Murrey javob berdi: "Eh seni! Lekin sen axmoq bilmaysanki, nima deyapsan." Men bu ma'noda aytmoqchi emasdim.(Brovn 1996 y 169 bet) Bu kichik fikr almashish noto'g'ri tarixiy haqiqatni ko'rsatadiki, taxminan o'sha vaqtlarda ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq, xuddi ota-onaning egizak farzandlaridek, yonma-yon chegaradosh fanlar sifatida ular bir narsani ikki tomondan to'ldirib, o'rganishadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, bu ikki soha ajralmas bo'lib, bir-birini to'ldiradi, taklif beradi, uslubiy yordam beradi va yondashuvlarni izohlab beradi. Mening fikrimcha, bu ikki yo'nalish ijtimoiy va shaxs psixologiyasidagi asosiy o'zgarishlarni o'rganadi. Bir tomondan ijtimoiy psixologiyaning an'anaviy usullaridan ыandaydir vaziyatlarda, o'zgargan sharoitlarda odamlarga ta'sir ko'rsatish uchun foydalanib kelmoqda. Boshqa tomondan an'anaviy metodlar shaxs psixologiyasining turli jihatlarini baholash uchun ishlatiladi. Turli vaziyatlarda ijtimoiy –psixologik tadqiqotlar yordamida shaxslararo munosabatlarda aniqlangan nizolar, o'n yillar davomida kuchli ta'sir ostida psixologik adabiyotlarda muhim mavzu sifatida o'rganib kelingan. Aslida ikkala sohadagi eng yaxshi mavjud dalillarning bo'lishi, shaxslarga bir xil yuqori darajada ta'sir o'tkazishni ta'minlaydi. (Richard Bond, Stokes-Zoota, 2003) Lekin bu bizni tariximizda tez rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy hayotda oddiy kuzatish (a) odamlarni turli vaziyatlarda turli xil narsalarni (b), hatto har xil vaziyatlarda turli xil odamlar bir xil narsalarga ishonch hosil qilishadi.

Bu ikki xil xulosa odamlarni shaxs va ijtimoiy psixologiyada bir-birlarini to'liq tushunishi va xabardor bo'lishini ta'minlash uchun yetarli bo'ladi. Ushbu bobning maqsadi shundan iboratki, ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi o'rtasida aloqadorlikni tiklash uchun yordam beradi. Bu bob olti qismdan iborat. Birinchi uch qism shaxs psixologiyasining asosiy tuzilishini ta'minlash va ba'zi zamonaviy tadqiqotlarni ko'rib chiqadi. I qism shu sohalarni o'rganadi. II qism shaxsni o'rganishda asosiy konsepsiyalar va nazariy yondashuvlarni tahlil qiladi. Fikrimizcha, bu bosqich shaxsga har tomonlama yondashadigan emperik fanlardan bo'lib, insonning xulqi unga beriladigan ijtimoiy bahoga bog'liq deb qabul qiladi. Bu bog'liqlik shaxs psixologiyasi markaziga chiziqli

yondashuvni qo'yadi. III qismtadqiqotchilari shuni muhokama qiladiki, shaxs xulqini baholash uchun ishlatiladigan metodlarni tahlil qiladi. Ular kengroq doirada shaxs xulqini o'lchovini kuzatadigan, o'z-o'zini nazorat qilishni taniqli va ijodiy metodlarini muhokama qiladi. Oxirgi uch qismda, so'ngi 40 yil mobaynida ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni o'z ichiga oladi. IV qism ijtimoiy va shaxs psixologiyasi kesishuvini ifodalaydi. Bu bob insonning hissiyotlari va shaxsini aniq baholashga yo'naltirilgan. V qism shaxs va ijtimoiy psixologiya o'rtasidagi omadsiz rivojlanish davrini tasvirlaydi. VI qism shu sohalarni birlashtirish taklifi bilan chiqib, raqobatdan ko'ra ko'proq hamkorlikka qaratilgan.[3]

5. Din psixologiyasi ham bugungi kunda psixologiyaning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda.Ana shundan kelib chiqib, ayni paytda Toshkent Islom universitetida dinshunos va psixolog yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

6. Shaxs psixologiyasi. Buning vazifasi shaxsning individual – psixologik xususiyatlari: xarakteri, oliy nerv faoliyati tipi va temperamenti, qobiliyatlari, xulqining bosh motivlari, kasbga qobiliyati va ko'nikmalari kabilarni o'rganishdir.Uning bo'limlariga:

a) Xarakterologiya.

b)Individual psixologik farqlar tipologiyasi.

v) Professiografiya (kasbga bo'lgan qobiliyati va ma'lum bir kasbga yaroqli ekanligini o'rganadigan fandir).

Endi psixologiyaning tarmoqlaridan ba'zilariga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

Bolalar psixologiyasi- bu tarmoq bolaning tug'ilishidan boshlab maktab yoshigacha bo'lgan davrda psixik jihatdan rivojlanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasini o'rganishning hozirgi kundagi ahamiyati juda katta. Chunki bolalar psixik taraqqiyoti o'ziga xos qonuniyatlarga asoslangandir. Shuningdek, bolalar asosan o'yin faoliyati jarayonida psixik jihatdan rivojlanadi. Shu narsa ham e'tiborga loyiqki, kichik yoshdagi bolalarning shaxsiy xususiyatlari va insoniy fazilatlari hali tarkib topmagan bo'ladi. Buning natijasida ular idrok qilayotgan narsalarning mazmunini o'zlaricha tahlil qilib, to'g'ri tushuna olmaydilar.

Umumiy psixologiyadan ajralib chiqqan yirik hajmdagi mustaqil sohalardan biri pedagogik psixologiyadir.Pedagogik psixologiya turli yoshdagi o'quvchilarning ta'lim va tarbiya jarayonida psixologik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini, maktab o'quv fanlarining ilmiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirish yo'llarni, o'quvchilarning bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirishining psixologik asoslarini o'rganadi. Bundan tashqari, pedagogik psixologiya o'quvchilarning psixik taraqqiyoti bilan maktab ta'limi va tarbiyasi o'rtasidagi munosabatni, ta'lim va tarbiya jarayoni mahsuldorligini oshirish usullarini asoslash yo'llarini tadqiq etish mavzusini ham o'zichiga oladi.

Psixologiya fanlari tizimidagi muhim sohalardan biri m e h n a t psixologiyasidir. Hozirgi vaqtda mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish ishlab chiqaruvchilarning psixo-fiziologik imkoniyatlarini aniq bilishni taqozo etadi. Bu talab tufayli mehnat psixologiyasi alohida tarmoq sifatida shakllanadi.

Psixologiya fanlari tizimida mehnat psixologiyasiga juda yaqin bo'lgan tarmoq i n j e n e r l i k psixologiyasidir. Injenerlik psixologiyasi ishlab chiqarish jarayonida odam va mashina o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Hozirgi zamon avtomatlashtirilgan texnika inshootlarini boshqarishda inson psixik faoliyatining yuqori imkoniyatlarini aniq bilish zarur. Bunda odamlarning sezgilari, idroki, diqqati, tafakkuri, hissiyoti, xayoli, irodasi kabi psixik sifatlarining qudrati g'oyat katta rol o'ynaydi.

Mustaqillik va jamiyatning demokratlashuvi sharoitida muhimi lmiy va amaliy ahamiyatga molik soha ijtimoiy psixologiyadir.Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, inson shaxsining tarkib topish qonuniyatlari, shaxsning psixologik tuzilishi, ijtimoiy muhit va shaxs, guruh, jamoa, jamiyatlar aro munosabatlarning ko'rinishlari, guruhga xos bo'lgan ijtimoiy psixologik muammolar, ilmiy psixologiya masalalari, ommaviy aloqa, ommaviy axborot, odamning odam tomonidan idrok qilinishi odamlararo o'zaro ta'sir, bu ta'sirning manbalari, turlari, odamning o'z-o'zini anglashi, o'ziga baho berishi, jamoada normal psixologik iqlimni ta'minlash yo'llari, rahbar psixologiyasi, rahbar shaxsining

[3] ***Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA 2-5st***

namunaviy mohiyati va olomon psixologiyasi kabi psixologik hollar bugungi ijtimoiy psixologiyaning dolzarb muammolaridir.

Huquq tizimini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan psixologik muammolarni o'rganuvchi soha huquq psixologiyasidir. Huquq psixologiyasi ham o'z navbatida bir qancha qismlardan iborat; jinoyatni ochish jarayonida qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorida sodir bo'luvchi psixologik holatlarni (guvoh psixologiyasi, ayblanuvchi psixologiyasi, so'roq jarayoni psixologiyasi) o'rganuvchi sud psixologiyasi, jinoyatchi shaxsining tarkib topishi, jinoyatchining xulq-atvori, jinoyatning kelib chiqish sabablari va uning oldini olish yo'llarni o'rganuvchi kriminal psixologiya axloq to'zatish, qamalganlar psixologik holatlari bilan shug'ullanuvchi axloq to'zatish mehnati psixologiyasi kabilar shular jumlasidandir.

Jangovar harakatlar sharoitida odamning murakkab kechinmalarini, xulq-atvorini, zobitlar va ularga itoat qiluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik asoslarini, jangchilarning harbiy texnikani boshqarishdagi malaka va ko'nikmalarini hamda harbiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullaridan unumli foydalanish yo'llarini harbiy psixologiya o'rganadi.

Sport psixologiyasining mavzu bahsi sportchilar shaxsi va faoliyatining psixologik xususiyatlarini ularni psixologik jihatdan tayyorlashning shart-sharoitlari va vositalarini, sportchilarning qanchalik mashq qilganliklari va o'zlarini safarbar qilishga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi psixologik o'lchovlarni, sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan sharoitlarni hamda fizkultura va sport ta'limining psixologik asoslarini va yoshlarda sport malakalarini egallash qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Psixologiya tarmoqlari orasida s a n ' a t psixologiyasining alohida ahamiyati bor. Bu soha shaxsning san'atga munosabat yo'llarini, san'at asarlarini to'g'ri idrok qilish qonuniyatlarini, san'at asarlaridan turlicha zavq-shavq olish sabablarini hamda san'at asarlari ta'sirida odamda turli kechinmalarning manbalarini o'rganadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chet ellar bilan savdo-sotiq ishlari keng yo'lga qo'yilyapti. Qo'shma korxonalar hayotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda jonbozlik ko'rsata boshladi. Buning natijasida psixologiya fanlari tizimida savdo psixologiyasiga ehtiyoj vujudga keldi. Savdo psixologiyasi savdo xodimi va haridor o'rtasidagi munosabatning psixologik asoslarini, haridorga madaniy xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini, oluvchi va sotuvchining yosh va individual xususiyatlarini, modalar va reklamalar ta'sirining psixologik sharoitlari mavzusida bahs etadi.

Hozirgi psixologiyaning nisbatan yangi sohalaridan biri k o s m i k psixologiyadir. Kosmik psixologiyaning mavzu bahsi kosmonavtlarni parvozga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularning start, uchish va qo'nish vaqtlaridagi psixologik kechinmalarini o'rganishdan iboratdir. Psixik hayotning nasliy formalarini, odam psixikasining hayvonlar psixikasidan sifat jihatdan, odamga va turli hayvonlarga xos harakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini q i yo s i y psixologiya o'rganadi. Qiyosiy psixologiyaning maxsus bo'limi z o o p s i x o l o g i ya bo'lib, turli hayvonlarga xos psixik holatlarni, hatti-harakat formalarini o'rganadi. Zoopsixologiyaning bir sohasi sifatida etologiya hayvonlar harakatlarining tug'ma mexanizmlarini kashf etish bilan shug'ullanadi.

Kasb psixologiyasining predmeti – shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari hamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqqan holda kasb psixologiyasi – bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarni, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining sohalaridan biridir, – deb aytish mumkin.

Psixologiyaning alohida *tarmoqlarini* differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib, psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin.

Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, psixologiyani inson faoliyatining konkret turiga qarab klassifikasiya qiladigan bo'lsak, uning bir qancha tarmoqlari borligini ko'ramiz. (1-jadval)

1-jadval.AQSh va RF dagi ayrim psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi

Muhandis-psixolog *Odam-texnika tizimidagi o'zaro munosabatlar xususida bilimlarga ega bo'lib, texnik moslamalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi*	*Muhandis-psixolog.Odam va texnika o'zaro munosabatlariga oid psixologik muammolar bilan shug'ullanadi*
Maslahatchi-psixolog. *Shaxsiy muammolarni hal qilish yuzasidan tavsiyalar berib, testlar o'tkazadi*	***Siyosiy-psixolog.*** *Siyosiy tuzilmalar a'zolariga psixologik maslahatlar berish, siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi*
Madaniyat masalalari bo'yicha psixolog. *Turli madaniy muhit sharoitidagi odamlar ijtimoiy xulqini solishtirma tahlili bilan shug'ullanadi*	***Tibbiyotchi psixolog.*** *Tibbiy maskanlarda psixologik profilaktika va psixogigiyena masalalari bilan shug'ullanib, bemorlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi*
Klinik psixolog. *Terapiya va bemorlarning hissiy emosional kechinmalari masalalarini o'rganadi*	***Psixologiya o'qituvchisi.****Psixologiyaning turli aspektlariga oid ma'ro'zalar o'qiydi*
Ishlab chiqarish va sanoat psixologi. *Ishlab chiqarish sharoitlarini takomillashtirish hamda xodimlarni tanlash masalalarini o'rganadi*	***Trener-psixolog.*** *Muloqot malakalari oshirish, shaxsning o'z imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha treninglar o'tkazadi*
Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis. *Odamlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish va turli kasalliklarni oldini olishga o'rgatadi*	***Maktab psixologi.*** *Maktabdagi o'quv jarayoniga oid muammolar bilan shug'ullanib, o'quv-chilar, ota-onalar va o'qituvchilarga psixologik maslahatlar beradi*
Iste'molchilar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis. *Tovarlarning emosional jihatdan iste'mol bopligini baholaydi, marketing, reklama va mollarning tovar qiyofasiga oid muammolarni o'rganadi*	***Menejment sohasidagi psixolog.*** *Maxsus maslahatlar, menejerlarni o'qitish va tayyorlash bo'yicha trening-seminarlar tashkil etish, tashkilotlarda axborotlar almashinuvining psixologik tomonlarini o'rganadi*
Taraqqiyot psixologiya bo'yicha mutaxassis. *Inson tug'ilishidan to qarigunicha bo'lgan taraqqiyot davrining psixologiyasini o'rganadi*	***Reklama sohasidagi psixolog.*** *Reklama mahsulotlari tayyorlovchilarga maslahatlar beradi*
Psixometriya bo'yicha mutaxassis. *Testlar, so'rovnomalar va boshqa psihologik tekshiruv vositalarini standartlashtirish, ishlab chiqish, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish hamda test natijalarini qayta ishlash bilan shug'ullnadi*	***Bolalar psixologi.*** *Bola taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanib, ota-onalarga maslahatlar beradi va bolalarni maktabga tayyorlaydi*
Ijtimoiy psixolog. *Shaxsning ustanovkalari, dunyoqarashi va qadriyatlarini, ijtimoiy guruhlar aro munosabatlarni, liderlik masalalarini o'rganadi*	***Huqushunos psixolog.*** *Sud-psixologik ekspertizalar jarayonida qatnashadi, huquqshunoslikka oid jarayonlarning psixologik ta'minoti bilan shug'ullanadi*

Qiyosiy psixologiya. *Turli toifadagi hayvonlar xulqini qiyosiy tarzda laboratoriya sharoitida o'rganadi, odam va hayvon xulqiga oid umumiyliklarni asoslaydi*	***Psixofiziolog.*** *Insondagi psixologik va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganadi*
Psixofiziolog. *Inson xulqining biologik asoslarini o'rganadi*	***Ijtimoiy psixolog.*** *Kichik guruhlar va jamoalar rivojlanishi va psixologiyasini o'rganadi*
Maktab psixologi. *Muvaffiqiyatli o'qishga halaqit beruvchi omillarni diagnostika qiladi*	***Zoopsixolog.*** *Hayvonlar xulq-atvorini o'rganadi*
Eko-psixolog. *Inson ehtiyojlariga mos tarzda turar-joylar va binolarni loyihalashtirishga yordam beradi*	***Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis.*** *Psixogigiyena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi*

2.4. Kasbiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Kasbiy psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sosiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Kasbiy psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqyei o'ziga xos va yetakchidir.

1.5.1. Psixologiya va falsafa

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan – falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

1.5.2. Psixologiya va sosiologiya

Sosiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sosiologiya bilan aloqasi o'zviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlashishiga xizmat qiladilar. Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demoqratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot

mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifani bajarishga qaratilgandir. Respublikamiz miqyosida esa "Ijtimoiy fikr" markazining turli mavzular bo'yicha olib boradigan ijtimoiy so'rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xohishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik so'rovlarning oliygohlarda o'tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o'qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o'tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sosiologik so'rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

1.5.3. Psixologiya va pedagogika

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart – sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi. Shaxsga ta'lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro o'zviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan holda, unga pedagogik ta'sir etish va uni yangi bilimlarga yo'naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

1.5.4. Psixologiya va tabiiy fanlar

Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miyaassimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyro fiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan holda uni boyitadi.

1.5.5. Psixologiya va kibernetika

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX1 asrda informasion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining

keng qo’llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o’rganishni kafolatlaydi.

1.5.6. Psixologiya va texnika fanlari

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o’zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo’nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, uhambo’lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham anashu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo’lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O’zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir – asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta’minlash qanchalik dolzarb bo’lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo’llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

1.5.7. Psixologiya va iqtisodiyot

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o’zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo’lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o’tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o’ziga xos namoyon bo’lish qonuniyatlarini o’rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O’zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqorolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e’tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo’lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o’z navbatida iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo’lmish inson omilidagi barcha psixologik o’zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

Yuqorida ta’kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita o’zviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o’sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Mazkur mavzuni chuqurroq o’rganishda internet tarmog’idagi ma’lumotlarga ham e’tiboringizni qaratishni tavsiya etamiz, qarang (**www.psychology.net.ru**).

Nazorat uchun savollar:

1.Mehnat psixologiyasining vazifasi nimalardan iborat?
2.Ijtimoiy psixologiya nimani o’rganadi?
3.Psixologiyaning tarmoqlarini ayting?
4.Huquq psixologiyasining vazifasini ayting?
5.Sa’nat psixologiyasi nimani o’rganadi?
6.Psixologik metodlarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7.Kuzatish metodining vazifalari nimalardan iborat
8.Ekpriment metodining bosqichlarini ayting?
9.Suxbat metodida nimalarga e’tibor berish kerak?
10. Psixologiya qaysi fanlar bilan o’zaro bog’liq?

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Aniq faoliyat turlariga ko’ra psixologiya sohalari qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) muhandislik, mehnat, pedagogik psixologiya, aviasiya B) yosh psixologiyasi, maxsus psixologiya, oligofrenopsixologiya V) mehnat psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, maxsus psixologiya G) sport psixologiyasi, savdo psixologiyasi, harbiy psixologiya, instinktiv psixologiya D) barcha javoblar to’g’ri

2. Pedagogik psixologiya bo’limlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) talim psixologiyasi B) tarbiya psixologiyasi V) o’qituvchi psixologiyasi
G) anamal bolalar psixologiyasi D) barcha javoblar to’g’ri

3. Inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilinishining psixologik tamoyillarini o'rganadi.

A) mehnat psixologiyasi B) muhandislik V) aviasiya G) kosmik psixologiya

D) barcha javoblar to'g'ri

4. Shaxs va jamiyat munosabatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) sud psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi

B) harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi

V)ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, din psixologiyasi, instinktiv psixologiya G) ijtimoiy psixologiya, aviasiya psixologiya, din psixologiyasi

D) barcha javoblar to'g'ri

5. "Metod" so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) uslub B) biror narsaga borish yo'li V) qo'llanilish uslubi G) uslub biror narsaga borish yo'li D) barcha javoblar to'g'ri

6. Uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadigan psixologiya sohasi bu.....

A) din psixologiyasi B) shaxs psixologiyasi V) instinktiv psixologiyasi G) ijtimoiy psixologiya D) jamoa psixologiya

7. Tabiiy tajriba metodini fanga kiritgan olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.P.Pavlov B) Dj.Moreno V) A.F.Lazurskiy G) I.M.Sechenov D) D.B.Elkonin

8. Bolalarning ruhiy jihatdan rivojlanishi qonuniyatlarini psixologiya fanining qaysi tarmog'i o'rganadi?

A) pedagogik psixologiya B) mehnat psixologiyasi V) ijtimoiy psixologiya

G) yosh psixologiyasi D) talim psixologiyasi

9. Dastlabki psixologik tadqiqotlar labaratoriyasi qachon kim tomonidan ochildi?

A) 1879 yil V.Vundt B) 1875 yil Z.Freyd V) 1889 yil V.Vundt G) 1880 yil V.M.Bexterev D) 1869 yil V.Vundt

10. Dastlabki psixologik tadqiqot labaratoriyasi qaysi universitet qoshida tashkil qilindi?

A) Oksford B) Parij V) London G) Lomonosov D) Leypsig

11. Psixologiya fanini fanlar tizimidagi o'rni qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) tabiiy fanlar tarkibida B) gumanitar fanlar tarkibida V) falsafiy fanlar tarkibida

G) aniq fanlar tarkibida D) oraliq fanlar

12. "Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi" mazkur fikr muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.M.Sechenov B) V.Vundt V) I.P.Pavlov G) E.Ebbingao'z D) S.L.Rubinshteyn

13. "Metod bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi, o'rganiladi" mazkur fikr muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.M.Sechenov B) V.Vundt V) I.P.Pavlov G) E.Ebbingao'z D) S.L.Rubinshteyn

14. Metodologiya so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bilish B) tadqiq qilish V) izlanish yo'li G) bilish tadqiq qilish D) barcha javoblar to'g'ri

15. Qaysi qatorda tashkiliy guruh metodlari ko'rsatilgan?

A) kuzatish, eksperiment, longtyud, qiyoslash B) longtyud, qiyoslash, kompleks

V) genetik, donalash, kuzatish, anketa G) sosiometriya, kuzatish kompleks qiyoslash D) biografiya, test, genetik, kompleks.

16. Longtyud metodi yordamida tadqiqot ishini olib borgan O'zbekistonlik psixolog olim qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) B.Qodirov B) Z.Nishonova V) E.G'oziev G) N.Nig'matov D) M.G.Davletshin

17. ……. Ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib qo'yilgan savollarga javob olishga va buning natijasida ma'lumot olishga mo'ljallangan metoddir.

A) suhbat B) so'ovnoma V) intervyu G) kontent analiz D) sosiometriya

18. Ilk bora test tushunchasi kim tomonidan ishlatilgan?

A) Bine B) Simon V) D.Kettel G) V. Shtern D) G.Marrey

19.O'quvchilarning aqliy qobiliyatlarni aniqlovchi test birinchi bo'lib kimlar tomonidan yaratilgan?

A) A.Bine va G.Simonlar B) V.Shtern va D.Veksler V) G.Marrey va G.Ayzenk

G) K.M.Gurevich va V.Shtern D) D.Veksler va G.Simonlar

20. Aqliy iste'dod koeffisenti kim tomonidan fanga kiritilgan?

A) G.Marrey B) G.Ayzenk V) V.Shtern G) M.Gurevich D) G.Simonlar

3- MAVZU:PSIXIKANING NERV- FIZIOLOGIK ASOSLARI.

REJA:

3.1.Oliy nerv sistemasining tuzilishi.

3.2.Ichki sekretsiya bezlari.

3.3.Ongning paydo bo'lishi.

3.4.Shartli va shartsiz reflekslar.

Tayanch tushunchalar

Instinkt - (lot. instinctus uyg'onish) - murakkab shartsiz refleks, u hulq - atvorning tug'ma yig'indisi, tashqi yoki ichki ta'sirotlarga javoban hosil bo'ladi.

Ontogenez (yunon. on, ontos - asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish) - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Seskanuvchanlik - tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyata ega javob qaytarish qobiliyati.

Filogenez (yunon.. phyle - qabila, urug', genesis - paydo bo'lish) - muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyusion taraqqiyot jarayoni.

Qo'zg'atuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik - tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarin o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

2. 8.Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'zAJBNT» markazi, 2002. – 21-35 b.

3. Б.М.Умаров**.** Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. **–** Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

4. ***THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained. New York 2012.***

5. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

3.1.Oliy nerv sistemasining tuzilishi.

Barcha tirik organizmlarda bo'lganidek, odam organizmi ham tevarak atrof-muhiti bilan hamisha aloqada bo'ladi. Odam organizmining tashqi olam bilan munosabatlari nerv sistemasi yordamida amalga oshiriladi. Organizmning eng muhim qismi bo'lgan miya odamning hamma harakatlarini nazorat qiladi, boshqaradi. Shuning uchun ham miyaning tuzilishi va funksiyalarini o'rganish uchun urinishlar uzoq tarixdayoq boshlangan. Natijada nerv sistemasining tuzilishi va vazifalarini tadqiq etishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritilgan.

Hozirgi kunda nerv sistemasining tuzilishi, vazifalari, ishlash tamoyillarini psixologik jihatdan ilmiy asoslash, odam psixik faoliyatining fiziologik asoslarini batafsil yoritish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fanida psixik jarayonlar shaxsning psixologik xususiyatlari asosida yotgan fiziologik asoslarini ishlab chiqishda Rossiyaning mashhur psixologlari M.M.Sechenov, I.P.Pavlov,

V.M.Bexterev va P.K.Anoxin kabilarning xizmatlari kattadir. Bular oliy nerv faoliyatining asosiy qonuniyatlariga doir ta'limotni kashf etdilar. Bu ta'limotga muvofiq odam miyasiga o'zluksiz ravishda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Natijada oliy nerv faoliyatining asosiy jarayonlari bo'lmish qo'zg'alish va tormozlanish vujudga keladi. Buning ma'nosi shuki, qo'zg'alish miyadagi nerv markazlarini ishga soladi, ularni faol harakatga keltiradi. Ma'lum fursat o'tgandan keyin bu jarayon tormozlanish bilan almashinadi, ya'ni miyadagi nerv markazlarining faoliyati sekinlashadi, ma'lum muddat ishlamaydi va buning natijasida sarflangan energiya qaytadan tiklanadi.

Odamda nerv sistemasining o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor. Nerv sistemasi odam organizmining barcha funuksiyalarini tartibga soladi. Unda moddalar almashinuvini ta'minlaydi, yurak, muskullar va qon tomirlari faoliyatini boshqaradi, organizmning turli sharoitlariga moslashuviga xizmat qiladi.

Umuman olganda, odamning nerv sistemasi organizmdagi barcha a'zolarning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi. Shu sababli odam psixik hayotining moddiy asosi bo'lgan nerv sistemasi av uning yetakchi qismi - bosh miyaning tuzilishi va ishlash tamoyillarini mukammal bilmay turib, psixologik hodisalarning haqiqiy mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Demak, odamda kechadigan barcha psixologik holatlarning mohiyatini nerv sistemasining nazoratisiz tasavvur etish mumkin emas.Shuning uchun nerv sistemasining psixik funksiyalar faoliyatidagi rolini qisqacha tahlil qilamiz. Uni anatomik va fiziologik jihatdan to'la tadqiq etishni ushbu tadqiqot muallifi o'z zimmasiga olmaydi. Chunki bizning maqsadimiz nerv sistemasi va uning yetakchi qismi bo'lgan bosh miyaning odam ruhiy hayotidagi ahamiyatini psixologik jihatdan yoritishdan iboratdir holos.

Odam psixik hayotining asosi bosh miya bo'lib, bosh miya nerv sistemalarining birlashgan joyi - markazidir. Nerv sistemasi organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni va to'qimalar faoliyatini tartibga solib turadi.





Dendrite Axon Myelin sheath Cell body (the cell's lifesuppor center)





Nemis faylasufi Yoxan Gerbart miya ishlash faoliyatini va asosan miyaning qay tarzda g'oya va fikrlarni ishlab chiqishi haqida ish olib boradi. Bizning miyamizda, mingdan ziyod fikrlar bor va biz qanday qilib, adashmay keraklisini tanlab olamiz? Bu Gerbatda qiziqish uyg'otdi va tushundiki, bunday faoliyat miyada farqlaydigan va fikrlarni jamlaydigan bir sistema borligi haqidagi tushuncha uyg'otdi.[4]

(THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012)

[4] **THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012**









Peripheral nervous system **Central nervous system**



SYMPATHETIC NERVOUS SYSTEM (arousing)

PARASYMPATHETIC NERVOUS SYSTEM (calming)

The functional divisions of the human nervous

Nerv sistemasi hujayralardan iborat. Bu hujayralar o'zlarining o'zun va kalta hajmdagi o'simtalari orqali organizmning barcha qismlariga tarqaladi. Nerv sistemasidagi hujayralar va uni qoplovchi oq pardalar hamma o'simtalari bilan birga neyronlar deyiladi.Neyron anatomik tuzilishi va fiziologik xususiyatlariga ko'ra nerv sistemasining tuzilish birligi hisoblanadi.

Nerv hujayrasining bevosita nerv uchlarigacha borib yetadigan o'simtasi neyrit deb ataladi. Nerv tolalari sistemasining elementlaridir.Nerv sistemasini tashkil etuvchi neyronlar o'rtasida anatomik jihatdan bevosita bog'lanish yo'q. Ular o'rtasidagi qo'shilish bitta neyronning neyriti oxirgi tarmoqlarining boshqa neyronlarning hujayrasiga nozik tegib turishidan iboratdir.

Normal odam miyasida 16 milliardga yaqin neyronlar bor. Bu neyronlar organizmga ko'rsatadigan xizmati jihatidan ikkiga bo'linadi;

-Reseptorlar

-Effektorlar.

Reseptorlar tashqi ta’sirotni qabul qilib miyaga o’tkazadi. Shuning uchun reseptorlarni sezgi nerv markazlari deb ham yuritiladi. Effektorlar esa tashqi ta’sirot natijasida ichki organlarga buyruq beradi va ularni harakatga keltiradi. Shuning uchun effektorlarni harakat nerv markazlari deb ham yuritiladi.

Reseptorlar va effektorlar birlikda birinchi signal sistemalaridir.

Birinchi signal sistemasi odamda tashqi dunyoning sezgi a’zolari tomonidan qabul qilib olinadigan aksi bo’lib, odam voqyelikni eng avvalo birinchi signal sistemasi orqali idrok qiladi.

Tashqi muhitdagi voqyea-hodisalarning sezgi a’zolarimizga ta’siri orqali ongda aks etishi birinchi signal sistemalaridir. Birinchi signal sistemalari odamning sezgilari, idroki va tasavvurlariga bog’liq bo’ladi. Tashqi muhit voqyea-hodisalarining so’zlar (o’sha narsalarning nomlari) orqali ongda aks etishi ikkinchi signallar sistemasini tashkil etadi.Bu sifat faqat odamlargagina xos bo’lib, boshqa jonzotda yo’q.Odam tashqi ta’sirotlarni so’zlar orqali aks ettiradi va bilib oladi - o’zlashtiradi.

Ikkinchi signal sistemalari yordamida odam fikrlaydi, xotirlaydi, xayol suradi va , eng muhimi , so’zlaydi . So’z - signallarning signalidir (I.P.Pavlov). Ikkinchi signal sistemalari faqat odamlardagina mavjuddir.

Odamning nerv sistemasi uch qismdan iborat ;

- Markaziy nerv sistemasi.
- Perifiriyadagi nerv sistemasi.
- Vegetativ nerv sistemasi.

Markaziy nerv sistemasi orqa miya va bosh miyadan iborat.

Orqa miya umurtqa pog’onasida joylashgan bo’lib, nerv to’qimasidan tuzilgan. U chamasi 45 sm o’zunlikdagi chilvirdir.

Orqa miya bo’g’im-bo’g’im tuzilgan bo’lib, 31 ta bo’g’imi bor. Har bir bo’g’imdan shu bo’g’imga mos keladigan umurthalararo teshiklarga qarab yo’naluvchi orqa miya nerv ildizlari chiqadi.

Orqa miya qo’l, oyoq, ko’z, tana muskullarini idora qiladi, tomir harakatlari, organizmdan ter chiqish holatlarini boshqaradi.Orqa miyaning o’zunligi embrion hayotining dastlabki oylarida umurtqa pog’onasining o’zunligiga teng keladi. Asta-sekin orqa miya o’sishda umurtqa pog’onasidan orqada qoladi. Shu sababli, bel, dumg’aza va dum nervlarining ildizi umurtqa pog’onasi kanali ichida anchagina masofagacha cho’zilib boradi.

Psixologik jihatdan hozirgi sharoitda odam umrini o’zaytirishning quyidagi shartlari mavjuddir;

- ijtimoiy foydali mehnat bilan doimo shug’ullanish;
- aqliy va jismoniy mehnatni qo’shib olib borish;
- faol dam olish;
- oqilona ovqatlanish;
- ichmaslik, chekmaslik;
- shirin oilaviy hayot kechirish;
- farzandlarni mehr bilan tarbiyalash;
- hayotda hammavaqt xushchaqchaq bo’lish;
- noxush kechinmalarni toqat bilan yengish;
- hayajonlanmaslik va hokazo.

Yuqoridagi shart - sharoitlarga amal qilinsa, shaxs o’zini yaxshi anglab, hayotini oqilona o’tkazsa, miyaning 60 yoshdan keyingi vazn kamayish jarayonini yanada sekinlashtirishga erishadi.

Inson bosh miyasi, hayvon miyasidan ancha og’irdir.

Odam miyasi - 1400 g.

Ot miyasi - 650 g.

Gorilla miyasi - 400 g.

Ho’qiz miyasi - 500 g.

Kit miyasi - 2800 g.

Fil miyasi - 4000 g.

Individning psixik hayotida miyaning og'irligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo miyaning tuzilishi juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kishining aqli haqida miyaning og'irligiga qarab hukm chiqarish to'g'ri emas. Ba'zi kishilar miyasining vazni o'rtacha vazniga qaraganda ancha og'ir bo'lgani shuningdek, ba'zi kishilarning miya vazni o'rtacha darajadan kamroq ham bo'lgani ma'lum.

Masalan: I.S.Turgenevning miyasi 2012 g, V.M.Bexterevning miyasi 1720 g, I.P.Pavlovning miyasi 1653 g, D.I.Mendeleevning miyasi 1751 g, Anatol Fransisning miyasi 1017 g bo'lgan.

Odamning bosh miyasi kishi psixikasining o'ziga xos takrorlanmas, murakkab organi hisoblanib, u katta yarim sharlar, miyacha, oraliq miya, o'rta miya va o'zunchoq miyadan iborat.

Miya faoliyatini faollashtirish, uning ishlash qobiliyatini oshirish uchun vaqti-vaqti bilan dam oldirishning muhim ahamiyati bor. Odam o'z tanasini doimo toza tutsa; vaqti-vaqti bilan massaj qilib tursa; farzandlarini, nevaralarini erkalatsa, o'ynatsa; kino, teatr, muzey tomoshalariga chiqib tursa; me'yorida va sodiq do'stlar bilan ovqatlansa; sevimli kitob hamda ro'znoma o'qisa; yoqimli ashula, muzika tinglasa; uzluksiz ravishda toza havoda yursa, jismoniy harakat qilsa; o'z kasbi, kundalik bajargan yumushidan rozi bo'lib, rohatlansa, o'zini yaqin do'stlari davrasida xushchaqchaq tutsa, tabassumni o'ziga doimo hamroh qilib yursa miya dam oladi, uning toliqishiga imkon berilmaydi.



Bosh miya bir qancha qismlardan iborat bo'lib, bu qismlarning har qaysisi o'ziga xos funksiyani bajaradi. Masalan,

- o'rta miya
- oraliq miya
- oldingi miya
- orqa miya
- kichik miya
- katta miya va uning yarim sharlari.

Yuqoridagi har bir qismning o'z vazifasi bor. Nafas olish, yurak ishlashi, qon aylanishi, chaynash, yutish, so'lak ajratish, organizmning to'g'ri harakatini ketingi miya idora qiladi. Murakkab

bo’lmagan aqliy faoliyatni (yozuv, chizuv va h.k.) kichik miya boshqaradi. Organizmning yorug’lik, tovush, og’irlik kuchiga nisbatan javobini o’rta miya, organizmning umumiy sezuvchanligini oraliq miya idora qiladi.

Ketingi miya o’zunchoq miya, varoliy ko’prigi va miyachadan iborat. O’zunchoq miya bilan varoliy ko’prigi orqa miyaning davomi hisoblanadi. O’zunchoq miya emish, chaynash, yutish, so’lak ajratish, qusish kabi murakkab fiziologik jarayonlarda qatnashadi. , qusish kabi murakkab fiziologik jarayonlarda qatnashadi. Nafas olishni, yurak ishini idora etadigan, qon tomirlar tonusini saqlaydigan markazlar ham o’zunchoq miyadadir.

Miyacha markaziy nerv sistemasining pastdagi hamma bo’limlariga mahkam bog’langan. Miyacha organizm harakatlarining yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

Gavdaning umumiy sezuvchanligini o’rta miya ta’minlaydi. O’rta miya vegetativ markaz ishini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Shuning uchun oraliq miya, o’rta miya, varoliy ko’prigi va o’zunchoq miya birlikda miya stvoli deb yuritiladi.

Bosh miya bo’laklarining yetakchi qismini (hariyb 80 foizini) katta miya va uning yarim sharlari tashkil etadi. Katta miyaning o’ng va chap sharlari qadoq modda orqali bir-biri bilan tutashgan.Bosh miya yarim sharlarining har qaysisi miyaning peshona qismi, tepa qismi, ensa qismi va chakka qismi kabi to’rt pallaga bo’linadi.

Bosh miya po’stining halinligi bir millimetrdan besh millimetrgacha bo’lib, yuzasi o’rtacha hisob bilan 2000 kvadrat santimetrga teng. Bosh miya po’stida 52 ta maydon bo’lib, bu maydonlar o’n bir sohaga bo’linadi.

Bosh miyaning qismlari va ularning funksiyalari haqidagi ta’limotni akademik I.P.Pavlov yaratdi. I.P.Pavlov tajribalarining natijalariga ko’ra, bosh miya qismlarining funksiyalari sohasida odam va hayvonlar miyasi o’rtasida juda katta tafovutlar bor. Ba’zi hayvonlarda oldingi miya olib tashlanganda ham hayot davom etgan. Masalan, oldingi miyasi olib tashlangan Saka o’z hayotini davom ettirgan. U odatdagicha o’tirgan, o’ziga xos harakatlarni bajargan.



Gotfred Leibnez "Petit" (kichik) anglay olish tushunchalarini borligi va shular ong usti fikrlari bilan bog'liqligini o'rganishni boshlagan birinchi olimlardandir. Masalan, biror narsa yoki hodisani biz to'la o'rganmay turib, miyada anglashimiz va xotirada saqlashimiz mumkin.

Dinamik fikrlar

Gerbartning fikricha, fikrlar hissiyotga bog'liq ekan. U ishlatgan " Vorsfellung" termini o'ylar, aqliy qarashlar, emotsinol statuslarni aniqlashda ishlatilgan. Gurbart yuqoridagilarning jamini doimiy tarzda emas, o'zgaruvchan holda, bir-biri bilan aloqa qila oladigan tarzda tasvirlaydi. Fikrlar uning fikricha,bir-biriga o'zini jalb qiladi va bu hodisani magnit tortishuviga o'xshatish mumkin. Oddiy fikrlar rang va ovoz toni, masalan, bir-birini o'ziga jalb etadi. Lekin, fikrlar bir-biriga o'xshash bo'lmasa, ular aloqasiz davom etadi va vaqt o'tishi bilan ularning o'rtasidagi aloqalar susayadi. "Fikrlar bir-birini rad etadimi? yoki biri ikkinchisini yaratishiga majbur etadimi?" Mana shular fan oldidagi asosiy savollardir.[5]

[5] ***THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012***

Oldingi miyasi olib tashlangan kaptar ovqat yegan, turtib yuborilsa, yurgan va qisman ucha olgan. Shu tajriba maymunlar bilan o'tkazilganda butunlay boshqacha xulosalar aniqlangan. Oldingi miyasi olib tashlangan maymunda psixik funksiyalar va harakatlar tamomila buzilgan.Xuddi shu tajriba odamlar bilan ham o'tkazilgan. Oldingi miyasi olib tashlangan qizcha faqat yotgan, turishga harakat qilmagan, eng oddiy narsalarni ham o'rganmagan, uch yilu to'qqiz oydan so'ng vafot etgan. Ko'p tajribalarning xulosalari shuni tasdiqlaydiki, odamda bosh miyaning qismlari butun bo'lmasa, unda tananing normal holati, harakati buziladi, psixik funksiyalar tubdan o'zgaradi va nihoyat hayot davom etmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda psixologiya fanining qo'lga kiritgan yutuqlariga ko'ra, odam miyasining o'ng va chap yarim sharlari turlicha vazifani bajaradi. O'ng va chap yarim sharlar bir-biridan shunchalik farq qiladiki, hatto his qilish darajasi turlicha bo'ladi.Tekshirish va o'rganishlar natijasida chap yarim shar asosiy, o'ngi esa tobe', ikkinchi darajali ekanligi aniqlandi.

Tajribalar ko'rsatishicha, o'ng yarim shar faoliyatiga barham berilganda chap tomonning sezgirligi oshadi, kayfiyat o'zgaradi, xushchaqchaqlik, yoqimtoylik, sergaplik, kelajakka umid bilan qarash hollari vujudga keladi. Chap yarim shar faoliyati to'xtatilganda o'ng yarim sharning sezgirligi oshadi. Ammo kayfiyat yomonlashadi, umidsizlik, jirkanish hollari paydo bo'ladi.

Shundayqilib, chap yarim shar odamning quvonishi, xursandchiligiga xizmat qilsa, o'ng yarim shar odamda noxushlik kayfiyatini vujudga keltiradi. O'ng va chap yarimsharlarning turlicha funksiyalari hissiy holatlar bobida ham turlichadir. Tajribalardan, chapyarimshar mavhumiy tafakkur bilan bog'liq holda ijobiy hissiyotlarni, o'ng yarimshar obrazli tafakkur bilan bog'liq holda salbiy hissiyotlarni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

	Chap yarim shar	**O'ng yarim shar**
.	Xronologik tarkib	O'tayotgan vaqt
.	Harita va chizmalarni o'qish	Aniq makon
·	Nomlarni, izlarni belgilarni yodda saqlab qolish	Tasavvurlar, aniq voqealarni yodda saqlab qolish
·	Nutq faoliyati mohiyatini his etish	Emosional holatni idrok etish
·	Olamni xursandchilikda osoyishta ko'rish	Olamni g'amgin holda ko'rish
.	Batafsil idrok qilish	Yaxlit idrok qilish

Odamning har bir psixik jarayoni holati va xususiyati butun markaziy nerv tizimining faoliyati bilan bog'liqdir.

Perifiriyadagi nerv sistemasining organizm uchun xizmati shundan iboratki, uning nervlari organizmning qismlarini orqa miya va bosh miya bilan bog'laydi, organizmni orqa miya va bosh miyaning ichki qismlari bilan tutashtiradi. Orqa miyadan 31 juft, bosh miyadan 12 juft nerv tolasi chiqadi va butun organizmga tarqaladi.

Perifiriyadagi nerv tolalari organizmga xizmati jihatidan ikkiga bo'linadi;



Sezuvchi nervlar - bu nervlar ko'rish, eshitish va hid bilish organlarining faoliyatiga xizmat qiladi.

Harakatlartiruvchi nervlar - bu nervlar organizmdagi muskullar harakatini boshqaradi.

Vegetativ nerv sistemalari bosh miyadan ajralib umurtqa orqali ichki organlarga tarqaladi. O'pka, yurak, buyrak, taloq kabi ichki organlarning har biriga vegetativ nerv sistemasidan ikkitadan nerv tolasi boradi.Nerv sistemasining vegetativ qismi silliq muskullarni, bezlarni, yurak va tomirlarni nerv tolalari bilan ta'minlaydi, ichki organlar va tomirlar faoliyatining tartibli, normal ishlashini, bezlarning suyuqlik ajratishini va yurak ishini idora qiladi.

Shunday qilib, nerv sistemasi organizmda hayotiy jarayonlarni boshqaruvchi asosiy tizim bo'lib hizmat qiladi. Ayni vaqtda nerv sistemasi bir butun tizim bo'lib, organizmning ajralmas va yetakchi qismi hisoblanadi



3.2.Ichki sekretsiya bezlari.

Organizmdagi fiziologik prosesslarda sekresiya bezlarining roli kattadir. Sekresiya bezlari tashqi va ichki kabilarga bo'linadi. Tashqi bezlarning ishlab chiqargan suyuqliklari organizmdan tashqariga chiqib ketish uchun tanada maxsus yo'llar bor. Ko'zdan yosh, badandan ter, og'izdan tupuk chiqishi bezlar faoliyatining natijasidir.

Ichki bezlarning ishlab chiqargan suyuqlik moddalari garmonlar deyilib, ular organizmdan tashqariga chiqib ketmaydi, balki qonga aralashib, organizmning umumiy salomatligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ichki bezlar quyidagilardan iborat ;

- Gipofiz bezi. Odam gipofizi oldingi va orqa pallalardan iborat bo’lib, bu

pallalar o’rtasida oraliq qism bor. Gipofiz bir necha xil gormon ajratadi. Gipofiz bezi kulrang bo’rtiq o’simtadan iborat bo’lib, vazni 0,5 grammga yaqindir.

Bu bezning gormonlari organizmning o’sishiga, semirishiga xizmat qiladi. Gipofiz bezi bosh miyaning pastki qismida joylashgan. Gipofiz bezining gormonlari qon bosimiga ijobiy ta’sir etadi. Agar bu bez noto’g’ri ishlasa, organizm o’sishdan to’xtaydi va uni yog’ bosadi, suyak uchun zarur bo’lgan fosfor moddalar yetishmay qoladi (liliputlarda gipofiz bezining faoliyati buzilgan). Umuman gipofiz bezining funksiyasi juda xilma-xil bo’lib, uning organizm faoliyati uchun ahamiyati kattadir.

- Epifiz bezi. Bu bez o’rta miyada joylashgan. Uning isqalbchiqargan suyuqliklari jinsiy bezlar faoliyatiga xizmat qiladi. Epifiz bezining faoliyati buzilsa, organizm bevaqt balog’atga yetadi.
- Bo’qoq yoki tomoq bezlari. Bu bezlar organizmning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu bezlar noto’g’ri ishlasa, organizm o’smaydi, unda turli kasalliklar paydo bo’ladi, harakat susayadi, hayajonlanish alomatlari vujudga keladi, odam uyqusizlik holatiga uchraydi, mehnat qobiliyati yo’qola boradi va eng muhimi, organizm otalik va onalik qobiliyatidan mahrum bo’ladi.
- Jinsiy bezlar. Bu bezlar har bir jins uchun xos bo’lgan maxsus jinsiy gormonlar ishlab chiqaradi. Erkaklarda muskullarning kuchli rivojlanishi, erkaklar va ayollarga xos tovush tembrining farqlanishi kabilar jinsiy bezlar faoliyatining natijasidir. Jinsiy gormonlar boshqa jinsga bo’lgan mayllikka sabab bo’ladi hamda odam organizmida umumiy moddalar almashinuviga kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Umuman, jinsiy bezlar organizmga chiroyli, yoqimli tus beradi va nasl ko’payishiga hizmat qiladi. The endocrine system Endokrin sistemasi tuzilishi.



The brainstem and Thalamus



Brain structures and their functions

3.3.Ongning paydo bo’lishi.

Ong-psixikaning eng yuksak darajasi bo’lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo’lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o’tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig’indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo’lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o’rtasidagi aniq farq o’z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o’zini bilish qobiliyatiga ega bo’lgan, ya'ni psixik faoliyatda o’z-o’zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko’zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko’riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo’llari hisobga olinadi.

Ongning to’rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg’ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig’indisidir.

Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. **Ongsizlik** - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig’indisiki, unda inson o’z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko’rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi. Xulosa qilib aytganda, psixologiya hayot faoliyatining o’ziga xos shakli bo’lib, psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlarini o’rganuvchi fandir. Psixologiya fanining asosiy vazifasi psixik hodisalarni o’rganish va ilmiy asoslashdir. Psixik hodisalar ma'lum qonuniyatlarga bo’ysunadi. Psixologiya shunday qonuniyatlarni mohiyatini ochishga, ularni tarkib topishi va rivojlanishini o’rganishga qaratilgandir. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni boshqarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini to’g’ri olib borishga yordam beradi.

Consciousness

INTROSPECTION AND THE FUNCTIONS OF CONSCIOUSNESS

The only direct way to study *consciousness* is to have each person look within themselves, or introspect. *Introspection* is a powerful research tool—but limited. People often lack words

to report their experiences, and when they have the words, different individuals may use the same words to refer to different inner experiences. Introspection is also limited because

much of what's going on in our minds happens outside of awareness, in the *cognitive unconscious*—the unnoticed support machinery that makes our perception, thoughts, and memories possible. Many processes of the mind unfold in the cognitive unconscious,

but people are aware only of the products that result from those processes.

The scope of what the cognitive unconscious can achieve is evident in cases of brain damage. From such cases we know that people can remember without being aware they're remembering, and they can even perceive without being aware of their perception. Studies of unconscious attribution

also show us the sophistication of the cognitive unconscious—and thus the ability to evaluate and interpret evidence while being unaware of the process. Introspections are also sometimes mistaken—when people don't realize what factor has influenced their thoughts or behavior, or when they insist that a factor has influenced them, even though we have reason to believe it hasn't. These cases suggest that introspection often isn't a "readout" of internal processes, but the person's best after-the-fact estimation of why they acted or felt the way they did.

The cognitive unconscious allows processes that are fast, effortless, and automatic. This suggests that consciousness may be needed whenever we wish to exercise executive control over our own thought processes—rising above habit or resisting the temptation of the moment.

THE NEURAL BASIS FOR CONSCIOUSNESS

The *mind-body problem* centers on the fact that the conscious mind is a completely different sort of thing than the physical body. This point raises deep questions about how the brain

makes consciousness possible and how physical events can cause, or be caused by, conscious thoughts. Many brain areas are needed for consciousness. These include areas that seem to govern people's overall level of arousal and alertness; this aspect of consciousness may257 depend on the thalamus and reticular activating system. The exact content of consciousness depends on diverse brain sites, and depends on what a person is conscious *of.*

Many studies have examined the *neural correlates of consciousness*. These studies show, for example, that the activity of certain brain sites depends on what visual stimulus the person is currently aware of. Other studies have examined the conscious sensation of "free will" and have identified patterns of

brain activity that occur before—and so are plausibly the cause of—this conscious sensation. According to the *global workspace hypothesis*, consciousness is made possible by a pattern of integrated neural activity, in turn made possible by the connections provided by the workspace neurons, and controlled by the processes of attention. This hypothesis—while speculative—explains many aspects of consciousness, including its apparent functions.

VARIETIES OF CONSCIOUSNESS

Our conscious state obviously changes when we're asleep. An important source of evidence about sleep comes from EEG data, which allow us to distinguish the distinct stages of sleep. People seem to need an adequate amount of sleep as well as the right amount of both *slow-wave* and *REM sleep*.

One hypothesis is that sleep is a time for our bodies to repair themselves or restore substances used up while we're awake. A different hypothesis is that sleep allows neurons to reset their activity levels or consolidate connections made during the day. A third hypothesis is that sleep is merely the state in

which animals pass time while digesting, or perhaps it's just time animals spend when unable to find food.

Dreams are strongly associated with REM sleep. Dream reports suggest that dreams showcase a range of ordinary preoccupations, but they also include weird elements like being naked in public. Many people propose that dreams have hidden meaning; but most researchers suggest that dreams

are just a hodgepodge of activated images, woven together into a narrative either by the sleeping brain or perhaps later, when the person recalls the dream.

Hypnosis is another means of altering someone's conscious state. Many extraordinary claims about hypnosis have no basis in fact. Even so, hypnosis can have striking effects, including the powerful influence of hypnotic analgesia. Most current theories emphasize the hybrid nature of

hypnosis and describe it as blending the powerful social influence of the hypnotist with the striking effects of dissociation.

Altered states of consciousness are also associated with some religious practices, including those emphasizing meditation. In the meditative state, the person's brain activity changes— it shows a pronounced alpha rhythm (associated with relaxation) and, in some forms of meditation, a rhythm that's

crucial for integrating brain activity in distinct areas.

Many drugs are also used to alter consciousness. These include *depressants* like alcohol, sleep medications, and antianxiety medications. People also use *stimulants,* including caffeine, cocaine, amphetamine, and MDMA. These drugs decrease the need for sleep and lift a person's energy level and mood, but their many negative effects include substantial risk of dependence as well as psychological and medical problems resulting from drug use.

Marijuana, another often-used drug, seems to function by activating specialized receptors in the brain that ordinarily respond to a neurotransmitter called anandamide. Marijuana is also considered a mild *hallucinogen*; more powerful hallucinogens include LSD, mescaline, and PCP. These drugs trigger powerful perceptual experiences, but they can also produce a "bad trip" involving panic or profound paranoia.

All mind-altering drugs have associated risks that range from medical and psychological problems to the dangers of making bad choices when using one of these drugs. Many of these drugs can also lead to dependence or addiction—terms that are defined as points on a continuum ranging from casual and occasional use of the substance to frequent use despite serious problems resulting from that use and a profound inability to control the use.

People differ in how readily they become dependent on a drug. The difference depends partly on genetic factors and partly on personality, which is itself shaped to some extent by genetics. Drug dependence is also influenced by environmental factors such as social support for (or discouragement of) drug use and whether the person has recently experienced some misfortune.

Ong

Ong, o'z-o'zini kuzatish va ongning funksiyalari

Ongni tushunishni bevosita usuli bu har bir insonda o'z-o'ziga nazar tashlashi va o'z-o'zini kuzatishning bo'lishligidir. O'z-o'zini kuzatish aniq tadqiqot vositalari bilan amalga oshiriladi, lekin bu imkoniyat cheklangan. Insonlar tez-tez o'z kechinmalari haqida so'zlab berishga imkon topa olmaydi va qachonki ular aytmoqchi bo'lganlarida boshqa insonlar botiniy kechinmalarini xuddi shu so'zlar bilan ifodalab berishlari mumkin.

O'z-o'zini kuzatish ma'lum ma'noda cheklangan, chunki bizning tafakkurimizdagi g'aroyib hodisalar bilishdan tashqarida sodir bo'ladi, bilishga oid ongsizlikda ko'zga ko'rinmaydigan yordam mexanizmi bizning sezgimizni, o'ylarimizni va ehtimol xotiramizni yaratishi mumkin. Bilishga oid ongsizlikda tafakkurimizda ko'plab jarayonlar ochiladi, lekin insonlar faqat bu jarayonlarning natijasidangina xabardor bo'ladi.

Bilishga oid ongsizlik erisha oladigan imkoniyat miya shikastlanishining aniq holatidir. Bunday holatlardan biz insonlarni ular eslayotganliklarida bundan bexabar yodga ola olishlari va hattoki ular o'zlarining tuyg'ularidan bexabar holda anglay olishlarini bilishimiz mumkin. Ongsizlikka oid bilimlar bizga shuningdek bilishga oid ongsizlikning nafisligini va shunday qilib jarayondan bexabar bo'lganda dalillarni baholashga va izohlashga imkoniyatni ko'rsatadi.

O'z-o'zini anglashda ba'zan yanglishadi, qachonki inson qanday omil o'zining fikrlari va holatiga ta'sir ko'rsatayotganligini tushunmasa yoki bizda hattoki ishonmaslikka sabab bo'la turib biz o'zimizni fikrimizda qattiq turib olsak. Bu holatlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglash bu har doim ham ichki jarayonlarni tashqariga chiqarish emas, lekin insonning nima uchun harakat qilganliklari yoki ular tutgan yo'lning eng yaxshi mulohazasidir. Bilishdagi ongsizlik jarayonlarni tez, oson va avtomatik bo'lishini e'tirof etadi. Ong qachonki biz o'z shaxsiy fikrlarimiz ustidan ma'muriy boshqaruvni ijro etishni xoxlasak zarur bo'lishi mumkin.

Ong uchun asab asosi

Aql tana muammosi markaziy o'rinda turushi, faktlarga ko'ra tafakkur jismoniy tanadan tamomila farqlanadi. Bu nuqtada miya qanday anglash mumkin va bunga qanday jismoniy harakatlar sabab bo'ladi yoki qanday ongli fikrlar sabab bo'ladi degan chuqur savol ko'tariladi.

Ko'plab miya sohalari ongda muhtoj bo'ladi. Bu sohalar insonlarni eng yuksak darajadagi uyg'onishini va xavotirlarini boshqarishdek tuyiladi; miyaning bu ko'rinishi talamus va retikulyarni faollashtiradigan tizimga bog'liq bo'lishi mumkin. Ongning aniq va bor narsalar turli miya tomonlariga va inson nimani anglaydiganiga bog'liqdir.

Ko'plab ta'limotlar ongning asabga bog'liqligini tekshiradilar. Bu ta'limotlar shuni ko'rsatadiki, miya sohasining aniq faoliyatining tasavvur qo'zg'atuvchilariga bog'liqligidan, inson hozirgi kunda xabardorligini boshqa ta'limotlar esa tuyg'ularning cheklanmaganligini tekshiradilar va miya faoliyatining namunasini ro'y berishidan oldin tanib oladilar va shuning uchun bu tuyg'uga sabab haqiqatga yaqin bo'ladi.

Xalqaro ish joyi gipotezasiga ko'ra, ong uyushgan asab faoliyati namunasidir va diqqat jarayonlari tomonidan boshqariladi. Bu gipotezalar ongning ko'plab ko'rinishlarini, shuningdek aniq funksiyalarini izohlaydi.

Ongning xilma-xilligi.

Bizning anglash holatimiz uyqumizda aniq o'zgaradi. Uyqu miyaga oid holatdan kelib chiqishining muhim ma'lumot manbasi bizga uyquni aniq bosqichini farqlashda imkon beradi. Insonlar uyquga muayyan ehtiyoj sezadilar.

Boshqa gepotezada uyqu – tanamiz uchun o'z-o'zini tuzatishi yoki uyg'oq paytida ishlatilgan moddalarni qayta qurish vaqtidir deyilgan. Boshqa bir gipotezada aytilishicha, uyqu asab tolalarning faoliyat bosqichlarini yangidan boshlashga yoki kun davomidagi aloqalarni mustahkamlashga imkon beradi. Uchinchi bir gipotezada uyqu hayvonlarda ovqatni hazm qilish uchun ketkazgan vaqtidagi holati xolos yoki ba'zan hayvonlar ozuqa topishga layoqatsiz paytda sarflagan vaqtidir.

Tush ko'rish

Tush ko'rish doimiy tashvishlardan xabar bersada, lekin shuningdek taqdirni ko'rsatib beradi. Masalan jamoada yolg'iz qolib ketishlikni. Ko'plab odamlar tushlarda yashirin ma'no bo'lishini taxmin qiladilar; aksariyat tadqiqotchilar esa tushlarni ko'rinishlarni aralash holda faollashtirilgani, inson tushuni eslaganda uyqudagi miya hikoya to'qiyotgandek bo'lishini ta'kidlaydilar.

Gipnoz insonning anglash holatidagi boshqa bir vositadir. Gipnoz haqida g'ayrioddiy talablarda dalillarda asos yo'q. Hatto gipnoz hayratda qoldiradigan natijalarga ega, kuchli uyqu keltiradigan psixologik holatlarni ham o'z ichiga oladi. Aksariyat hozirgi teoriyalar gipnozning tabiat gibridi va uni gipnozchining kuchli ijtimoiy ta'sirining aralashmasi sifatida tasvirlaydi.

Ongning o'zgaradigan holatlari bir qancha diniy, amaliyot bilan shuningdek alohida ta'kidlanadigani mulohaza qilish bilan bog'liqdir. Fikr yuritiladigan holatda, insonning miya faoliyati o'zgaradi – alfa ritmini talaffuz qilgandek ko'rsatadi va fikrlashning ba'zi shakllarida ritm aniq sohalarda miya faoliyatini birlashtirish uchun hal qiluvchi hisoblanadi.

Ongni o'zgartirish uchun ko'plab dori vositalari ishlatiladi. Bular ichiga og'riqni qoldiradiganlarni, masalan spirt, uyqu dori va tinchlantiradigan dorilarni kiritadi. Insonlar shuningdek, qo'zg'atuvchilarni, kofein, kokainlarni o'z ichiga oladi. Bu dori vositalari uyquga ehtiyojni kamaytiradi va insonning energiya darajasi va kayfiyati ko'tariladi. Lekin dorilardan foydalanish natijasida psixologik va tibbiy muammolar keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari ham bor.

Marixuana tez-tez ishlatiladigan dori vositasi, miyada maxsus retseptorlarning faollashtirilishi deb hisoblanadi. Marixuana shuningdek galyutinasiya deb ham hisoblanadi, ko'plab kuchli psixotrop dori vositalari LSD, PSP larni o'z ichiga oladi.

Barcha bu kabi dori vositalari ularnins birortasini is'temol qilganda noto'g'ri tanlov qilishga, tibbiy va psixologik muammolarga ega bo'ladi. Bu dorilarning ko'pchiligi qaramlikka va maylni boshqaradi.

Insonlar qanchalik tezda dorilarga qaram bo'lib qolishlari bilan farqlanadi. Farq qisman irsiyat omillariga va qisman shaxsning o'ziga bog'liq.

Doriga qaramlik shuningdek atrof-muhit omillariga, dorilarni foydalanishdan ijtimoiy ko'makka va inson yaqin orada boshidan kechirgan baxtsizlik ta'sirida bo'ladi.[6]

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud. Hayvonlar "tili"bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z to'dasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni chog'dagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqatgina signal berolsa, inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular **tili o'rtasidagi** farqqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga, hayvon esa amaliy tafakkurga ega. Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda ish ko'rish qobiliyatiga ega. **Qurol yasash va uni asrash** qobiliyatiga egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Aniq vaziyatda qurol o'z rolini o'tab bo'lgach, shu zahotiyoq, hayvon uchun qurollik sifatini yo'qotadi. Odam ilgaridan o'ylab qo'yilgan reja bilan qurol yasaydi, quroldan tegishli maqsadlarda foydalanadi hamda uni saqlab qo'yadi. Odam nisbatan doimiy buyumlar olamida yashaydi. Odam quroldan foydalanish tajribasini boshqalardan o'rganadi va o'zi bu tajribani boshqalarga o'rgatadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi uchinchi farqi shuki, **inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi**.

Odam bilan hayvon o'rtasidagi to'rtinchi g'oyat muhim farq **hissiyot** o'rtasidagi farqdir. Rivojlanish sharoitlarining turlicha bo'lishi odam psixikasining hayvon psixikasidan ajratuvchi muhim farqlardan hisoblanadi. Agar odam insoniyat tajribasini o'zlashtirmas ekan, o'ziga o'xshagan odamlar bilan munosabatga kirishmas ekan, shaxs sifatida tarkib topmaydi. Inson ongining rivojlanishiga asosiy omil mehnat faoliyati, ya'ni odamlarning birgalikda qurol yasash va undan foydalanish faoliyatlari bo'lgan.

Mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ta'sir qiladi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi mehnatda rivojlanadi. Inson ongi evolyusion taraqqiyot jarayonida aks ettirishning eng yuksak shakli sifatida maydonga kelib, ong tufayli odam moddiy dunyodagi narsalarning ob'ektiv, barqaror xususiyatlarini ajrata oladi va shu asosda tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartira oladi. Demak, inson psixikasining oliy bosqichini ong deb atash mumkin.

3.4.Shartlivashartsizreflekslar

R.Dekart tomonidan XVII asrda refleks tushunchasini fanga kiritilishi organizm va muhit ta'siri asoslari ochilishi borasidagi muhim nazariyalardan biri sifatida rol o'ynaydi.

Refleks - organizmning tashqi va ichki ta'sirotlarga markaziy nerv tizimi orqali bergan javob reaksiyasidir. **I.M.Sechenov** (1829-1905) tomonidan amalga oshirilgan bu tushunchaning rivojlantirilishi va bu mexanizimning barcha psixik jarayonlarga tegishli ekanligi shunga olib keladi-ki, ilmiy psixologiyada determenizm tamoyili o'zil-kesil o'z tasdig'ini topdi.

Inson hayotida reflekslarni yuqori baholab, I.M.Sechenov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari (harakatlar) kelib chiqishi usuliga (mohiyatiga) ko'ra reflekslardir".

Reflektor aktda I.M.Sechenov uchta bo'g'imni ajratadi; 1. Birinchi bo'g'imda sezayotgan "to'pning" ta'sirlanishi nerv qo'zg'alishiga aylanadi. 2 qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari asosida o'ziga xos ravishda axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish ro'y beradi. 3.buyruqni amalga oshiruvchi organlarga (muskullarga va bezlar va hokazo) o'zatish.

I.P.Pavlov (1849-1936) I.M.Sechenovning miya reflektor faoliyatini o'rganish borasidagi g'oyasini rivojlantirib, refleks tushunchasiga yangi mazmun kiritdi hamda shartli reflekslarning hosil bo'lish asoslarini yaratdi. Reflekslarning ikki turi farqlanadi: shartsiz va shartli reflekslar.

---

[6] *Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com*

Shartsiz reflekslar tug’ma bo’lib, hayotning dastlabki kunlaridan va keyinchalik hech qanday tajribasiz (malakasiz) namoyon bo’la boshlaydi. Masalan, igna sanchilganda qo’lni tortib olinishi, ovqatning og’iz bo’shlig’ida tushgandagi so’lakning ajralishi.

Shartsiz reflekslarning markazlari turlichadir - shartsiz reflekslar yoylarning tutashuvchi orqa miyadan va bosh miyaning o’sishidan ro’y beradi. Shartli reflekslarning hosil bo’lish sohasi bosh miya po’stloqidir. Shartli ta'sirlagich organizmning hayoti uchun muhim bo’lgan qandaydir hodisalarning mavjudligi haqida, masalan ovqatning mavjudligi, xavf- xatarning paydo bo’lishi haqida xabar beradi.

Shuning uchun I.P.Pavlov bosh miya qobig’i faoliyatini signal faoliyati deb nomladi. I.P.Pavlov shartli reflekslar metodidan foydalanib, shuni aniqladiki, bosh miya katta yarim sharlari faoliyati organizmning ichki muhitidan va tashqi muhitdan nerv tizimiga kelayotgan ko’pgina ta'sirlovchilarning analiz va sintez jarayonlaridan iborat ekan. Analiz va sintez I.P.Pavlov tomonidan analizatorlar deb nomlangan o’ziga xos nerv tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

Analizatorlar - bu nerv fiziologik apparat bo’lib, periferiyadagi nerv uchidan (reseptor) sezuvchi nervdan(o’tkazish yo’li) va miya qobiqining tegishli qo’zg’atuvchini qabul qiluvchi sohasidan iboratdir.

I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal tizimlari to’g’risidagi ta'limoti ilmiy psixologiya uchun katta ahamiyatga egadir.

Hayvonlar uchun borliq katta yarim sharlaridagi ta'sirlagichlar va ularning izlari bilan signallashib ular organizmning ko’rish, eshitish reseptorlariga bevosita kelib turadi. Bu birinchi signallar tizimi bo’lib, odam va hayvonlarda umumiydir. So’zlar ikkinchi, maxsus insoniy signal tizimini tashkil etadi. So’zlar narsa va hodisalardan kelayotgan signallarning o’rnini egallagani uchun I.P.Pavlov tomonidan "signallar signali" deb nomlangan. Ikkinchi signal tizimining faoliyati

birinchi signal tizimidan ajralmagan holda bevosita bog’liq tarzda boradi. Ikkinchi signallar tizimi tafakkur va nutqning fiziologik asosi hisoblanadi.

Refleksning klassik tushunchasi yordamida psixik faoliyat asoslarini tushuntirishdagi muhim kamchilik shundan iboratki, refleks tizimi inson psixikasining idora etuvchi va o’zgartiruvchi rolini tushuntirib bermaydi. I.P.Pavlovning shogirdlari va izdoshlari bu kamchilikni reflektor organik tizimi tushunchasini reflektor halqasi tizimi tushunchasiga o’zgartirish yo’li bilan yechishga intildilar.



Reflektorlik faoliyatini anatomic fiziologik mexanizmi: Analizatorning sxtmasi. (1,2,3) Reflektorlikfaoliyati. (1,2,3,4,5) vareflektorlikaylanasi (1,2,3,4,5,6,7). 1-retseptor, 2-afferentnervyo’li, 3-markaziybug’in, 4-efferentnerv, 5-effektor, 6-7- qaytishkanali.

Nerv tizimining reflektorlik faoliyati borasida qator ishlar amalga oshirilgan bo’lib, ular tomonidan turli sxemalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Bernshteyn bo’yicha reflektor aylanasi quyidagi ko’rinishga ega.



Psixikaning fiziologik asoslarini ochish muammolariga hayotining ko’p yillarini bag’ishlagan rus fiziologi **P.K.Anoxin**(1898-1974) qaytarma afferentasiya tizimlarini aniqladi, natijada harakat akseptori deb nomlangan harakatini rejalashtiruvchi va idora etuvchi o’ziga xos funksional organlarga ajratildi.

Fanda ilmiy soha sifatida frenologiyaning asoschisi **F.Gall** XIX asrning boshlarida odamning turli qobiliyatlari, hatto kalla suyagining yuza qavatdagi turli nerv to’qimalari uchrab turadigan joyning kuchliroq rivojlanishi bilan bog’liq deb isbot qilishga harakat qilgan. Alohida psixik funksiyalarning bosh miyasini ma'lum bir qismlariga tegishli ekanini, uning lokal (joylashish) jarohatlanganligida kuzatishgan. Shu yo’l bilan chap yarim sharining uchinchi peshona burilishida nutq artikulyatsiyasini (talaffo’zini) amalga oshiradigan Broka markazi (uni aniqlagan franso’z anatomi P.Broka nomi bilan atalgan) so’ngra esa o’sha chap yarim sharining yuqori chakka burmasining orqa qismida "nutqni tushunishini idora qiladigan" Vernike markazi (uni ochgan nemis psixiatri K.Vernike nomi bilan atalgan) ajratilgan. Mashhur neyropsixolog**A.R.Luriyaning** fikricha, aynan shuning uchun miyaning cheklangan sohalaridagi psixik funksiyalarni "lokalizasiyalash" vazifasi "ushbu funksional tizimni amalga oshiradigan birgalikda ishlovchi miya zonalarining o’sha tizimini tahlili, boshqacha aytganda qanday qilib funksional tizim bosh miya apparatlari bo’ylab, tegishli tizimlar bo’ylab, joylashganligini tahlili" vazifasi bilan almashtirilishi lozim.

Inson miyasining funksional tuzilishini A.R.Luriya 3 ta blokka ajratadi: 1-blok - energetik blok, u miya po’stloq qismining normal ishlash tonusini ta'minlaydi. Miya po’stining yuqoridagi qismida joylashgan. 2-blok - axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki (ikkala yarim sharlarning orqa qismiga tepa chakka va ensa qismlariga joylashgan). 3-blok - faoliyatni dasturlashtirish, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlaydi (peshona qismida joylashgan).

Nazorat uchun savollar?

1.Markaziy nerv sistemasining tuzilishi?
2. Neyron nima?
3. Normal odam miyasida qancha neyron bor?
4. Orqa miyaning o’zunligi qancha?
5.Kichik miyaning organizmdagi vazifasi nima?
6. Bosh miyaning po’stlog’ining tuzilishi?
7.Ong tushunchasining mohiyatini izohlang?
8.Insonlarda ongsizlik holati qachon ro’y beradi?
9.Inson va hayvon psixikasi o’rtasidagi farqlar nimalarda ko’rinadi?

Test topshiriqlari.

1. Qaysi qatorda inson miyasining og’irligi to’g’ri ko’rsatilgan?

A) 1250-1300g B) 1250-1350g V) 1380-1450g D) 1350-1475g
G) 1350-1400g

2. Inson miyasida qancha miqdorda nerv hujayralari mavjud?

A) 11 mil. B) 13 mil. V) 14-15 mil G) 13-14mil. D) 12-13 mil.

3. Inson miyasining funksional tuzilishini o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) I.P.Pavlov B) I.M.Sechenov V) A.R.Luriya G) M.Teplov D) Neblisin

4. Nerv hujayrasi va uning o'simtalari ularni qoplovchi pardalar …… deb ataladi?

A) akson B) dendrite V) sinaps G) neyron D) refleks

5. "Bosh miya reflekslari" asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.P.Pavlov B) I.M.Sechenov V) A.R.Luriya G) M.Teplov D) Neblisin

6. "Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari o'zining yuzaga kelishi jihatidan reflekslardan iboratdir" mazkur fikr muallifi va asarning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) I.M.Sechenov "Bosh miya funksiyalari" B) I.P.Pavlov "Bosh miya reflekslari"

V) I.P.Pavlov "Oliy nerv faoliyati qonuniyatlari" G) I.M.Sechenov "Refleks va reflektor yoyi" D) I.M.Sechenov "Bosh miya reflekslari"

7. Psixik jarayonlar organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?

A) aks ettiruvchanlik B) signalilik V) boshqaruv G) psixikD) aks ettiruvchilik, signallik, boshqaruv

8. Psixik faoliyatning ruhiy jihatdan boshqarilishi reflektor xarakterga ega ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surgan psixolog olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) I.P.Pavlov B) I.M.Sechenov V) A.R.Luriya G) M. Teplov D) Neblisin

9. I.P.Pavlovning psixologiya fanidagi yangiligi nimadan iborat?

A) oliy nerv faoliyati qonuniyatlarini B) ikki xil signal tizimi haqidagi talimot

V) shartsiz va shartli reflekslar tajriba asosida o'rganildi G) oliy nerv faoliyati qonuniyatlarini, ikki xil signal tizimi haqidagi talimot D) Barcha javoblar to'g'ri

10. ……psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u, faqat insongagina xosdir.

A) psixika B)ongsizlik V) ong G) amaliy tafakkur D) to'g'ri javob yo'q

11. Ongning xarakterli xossalari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) anglash B) obekt bilan subekt o'rtasidagi farqni anglash V) maqsad ko'zlash

G) kishilar munosabatlarining yig'inisidir. D) barcha javoblar to'g'ri

12. ……. bu shunday psixik jarayonlar holatlar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-rarakatlariga javob bermaydi, anglamaydi?

A) tush ko'rish B) ongsizlik V) alahlash G) gallyusinasiya D) patalogik hodisalar

13. Turli nerv hujayralarining to'plashgan joyi bu……

A) oraliq miya B) neyron V) dendrite G) akson D) sinaps

14. Refleks tushunchasi dastlab fanga kim tomonidan kiritilgan?

A) I.M.Sechenov B) I.P.Pavlov V) R.Dekart G) Spinoza D) Anoxin

15. Organizmning tashqi va ichki tasirotlariga markaziy nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasi …… deb ataladi?

A) instinct B) refleks V) ko'nikma G) malaka D) odat

4-MAVZU: FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI.

REJA:

4.1.Faoliyat haqida tushuncha.

4.2.Faoliyatning interiorizasiyasi va eksteriorizasiyasi.

4.3.Faoliyatning tarkibi

4.4.Faoliyatning asosiy turlari

4.5. Chet el psixologlari adabiyotlarida o'qish motivasiyasi muammosi.

Tayanch tushunchalar

Etakchi faoliyat - faoliyat turlaridan biri bo'lib, bunda ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o'zgarib shakllanadi.

Interiorizasiya (lot. interior - ichki) - tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.

Ko'nikma - odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati.

Malakalar interferensiyasi (lot. later - orasida, ferens - tarqatuvchi) avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik boshqa yangi malakalarning hosil bo'lish jarayoniga sal'biy ta'sir ko'rsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.

Mehnat - odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyati.

Faoliyat - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish - psixologiyaning ilmiy-tekshirish metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo'lgan munosabatlari va uning o'zgarishini o'rganish usuli.

Faollik - tirik materiyaiing umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Eksteriorizasiya (lot. Exterior - tashqiga aylanish) - ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyati, jonli mushoxadaga aylanishi.

O'yin - faoliyat turlaridan biri. Bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarii aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyatidir.

O'qish - shaxsning bilim va faoliyat usullaripi egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

Harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladngan harakatlar yigindisi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. .Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 9-12 b.

2. Б.М.Умаров. Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

3. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

4.1.Faoliyat haqida tushuncha.

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga ob'ektiv va sub'ektiv omillarni kiritish mumkin va u quyidagi jadvalda aks ettirilgan.



Agar hayvonlarni xatti-harakatlari bevosita tevarak-atrofdagi muhit bilan belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlaboq, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu bois "faoliyat", "faollik", "xatti-harakat" tushuncha-larining mazmun mohiyatini anglab olish lozim. Shunga ko'ra adabiyotlarda mazkur tushunchalarga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida: **"Faoliyat** - kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir" -deb ta'riflanadi. M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan "Psixologiya" qisqacha izohli lug'atida: **"Faollik** - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir shu asosda faollik ko'rsatish bilan tavsiflanadi"-deya ta'riflangan.

Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir.

Harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Q.Turg'unovning "Psixologiya" terminlarining qisqacha ruscha-o'zbekcha izohli lug'atida: **Faollik** - shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zlashtirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lib, kishining faoliyati mehnat, o'qish, o'yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi"- deb ko'rsatiladi.

Faoliyat - inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish shakli. harakat - maqsadga muvofiq yo'nal-tirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat.

V.M.Karimovaning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida quyidagicha ta'riflar uchraydi: **Faollik** - shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir. **Faoliyat** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir.

Mazkur ta'riflardan ko'rinadiki, faoliyat tushunchasi o'z tarkibiga shaxsning u yoki bu darajadagi faollik ko'rsata olish darajalarini hamrab oladi va unga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: **Faoliyat**-anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig'indisiga aytiladi.

Adabiyotlarda faollik va harakat tushunchalari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgani bilan ular o'rtasidagi ayrim farqli belgilar kuzatiladi. Jumladan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy-biologik va ma'naviy ehtiyojlar bilan shartlashmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizda qurilishi mumkin.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixik narsa va hodisalarning xususiyat ob'ektiv xossalarni aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berish lozim.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilganharakatlarni ruyobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi, faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalash lozim. Shuning uchun faoliyatni bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshirish juda mushkul. Aynan ikkala omil o'zaro o'zviy aloqaga kirgandagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Inson faolligining o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o’zi bilan belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag’batlantirib tursa faoliyatning shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.

Faoliyatning muhim xususiyatlari	
Hayvonlar faolligi	Inson faoliyati
Instinktiv - biologik faollik	Bilishga va muloqatga bo'lgan ehtiyojlar bilan yo'naltirilgan
Hamkorlikdagi faoliyat emas, biologik maqsadlar, (oziqlanish, himoyalanish)ga asoslangan to'da bo'lib yurish, .	Kishilik jamiyati hamkorligidagi faoliyat asosida tashkil topgan, har bir harakat inson uchun hamkorlikdagi faoliyatidagi o'rniga ko'ra ahamiyatlidir
Ko'rgazmali - yaqqol vaziyatlar bilan boshqariladi.	Predmet va hodisalarni mavhumlashtirish, ular o'rtasidagi sababiy boqlanish va munosabatlarni aniqlash mumkin.
Irsiy jihatdan mustahkamlangan dastur (instinkt)lar asosidagi xatti-harakatlar, ko'nikmalar yakka tartibda hosil bo'lib hayvonning yashash uchun tashqi sharoitlarga moslashishi sifatida namoyon bo'ladi.	Tajribani berish va o'zlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari (til va boshqa belgilar tizimi) yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi.
Yordamchi qurollar, vositalar yasashi mumkin, ammo undan qurol sifatida doimo foydalanmaydi. Bir qurol yordamida boshqa qurol yasay olmaydi.	Mehnat qurollari yasab, uni keyingi avlodlariga ham qoldirishi mumkin. Turli predmet va qurollardan foydalanib, yangi qurol va vositalar yarata oladi.
Tashqi muhitga moslashadi	O'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni o'zgartiradi.

Odamni ishlashga majbur qiluvchi motiv uning ovqatlanish ehiyoji bo’lishi mumkin. Biroq odam, masalan, dastgohni ochlik ehtiyojini qondirish uchun boshqarmaydi. Inson faoliyatining mazmuni jamiyat talab qiladigan biron mahsulotni tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi. Faollik manbai bo’lgan faoliyat yaxshi anglab olingan maqsad bilan belgilanadi.

Yuqoridagi jadvalda inson faoliyati bilan hayvonlar xatti-harakati o’rtasidagi farqlar aks ettirilgan. Faoliyat faollikni anglab olingan maqsad bilan boshqaradi. Faoliyatni anglash qanday darajada bo’lmasin maqsadni anglash hamma vaqt ham zaruriy belgi sifatida qolaveradi.

I.M.Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to’g’risida tasavvurga ega bo’lgan, shu sababdan uning asarlarida "Tafakkurning faol shakli", "Tafakkur faoliyati", "Miya faoliyati", "Muskul faoliyati" so’z birikmalar keng ko’lamda joy olganligi I.P.Pavlov tomonidan "Oliy nerv faoliyati", N.A.Bernshteyn esa "Fiziologik faolligi" atamani fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko’ra farqlagan bo’lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo’llagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo’lsa, ish, mehnat faoliyati, "mehnat faolligi" mazmunida qo’llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada "Faoliyat - faollik - ish - mehnat", "Faoliyat - xulq", "mehnat - xulq, faoliyat" ko’rinishlari juftligi uchrab turadi. S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surib, uni atroflicha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zarurligini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini" tadqiq etadi.

A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "Predmetli faoliyat" so’z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan "Odamning hissiy amaliy faoliyati" so’z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "Faoliyat", "Xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan "Teskari alohalar vositasida xulqni boshqarish",

"Faoliyatning halhali tuzilishi", "Faoliyatni boshqarish", "qo'lning tuyush faoliyati", "Perseptiv faoliyat", "Reseptor va effektor" apparatlarining hamkorlik faoliyati kabilar.

B.G.Ananev faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma'nosida tushunadi. Uning fikricha bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko'rinishidir. Tadqiqotchi "Inson faoliyati", "Tashkiliy ish", "Tashkilotchilik faoliyati", "Xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma'noda foydalanadi.

4.2.Faoliyatning interiorizasiyasi va eksteriorizasiyasi.

Tashqi olamda turli hodisalar ma'lum darajada o'zaro doimiy bog'liqlikka, ma'lum sharoitlarda namoyon bo'ladigan biror mustahkam xususiyatga va tuzilishga egadir.

Ob'ektlar bilan hodisalar o'rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlarni ob'ektlarning muhim xususiyatlari deb yuritiladi. Bu ularning kelajakda qay darajada o'zgarishi va shu maqsadga muvofiq ish tutish, ya'ni ob'ekt va hodisalarning "xatti-harakatlari"ni oldindan ko'ra olish imkoniyatini beradi. Tashqi, ya'ni buyumlar bilan qilinadigan bunday holda guyo ichki, ya'ni ildam faoliyatni oldindan payqab olinadi. Ob'ekt (narsa) ustida qilinadigan konkret ishlar bu ob'ektlarning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan operasiyalar bilan, ya'ni ideal (psixik) ishlar bilan almashinadi. Boshqacha qilib aytganda, narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi.

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o'tish jarayonini **interorizatsiya** deb yuritiladi (ichki ishga aylanadi). Inson psixikasi interiorizasiyasi tufayli ayni chog'da ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsalarning obrazlari bilan ishlay bilish qobiliyatiga ega. Interiorizasiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiq qilingan. Interiorizasiya orqali inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi) dan foydalanish qurbiga ega bo'ladi. Shu narsa ma'lumki bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib, so'z o'zgarishi vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlari haqida axborotdan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir. Inson aqliy taraqqiyotida interiorizasiyaning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, odamning ichki dunyosi paydo bo'lgandan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o'ylab so'ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o'ylab, so'ngra bevosita tashqi munosabatga o'tishi faoliyatning eksteriorizasiyasi deb yuritiladi.

Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashganligi ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan sa'i - harakatlar ichki psixik jihatiga bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek tashqi jabha o'z navbatida a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni o'zluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi yaqqol faoliyatini ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizasiyalashuvga aylanishi deb baholash maqsadga muvofiq.

4.3.Faoliyatning tarkibi

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatda inson o'z xatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini ko'zatadi, muvaffaqiyat va maqlubiyatini o'ylaydi.

Faoliyat bir tomondan, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, ikkinchidan, shu faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir. Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismni: maqsad-motiv-harakatni ajratish mumkindir.

Maqsad - inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv - kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish-harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi.

MOTIVATIONAL STATES

When explaining why people and other animals do what they do, early theorists emphasized genetically endowed instincts. Other theorists have emphasized homeostatic mechanisms that monitor the organism's internal environment and work to maintain stability in that environment. Deviations from homeostasiscreate an internal state of biological and psychological tension called a drive.

THERMOREGULATION

Homeostatic control is evident in many settings, including thermoregulation. When an endothermic organism is cold, thermoregulation activates the sympathetic branch of the autonomic nervous system, which leads to increased heart rate, vasodilation, a slowing down of digestion, and other effects. When the organism is overheated, thermoregulation triggers the parasympathetic branch of the autonomic nervous system, which has the opposite effects.

Motivatsion holatlar

Odamlar va hayvonlar nima uchun va nimani qilishi oldingi nazariya asoschilari ta'kidlaganidek genetik instinktlar sabablidir. Boshqa nazariya asoschilari gomeostatistik mexanizmlarini organizmning ichki muhitini kuzatish va ishlash atrof-muhitda barqarorlikni ta'minlaydi deb ta'kidlashadi. Gomeostatistikdan boshqa tomonga o'tish "drive" deb atalgan biologik va psixologik keskinlikning ichki holatini yaratadi.

TERMOREGULATSIYA

Gomeostatistik nazorat termoregulatsiyani o'z ichiga olgan ko'p sharoitlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Endotermik organizm sovuq bo'lsa, termoregulastiya yurak urish tezligi, vazodilatasyon va boshqa oqibatlari boshqaradigan avtonom nerv tizimining simpatik bo'limini faollashtiradi. Agar organizm isib ketganda aksincha avtonom nerv tizimining parasimpatik bo'limi ishga tushiriladi.[7]

Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi-ko'pmi uzoq yoki yaqin bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tug'iladigan qator jo'z'iy maqsadlarni izchillik bilan hosil qilishdan iborat bo'ladi. Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.



Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o'zgartirishga qaratilganharakatlarni ish-harakat**(sa'i-harakat)** deb yuritiladi. Narsalar bilan qilinadigan istalgan bir ish makon va zamon bilan bog'liq bo'lgan ma'lum harakatlardan tashkil topadi. Masalan: "A", "I" harflarni yozishdagi harakatlar, bir-biridan farq qiladi. Odamlarning narsalar bilan qiladigan harakatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu harakatlar tashqi jihatdan juda ko'p, rang-barangdir. Shunday bo'lsa ham, odatda ular uchta sodda elementlardan tashkil topgandir; "olmoq", "joyini o'zgartirmoq", "quyib yubormoq" bu harakatlar odamning tanasi, oyoqlari va boshi bilan qilinadigan yordamchi harakatlar bilan amalga oshiriladi. Predmetli harakat tarkibi quyidagicha izohlanadi.

[7] ~~*Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com*~~



Inson faoliyatiga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilish tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglovchi matn paydo bo'ladi.

Inson faoliyati narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sa'i - harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati, b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish), v) joy almashish (yurish-yugurish), g) aloqa vositalari sa'i-harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga; a) ifodali sa'i- harakat (imo-ishora, pantomimika), b) ma'noli ishora, v) nutqiy sa'i- harakatlarni kiritadi.Sa'i-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganidan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilganharakatning ishga tushishi muayyan sa'i- harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning amalga oshishi, shart-sharoitlarga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish halamni olishdan boshqacharoq tarzdagi sa'i-harakatni taqazo etadi, b) avtomobilni haydash

velosepedda uchishga qaraganda o'zgacha sa'i-harakat talab qiladi, v) ellik kilogramm shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi, g) kartonga katta shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha ob'ektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Ob'ektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A. Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida isbotlab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i - harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilish mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'i- harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa tamoyiliga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari

aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchisi **P.K.Anoxinteskari afferentatsiya** deb atagan. Afferentasiya (lotincha afforens keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa axborotlarning tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentasiya uning aks holatini namoyon qiladi. Sa'i - harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsuloti timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'i-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular "Bo'lg'usi harakat modellari", "sa'i-harakat dasturi", "maqsadning dasturi", "miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari" singari tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari; "harakat akseptori" va "Ilgarilab aks ettirish" (P.K.Anoxin), "harakat-lantiruvchi vazifa" va "Bo'lg'usi ehtiyoj andozasi" (N.A.Bernshteyn), "Zaruriy mohiyat " va "Kelajak andozasi" (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi.

Narsalar bilan qilinadigan ish-harakatidan tashqari, odamning faoliyatini badanning ma'lum vaziyatini va qiyofasini saqlab turishni ta'minlaydigan harakatlar, organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga o'rin almashtirishi, kommunikasiyani ta'minlaydigan harakatlar, ifodali harakatlar va nutq harakatlari mavjud.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum tizimdagi harkatlarni amalga oshirishdan iborat. Harakatlar tizimi va maqsadi bilan, bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoiti bilan bog'liqdir. Masalan, stakan va halamni olish, piyoda va chang'ida yurish, og'ir va engil narsani boshqa joyga olib qo'yish, mayda va katta mixni qoqish, gantel va shtangani ko'tarish, harakatlari bir-biridan farq qiladi.

Harakatning boshqarilishi va uning natijalarini erishiladigan pirovard maqsad, taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'ldirib turiladi. Unday nazorat sezgi a'zolari yordami bilan erishilishi mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi. Demak, maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, tilakdagi kelajak modeli bilan ishning mazkur natijalari taqqoslanadi, xuddi ana shu ishning qay yo'sinda bo'lishi boshqariladi.

Harakatlarning istagan bir tomonlarini ularning motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlari deb atash mumkin. Ishni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga muvofiq, ular ishni ijro qiluvchi, boshqaruvchi deb belgilanishi mumkin. Bu vazifalarning har birini kishi ongli va ongsiz ravishda bajarishi mumkin. Odam talaffo'z qilmoqchi bo'lgan gapning grammatik shakli va mazmuni hamisha ong yordamida oldindan payqab olinadi. Odatda, ishdan ko'zlangan maqsad va shuning bilan birga ishning umumiy xarakteri hamma vaqt anglab olinadi. Masalan, velosipedda ketayotgan odam mutlaqo ongsizlik holatida buning uddasidan chiqa olmaydi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi. Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi malaka deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.
2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. Masalan,

mashinistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovozidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.

3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operasiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. **Malaka** deb mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga, aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. Malaka quyidagicha hosil qilinadi:

a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;

b) harakat namunasini esda olib qolish;

v) malaka namunalarini ko'p marta bajarish, mashq qilish;

g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlar tezlashadi, xatolar kamayadi;

d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish **ko'nikma** deyiladi.

Malaka turli yo'llar bilan ko'rsatish, tushuntirish, ko'rsatish va tushuntirishni qo'shib olib borish orqali hosil qilinishi mumkin.

Har bir ko'nikma va malaka odamning o'z tajribasida avval egallab olgan malakalari asosida yuzaga keladi va amal qiladi. Malaka, ko'nikmalarning ayrimlari kishining ko'nikma hosil qilishiga va malakali ishlashiga yordam beradi, boshqa birlari halaqit beradi, uchinchilari, yangi ko'nikmalarni o'zgartirib boradi. Bu hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Avval hosil qilingan malakalarning yangi malakalarga ijobiy ta'siri malakalarning ko'chishi yoki **malakalar induksiyasi** deb ataladi. Masalan, matematika darsida hosil bo'lgan ko'nikmani, fizikada qo'llash mumkin.

Faoliyatning yana bir qismi odat bo'lib, ko'nikma malakalardan hech qanday samara yoki natijaga ega emasligi bilan ajralib turadi. Odatda odam tomonidan beixtiyor, ongsiz tarzda muayyan maqsadga yo'naltirilmagan holda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda odatlar shaxs tomonidan nazorat qilinishi mumkin, lekin har doim ham aqlli va kerakli harakatlar bo'lmasligi mumkin.

4.4.Faoliyatning asosiy turlari

Odamlarning faoliyati ongli faollik sifatida inson ongining tarkib topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi. Inson faoliyatida taraqqiyotning asosi hamda ong mazmunining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi, shu bilan birga faoliyat odam shaxsini tarkib toptiradi. Odamlarda har xil turdagi faoliyatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda ham murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon. Bolaning faoliyati uning kamoloti davomida faqat asta-sekin ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ongli maqsadga mos faoliyat shaklini egallab boradi. Inson faoliyati asosan uch turga bo'linadi: o'yin, mehnat, ta'lim faoliyati. Bu faoliyat turlari bola shaxsining tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'yin. Bola bir yoshga to'lgandan boshlaboq unda faoliyatning sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday shart-sharoitlardan birinchisi o'yindir. O'yin faoliyatini hayvon bolalarida ham uchratish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanish, yolg'ondakam urishishlar, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin. Bolalarda ham o'yin ularning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai tahlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakatli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

O'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga mashq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatlari boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi. O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo

munosabatlarni o’zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So’z bilan harakatning birikuvi natijasida o’yin faoliyati tusini oladi va muayyan ma'noda axborot berish, o’zatish imkoniyatiga ega bo’ladi. Dastlabki o’yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o’yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga harakat qiladi.

O’yin dastavval bola uchun vaqt o’tkazish, uni mashg’ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o’sib o’tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug’ilgandan to maktab ta'limigacha uning uchun o’yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek o’yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Ta'lim faoliyati o’yin faoliyatining pirovardida yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum axborotlarni, bilimlarni, harakatlar va amallarni o’zlashtirishdan iboratdir. Odamning o’z maqsadiga ko’ra batamom o’rganish va o’zlashtirishdan iborat bo’lgan mana shunday maxsus faoliyati ta'lim faoliyati deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, ta'lim faoliyati o’z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: ma'lum bir nazariya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ob'ektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni o’zlashtirish. Bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, ya'ni bilimlarni o’zlashtirishda yuzaga keladigan usul va operasiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Ta'lim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab bo’lib, bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

Ta'lim faoliyati ma'lum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol ta'sir etib, ularning ta'lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog’liq bo’lgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o’rganish tomon yo’naltirishdir. Shunday qilib, ta'lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma'lumki, ta'lim faoliyati bilan tarbiya ishlari o’zviy bog’liqdir. Bizning maktablarimizda har qandayta'lim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan bo’yicha ta'lim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishontirish, ko’rsatish, rag’batlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnat faoliyati - ma'lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati ma'lum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega bo’ladi. Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning iste'mol qilinadigan narsalarni, ya'ni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, ya'ni kiyim-kechak oziq-ovqat va boshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo’lishi mumkin.

Mehnat faoliyati o’z mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham o’ziga kerak bo’ladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto birgina narsani boshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning uchun odam hayoti uchun zarur bo’lgan hamma narsalarni jamiyatdan oladi, o’z ehtiyojlarini qondiradi.

4.5. Chet el psixologlari adabiyotlarida o’qish motivasiyasi muammosi

Ta’lim-tarbiya jarayonida o’qish motivasiyasining o’rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o’rganilgan. O’quv samaradorligini oshirishda o’quv motivasiyasining rolini chet el olimlari o’z tadqiqotlarida tadqiqqildilar. Shu nuqtai nazardan turib, qo’zg’atuvchilardan tashqarida sodir bo’ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo’yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo’lib, ularni ko’rib chiqish ichki motivasiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo’l keladi. Shunday modellardan birini Ollport (1937, 1955, 161) taklifqiladi. Ollport ichki motivasiya bilan bog’liq bo’lgan uchta motivasion tushunchalarni tahlil qiladi; funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va «Men»ning jalb kilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat dastavval boshqa sabab bo’yicha paydo bo’lishi mumkin bo’lgan holda, o’zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi.

Torndayk o’quv masalalari bo’yicha ikkita kitob e’lon qilgan: «insonda o’quv jarayoni» (1931 yilda rus tiliga tarjima qilingan) hamda ingliz tilidagi «O’qish asoslari» (1932) kitobi.

Uning «Insonda o’quv jarayoni» kitobi ikki bo’limdan iborat. Birinchi bo’limda Torndaykning ko’p sonli eksperimentlari (tajribalari) yoritilgan bo’lib. Ikkinchi bo’limda uning o’quv jarayoni to’g’risidagi fikr-mulohazalari berilgan.

Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidadir: ular real o’quv jarayoni bilan juda oz darajada bog’langandir.

Amerikalik mualliflar ko’proqo’quv jarayoni anglab yetilgan motivlari bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko’rinishda bo’lib, o’quv jarayoniga mayl-istak uyg’otadigan muammo o’qishni motivlashtirish masalalari bilan shug’ullanadilar. Bunday ilmiy ishlarning mualliflari, masalan, o’quvchining sonlarni yodlashiga, alohida hatti-harakatlariga qaysi psixologik jihatlar ta’sir ko’rsatishlarini o’rganadilar va shu yo’l orqali motivlashtirishning ayrim komponentlarini aniqlashga harakatqiladilar. Bu sohada ular Torndaykning izdoshlari hisoblanadilar.

Torndayk o’quv jarayonini shunday ta’riflaydi: «O’quv jarayoni u yoki bu javob reaksiyasining ma’lum holati bilan muayyan bo’shliqlikda, ya’ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o’rtasida ma’lum aloqa o’rnatilishi bilan izohlanadi.

Torndayk kishi o’zi hohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ruyxushlikning hamda o’zi hohlagan reaksiyaga nisbatan bo’lgan maylsozlikning ta’sirini o’rganishga harakatqiladi va shunday xulosaga keladi: «Bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag’batlantirish omillaridan ancha bo’sh va kuchsizdir». Keyingi kitobida esa: «Rag’batlantirish umuman o’ziga eltuvchi barcha alohalarni yoqlash va kuchaytirish an’anasiga ega, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) alohalarni muayyandan noaniqka o’zgartirish xususiyatiga egadir», -deb yozadi.

Shunday qilib, o’qish nazariyasida Torndayk uchun ijobiy hamda salbiy mustahkamlash haqidagi masala asosiy jihat bo’lib hisoblanadi. O’z tekshirishlaridan kelib chiqib, Torndayk real inson turli rejadagi o’z ehtiyojlari hamda talablari orqali amalga oshiradigan, uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblangan o’quv jarayoniga aloqador bo’lgan umumiy tarzdagi xulosalarga keladi va bu xulosalar, albatta, motivlashtirish nuqtai nazaridan mustahkamlashning alohida bitta tizimiga sig’maydi.

Bruner ham o’qishni motivlashtirish masalasiga Torndaykdan boshqacha qaraydi.

«O’quv jarayoni» nomli izlanishlarida Bruner o’quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o’qish jarayoni tufayli tuqiladigan amaliy va nazariy muammolarni izohlashga harakatqiladi. Bruner yoki o’qishni motivasiyalash, yoki o’qish jarayoniga nisbatan o’quvchilarning moyilligini orttiruvchi omillar haqida emas, balki uning bilan birga, o’quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo’lsa ham, ulardagi ayrim yo’nalishlar diqqatga sazovordir. Bu birinchi galda, o’qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo’ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo’yilishidir.

Ta’lim berishda rag’batlantirish va jazolashning roli haqida juda ko’p yozilgan, lekin «yangilikni ochish»da qiziqishning, ichki kechinmalarning ahamiyati haqida juda kam gapirilgan. Agar biz pedagog sifatida bolalarni borgan sari kattaroqo’quv mavzularini egallashga o’rgatishni istasak, aftidan, o’quv dasturini puxta maydalab o’rganishda ko’proq ichki «rag’batlantirishni» qo’llashimiz lozim. Keyingi paytlarda muhokama etilayotgan predmetning murakkab bo’limlarini o’rganish usullaridan biri shundaki, o’quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinsin, ularning o’z qobiliyatlari va kuchlarini yetarli darajada sarflay olishlari uchun sharoit yaratilsin, toki ular samarali mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilsinlar. Tajribali pedagoglar bunday mehnat gashtining kuchini yaxshi biladilar. Biron-bir muammoni hal qilishga chuqur sho’ng’ib ketgan kishi nimalarni his qilishini o’quvchilar bilishi lozim.

Murakkab o’quv materialini o’zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg’otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: «Shubhasiz, masalan, mavzu o’rganilishi jihatidan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo’lsa, o’quvchi shunchalik ko’p intellektual «rag’batlantirish» olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o’rganishga kirishadi. O’quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushunmaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko’chish singari tashqi jihatlar rag’batlantirish bo’lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash

uchun bo'lgan intilish bola sinfdan-sinfga kuchishni tark etganda, ya'ni maktabni tugatganda to'xtaydi».

Bulardan tashqari, o'rganish predmeti sifatida yangi-yangi mavzular olindi.

Shu munosabat bilan E.Keronning «Yutuqni qo'lga kiritish va undan uzoqlanish motivlari epistemik hulq-atvorning dastlabki aniqlashtiruvchi qismi» nomli ishiga to'xtalish mumkin. Muallif «Epistemik hulq-atvor» terminini qo'llaydi va bu orqali individning o'qish, ma'ro'zalar tinglash, masalalarni to'g'ri qo'yish jarayonlaridao'z faolligini oshirishni tushunadi.

Bunday hulq-atvor turli tartibdagi motivlar bilan aniqlanadi. Bu motivlar bevosita buimni egallash maqsadida nisbatan tashqi motivlar shaklida bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib o'z ishi uchun yaxshi baho olishga, obru qozonishga nisbatan bo'lgan intilishlarni ko'rsatsa bo'ladi.

G'arb psixologiyasida motivasiyasining ikki xil ko'rinishi va ularning o'ziga xos belgilari haqidagi masala chuqur o'rganilgan. Bularekstrinsiv (tashqi shart-sharoitlar va holatlarga bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) va intrinsiv (shaxs dispozisiyalari bilan ehtiyojlar, ustanovkalar, qiziqishlar, mayllar, istaqlar bilan bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) motivasiyalar. Bu yo'nalishdagi munozaralar X.Xekxao'zenning «Motivasiya i deyatelnost» kitobida o'z aksini topgan. X.Xekxao'zen intrinsiv va ekstrinsiv motivasiyasining turli xil konsepsiyalarini olti turini farqlaydi. Bu konsepsiyalar asosiy jarayonlarning munosabatlarida birinchi rejaga qanday komponentlarning chiqishiga qarab biri-ikkinchisidan farqlanadi.

Shunday qilib, bu qo'yida intrinsiv va ekstrinsiv motivasiya bo'yicha alohida-alohida ko'rib chihamiz.

Birinchi konsepsiyada ta'kidlanishicha, intrinsiv motivlashgan hatti-harakatlar ochlik, chanqoqlik, og'riqdan qochish singari jismoniy ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalmagan. Bu yo'nalishda tadqiqot ishini olib borgan olimlarning ta'kidlashicha, mazkur ehtiyojlar organizm tomonidan buzilgan gomeostazni tiklashga xizmat qilishmaydi. Biroq tashqi hatti-harakatlarda ularni kuzatish mumkin bo'ladi.

Birinchi konsepsiyaga o'xshash motivlashgan hatti-harakatlar maqsadsiz faollik sifatida talqin qilinadi. Masalan, bolalardagi bunday hatti-harakatlarni, xususan, uyinni tadqiqqilgan Ye.Klinger (1971) uyin jarayoni «uyin uchun uyinday» kechishini, aniqroqqilib aytganda, uyinda aniq maqsad yo'qligini, shuning uchun ham uyinning o'zi maqsad ekanligini ta'kidlaydi. R.Uayt (1959) ning fikricha, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida individ tomonidan eng katta bo'lgan faolliklar hatti-harakatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Bunday ko'rinishdagi faollikning asosini «harakatchanlik motivasiyasi» deb hisoblaydi olim. Shu bilan birgalikda, samaradorlik tuyg'usi –faollikni motivlashtiruvchi, uning natijasi esa turli ko'rinishdagi komponentlikning oshishi hisoblanadi. Keyinchalik borib umumiy motivasiyadan harakatchanlik ko'rinishiga nisbatan aniqroq motivlar ajralib chiqadi. Bolalarga muvaffaqiyat yoki o'zini-o'zi tasdiqlash motivlari kiradi.

Desi (1975) Xantning ta'limotini tanqid qila turib, uni yetarli darajada o'zviy emaslikda va tugallanmaganlikda ayblaydi. Uning fikricha, Xant ilgari surgan tafovutga nisbatan ehtiyoj nafaqat aniqlangan tafovutni yo'qotish motivasiyasini, balki yangi tafovutni izlash motivasiyasini ham keltirib chiqaradi.

Keyingi, to'rtinchi konsepsiya buyicha De Charms ilk motivasiyani o'z samaradorligini his qilishda, o'zini atrof-muhitdagi o'zgarishlarning manbai sifatida sezishda ko'radi. Bunday o'z harakatlarining sababchisi bo'lishga intilish alohida motivni emas, balki qandaydir boshqarish tomoyilini keltirib chiqaradi. Bu boshqaruv tamoyili ko'plab motivlarni paydo qilishi mumkin.

De Charms o'z fikrlarini qo'yidagicha soddaroqqilib tushuntiradi. Insonga atrofdagilarning talablari, va'da qilingan mukofotlar va mumkin bo'lgan jazolar, tashqi bosim-bularning barchasi kuchli ta'sir ko'rsatadi va ular o'zini o'zi tasdiqlash darajasini, hatto o'zgalarga to'liq bog'liqlik ko'rinishigacha tushirib yuborishi mumkin. Inson bunga qarshilik ko'rsatishga intiladi va bu narsa qanchalik uning qo'lidan kelgani sari, u shunchalik o'zini voqyealarning xujayini sifatida his qila boradi, u o'z faoliyatidan shunchalik quvonadi va unda shunchalik ko'proq intrinsiv motivasiya kuchliroq bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, shunchalik ko'proqo'zini tashqi holatlarining qug'irchog'iga o'xshata boradi, shunchalik u o'z faoliyatini ma'nosiz va yolqiz tashqi jihatdan motivlashgan his qiladi. Shu o'rinda de Charms tashqi ta'sirlar to'g'risida ikkita xulosa chiqaradi. Shulardan birinchisi

qo’yidagicha: agar inson bajarayotgan, yoxud o’z hohishi bilan bajargan ishi bo’yicha taqdirlansa, bunday taqdirlanish instrinsiv motivasiyaning kuchsizlanishiga sabab bo’ladi. Ikkinchi xulosaga binoan, agar odam qiziq bo’lmagan, faqatgina taqdirlanish istagida qilgan faoliyati uchun taqdirlanmasa, unga bo’lgan instrinsiv motivasiya kuchayadi.

Bu yo’nalishda eksperimental tadqiqot tashabbuskori Lipper (1974) va Desi (1975) bo’ladilar. Ular de Charmsning konsepsiyasini rivojlantirdilar. Quyida ularning olib borgan ishlarini alohida-alohida ko’rib chihamiz.

Lipper o’z tadqiqotlarida D.Bemning o’zini idrok qilish nazariyasiga (1972) tayanadi. Lipperning fikricha, agar odam shundoqham ishtiyoq bilan amalga oshirayotgan faoliyati uchun qo’shimcha taqdirlansa, bunda odam o’zining faoliyatini «o’ta tasdiqlangan» hisoblaydi va bu harakatni o’z ixtiyori bilangina amalga oshirilganligini o’ylab qoladi. Umuman aytganda, Lipper intrinsiv motivasiya bilan taqdirlanish o’rtasidagi aloqlarni har tomonlama tahlil qiladi.

Savollar?

1. Faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Faoliyat turlarini sanang?
3. Ehtiyojlar nechaga bo’linadi?
4. Motivasiya nima?
5. O’qish motivlari deganda nimani tushunasiz?
6. Faoliyatning interiorizasiyasi va eksteriorizasiyasini tushuntiring?

Test topshiriqlari

1.Qaysi qatorda faoliyat tushunchasiga to’liq ta'rif berilgan?

A) bajarilish ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi

B) mashq qilish natijasida turli malakalarning shakllanish jarayoni

V) har bir tirik organizmni o’z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan faolligi

G) shaxsning o’z ehtiyojlarini qondirish uchun ko’rsatadigan jismoniy va ruhiy faolligiga aytiladi D) ixtiyorsiz yoki anglangan holda bajariladigan harakat

2. Inson faoliyatini so’nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo’ladigan va ehtiyojlarni amalga oshirilishi bu……..

A) odat B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

3. Kishini faoliyatga undaydigan va unga mazmun baxsh etadigan kuch bu…….

A) odat B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

4. ……..galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibiy qismi.

A) odat B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

5. Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o’zgartirishga qaratilganharakatlarni …….. deb yuritiladi.

A) odat B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

6…….bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi.

A) odat B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

7. Teskari afferentasiya tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

A) N.A.Bernshteyn B) A.K.Anoxin V) A.N.Leontev G) S.L.Rubinshteyn

D) B.G.Ananev

8. Teskari afferentasiya tushunchasining mazmuni qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) tananing fazoviy holati B) tashqi qo’zg’atuvchilardan hamda ichki organlardan axborot qabul qiluvchi hisiy a'zolardan markaziy nerv tizimiga impulslarining doimiy oqimi V) bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq-atvorning tarkibiy qismi. G) tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o’zgartirishga qaratilganharakatlar D) inson faoliyati so’nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo’ladigan va ehtiyojlarni amalga oshirilishi

9. Qaysi olim tadqiqotlarida faoliyatga nisbatan "tafakkurning faol shakli", "miya faoliyati" "muskul faoliyati" iboralari qo’llaniladi.

A) N.A.Bernshteyn B) A.K.Anoxin V) A.N.Leontev G) S.L.Rubinshteyn
D) I.M.Sechenov

10.Qaysi olim tomonidan "oliy nerv faoliyati" tushunchasini faoliyat tushunchasiga nisbatan qo'llangan?

A) N.A.Bernshteyn B)I.P.Pavlov V)A.N.Leontev G)S.L.Rubinshteyn
D) I.M.Sechenov

11. N.A.Brenshteyn tomonidan qanday tushuncha fanga kiritildi?

A) muskul faoliyati B) miya faoliyati V) fiziologik faolligi G) tafakkurning faol shakli D) tafakkur faoliyati

12. Faoliyat psixologiyasini qaysi olim tomonidan asoslab berildi?

A) N.A.Bernshteyn B) A.K.Anoxin V) A.N.Leontev G) S.L.Rubinshteyn
D) I.M.Sechenov

13. Mehnat psixologik emas balki "ijtimoiy kategoriya" psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini tadqiq etadi".Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) N.A.Bernshteyn B) A.K.Anoxin V) A.N.Leontev G) S.L.Rubinshteyn
D) I.M.Sechenov

14.Faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi sifatida talqin etgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) B.G.Ananev B) A.K.Anoxin V) A.N.Leontev G) S.L.Rubinshteyn
D) I.M.Sechenov

15.Faoliyatning interorizasiyasi muammosi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?.

A) L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev B) P.Ya.Galperin, S.L.Rubinshteyn
V) S.L.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn G) B.G.Ananev, A.N.Leontev
D) B.G.Ananev, K.P.Anoxin

16.Ob'ektning barqaror bog'lanishlari yig'indisi bo'lib, turli tashqi va ichki o'zgarishlardan qat'iy nazar o'z maqsadi va butunligini saqlaydi.

A) tizim B) motiv V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

17.Bu faoliyatning nisbatan tugallangan elementi bo'lib, u motivga bo'ysungan oraliq maqsadga erishishni nazarda tutadi?

A) odat B) xatti-harakat V) ish-harakat G) sa'i –harakat D) maqsad

18. Predmetli xatti-harakatlar nechta harakatlarni hamrab oladi?.

A) 2ta B) 3 ta V) 4 ta G) 6 ta D) 7 ta

19.Qaysi qatorda aqliy xatti-harakatlar ko'rsatilgan?

A) perseptiv uning asosida predmetlarni idrok etish asosida yaxlit obraz yuzaga keladi.B) mnemik materialni faoliyat jarayonida yodlash esga tushirish eslab qolish
V) fikrlash orqali masalalarni yechish G) barcha javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob berilmagan

20.Ko'nikmalarni shakllanishi asosan necha bosqichni o'z ichiga oladi?.

A) 2ta B) 3 ta V) 4 ta G) 6 ta D) 7 ta

5- MAVZU: SHAXS- TAFAKKUR VA MUSTAQIL FIKRLASHNING SUB'YEKTI SIFATIDA. SHAXS SHAKLLANISHINING UMUMIY PSIXOLOGIK QONUNIYATLARI.

REJA:

5.1.Shaxs haqida tushuncha
5.2."Endopsixika" va "ekzopsixika" haqida tushuncha
5.3.Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari
5.4.Rus olimlari ijodida shaxs ta'rifi
5.5.Shaxsning faolligi.
5.6.Shaxsning malaka va odatlari
5.7.Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili

Tayanch tushunchalar

Autizm (yunon. auto - o'zim) - individning o'zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o'zining kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonalashuv.

Biogenetik qonun (yunon bios - hayot, genesis - kelib chiqmoq - psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun bo'lib, unga ko'ra ontogenez filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi.

Ideal (yunon. idea – g'oya, tushuncha tasavvur) - biror narsaning namunasi, ayrim odam, guruh va sinf xatti - harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Individ - (lot, iudividuum bo'linmas ayrim jins, shaxs) - biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik - individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligi.

Konformlik (lot. corformis o'xshash, mos) - individnnng guruh fikrlariga tegishli tomondangina qo'shilib, ichki tomondan esa qo'shilmay o'z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi.

"Men" - konsepsiya (lot. conceptio - qabul etish - odamning o'zi to'grisida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlar tizimi.

Frustrasiya (yunon, frustration - aldanish, behuda ko'rish, xafagarchilik, rejalarning izdan chiqishi) - kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, ob'ektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyo'ladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati.

Shaxs - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Ehtiyoj - odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog'liq zaruriyatning ichki holati.

Qiziqish - shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati, keng va tor, chuqur va yuzaki barqaror bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oliy o'quv yurtlari uchun DARSLIK. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 308 b.

2.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 1999. – 96 b.

3. Б.М.Умаров. Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

4. Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA.

5. Miss Harris – Summer 2015 – eharris@moseleypark.org A-level Psychology pre-course assignment.

5.1.Shaxs haqida tushuncha

Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta - sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining sub'ektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida **"Individ"** tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chahaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoiylik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash lozim. Individ tushunchasi professor E.G'ozievning "Umumiy

psixologiya" darsligida tavsiflanishicha, **individ** lotincha ajralmas, alohida zot ma'nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chahaloq ham, nutqi yo'q oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Psixologiyadan qisqacha izohli lug'atda" **individ** bo'linmas, ayrim jins, shaxs ma'nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Keltirilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki **shaxs** deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chahaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarining mavjud-ligini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chahaloqning inson zotiga mansubligini ta'kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim.



Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. **Individuallik** deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir.

Shaxsiyat fikrning xususiy xossalari yig'indisi sifatida, hissiyot, xulq-atvor zamiridagi yashirin psixologik mexanizmlaridir	Personality can be defined as an individual's characteristic patterns of thought, emotion, and behavior, together with the

(Funder, 2007). Shaxs psixologiyasining asosiy maqsadi, insonning chuqur ruhiyatini tahlil qilish. Asosiy vazifalari, insonlarning bir-birlaridan qanday farq qilishini aniqlash va o'lchash, ong va ong osti fikr tuyg'ularin ochish, insonlarning kelajagi haqida bashorat qilish. Lekin bu borada bitta muammo bor, insonning to'liq o'rganishi uchun tadqiqotchilarning aqli va vaqti yetmaydi, chegaralangan.

Bir vaqtning o'zida shaxsni bir qancha sohalar orqali o'rganish uchun emas, balki individual o'rganish foydaliroqdir. Tadqiqotchilar shaxsni biologik asoslarni o'rganishda muhitni rivojlanishga ta'sirini, boshqalarni qanday tahlil qilishni, uchunchilari odamlarni bir-biridan farqini, asosiy psixologik jihatlarini aniqlash va baholashni o'rganadi. Hamma sohalarda insonlardagi individual farqlar va o'ziga xos xulq shunga o'xshash jarayonlar markazida shaxsni paradikmatik tuzulishi (masalan muayyan xususiyatlar va xulqni tuzilishi) uning asosida qanday mexanizmlar yotganini tushuntirib berish uchun ishlatiladi. (Masalan qabul qilishga irsiy va tshqi omillarning). Shaxsni o'rganishdagi asosiy yondashuvlar biologik, psixoanalitik, insonparvarlik bo'lib, ta'lim, bilish va xarakter jarayonlarini tadqiq qiladi. (Funder 2007).

Turli yondashuvlar ba'zan bir-birlari bilan raqobatlashsada, lekin yakunida shaxs haqida bilish kerak bo'lgan har bir narsani, haqiqatni, savollarga javobni, eng yaxshi tadqiqot usullari va paradikmatik jihatdan o'rganishga harakat qiladi. Masalan, Bexeviorizm tamoyillari qiziqishlarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin xulqdagi yomon odat, o'yinlar haqida hech narsa demaydi va bu muammo hisoblanadi. Aksincha, psixoanalizda qabul qilmaslik va boshqa himoya mexanizmlari haqida fikrlar bor, lekin bunday noo'rin harakatlarni qanday tushunish mumkinligi haqida takliflar bo'ladi. Shuning uchun bu har bir yondashuvni ko'rish emas, balki ulardagi foydali jihatlarni, asosiy muammolarni yechishda birgalikda imkoniyatlardan foydalanish kerak. (*Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA*)

psychological mechanisms – hidden or not – behind those patterns (Funder, 2007). The ultimate goal of personality psychology is to explain every individual from the inside out. The mission includes describing, measuring and explaining how people differ from one another, uncovering the conscious and unconscious thoughts and feelings that drive behavior, and predicting what people will do in the future, among other goals. But this mission has one problem: it is impossible. The complete study of the individual encompasses too many considerations at once to be feasibly pursued by investigators with human limitations of time and intelligence.

One way to make personality research more manageable is to divide it into organized chunks. Rather than trying to look at every possible aspect of personality at the same time, personality research proceeds along different theoretical avenues. Some researchers examine the biological underpinnings of personality, others look at developmental trajectories, others examine how the environment affects personality, and others study how people differ in how they perceive and process information, and still others – and all of them, in some sense – seek to discover and assess the basic psychological dimensions along which individuals differ. All of these areas of research are similar in that they focus on individual differences and patterns of behavior, but are guided by different paradigmatic frameworks that specify which phenomena are the focus of attention (e.g., particular traits and behaviors) and which mechanisms are used for explanation (e.g., genes vs. the environment vs. cognition). The basic approaches to studying personality are biological, psychoanalytic, humanistic, learning-based, cognitive, and trait-based (Funder, 2007).

Although the different approaches sometimes compete with one another for the ultimate status of explaining everything there is to know about personality, the reality is that different research questions are better addressed through different paradigmatic perspectives. For example, the principles of behaviorism can be used to explain how gambling behavior is maintained, but say nothing about why those who have gambling addictions are often unable to admit that they have a problem. In contrast, psychoanalysis has much to say about denial and

	other defense mechanisms, but offers little toward understanding how the intermittent reinforcement schedule associated with gambling can make this maladaptive behavior so persistent. For this reason, it makes more sense to view each approach as useful for addressing its own key concerns, rather than viewing them as mutually exclusive alternatives.

5.2."Endopsixika" va "ekzopsixika" haqida tushuncha

Hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bir shaxsning boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishga ega ekanligidir. Ushbu psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi.

Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir necha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi binobarin, ushbu bo'laqlarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiya fanida psixologlar shaxsning psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli jihatlariga asoslanib, turkumlarga ajratishni tavsiya etmoqdalar.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning voqelikka ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan "ichki psixik" ("endopsixik" - yunoncha endo ichki degan ma'noni bildiradi) degan g'oyani ilgari surdilar. Uning talqiniga ko'ra, **"endopsixika"** shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan "endopsixika" aynan bir narsa degan tushuncha tasdiqlanadi, chunki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning "endopsixik" qismi bo'lsa, shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshibo'lgan barcha jihatlarni, shaxslararo va ob'ektiv munosabatini belgilaydi. "Endopsixika" o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini irodaviy zo'r berish xislatlarini ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. **"Ekzopsixika"** esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni hamrab oladi. Tabiiy asosga ega bo'lgan "endopsixika" biologik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa, "ekzopsixika" aksincha ijtimoiy voqeliklar ta'sir ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Ta'kidlab o'tilgan, fikrlarni tasdiqlash maqsadida ular o'tkazgan tajribalariga murojaat qilamiz. qo'sh omillik nazariyasi tadqiqotchilari tajribalarida 80-130 sm balandlikdagi odamning shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish uchun o'rganilgan. Buning natijasida ular shaxsi tuzilishida ko'p xislatlari o'xshashligi topilgan. Bunday odamlarning past (pakana) bo'lishlaridan tashqari, ularning tuzilishida hech qanday nuqson va kamchilik yo'q ekanligi aniqlangan. Bunday toifaga kiruvchi bolalarga xos kulguni hech bir tanqidsiz, o'ta soddalikni, muayyan darajada emosional (hissiy) zo'riqishni namoyon qiladigan vaziyatga nisbatan chidamlilikni, uyat hissining kamroq ekanligini uchratish mumkin. Shaxsning xislatlariga na "endopsixika", na "ekzopsixika" qismlarini kiritish mumkin emas. Chunki shaxsning sifatlari mitti odamlarning mahsuli bo'lib ular bo'yicha nisbatan o'z tengqurlari o'rtasidagi farq aniqlangan davrdan e'tiboran shunday bir ijtimoiy vaziyatda paydo bo'lishi, tarkib topishining takomillashishi tabiiydir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mitti odamlarga bo'ydor kishilarga qaraganda boshqacha munosabat - ularni pisand qilmaslik, kamsitilish, ular ham barcha kabi narsalarni his qilishi, orzu qilishi, ajablanishi, jayron qolishi sababli ularda shaxsning o'ziga xos tuzilishi vujudga keladi. Bunday yaqqol voqelik ularning ruhiy ezilishini, ba'zan boshqalarga, hattoo'zlariga nisbatan tajovo'zkorona yo'l tutish-larini niqoblaydi, holos. Mabodo biz mitti o'zlari bilan bap-baravar bo'yli kishilar muhitida yashaydi deb tasavvur qilsak, u holda ularda ham tevarak-atrofdagi boshqa odamlardagi kabi mutlaqo boshqacha shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar, xislatlar sifatlar mujasassamlashishi mumkin bular edi.

5.3. Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari

Psixologiya bilan tanishuv

Psixologik yondashuv va qarashlar

Psixologiya aqlning hulqini o'rganadi. Hulq-atvor ko'pligi sababli psixologiyaga bir necha ta'riflar mavjud. Odatda kishi hulqiga 5 ta yondashuv bor: kognitiv, rivojlanish, biologik, ijtimoiy va individual xar xillik yondashuvi.

Kognitiv yondashuv aqliy jarayonni o'rganadi, qaysiki hulqdan keyin, oldin va davomida sodir bo'ladi. Bu qabul qilish, xotira, o'ylash, sabab bo'lish, muammoni hal qilish va til bilan qiziqadi. Bu yondashuv Loftus va Palmer (1974) izlanishlariga asoslanadi qaysiki avto halokatning xato xotiralariga asoslangan.

Rivojlanish yondashuvi insonning hayoti davomidagi o'zgarishlarni o'rganadi. Bu o'zgarishlar kognitiv, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Odatda bu ko'proq bolalarga e'tibor beradi. Bu yondashuvga asoslangan izlanish Banduraning bolalarda o'tkazgan tajribasida nomoyon bo'ladi.

Biologik yondashuv bizning psixologiyamizda namoyon bo'luvchi xulq-atvorni ko'rsatib beradi. Biologik psixologik e'tiborini ko'proq miya va nerv tizimi tuzilishiga qaratadi. Odamning quloq miya funksiyasini o'rgangan Sperri izlanishi bunga misol bo'ladi.

Ijtimoiy yondashuv kishi va kichik guruh, guruhlar o'rtasidagi aloqani o'rganadi. Ijtimoiy psixologlar hukm, ayirmachilik, qabul qilish, quloq solish, mahrum qilish bilan qiziqadi. Bunga Milgram izlanishi misol bo'ladi. Bu kishining biror kimni elektrda qatl qilishidagi bo'yso'nishiga asoslangan.

Individual yondashuvda kishi xulqi qat'iy emas va muntazam o'zgarib turadi deyiladi. Bu yosh, jins, aqllilik, irq va madaniy kelib chiqishdagi farqlarni o'rganadi. Normallik va g'ayrioddiylik shuni anglatadi. Baron-Koxenning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, faollik kishilarning his-hayajonlarini suniy bo'lishidagi qiyinchiliklariga sabab ular aql nazariyasidan yetarli bilimga ega emas.

Yana psixologiyada 2 ta perspektiva bor ular: hulq-atvor perspektivasi va psixodinamik P. Hulq-atvor perspektivasiga ko'ra shart- sharoit vs o'rganish hosilasida hulq-atvor shakllanadi. Hech qaysi hulq-atvor psixologiyadan meros bo'lib o'tmaydi. Bu nuqtai nazarga ko'ra hulq-atvor stimul, jazolash, taqdirlash natijasida o'zgarib boradi. Skinnerning izlanishiga ko'ra irim-sirimchi kabutarlar va ularning sharoitga bo'lgan munosabati bunga misol bo'ladi.

Psixodinamik nuqtai nazarga ko'ra hulq-atvor uyqudagi ong va unda konfliktlur natijasidir. Ongning 3 qismi bor bular: shaxs (xoxish), Ego (reallik) va Superego (etika). Agarda shu 3 qismda muvozanat buzilsa, kishi aqliy kasallikda aziyat chekadi. Bu qarash birinchi navbatda aqliy sog'lomlik va kishilarning inqiroz bilan hisoblashishiga e'tibor beradi. Kichik Hansda o'tkazilgan Frend tajribasi bunga misoldir[8].

Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozisiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashuvga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sosiogenetik, psixogenetik, kognitiv, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin.Ularni quyidagi tizimda yaqqol ko'rish imkoniyatini beradi.



Biogenetik nazariyaning negizida yetilish bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, holos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga (aniqlov-chilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o'zi biologik etilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni **F.Myuller va Gekkellar** kashf qilishgan, biogenetik qonuniyat fanning taraqqiyoti nazariyani tashkil qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq fanning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, **biologik qonunga ko'ra** shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyatni tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya edi.

Biogenetik nazariyaning yirik namoyondalaridan bo'lmish amerikalik psixolog **S.Holl** psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb **"rekapitulasiya qonuni"ni** (filogenezni qisqacha takrorlanishini) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis "konstitusion psixologiyasi" (inson tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. **E.Krechmer** shaxs tipologiyasi negizida bir qancha biologik omillarni (masalan tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan psixologik xususiyati o'rtasida o'zviy bog'liqlik mavjud deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshida sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminni u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik, tajovo'zkorlik, affektiv tabiatlilik, ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari) bo'ladi degan xulosa chiqaradi.

Biogenetik nazariyaning namoyondalari amerikalik psixologlar A.Gezell, S.Holl taraqqiyotning biologik modeliga asoslanib ish ko'radilar va bu jarayonda muvozanat, integrasiya va yangilanish sikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi **Zigmund Freydni** shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy maylga (libidoga) bog'liqdir.

Biologik nazariyaga qarama-qarshibo'lgan nazariya **sosiogenetik nazariya** hisoblanadi. Sosiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. **Ijtimoiylashuv nazariyasiga** ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy Evropaning eng muhim nufo'zli nazariyalaridan biri bu **rollar nazariyasidir.** Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o'zgalar bilan munosabat muloqot o'rnatishda sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu **individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir**. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini o'zluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari **E.Torndayk va B.Skinnerlar** hisoblanadi.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan **"fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi**psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyatni kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra, individning xulqi

(xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish) maqsadlar bilan boshqarilib turiladi, va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Psixologiyada **psixogenetik yondashish** ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Psixologiyaning **irrasional** (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emosiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog**E.Eriksondir**. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Kognitiv yo'nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, J.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellekt davrlari ta'limotini o'z ichiga hamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptasiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu masala bilan shu?ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o'ziga xosligi bo'yicha yondashuvda muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va undan so'ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta'rif berish nuqtai-nazaridan yondashishni quyidagi nazariya va yo'nalishlarini ko'rsatib berish mumkin. Jumladan, ***rivojlanishdagi inqirozga binoan***(L.S.Vigotskiy); ***motivasion yondashish*** (L.I.Bojovich); ***faoliyatga ko'ra munosabat*** (D.B.Elkonin); ***shaxsning***

ijtimoiylashuv xususiyatiga e'tiboran (A.V.Petrovskiy); ***shaxsning tutgan pozisiyasini hisobga olib*** (D.I.Feldshteyn) va hokazo.

Shunday qilib, jahon va hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik asosga ega bo'lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo'lib, xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni echishda keng ko'lamda qo'llaniladi.

5.4.Rus olimlariijodida shaxs ta'rifi

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. quyida mualliflar tomonidan keltirilgan ta'riflar tahlillarining keltirib o'tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, ***shaxs*** - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti ham sub'ektidir. A.N.Leont'ev ushbu masalaga boshqacharoq yondashadi va unga shunday ta'rif beradi: ***shaxs*** faoliyat sub'ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan jamiyatda o'z rolini anglovchi, jamiyatning qishga layoqatli, yaroqli a'zosi ***shaxs*** deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurro ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha***, shaxs*** - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin o'zaro farqlanib turuvchi tushunchalar qo'llanib kelinadi, chunonchi odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish, har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1.**Odam** sut emizuvchilar sinfiga dahldorligi biologik jonzot ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi, uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniga ham egadir.

2.**Shaxs** mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3.**Individuallik** - har qanday insonning betakror, o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassam-lashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individuallik shaxsning intellektual, emosional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs tuzilishiga doir qator manbalar keltirilgan.

Jumladan, **S.L.Rubinshteyn** bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

1.Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2.Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3.Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.



K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra shaxs tuzilishi quyidagicha shaklga ega:

1.Yo'nalganlik osttuzilishi - shaxsning ahloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Unda harakatchanlik, barqarorlik jadallik ko'lami (hajmi) darajalarini farqlash lozim.

2.Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - ta'lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va odatlarni hamrab oladi.

3.Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4.Biologik shartlanganlik osttuzilishi - miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalyov talqiniga binoan shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1.Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2.Imkoniyatlar - faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta'minlovchi tizim, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3.Xarakter - ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

4.Mashqlar to'plami - hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni to'zatish (korreksiyalash), o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

5.5.Shaxsning faolligi

Shaxs o'zining faoliyati tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo'ladi. **Shaxsning faolligi** deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi.

Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o’zaro munosabatda bo’ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashibgina qolmasdan, uni o’zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo’ladi. XX asr boshlarida avstriyalik psixolog Z.Freyd shaxs faolligini quyidagicha tushuntiradi. Odam o’zining avlodlaridan nasliy yo’l bilan o’tgan instinktiv mayllarining namoyon bo’lishi tufayli faoldir, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo’ladi Z.Freyd shaxsning faolligini jinsiy mayllar bilan bog’laydi. Shaxsning faolligini hozirgi zamon ilmiy

psixologiyasi to’g’ri hal qilib beradi. Inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlar, deb tushuntiradi.

Psixologik nuqtai nazardan borliq to’g’risida mulohaza yuritilganda, tirik mavjudotlarning (oddiy tuzilishga ega bo’lganidan tortib, to murakkabigacha) tevarak-atrof bilan hayotiy ahamiyatga ega bo’lgan turli xususiyatli bog’lanishlarni ta'minlab turuvchi faoliyati (qaysi darajasi, shakli ekanligidan qat'iy nazar) ularning barchasi uchun umumiy bo’lgan xususiyat hisoblanadi. Ularning faolligi tufayli murakkab tuzilishli faoliyat yuzaga kelib, (ongning mahsuli sifatida) turli-tuman mohiyatli har xil ko’rinishdagi ehtiyojlar (ularning toifalarga aloqadorligi kelib chiqishi jihatidan biologik, moddiy, ma'naviy va boshqalar)ni qondirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu boisdan faollik faoliyatning asosiy mexanizmlaridan biri bo’lib, tirik mavjudotlarning o’z imkoniyati darajasida tashqi olam ta'sirlariga javob qilish uquvchanligining tarkibi sanaladi. Shu o’rinda A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasini keltirib o’tish zarur.

O'ZINI-
O'ZI QAROR
TOPTIRISH

ESTETIK EHTIYOJ:
go'zallik garmoniya

BILISh EHTIYOJI:
bilish tushunish

HURMATGA BO'LGAN EHTIYOJ:
hurmat qozonish, ma'qullash

YAQINLIK TUYG'USIGA EHTIYOJ:
odamlar qabul qilishi va hurmat qozonish

XAVFSIZLIKKA NISBATAN EHTIYOJLAR:
o'zini himoya qilish hissi

FIZIOLOGIK EHTIYOJLAR: ovqat,
chanqoq

Psixologik manbalarga asoslanib, fikr yuritishimizda **ehtiyoj** - jonli mavjudotning tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalaniladi.

Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo’lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o’z ifodasini topadi. Jumladan, mavjudotlar va hayvonlar o’zlarining tanasi va uning a'zolari tuzilishiga,

instinktlarning turli-tumanligiga binoan, o’z o’ljasini tutib olishga nisbatan intilishni vujudga keltiruvchi tabiiy imkoniyati uni oldindan payqash, sezgirlik orqali zudlik bilan faol harakat qiladi.

hayvonlar ehtiyojlarining qondirilish jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo'lsa, bu esa o'z navbatida ularning qurshab olgan yashash muhitiga engillik bilan moslashuvini ta'minlaydi. Masalan, asalari xatti-harakatlarining tug'ma, irsiy dasturida uning gullarga qo'nib, nektar yig'ish ehtiyojlari bilan cheklanib qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish ob'ektlari (gullarning navlari, ularning uzoq va yaqinligi, qaysi tomonda joylashganligi, mo'l-ko'lligi kabilar va hokozo) aks etadi. Shu boisdan mavjudotlarning ehtiyojlarida ularning faolligi omili sifatida tabiiy alomatlar instinktlar, shartsiz reflekslar va hokazolar bevosita qatnashadi.

Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yag'indan tanishishi ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o'lja ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi. Odam boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan tubdan qayta o'zlashtirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Xuddi shu boisdan odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Insondagi tor ma'nodagi ehtiyojlar uning shaxsiy talablarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi jamoaviy ehtiyojlar yakkaholligiga oid xususiyat kasb etadi. Aytaylik, ma'ro'za o'qishga taklif qilingan mashg'ulotga o'qituvchining puxta tayyorgarligi o'z predmetining o'ta fidoiysi ekanligi uchun emas, balki jamoa nufo'ziga dog tushirmaslik ma'suliyati ijtimoiy burch hissiga nisbatan ehtiyoj sezganligi tufayli amalga oshadi. Shaxsiy ehtiyoj guruhiy, jamoaviy munosabatlar uyg'unlashib ketganligi sababli o'zaro qorishiq xususiyatiga ega bo'ladi. Har qanday individual faoliyatga nisbatan ehtiyojning tuzilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yakkahollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni o'zluksiz ravishda beto'xtov aks ettirib turadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o'z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi. Odatda o'zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajraladi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyati faolligi o'z shaxsiy hayotini himoya qilish, o'z avlodi hayotini saqlash, uni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga yuritilganlik, tobelik aks etadi. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarning ovqatlanishi, tashnalikni qondirishi, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan saqlanish, musaffo havoga intilish tana a'zolariga dam berish kabilar kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson

halokatga mahkum bo'ladi, o'z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostida qoldiradi.

Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyati mahsuli bilan bog'liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Madaniy ehtiyojlar to'g'risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan o'zviy bog'lanib ketishini ta'kidlab o'tish lozim.

Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi. Chunki ular bir-birining negizidan kelib chiqadi. Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar ob'ektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan boqlanish vositalari, madaniy alohalar o'rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o'qish va tajriba orttirish yo'llari kiradi. Odatda jamiyatda ta'lim va tarbiya tizimini egallash, halq an'analari, marosimlari, bayramlari, odatlari rasm-rusumlari, xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida rangbarang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma'no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga etaqlaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlarga olib kelmaydi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o'z predmetining xususiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e'tirof etiladi.

Insonning ovqatlanishi, qiyinishi, uy-joyga ega bo'lishi, maishiy turmush ashyolariga intilishi, komfort hissini qondirish bilan bog'liq madaniyat predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zlashtirish shaxsning o'z

fikr mulohazalari va his-tuyg'ulari bo'yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishishi hamda axborot almashtirishi, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishishi, mahalliy matbuotni o'qish, kino va teatr ko'rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya'ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma'naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan o'zviy bog'liq bo'lib vujudga kelgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojlarning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi kitob, yozuv qog'ozi va boshqalar.

Ehtiyojlarning turlari haqida fikr bildirilganda yana shu narsaga e'tibor berish kerakki, kelib chiqishiga binoan tabiiy turga taalluqli ehtiyoj o'z predmetiga ko'ra moddiy guruhga xuddi shu mezonlar bo'yicha bir davrning o'zida madaniy ehtiyojning moddiy yoki ma'naviy ehtiyoj turkumiga kiritish mumkin. Shu tariqa ehtiyojning kelib chiqishi va predmeti, xususiyati bo'yicha ikki mezonga asoslanib, muayyan guruhlarga ajratiladi. Inson ongining tarixiy taraqqiyotiga nisbatan va ehtiyojlarning ob'ektiga bergan munosabatiga binoan har xil tasniflanadi va xuddi shu mezonlarga ko'ra ular rang-barang turlarga ajratiladi. Ularning izchilligi, barqarorligi, davomiyligi, ko'lami, ahamiyatliligi, predmetliligi, ijtimoiyligi, individualligi kabi xususiyatlari bilan o'zaro bir-biridan farqlanadi. Ehtiyojlar faoliyati va xulq-atvor motivlari bilan teng alohada bo'ladi.

Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Individual - yakka shaxsga yo'naltirilgan.
2. Guruhiy - real guruhlarga moddiy va ma'naviy intilish.
3. Jamoaviy - jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.
4. Xududiy - etnik guruhning muayyan o'ziga xos talablari qondirilishi.
5. Etnik - ma'lum millat yoki halqlarning safarbarligini ta'minlash.
6. Umumbashariy - er yuzihalqlarining umumiy talablarining majmuaviy aks etishi.

Inson shaxsining faolligi uning qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. **Qiziqish**-insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, orzu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. qiziqishlarning klassifikasiyasi va ularning mazmuni quyidagi jadvallarda ifodalanadi:



Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi. Shu o'rinda qiziqishlarning tarkibiy qismlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish joiz:



Qiziqish motiv singari borliqning mo''jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsga ishchanlik, g'ayrat-shijoat, engilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlarni yaratadi. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashil-ganda, qiziqish, insonga intilish, faollik, ichki turtki ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai, rolini bajaradi.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan L.A.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Mordova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, E.G.Goziev va boshqalarning nazariy metodo-logik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi. Qiziqishni psixologik mohiyatining dastlabki ko'rinishi - bu odamlar tomonidan anglab etish yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatda bo'ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo'lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlari, individual-tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyg'ular uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hissini vujudga keltiradi, buning natijasida frustrasiya (ruhiy tushkunlikka tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi-uning irodaviy sifatlar bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillikni namoyon qilish xususiyatini qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari etaqlaydi. Qiziqishni psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishiuni oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir. qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini ta'kidlab o'tish joiz, uning "bu nima?" refleksi, ya'ni orientirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. I.P.Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin,

N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin va boshqalar insondagi qiziqishning nerv - fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po'stloqida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat boqlanishlarning vujudga kelishidir, degan tarzda talqin qildilar. Qiziqishning moddiy asoslari **o'zaro induksiya qonuni, po'stlog'dagi optimal qo'zg'alish o'choqi va dinamik stereotiplar** (I.P. Pavlov), **dominanta** (A.A. Uxtomskiy), **orientir murakkab psixofiziologik hodisa ekani** (E.N. Sokolov) va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mumkin:

Mazmuniga ko'ra: shaxsiy va ijtimoiy;

Maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita;

Ko'lamiga qaraganda: keng va tor;

Qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o'zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining ob'ektlari qaysilar, bilimning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibligi; shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning voqelik, jismlar va hodisalarning emosional jozibaliligi, his-tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beri-luvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o'rganilayotgan narsaning ma'nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati mos tushgan taqdirda paydo bo'lishi mumkin. Psixologiyada bevosita qiziqishning yuzaga kelishi faoliyatning maqsadini anglash bilan bog'liq bo'lgan bilishni ehtiyoj deb atash qabul qilingan. U yoki bu narsalarni (hodisalar mohiyatini) bilish, ko'rish, idrok qilish, anglab etish uchun qiziarli tuyo'lgan ichki kechinmalar bevosita qiziqishni aks ettiradi. Bilvosita qiziqishlar mehnat faoliyati yoki ta'lim olish jarayonining muayyan ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun sub'ektiv ahamiyati o'zaro mos tushganida bilvosita qiziqish yuzaga keladi. Mehnat faoliyati va ta'lim jarayonini ongli tashkil etish etakchi va ustuvor rol o'ynaydigan bilvosita qiziqishlarni tarkib toptirish uchun maxsus tamoyillarga, omilkor yo'l-yo'riqlarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarning qiziqishlari o'zining ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari faqat bir sohaga qaratilgan bo'ladi. Boshqa bir toifaga taalluqli odamlarda esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlarga, ob'ektlarga yo'naltirilganini uchratishimiz mumkin. Lekin turli sohaga nisbatan qiziqishlarning biri, agarda ularni oqilona boshqarish imkoniyatiga bo'lsa, ikkinchisiga salbiy ta'sir etishi mumkin emas, qiziqishning torligi ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin ayni chog'da ularning kengligi ham nuqson tariqasida tahlil qilinsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol topishi qiziqishlar ko'lamini tor emas, balki keng miqyosda bo'lishini taqazo etadi.

Qiziqishlar o'zlarining darajasiga qarab barqaror va beqaror turlarga ajratiladi. Barqaror qiziqishga ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmetlariga, ob'ektlariga, hodisalarga nisbatan o'z maylini hech o'zgarishsiz saqlab tura oladi. Shu boisdan inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi.

Inson shaxsi xulq-atvorining o'z motivlari bo'ladi. **Motiv** - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'li bo'lgan qandaydir faoliyatga moyillikdir. Agar ehtiyojlar inson shaxsi faolligining mohiyatini tashkil etsa motivlar bu mohiyatning namoyon bo'lishidan iboratdir. Shaxsning ehtiyojlari motivlar bilan bog'liqdir. Shuning uchun motivlar bir-biridan ehtiyoj turlariga qarab farqlanadi. Masalan, moddiy ehtiyojning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar yoki ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar bo'lishi mumkin. Motivlar anglanilgan va anglanilmagan bo'lishi mumkin. Anglanilmagan motivda odam nimanidir istaydi, ammo o'sha narsa nimaligini tasavvur ila olmaydi. Demak, motivlar inson shaxsi xulq-atvorini va turli faoliyatlarini harakatga keltiruvchi sababdir. Xatti-harakatlarning muhim motivi e'tiqoddir. **E'tiqod** - shaxsning o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir. Tilaqlar ham xatti-harakat motivlari bo'lib, bu motivlarda mazkur vaziyatda bevosita bo'lmagan yashash va taraqqiy etish sharoitlarida ehtiyojlar o'z ifodasini topadi.

Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar borasida eng ko'p o'rganilgan masala **ko'rsatma berishdir**. Bu masala gro'zin psixologi **D.N.O'znadze** va uning xodimlari tomonidan ishlangan. Ko'rsatma berish deganda bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni ma'lum usulda qondirishga tayyor turish tushuniladi. Talabalar o'qituvchilar beradigan topshiriqlarni bajarishga doim tayyor turadilar.

5.6.Shaxsning malaka va odatlari

Har bir odam bilim bilan birga malaka va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo'ladi (yozish, o'qish, yurish, musiqa chalish, sport va hokazo). Maqsadni ko'zlab biror nima bajarish malakaga bog'liqdir. **Malaka** - deb avval ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan xatti-

harakatlarga aytiladi. Istalgan malakani qayta-qayta takrorlash natijasida hosil qilish mumkin. Malakalar sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, mashina haydash, musiqa chalish, kasb

egallash murakkab malaka, mix qoqish, o'tin arralash-sodda malaka hisoblanadi. Malakalarni mashq qilish natijasida egallanadi. Shaxsda malakadan tashqari odatlar ham bo'ladi. Odat kishi qalbiga o'rnashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. Masalan, ertalab turib yuvinish, ovqatlanish, ozoda yurish kabilar. Odatlar ijobiy va salbiy bo'ladi. Salbiy odatlarga yolg'on gapirish, ichish, chekish kabilar kiradi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asoslarini shartli refleksning

hosil bo'lish mexanizmi tashkil qiladi. Bu shartli refleks oddiy emas, balki dinamik stereotip tarzidagi, ya'ni takrorlash natijasida mustahkamlangan **shartli reflekslar** majmuasidan iborat. Masalan, bola bolalar boqchasiga o'rganguncha qiynaladi, chunki undagi sharoitga ularda dinamik stereotip hosil bo'ladi. Yangi hosil qilinadigan malakalar ilgari hosil qilingan malakalarga bog'liq bo'ladi. Ilgarigi malakalar yangisiga ijobiy ta'sir qilsa, malakalarning kuchayishi kuzatiladi. Masalan, chet tillaridan birortasini o'rgangan odam boshqa bir chet tilini o'rganishda qiynalmaydi. Agar ilgarigi malaka yangisini hosil qilishga salbiy ta'sir qilsa malakalar **interferensiyasi** deyiladi. Masalan, bir sohada ishlagan odam butunlay boshqa sohaga o'tsa qiynaladi. Shaxs shug'ullanayotgan ishi bilan o'zoh vaqt shug'ullanmasa malakalar so'nishi hodisasi kuzatiladi. Bu malakalarning **diavtomatizasiyasi** deyiladi. Malakalarning hosil bo'lish negizi va mustahkamlanishi odamning yoshiga bog'liq, masalan tilga 4-5 yoshda tez o'rganiladi. hunar egallash 12-13 yoshda tez o'rganiladi. Malakalarning mustahkamligi qiziqishlarga, shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq, asab tizimiga bog'liq bo'ladi. Masalan, holeriklarda malaka tez, melanholiklarda sekin

hosil bo'ladi.

Demak, malakalar shaxsning tarkib topishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsni individualligi uning ijtimoiy munosabatlarida belgilanadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o'tish joiz. Atoqli psixolog**K.K. Platonov** shaxsni "konkret odam yoki dunyoni yaratuvchi sub'ektdir", **L.I.Bojovich** esa "odam o'zini anglash jarayonida yaxlitligini idrok qiladi, unda "men" degan tushuncha paydo bo'ladi" deb ta'kidlaydilar. **A.N.Leontevning** "Faoliyat, Ong, Shaxs" degan kitobida shaxs haqida ajoyib fikrlar mavjud. "Bu oliy olam birligi hayotida doimiyligini saqlaydi, har qanday sharoitda shaxsligicha boshqalar ko'z o'ngida va o'z ko'z o'ngida qoladi".

Mazkur fikrlardan ko'rinadiki, shaxs o'zini-o'zi anglashga qodir, ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti, o'zini-o'zi anglash imkoniyatiga ega bo'lgan ongli mavjudot sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, insonlar jamoasi, ijtimoiy tarixiy jarayonlarining ta'sirida kamolga etadi.

5.7.Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili

Shaxsning tuzilishi to'g'risidagi muammo o'zining tadqiqot doirasi predmetidan tashqariga chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiya hamda uni talqin qilish yuzasidan falsafa, pedagogika, tibbiyot singari

fanlarning namoyondalari tomonidan turlicha fikrlar bildirilayotganligi keltirib chiqarilayot-ganligi bunga yaqqol misoldir.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo'yicha eng salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo'lib, shaxs tuzilishning xilma-xil modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. **B.G.Anan'evning** fikricha, psixologik hodisalarni aql (intellekt), hissiyot (emosiya) va irodaga ajratish jarayonini inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko'rinishi bo'lib, uning qaqchilligi ko'pgina psixologlar tomonidan tan olingan**. L.S.Vigotskiyning** mulohazasiga ko'ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy hamda quyi, tabiiy turlarga ajratish mumkin. Chunki ularning negizida ta'lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar tizimi o'zaro ta'sirining ifodalanishi yotadi.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyinchilikni eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Ular shaxsning tuzilishiga ko'ra substansional va ideal, irsiy va psixologik tomonlarga ega bo'lib, u **V.M.Banshikov** tadqiqotlarida asoslaniladi.

Mulohazadan ko'rinib turibdiki, bunda shaxsning "substansional tomonini" irsiy, kundalik faoliyatda egallagan somatik jabhalar bilan taqqoslaganda, mustaqil strukturaviy tarkib sifatida,

alohida reallikka ega emas. Bunday tahlil individual voqelik ustida gap borayotganini bildiradi. **A.G.Kovalevning** fikricha, temperament tabiiy xususiyatlarning muhimligini bildirib keladi.

B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishiga quyidagilar kiradi:

- Umuminsoniy psixologik xususiyatlar
- Milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar.
- Shaxsning individual betakror xususiyatlari.

Chet el psixologlarining shaxs tuzilishi mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'pgina yondashuvlari ham yuksak ko'rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o'zgarish kiritolmadi. Olimlarning shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tuzish yordami bilan xaspo'shlashi ijobiy izlanish tarzida o'ziga tortadi, lekin unda shaxs "kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir" deb ta'riflanadi.

AQSH psixologi **G.Olportning** fikricha, shaxs: ichki tizim, "dinamik qurilma", "men", "qandaydir metapsixologik men", o'zida oldindan maqsad va dizpozisiyani va aks ettiruvchi inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy, tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi.

Psixologlardan **T.Parsond, G.Mid** va boshqalar "shaxsning rolli tuzilishi nomli "konsepsiyani ishlab chiqib, odamning yaxlit sub'ektiv dunyosini uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, idrok maydonidan chetda qoldiradilar.

Keyingi yillarda chet el psixologiyasida olimlar diqqatini shaxs modelining psixologik omillari tortmoqda. Ularning asosiy variantlari **G.Ayzenk, R.Kettell** konsepsiyalari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur konsepsiyalar ko'p yoki oz miqdordagi "omillar (Ayzenkda ular 2-3 ta, Kettellda esa 20 tadan ziyod) ga asoslangan bo'lib, ular muayyan darajada umumlashgan individuallikni yoki shaxs qiyofasini ifodalovchi psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi ruhiy tizimni qayd qilishga asoslanadi. Ammo tub ma'nodagi shaxsning psixologik konsepsiyasi ham

individuallik qiyofalarini haqiqiy ijtimoiy psixologik mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas, chunki xususiyatlarning qonuniy ravishdagi o'zaro alohalari tavsiflanmay qolgan.

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi katta qiziqish uyg'otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyliklarini hamrab oluvchi modelini yaratishga intiladi. Shaxs xususiyatlari, qiyofasi uning tuzilish elementlari bo'lib, xossalari hisoblanadi. **K.K.Platonov** shaxs tuzilishini turli tomonlariga aloqador 4 tuzilmaga ajratadi :

1.Shaxsning axloqiy munosabatga yo'nalganlikni birlashtiruvchi ijtimoiy shartlangan osttuzilish. Bu osttuzilishga aloqador shaxsning xislatlari tabiiy mayllarga bevosita bog'liq bo'lmay, tarbiyaviy yo'l bilan shakllantiriladi.

2.Tajriba osttuzilishi, unga ta'limiy yo'l bilan egallagan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, odatlar kiradi. Ammo bu narsa shaxs qiyofasining biologik shartlangan ta'siri ostida kechadi. Ushbu ost tuzilish orqali shaxs insoniyatning tarixiy tajribasi bilan bog'liq bo'ladi.

3.Shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan ba'zi psixik jarayonlar kiritiladi. Bunda biologik shartlangan xususiyatlarining ta'siri aniqroq ko'zga tashlanadi.

4.Biologik shartlangan osttuzilish bo'lib, biopsixik xususiyatlarni fazilatlar temperament, jinsiy va yosh xususiyatlar, shuningdek, insonning patologik o'zgarish birlashtiradi. Bu ost tuzilish mashq orqalishakllantiriladi.

K.K.Platonov "shaxsning tomonlari va uning ost tuzilishi" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llanilganligini quyidagicha izohlab beradi: shaxsning moddiy jabhalari emas, balki funksional tomonlarining o'zaro ta'siri to'g'risida to'xtalish muhimdir".

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha, shaxsning qismlarga ajratib talqin qilinmaydigan jabha bu uning xislatidir, ularning har biri muayyan yo'nalganlik mohiyatini mujassamlashtirgan bo'lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shaxs tuzilishi deganda V.S.Merlin bo'yicha insonning o'z-o'ziga, o'zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatni o'zida birlashtiruvchi shaxs xususiyat-larining tashkiliy aloqadorligini anglatuvchi "simptokomleks" -

ni tushuniladi. Tadqiqotchi **N.I.Raynvaldning** fikricha, shaxsning tuzilishi va uning har bir qiyofasi (timsoli) uch mezon asosida tahlil qilinishi lozim:

1.Orientirovka darajasi va anglanganlik xususiyati;

2.U yoki bu ehtiyojiy holatlarni harakatlantirishning xususiyati hamda tashkiliyligi;

3.Insonning emosional irodaviy bilishga oid sifatlarini namoyon bo'lishining jadalligi, jiddiyligi va zo'riqishi va boshqalar

N.I.Raynvaldning izohlashicha, faollikning regulyasiyasida psixik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish uch o'lchovli (mezonli) tasnifi aql (intellekt), hissiyot (emosiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi, shaxs tuzilishini temprament, xarakter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstroversiya, introversiya omillariga ajratilishiga barham beradi.

N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi **A.R.Luriyani** miya faoliyatining uch blokli rolli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi aql (intellekt) ko'p qollarda informasion blok orqali amalga oshadi, iroda (tashkililik) programmalashtirish bloki bilan bog'liq, xilma-xil emosional holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida "energetik" blok yotadi.

Aql, hissiyot, iroda va ularni ro'yobga chiqaruvchi miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o'zaro o'zviy bog'liq bo'lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatining uch tomonini anglatadi. Keltirilgan fikr mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, shaxsning tuzilish tarkibi, uning o'ziga xos individual xususiyatlari bilan belgilansa, ayrim olimlar tomonidan tashqi ob'ektiv omillar asosida yuzaga kelishi ko'rsatib o'tilgan.

Nazorat savollari?

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang?
2. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang?
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mohiyatiga nimalardan iborat?
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillarni aniqlang?
5. Shaxsning malaka va odatlarining mazmuni nima bilan belgilanadi?
6. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini izohlang?

Test topshiriqlari

1.Shaxs tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?

A) Jamiyatda rivojlanuvchi til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi inson. B) Odam boshqa odamlar bilan munosabatda shaxsga aylanadi.

V) Voqelikni bildiruvchi va uni o'zgartiruvchi sub'ektga aytiladi. G) Ongli sub'ekt faoliyatda bo'ladigan muloqot madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatda yashaydigan komil inson. D) Kishilik jamiyatida yashaydigan faoliyatning biror turi bilan shug'ullanadigan til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotda bo'ladigan ongli individ.

2.Biogenetik nazariyaning mazmuni qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Biologik harish. B) Bilish jarayonlari va biologik yangilik. V) Taraqqiyotning bosh maqsadi biologik determinantlarga qaratiladi va ularning mehnatidan ijtimoiy psixologik xususiyatlar keltirib chiqaradi.G) barcha javoblar to'g'ri . D) to'g'ri javob berilmagan.

3.Biogenetik qonun qaysi olimlar tomonidan kashf qilingan?

A) Krechmer. Myo'ller. B) Myo'ller va Gekkel. V) Holl va Shtern. G) Myo'ller va Holl. D) Krechmer va Gekkel.

4.Mazkur qonunga ko'ra shaxs psixologiyaning individual taraqqiyoti butun insoniyat taraqqiyotining asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi degan g'oya yotadi…

A) Sosogenetik. B) Psixogenetik. V) Psixodinamik. G) Biogenetik. D) Kongnitiv.

5.Qaysi qatorda biogenetik nazariya namoyondalari ko'rsatilgan?

A) Shtern va Erikson. B) Levin va Krechmer. V) Shtern va Krechmer.

G) Holl va Torndayk. D) Skinner va Levin.

6.Psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb nomlangan rekaptulyasiya qonuni ya'ni filogenezni qisqacha takrorlashi qonunini kashf qilgan olim?

A) Krechmer. B) Shtern.V) Holl. G) Myo'ller. D) Gekkel.

7.Konstitusion psiholgiya ya'ni insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya namoyondasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Krechmer. B) Shtern. V) Holl. G) Myo'ller. D) Gekkel.

8.Krechmer insonlarning tana tuzilishiga qarab ularni necha guruhga ajratadi?

A) Ikkita. B) Uchta.V) To'rtta. G) Beshta. D) Oltita.

9.Shaxs faolligi deganda nimani tushuniladi?

A) Tevarak-atrofdagi olam bilan munosabatda bo'ladi. B) Tashqi muhit bilan aloqasi.V) Shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarida aks etadi. G) Odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri. D) Barcha javoblar to'g'ri.

10."Odam o'zining avlodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi". Mazkur fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

A) Vundt. B) Torndayk. V) Freyd. G) Holl. D) Krechmer.

11. Qozirgi zamon psixologiyasida shaxs faolligi manbai - bu …

A) Ehtiyoj. B) Qiziqish. V) Ishtiyoq. G) Jinsiy mayllar. D) Motiv.

12.Shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo'ladigan va uning yashash sharoitiga bog'liqlikni ifodalovchi holat - bu ….....

A) Ehtiyoj. B) Qiziqish.V) Motiv. G) Ishtiyoq. D) Jinsiy mayllar.

13.Shaxsning oliy nerv faoliyatidagi narsa va hodisalarni bilishi anglashi istagi bilan bog'liq bo'lgan munosabat …… deb ataladi.

A) Ehtiyoj. B) Motiv. V) Qiziqish. G) Jinsiy mayllar. D) Ishtiyoq.

14.Ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan qandaydir faoliyatga moyillik ……..... deb ataladi.

A) Ehtiyoj. B) Motiv. V) Qiziqish. G) Jinsiy mayllar. D) Ishtiyoq.

15. …… shaxsni o'z qarashlari tamoyillari dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglangan ehtiyojlar tizimidir.

A) Ehtiyoj. B) Faollik. V) E'tiqod. G) Maqsad. D) Malaka.

16.Avval ongli bajarib, keyinchalik avtomatlashgan xatti-harakatlarga ……..... aytiladi.

A) Malaka. B) Ko'nikma. V) Odat. G) Maqsad. D) Motiv.

17.Qaysi qatorda psixogenetik nazariyaga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) Psixikaning proporasional tarkibiy qismi bo'lmish emosiya va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya. B) Ijtimoiy xulqni muhit bilan bog'liqligini o'rganuvchi nazariya. V) Inson hayotini ijtimoiy tarixiy vazifalari va ob'ektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmaydi.G) Psixik jarayonlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi.D) Individning xuquqi psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq maqsadlar bilan boshqarib turiladi.

18.Tirik mavjudotlarning o'z imkoniyati darajasida tashqi olam ta'sirlariga javob qilish ug'uvchanligi ……deb ataladi.

A) faoliyat B) ehtiyoj V) qiziqish G) faollik D) e'tiqod

19.Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?

A) tabiiy va madaniy B) moddiy va ma'naviy V) tabiiy va ma'naviy G) moddiy va madaniy D) barcha javoblar to'g'ri

20.Qiziqish tiplari nimalarga asoslanadi?

A) mazmuniga ko'ra shaxsiy va ijtimoiy B) maqsadiga binoan bevosita va bilvosita V) ko'lamiga qaraganda keng va tor G) darajasiga ko'ra barqaror va beqaror D) barcha javoblar to'g'ri

6-MAVZU:KASBIY MULOQOT. MUOMALA TEXNIKASI VA STRATEGIYASI.PSIXOLOGIYADA IJTIMOIY TA'SIR MASALASI

REJA:

6.1. Muloqot haqida tushuncha.

6.2.Muloqotning kommunikativ tomoni

6.3.Muloqot- kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish vositasi

6.4.Muloqot kishilarning bir-birini tushunishi vositasi sifatida.

Tayanch tushunchalar

Avtonom nutq (yunon, autos - o'zi - nomos - qonun) - bolaning o'z nutqi ko'p ma'no va noaniq so'zlar bilan xarakterlanadigan, ichki nutq, bunda turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va o'zviy bog'liqligi tufayli so'zlarning ma'nosi ham vaziyatga qarab o'zgaradi, bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o'tish davri bo'lib hisoblanadi.

Agrafiya (yunon. A - inkor yuklamasi, grapho - yozaman) nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi.

Afaziya (yunon. A - inkor yuklamasi, phasia - nutq) - bosh miya qobig'ining ayrim qismlarini zararlanishi natijasida nutqining izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

Vepbal (lot, verbalis – og'zaki) - atama. Verbal nutq – og'zaki ifodalanadigan nutq.

Identifikasiya (lot. identifisage - tenglashtirmoq) - shaxsning o'zini o'zga odam bilan emosional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

Ichki nutq - nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi.

Kommunkasiya (lot. communio - aloqa, fikr olishuv ma'lumot berish) - til va boshqa belgilar vositasida axboro berish.

Monologik nutq - bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir - biriga ta'sir etishi.

Nizo - o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama - qarshi qiziqishi.

Nutq - odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

Nutq madaniyati - muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish.

Pantomimika (yunon. panto - mimos - hamma narsaga taqlid qiluvchi)-inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonasiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa, his – tuyg'ularini ifodalovchi harakatlari.

Pedagogik muloqot - o'qituvchining o'quvchi bilan muloqotda bo'lishi.

Refleksiya (lot. Reflexus - aks ettirish) - odam bilimlarining o'z - o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishi.

Resipient (lot. Recipientis - qabul qiluvchi kishi) - o'ziga yo'llangan xabarni qabul qilib oluvchi kishi.

Empatiya (yunon. empatheia - birgalikda dardlashmoq) - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Б.М.Умаров. Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

2.Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com

6.1.Muloqot haqida tushuncha

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: *"Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir"*.

Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkul. Shuning uchun odatda muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi. A) **muloqot** - hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni. B) **muloqot** - sub'ektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishuvi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida **muloqot** ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida **muloqot** - bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir"- deb ta'kidlanadi.

M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan "Psixologiya" qisqacha izohli lug'atida muloqotga quyidagicha ta'rif beriladi: **muloqot**- ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishidir.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq muloqotga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: **muloqot** - kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi, rivojlantiriladi.

Muloqot tushunchasini kommunikasiya tushunchasidan farqlash lozim. **Kommunikasiya**-tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikasiyaga misol bo'ladi. Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va

madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ruyobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va alohalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Thinking

1:What are the functions of concepts?

Cognitionis a term covering all the mental activities associated with thinking, knowing, remembering, and communicating. We use concepts,mental groupings of similar objects, events, ideas, or people, to simplify and order the world around us. In creating hierarchies, we subdivide these categories into smaller and more detailed units. We form some concepts, such as triangles, by definition (three-sided objects), but we form most around prototypes,or best examples of a category.

2:What strategies assist our problem solving, and what obstacles hinder it?

An algorithmis a time-consuming but thorough set of rules or procedures (such as a step-by-step description for evacuating a building during a fire) that guarantees a solution to a problem. A heuristicis a simpler thinking strategy (such as running for an exit if you smell smoke) that may allow us to solve problems quickly, but sometimes leads us to incorrect solutions. Insightis not a strategy-based solution, but rather a sudden flash of inspiration that solves a problem. Obstacles to successful problem solving are the confirmation bias, which predisposes us to verify rather than challenge our hypotheses, and fixation,such as mental setand functional fixedness,which may prevent us from taking the fresh perspective that would let us solve the problem.

3:How do heuristics, overconfidence, and belief perseverance influence our decisions and judgments?

The representativeness heuristicleads us to judge the likelihood of things in terms of how they represent our prototype for a group of items. The availability heuristicleads us to judge the likelihood of things based on how readily they come to mind, which often leads us to fear the wrong things. We are often more confident than correct. Once we have formed a belief and explained it, the explanation may linger in our minds even if the belief gets discredited—the

result is belief perseverance. A remedy for belief perseverance is to consider how we might have explained an opposite result.

4:How do smart thinkers use intuition?

Although it sometimes leads us astray, human intuition— effortless, immediate, automatic feeling or thought—can give us instant help when we need it. Experts in a field grow adept at making quick, shrewd judgments. Smart thinkers will welcome their intuitions but check them against available evidence.

5:What is framing?

Framingis the way a question or statement is worded. Subtle wording differences can dramatically alter our responses.

Ўйлаш ва тил

Тушунчанинг функсиялари нима? Билиш мавзуси ҳамма руҳан фаолликларни ўйлаш билиш эслаш ва алоқа қилишни қамраб олади. Биз бу концепсияларда оддий объект гуруҳлари ҳодиса фикрларда яъни одамлардан. Бизни ўраб турган оламни соддалаштириш ва тартиблашда фойланилади. Иорерхияни яратишда эса биз бу категорияларни кичикроқ ёки аниқроқ бобларга бўламиз. Биз баъзи кронцепсияларни учбурчакка ўхшаб ажратамиз (шакллантирамиз).

Бизнинг муаммоларнинг ечишнинг қандай стратегиялари бор ва қандай қийинчиликлар яширинган.

Вақт алгоритми – истеъмолдир, лекин проблемани ечиш кафолати қоида ёки проседурани ўрнатиш орқалидир. Эврестиклар бироз ўйланса муаммо ҳал бўлади деб ўйлашади, лекин муаммони ечишнинг тўсатдан пайдо бўлган усули балки яхширокдир.

Еверестлар нимага ишониб қандай хулоса ёки муҳим чегарадорлар.

Ақлли ўйловчилар сезгидан қандай фойдаланишади. Лекин шунга қарамай аксон сезгиси қачон керак бўлгандан осон, дарҳол, автоматик туйғу ёки фикр тарзида ёрдам беради. Кўпинча шундан фойдаланганлар тез, ақлли қарорлар билан ўсади.

Ақлли ўйловчилар ўзларининг фикрлари (сезгилари) ва кутиб олинади, лекин улар мавжуд далилларга қаршилиги текширилади.

Фроминг нима (қолип) фроминглар савол ёки баёнат йўлидир. Бўлинмаган сўзлар фарқи бизнинг жавобни ўзгартириши мумкин[9].

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1-misol 1938 yil Richard Bard o'z hohishi bilan Antarktida mo'zliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan kundalik hayotning g'ala-g'ovuridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyidagi so'zlar bilan eslaydi "Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo'lib borayotganday edi. Xavf xatarlardan qo'rqmaydigan odam bo'lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo'qoldi, yuvinmay qo'ydim".

2-misol. Tarixda yaponlarda "Moritao" nomli insonning o'zini-o'zi takomillashtirish tizimi mavjud bo'lgan. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo'lmaydi. Faqatgina bir haftaga g'orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u hatto o'zi bilan gaplashishi mumkin bo'lmagan. Sinovdan o'tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig'i shundaki, ularda ko'proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan.

3-misol. Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma'lum bo'lishicha, bu yerga odamlar nafaqat tammadi qilish, balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar.

[9]***Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** *www.worthpublishers.com*

Bundan ko’rinadiki, insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qiladilar.

Muloqot jarayonida muloqot funksiyalari ham muhim rol o’ynaydi. Muloqot funksiyalari deganda muloqotning inson hayotida bajaradigan funksiyalari tushuniladi. Muloqot funksiyalari xilma-xil bo’lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko’ra, ya'ni **B.F.Lomov** tomonidan taklif qilingan bo’lib, u quyidagilardan iborat.

- **Informasion-kommunikativ funksiya** - axborot almashinuvini ta'min-lash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va noverbal kommunikasiya farqlanadi.
- **Regulyasion-kommunikativ funksiyasi** suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyasiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal yo’llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o’tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullash-tiruvchi va korreksiyalovchi tarzida ta'sir ko’rsatishi mumkin.
- **Affektiv-kommunikativ funksiya** inson emosional sohasining regulyasiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emosional holatlarining eng muhim determinasiyasidir. Chunki turli tuman emosional holatlar muloqot jarayonida paydo bo’ladi va o’zgaradi.

L.A.Karpenkotaklif etgan tasnifga ko’ra, muloqotning quyidagi vazifalari ajratib ko’rsatiladi.

- ***Aloqa o’rnatish vazifasi*** - suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;
- ***Informasion vazifa*** - suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni almashish;
- ***Faoliyatga undash*** - suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimul-lashtirish;
- ***Koordinasion vazifa*** - suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvofiqlashtirish;
- ***Tushunishni ta'minlash vazifasi*** - suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
- ***Amotiv vazifasi*** - suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg’otish hamda ularni o’zgartirish;
- ***Munosabat o’rnatish*** - munosabatlar tizimidagi shaxsiy o’rnini, mavqeini aniqlash;
- ***Ta'sir ko’rsatish*** - suhbatdoshning xulq-atvori shaxsiy xususiyatlari maqsadlari va ustanovkalarini o’zgartirish.

6.2.Muloqotning kommunikativ tomoni

Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o’y-xayollar, his kechinmalar bilan o’rtoqlashadilar. Bunda o’y-fikrlar, his-kechin-malarni axborot sifatida, kommunikasiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki insonlararo kommunikasiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat o’zatiladi, balki shakllan-tiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotni shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblashi mumkin emas. Zero, birinchidan muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari, maqsadlari, ustanovkalari va boshqalarni tahlil qiladilar); ikkinchidan muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar orqali bir-biriga ta'sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta'sir o’tkaziladi); uchinchidan muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuboryotgan odam) va resipient (axborotni qabul qilayotgan odam) bir xil kodlashtirish tizimiga ega bo’lishi kerak, to’rtinchidan muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikasiyaga xos to’siqlar vujudga kelishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda qo’llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Ular verbal kommunikasiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog’liq bo’lmaydigan belgilar orqali) kommunikasiyadir.

Verbal kommunikasiya. Inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo’llaniladi. Nutq - inson tomonidan qo’llaniladigan tovush signallari yoki yozma belgilardan iborat bo’lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va o’zatiladi. U jarayon til orqali amalga

oshiriladi. Til so’z belgilari tizimi bo’lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo’lib yuzaga keladi.

Til muomala vositasidir. **Til** muomalaga kirishuvchilar o’rtasidagi kommunikasiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (resipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to’g’ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo’lishi kerak. Til so’z belgilari yig’indisidan iboratdir. So’zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir aloqida odamning harakatlari va faoliyatlarini boshqa odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi.

Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasini belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilib olmaydi. U ota-onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o’z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so’z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo’ladi, o’quvchi olam haqida barcha bilimlarni o’qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o’zlashtiradi. Bu yerda til o’zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o’zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo’ladi.

Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko’pincha ijtimoiy qiymatga ega bo’lmagan o’zga kishilarning bevosita tajribalarini belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo’l olaman. Yo’lda o’rtog’im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo’nayman. Bu yerda til o’zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikasiya usuli yoki olamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo’ladi. Natijada har qanday kommunikasiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Uchinchidan, har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" o’z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o’ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o’laroq, o’z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirish va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to’qnash keldik. So’z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikasiya o’rnatish, o’z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o’zidir. Bu jarayonda nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi. So’zlovchining nutqi **faol nutq**, tinglovchining nutqi **passiv nutq** hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo’linadi. **Tashqi nutq** - yozma va og’zaki nutqqa, og’zaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo’linadi. **Monolog** - bir kishining o’ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o’qituvchining bayoni, o’quvchining to’laroq javobi, ma'ro’za va boshqalardir. Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e'tibor berishi kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o’qituvchilar o’quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o’rtasidagi nutq - **dialog** deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko’p jihatdan undan oldingi fikrga bog’liq bo’ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo’lgan ayrim so’zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo’lmasligi mumkin: Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya'ni odatlanib qolingan so’z birikmasi ko’p uchraydi (g’oyil, marhamat qilib aytingchi). Nutqning **ichki nutq** deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo’ladi. Biz so’zni chala-yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og’zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xususan ixtiyoriylik darajasi ancha

yuksakroq bo’lgan og’zaki nutqdan ilgariroq sodir bo’lishi mumkin. Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo’lib, yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir.

Muloqotning kommunikativ akti sifatida quyidagilarni tasavvur etish mumkin

Kommunikator adresant	Muloqot sub'ekti sifatidagi omil namoyon bo'ladi.
Resepient aderesat	Bu ma'lumot kimga o’zatilmoqda
Ma'lumot	Nima o’zatilmoqda
Kod	Qanday vositalar asosida
Maqsad	Nima uchun o’zatilmoqda
Aloqa kanali	Ovoz, xat, efir orqali aloqa
Natija	Nimaga erishildi.

Shuningdek amerikalik jurnalist **G.Lassuel** besh unsurdan iborat bo’lgan kommunikativ jarayonning modelini taklif etadi.

- ❖ Kim (axborot kim tomonidan o’zatilmoqda)
- ❖ Nima (qanday axborot o’zatilmoqda)
- ❖ Qanday (axborot qanday yo’l bilan o’zatilmoqda)
- ❖ Kimga (axborot kimga yo’naltirilmoqda)
- ❖ Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador o’zatildi)

Kommunikativ jarayon aksial (bunda axborot ayrim aniq odamlarga yo’naltiriladi) yoki retial (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan resipientlarga yo’naltiriladi) xarakterda bo’lishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda o’zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo’ladi, ya'ni mazmundorlik, tushunarlilik, ifodalilik, ta'sirchanlik ko’rsatiladi.

Buyuk franso’z yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi *"Muloqot - shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi",* deb yozgan edi.

So’zning mohiyati haqida Sa'diy "Aqllimisan yoki ahmoq kattamisan yoki kichik buni bir so’z aytmaguncha bila olmaymiz" degan edi.

Halqimizda shunday ibratli ibora bor "inson aql farosati uning nutqining aniqligida namoyon bo’ladi".

Noverbal kommunikasiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pao’za, poza (holat), ko’z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikasiya - so’zni to’ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o’rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo’q degani, ruslarniki teskarisi bo’ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikasiya vositasi turlicha bo’ladi. Masalan, bolalar ko’pincha kattalarga ta'sir etish, ularga o’z qoqish va kayfiyatlarini o’tkazishda yig’idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so’z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikasiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

Noverbal kommunikasiyaga belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo’l harakatlari), mimika (yuzharakatlari) va pantomimika (qo’l, oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar - insonning qo’l harakatlari bo’lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir ob'ektga munosabati va tashqi olamga yo’nalganligi ifodalanadi. U yoki bu halqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italyan va franso’zlar o’z muloqotlarini jestlarsiz tavsavvur eta olmaydilar. O’zbek halqida nutqda jestlardan foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, noverbal kommunikasiya og’zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika - inson yuzharakatlarining bir qismi bo’lib, u orqali insonning o’ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo’ladi.

Pantomimika - inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so’zlar 7% ni, tovushlar va intonasiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni, tashkil qiladi.

Publisiy aytganidek, biz *"Ovoz bilan gapiramiz tana bilan suhbatlashamiz"*. Noverbal kommunikasiyaning boshqa belgilar tizimini ko’rib chiqaylik.

Paralingivistik va ekstralingvistik belgilar tizimi - bu lokalizasiya tizimi bo'lib, u ovoz sifatida diapozonini nutqdagi pao'zalar, yo'tal, yig'i, kulgu, nutq tempida namoyon bo'ladi.

Muloqot jarayonida muloqotga kirishuvchilarni bir-birlariga nisbatan joylashishlari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, auditoriyadagi stollar joylashishi muloqot uchun juda no?ulaydir. Ayniqsa, seminar mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi, ma'ro'zachi muloqoti vaqtida qolganlari munozarada faol ishtirok etish imkoniyatiga ega emasdirlar.

Seminarlarni yoki shu kabi suhbatlarni "T" shaklida joylashgan stol stullarda o'tkazish ham foydali, lekin dumaloq shaklda joylashtirilgan stol, stullarda muloqot juda samaralidir.

Vizual muloqotda "ko'z kontakti" belgilar tizimi ham qo'llaniladi. Ushbu tizim pedagoglar, rahbarlar ish faoliyatida muhim ahamiyatga egadir.

Qiziharli belgilar tizimi sifatida muloqot jarayonida gul, fotorasm va boshqalardan foydalanish mumkin. Ehtimol gullar orqali insonlar ma'lum bir ma'lumotni o'zatish imkoniyatiga egalar. Shu bois gullar tarixi haqida ayrim ma'lumotlarni keltiramiz. Gullar tili qadimda Sharqda paydo bo'lgan. Uni ayollar yaratishgan. O'z yuzlarini ochish imkoniyatiga ega bo'lmagan ayollar o'z hislarini va kayfiyatlarini gullar orqali ifodalashga harakat qilganlar. Assosiasiya sifatida paydo bo'lgan belgilar qat'iy odatlarga aylangan. Masalan, azaliya guli sog'inch, yolg'izlik, gnasint qunchalarining soni uchrashuv kunini, qo'ng'iroq gullar soni uchrashuv vaqtini anglatadi.

XIX asrga kelib, gullar tili dastlab Fransiyada, so'ng Angliya va butun jahonga tarqalgan. Asta-sekin gullar tili bilan ranglar tili ham yuzaga keldi. Jumladan, Yevropaning ko'p davlatlarida siyoh rang do'stlik, hashamatlilik, to'kinlik ramzi bo'lsa, Yaponiyada-ham og'riq belgisi bo'lgan. Har qaysi rang ma'lum holat, kayfiyat ma'nosini anglatadi. Jumladan qizil rang hayot, sevgi, pushti - yoshlik, sariq - baxt, quyosh, to'y, xursandchilik, yashil - tinchlik, xotirjamlik, ko'k - ishonch, vafo, qora - tantanavorlik, qayg'u, oq - poklik, beg'uborlik ramzi sifatida tushuniladi.

6.3.Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi. Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sosial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilardan kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rolida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida har bir rol o'ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa shifokor ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshliqi bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rol kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo'qmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko'pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo'llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, xatosiz ko'chira olish qobiliyati **takt** deb ataladi.

Ma'lumki takt pedagogik faoliyatda muhim komponent hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchilarning uyushgan faoliyatlari asosida tuzilgan. Shu bois o'qituvchi pedagogik jarayonni o'quvchilar jamoasidan tashkil topganligini unutmasligi har bir o'quvchi shaxsini

e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

Muloqotning interaktiv tomoni deganda, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'sir o'tkazishi tushuniladi. Kommunikasiya orqali odamlar birgalikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan, odamlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'zaro ta'sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud.

- Har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda ishning o'ziga tegishli qismini bajarishi (masalan shanbalikdagi ish)
- Umumiy vazifani bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (masalan konveyerdagi ish)
- Har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (masalan, futbol jamoasidagi ish).

Odatda muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning ikki xil turi ajratiladi.

a) kooperasiyaga asoslangan o'zaro ta'sir - kommunikativ jarayon ishtirokchilarinng umumiy maqsad yo'lida o'z kuchlarini birlashtirishdan iborat. Kooperasiyalarning bir necha turi farqlanadi.

avtomatik (instinktiv- biologik darajada mavjud bo'ladi),

avtomatik (tarkib topgan ijtimoiy me'yorlar bilan an'ana va urfodatlar bilan taqozolangan bo'ladi)

spontan (do'stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo'ladi)

direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo'ladi)

shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar bilan taqazolangan bo'ladi).

koorperasiya- birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementi.

b)Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir - kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bunday o'zaro ta'sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsa-da u koopersiya bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi. Aks holda o'zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin. Raqobatning eng yorqin shakli nizodir. **Nizo** - muloqot ishtirokchilarining har biri muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir.

Muloqot jarayonida nizoning odatda ikki xil turi farqlanadi.

a) Destruktiv nizo. Uning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- ✓ shaxsiy xususiyatlarni bir-biriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi;
- ✓ munosabatlarning buzilishiga olib keladi;
- ✓ ishtirokchilar soni ortib boradi;
- ✓ qarama-qarshitomonga nisbatan negativ baholar kuchayib boradi;
- ✓ nizo jarayonidagi ob'ektning shaxsga ko'chishi oson yuz beradi.

b) Produktiv nizoning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- ✓ nuqtai - nazarlarning bir-biriga mos kelmasligi sababli vujudga keladi;
- ✓ muammoni kengroq qarshi olishga olib keladi;
- ✓ optimal yechimning topilishiga yordam beradi;
- ✓ shaxsga ko'chirilmaydi.

6.4.Muloqot - kishilarning bir-birini tushunishi

Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro'y berishi ko'p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganini, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog'liq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo'lib, u **muloqotning perseptiv tomonini** tashkil etadi.

Insonning inson tomonidan idrok etilishi **"ijtimoiy persepsiya"** deyiladi. Dastlab bu atama Dj.Bruner tomonidan 1947 yil ishlatilgan bo'lib, u perseptiv jarayonlarning ijtimoiy determinasiyasini anglatgan. Keyinchalik bu atama boshqacharoq ma'noga ega bo'lib, u ijtimoiy ob'ektlarni, ya'ni odamlar ijtimoiy guruhlar, katta ijtimoiy tuzilmalarni idrok etish jarayonini anglata boshlagan.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda individ quyidagilarni idrok etishi mumkin:

A. o'z guruhiga munosib individni;
B. boshqa guruhga mansub individni;
C. o'zining guruhini;
D. o'zga guruhni.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda guruh quyidagilarni idrok etishi mumkin:

A. o'z individini;
B. o'zga guruh individini;
C. o'zini;
D. o'zga guruhni.

Rus psixologi A.A.Bodalev ***"insonni inson tomonidan idrok etilishiga"*** sinonim ravishda "insonning boshqa insonni bilishi" iborasini qo'llaydi. Inson jamiyat a'zosi sifatida qabul qilinganligi sababli muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo'ladi. S.L.Rubinshteyn aytganidek, ***"biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab uni o'qiymiz"***. Bundan, insonni tashqi qiyofasi uni qanday shaxs ekanligidan dalolat berishini anglashimiz mumkin.

"Boshqa odamni bila turib, o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanadi"- deb yozadi L.S.Vigotskiy.

Insonni inson tomonidan idrok etilishida eng kamida ikki kishi jalb qilingan bo'lishi lozim bo'lib, ularning ikkalovi ham faol sub'ektdir. Demakki o'zaro idrok jarayonida ikkala tomon bir-birlarining ehtiyojlari, motivlari va yo'nalishlarini bilishlari va o'zlarini qarama-qarshitomon o'rniga g'o'ya olishlari lozim. Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar**. Buning uchun quyidagi mexanizm ishga solinadi:**

A. identifikasiya;
B. refleksiya;
C. stereotipizasiya.
D. empatiya

Identifikasiya(lotincha tenglashtirish) -u kishiga tenglashtirish, baravarlash ma'nosini anglatib, insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi.

Refleksiya (lotincha aks ettirish) - insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi. Kishini kishi tomonidan idrok qilinishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga o'xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o'zini ham aks ettiradi, agar kishi o'zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to'liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'lsa, ular bilan bexato aniqlikda o'zaro ta'sir o'rnatishi mumkin. Biroq sub'ekt hamma vaqt bunday aniq ma'lumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini o'ylab chiqishga majbur bo'ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg'ular, intilish va fikrlashning o'ylab chiqarilishi kao'zal atribusiya deb ataladi. O'qituvchilar tomonidan bola harakatlarining shunday sababini talqin qilinishi maktabdagi pedagogik muomalani qiyin-lashtiradi.

Stereotipizasiya - grekcha o'zgarishsiz, takrorlanish degan ma'noni bildirib, insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo'lida muayyan shablondan foydalanishi. Stereotipizasiya ma'lum yoki taxminan ma'lum bo'lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo'li bilan xulk normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash demakdir. Ba'zan muomala jarayonida noto'g'ri stereotip vujudga keladi. Masalan, A.A.Bodalev tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kishining tashqi qiyofasi va uning xarakteri haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviylashib ketganligi tasdiqlandi. So'ralgan 72 kishining 9 tasi agar insonning yuztuzilishi kvadrat ko'rinishiga ega bo'lganlar kuchli, irodali, 17 kishi peshonasi katta kishi aqlli, 3 kishi sochi tikka kishilar yengilmas, bo'ysunmas xarakterga ega. 5 kishi bo'yi o'rtachadan past kishilar boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, buyruq

berishga intiluvchi kishilar, 5 kishi chiroyli kishilar yo ahmoq yoki o'zini yaxshi ko'radigan kishilar bo'ladi deb tasdiqlagan. Begona kishini idrok qilishda birinchi axborot, dastlabki tasavvur katta ahamiyatga ega. Kishilar tashqi qiyofasi ham muhim o'rin tutadi. Amerikalik psixologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot bunga yaqqol misol bo'la oladi. 400 ta o'qituvchilarni baholash uchun tarqatilgan ishlarni ular 200 tasi ijobiy, chiroyli, 200 tasi salbiy xunuk, yoqimsiz deb berganlar. Ekspertlardan tashqi qiyofasini emas, balki xarakterini ta'riflash so'ralgan edi. Afsuski baholarning sub'ektivligi kishining tashqi qiyofasini baholash bilan bog'liqdir.

Empatiya - insoning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi. Bunda insonning emosional muammolariga yondashishi tushuniladi. Bu boshqa odam hissiyotlari va kechinmalariga hamdard bo'la olishdir. Bir tomondan ob'ektni tushunishda uni o'rniga o'zini qo'ya olishi muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ichki hissiyotlarini tushunish unga hamdard bo'la olish ham muhimdir.

Insonning inson tomonidan idrok etilishida yo'naltirishning roli kattadir. Bu ayniqsa inson haqida, noma'lum inson haqida ilk fikrlarni olishda muhimdir. Bu borada **A.A.Bodalevning** o'tkazgan tadqiqotlari nihoyatda ahamiyatlidir. Ikki guruh talabalariga bir inson rasmi beriladi. Birinchi rasmda berilgan inson jinoyatchi deb, ikkinchi guruhda esa rasmdagi kishi yirik olim deb e'lon qilinib, ularga portretni yozma ifodalash vazifasi beriladi. ***Birinchi*** holatda quyidagi tavsiflar beriladi, ya'ni ko'zlarini ichiga kirib ketgani, ichki alam, qasosdan o'zun dahan boshlagan ishi, jumladan jinoyatni yakuniga yetkazish kabilar ekanligi qayd etiladi.

Ikkinchi guruhda ichiga kirgan ko'zlari fikrning chuqurligi haqida gapirib, bunda o'zun dahan qiyinchiliklarga bardoshlilik, irodalilik sifatida baholangan.

Keltirilgan mulohazalardan ko'rinadiki, insonni inson tomonidan idrok qilinishida tashqi tomondan berilayotgan ko'rsatma, shaxsning bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalari muhim rol o'ynaydi.

Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishini bilish pedagog uchun g'oyat muhimdir. Bu to'laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo'lga qo'yishni ta'minlaydi. ***Pedagogik muloqot*** pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yig'indisidir. Muloqotning mazmuni axborot almashish, o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o'qituvchilar hamda o'quvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni ta'minlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatdagi muloqat

- o'quv vazifalarni bajarish vositasi;
- tarbiyaviy jaryonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatini tashkil qilish usuli;
- o'quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot - bu muloqotning o'quv tarbiyaviy jarayonlarni hissiy foni va vosita, mazmunini tashkil etadi.

Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi, ya'ni sub'ekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi o'zatgan axborotni resipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarini qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa, pedagogik munosabat yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ro'za o'tayotganda bu juda muhimdir.

Nazorat savollari:

1. Muloqot tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Muloqot turlarining ta'rif bering?
3. Muloqot vazifalari nimalardan iboratligining ko'rsating?
4. Muloqotning verbal vositalariga nimalar kiradi?
5. Muloqotning noverbal vositalariga nimalar kiradi?
6. Muloqot shaxslararo o'zaro tasir etish asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

Test topshiriqlari

1.Ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon bu ……

A) afaziya B) muloqot V) refleksiya G) kommunikasiya D) sterotiplashtirish

2.Til yoki boshqa belgilar vositasida axborot berish bu ……

A) kommunikasiya B) identifikasiya V) muloqotG) refleksiya D) steriotiplashtirish

3.Sub'ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etishini anglab etishi …… deb ataladi.

A) kommunikasiya B) muloqot V) identifikasiya G) refleksiyaD) steriotiplashtirish

4.Xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini izohlash …… deb ataladi.

A) kommunikasiya B) muloqot V) identifikasiyaG) refleksiya D) steriotiplashtirish

5.O'zini boshqa kishi o'rniga qo'yish orqali unga o'zini tenglashtirish bu…….

A) kommunikasiyaB) muloqot V) identifikasiyaG) refleksiya D) steriotiplashtirish

6. …… bu muloqotdagi individlarni o'zaro ma'lumot almashinishidir.

A) kommunikativB) intraktiv V) perseptiv G) refleksiya D steriotiplashtirish

7. …… bu individlar muloqotda nafaqat bilish va g'oyalar balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

A) kommunikativB) intraktiv V) perseptivG) refleksiya D) steriotiplashtirish

8.Pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yiqindisi ……

A) hamkorlikB) faollikka kirishish V) pedagogik muloqot G) o'zaro tushunish

D) to'g'ri javob yo'q

9. Pedagogik faoliyatda muloqot qanday funksiyani boshqaradi.

A) o'quv vazifalarini bajarish vositasi B) tarbiyaviy jarayonini ta'minlashning ijtimoiy psixologik va ijtimoiy tizimini V) ta'lim va tarbiya jarayoni muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tashkil qilish usuli G) o'quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi D) barcha javoblar to'g'ri

10. Boshqa kishiga axborot beruvchi kishi bu …….

A) respint B) axborot o'zatuvchi V) kommunikator G) afferent D) efferent

11. Berilgan axborotni qabul qiluvchi inson ……

A) resepient B) axborot o'zatuvchi V) kommunikator G) afferent D) efferent

12. So'zlovchining nutqi qanday nutq hisoblanadi?

A) faol nutq B) passiv nutq V) monologik nutq G) ichki nutq D) tashki nutq

13.Tinglovchining nutqi esa …… hisoblanadi.

A) faol B) passiv V) monolog G) ichki D) tashqi

14. Muloqotning maqsadi bu ……

A) shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi B) birgalikdagi ijtimoiy sharoitda yuzaga chiqadi V) jamiyatning ijtimoiy formulasini aks ettiradi G) aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir D) kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi

15. ……ijtimoiy mavqeini egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan normativ tomonidan ma'qullangan xulq- atvor namunasi tushuniladi.

A) indentifikasiya B) rol V) refleksiyaG) stereotipizasiya D) kommunikativ

16.Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini nimani eshitishga va undan nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri aniq xatosiz ko'chira olish qobiliyati …… deb ataladi.

A) indentifikasiya B) rol V) refleksiya G) takt D) taqlid

17. …… so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli sifatida yuzaga keladi?

A) verbal B) noverbal V) nutq G) so'z D) til

18."Ovoz bilan gapiramiz,tana bilan su?hbatlashamiz" mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) Abu Nasr Farobiy B) Egzipyure V) L.S. Vigotskiy G) Publisiy D) Rubinshteyn

19."Muloqot- bu shunday ne'matki u orqali inson lazzatlanadi" mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) Abu Nasr Farobiy B) Ekzyupern V) Vigotskiy G) Publisiy D) Rubinshteyn

20.Hayot va sevgini anglatuvchi rangni toping?

A) qizil B) pushti V) oq G) sariq D) yashil

7-MAVZU: NUTQ TO'G'RISIDA TUSHUNCHA.

REJA:

7.1.Nutq haqida umumiy tushuncha.

7.2.Nutqning fiziologik asoslari

7.3.Nutq apparati. Nutq turlari.

7.4. Nutqning bolalarda rivojlanishi

Tayanch iboralar

Afaziya-bosh miya qobig'ining ayrim kismlari zararlanishi natijasida nutqningizdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

BELGI— sezgi a'zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsa va hodisalar yoki ma'lum muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarning vakili — belgisi vazifasini o'tovchi predmet yoki hodisadir.

BELGI TIZIMI- umumiy kridalar bilan o'zaro bog'liq va amalda qo'llaniladigan belgilarni birlashtiruvchi belgilar to'plami.

DIALOGIK NUTQ— nutq turlaridan bo'lib, bunda gapiruvchilarning barchasi bab-barabar teng faollik ko'rsatadi.

ICHKI NUTQ— nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan gapiriladigan alohida turi bo'lib, gramatikasi kuzilish va mazmuni atroflicha torligi bilan xarakterlanadi. Ichki nutq tafakkurning asosiy qurolidir.

KOMMUNIKASIYA (PSIXOLOGIYADA)- til va boshqa belgilar vositasida axborot bilan almashish.

MONOLOGIK NUTQ— fikr bayon qilish, bir kishining bitta murakkab fikr bilan birlashtirilgan nutqi.

NUTQ— odamlarning til vositasida muloqotda bo'lish jarayoni.

TIL (PSIXOLOGIYADA) - so'z belgilari tizimi bo'lib, psixik faoliyatini(hammadan avval aqliy faoliyatini) ifodalovchi, shu bilan birga nutqda foydalaniladigan aloqa vositasi.

EGOSENTRIK NUTQ – nutq faoliyati bo'lib, bog'cha bolasining o'yini bilan birga olib boriladigan va bolaning o'z-o'ziga qaratilgan nutqi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Б.М.Умаров**.** Психология: Дарслик. Нопедагогик олий таълим йўналиши магистратура босқичи талабалари учун. // Ғ.Б.Шоумаровнинг умумий таҳрири остида. **–** Т.: ЎзДЖТУ. 2011 – 380 бет.

2. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

3. Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com

4. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

7.1.Nutq haqida umumiy tushuncha.

Kishilar jamiyatda doimo jamoa bo'lib yashaydilar. Ijtimoiy mehnat va ijtimoiy munosabatlar odamlarning bir-birlari bilan doimiy aloqa qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu munosabat, albatta, nutq, vositasida amalga oshiriladi.

Nutq ham odam ongi singari mehnat mahsulotidir. Nutq, boshqa kishilar bilan aloqada bo'lish ehtiyojidan va buning qat'iy zarurligidan kelib chiqqandir.

Biz nutq orqali o’z fikrimizni, bilimimizni, tajribamizni boshqalarga yetkazamiz va boshqa kishilarning fikrini bilib olamiz, o’zimizning ruhiy holatimizni, kechirayotgan tuyg’u hissiyotlarimizni ham ifoda qilamiz. Biz nutq yordamida bir-birimizga ta’sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va qalbda bo’lgan fikr va maqsadni ifoda qiladi. Biz nutq vositasi bilan birovni xursand yoki birovni xafa qilishimiz, uni umidsizlantirishimiz yoki unga tasalli berishimiz mumkin.

Nutq kuchi haqida har bir halqda alohida maqollarning bo’lishi ham bejiz emas, bu maqollar aqlning kishi ruhiga qanday ta’sir qilish kuchiga ega ekanligini yaqqol ko’rsatadi. Masalan, yaxshi so’z – jon ozig’i", "Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til va x.k.

Kishilar bir-birlari bilan muomala, munosabatda bular ekanlar, ular u yoki bu tildagi (o’zbek, rus, franso’z, nemis va x,.k.) grammatik qoidaga asoslangan so’zlardan foydalanadilar. Insonlar til vositasi bir-birlari bilan muomala qiladilar.

Language

6:What are the structural components of a language?

Phonemesare a language’s basic units of sound. Morphemesare the elementary units of meaning. Grammar—the system of rules that enables us to communicate—includes semantics (rules for deriving meaning) and syntax(rules for ordering words into sentences).

7:What are the milestones in language development?

The timing varies from one child to another, but all children follow the same sequence. At about 4 months of age, infants babble,making sounds found in languages located all over the world. By about 10 months, their babbling contains only the sounds found in their household language. Around 12 months of age, children begin to speak in single words. This one-word stageevolves into two-word (telegraphic) utterances before their second birthday, after which they begin speaking in full sentences.

8:How do we learn language?

Behaviorist B. F. Skinner proposed that we learn language by the familiar principles of association (of sights of things with sounds of words), imitation (of words and syntax modeled by others), and reinforcement (with smiles and hugs after saying

something right). Linguist Noam Chomsky argues that we are born with a language acquisition device that biologically prepares us to learn language and that equips us with a universal grammar, which we use to learn a specific language. Cognitive researchers believe childhood is a critical period for learning spoken and signed language.

9:What brain areas are involved in language processing?

When you read aloud, your brain’s visual cortex registers words as visual stimuli, the angular gyrus transforms those visual representations into auditory codes, Wernicke’s area interprets those codes and sends the message to Broca’s area, which controls the motor cortex as it creates the pronounced words. But we now know that language results from the integration of many specific neural networks performing specialized subtasks in many parts of the brain.

Thinking and Language

11:What do we know about animal thinking? Do other animals share our capacity for language?

Both humans and the great apes form concepts, display insight, use and create tools, exhibit numerical abilities, and transmit cultural innovations. A number of chimpanzees have learned to communicate with humans by signing or by pushing buttons wired to a computer, have developed vocabularies of nearly 200 words, have communicated by stringing these words together, and have taught their skills to younger animals. Only humans can master the verbal or signed expression of complex rules of syntax. Nevertheless, primates and other animals demonstrate impressive abilities to think and communicate.

ТИЛ.

Тилнинг структуравий компонентлари нима. Фенемене тилининг товушлар. Морферегеренени эса элементар ифодалаш граматика – семонтика ва синтаксиснинг алоқалари ўрганиўга имкон берадиган қоидалар тизими.

Қайси тери давомида ривожланган ҳамма бола кетма – кетликда бўлсада лекин фарқ қилади. Болалар 4 ойлигида бутун дунёдаги билдириш ва товушларни ифодалай оладилар. 10 ойлигида эса улар уйидаги товушларни ифодалайди. 12 ойлигида эса баъзи сўзларни айта

бошлайди. Бу сўз босқичида биринчи бўлса, кейин 2 та сўзни айтиб, бутун гапни айтишни бошлайди.

Биз тилни қандай ўрганамиз. Олим Б.Ф.Скинер бизга тилни товушнинг фарқлаш орқали ўрганиб мустаҳкамлашишини таклиф этадилар.

Тилшунос Ноам Чамский эса унга биз махсус тилдан ўрганишди ва ўша тилга ўрган биологик биологик тайёрланиб, туғилишни айтиб, у билан баҳслашишади. Когнитив оламни баҳолаш тилни ўрганиш ва гапириш учун оғзаки муҳим даври деб ишонадилар.

Тил сўзлаганда миянинг қайси қисми ишлайди.

Сиз қачон баланд овозда ўқисангиз сизнинг миянгиз вимал турткидай сўзларни қабул қилади лекин биз энди биламизки, миямизнинг кўп қисми махсус невро алоқалар натижаси тил эканлигини.

Ҳайвонлар ўйлаши ҳақида нима биламиз. Бошқа ҳайвонлар бизга фикрини улаша оладими. Ниопанраларнинг бир неча тури инсон билан алоқага компютер кнопкаларини босган ҳолда киритади. Натижада деярли 200 та сўзни ўрганиб шу асосда ёш ҳайвонларни ўргатишади. Фақат инсонгина синтаксисни ёзма ва оғзаки ўргана олади. Бироқ параметрлар ва бошқа ҳайвонлар алоқа ва ўйлаш қобилиятини эгаллаганларини намоён этди.[10]

Language is the biologically given communication system of our species, and appears in all cultures. Not only does our language express thought and convey information, it also expresses and solidifies social and cultural bonding. Languages consist of a hierarchy of units that combine and recombine to form higher-level categories. At the bottom are units of sound,which combine into morphemes and words.

Tilning tashkil topish bloklari

Til bizga biologik jihatdan berilgan kommunikatsiya tizimidir va barcha madaniyatlar kuzatiladi. Til nafaqat fikrigizni ifoda etish va axborot yetkazish emas, balki u shunungdek ijtimoiy va madaniy aloqani bildiradi va quvvatlantiradi.

Tillar oily darajadagi turkum shakllantiradigan va qayta tashkil etiladigan ierarxik birliklardan tashkil topgan. Quyidagi morfema va so`zlarni birlashtiradigan tovush birliklari keltirilgan.

Ma`no jihatdan eng kichik til birliklari morfemalardir, shuningdek morfemalar turli grammatik maqsadga xizmat qiladi

Iboralar esa so`zlar guruhlargan tashkil topadi va gap iboralardan tashkil topgan tilda so`larning ba'zi moshlashuviga ruxsat etadi, lekin boshqalarda sintaksis qoidalarga ko`ra ruxsat etilmaydi. Ushbu qoidalarni daraxt diagrammasi orqali tasvirllash mumkin.

Demak, til yordamida odamlarning bir-birlarini bilan aloqa qilish vositalaridir.

"Nutq" va "til" terminlarining ma'nosini ko'pincha bir-biriga aralashtirib yuboradilar. Nutq bilan til bir narsa emas. Til so'z belgilari sistemasidan iborat bo'lib, u aloqa quroli bo'lsin, nutq aloqa prosessining o'zidir. Lekin ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular birgalikda mavjuddir. Har bir til tarixiy tarakqqiyot davomida odamlarning nutq yordamida aloqa bog'lash prosessida vujudga kelgan, rivojlangan6 va takomillashib borgan. Har qanday tilning mavjud bo'lishi, takomillashib borishi kishilarning o'sha paytda doimiy gaplashib turishlariga bog'liq. Agar kishilar u yoki bu tilni nutq orqali bo'ladigan muomalada ishlatmay qo'ysalar, u til inqirozga uchrashi, "o'lik til"ga aylanib qoladi.

Nutq faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, balki tafakkur qilishning zaruriy vositasi tafakkur qurolidir. Chunki, biz fikr qilish uchun so'zdai foydalanamiz, fikrimizni so'z bilan ifoda qilamiz va boshqalarning fikrini bilib olamiz. Odatda biz ovoz chiqarib yoki ovoz chiqarmasdan, o'z ichimizda tilning grammatika qoidalariga xos holda aytiladigan so'zlar orqali fikr yuritamiz.

Tafakkur bilan nutq turli xodisa bo'lsa ham, lekin ular bir-biri bilan o'zviy ravishda bog'lanib ketgan. Har bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining rivojlanishi bnlan bog'liq bo'lganidek kishi nutqining rivojlanishi ham undagi tafakkurning o'sishiga bog'liqdir.

---

[10] ***Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** *www.worthpublishers.com*

7.2. Nutqning fiziologik asoslari

Nutqning fiziologik asoslari odamning individual hayoti va faoliyati davomida o'zlashtirilib boriladi. Biz gapirganimizda, bir tomondan. ovoz signallarini qabul qilamiz, ikkinchi tomondan. talaffo'z qilish nutqqa oid muskul apparati orqali vujudga kelishini ko'ramiz.

Nutq, faoliyati uchun bosh miya katta yarim sharlarida po'stining murakkab markazlashgan, nerv xujayralarining ishlashi talab etiladi. Nutqning anatomik-fizioloptk asosi eng avvalo fonetik Nutqning nafas olish, ovoz va artikulyasiya muskul apparatlaridan iboratdir. Nafas olish kishining hayet kechirishi va nihoyat ovoz chiqarishi chiqarishi uchun katta ahayimyatga ega bo'lib, u diafragmadan, o'pkadan, o'pkani, bronxni va bug'izni harakatga keltiruvchi muskullardan iboratdir.

Ovoz chiqarish apparati kekirdak bo'lib, u to'rtta tog'aydan iborat. Ana shu tog'aylar o'rtasida ikkta elastik, xususiyatga ega bo'lgan muskullar bor. Bularni ovoz muskullari deymiz. Nafas olish orqali ovoz muskullari harakatga kelib, tebranib turadi va nihoyat ular taranglanishi yoki susayishi mumkin. Agar ovoz muskullari taranglashsa, ular bir-biriga yaqinlashadilar, natijada nafas yo'lidan chiqqan havo ovoz muskullarini tebratadi va nihoyat tovush hosil bo'ladi.

Bosh miya po'stlog'ida nutqning uch xil markazi mavjud: e sh i t i sh markazi, x a r a k a t l a n t i r i sh va k o' r i sh markazlari.

Eshitish markazi miya chap yarim shari peshona qismining pastki tomonidagi burmalarning orqa qismida joylashgan bo'lib, eshitilgan so'zlarni idrok qiladi, boshahalarning nutqini tushunish va o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu markaz shikastlansa, kishi o'zgalarning so'zlarini eshitishda, ularning ma'nolariga tushunmaydi, bu sejorli afaziya deb ataladi. Afaziya natijasida kishida og'zaki va yozma nutq buzilad.

Nutqning harakat markazi bosh miya chap yarim sharining peshona qismida joylashgan bo'lib, gapiruvchi kishining aktiv nugqini vujudga keltiradi. Bu markaz shikastlansa, boshqa kishilarning so'zlarini eshitib, uning ma'nosiga tushunsa ham, o'zi gapira olmaydi. U so'zlarning qanday talaffo'z etilishini eslay olmaydi. Bunday kasallik tufayli ichki nutq ham buziladi.

Nutqning ko'rish markazi bosh miyaning orqa kismida joylashgan bo'lib, kishining yozilgan xatni o'qishi va xat qanday belgilar (harflar) shu markaz orqali idrok etiladi. Agar bu markaz shikastlansa, kishi harflarni tanimay qoladi va xatni o'qiy olmaydi.

Biroq, keyingi yillarda fiziologik va psixologik olimlarimiz (P.K.Anoxin, A.RLuriya. A.N Leontyev, D.N.O'znadze va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan qator ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, nutq faoliyatining fiziologik asosini yuqorida ko'rsatilganidek talqin etish yetarli emas. Balki, bosh miya po'stining boshqa markazlar kabi nutq markazlarining ham qat'iy chegaralari va bir-biridan ajralgan holda harakat qiladi.

P.K. Anoxin tadqiqotlarida hosil qilingan ma'lumotlar nuqtai nazaridan olganda, nutq faoliyatining fiziologik asosini bir necha funksional sistemalarning murakkab uyushmasi tashqil etadi, bu funksional sistemalardan ayrimlari nutq uchun ixtisoslashgan sistema bo'lsa, boshqalari o'zga faoliyatlar uchun ham xizmat qilaveradi.

Kishi nutq orqaliboshqalar bilan munosabatda bular ekan, buni albatta ikkinchi signal sistemasi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun ham vaqtli bog'lanishlar vujudga qilaveradi. Bu esa o'zining qator xususiyatlariga ega bo'ladi. Eshitilgan so'zlarning hammasi esda saqlanib qolavermaydi. Ikkinchi signal sistemasi tanlab esda olib qoladi.

Til qanday ma`noda ifodalanadi

So`zning ma`nosining ta'rifiy nazariyasi, semantic xususiyatlariga ko'ra til har bir so'zning ma'no to'plamlardan tashkil topadi.

Turli kuzatishlar so'zlarining ma'nosini ideal (yoki prototip) holda ikkinchi bir nazariyani taqdim qiladi va turkumidagi a'zolik bu prototip uchun o'xshashlik deb qaraladi. Bu ikki nazariya bir kombinatsiyasi eng yaxshi so'z ma'nosi haqida psixologik ma'lumotlarni beradi.

Gap biron bir mavzu to'g'risida fikr yoki kesimlikni ifodalaydi. Gapdagi fe'l harakatni ifodalaydigan, ot esa ijrochi sifatida drama miniaturasi sifatida talqin etiladi.

7.3.Nutq apparati. Nutq turlari.

Nutq o'zining xususiyatiga va bajaradigan vazifalariga qarab asosan uch turga bo'linadi : og'zaki, yozma va ichki nutq kabi.

Og'zaki nutq. Odatda kishilar bir-birlari bilan muomala va munosabatda bo'lganlarida o'zlarining fikrlarini ovoz chiqarish, gapirish bilan amalga oshiradilar. Gapiruvchi shaxs o'z fikrini, his-tuyg'ularini faqat so'z bilan emas, balki imo-ishora, mimika va intonasiyalarda ham ifoda qiladi. Gapiruvchi nutqi aniq, ravon, emosional bo'lishi kerak. Talaba esa, o'z dikqatini jalb etib, ma'ro'zachining nutqini tinglagandagina uning ma'nosiga yaxshi tushunib oladilar.

Kishilar o'rtasidagi amalga oshirilayotgan munosabatlarning xarakteri yoki xususiyatlariga qarab og'zaki nutq dialogik va monologik tarzda bo'lishi mumkin.

Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq kishilarning bir-birlari bilan suxbatlashish jarayonidir. Bunda suxbatdoshlar faollik ko'rsatishlari kerak. Dialogik nutq orqali suhbat qilayotgan kishilar bir-birlarining fikrlarini tez tushunib olgani holda, suxbatdoshining aytgan gaplarini tasdiqlashi yoki unga e'tiroz bildirishi mumkin. Bu xil nutqning yana bir xususiyati bor, bunda suxbatdoshlarga malum bo'lgan ayriliq so'zlar tushirib qoldirilishi ham mumkin. Ba'zi hollarda dialogik nutq ixgiyorsiz ham bo'ladi, chunki suxbat davomida yangi-yangi fikrlar kelib chiqaveradi. Lekin bu nutq izchil va to'la bo'lmasligi ham mumkin. Bu sharoit bilan bog'liq.

Monologik nutq esa, dialogik nutqdan farq qilib, bitta odamning boshqalarga qarata nutq so'zlashidir. Masalan, dokladchi nutqi, lektorning auditoriyadagi o'quvchi, talabalarga qarata ma'ro'za o'qishi kabilar monologik nutqdir.

Monologik nutqning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar eng avvalo shundan iboratki, ko'pchilik oldida so'zlagan notiq fikrining mantiqiy jihatdan izchilligiga, talant burroligi, talaffo'zning aniqligiga va nihoyat fikrning ta'sirchanligiga e'tibor berishi lozim. Ma'ro'zachi talabalarning ham aytilayotgan gaplarga munosabatini hisobga olib borsa yaxshi bo'ladi.

Monologik nutq faqat boshqalarga qaratilgan bo'lib qolmasdan, kishi o'zi yozish konspektini yoki ma'ro'zasini o'zicha ovoz chiqarib o'qish ham mumkin, bu ham monologik nutqka kiradi.

Yozma belgilardan foydalangan holda nutq tuzish mumkin, bu yo z m a nutq bo'ladi. Yozma nutq, monologik nutqning turlaridan biri bo'lib, ko'pincha boshqalar uchun tayinlangan nutqdir.

Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Avvalo yozma nutqning murakkab va mukammal tuzilib ifoda qilinadigan nutq turlaridan ekanligini qayd qilish kerak. Chunki, u masofa va zamon e'tibori bilan uzoqda bo'lgan kishilarga atalgan bo'ladi. Shuning uchun ham yoziladigan xat, maqola, kitob va boshqa yozma asarlardagi gaplarning hamma bo'laqlari grammatik qoidaga muvofiq o'z joyida ishlatilishi lozim. Bunda gapning egasi, kesimi va boshqa bo'laqlari tushib kolar ekan, uning mazmuniga tushunmaslik mumkin. Bu yana shuning uchun zarurki, biz o'z bilim va tajribalarimizni kelgusi avlodga faqat yozma shaklda qoldiramiz, u albatta kelgusi avlodlarga tushunarli bo'lishi kerak.

Nutqning alohida xili ham bo'lib, uni i ch k i nutq deb yuritamiz ichki nutq, kishining o'ziga qaratilgan bo'lib, o'z ichidan o'ylab, jim o'tirgan vaqtdagi nutqidir. Odatda, u ovozsiz o'tadi. Ba'zi hollarda esa, u shivirlab aytiladi yoki ovoz bilan gapiriladi. Bunday hodisa kishi bir narsadan qattiq ta'sirlangan, hayajonlangan yoki bir narsadan gpushaymoi bo'lgan yoki o'zi yolg'iz o'tirgan vaqtlarda ro'y beradi. Kishi o'zi sezmasdan baland ovoz bilan gapira boshlaydi yoki ayrim so'zlarni ovoz chiqarib gapirib ham qo'yadi. ko'p hollarda ichidan o'ylanib o'tirgan kishi yuz ifodasini o'zgartirib, boshini qimirlatib, qoshini chimirib, qo'llarini silkitib ham qo'yadi. Bu ichki nutqning harakat bilan ifoda qilinishidir. Bunday hodisa ayniqsa, kichkina bolalarda ko'p uchrydi. Bola o'ynar ekan, uning og'zi ham jim turmaydi, u o'z-o'zidan gapirib o'ynaydi. ya'ni o'z ichida nimani o'ylayotgan bo'lsa, shuni ovoz chiqarib gapiraveradi.

Ichki nutq, to'la bo'lmasligi, ko'pincha qimlardan tuzilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan. kishi portfelini axtarar ekan, «uyda esdan chiqib qolibdiku" yoki "olmabman" deb shivirlab qo'yadi va nima olishini unutganligini o'zi biladi.

Ichki nutq tafakkurga tabiiy ravishda bog'langandir.

7.4. Nutqning bolalarda rivojlanishi

Inson hayotida nutq, ma’lum davrda paydo bo’lib, taraqqiy eta boshlaydi. Bu taraqqiyot asosan uch. Davrga bo’linadi. Birinchi davr - nutqni o’zlashtirishdan oldingi davr. Bu ikki oylikdan o’n bir oylikkacha to’g’ri keladi. Ikkinchi davr - tilni dastlabki o’zlashtirish davri. U o’n bir oylikdan bir yoshu yetti oylik davrgacha davom etishi mumkin. Uchinchi davr - bir yoshu yetti oylikdan 3 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bundan keyingi davrda bola o’z nutqida prinsipial jihatdan katta o’zgarish bo’lmaydi. Faqat so’z boyligi ortib borishi va grammatik jihatdan so’z formalari ko’payib borishi mumkin.

Bola nutqining rivojlanishi, uning butun psixik prosesslarining taraqqiyoti bilan bog’liq va bunga yashash sharoiti ham katta ta’sir etadi.

Kun sayin jismoniy jihatdan o’sayotgan bola aqliy, psixik tomondan ham takomillashib boradi. So’z boyligi borgan sari o’sa boradi. Hodisa va vaqyealar narsalar nomini bildiradigan so’zlar, so’ngra fe’l, keyinchalik sifat va sonlar paydo bo’la boshlaydi. Masalan, ikki yashar bola taxminan 300-500 so’z egallagan bo’lishi mumkin. Ikki yosh bilan 5-7 yosh o’rtasida bolaning nutqi tez o’sa boshlaydi va so’z boyligi 3-4 mingga yetadi, Shu bilan birga uning tafakkuri ham rivojlana boradi. Bola ko’rgan, eshitgan narsalari to’g’risida ko’p savol beradi, yangi so’z va tushunchaparni egallay boshlaydi. Albatta, buning uchun balaga to’g’ri tarbiya berish, u bilan so’zlashish, ertaqlar gapirib berish, kitob o’qib eshittirish kerak.

Nutqda o’z vaqtida amaliy egallab olish va so’z boyligini o’stirish umuman maktabda sifatli o’qish uchun yaxshi zamin bo’ladi.

Maktabda o’qitiladigan barcha fanlar orqali o’quvchinint lug’at sostavi boyib boradi. Bolalar o’z nutqiga ongli munosabatda bo’ladilar. Bunga til va adabiyot darslari katta hissa qo’shadi. Chunki, bu fanlar o’quvchilarga o’z nutqini muayyan grammatik talablarga javob bera oladigan qilib tuzish qonunlarini o’rgatadi.

Biz oldimizga har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalashni qo’yganmiz. Prezidentimiz doimo yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalashni uqtiradilar. Demak, muloqot fikrlash bilan o’zviy bog’liq holda shakllanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nutqga ta’rif bering?
2. Til va nutqning o’zaro tafovutini ayting?
3. Tashqi va ichki nutqning shaxs uchun ahamiyatini tushuntiring?
4. Og’zaki va yozma nutqning xususiyatlarini izohlang.
5. Muloqot tushunchasini yoritib, uni inson hayotidagi o’rnini tushuntiring?
6. Nutq markazlari qayerda joylashgan?

Test topshiriqlari

1.Tinchlik va xotirjamlik ramzi bo’lgan rang?

A) qizil B) pushti V) oq G) sariq D) yashil

2.Gullar tili qaysi davlatda keng tarqalgan?

A) Germaniya B) Fransiya V) Angliya G) Ispaniya D) Amerika

3.Shaxslararo shaxsiy guruhiy ommaviy kommunikasiyalar muloqotning qaysi jarayonini ifodalaydi?

A) funksiyalari B) turlari V) operasiyalari G) tomonlari D) vazifalari

4.Insonni boshqa tomonidan tushunilishining o’ziga xos xususiyati bu ……

A) identifikasiya B) steriotipizasiya V) refleksiya G) empatiya D) apatiya

5.O’zaro birgalikdagi harakatning turlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) konkurensiya nizo B) faoliyatga kirishish va undan chiqish V) refleksiya va steriotipizasiya G) kooperasiya va konkurensiya D) empatiya va apatiya

6. …… faoliyatni tashkil etish shakli bo’lib, ma'lum kishilar guruhi birgalikda bitta va turli bir-biri bilan bog’liq faoliyat jarayonida ishtirok etishi.

A) kooperasiya B) konkurensiyaV) empatiya G) apatiya D) nizo

7."Biz insonni tashki xulq-atvoriga qarab o’qiymiz" mazkur fikrning muallifi?

A) A.A Bodalev B) Rubinshteyn V) Vigotskiy G) Suxomlinskiy D) Anoxin

8."Boshqa odamni bila turib individning o'zi ham shakllanadi" mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) A.A Bodalev B) Rubinshteyn V) Vigotskiy G) Suxomlinskiy D) P.Anoxin

9. …… odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir.

A) muloqot B) kommunikasiya V) munosabat G) hamkorlik D) raqobat

10.Ishonch va vafo ramzi bo'lgan rang qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) qizil B) pushti V) oq G) sariq D) ko'k

8-MAVZU: SEZGILARNING PSIXOLOGIYASI.

REJA:

8.1.Sezgi haqida tushuncha

8.2.Sezgilarning nerv - fiziologik asoslari

8.3.Sezgilar tasnifi va turlari.

8.4.Sezgilarning umumiy qonuniyatlari

Tayanch tushunchalar

Adaptasiya (lot. Adaptare moslashtirmoq) - sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi.

Akkomodasiya (yunon. Akkomadatio - moslashish) - ko'zning turli masofadagi narsalarni ko'rishga moslashuvi.

Analizator (yunon. Analusis bo'laqlarga ajratish) - murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilish.

Afferentasiya (lot, afferens (afferentis) - keltiruvchi) - tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo'lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.

Binokulyar ko'rish - (lot bini - juft, okuliys - ko'z) - bitta ob'ektning o'zini har ikkala ko'z bilan barobar ko'rish.

Veber-Fexner qonuni - qo'zg'ovchi kuchning o'zgarishi bilan hosil bo'lgan muayyan sezgi kuchining o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofiziologik qonun.

Vestibulyar apparat (lot. vestibultuu – boshlang'ich, apparatus - asbob) - fazodagi harakatlarning yo'nalishining holati va bunday harakatlar yo'nalishining o'zgarishini ko'zatib baholab turishga yordam beradigan analizator (ichki quloqda joylashgan).

Interoreseptiv sezgilar - (lot. interior - ichki, redpiere - olmoq) - ichki a'zolarga joylashgan reseptorlar.

Kinestetik sezgi (yunon. kineo - hapakatga keltiraman) - o'z tana a'zolarining holati va harakatini propreoreseptorlar ta'siri ostida sezish.

Sezgi - psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Sezgi a'zolarining o'ziga xos quvvati - sezgi a'zolarning maxsus quvvati haqidagi qonun bo'lib, bu qonunga binoan sezgi a'zolari tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'sirini aks ettirmay, balki sezgi a'zolarining o'ziga xos quvvatini qo'zg'ovchi tashqi turtki deb hisoblanadi (M.Myo'ller).

Sezgi chegarasi - sezgining mutloq chegarasi. Minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar - bilinmas ta'sirini sezishga sezgining kuchi chegarasi, qo'zg'ovchining eng yuqori kuchga ega bo'lgan ta'sirini sezishga - sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.

Sezgirlik - o'ta sezuvchanlik, sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etib turgan qo'zg'ovchilarning salgina yoki unchalik farq qilmaydigan ta'sirini ajrata olish qobiliyati.

Proprioreseptiv sezgilar (lot. proprius - xususiy, maxsus, recipere - qabul qilmoq) - tananing turli qismlaridagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar.

Sensibilizasiya (lotin. sensibilis - sezuvchan) - ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

Sensor sezgilar (lot, sensus - sezgi, his) - sezgi a'zolariga taalluqli sezgilar. Sensorika sezgi va idrokni umumlashtiruvchi tushunchadir.

Sinesteziya (yunon. sineistcsus - birgalikda sezish) - turli xildagi sezgilarning o'zaro ta'siri natijasida qo'shilib ketishi, (jumladan, eshitish va ko'ruv sezgilari va h.k.)

Ta'm bilish - sezgi turi (shirin, achchiq - chuchuk, to'zli). Analizator til o'zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po'stloqqismidagi ta'm bilish markazidadir.

Farqqilish chegarasi - qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar - bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasidagi qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

Eksteroreseptiv sezgilar - tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar mas., ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar.

Hid bilish sezgisi - sezgi turi, xillarini aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'siqining shilliq pardasida joylashgan va uning markazi bosh miya po'stloqqismidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

2. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

3. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com.

8.1.Sezgi haqida tushuncha

Ma'lumki bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, qarorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining quloqimizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil - biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi.

Demak, **sezgi deb**- atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.
- Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi. Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir.

8.2.Sezgilarning nerv - fiziologik asoslari

Ma'lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo'lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir.

Sezgilarning nerv - fiziologik asosini qo'zg'atuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. Shuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o'rganishda **I.P.Pavlov** ta'biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.

Analizator - tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirotlarni qabul qilib olib,

fiziologik jarayon bo'lgan qo'zg'alishni psixik jarayonga, ya'ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi. Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Ψ periferik (reseptor) - tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator qismi;

Ψ analizatorning periferik bo'limining markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

Ψ analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq bo'limlari.

Analizatorning qobiq bo'limida reseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o'zak, ya'ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma'lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo'ladi. Analizatorning o'zak qismida reseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo'lib, ko'plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya'ni tarqalib ketgan qismlari boshqa analizatorlarning o'zaqlari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobiqining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o'zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi*, masalan*, tovushlarning balandligi.

Tarqoq qismlar dag'al analiz funksiyalarni, masalan musiqiy ohang va tovushlarni farqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi reseptordan ta'sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo'llari va effektordan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarning o'zaro munosabati murakkab organizmning tevarak-atrofdagi olamda to'g'ri mo'ljal olishning organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzdagi faoliyatining negizini ta'minlaydi.

THE ORIGINS OF KNOWLEDGE. Sensation

The study of sensory processes grew out of questions about the origin of human knowledge. The empiricists argued that all knowledge comes through stimuli that excite the senses. However, the only way to get information about *distal stimuli* (the objects or events in the world) is through the *proximal stimuli* (the energies that impinge on a sensory surface). The empiricists therefore argued that much of perception is built up through learning by *association.*

PSYCHOPHYSICS

Research in *psychophysics* seeks to relate the characteristics of the physical stimulus to both the quality and intensity of the sensory experience. One psychophysical measurement is the *absolute threshold*.Another measurement is the *difference threshold*, producing a *just-noticeable difference (jnd).* According to *Weber's law,* the jnd is a constant fraction of the intensity of the comparison stimulus. Building on this principle, *Fechner's law* states that the strength of a sensation grows as the logarithm of stimulus intensity.

Data in psychophysical procedures are influenced by a perceiver's sensory *sensitivity* as well as her *decision criteria.* These two factors can be assessed separately, though, via a *signal-detection* procedure.

A SURVEY OF THE SENSES

Sensory codes **are the rules by which the nervous system translates the properties of the proximal stimulus into neural impulses. Psychological intensity is usually coded by the rates of firing by the neurons and by the sheer number of neurons triggered by the stimulus.**

Other codes are for *sensory quality.* In some cases, qualitative differences within a *sensory modality* are best described by *specificity theory*—that different *sensory qualities* (e.g., red versus green) are signaled by different neurons, just as the different sense modalities are signaled by different nerves. More commonly, sensory coding is best described by *pattern theory,* which holds that certain sensory qualities arise because of different patterns of activation across a whole set of neurons79brane's deformation. According to the *place theory,* the experience of pitch is based

on the place of the membrane that is most stimulated; each place is especially responsive to a particular frequency and generates a particular pitch sensation. According to the *frequency theory,* the experience of pitch depends on the firing frequency of the auditory nerve. Evidence suggests that both theories are correct—the perception of higher frequencies depends on the place stimulated on the basilar membrane, and the perception of lower frequencies depends on firing

frequency.

VISION

Vision is our primary distance sense. Its stimulus is light, which can vary in *intensity* and *wavelength.* Some structures of the eye, such as the iris and the lens, control the amount of light entering the eye and form a proper proximal stimulus—the *retinal image.* Once on the retina, the light stimulus is transduced by the *rods* and *cones.* Acuity is greatest in the *fovea,* where the density of cones is greatest. Rods and cones differ markedly in function. The rods operate at low light intensities and are insensitive to differences in hue. The cones function at much higher illumination levels and are responsible for sensations of color.

The various components of the visual system interact constantly, and these interactions actively shape and transform the stimulus input. One kind of interaction involves *contrast effects,* including brightness contrast. These effects serve to accentuate edges—as in the case of Mach bands. The physiological mechanism underlying this effect is *lateral inhibition*, a clear example of how the visual system refines the stimulus information by emphasizing some aspects of the input and understating others.

Visual sensations vary in *color;* and color sensations can be ordered on the basis of their hue, brightness, and saturation. Normal human color vision is *trichromatic,* depending on three cone types. However, some facts do not fit with this trichromatic conception, because colors come in pairs—as shown by the phenomena of complementary colors, color contrast, and negative afterimages. Shape perception depends on specialized *detector cells* that respond to certain characteristics of the stimulus, such as curves and straight edges. The optimal input for each cell—that is, a stimulus of a certain shape and size at a certain position—defines the cell's *receptive field.* In cats and monkeys, *feature detectors* seem to respond maximally when a line or edge of a specific orientation is in view. Other

cells, deeper within the visual system, assemble these elements in order to detect larger configurations and more

Bilimning kelib chiqishi. sezgi.

Sezgi jarayonlarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar inson bilimining kelib chiqishi haqida savol paydo qildi. Amaliyotchilar fikricha, buncha bilim sezgini qo'zg'atuvchi stimuli orqali paydo bo'ladi. Lekin distal ta'sir (dunyodagi narsa va hodisalar)ni qabul qilishning yagona yo'li bu proksimal ta'sir (sezgi qatlamiga ta'sir natijasidagi energiya) orqali bo'ladi. Shuning uchun emperisistlar fikricha aksariyat sezish o'zaro bog'lanish orqali hosil bo'ladi.

Psixofizika.

Psixofizika izlanishlari fizik ta'sir bilan sezgi tajribasining sifati va kuchini bog'liqligini o'rganadi. Psixofizik o'lchov birliklaridan biri bu absolyut porog. Boshqasi esa farqlash parog, qaysiki ko'rinar farqni bu farqlash stimulining kuchining o'zgarmas bir bo'lagi. Bunga asoslangan holda Fexner qonuni aytishicha, sezgi kuchi stimuli kuchi logorifmi sifatida shakllanadi.

Psixofizik muolajalar ma'lumotlari idrok etuvchining sezuvchanligi va qaror kreteriyasi orqali ta'sirlangan. Signal – nuqson muolajalari orqali bo'lishiga qaramasdan bu ikki omil ayri qo'yilishi mumkin.

Hislar kuzatuvi.

His kodlari kechgan sistemasini Proksimal ta'sirini nerv impulsga tarjimasi hosilasi hisoblanadi. Psixologik kuch odatda neyronlar yonishi bahosi va juda ko'p stimuli natijasida qo'zg'algan neyronlar soniga qarab kodlanadi.

Boshqa kodlar sezish sifati uchun boshqacha aytganda sezgirlik modalligi o'ziga xoslik nazariyasi orqali yaxshi qo'zg'aladi.(masalan qizil yashilga qarshi) Xuddi har xil his modalliklari har xil nervlar orqali signallanganliklari kabi. Qisqasi butun neyron tuzilishi aktivligi orqali his qilish sifati o'sishini belgilab beruvchi qolip nazariyasi orqali his qilish kodi jarayoni yaxshi tushuniladi.

Joy nazariyasiga ko'ra ko'tarilish membrananing eng qo'zg'algan joyiga nisbatan olinadi; har qaysi joy ayniqsa ma'lum chastotaga idrokli va eng yuksak his tuyg'ular o'zida hosil qiladi. Chastota teoriyasiga asosan, kuzatuv asabining qo'zg'alish chastotasiga tayanib nuqtani aniqlaydi. Kuzatuvlarga ko'ra har ikkala nazariya ham to'g'riligini belgilaydi.

Ko'rish bu bizning asosiy masofaviy sezgimizdir. Bunga yorug'lik ta'sir qiladi. Qaysiki kuchi va to'lqin uzunligi bilan farqlanadi. His va linza qaysiki ko'z ko'radigan yorug'likni nazorat qiladi, ko'zning strukturasi hisoblanadi. Yorug'lik retinaga tushgach rodlar va konuslar orqali axborot ta'siri yuzaga keladi. O'tkirlik fobiyadagi eng buyukdir, qayerdaki konuslar zichligi ko'p bo'lsa.

Bajaradigan ishiga qarab tayoqlar va konuslar farqlanadi. Tayoqlar kuchsiz yorug'lik sharoitida va har xil tuzilishida intensivdir. Konuslar esa yuqori yoritish va ranglar sezuvchanligiga mas'ul.

Ko'rish tizimining turli komponentlari o'zaro konstant aloqa qiladi, va bu aloqa ichki yo'nalgan ta'sirni shakllantirib beradi. Ulardan biri kontrast ta'sirlar yorqinlik kontrastini ham qo'shgan holda. Bu ta'sirlar chegaralarni belgilashga xizmat qiladi – qaysiki Max bo'g'iniga ko'ra. Bu ta'sir ostida yotuvchi psixologik mexanizm yonbosh to'sqinligi deyiladi. Qaysiki misol uchun ko'rish tizimi ba'zi aspektlarga urg'u berib va boshqalarini tushunib ta'sir axborotini takomillashtiradi.

Ko'rish hissi rangga qarab farqlanadi va rang hissi ular ko'rinishiga, yorqinligiga, to'yingunligiga ko'ra qabul qilinadi. Normal inson rang ko'rishi trixromatik, uchta konusga asoslangan. Biroq ba'zi faktlar buni inkor qiladi masalan juft bo'lib uchraydigan ranglar qaysiki kontrast va fatogen ranglar bir-birini to'ldirib turadi.

Raqib jarayon nazariyasi

Shakl sezgirligi egri chiziqlar va tekis chegalar kabi ta'sir xarakteristikalarini aniqlashga javob beruvchi difektor xujayralariga tayanib ish ko'radi. Optimal kiritilgan ma'lumot har bir xujayra uchun ta'sirni ko'rsatuvchi shakl va o'lchov qaysiki ma'lum pozisiyada aniqlab beruvchi xujayraning resiptiv qismidir. Qachonki chiziq yoki chegara maxsus kuzatuvda bo'lganda mushuk va maymunlarda xususiyat defektori eng maksimal

darajada bo'ladi. Ko'rish tizimidagi boshqa chuqurroq xujayralar yuqoridagi unsurlarni kattaroq bo'lgan konfigurasiyalarda birlashadi[11].

8.3.Sezgilar tasnifi va turlari.

Sezgilar qaysi a'zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul-harakat, organik sezgilarga ajratiladi. Ular sezgi a'zolari qaerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikasiya qilinadi. Ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi **Ch.Sherringtonga** taalluqlidir. U reseptorning qaerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uch turga bo'ladi.

- ✓ Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya'ni **ekstroreseptiv sezgilar**;
- ✓ Ichki tana a'zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda reseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarda joylashgan sezgilar, ya'ni **interoreseptiv sezgilar.**

---

[11] *Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com*

✓ Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni **proprioreseptiv sezgilar**.

Sezgilarning tasnifi va bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Dastlabki mulohazalar interoreseptiv sezgilar u borasida rus psixologi **A.R.Luriya** tadqiqot ishini olib borgan. Uning fikricha, interoreseptiv sezgilar asl, tub, ma'nodagi sezgilar emas, balki emosiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli uni *"noma'lum hislar"* deb atalgan. Bu asosan ichki organlarning xastaliklarida vujudga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Interoreseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emosional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola tana a'zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilardan buni sezish mumkin.

Interoreseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish muvozanatini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so'z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishning gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Shuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish, tug'ilib kelayotgan mayllarni qondirish bilan bog'liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoreseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari intero-sepsiya bilan birgalikda **K.M.Bikov, V.N. Chernigovkiylar** tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprioseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining boshqaruvchisi hisoblanib va afferent asosini tashkil qiladi.

Pereferik reseptorlar muskullar, pay va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarning harakatlashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishi, nerv tolalari yordamida, orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqligiga etkaziladi. qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga yetib keladi va undan po'stosti tugunchalaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qoronqulashgan zonasida harakatlarini yakunlaydilar.

Proprioreseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini **A.Orbeli** tomonidan, hayvonlarda **P.K.Anoxin**, odamlarda esa **N.A.Bernshteynlar** tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati, sezgirligi statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, ular o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi. *Masalan,* bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemada ko'rish mumkin:

a) endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'alish;
b) eshitish nervi;
v) vestibulyar nervi;
g) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi;
d) miya apparatiga o'tadi;

Vestibulyator sezgi apparati ko'rish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni mo'ljalga olish (orientirlash) jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobil yo'lidan o'tish va hokazo. Bu jarayon patologik holatda ham uchrashi mumkin.

Ekstroreseptiv sezgilar intermodal, nospesifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaqlar yordamida (miya qopg'og'i, tirsak, tizza uchlari) payqash - ***vibrasiya sezgilari*** deyiladi. *Masalan,* karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibrasion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Uning quyidagi ko'rinishlari ham mavjud:

a) hid, ta'm va maza sezgilarida;
b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;

v) uch xil ta'sirning uyg'unlashgan integrativ holatida;

Sezgining nospesifik shakliga terining foto sezgirligi kirib, u ranglarni, nozik jumlalarni ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo'l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirligi tabiati psixologiyada yetarli darajada o'rganilmagan.

Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstroreseptiv, proprioreseptiv, introreseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

- Ko'rish sezgilari;
- Eshitish sezgilari;
- Hid bilish sezgilari;
- Ta'm bilish sezgilari;
- Teri sezgilari;
- Muskul - harakat (kinestetik);
- Statistik sezgilar;
- Organik sezgilar;

Ko'rish sezgilari

Insonlar tomonidan rang va yoruqlikni sezish ko'rish sezgilari orqali amalga oshadi va seziladigan ranglar **xromatik va axromatik** turlarga bo'linadi. Psixofiziologik qonunga ko'ra yoruqlik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib singanda hosil bo'ladigan rang **xromatik ranglar** deb atalib, ularga kamalak ranglar, ya'ni qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha tuslarini hamrab oladi. Odatda oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko'rinishlari **axromatik ranglar** deb nomlanadi.

Eshitish va ko'rish markazi

Ko’rish sezgilarining organi ko’z hisoblanib, u ko’z soqqasi undan chiqib keladigan ko’ruv nervlaridan tashkil topgan bo’lib, ko’z soqqasini tashqi tomirlari va to’r pardalari o’rab turadi. Tashqi pardaning tiniq bo’lmagan oq qismi sklera yoki qotgan qattiq parda deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan bir muncha qavariqqismi tiniq mugus parda bo’lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko’z ko’k, qora kabi jilva beradi. Rangdor pardaning o’rta qismida yumaloq tiniq modda bo’lib, uni qorachiq deb ataymiz va u orqali ko’z ichiga yoruqlik nurlari kiradi.

Ko’zlarning uchinchi pardasi to’r parda deb nomlanib, u ko’z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism ko’z gavhari joylashgan bo’ladi. Yoruqlik nurlari unda to’planib, so’ng sinadi va to’r pardaga narsa yoki jismning aksi, surati tushadi.

Ko’z soqqasining gavhari bilan to’r parda o’rtasidagi butun ichki yuzasi shishasimon jism deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo’ladi. To’r parda rang va yoruqlikni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo’lib, unda ko’ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning chekkadagi uchlarida tayoqcha va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv xujayralari mavjuddir. Inson ko’zini to’r pardasida 130 millionga yaqin tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko’zining to’r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik, ya'ni kundo’zgi ranglar ko’riladi.

Tayoqchalar yoruqlikni yaxshi sezuvchan bo’lib, xira va qorong’u paytlarda o’z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi.

To’r pardaning eng sezgir joyi - sariq dog’ning asosan, kolbachalar bilan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko’ramiz. Obektga tik qarash natijasida ko’z muskullari unga qaratiladi va aks ettiruvchining sur'ati sariq dog’ga tushadi. Bunday tarzdagi ko’rish to’g’ri ko’rish deyiladi.

Odam ko’zi ranglarning taxminan, 380 millimikrondan 780 millimikrongacha o’zunlikdagi to’lqinlarning ta'sirini sezadi.Uch rangli sezgi nazariyasining asosiy qoidalari 1756 yilda **M.V.Lomonosov** tomonidan bayon qilingan bo’lsa, 1856 yildan keyin nemis fizigi G.Gelmgols tomonidan uni to’la isbotlab berilgan.

Ushbu nazariyaga binoan to’r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo’zg’alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi qo’zg’alishi yashil rang sezgisi va uchinchi qo’zg’alishi binafsha rang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko’ra yoruqlik to’lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo’zg’atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug’lik to’lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, ammo bu bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlardan har birining qanchalik qo’zg’aluvchanligiga qarab, har xil rang sezgilari namoyon bo’ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg’iz to’r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po’stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog’liq ekanligi to’g’risida ma'lumotlar mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan tayoqchalarda ko’rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko’zga yoruqlik ta'siri etganda ko’rish purpuri kimyoviy yo’l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo’linadi va mazkur jarayon ko’rish nervini qo’zg’atib, yorug’lik sezgisini hosil qiladi va qorong’ulikda esa purpur funksional holatini qayta tiklaydi.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, **musiqaviy va shovqinli** tovushlarni aks ettiradi. Odatda tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonli, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topadi. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanib, u tovushning balandigini, kuchini belgilaydi, boshqalari keluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deyiladi. Musiqa asboblaridan taralayotgan tovushlarning o'ziga xosligi fan tilida tembr deb ataladi. hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqinlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo'ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloqlar suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. O'sha quloqlar nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha, sopdan va o'zangidan tashkil topgan. Ichki quloq (quloq labirinti) o'zaro birlashmagan uchta bo'lakdan tuzilgan.

Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog'ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to'lqinlarini ichki quloqqa o'zatadi. O'rta quloq maxsus yo'l orqali og'iz va burun bo'shlig'i bilan tutashgan bo'ladi. Ichki quloqlarning yuqori qismi uchta yarim doira kanaldan, o'rta qismi kameradan va pastki qismi chig'anoqdan tashkil topgan.

Ichki quloqlarning uchchala bo'limi endolimfa nomli suyuqlikdan iboratdir. Ichki quloqlarning asosiy qismi chiqanoqdan iborat bo'lib, uning ichida kortiy organ mavjud, u gumbaz shakliga ega bo'lib, asosida membrana joylashgan. Membrana o'zunligi qisharib boruvchi elastik tolalardan iborat bo'lib, ular tarang tortilgan to'rlarga o'xshaydi. Uning yuqori qismida maxsus, tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qo'llari bor maxsus hujayralar yordamida korniy dugalari orqali katta yarim sharlar po'stining bo'lagida joylashgan.

Havo to'lqinlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo'ladi. Agar musiqaviy tovushlar havo to'lqinlarining sekin harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinli tovushlar esa ularning notekis harakatlari natijasida yuzaga keladi. Odamning eshitish organi bir sekundda 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qiladi.

Hid bilish sezgilari.

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kavagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan. Ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi. hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi. Oddiy gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun havosiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo'ladi.

Ta'm bilish sezgilari

Ta'm bilish sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoqqismidan tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibi tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish "ko'rtaqlari"ga ega. Ta'm bilish so'rg'ichlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun uning orqa qismi achchiqni, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani sezadi. Lekin ularning o'rtasi bo'lsa mazani aks ettira olmaydi. Ta'm bilish so'rg'ichlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga o'zatib turadi, uning markazlariga yaqin joylashgan.

Teri sezgilari.

Teri sezgilari tarkibi tuyish va qarorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili bu reseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidadir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, birinchisi tegish va tarqalishini tuyish sezgilari, ikkinchisi esa silliq yoki g'adir - budurni tuyish bilan tavsiflanadi. Odatda tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'atuvchi kuchayganda siqiq sezgiga aylanadi, u yanada kuchayganda og'riq sezgisiga aylanadi.

Tuyish sezgilari organi teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyish tanachalari deb nomlanuvchi tanachalardan iborat. Tanachalarning ichida va qisman tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari

mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan, barmoqlarning uchlarida til uchida labda zich joylashgan, xuddi shu boisdan sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir.

Psixologiyada tuyish tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari zichligi ekstiziometr asbobi yordami bilan o'lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkuldan tashkil topgan, bo'lib, uning o'zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o'rtasidagi masofani o'lchaydi.

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy nuqtasida joylashgan deb taxmin qilinadi. Tuyish sezgilarining tashqi, ya'ni fizik sababi bu biron- bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

Muskul - harakat sezgilari, statik sezgilar

Muskul-harakat sezgilari motor sezgilar deb nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari-gavda muskullari, paylar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul - harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

Statik sezgilar gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi.Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat reseptor vazifasini bajaradi. Vestibulyar apparat quloq dahlizi yarim doira kanallaridan tashkil topgan bo'ladi, sezuvchi nerv tarmoqlari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada so'zib yuradigan mayda ohaktosh kristallardan tashkil topgan.

Organik sezgilar

Organik sezgilarning reseptorlari ichki organlarda, qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda joylashgan bo'ladi. Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar reseptorlarining qo'zg'atuvchilaridir.

Ularga quyidagilar kiradi:

a) Og'riq sezgilar;
b) chanqoq sezgilari;
v) noxush tuyg'ular;
g) ochlikni sezish.

8.4.Sezgilarning umumiy qonuniyatlari

Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuz beradi. Sezgilar biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi reseptorga ta'sir etishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqtdan keyin sezgi hosil bo'ladi. Lekin sezgilarning har xil turlari faqat o'ziga xosligi bilan emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, jadalligi uzoq davom etishi va ko'p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi. quyida sezgilarning xususiyatlari yaqqol ifodalangan.

Sifat - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisi past-balandligi, mayinligi, zo'rligi bilan farqqiladi va hokazo.

Sezgining jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyat bo'lib, ta'sir kelayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va reseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgining davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. U ham sezgi a'zosining funksional holati bilan lekin asosan qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va ta'sirning jadalligi bilan belgilanadi. Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki bir oz vaqt o'tgach hosil bo'ladi. Bu sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun turlicha, masalan, taktil sezgilari uchun 130 millisekund bo'lsa, og'riq sezgisi uchun 370 millisekundan iborat.

Bilinar - bilinmas sezgi hosil qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi sezgirlikning **quyi chegarasi** deyiladi. Sezgilarning quyi chegarasi analizatorning absolyut sezgirligi darajasini aniqlaydi. Masalan, 1gramm qandni 1 piyola choydagi mazasi uncha sezilmaydi. 0.1 sm qog'ozni qo'l kaftiga

qo’yilsa, uning og’irligi sezilmaydi. Sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo’lsa, mazkur analizatorning sezgirligi shunchalik yuksak bo’ladi.

Formulasi $\mathbf{Ye = \frac{1}{R1}}$

E - sezgirlik P-qo’zg’atuvchining ta'sir me'yori.

Ko’rish va eshitish analizatorining sezuvchanligi juda yuksakdir. **S.I.Vavilov** (1851-1951)ning tajribalarida ko’rsatilganidek, kishining ko’zlari to’r pardagi bor yo’g’i 28 kvant atrofida nur tushgan taqdirda ham yoruqlikni ko’ra oladi. Tim qorong’ulikda 27 kilometr masofada yonib turgan shamni ko’rish qobiliyatiga egamiz. Ayni paytda badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun ko’rish va eshitish sezgilari hosil bo’lishiga sarflanganiga nisbatan, 100-10000000 barovar zid quvvat talab qilinadi.

Analizatorning mutlaq sezuvchanligi sezgining faqat quyi emas, balki yuqori chegarasi bilan kifoyalanadi. Sezgining mutlaqo **yuqori sezuvchanligi** deb qo’zg’atuvchining kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi. Bunda ta'sir ko’rsatayotgan qo’zg’atuvchiga aynan o’xshaydigan sezgi hosil bo’ladi. Bizning reseptorlarimizga ta'sir qilayotgan qo’zg’atuvchilar kuchining yana ham oshishi og’riq sezgisini hosil qiladi. Sezgi a'zolari yordamida u yoki bu qo’zg’atuvchining faqat bor yo yo’qligini qayd etmasdan, balki qo’zg’atuvchilarning kuchiga va sifatiga qarab farqlay olishimiz mumkin. Sezgilar o’rtasidagi bilanar-bilinmas farqni hosil qiluvchi ikkita qo’zg’atuvchi o’rtasida mavjud bo’lgan minimal **farq ajratish chegarasi yoki ayirma chegarasi** deb ataladi.

Nemis fiziologi **E.Veber** (1795-1878) kishining o’ng va chap qo’llarida ko’tarib turgan ikkita narsaning qaysi biri og’irroq ekanligini aniqlay bilish qobiliyatini tekshirar ekan, farq ajratish sezgirligi mutloq emas, balki nisbiyligini qayd etgan edi. Bundan qo’shimcha qo’zg’atuvchining asosiy qo’zg’atuvchiga nisbatan doimiy o’lcham bo’lishi kerak, degan ma'no kelib chiqadi. Jumladan, qo’lda 100 gramm og’irlikdagi yuk turgan bo’lsa yukning bilinar-bilinmas og’irligini payqash uchun og’irlik 3.4 gramm atrofida oshirilishi kerak. Yukning og’irligi 1000 gramm bo’lgan taqdirda esa sezgi hosil qilishida salgina farq sezishi uchun og’irlik 33.3 gramm chamasi oshirilishi kerak. Shunday qilib, ilk qo’zg’atuvchining o’lchami qanchalik katta bo’lsa, unga qo’shimcha ham shunchalik katta bo’lishi lozim.

Farqlanishning boshlanishi mazkur analizator uchun doimiy bo’lgan nisbiy o’lchash bilan belgilanadi. Ko’rish analizatori uchun bu nisbat taxminan $\frac{1}{100}$ ni, eshitish analizatori uchun $\frac{1}{10}$ ni, taktil analizatori uchun, $\frac{1}{30}$ ni tashkil etadi. Bu holatni tajriba yo’li bilan tekshirish uning faqat o’rtacha kuchga ega bo’lgan qo’zg’atuvchilar uchun urinish ekanligini ko’rsatadi.

Nemis fizigi G.Fexner (1801-1887) Veber o’tkazgan tajribalarda olingan ma'lumotlarga asoslanib, sezgilarning jadalligi qo’zg’atuvchining kuchiga bog’liqligini quyidagicha shaklida ifodalangan edi.

$$S = KLg\ j + C$$

Bunda S - sezgining jadalligini, j - qo’zg’atuvchining kuchini, K va C konstantlar o’zgarmas, doimiyligi va miqdorlarni bildiradi. Asosiy **psixofizik qonun** nomi bilan yuritiladigan qonun quyidagicha izohlanadi. *Sezgining jadalligi qo’zg’atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Boshqacha qilib aytganda, qo’zg’atuvchining kuchi geometrik progressiya yo’li bilan osha borgan taqdirda sezgilarning jadalligi arifmetik progressiya yo’li bilan oshadi.* Bu qonun **Veber - Fexner** qonuni ham deb ataladi. Ayirma sezuvchanlik yoxud farq ajratish sezuvchanligi ham farqlanish chegarasining o’lchamiga nisbatan teskari bog’lanishda bo’ladi; farqlanish chegarasi qanchalik katta bo’lsa, ayirma sezuvchanlik ham shunchalik kam bo’ladi.

Sezgilar chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorning sezgirligi barqaror bo’lmasdan qator fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta'siri ostida o’zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptasiya (moslashish) hodisasi alohida o’rin egallaydi.

Adaptasiya - yoxud moslashuv - sezgi organlari sezgirligining qo’zg’atuvchi ta'siri ostida o’zgarishi demakdir.

Adaptasiya (yoki moslashish) ikki turga bo'linadi:

a) negativ adaptasiya;

b) pozitiv adaptasiya.

Pozitiv adaptasiyada kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgirlik oshadi. Ko'rish analizatorida pozitiv adaptasiya, qorong'ulik adaptasiyasi deyiladi.

Negativ adaptasiya ikki xil bo'ladi:

a) qo'zg'atuvchining davomiy ta'siridan sezgirlik yo'qoladi. Masalan, qo'limizga yuk qo'yilsa sezamiz, ammo vaqt o'tishi bilan sezmay qolamiz.

b) kuchli qo'zg'atuvchi ta'siridan sezgirlikning susayishi. Masalan, qorong'u xonadan birdaniga chiqib qolsak, avvaliga hech narsa ko'rmaymiz, vaqt o'tishi bilan sezgirlik pasayib biz normal ko'ramiz.

Adaptasiya teri reseptorlarida tez yuzaga keladi. **I.P.Pavlov** fikricha, *"Adaptasiya bosh miya po'stloq qismidagi muhofazalovchi tormozlanishi tufayli hosil bo'ladi"*. Qaroratga, hidlarga nisbatan ham adaptasiya bo'ladi.

Sensibilizasiya - analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishidir.

Sensibilizasiyaning adaptasiyadan farqi:

1. Adaptasiyada sezgirlik oshadi yoki kamayadi, sensibilizasiyada esa faqat oshadi;
2. adaptasiyada sezgirlikning o'zgarishi tashqi chegaralarga bog'liq bo'lsa, sensibilizasiyada psixologik, fiziologik holatlarga bog'liq bo'ladi.

Sinesteziyaqo'zg'atuvchining bir analizatorga ta'siri bilan boshqa analizatorga xos sezgining paydo bo'lishidir. Ko'rish, eshitish sinesteziyasi ko'proq uchraydi. Sinesteziyalar har bir shaxs uchun doimiy bo'ladi. Masalan, kompozitorlardan Skrebin, A.F.Lest, N.Rimskiy Korsakovlarda "rangdor eshitish" qobiliyati bo'lgan. Demak, sinesteziya ikki sezgining bir sezgi bo'lib qo'shilishidir. "Masalan, "shirin so'z", "bag'ri tosh".

Sezgilar kontrastiqarama-qarshisifatga ega bo'lgan bir vaqtdagi qo'zg'alish tufayli sezgirlikning o'zgarishidir. Masalan, tinch joyda tovush kuchliroq seziladi. Oqimtir fonda qora rang qoraroq, qoramtir fonda oq rang yana ham och bo'lib seziladi. Odam charchaganda sezgirlik pasayadi. harakat oshganda sovuqqa sezgirlik o'tkirlashadi. Sezgirlik kasbga ham bog'liq. Masalan, rassomlarda rang sezish, musiqachilarda tovush sezish va shu kabilar.

Nazorat savollari:

1. Sezgi tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Sezgilarning nerv fiziologik asoslari nimalar bilan belgilanadi?
3. Sezgi qanday asosga ko'ra klasifikasiya qilingan?
4. Sezgilarning turlarini sanang?
5. Sezgi sohasidagi qonuniyatlarni izohlang?
6. Psixologiya fanida sezgi nazariyalarining mohiyatini izohlang?

Test topshiriqlar

1.Sezgi bu ...

A) eng oddiy psixik jarayon bo'lib, narsa va hodisalar o'ziga xos xususiyatlarini ongimizda aks etishidir B) o'tmishdagi voqea-hodisalarga munosabat V) sezgi organlarimizga ta'sir etib, ongimizda to'liq aks etishiG) esga tushirish, esda saqlash

D) shaxs xulq-atvori, xususiyati D) oddiy elementar sezuvchanlik bo'lib, tashqi ta'sirni qabul qilish hisoblanadi.

2.Insonning barcha sezgilari qaysi sifatlarga qarab klassifikasiya qilinadi?

A) ekstroseptiv, introseptiv, proprioseptivB) interaktiv, kommunikativ

V) ekstroseptiv, perseptivG) interoseptiv, perseptivD) ekstroseptiv, kommunikativ

3.Ekstroseptiv sezgilarga qanday sezgilar kiradi?

A) ta'm bilishB) hid bilishV) teriG) ko'rish, eshitishD) barcha javoblar to'g'ri

4.Eshitish sezgilarining sifati qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ovoz balandligiB) ovozning kuchiV) ovoz tebriG) kortiev markazlari

D) ovoz balandligi va ovozning kuchi

5.Sezgi qonuniyatlari qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) birlikB) doimiylik V) davomiylikG) sezgi ostonasiD) barcha javoblar to’g’ri

6.Sezgining kuchi nimaga bog’liq?

A) ta'sir kuchiga B) himoya kuchiga V) eshitish sezgisiG) ko’rish sezgisiga

D) his qilish sezgisiga

7.Interoseptiv sezilar bu ...

A) idrok va sezgining birligiB) organik sezgilarV) kinetik sezgilarG) vestibulyar apparat D) to’g’ri javob yo’q

8.Sezgi kuchi ta'sir etuvchi kuchiga logorifmik proporsionaldir mazkur qonun mualliflari qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) Sechenov, DavidovB) Dubrovin, PavlovV) Veber-FexnerG) Ko’zmina-Lichko

D) Mexler-Kabanova

9.Sezgilar xususiyati qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) adaptasiya, sensibilizasiya, senesteziyaB) strukturaviyligiV) predmetligi

G) konstantligi D) mantiqiyigi, konstantligi

10.Sezgi organlarini ularga ta'sir etuvchi stimullarga moslashish bu...

A) sensibilizasiyaB) senesteziya V) adaptasiya G) konstantligi D) interoseptiv

11.Sensibilizasiya bu...

A) bir sezgiga ta'sir etuvchi qo’zg’atuvchilar yig’indisiB) mashq qilishi natijasida sezgi organlarini sezuvchanligi ortishiV) ko’z gavharini moslashishi

G) predmetlarni u haqidagi ma'lumotlarni jamlangan holati D) to’g’ri javob yo’q

12.Bir sezgiga ta'sir etuvchi qo’zg’atuvchi ikkinchi sezgini yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Mazkur qonuniyat nima deb ataladi?

A) adaptasiyaB) konstantligi V) senesteziyaG) sensibilizasiya

D) kommunikativlik

13.Adaptasiya turlari:

A) negativizm, kommunikativ.B) pozitiv, negativV) sub'ekt, ob'ektivG) taktik negativD) ta'm bilish, eshitish

14.Qorni ochlikni, chanqashni sezish qaysi sezgi turiga oid?

A) to’yish B) organikV) eshitishG) ta'm bilishD) teri sezgisi

15.Ekstroresetiv sezgilar modallikdan tashqari yana qanday turkumlarga ajratiladi?

A)Proproreseptiv.B)Interoseptiv.V)Vestibulyator.G)Intermodal nospesifik.

D) barcha javoblar to’g’ri

16.Psixologik ma'lumotlarga ko’ra gavdaning fazodagi holati, qaysi sezgilar orqali seziladi?

A)Statik sezgilar.B)Ekstroreseptiv sezgilar.V)Interoseptiv.G)Nospesifik.D)Barcha javoblar to’g’ri

17.Terining foto sezgirligi kim tomonidan kashf qilingan?

A)I.Myo’ller B)A.N.Leontev V)I.Pavlov G)A.Orbeli, A.R.Luriya D)P.X.Anoxin

18.Vibrasiya sezgilar qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) Ko’rish, eshitish.B) hidlash, teri sezgilari.V) Payqash G) Payqash, maza- ta'm

D) Ko’rish, eshitish hidlash, teri sezgilari

19."Ong" va "Aql" tarixiy evolyusiya natijasi emas, deb inson psixikasiga o’zgacha yondashuv uni izohlab berish mumkin bo’lgan birlamchi xususiyat ekanligini ilgari surgan olim qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) I.Pavlov B) A.OrbeliV) Volf G) A.R.Luriya D) X.Volf, I.Pavlov

20.Psixologiya tarixida "sub'ektiv idealizm" degan yo’nalish ham yuzaga kelgan bo’lib, ungacha, inson fakat o’ziligini biladi holos. Bu nazariya o’ziga xos g’oyaga ega bo’lib fan tarixida qanday nom olgan?

A) Spesifik.B) Vestibulyator.V) Nospesifik.G) Solipsizm.D) to’g’ri javob berilmagan

9- MAVZU: IDROK

REJA:

9.1.Idrok haqida tushuncha.
9.2.Idrokning nerv fiziologik asosi
9.3.Idrokning o'ziga xos xususiyatlari. Appersepsiya
9.4.Idrokning tasnifi

Tayanch tushunchalar

Agroziya - idrokning buzilishi. Agrafiya miyaning ma'lum bir jarohatlanishida natijasida sodir bo'ladi

Appersepsiya (lot. ar - ga, qarashli, perceptio - idrok) - shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, xavaslariga bog'liqligi.

Attraksiya (fr. attraktion - qiziqib intilmoq, talpinmoq) - bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

Audivizual idrok (ing. audio - eshitmoq vision - ko'rmoq) - bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilish.

Gallyusinasiya (lot. - cinatio - alahlash) - real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning hayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixopatologik hodisa.

Idrok - sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni bevosita yaxlitligicha aks ettirish jarayoni.

Idrokning konstantligi - (lot. constantis - o'zgarmas, doimiy) - idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning (ularning shakli, rangi, hajmi) nisbatan o'zgarmasligi, turg'unlik holati.

Idrokning predmetliligi - jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni - axborotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati.

Idrokning butunliligi - idrok xususiyatlaridan bo'lib, bu sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok qilishdan iborat.

Illyuziya - (lot. illusio - aldash) - borliqning noto'g'ri idrok etilishi.

Ko'zatuvchanlik - shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonnda narsalarni kamdan-kam uchraydigan ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo'ladi.

Perseptiv harakatlar (lot. regsertio - idrok etmoq) - idrok jarayonining asosiy tuzilishi birligi, bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

Perseptiv tizim - idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Predmetlilik (idrokda) - ob'ektivlashtirish holati, unda tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlar qayta va shu borliq bilan solishtiriladi va natijada idrokning haqiqiy buyum va narsalarni qabul qilishini ta'minlaydi.

Tanlovchanlik - idrokning xususiyati, buni shaxsning yo'nalishi yoki uning tajribasini belgilab beradi.

Tuyush - idrok turlaridan biri, bu taktil va muskul - harakat sezgilaridan iborat.

Fazoni idrok qilish - voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, o'zunlikda) bevosita aks ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b**.**

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com

9.1.Idrok haqida tushuncha.

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to'laroq aks ettirish jarayoni bo'lib, sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya'ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Masalan, olmani ko'rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta'mi, hidi va navi bilan birgalikda bir butun narsa tarzida idrok etamiz. Demak, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz qatnashadi.

Shuning uchun ham idrok sezgiga nisbatan ancha murakkab aks ettirish jarayonidir.

Shaxs tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim xossalarini ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarini birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi.

Psixologik adbiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan M.Vohidovning "Psixologiya" darsligida **idrok** deb sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytiladi, deb keltiriladi.

V.Karimovaning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida **idrok** bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko'plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi.

Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta'rif berish mumkin: **Idrok**-deb sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

Kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarini sezadi. Uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarini sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar.

Idrok qo'zg'atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, yaxlitligicha, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiriladi. Shuning uchun idrok ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iboratdir, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatidan yangi yuksakroq bosqichidir.

Idrokning muhim tomonlaridan biri - uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri - bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyatini uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zamirida yuzaga keladi.

Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishdir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'p qirrali, ko'p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi.

Perception

FORM PERCEPTION: WHAT IS IT?

The recognition of forms begins with the detection of simple *features*; and in fact the rapid detection of features can be demonstrated in *visual search tasks*. However, recognition depends on more than a mere checklist of features. This point is evident, for example, in the fact that the catalog of features contained within a stimulus display depends on how the perceiver has *organized* the display.

NETWORK MODELS OF PERCEPTION

According to many theorists, recognition depends on *feature nets*—networks of detectors with feature detectors serving as the initial level in the network. These networks rely on

datadriven and knowledge-driven processes, and interactions within the network guarantee that the network's output will provide the best possible compromise among the various rules governing the network's functioning.

Idrok

Idrok : nima u?

Tashqi olamni qabul qilishni boshlanishi kelajakni oddiy kuzatish bilan boshlanadi. Va bu qayta kuzatish, kelajakda yangi izlanuvchan masalalarni yaratadi. Holbuki tanish kelajak chek varag'iga bog'liq. Bu nuqta aniq masalan: kelajak jamlanmasi tasdiqlangan stimul ko'rishi tashkil qilingan korinishga bog'liq.

Idrokni internet ishi modeli.

Koplab fikrlarga ko'ra, tanish kelajakga bog'liq, internet ishi kuzatishlar kelajak kuzatishlari bilan intenetni ishi ornini saqlab qoladi. Bu internet ishi sana va bilimlarni yonaltiruvchi jarayon va tashqaridagi internet ishi eng zo'r imkoniyatlar munozarar internet ishini vazifalari.[12] ***(Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** www.worthpublishers.com

Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Masalan: toshko'mir yoruqlikda yoqdu sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni "qora" va "oq" deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita sub'ektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartirishlar, to'zatishlar kiritadi.

Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etsa ham idrok sezgilarimizning oddiy yig'indisidan iborat deb bo'lmaydi. Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari odamning shu paytgacha orttirilgan turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Odam o'z turmush tajribasida juda ko'p narsa va hodisalarni takror-takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan harakatlarga egadir. Shuning uchun yetarli turmush tajribasiga ega bo'lgan odam (ya'ni katta yoshli odamlar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanligini anglashga yordam beradi. hech qanday turmush tajribasiga ega bo'lmagan odam, (ya'ni chahaloq, bolalar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanini hali mutlaqo bilmaydi.

Idrok jarayoni shunchaki oddiy aks ettirishdan iborat emas. Idrok jarayonida odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi. Chunonchi, odam diqqatini qaratmasdan (yo'naltirmasdan) birorta narsani ham mutlaqo idrok eta olmaydi.

Diqqat qaratilgandagina ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni ravshan idrok etamiz. Idrok jarayonida odamning ilgari orttirgan turmush tajribasi ishtirok qilar ekan, binobarin idrok jarayoni odamning xotirasi bilan bog'liqdir.

Idrokda har doim xususan tanish jarayoni ishtirok etadi. Tanish jarayoni qatnashayotganini tufayli odam idrok qilayotgan narsalarini darrov anglab ola biladi. Mashhur rus fizologlaridan **I.I.Sechenovning** ta'kidlashicha, odam hozirgi idrokidan hosil bo'lgan obrazlar ilgarigi idroklarida vujudga kelgan va xotirasida saqlanib qolgan obrazlar bilan taqqoslab ko'radi. Agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgari xuddi shu narsani idrok qilishdan vujudga keltirilgan obrazga

to'la mos kelsa, ayni choqda idrok qilayotgan narsasini taniydi. Aksincha, agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgarigi obrazga mos kelmasa, ya'ni ayni chog'da idrok qilayotgan narsani odam tanimasa idrok davom ettirila beradi. Idrok jarayonida nutq va tafakkurning qatnashishi shunda namoyon bo'ladiki, har bir idrok nihoyasiga borib, hukm shaklida, ya'ni chigal gap shaklida ifodalanadi. Chunonchi odamni yoki biror idishni idrok qilayotganimizda idrokimizni, "bu piyola" deb tugallaymiz. Narsalarning nomini atash bilan idrokimizning mazmunini ravshanlashtiramiz. Agar idrok jarayonida narsalarning nomini atay olmasak, ya'ni idrok qilayotgan narsalar bizga notanish qandaydir yangi narsalar bo'lsa, unday paytda idrok jarayonidagi tafakkur faollashib ketadi. Odam idrok qilayotgan narsasi nima ekanligi haqida o'ylay boshlaydi.

---

[12] ***Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** www.worthpublishers.com

Idrok jarayonida xayolning qatnashishi shunda ko'rinadiki, odam o'zidan allanimalarni qo'shib, idrok qilayotgan narsasidan hosil bo'lgan obrazning mazmunini kengaytirib yuboradi. Masalan, osmondagi to'da-to'da bulutlarga qarab, ularning shaklini nimalargadir o'xshatish mumkin. Idrok jarayonida xayolning ishtirok qilishi, xususan, bolalarda yaqqol ko'rinadi.

Idrok jarayonida his-tuyg'ularning ishtirok qilishi shu idrok qilayotgan narsalarimizga nisbatan hosil bo'ladigan munosabatlarimizda ko'rinadi. Odam idrok qilayotgan hamma narsalarga nisbatan bir xilda munosabatda bo'lmaydi. Agar odam ilgari biror narsani idrok qilayotgan paytda qattiq xafa bo'lgan, kayfiyati buzilgan bo'lsa, shu narsani yana ikkinchi marta idrok qilganda yana hissiyotlarga nisbatan bo'lsa ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari idrok hissiy holatning ishtiroki yana shunda ochiq ravshan ko'rinadiki, odam qattiq qo'rqinch hissini boshidan kechirayotgan paytda idroki yanglish bo'ladi, ya'ni kuchli hissiy holat ta'sirida ayrim narsalar boshqacha bo'lib ko'rinadi. Chunonchi kechasi qorong'i ko'chada qo'rqib kelayotgan odamga ro'parasidagi to'nka pisib, poylab, o'tirgan odamga o'xshab ko'rinadi. Shuning uchun ham " qo'rqqanga qo'sha ko'rinar" degan halq maqoli bejiz aytilgan emas. Aksincha, odamning kayfiyati choq, xursand paytida hamma idrok qilayotgan narsalari chiroyli va yoqimli bo'lib tuyo'ladi.

Ma'lumki, idrok sezgi a'zolari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi a'zosi ishtirok etadi. Lekin ulardan biri eng muhim o'rinda turadi. Masalan, suratni idrok qilishda ko'rish organi, musiqa va nutqni idrok qilishda eshitish organi yetakchilik qiladi. Idrok jarayonida qaysi sezgi a'zosining yetakchilik rolini o'ynashiga qarab, idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin. Masalan, ko'rish idroki, eshitish idroki, hid bilish idroki, ta'm bilish idroki va boshqalar. Bundan tashqari idrokning aralash turi ham mavjud bo'lib, bunda bir necha analizator birgalikda ishtirok etadi. Masalan, kinofilmni idrok qilishda ko'rish va eshitish sezgisi ishtirok etadi. Tevarak atrofdagi narsa va hodisalar bir-biriga bog'liq. Ular muayyan makonda ma'lum vaqtda sodir bo'ladi. Shuningdek, ular bir-birlariga va idrok qiluvchiga nisbatan ma'lum munosabatda shakl, hajm va boshqa xossalarga egadir.

Sezgilar eng oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

- ✓ Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, qovunni idrok qilish, bunda quyidagi sezgilar ishtirok etadi, qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko'rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta'm bilish sezgisi, harakatini aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar tahlil yordamida ajratib olinadi va idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi. Bu esa idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi.
- ✓ Har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi.

9.2.Idrokning nerv- fiziologik asosi

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayon hisoblanadi. **I.P.Pavlov**ta'limoti bo'yicha idrokning negizini tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar reseptorlarga ta'sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim sharlari qobiqida hosil bo'ladigan shartli reflekslarning muvaqqat nerv bog'lanishlari tashkil etadi. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalar kompleks qo'zg'atuvchi sifatida xizmat qiladi. Analizatorlarning qobiq bo'linmalar o'zagida ana shu kompleks qo'zg'atuvchilarning murakkab tahlili va sintezi amalga oshiriladi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish, umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib, idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Nutqning anglangan holda idrok etilishi, ya'ni u tushunishi uchun nutqning alohida iboralarga mohiyat e'tibori bilan so'zlarga ajratish shartidir. Ayni paytda nutqni idrok etish jarayonida tahlil bilan bab- baravar tarzda sintez qilinadi, shu tufayli biz aloqida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok etamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil qiladi. Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikki turidan, bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Birinchi holat organizmga bitta modallikdagi kopleks qo'zg'atuvchi ta'sir etganda kuzatiladi. Eshitish analizatorlariga

ta'sir qiladigan alohida tovushlarning o'ziga xos birikmasidan iborat kuy ana shunday qo'zg'atuvchi bo'lishi mumkin. Ushbu kompleksning hammasi bitta murakkab qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir qiladi.

Kompleks qo'zg'atuvchining ta'siri ostida hosil bo'ladigan nerv bog'lanishlarining boshqa bir turi ham borki, ular turli xildagi analizatorlar doirasidagi bog'lanishlardan iboratdir. **I.M.Sechenov** narsani yoki fazoni ko'rish kinestezik, paypaslash assosiasiyalari orqali va boshqa sezgilarning assosiasiyasi orqali idrok etilishini izohlab bergan edi.

Kishidagi bog'lanishlarga albatta so'zning eshitilishi bilan obrazi ham qo'shiladiki, unda muayyan narsa yoki fazoga munosabat gavdalangan bo'ladi. Idrok negizida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari tashqi olamdagi narsalar va hodisalar xususiyatlarining ob'ektiv bog'lanishlar asosida tarkib topadi. Analizatorlar o'rtasida hosil bo'ladigan bog'lanishlar tufayli biz idrokimizda narsa va hodisalarning buning uchun moslashgan analizator bo'lmagan xususiyatlarini (masalan, narsaning hajmi, solishtirma og'irligi) ham aks ettiramiz.

Shuning uchun ham biz idrok qilganimizda olamni sezgilarimizga nisbatan chuqurroq qilib olamiz. Bu muvaqqat nerv bog'lanishlar narsa-hodisaning birgina xossasi bilan emas, balki barcha xossalari kompleks qo'zg'atuvchilar ta'siri bilan vujudga keladi. Masalan, talaba butun bir dars jarayonida idrok qilayotganda o'qituvchini ko'radi, uning nutqini tinglaydi, yozadi. Bu kompleks qo'zg'atuvchilar ko'rish, eshitish, muskul-harakat reseptorlarini qo'zg'aydi. Kompleks qo'zg'atuvchilarning analizatorlarning miya po'sti qismidagi yadrolarida murakkab tahlil va sintez qilishi amalga oshadi. Idrok jarayonida tahlil bilan bir vaqtda sintez ham ro'y beradi. Shuning uchun biz ayrim tovushlarni emas, butun so'z va iboralarni idrok qilamiz. Demak, idrokning nerv fiziologik asosida ikkinchi

signal tizimining muvaqqat nerv bog'lanishlari yotadi. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lish jarayonini sintez asosini ikki xil nerv bog'lanishlari tashkil qildi.

Bir analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlar bir narsadagi kompleks qo'zg'aluvchilarining organizmga ta'sir etishdan vujudga keladi. Masalan, eshitish analizatoriga ta'sir qiladigan ayrim tovushlarning o'ziga birikishi shunday qo'zg'ovchi bo'la oladi. Musiqa tinglash, rasm ko'rish, ular analizatorlararo bog'lanishlar, bir narsa yoki bir necha analizatorlarga ta'sir etadi. Masalan, ko'rish, muskul analizatorlari, ma'ro'za, monolog.

Kuzatish va ko'zatuvchanlik.

Idrokning o'ziga xos juda muhim xususiyatlaridan yana biri ko'zatuvchanlikdir. Umuman olganda idrok jarayonining hammasi kuzatish bilan har doim o'zviy bog'liq. Chunki odam idrok qilayotganida nimanidir ko'zatadi. Lekin ixtiyorsiz idrok jarayonidagi kuzatiladigan narsa va hodisalar odamning esida saqlanib qola bermaydi.

Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo'yiladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatining kuchiga va fikrlash faolligiga bog'liq. Kishining rejali, tizimli va davomli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyatini **ko'zatuvchanlik** deyiladi. Ko'zatuvchanlik shaxsning shunday xislatidirki, bunda u narsa va hodisalarning unga bilinmaydigan muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi.

Akademik I.P.Pavlov ko'zatuvchanlikning ilmiy bilimdagi ahamiyatiga yuksak baho bergan. U Sankt-Peterburg yaqinidagi Pavlova shaqridagi fiziologiya institutining oldi tomoniga *"Ko'zatuvchanlik, ko'zatuvchanlik va yana ko'zatuvchanlik"* deb yozdirib qo'ygan.

Idrokda ob'ekt va fon

Odamga juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir qilib turadi. Bular shunday ko'p xossalarga egaki, hatto odam bir vaqtning o'zida ularga javob reaksiyasi qaytara olmaydi. Odam ko'p sonli qo'zg'ovchilardan faqat ayrimlarini aniq holda ajratib oladi. Shu ajratib olingan narsa hodisalar esa fon sanaladi. Idrok qilinadigan narsani o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan ob'ekt hisoblanib, ob'ektning atrofdagilari esa **fon** deyiladi. Masalan, o'qituvchi bir darsda bir necha o'quvchilardan so'raydi. Har safar so'rayotganlarni ko'radi. Chaqirilgan o'quvchi uning javobi xatti-harakati idrok ob'ekti hisoblanadi.

Muayyan sharoitda shaxs tomonidan idrok qilinadigan narsa yoki jism idrokning **ob'ekti** deb ataladi. Boshqa o'quvchilar faoliyati idrok foni bo'lib qoladi. Idrok foniga kirgan o'quvchi javob

berish uchun chaqirilib qolsa, idrok ob'ektiga aylanadi va aksincha. Demak, idrok ob'ekti va foni dinamik tabiatga ega bo'lib, doimo o'zgarib turadi. Ob'ekt va fonning dinamikligi bosh miya katta yarim sharlari po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alish o'choqining almashinishi bilan taqozo etiladigan diqqatning bir ob'ektdan boshqa ob'ektga o'tishi bilan izohlanadi. Idrok fonidan ob'ektni ajratishning psixologik qonuniyatlarini ikkilangan tasvirlar, shrederlar zinapoyasi, predmet konturlarini ajralishi kabilarda aniq ko'rish mumkin.

Juda ko'p hollarda ob'ektni fondan tez va aniq ajratib olish uchun uni alohida rang, shakl va belgilar bilan ta'kidlab qo'yiladi. Masalan, transport belgilari, temir yo'l ishchilari maxsus to'q sariq rangli kiyim kiyadilar va boshqalar.

9.3.Idrokning o'ziga xos xususiyatlari. Appersepsiya

Idrokning o'ziga xos xususiyatlaridan biri idrok jarayoniga butun psixik hayot mazmunining (ya'ni butun ma'naviy boyligining) ta'sir etishidir. Yuqorida aytilganidek, idrok jarayoni odamning turmush tajribasi bilan bog'liq ekan, binobarin, idrok jarayoniga bilim boyligi odamning ishonch, e'tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqish va ehtiyojlari hamda kasbi ta'sir qiladi. Psixologiyada idrok

jarayoniga odamning butun ma'naviy hayot boyligini ta'sir etishini appersepsiya deb yuritiladi. **Appersepsiya -** idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivasiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilimi, saviyasi, nuqtai nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, daladagi gullab turgan paxtani oddiy bir talaba bilan tajribali agronom idrok qiladigan bo'lsa, albatta, ularning idroklari, ya'ni paxtani aks ettirishlari juda katta farq bo'ladi. Talaba shunchaki, odatdagi oddiy bir paxta sifatida aks ettirsa, agronom paxtaning qanday navi, taraqqiyotning qaysi bosqichda ekanligi, taxminan qancha hosil berishi va shu kabilar bilan birga chuqur hamda juda to'la idrok etadi. Pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lgan tarbiyachi bilan bunday bilimlardan mutlaqo xabarsiz bo'lgan oddiy bir onaning bolalaridagi turli ehtiyojlar va harakatlarni idrok qilishlari o'rtasida keskin farq mavjud. Masalan, ildiz tushunchasini bolalar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildizi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai-nazardan harindosh-urug'chilik shaklida ko'z oldiga keltiradilar. Appersepsiya tushunchasi ba'zi hollarda idrokning aniqligi, to'liqligi, ravshanligi, predmetliligi, tanlovchanlik kabi sifatlarning ma'nosi o'rnida qo'llanilgan. Psixologik nazariyalariga ko'ra, appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha (muvaqqat) deb yuritiluvchi ikki turga ajratiladi. Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qat'iy maslagi,

motivasiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, u o'ta murakkab tuzilishga egadir. Muvaqqat (vaqtincha) appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilishi jarayonidagi emosional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress, affekt ko'rinishidagi his-tuyg'ularida, ularning sur'ati, davomiyligi tizimida o'z ifodasini topadi.

Idrok xususiyatining yana bir o'ziga xos xususiyati uning konstantligidir. **Idrokning konstantligi** deganda biz idrok qilishdan ongimizda hosil bo'lgan obrazning real voqelikdagi bizga ta'sir etib turgan narsaning tabiiy holatiga har jihatdan mos bo'lishini tushunamiz. Ma'lumki, narsalarning hajmi (katta yoki kichikligi) shu narsalarni qanday masofadan (o'zokdan yoki yaqindan) idrok qilayotganimizga qarab o'zgarib turadi. Lekin shunday bo'lsa ham idrok qilishdan hosil bo'lgan narsalarning ongimizdagi obrazlari hamma vaqt shu narsaning tabiiy holatiga mos bo'ladi, masalan, katta yo'lda ketayotib, uzoqdan gugurt qutichasidek kichkina bo'lib kelayotgan avtobusni ko'rib, "kichkinagina avtobus" kelyapti demaymiz. Uzoqdagi avtobusni idrok qilishda ongimizda hosil bo'lgan obraz avtobusning real hajmiga teng bo'ladi. Yoki tepamizdan katta balandlikda uchib ketayotgan hozirgi zamon yirik passajir samolyotlarini ko'rib, kichkina samolyotchalar uchib ketishayapti, deb aytmaymiz. Biroq shu narsani aytish kerakki, idrokning konstantligi hususiyati ham odamning turmush tajribasi bilan bog'liqdir. Chunonchi, umrida hech qachon hozirgi zamon katta

passajir samolyotlarini ko’rmagan odam baland uchib ketayotgan samolyotni idrok qilib, uning real hajmini (qanchalik kattaligini) tasavvur eta olmaydi.

Ko’rishda masofa, rang, shakl, hajm konstantliklari ro’y beradi. halamni 20 va 1sm masofadan idrok qilish, doskani 1 va 10 m masofadan idrokqilish, oq qog’oz yoki quyoshda, xona ichida, koridorda ham oq idrok qilinadi. Konstantlik hodisasida odam narsalarni ko’z shuur pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq ko’rmaydi, balki ular haqiqatdan qanday mavjud bo’lsa, shunday ko’radi. Bu kishining tajribasi, ommaviy faoliyati jarayonida vujudga keladi.

Illyuziya

Idrok jarayonining navbatdagi yana bir o’ziga xos xususiyati idrok qilishda ba'zan yuz beradigan illyuziya hodisasidir. **Illyuziya** - bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi:

a) ob'ektiv illyuziya;

b) sub'ektiv illyuziya.

Ob'ektiv illyuziya - hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo’lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Ob'ektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o’zaro bir-biriga ta'siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko’rinadi. Masalan, o’zunligi baravar bo’lgan ikkita gorizontal to’g’ri chiziq chizilsa, bu chiziqlarning uchlariga tashqariga qaratilgan va ichkariga qaratilgan chiziq kattaroq bo’lib ko’rinadi. Idrok jarayonida yuz beradigan illyuziyaning bu turiga juda ko’plab misol keltirish mumkin. Masalan, baravar kattalikka ega bo’lgan uchta ketma-ket turgan to’g’ri burchaqli ustunchalarni chizib, ularning atrofiga uzoqlashtiruvchi chiziqlarni chizsak, bu uchta ketma-ket turgan ustunchalar har xil kattalikda bo’lib ko’rina boshlaydi. Bu erda uzoqlashtiruvchi chiziqlarning ta'sirida illyuziya hosil bo’ladi.

Sub'ektiv illyuziyalar odamning ayni chog’dagi hissiy holati bilan bog’liq bo’ladi. Boshqacha qilib aytganda, odamning hissiy holatida ro’y beradigan o’zgarishlar idrok jarayoniga ta'sir qiladi. Masalan, yuqorida aytib o’tilganidek, odam kechasi yolg’iz ko’chada qo’rqib ketayotgan bo’lsa, har bir sharpa uning qo’rqinch hissini kuchaytirib yuboradi. Natijada uning ro’parasidan chiqib qolgan butalgan daraxt qandaydir dahshatli mavjudotga o’xshab ko’rinadi.

Hayotda keng tarqalgan har xil ins-u jins, devlar, ajinalar va shu kabi nojins narsalar haqidagi ko’plab gaplar kuchli qo’rqinch hissi ta'sirida noto’g’ri idrok qilish, ya'ni sub'ektiv illyuziya tufayli vujudga kelgandir. Ba'zan odam qattiq qo’rqqan paytida bosh miya katta yarim sharlarining po’stidagi muhim markazlardan birortasi uzoq muddatli tormozlanish holatiga tushib qolishi mumkin. Buni akademik I.I.Pavlov hayotni muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atagan edi. Ana shunday paytda tormozlanib qolgan markaz bilan bog’liq bo’lgan organizmning biror qismida keskin o’zgarish paydo bo’ladi. Chunonchi odamning og’zi yoki ko’zi qiyshayib qolishi mumkin yoki ho’li, oyoqi falaj bo’lib qolishi mumkin.

Sub'ektiv illyuziya hodisasi, ya'ni qattiq qo’rqinch hissi ta'sirida noto’g’ri idrok qilish hodisasi bolalarda ham uchrashi mumkin. Shuning uchun ana shu yug’oridagi mulohazalarni, ya'ni yanglish idrok natijasida paydo bo’ladigan qo’rqinchli obrazlarni nazarda tutib, hech vaqt bolalarni qo’rqitish kerak emas.

Psixologiyada ko’rish illyuziyalarining o’rganilishi muayyan o’zining tadqiqot tarixiga ega. Masalan, agarda biz ko’rsatkich va o’rta barmoqlarimizni chalishtirib, no’xot yoki bironta dumaloq narsani chalishtirgan holda ikkala barmoqimizning uchi bilan bosib turib, shuningdek ayni bir davrda aylantiraversak, bu holda barmoqlarimizning tagida bitta emas, balki ikkita no’xot bordek his qilamiz.

Ana shu holdagi bir narsaning ikkita bo’lib sezilishi **Aristotel (Arastu) illyuziyasi** deb ataladi.



Idrok qiluvchi shaxsning psixikasida ro’y beradigan o’zgarishlar bilan yuzaga keladigan tasodifiy illyuziyalar ham mavjuddir. Sahroda chanqagan inson uzoqda yarqirab turgan sho’rhok yerni ko’l deb idrok qilishi (lekin bu illyuziyani sahrodan farq qila olishi joiz) yoki o’rmondagi to’nka qo’rqoq insonning ko’ziga bironta yirtqich hayvonga o’xshab ko’rinishi xuddi shu illyuziyalar jumlasidandir.

O’q chiziqlari illyuziyasi o’zunligi baravar bo’lgan ikki o’q chiziqning chetlariga ikki xil (kesishmaydigan va kesishadigan) chiziqlar chizilsa, illyuziya paydo bo’ladi. Ya'ni, kesishadigan chiziqlar o’q chiziqga nisbatan kesishmaydigan chiziqlar chizilgan, o’q chiziqidan o’zunroq bo’lib ko’rinadi. Bu illyuziya kesishadigan va kesishmaydigan chiziqlar tamoyillariga asoslangan.



Parallel qilib chizilgan bir necha chiziqlar parallel emas, balki har xil tomonga kesilgan chiziqlardek tuyo’ladi.

"Temir yo’l" illyuziyasi kesishadigan to’g’ri chiziqlarning torroq joyiga joylashgan chiziq o’zunroq bo’lib ko’rinadi. Aslida esa har ikkala parallel chiziqning o’zunligi tengdir.

Ikkita barovar doira shaklini chizib, ulardan birini o’sha doiradan kattaroq, ikkinchisini esa kichikroq doiralar ichiga olinsa, ikkinchi doira kattaroq ko’rinadigan bo’lib qoladi. Ya'ni kichik doiralar o’rtasida berilgani katta doiralar orasida berilganiga qaraganda kattaroq bo’lib ko’rinadi.

Birinchi odamga qaraganda ikkinchisi o’zunroq, uchinchisi esa undan ham o’zunroq bo’lib ko’rinadi. Aslida esa ular balandligi jihatidan bir - biriga teng.



Tik chiziqlarni ortiqcha baholash illyuziyasi silindrning balandligi, hoshiyasining kengligidan kattaroq bo’lib ko’rinadi. Aslida silindirning balandligi va hoshiyasining kengligiga bab-barovar. "Elpig’ich" ilyuziyasi-parallel chiziqlar orasidagi chiziqlarning ta'siri bilan ba'zida egilgandek, ba'zida esa burilib ketgandek bo’lib ko’rinadi.

Daryoda so’zib ketayotgan katta va kichik ikki kema palubasi o’zunligi jihatidan bir-biriga barovar to’g’ri chiziq kesmalari bilan tasvirlangan bo’lsada, katta kema palubasi o’zunroq bo’lib ko’rinadi.

"Jonli doiralar" illyuziyasi. Katta va kichik doiralar chizilgan rasmlar aylanmaydi, albatta. Lekin kitobni qo’lga olib, uni o’ngdan chapga yoki chapdan o’ngga bir necha sekund aylantirsak, doiralar go’yo aylanayotgandek tuyo’ladi.

Gallyusinasiya

Voqelikdagi narsa va hodisalarning tana a'zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo’lishidan iborat idrokning psixopatalogik (ruhiy xastalik) hodisasiga **gallyusinasiya** deyiladi. Gallyusinasiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati, ba'zan qo’rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobiqidagi qo’zg’alish jarayonlarining nuqsonli sust

(patologik) harakati natijasida goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyusinasiya hodisasi bir necha xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, ularning eng asosiylari quyidagilardan iboratdir: a) yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi; b) u yoki bu ovozlar, tovushlar eshitilishi; v) yo'q sharpalar, hidlar sezilishi kabilardir.

Odatda illyuziyani gallyusinasiyadan farqqila olish lozim. Illyuziya shu lahzada shaxsning sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan biror narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish jarayoni bo'lsa, gallyusinasiya yo'q mavjud bo'lmagan narsalarni tashqi ta'surotsiz idrok qilishdir. Masalan, yo'q narsalarning ko'zga bordek ko'rinishi, yo'q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo'q hidlarning dimoqqa urilishi kabilar gallyusinasiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Gallyusinasiya shaxsning biror narsa va holatni ko'rgandek, eshitilgandek, his qilgandek kabi tasavvurning aks etishidir holos. Gallyusinasiya hodisasi ko'pincha kasallikdan (isitma, alahsirashdan) darak beruvchi alomatdir, u nerv tizimini bo'zadigan kasalliklarning oqibatida ro'y berishi mumkin.

10.4.Idrokning tasnifi

Idrokni klassifikasiya qilishda quyidagi 3 ta muhim tomoni hisobga olinishi kerak va ular quyidagi jadvalda keltirilgan



- ***Idrok jarayonida qaysi analizatorning yetakchi rol o'ynashiga qarab:*** ko'rish, eshitish, teri tuyish knestezik harakat, hid bilish va ta'm bilish idroklari bir-biridan farq qiladi.
- ***Yashash shakllariga qarab idrok:*** fazoni vaqtni va harakatni idrok qilishga bo'linadi.
- ***Idrok faollik darajasiga qarab***: ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarga bo'linadi. Bunga sabab idrokning diqqat bilan o'zviy bog'liqligidir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi hamda idrokning mukammal, ravshan, aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki idrok odatda ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Ixtiyorsiz idrok hamisha ixtiyorsiz diqqat bilan bog'liq bo'lib, muayyan bir maqsadsiz, hech qanday iroda kuchi sarf qilinmasdan amalga oshiriladi. Ixtiyorsiz idrok biror narsani to'satdan, ta'sir etayotgan narsalarning boshqa narsalardan keskin farq qilishi, haddan tashqari originalligi, yorqinligi natijasida yuzaga keladi. Ixtiyorsiz idrok odamning butun faoliyati davomida o'zluksiz davom etib, ayrim paytlarda ixtiyoriy idrok bilan almashinib turadi. Lekin shunday bo'lsa ham inson hayotida ixtiyoriy idrokning roli benihoya kattadir.

Ixtiyoriy idrok oldindan belgilangan muayyan bir maqsad asosida amalga oshiriladi. Idrokning ishtiroki asosan ixtiyoriy idrokda namoyon bo'ladi. Chunki ixtiyoriy idrok ko'pincha odamda irodaviy zo'r berishni talab qiladi. Masalan, darsni ixtiyoriy idrok bilan eshitib o'tirish odamdan anchagina iroda kuchini talab qiladi. Umuman olganda, har qanday ixtiyoriy idrokda albatta diqqat qatnashadi.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarni yaxlit aks ettirishdan iborat bo'lgan iroda jarayonining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bordir. Odatda ikki idrok turi farq qilinadi. Ulardan biri sodda idrok bo'lsa, ikkinchisi murakkab idrokdir. Sodda idrok deganda atrofimizdagi turli-tuman narsalari masalan, xonadagi stol-stullar, shkaflar hamda shkaflardagi o'yinchoqlarni idrok qilish sodda idrok qilishdan iboratdir.

Idrokni tasnif qilishda materiyaning yashash shakllari - fazo, vaqt, harakat asos qilib olinadi, unga ko'ra idrok quyidagi turlarga ajratiladi:

1. ***Fazoni idrok qilish***
2. ***Vaqtni idrok qilish***
3. ***Harakatni idrok qilish***

Fazoni idrok qilish

Fazoni idrok qilish voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rnini, shaklini, miqdorini, bir-biriga nisbatan munosabatlar bilish jarayonining shaklidir. Voqelikni idrok qilish orqali inson borliq to'g'risida, uning xususiyatlari, xajmi, masofasi (ich tomonni, chuqurligi) yuzasida muayyan ma'lumotlar, xossalar, axborotlar to'plash, ularni farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fazoni idrok qilish undagi narsalarning shaklini, hajmini va o'zaro munosabatlarini aks ettirishdir. Demak, fazodagi narsalar uch o'lchovda idrok qilinadi; narsalarning shakli: uch burchaqli, to'rt burchaqli, kub, kvadrat, doira, konus va boshqalar. Narsalarning hajmi katta, kichik, o'rtacha, yirik, mayda va boshqalar. Narsalarning bir-biriga va idrok qiluvchiga munosabati: o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, uzoqda va hokazo. Fazoni ko'rish, teri, muskul-harakat organlari bilan idrok qilinadi. Fazoni bir ko'z bilan yoki ikki ko'z bilan idrok qilamiz. Monokulyar idrokda narsalarning chetlaridan kelayotgan nurlar bitta ko'zning to'r pardasida aks etadi. Bu nurlar ko'z gavharlarida bir-birini kesib o'tadi va ularning kesishgan joyida ko'rish burchagi hosil bo'ladi. Bu burchakning katta-kichikligiga hamda uning ko'zdan qanchalik uzoq-yaqinligiga bog'liq. Ko'z gavharlarining va umuman ko'zning narsalarni eng yaxshi ko'rish uchun moslashuvini **akkomadasiya** deyiladi.

Odatda fazodagi narsalarning shakli, hajmi va o'zaro munosabatlarini ikki ko'z bilan binokulyar idrok qilinadi.

Biz bir narsaga ikki ko'z bilan qaraymiz. Lekin narsa bitta aks etadi. Buning sababi o'sha narsadan keladigan nurlarning ko'z pardasiga mos yoki mos bo'lmagan nuqtalariga to'g'ri kelishidir.

Narsalarning fazo munosabatini binokulyar idrok qilishda konvergensiya muhim ahamiyatga ega.

Konvergensiya - biror narsaga qaraganda ikkala ko'z soqqasining qanshar tomon bab-barobar burilishidir. Konvergensiya masofani, chuqurligini aniq, to'liq idrok qilishga imkon beradi.

Vaqtni idrok qilish

Odamda inson tomonidan vaqtni idrok qilish asosan ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'ladi va o'ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi. Vaqtni idrok qilish inson tomonidan aks ettirilayotgan vaqt birligining ob'ektiv (haqqoniy, holis) mazmuniga, shaxsning o'ziga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lib, shu mezon orqali uning mahsuldorligi o'lchanadi. Masalan, shaxsning ehtiyoji motivasiyasi, qiziqishi va intilishlariga mutanosib vaqt birligini, idrok birligini idrok qilgan taqdirdagina vaqt ob'ektiv jihatdan kechinmalar, his-tuyg'ularga nisbatan shaxsning ijobiy, haqqoniy munosabatlarida tez o'tganday idrok qilinadi, odatda yoqtirmaslik idrok maydoniga (hamroviga) nomutanosiblik esa shaxsda zerikish, vaqt "sekin" o'tish tuyg'usini uyg'otadi.

Biz idrok qilib turgan narsa-hodisalar muayyan vaht davomida paydo bo'ladi, o'zgaradi va o'tib ketadi. Vaqt materiya mavjudligining asosiy shakllaridan biridir. Vaqtni idrok qilish voqelikdagi hodisalar va ularning muntazamligini aks ettirishdir. Vaqtni idrok qilish ob'ektiv reallikni aks ettirib, kishini o'rab olgan muhitda mo'ljal olishiga imkon beradi. Vaqtni mo'ljal olish orientirovkasi miyaning po'st bo'limlari yordamida amalga oshadi. Lekin vaqtni idrok qiluvchi maxsus a'zo mavjud emas.

Vaqtni idrok qilishda turli analizatorlar qatnashadi, biroq vaqtlar oraliqinining bir muncha aniq farqini kinestezik va eshitish sezgilari beradi.

Markaziy asab tizimida bosh miya katta yarim sharlarida qo’zg’alish va tormozlanishning ritmik almashinuvi vaqtni idrok qilish asosida yotadi. Agar bosh miya po’stida qo’zg’alish jarayoni ustunlik qilsa, vaqt "tez" o’tgandek, agar tormozlanish ustunlik qilsa, vaqt "sekin" o’tgandek idrok qilinadi. Vaqtning "tez" yoki "sekin" o’tishi kishining vaqtga va diqqati yo’naltirilgan ob'ektga munosabatiga ham bog’liq. Masalan, biror darsning o’tishi, kinofilmni ko’rish, avtobus yoki biror kishining kelishini kutish va hokazo. Odamlar vaqtni ob'ektiv belgilash, uning oraliqini to’g’ri farqlashga imkon beradigan narsalar oy, quyosh, yo’ldo’zlar harakatidan foydalanib kelganlar.

Harakatni idrok qilish

Biosfera va nosferadagi harakatlarni idrok qilish jismlarning (ba'zan nisbiy jihatdan boshqa ijtimoiy-siyosiy, tabiiy holatlarning) fazodagi (ijtimoiy hayotdagi) o’rin almashinuvini bevosita (bavosita) aks ettirishdan iboratdir. Shu sababdan, harakat taqqoslanmasdan idrok qilinishi ilmiy psixologik manbalarda qayd qilib o’tiladi. Mabodo harakatdagi jism uni qurshab turgan harakatsiz boshqa jismlarga taqqoslangan holda idrok qilinsa, bunday toifadagi harakat nisbatan idrok qilish deb ataladi. Agarda harakatlanayotgan jism hech qanday narsa bilan taqqoslanmasdan idrok qilinsa, bu ko’rinishdagi harakat esa nisbat berilmasdan nisbatsiz idrok qilish deyiladi.

Tevarak-atrofdagi narsa-hodisalar muayyan vaqt davomida o’z o’rinlarini almashtirib turadilar. Kishilar narsa-hodisalarning fazoda o’rin almashtirib turishini, ya'ni harakatini ham idrok qiladilar. harakatni idrok qilishda ko’rish va kinestezik analizator asosiy rol o’ynaydi. Tezlik, tezlanish va harakatning yo’nalishi harakat qilayotgan ob'ekt parametridir. Odam narsalarni harakati haqida ikki yo’l bilan ma'lumot olishi mumkin.

- Harakatni bevosita idrok qilish
- Harakathaqida xulosa chiqarish.

Harakatni bevosita ko’rish orqali idrok qilish ikki xildir.

a) ko’zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish

b) ko’zni bir nuqtaga qaratib turish.

Harakat tez yoki sekin bo’layotgandek idrok qilinadi. Harakatni bunday idrok qilinishi narsalarning ob'ektiv tezligiga va uning idrok qilinuvchidan qanchalik uzoq yaqinligiga bog’liq Harakatni eshitish analizatori yordami bilan ham idrok qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Idrok tushunchasining mohiyatini ko’rsating?
2. Idrokning nerv fiziologik asoslarini ko’rsating?
3. Idrokning murakkabligi nimalardan ko’rinadi?
4. Idrokda kuzatish va ko’zatuvchanlikning mohiyati nimalarda ko’rinadi?
5. Idrokda illyuziya va gallyusinasiya hodisalarini izohlang?
6. Idrokning tasnifini izohlang?

Test topshiriqlari

1.Idrok bu ...

A) sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidirB) shaxs tevarak-atrofidagi voqealarni aks etishi V) bor narsani noto’g’ri anglash G) yo’q narsani his qilish D) sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi

2.Sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turib, ongimizda bir butun holda aks etishiga ... deyiladi.

A) sezgi B) idrokV) xotira G) xayol D) tafakkur

3.Gallyusinasiya - bu ...

A) bor narsani noto’g’ri idrok qilish B) shaxsning idrok qilish qobiliyatiV) yo’q narsalarni idrok qilish G) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog’liqligi D) yo’q narsani noto’g’ri anglash

4.Yo’q narsalarni idrok qilish bu ...

A) idrokB) xayolV) gallyusinasiyaG) illyuziyaD) xotira

5.Narsalarning sharoiti o’zgarsada obrazining o’zgarmasligi bu...

A) idrokB) sezgiV) xotiraG) gallyusinasiyaD) idrok konstantaligi

6.Idrok konstantaligi bu...

A) narsalar sharoiti o'zgarsada obrazi o'zgarmasligi B) shaxsning idrok qilish qobiliyati V) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi G) vaqtni idrok qilish

D) harakatni idrok qilish

7.Illyuziya bu...

A) bir nimani his qilib anglash B) shaxsning idrok qilish qobiliyati V) idrokning shaxsga bog'liqligi G) bor narsani noto'g'ri, yanglish idrok qilish D) yo'q narsani idrok qilish

8.Appersepsiya - bu ...

A) shaxsning adaptasion davri B) o'smirlikning o'tish davri krizisiV) vaqtni, harakatni idrok qilish G) yo'q narsani idrok qilish D) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi

9.Ob'ekt va fon bu...

A) shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa (ob'ekt), muhim bo'lmagan narsa (fon). B) Sezgi va idrokning bir-biriga bog'liqligi V) uyni, gulni batafsil idrok qilish G) narsalarning hajmini idrok qilish D) to'g'ri javob yo'q

10.Shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa bu ...

A) xotira, xayol B) ob'ekt, fon V) sezgi, idrok G) ob'ekt D) xotira, xayol , ob'ekt, fon

11.Idrokning murakkabligini nimada ko'ramiz?

A) sezgi va idrok bir-biriga o'zviy bog'liqligi B) har bir idrok tarkibiga ayni paytda bir necha sezgi kiradi V) har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi G) idrok jarayonida his-tuyg'ular ham ishtirok etadi

D) har bir idrok tarkibiga ayni paytda bir necha sezgi kiradi va har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi

12.Kuzatish tushunchasining mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) kuzatish idrokning mustaqil faoliyatiB) idrokning his-tuyg'ulariga tayanadi

V) diqqat idrok faolligini oshirishG) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqligi

D) diqqatni uyushtira olish

13.Ko'zatuvchanlik bo'yicha qaysi olim ko'p ilmiy tadqiqot olib borgan?

A) Jukov B) I.P.Pavlov V)I.M. Sechenov G) Ch.Darvin D) Ye.Lichko

14.Konvergensiya bu - .....

A) biror narsaga qaraganda ikkala ko'z soqqasining qarash tomon bab-barovar burilishi B) narsalarning fazo munosabatini binokulyar idrok qilish V) odatdagi narsalarni idrok qilish G) ko'z pardasi D) vaqtni idrok qilish

15.Odam narsalarning harakati haqida ikki xil yo'l bilan ma'lumot oladi. Ular…….

A) harakatni bevosita idrok qilish B) harakat haqida xulosa chiqarish V) ko'zni harakatdagi narsaga qaratish G) ko'zni nuqtaga qaratib turish D) harakatni bevosita idrok qilish va harakat haqida xulosa chiqarish

16.Harakatni bevosita ko'rish orqali idrok qilish ikki xil ko'rinishga ega. Ular.....

A) harakatni bevosita idrok qilish B) harakat haqida xulosa chiqarish V) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish G) ko'zni bir nuqtaga qaratib turish D) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish va ko'zni bir nuqtaga qaratib turish

17.Idrokning o'ziga xos xususiyatilari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) predmetligi, yaxlitligiB) strukturaligiV) konstantligi, mantiqiyigi

G) tanlanganligiD) barcha javoblar to'g'ri

18.Akkomadasiya - bu.

A) ko'z xrustalini o'zgarishi B) sezgi va idrok birligi V) xotira, idrok birligi

G) diqqatni idrok bilan birligiD) xayol va idrok birligi

19.Insonni inson tomonidan idrok qilinishi nima deb ataladi?

A) ijtimoiy konstantligiB) ijtimoiy persepsiyaV) ijtimoiy kommunikativlik

G) ijtimoiy tashkilotchilikD) kommunikasiya, tashkilotchilik, persepsiya

20.Tezligi, aniqligi, to'laligi - bu idrokning .....

A) xususiyatiB) harakat sifatlariV) idrokning sifatlariG) idrokning predmetligi

D) idrokning strukturaviyligi

10- MAVZU: DIQQAT.

REJA:

10.1.Diqqat jarayoni haqida tushuncha.
10.2.Diqqat jarayonining nerv-fiziologik asoslari.
10.3.Diqqat turlari.
10.4.Diqqat xususiyatlari.
10.5.Diqqat borasidagi psixologik nazariyalar.
10.6. Diqqatning buzilishi.

Tayanch iboralar

Diqqat - ongimizning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat.

Diqqatning barqarorligi - diqqatning ma'lum obektga uzoq vaqt davomida mutassil qaratilish imkoniyati.

Diqqatning ko'lami - bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'ektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi - diqqatning bir vaqtda bir necha ob'ektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati.

Diqqatning ko'chishi - diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'ektdan ikkinchi ob'ekta ko'chirish.

Dominanta (lot. dorainans-hukmron) - markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.

Orientasiya refleksi (lot. oriens - sharq reflexus - aks etish) - shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Tahistoskop (yunon. tachy tez, skopeo - ko'raman) - qat'iy belgilangan qisqa vaqt davomida ko'rish qo'zg'atuvchilarini namoyon qilish sababi. Idrok, xotira, diqqat va boshqa jarayonlarni tadqiqot qilishda ishlatiladi.

Tush ko'rish - uxlab yotgan odam bosh miya yarim sharlari qobiqidagi ba'zi nerv markazlari faoliyati natijasida uyqu vaqtida hosil bo'ladigan ma'lum darajadagi aniq obrazlar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

10.1.Diqqat jarayoni haqida tushuncha

Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Lekin odamga ta'sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odamga ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi.

Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'idlash mumkin.P.I.Ivanov tomonidan **diqqat** deb- ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishga aytiladi.F.N.Dobrinin, N.V.Ko'zmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, guyoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi.

E.B.Pirogovaning ta'kidlashicha, tomonidan diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir. Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. Jumladan, franso'z olimi Kyuve geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyot fikrni doimo shu masalaga qaratilish jarayoni, deyishi, **K.D.Ushinskiyning***"diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi"* degan fikrlari uning ahamiyatini bildiradi. haqiqatdan ham diqqat eshigidan tashqarida qolgan narsa ongimizga yetib bormaydi.

Consciousness

INTROSPECTION AND THE FUNCTIONS OF CONSCIOUSNESS

The only direct way to study *consciousness* is to have each person look within themselves, or introspect. *Introspection* is a powerful research tool—but limited. People often lack words to report their experiences, and when they have the words, different individuals may use the same words to refer to different inner experiences.

THE NEURAL BASIS FOR CONSCIOUSNESS

The *mind-body problem* centers on the fact that the conscious mind is a completely different sort of thing than the physical body. This point raises deep questions about how the brain makes consciousness possible and how physical events can cause, or be caused by, conscious thoughts

Anglash

O'z – o'zini kuzatish va anglashning vazifalari.

O'qishning eng to'gri yo'li bu inson o'zlariga bergan bahosi yoki anglashi, o'z –o'zni kuzatishi. O'z – o'zini kuzatish kuchli tadqiqod asbobi – lekin bu chegaralangan. Insonlar bazan ma'ruzada so'z boyligi yetishmasligidan, ularning tajribalari kamligidan qiynalishadi va qachonki ular so'zlarni, har-xil vaziyatda ishlata olsa unda ularning ichki tajribalari gapiradi.

Anglashning tabiiy tarkibiy qismi.

Miya tananing muammo markazi, dalil miyyani anglashi va fizologik tana boshqa boshqa narsaning turi. Bu mohiyat qanday qilib anglashni paydo qilishi mumkin degan chuqur savolni ko'taradi va qanday qilib fizologik voqea sabab boladi yoki anglash fikirlashga sabab bo'lgan.[13]

Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Yo'naltirish deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati, ob'ektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'qituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirganda mana shu eshitib o'tirish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, uning diqqati ongli ravishda qo'zg'algan shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. O'quvchining biror boshqa narsaga chalg'imasdan o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishida uning psixik faoliyatining yo'nalishi ifodalanadi.

Psixik faoliyatning yo'naltirilishi deganda ana shu tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganni saqlash va qo'llab-quvvatlash tushuniladi. Diqqatning bilish jarayoni uchun ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har doim ishtirok etadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir. Diqqat barcha psixik jarayonlarimizda qatnashsa ham, lekin diqqatning o'zi hech narsani aks ettirmaydi.

Odam biror narsaga zo'r diqqat bilan kirishgan paytida uning tashqi qiyofasida ayrim o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Demak, diqqat odatda o'zining sirtqi ya'ni tashqi alomatlariga egadir.

Birinchidan, diqqat qaratilgan narsani yaxshi idrok qilish uchun unga muvofiqlashishga urinishdan iborat harakatlar (tiqilibqarash, quloq solish) qilinadi.

---

[13] ***Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110.*** www.wwnorton.com

Ikkinchidan, ortiqcha harakatlar to’xtaydi. Jiddiy diqqatning xususiyatlaridan biri qimirlamasdan jim turishdir. Masalan, auditoriya va teatr zalidagi jimlik diqqat vaqtidagi harakatsizlik natijasi bo’lib, bu jimlik odamlar ma'ro’zachini yoki artistni zo’r e'tibor bilan tinglashayotganini anglatadi.

Uchinchidan, kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi.

Demak, diqqat paytida organizm reseptorlarimiz alohida holatda bo’ladi. Ammo bu holat diqqatning faqat tashqi ifodasi bo’libgina qolmay, balki uning ma'lum yo’nalishi va barqarorligini saqlab turuvchi shartlardan biri hamdir. Shuning uchun ko’pincha biror ishni bajarishdan avval organizmimizni shu ishga moslab muayyan bir holatda tutib olamiz.

Diqqatning tashqi ifodalanishiga rassomlarning rasmlari, turli jurnallardan olingan suratlar eng yaxshi illyustrativ material hisoblanadi. Ular yordamida kishi diqqatining tashqi ifodasiga xos bo’lgan mimika va pantomimikani ko’rsatish mumkin.

11.2.Diqqatning nerv-fiziologik asoslari

Odamga har bir daqiqada ta'sir qilib turadigan qo’zg’atuvchilar turlicha reflekslarga sabab bo’ladi. Chunki har qanday refleks organizmning tashqi ta'sirotga beradigan qonuniy javob reaksiyasidir.

Diqqatning nerv-fiziologik asosida orientirovka yoki tekshirish deb ataladigan maxsus refleks yotadi. Bunday refleksni akademik **I.P.Pavlov** maxsus ibora bilan *"bu nima gap refleksi"* deb ham ataydi. Ana shu refleks odatda organizmga to’satdan birorta yangi narsaning ta'siri yoki haddan tashqari kuchli ta'sirot orqali hosil bo’ladi. Orientirovka yoki tekshirish refleksi diqqatning fiziologik asosi hisoblanadi, chunki bu refleks bosh miya yarim sharlarining po’stida kuchli qo’zg’alish jarayonidan iborat bo’ladi. Boshqacha qilib aytganda har bir daqiqada organizmga turli narsalarning ta'siridan hosil bo’lgan qo’zg’alishlarga nisbatan orientirovka yoki tekshirish refleksi ayni chog’da nisbatan kuchli (ya'ni optimal) qo’zg’alish manbaini yuzaga keltiradi.

Bosh miya yarim sharlarining po’stida paydo bo’ladigan kuchli qo’zg’alish manbai nisbatan uzoqroq saqlanib turadigan mustahkam qo’zg’alish bo’ladi. Ana shu nuqtai- nazardan akademik I.P.Pavlov "diqqatning fiziologik asosini bosh miya po’sti qismidagi optimal qo’zg’alish manbai tashkil qiladi", deb ta'kidlagan. Buni biz akademik I.P.Pavlovning quyidagi so’zlaridan ochiq oydin ko’rishimiz mumkin.

"Miya yarim sharlarining optimal qo’zg’alishga ega bo’lgan qismida -deydi I.P.Pavlov, - yangi shartli reflekslar yengillik bilan hosil bo’ladi va differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo’ladi. Shunday qilib, optimal qo’zg’alishga ega bo’lgan joy ayni chog’da bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo’ladi. Miya yarim sharlarining sust qo’zg’algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog’da funksiyasi juda nari borganda tegishli qo’zg’ovchilar asosida ilgaridan hosil qilingan reflekslarni qayta tiklashdan iboratdir".

I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan nerv jarayonlarining induksiya qonuni diqqatning fiziologik asoslarini tushunib olish uchun ahamiyatga egadir. Mana shu qonunga muvofiq, bosh miya po’stining bir joyida maydonga kelgan qo’zg’alish jarayonlari bosh miya po’stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Bosh miya po’stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish jarayoni bosh miya po’stining boshqa joylarida kuchli qo’zg’alish jarayonlarini paydo bo’lishiga olib keladi. Ayni shu paytda har bir onida miya po’stida qo’zg’alish jarayoni uchun optimal, ya'ni nihoyatda qulaylik bilan harakatlanuvchi biror bir kuchli qo’zg’alish manbai mavjud bo’ladi. "Agar bosh suyagiga qarash imkoni bo’lganda, degan edi I.P.Pavlov, uning ichidagi miya ko’rinadigan bo’lsa, agar miya yarim sharlarida optimal kuchli qo’zg’alish uchun eng yaxshi sharoit tug’ilgan nuqtasi miltillab ko’rinadigan bo’lsa, yangi sog’lom bir narsani o’ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda uni miyasini katta yarim sharlarida juda halati jimjimador shakli, surati va hajmi har damda bir o’zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turgan yoruq narsani u yoqdan bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug’ narsa atrofidagi boshqa yerlarni bir muncha xira tortib turganini ko’rardik".

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantlik tamoyili ham diqqatning fiziologik asoslarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. *Dominantlik tamoyiliga muvofiq miyada qo’zg’alishning har doim ustun turadigan hukmron o’chog’i mavjud bo’ladi, bu hukmron qo’zg’alish*

o'chog'i aynan shu damda miyaga ta'sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Nerv tizimi faoliyatining tabiati qo'zg'alishning hukmron bo'lishi yoki dominantning mavjudligi bilan asoslanadi.

Bu hol psixologik jihatdan biror qo'zg'atuvchilarga diqqatning qaratilishi va ayni chog'da ta'sir qilib turgan boshqa qo'zg'atuvchilardan diqqatning chalqishida ifodalanadi.

Jiddiy diqqat, odatda o'ziga xarakterli bo'lgan tashqi ifodalari bilan bog'liq bo'ladi. Narsani yaxshilab idrok qilishga qaratilganharakatlar bilan (tiqilibqarash bilan eshitish) ortiqcha harakatlarni to'xtatish, nafas olishni sekinlashtirish, diqqat uchun xos bo'lgan yuzharakatlari bilan bog'liq bo'ladi.

10.3.Diqqat turlari

Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda o'zi hohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor ya'ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi. Odam psixik faoliyatining muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishida ifodalanadigan diqqat quyidagi turlarga bo'linadi.

- ***Diqqatning aktivligiga qarab*** - ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat.
- ***Diqqatning ob'ektiga qarab*** - tashqi va ichki diqqat.
- ***Diqqatning faoliyat turlariga qarab*** - individual, guruhiy va jamoaviy diqqat

Ayrim adabiyotlarda diqqatning ikkita va ayrimlarida uchta deb ko'rsatiladi. Ular ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriydan so'nggi diqqat turlaridan iboratdir.

Diqqat turlarida insonda yuzaga keladigan holatlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.



Ixtiyorsiz diqqat deb to'satdan ta'sir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatga aytiladi.

Odamning ko'z o'ngida paydo bo'ladigan juda yorqin rangli narsalar, o'zining tashqi ko'rinishi jihatidan odatdagi narsalardan keskin farq qiluvchi predmetlar, to'satdan paydo bo'lgan qattiq tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo'lishi mumkin. Masalan, hikoya o'qish mashg'uloti paytida to'satdan uchib o'tgan reaktiv samolyotning qattiq va bahaybat tovushi hammaning diqqatini beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat odamning har turli ehtiyojlari va qiziqishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan diqqatdir. Shuning uchun ham ayni chog'dagi ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimiz bilan bog'liq bo'lgan narsalarning ta'siri ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Masalan, erkin o'yin paytida zaldan eshitib qolgan bolani qiziqtirgan musiqa ovozi uning diqqatini o'yindan darhol o'ziga jalb qilib oladi.

Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini orientirovka yoki bu nima? refleksi tashkil qiladi. Chunki tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o'zgarishi bizda darhol orientirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, "nima gap?" degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Ixtiyoriy diqqat deb-oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsa va hodisalarga qaratishimizga aytiladi.

Odamning ko'pchilik faoliyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faoliyat turlarida, ya'ni o'qish, o'yin va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishlikni, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi.

Ixtiyoriy diqqatning nerv fiziologik asosida miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alish manbai bilan ikkinchi signallar sistemasining faoliyati yotadi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida nutqning roli g'oyat kattadir. Chunki ko'pchilik hollarda hoh ta'lim jarayonida bo'lsin, hoh mehnat jarayonida bo'lsin nutq orqali turli vazifalar qo'yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi.

Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya'ni odam o'zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa hech qanday iroda kuchini ishga solish talab etilmaydi. Shuning uchun ixtiyorsiz diqqatda odam charchamaydi. Ana shu jihatdan olganda ta'lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o'tib turishi yaxshi bo'ladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini ixtiyoriydan so'nggi diqqatni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Agar maqsadga qaratilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to'planganidagi kabi faqat faoliyat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o'zi qiziharli va ahamiyatli bo'lsa ixtiyoriydan so'nggi diqqat deb tushunish mumkin. Bu holda faoliyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni ob'ektga qaratish uchun sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflamasa ham bo'laveradi. Shunday qilib, ixtiyoriydan so'nggi diqqat ixtiyoriy diqqatdan keyin namoyon bo'lgan holda shuning o'zidangina iborat deb hisoblash mumkin emas. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi imtihonga tayyorlanayotib qiyin kitobni qisqacha mazmunini yozib chiqar ekan, oldiniga o'zini diqqat-e'tiborli bo'lishga, chalg'imaslikka majbur qiladi. Lekin keyinchalik u ishga shunday qiziqib ketadiki, oqibatda uni kitobdan chalg'itish qiyin bo'ladi. Dastavval irodaviy kuch-g'ayratlar madadiga tayangan diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanadi. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda ham barqarorqaratilishi bilan belgilanadi, ko'proq yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyatning barcha turdagi gini asosli ravishda ana shunday diqqat turi bilan bog'liq deb hisoblaydil

10.4.Diqqat xususiyatlari



Odamning diqqati bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari - diqqatning kuchi va barqarorligi, diqqatning ko'lami, diqqatning bo'linuvchanligi va diqqatning ko'chuvchanligidan iboratdir. Diqqatning mazkur xususiyatlari quyidagi jadvalda to'liq aks ettirilgan va shunga muvofiq har biriga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

Diqqatning kuchi va barqarorligiga ko'ra odamlarning diqqatlari o'zining kuchi va barqarorligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ayrim odamlarning diqqati kuchli va barqaror bo'lsa, boshqa bir odamlarning diqqati kuchsiz va beqaror bo'ladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi deb, odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki diqqatni ma'lum muddat biror narsaga muttasil, ya'ni o'zluksiz tarzda qaratib odam ishlay ham olmaydi, o'qiy ham olmaydi va hatto o'ynay ham olmaydi.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Birinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, biz uchun bo'lgan ahamiyatiga, ikkinchidan diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatlarimizga, uchinchidan nerv sistemasining ayrim xususiyatlariga bog'lidir. Bularning hammasi ob'ektiv, ya'ni bizning irodamiz bilan bog'liq bo'lmagan sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi albatta sub'ektiv, ya'ni odamning ayni chog'dagi holati bilan ham bog'liq. Masalan, ayni chog'da betobroq bo'lib turgan odamning yoki boshiga bir og'ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo'la olmaydi.

Odamlar o'z diqqatlarining ko'lami jihatidan ham bir-birlaridan farqqiladilar. Ayrim odamlar diqqatining ko'lami keng bo'lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko'lami torroq bo'ladi. Diqqatning ko'lami ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig'dira olishimiz diqqatning ko'lamini tashkil etadi.

Diqqat ko'lamini tajriba yo'li bilan aniqlash qiyin emas. Buning uchun diqqatning ko'lamini aniqlayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir necha o'zaro bog'lanmagan harflarni, rahamlarni va turli geometrik shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bunda odam ko'rsatilayotgan narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko'pini birdaniga idrok eta olsa, uning diqqati shunchalik keng bo'ladi. Diqqatning ko'lami odatda **taxistoskop** degan maxsus asbob bilan aniqlanadi. Bu asbob yordamida ayni bir vaqtning o'zida idrok ettiriladigan narsalar juda tez ko'rsatiladi. Bunda odam o'z diqqati doirasiga qancha narsa sig'dira olsa, ana shunga qarab diqqatning keng yoki torligi aniqlanadi. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, katta yoshli odamlarda o'z diqqat doiralariga ayni bir vaqtda 3 tadan 6 tagacha bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan narsalarni sig'dira oladilar.

Diqqat ko'lamining keng bo'lishi odam idrok qilayotgan narsalarini atroflicha va chuqur aks ettirishi, binobarin bilish jarayonning sifatli bo'lishi uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Odamning diqqati bir vaqtda faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Ana shunday paytlarda diqqatning bo'linishi talab qilinadi. Demak, **diqqatning bo'linishi deganda** biz ayni bir vaqtda diqqatimizni ikki yoki uch narsaga qaratishimizga aytamiz. Agar diqqatimiz bitta narsaga qaratilgan bo'lsa, ya'ni diqqatimiz bitta narsa ustida to'plangan bo'lsa, uni konsentra-siyalashgan (to'plangan) diqqat deb yuritiladi. Buning aksincha agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha narsaga qaratilgan bo'lsa, buni bo'lingan, diqqat deb yuritiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aslini olganda diqqatning ayni bir chog'da ikki yoki undan ortiq narsaga qaratilishi, ya'ni bir necha narsalarga bo'linishi amaliy jihatdan mumkin emas. Shuning uchun diqqatning bo'linishi, ya'ni ayni bir vaqtda ikki yoki uch narsaga birdaniga qaratilishi o'z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan boshqa bir narsaga nihoyatda tezlik bilan bo'linishini talab qilgan vaqtda diqqatimiz bir narsadan ikkinchi narsaga shu qadar tezlik bilan ko'chadiki, buni biz

payqay olmaymiz. Natijada diqqatimiz ayni bir vaqtning o'zida bir necha narsalarga birdaniga qaratilayotgandek bo'lib ko'rinadi.

Diqqatning ana shunday bo'linuvchanlik xususiyati hayotda juda katta ahamiyatga ega. Chunki bir qancha mehnat turlari diqqatning bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishlikni talab qiladi. Bunday xususiyat pedagoglar uchun juda zarur bo'lgan xususiyatdir. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan biror mashg'ulot yoki suhbat o'tkazayotgan paytida diqqatni bir necha narsalarga, ya'ni gapirayotgan

gapiga, bolalarni quloq solib o'tirishlariga va bundan so'ng nimalar haqida gapirishga qarata olishi lozim. Ana shundagina tarbiyachi suhbat yoki mashg'ulot paytida guruhni boshqara oladi.

Diqqatning bo'linishi har kimda har xil bo'ladi. Buning sababi shundaki diqqatning yengillik bilan bo'linishi diqqatimiz qaratilgan narsalarning ilgaridan bizga qanchalik tanishligi bilan bog'liqdir. Agar diqqatimiz qaratilgan narsalarning ayrimlari bizga yaxshi tanish bo'lsa ya'ni biz ularni ilgaridan yaxshi bilsak faoliyat jarayonida bir necha ishlarni birdaniga ya'ni birga qo'shib bajara olamiz. Masalan, yozish harakati ilgaridan bizga yaxshi tanish bo'lgani uchun darsda ham eshitib, ham yozib o'tira olamiz. Shunday qilib, diqqatning bo'linuvchanligi juda ko'p faoliyatlarimiz uchun zarur bo'lgan xususiyatdir.

Diqqatning ko'chuvchanligi odamning diqqati har doim bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chib turadi. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqatning ko'chuvchanligi deb yuritiladi. Diqqatning ko'chuvchanligi diqqatning bo'lunuvchanligi bilan bog'liq xususiyatdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, diqqatning ayni bir vaqtda birdaniga bir necha narsaga qaratilishi, ya'ni diqqatning bo'linishi o'z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tez ko'chishidan iboratdir. Ana shu jihatdan olganda diqqatning ko'chuvchanlik xususiyati juda ko'p faoliyat va uning turlari uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. Masalan, hikoya o'qib berish mashg'ulotida bolalar o'z diqqatlarini hikoya eshitishdan surat ko'rishga, undan so'ng yana eshitishga bemalol ko'chira olishlari kerak. Agar maktab o'quvchilariga nisbatan oladigan bo'lsak, o'quvchilar o'z diqqatlarini bir dars predmetidan boshqa bir dars predmetiga bemalol ko'chira olishlari kerak. Aks holda o'quvchilar o'tgan dars ta'sirida o'tirib, yangi darsning mazmunini sifatli o'zlashtira olmaydilar.

Diqqat hamma vaqt ham bir narsadan ikkinchi narsaga, bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyat turiga osonlik bilan ko'cha bermaydi. Ba'zan qiyinchiliklarga to'g'ri kelib qoladi. Albatta buning o'z sabablari bordir. Masalan, bunday sabablardan biri - diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lgan narsalar yoki harakatlar o'rtasida bog'lanish bor yoki yo'qligiga bog'liq. Agarda diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lgan narsalar o'rtasida ma'lum jihatdan mazmuniy bog'liqlik bo'lsa, diqqatimiz osonlik bilan ko'chadi. Odamning qiziqishlari va ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ham diqqat yengillik bilan ko'chadi.

Shunday qilib, diqqatning ana shu yug'orida ko'rib o'tgan asosiy xususiyatlari odamning barcha turdagi faoliyatlari uchun juda kerakli xususiyatlardir. Diqqatning ana shu xususiyatlari tufayli odam atrofidagi muhitga, undagi turli tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari odamga tug'ma ravishda, ya'ni irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu xususiyatlar odamning yoshlik chog'idan boshlab turli faoliyatlar o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida tarkib topib boradi.

10.5.Diqqat borasidagi psixologik nazariyalar

Psixologiya fanining aksariyat manbalarida diqqat deb psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum darajada ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektning ustida to'planishi tushuniladi. Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u insonning jamiki faoliyatlarida bevosita ishtirok etadi. **I.P.Pavlovning** oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti va **A.A.Uxtomskiylar** tomonidan ilgari surgan dominantlik tamoyili va ularning zamondoshlari tadqiqotlarida diqqatning fiziologik asoslari va mexanizmlarini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini yaratdi.

Sobiq sovet psixologiyasida diqqat muammosi xorij psixologiyasiga nisbatan ancha murakkab mustaqil ilmiy manbalarga ega hisoblanadi va u shu bilan o'zaro farq qiladi. Sobiq sovet psixologiyasida diqqatga nisbatan mukammal qat'iy fikr vujudga kelgani yo'q, lekin uning atrofida juda ko'p tortishuvlar, munozaralar bo'lib o'tgan. Diqqatning psixologik tabiati to'g'risidagi 20-30 yillarda boshlangan ilmiy bahslar, to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ilmiy munozaralarning zamirida asosiy fikr diqqatning bitta ob'ektga qaratilishidir. Bu ilmiy model ong ob'ekt tarzida ifodalanadi. Bu g'oyani yirik psixolog**P.P.Blonskiy** ilgari surgan va asoslagan. Uning fikricha, odamning ongi bitta ob'ektga qaratilgandan keyin u atrofdagi narsa va hodisalarni ko'rmaydi. Ko'pchilik psixologlar P.P.Blonskiyning bu fikriga qo'shilmaydilar. Jumladan, atoqli psixolog**S.L.Rubinshteyn** mulohazasiga ko'ra diqqat ongga ham, ob'ektning xususiyatlariga ham

bog’liq emas. Buning ahamiyatli tomoni diqqatning ob'ektga yo’naltirilishidadir. Mazkur yo’naltirishning asosiy sabablari sifatida shaxs, ehtiyoj,maqsad ko’rsatiladi. Demak, diqqat odamning munosabati orqali ifodalanadi, ya'ni diqqat - munosabatdir. Bu yerda diqqat psixik jarayon emas, balki shaxs xususiyatini belgilab beryapti.

Diqqat qaralgan tashqi ifodaga ega bo’lgan ob'ektni sezish, idrok qilishdan iboratdir. Shu o’rinda qarama-qarshilik vujudga keladi, chunki ob'ektning yo’qolishi bilan diqqat ham o’z funksiyasini tugatadi. A.N.Leontev mulohazasiga ko’ra, bu orientir faoliyati emas, chunki ob'ektning paydo bo’lishi bilan diqqat ham namoyon bo’ladi, ob'ekt yo’q bo’lsa, demak diqqat ham bo’lmaydi, deb ta'kidlaydi. P.Ya.Galperin esa ob'ektning paydo bo’lishi bilan diqqat yuzaga keladi. Ob'ekt yo’qolgandan keyin esa psixik qism bo’lgan tekshirish, nazorat qilish jarayoni boshlanadi. Demak, diqqat ongning bir ob'ektga yo’naltirilishi va ongli holatni nazorat qiluvchi jarayondan iboratdir.

Psixologiyada diqqatni "yo’naltirish" deganda, psixik faoliyatning tanlovchanligi va ixtiyoriy hamda ixtiyorsizligi tushuniladi.

20-yillarda bir qancha psixologlar diqqat muammosini ustanovka bilan bog’lab tushuntirishga harakatqiladilar. Buning yaqqol isboti sifatida K.N.Kornilov tahriri ostida 1926 yilda chop qilingan psixologiya darsligidagi bir mavzu "Ustanovka va diqqat" deb atalganligi bilan izohlash mumkin. Darslikda yozilishicha, qator ob'ektlardan bir ob'ektni ajratish diqqatning sub'ektiv kechinmasidir va buni ob'ektiv hodisalar bilan taqqoslash, sezgi organlarining ustanovkasidan, ishlash vaziyatidan iboratdir.

Shunga o’xshash g’oya L.S.Vigotskiyning dastlabki tadqiqotlarida ham ko’zga tashlanadi. L.S.Vigotskiy diqqat bilan aloqador bo’lgan ikkita ustanovka turini ajratib ko’rsatadi, ular:

a) sensor ustanovka - tayyorgarlikda idrokning ustunligi qobiliyati

b) motor ustanovka - tayyorgarlikda harakatning ustunligi qobiliyati

Sensor ustanovkada idrok, motor ustanovkada esa harakat ustunligi sezilib turadi. **L.S.Vigotskiy** unga misol qilib jismoniy tarbiya mashg’ulotida komanda (buyruq) berishni misol keltiradi. Safda turganlarga qarab "O’ng" deb aytamiz. Shu zahotiyoq saflanganlar buyruq oxirini aytishga sensor ustanovka qo’zg’aydi "ga!" deyish oyoqlarni aylantirishga moslashish bilan bog’liq motor ustanovka komanda oxirini eshitishni ta'minlaydi.

Bu yillarda psixologlar ustanovkani kishining ijtimoiy tajribasi bilan bog’liq ravishda tadqiqot qilishga harakat qilganlar. P.P.Blonskiyning mulohazasicha, diqqatning asosida kishining ijtimoiy qiziqishlari yotadi. Psixologlar orasida diqqatni tushuntirishda turli qarashlar, nazariyalar vujudga keladi. Vaholanki, P.P.Blonskiy diqqat bilan qo’rquv, vahimani bir narsa deb qaraydi. qo’rquv - bu diqqatning intensivroq namoyon bo’lishi, ya'ni maksimal darajada aks etishi deb tushuntiradi. Bu yerda psixik faoliyatning ma'nosi butunlay yo’qotib ko’rsatilgandek tuyo’ladi va diqqat biologik nuqtai nazardan qaraganga o’xshab ketadi. Biologik pozisiyada diqqat bosh miya yarim sharlari faoliyati bilan emas, balki vegetativ nerv tizimi bilan bog’liqlikda tushuntiriladi.

Taniqli psixolog**D.N.O’znadzening** diqqatni ustanovka bilan bog’lash nazariyasiga **N.F.Dobrinin**qarshi chiqdi. N.F.Dobrinin fikricha, diqqatni ustanovka bilan bog’lovchi nazariya quyidagi jihatlarni hisobga olmagan. Diqqat haqiqatdan ma'lum moslashuvchi harakatlar bilan birga bo’ladi, lekin bu harakatlarga borib yetmaydi. Agar tomoshabin sahnadan o’girilsa, ko’zini yumadi, quloqini berkitadi, u sahnada nima bo’layotganiga diqqat qilolmaydi. Sahnaga qarash va eshitish uchun boshqa hamma narsalardan chalg’ish kerak va idrokni sahnada bo’layotgan hodisalarga qaratish lozim. qarab turib ko’rmaslik, tinglab turib eshitmaslik mumkin. Diqqat shundan iboratki, u nimaga qaratilgan bo’lsa uni ko’rish demakdir. Yug’oridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda N.F.Dobrinin diqqatni kishi psixik faoliyatini biron-bir ob'ektga yo’naltirish va to’plash bilan boshqa ob'ektlardan chalg’ish orqali tushuntiradi.

Diqqat psixik faoliyatning qandaydir ob'ektga yo’nalishi va to’planishi orqali o’rganishni qator mualliflar tanqid qiladilar. Ana shulardan biri S.L.Rubinshteyndir. S.L.Rubinshteyn diqqatni alohida mazmunga ega emasligiga qo’shiladi, lekin uning guvohlik berishicha, diqqatni biror ob'ektga tanlab yo’nalishi uning fenomenologik xarakteridir. Bunday fenomenologik tavsifnomada ham diqqatning tabiati va xususiyatlari ochilmay qolaverar ekan.

Psixolog**G.S.Bakradze** diqqatning ob'ektda to'planishi faoliyatning roli haqida qiziharli ilmiy tekshirish tajribasini o'tkazgan. Agarda diqqatni zaifligini tekshiruvchi o'z vaqtida payqab, unga nisbatan qandaydir muskul harakatini amalga oshirsa, u yana tiklanadi. Bulardan tashqari diqqat barqarorligini faoliyatning xarakteriga, shaxsning o'ziga bog'liqligi bir qancha psixologlar tomonidan isbotlangan.

Jumladan, **A.P.Gazova** diqqatning bo'linuvchanligini ko'p stanokda ishlovchi to'quvchilarda o'rganib, juda qimmatli materiallarni yig'adi. Uning fikricha, diqqat bu kasbdagi odamlarda ixtiyorsiz va ixtiyoriy muvozanatlashgan bo'lishi mumkin. Bir necha stanokda ishlash malakalari hosil bo'lishi natijasida bularda ixtiyoriy muvozanatlashgan diqqat turi vujudga keladi.

Diqqatning bo'linuvchanligi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikkita yoki uchta ishni birdaniga bajarish mumkin, bunda I.P.Pavlov ko'rsatganidek, ulardan biri tanish (ishlash oldin bajarilganligini eslatuvchi) va bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida "navbatchi punktlar" mavjud bo'lsa amalga oshiriladi. Ikkita faoliyatni bir davrning o'zida bajarish uchun faoliyatning biri diqqatni talab qilmaydigan yoki avtomatlashgan bo'lishi talab qilinadi. Kishida bunday imkoniyat faqat mashq qilish orqaligina yuzaga kelishi mumkin.

Sobiq sovet psixologiyasi namoyondalari, jumladan N.F.Dobrinin o'zi va shogirdlari o'tkazgan tekshirishlariga asoslanib, bunday tipologiya diqqatning mohiyatini ochishga yetarli emas deb hisoblaydi. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular ob'ektni ko'p, ham aniq idrok qila oladilar. Yana shunday toifadagi kishilar mavjudki, ular narsalarni ham kam, ham noaniq idrok qiladilar, o'zlaridan ko'p narsalarni qo'shib yuboradilar. Tadqiqotchi **Ye.B.Pirogova** o'quvchilarda eshitish va ko'rish diqqatini o'rganib, eshitish diqqatining ko'lami ko'rish diqqatidan bir necha bor kichikligini ta'kidlab o'tadi. Diqqat muammosini o'rganuvchi olimlar uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligi va roli masalalarini o'rganganlar. Jumladan, N.N.Lange, A.R.Luriya va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

N.N.Lange diqqatning iroda, reflektiv, instinktiv, perseptiv holatlar bilan bog'liqligini o'zining "Irodaviy diqqat nazariyasi" asarida ko'rsatib beradi. A.R.Luriyaning fikricha, kichik yoshdagi bolalarda diqqatning bu holatini ko'rish oson. Birinchi bosqichda u beqarorligi va ko'lamining torligi uchun qo'zg'atuvchilar qurshovidagi diqqat bo'lolmaydi.

Uluq rus pedagogi **K.D.Ushinskiy** ishlarida diqqat to'g'risida bir qator fikrlar aytilgan. Diqqat ob'ektni to'la va aniq idrok qilish qobiliyatiga ega. Ziyraqlikning qator sabablariga oldin idrok qilingan ob'ekt izlarining ahamiyatidan tashqari K.D. Ushinskiy "ta'sirotning kuchi va to'plangan aktlarni boshqara olishni ko'rsatadi". Bolaning rivojlanishi uchun diqqatini to'g'ri yo'naltira olish muhimligini ko'rsatib o'tadilar. Diqqatning to'laligi barqarorligini ta'minlovchi to'planishning psixologik mexanizmlarini muhokama qilish ham K.D.Ushinskiyning asarlarida uchraydi. U diqqatning asosiy omili irodaviy boshqarish deb hisoblaydi. Shuning uchun diqqatni maqsadga yo'naltirib, boshqara olish qiyin va murakkab jarayondir. K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, kishi o'z hissiyotlarini diqqat orqaliboshqaradi, bunda u ixtiyoriy yoki faol turlarga ajratadi. Uningcha, ixtiyoriy diqqat bizning tomonimizdan zo'r berish orqali o'ziga predmet tanlaydi. Ixtiyoriy diqqatni ob'ektivlashtirish faol xarakteridan biridir. Chunki u kishining o'zi orqali qo'zg'atiladi va qo'llaniladi.

K.D.Ushinskiyning aytishicha, ixtiyorsiz diqqat tashqi va ichki sabablarga ko'ra hosil bo'ladi. Tashqi sabablar qo'zg'atuvchining kuchiga organizmning ayni vaqtdagi holatiga bog'liq. Passiv diqqatning ichki sabablari sezgilarimiz izlarining bog'lanishidir. Idrok qilingan ob'ektning yangiliklar bosqichini diqqatning istovchi omili ekanligini muallif farqlaydi. Diqqat qaratilayotgan ob'ekt ma'lum o'lchovda bo'lishi kerak.

Diqqatning psixologik tahlilini K.D.Ushinskiy tarbiya muammosi bilan bog'lab, diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish yoki idrok qilish paytida asosiy ishdan tashqaridagilarga chalg'imaslik tushuniladi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning faol diqqatini to'g'ri yo'nalishda ko'rish va ularning diqqatini o'zlari boshqarishga o'rgatishdan iboratdir.

K.D.Ushinskiy tomonidan yechilgan muammolar o'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, u ongning to'planish qobiliyatini diqqat deb tushundi, shu bois diqqatni o'rganishda shaxs

psixologiyasidan kelib chiqib yondashdi va tabiiy-ilmiy jihatlarini tushuntirishda o'z davrining fiziologik bilimlaridan unumli foydalandi.

40 yillarda psixologiya fani bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Psixologiya fani nazariya va tajribaga asoslangan holda juda ko'p muammolarni yechishga muvaffaq bo'ldi. Nazariy jihatdan katta o'rin olgan masalalardan biri "oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi va strukturasi" to'g'risidagi **L.S.Vigotskiy** ilgari surgan konsepsiyadir. Buning asosida ikkita faraz yotadi:

A) psixik faoliyatning xarakteri haqidagi;

B) birlamchi tashqi va ichki faoliyatdan ichki psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi haqidagi.

L.S.Vigotskiy psixik funksiyalar rivojlanishini o'rgana borib, ular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Uning fikricha, bola diqqatining tarixi - bu bola xulqining paydo bo'lishi tarixidir. L.S.Vigotskiy ishlarining xarakterli tomoni kishi psixikasini tushunishda tarixiy va genetik yondashishdir. Buni u diqqatni o'rganishga ham tadbiq qilgan va diqqatning rivojlanishini ko'rsata olgan. Muallif diqqat rivojlanishining ikkita yo'nalishini ko'rsatadi:

1.Diqqatning natural (tabiiy) rivojlanishi. Bunda muallif umumorganik rivojlanishini tushuntiradi, ya'ni markaziy nerv tizimining strukturaviy va fuksional jihatdan o'sishini ko'rsatadi. Bu rivojlanish butun hayot davomida bo'ladi, ammo bunda "sekinlashgan" va "bir oz pasaytirilgan" ko'rinishlari mavjud.

2.Diqqatning madaniy rivojlanishi. Bunda ixtiyoriy diqqatning namoyon bo'lish xususiyati madaniy konsepsiya bilan bog'liq deb tushuntiriladi. Katta yoshdagi odamlar diqqatining psixologik mexanizmi haqida gapirib, tashqi operasiya organizm xulqini ichki operasiyasiga aylanadi, deydi. Madaniy rivojlanish bola tashqi muhit bilan aloqa qila boshlagandan o'sa boshlaydi.

L.S.Vigotskiyning ilmiy yutuqi shundan iboratki, u diqqat muammosini o'rganishda ijtimoiy va genetik nuqtai nazardan yondashdi. Ixtiyoriy diqqatni tashqi stimullar vositasida nutq funksiyasini yo'naltirish deb tushuntira oldi.

L.S.Vigotskiy ishlarini A.N.Leontev o'z tadqiqotlarida davom ettirib, ixtiyoriy diqqatning rivojlanishini o'rgandi. U ixtiyoriy diqqat xatti-harakatni boshqarishning oliy shakli va tarixiy rivojlanish mahsuli deb tushundi. Bolalarda diqqat shaklarini tahlil qilib 3 ta bosqich mavjudligini ko'rsatdi.

1. Natural bevosita,to'g'ridan-to'g'ri aktlardan iborat.

Bunda to'planish ixtiyorsiz namoyon bo'lib, asosan maktabgacha bo'lgan bolalarda vujudga keladi. Ya'ni bu bolalar o'z xulq-atvorlarini o'zlari boshqara boshlaydilar.

2.Tashqi belgining ahamiyatini egallash, tushuna bilishlari turadi. Bu bosqich boshlanqich ta'limda asosiy rol o'ynaydi.

3.Tashqi taassurotlarning ichki ta'sirlarga aylanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu asosan katta yoshdagi kishilarda bo'ladi.

Uzoq vaqt **A.N.Leontev** maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tekshiradi. Chunonchi, idrok bilan diqqat aloqasini o'rgandi. Diqqat hodisasi shunday hodisaki, u idrokning qanday kechishi bilan belgilanadi, deb tushuntirdi. A.N.Leontev keyingi ishlarini o'quvchilar diqqatini rivojlantirish va ularda idrokni boshqarish, ko'rish, eshitish, qo'yilgan topshiriqni tushunish kabilarni egallash muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

N.F.Dobrinin diqqatni kishi psixik faoliyatini biror bir ob'ektga yo'naltirish va to'plash bilan boshqa ob'ektlardan chalg'ishi orqali tushuntiradi. Agar yo'nalish va to'planish ixtiyorsiz bo'lsa ixtiyorsiz diqqat vujudga keladi. Agar ong qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lsa, u holda ixtiyoriy diqqat namoyon bo'ladi. Bular qatorida N.F.Dobrinin diqqatning uchta turini ajratadi. Uning fikricha, diqqatning uchinchi turi "ixtiyoriydan keyingi diqqat" deb ataladi. Bu ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo'lib, irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Bular to'g'risida N.F.Dobrinin shunday deydi. "Ixtiyoriy diqqatda qiziqishga intilishga o'rin bor, lekin bu qiziqish faoliyatning natijasiga qiziqishdir. Faoliyatning o'zi esa qiziharsizdir. Kishi psixik faoliyatining ajoyib xususiyati shundan iboratki, natijaga qiziqish jarayonga qiziqishga aylanadi. Bu ixtiyoriy diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanganda bo'ladi".

B.G.Ananev "O'quvchilarda diqqatni tarbiyalash" nomli asarida diqqatni hamma vaqt tekshirish, tadqiq qilish kerak deydi. Buning uchun mana bunday vaziyatlarga e'tibor qilishni ko'rsatib o'tadi,

darsni to’g’ri tashkil qilish, ta'limning puxtaligi, o’qituvchining pedagogik mahorati, o’quvchilarning darsdagi faoliyatini to’g’ri tashkil qila bilish kabilarni ta'kidlaydi. B.G.Ananev bu bilan diqqatning uzoq vaqt bir ob'ekt ustida to’play bilish kerakligini uqtiradi.

Diqqat muammosini tadqiq qilish **I.V.Straxov** asarlarida o’z aksini topgan. Uning qarashlariga ko’ra, kishi diqqati kelib chiqishiga va ishlash uslubiga qarab ijtimoiy tabiatga ega. U kishilarning mehnat faoliyatiga sabab bo’ladi va mehnat jarayonining asosiy psixologik komponentlaridan biri bo’lib sanaladi. Diqqatning muhim belgisi faoliyat jarayonida va atrofdagilar bilan aloqada kishi psixikasining to’planishidir.

Qator munosabatlarda to’planish ikki xil xarakterda bo’ladi, u predmet va hodisalarga tanlab yo’naltiriladi, ya'ni diqqat ob'ektini ongli ajratish, bu vaqtda boshqa ko’p ob'ektlardan chalg’ish vositasi bilan aktlar tizimini tashkil qiladi, to’planish mehnat predmetiga yo’naltiriladi, lekin uning jarayoni ham diqqat ob'ekti hisoblanadi. To’planish faoliyat ob'ektiga va u bilan harakatga yo’naltiradi.

Diqqat psixikaning alohida tomoni va shakli hisoblanmaydi va qandaydir birorta funksiyani bajarishga o’z-o’zidan ko’chmaydi. Maqsadga yo’nalgan, intensiv-psixik faoliyatning strukturaligi funksional asosini o’zgarishga, mahsuldorligining oshishiga va miyaning barqaror ishlashiga olib keladi.

Kishi diqqati mehnat faoliyatiga, faoliyat jarayoniga, mehnat qurollariga yo’naltiriladi. Diqqat predmetlari bir xil emas, balki har xil faoliyat turlarida turlicha bajariladigan mehnat operasiyalari va vositalari kishi mehnat predmetiga ta'sir qiladi. Bularga bog’liq ravishda diqqatni faoliyat turlarida o’rganish psixologik muammolari vujudga keladi. O’tkazilgan tekshirishlar asosida I.V.Straxov diqqat ko’p funksiyali jarayondir, degan xulosaga keladi. Bu funksiyalarni amaliy bajarish - mehnat, o’qish, ilmiy va boshqa faoliyat turlaridan birortasining shart-sharoiti mahsuldorligini belgilaydi. Faoliyatning har bir turi diqqatga alohida ma'suliyat yuklaydi. Shuning uchun uning funksiyasi faoliyatning shu turiga to’g’ri kelishi muhimdir.

Diqqatning nazorat qilish-to’zatish funksiyasi ham kam ahamiyatli emas. Uning shakllari mehnat va o’quv faoliyatining har xil davrlarida bir xil bo’lmaydi.

Diqqat alohida kishilarning munosabatlarida jamoada o’ziga xos funksiyani bajaradi. Kishilarning ko’zatuvchanligida, boshqa odamlarning psixik holatini tushunishda, ziyraqlikning faol shakllarida aks etadi. Ziyraqlik mehnatda va kishi bilan munosabatida axloqiy-psixologik ahamiyatga ega bo’ladi. Shunga muvofiq ziyraqlikning motivasiyasi o’rganilib, uning aks etishining shakllari va ularni tarbiyalash masalasi ko’rib chiqiladi. Ziyraqlikning bunday o’rganilishi uning taqlilida va shaxs psixologiyasida yangi yo’nalishdir. Ular o’z ishlarida diqqatning o’rganilishi ko’rsatilgan aspektlarini sintez qilishga harakat qiladilar.

Yuqorida bayon etilan fikrlardan ko’rinib turibdiki, I.V.Straxov diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatiga uning faol psixologik aks ettirish imkoniyatiga alohida e'tibor beradi. Shuningdek, diqqat bilish faoliyatining borliq bilan aloqasida, uni keng va chuqur aks etishida muhim mexanizm bo’lib hisoblanadi.

Diqqat shaxsning yo’nalishida to’plangan jarayon sifatida ishlaydi. Keng ma'noda bu so’z asosida ehtiyoj, qiziqish, qarash, ideal kabi tarkibiy qismlar mavjud. Diqqat psixik jarayonlar tuzilishida ko’rsatilgan omillardan hosil qilingan hodisa sifatidagina qatnashmay, balki u shaxsning boshqa xususiyatlariga munosabatda tayanch xususiyat sifatida qatnashadi. Diqqat va ziyraqlikning pedagogik takt(odob)ning shakllanishidagi psixologik shart-sharoit ekanligi bunga misol bo’ladi.

I.V.Straxov "Diqqat va nutq" muammosi bo’yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. U nutq shakllari va funksiyalarini hamda tasviriy faoliyatni tahlil qiladi. U o’quvchilarda sport gimnastikasi darslarini psixologik tahlil qiladi va o’rganadi.

Muallifning ta'kidlashicha, diqqatni nutqiy boshqarish quyidagi omillarda, ya'ni predmetni nomlashda, yoki maqsadli harakatlarga to’plashda, faoliyatni rejalashtirishda diqqatni ilgarilab ketish aktlarida, qidirish faoliyatlarida, diqqatni ko’chish jarayonining verbalizasiyasida, diqqatni nazorat qilish funksiyasini aktivlashtirishda, ziyraqlikning aks etishida va uning axloqiy psixologik ahamiyatida namoyon bo’ladi.

Diqqat va butun faoliyat jarayonini boshqarish nutqning ichki va tashqi turlari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu boshqarishda muallif fikricha, integral (yuqoridagi ikki nutq oraliqidagi)

nutq ishtirok etadi. Bularni tadqiq qilish shuni ko’rsatadiki, grafik harakatlarni amalga oshirish aqliy - nutqiy jarayonlar ularni anglash va yo’naltirish bilan birga boradi.

Shunday qilib, diqqatni boshqarish va uni tarbiyalash, o’quvchilarda rivojlantirish masalasi I.V.Straxov tomonidan atroflicha o’rganilgan.

Psixolog N.V.Ko’zminaning fikricha, o’qituvchilarning dars davomida berilayotgan bilimini qanchalik o’zlashtirishi unda asosiy va yetakchi rolni diqqat o’ynaydi. Shuning uchun ham ta'lim - tarbiya jarayonida hammadan avval tarbiyachi o’quvchining diqqatini torta bilish uning asosiy maqsadi bo’lishi kerak. Bu esa o’tilgan materialni o’quvchi puxta bilishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, diqqatning tarbiyalanishi va shakllanishi ham vujudga keladi. F.N.Gonobolin, M.R.Rahmonova D.B.Elkonin, V.V.Repkin va boshqa qator tadqiqotchilar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida o’quvchilarda diqqatning namoyon bo’lishi, kechishi, rivojlanishining o’ziga xos xossalari, individualligi kabi jihatlari o’rganilgan.

10.6. Diqqatning buzilishi

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. **Parishonxotirlik** diqqatni uzoq vaqt davomida biron ishga layoqatsizlikda diqqatning osongina va tez- tez bo’linib turishida namoyon bo’lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko’rinishi ko’pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Parishonxotirlikning sabablari har xildir. Parishonxotirlik shaxsning barqarorxislati sifatida ixtiyoriy diqqatning sustligi ko’rsatkichi hisoblanadi va noto’g’ri tarbiya natijasi(bolaning erkalatib yuborilishi, jazolanmasdan qolishi, taassurotlarning har xilligiga odatlanish va boshqalar) bo’lishi mumkin. Bu xildagi parishonxotirlikka qarshi avvalo shaxsda irodaviy sifatlarni shakllantirish yo’li bilan kurash olib borish kerak. Parishonxotirlikni bola salomatligining yaxshi emasligi, nerv tizimining umuman buzilganligi bilan izohlash mumkin. Parishonxotirlik haddan tashqari hissiy hayajonlanish, yoxud charchash oqibati sifatida qisqa muddatli bo’lishi ham mumkin. So’nggi holatda u ko’pincha o’qish kuni va qaftasining oxirida namoyon bo’ladi. Pedagogik ish tajribasida diqqatni tarbiyalash maqsadida parishonxotirlikning barcha sabablari va xususiyatlari inobatga olinishi shart.

Qachonki, kishi ishga berilib ketib o’z xayollari, kechinmalari bilan bo’lib, mashg’ul bo’lgan ishidan boshqa hech narsani ko’rmayotgan va eshitmayotgan hollarda ham "parishonxotirlik" haqida so’z yuritiladi. U masalan tevarak-atrofdagilarga e'tibor bermaydi, o’ziga qaratilgan savollarga parvo qilmaydi. Bunday "parishonxotirlik" diqqatning yorqin ifodalagan holdagi tanlanganligidan, uning behad jamlanganligi va jadalligidan hosil bo’ladi. Diqqatni eng ko’p darajada jamlanganligi yuqorida qayd qilib o’tilganidek, faoliyatda muvaffaqiyat qozonishning muhim sharti bo’lib hisoblanadi. Lekin diqqatning faqat bir ob'ektga qaratilganligi uning taqsimlanishi va ko’chirilishida qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin. Bu xildagi parishonxotirlik kundalik hayotda amaliy faoliyatda kishining tevarak-atrofdagi olam bilan munosabatini mushkullashtirib qo’yadi va shuning uchun ham unga diqqatning nuqsoni sifatida qaraladi.

Maktab hayotidagi parishonxotirlik "qoidaga sig’maydigan" deb atalmish xatolarda dars paytida o’quvchida tegishli maktab anjomlari yo’qligining ma'lum bo’lishida, o’quvchining dars jarayoniga yetarlicha jalb etilmaganligida va shu kabi boshqa hollarda namoyon bo’ladi. Bolalarda, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda parishonxotirlik juda ko’p uchraydi.

Diqqatning parishonxotirlikdan tashqari boshqa xildagi buzilishlari ham borligi e'tirof etiladi. Diqqatning haddan tashqariharakatchanligi bir ob'ektdan va faoliyat turidan boshqalariga doimiy ravishda o’tib turishi, yoki aksincha harakatsizligi, diqqatning sust harakat qilishi, uning tor doiradagi tasavvurlar va fikrlarga patologik tarzda qayd etilishi shular jumlasiga kiradi. Diqqatning bu xildagi buzilishlari miyaning ba'zi bir organik kasalliklari eng avvalo uning peshona qismidagi kasalliklari yuz bergan paytlarda kuzatiladi.

Diqqatning fazilatlari bilan bir qatorda uning buzilishi va nuqsonlari bo’lishi

mumkinligini psixologik jihatdan asoslangan tarzda hisobga olish diqqatni o’zida aks ettiradigan bilish jarayonlarini tadqiq etishning zarur shartidir.

Ayrim ruhiy kasallik holatlarida diqqatning inertligi (sustligi) yoki mutlaqo harakatsizligi, qandaydir biron ob'ekt ustida to’xtab qolish holatlarini kuzatish mumkin. Bola hayotining bir oylik davrlarida uning uchun faqat ixtiyorsiz diqqat xos bo’ladi. Bu davrda bola dastavval tashqi

qo’zg’atuvchilardan, ularning keskin o’zgarishlaridan ta'sirlanadi. Masalan, to’satdan paydo bo’ladigan qattiq ovozlardan harakatning o’zgarishidan va boshqa narsalardan ta'sirlanadi. Ixtiyoriy diqqatning alomatlari odatda bola yoshiga to’lgandan so’ng yoki ikki yoshga qadam qo’ygan davrda paydo bo’la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat tarbiya jarayonida yuzaga keladi, bolaning

atrofidagi odamlar nima qilish lozimligini asta-sekin o’rgatadilar. Bolalar o’z diqqatlarini rivojlantirishda ulardan talab qilinayotgan harakatlarni bajarishga o’zlarining bevosita mayllaridan voz kechishlariga to’g’ri keladi. Bolada, albatta juda sodda go’daklik shakli bo’lsa ham onglilik namoyon bo’ladi. Bolani ozodalikka, tartiblilikka, ma'lum intizomlilikka, jamoat qoidalariga rioya hilishga o’rgatar ekanmiz, buning bilan biz bolada ixtiyoriy diqqatni rivojlantiramiz. Bog’cha yoshidagi davrda bolaning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun o’yin katta ahamiyatga egadir. Bog’cha yoshidagi bolalar diqqati juda barqaror bo’ladi. Mashq qilish usuli bilan o’z diqqatini to’plash qobiliyati asta-sekin rivojlanadi.

O’quv jarayonida ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Maktab mashg’ulotlarini intizomlashtiruvchi ta'siri, dars davomida sinfda o’tirish, o’quvchilarning so’zlarini eshitish zaruriyati, chalg’imaslik bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta rol o’ynaydi. har turli ta'lim ishlari maktabdagi o’quv mashg’uloti ustida ongning yo’nalganligi va to’planganligini saqlab turishni talab qiladi. Bolalarning hissiyotlari ko’pincha kuchli bo’ladi. Shuning uchun ularning diqqatlari qisqa vaqt ichida davom etsa ham kuchli bo’ladi.

Maktab yoshidagi bolalarning hissiyotlari ancha barqaror bo’la boshlaydi. Shuning uchun pedagog o’qish materialini hissiy momentlar bilan boyitar ekan, buning bilan diqqatning barqarorligi va kuchini saqlab turilishiga yordam beradi. Biror narsaga qiziqib kelgan maktab yoshidagi o’quvchi uzoq vaqt diqqatli bo’lishi mumkin. Ammo kattalarning nazorati pasayib qolsa, u zarur vazifani bajarishdan chalg’ib boshqa narsaga kirishib ketishi mumkin. Masalan: adabiyotni o’rganayotgan o’quvchi kino yoki biror o’qigan asari haqida xayol surib ketishi mumkin. Ayrim bolalar jismoniy mehnat darslarida diqqat bilan o’tirsalar boshqalari aqliy mehnatda kuchli diqqat bilan o’tiradilar. O’zi yoqtirgan darslarda kuchli diqqat bilan o’tirgan o’quvchilar boshqa darslarda o’qituvchilarni ancha tashvishga solib qo’yishlari mumkin.

O’quvchilarning o’quv predmetiga munosabati, unga diqqat bilan qarash ko’p jihatdan darsda o’quvchining o’quv materialini jonli, emosional, qiziharli, tushunarli, shu bilan birga to’liq va chuqur o’qita bilishga bog’liq. Bu talablarga rioya qilmaslik darsda o’quvchilarning parishonligiga yoki ikkinchi darajali qiziqishlarning paydo bo’lishiga olib keladi. O’smirlarda chuqur, barqaror qiziqishni tarbiyalash, o’qitishning mazmunini jiddiy o’ylab ko’rilganligi ularda diqqatni tarbiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bu shart-sharoitlarga rioya qilinsa, o’smir diqqatini boshqarishga halal beradigan ba'zi impulsiv (ixtiyorsiz) harakatlarga qaramay, o’z diqqatini ixtiyoriy ravishda boshqarish va to’xtab turish mumkinligini tezda egallab oladi. U o’zi uchun qiziharsiz va qiyin ishni diqqat bilan bajarish zarur bo’lsa, o’zini bu ishga majbur eta oladi. Masalan, hamma predmetlardan beriladigan vazifalarga nisbatan o’smirlarda kichik maktab yoshidagi bolaga qaraganda diqqatning tashqi ifodasi ham o’zgaradi. Agar kichik yoshdagi maktab o’quvchining yuz ifodasi va gavda holati uning qanchalik diqqatliligini aniq belgilab bersa, o’smir esa o’zining diqqatsizligini yashira oladi. Faqat o’qituvchining ko’zatuvchanligi orqali buni aniqlashi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Diqqat tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Diqqatning fiziologik asosini nima tashkil qiladi?
3. Diqqat turlarini ko’rsating?
4. Diqqatning xususiyatlarini ajratib ko’rsating?
5. Parishonxotirlik tushunchalarining mazmuni nimalarda ko’rinadi?
6. Jahon psixologiyasida diqqat nazariyalari xususida nimalarni ayta olamiz?

Test topshiriqlari

1.Qaysi qatorda diqqat tushunchasiga to’g’ri tarif berilgan?

A) ongimizning muayyan obektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat B) insonning amaliy faoliyatiga kiritilgan bo'lib, ularning muvaffaqiyatini taminlaydi V) ma'lum obektga uzoq vaqt davomida mutassil qaratilishi G) bir vaqtda bir necha obektga yoki faoliyatga taqsimlanishi D) markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi

2.Dominanta tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) A.A.UxtomiskiyB) A.R.LuriyaV) I.P.PavlovG) I.M.SechenovD) P.Ya.Galperin

3.Oliy nerv faoliyatidagi qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabat…….. deb ataladi.

A) dominantaB) nerv jarayonlarining induksiyasiV) parishonxotirlikG) diqqatsizlikD) retikulyar formasiya

4.Muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo'zg'aluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan markaz…….. deb ataladi.

A) dominantaB) nerv jarayonlarining induksiyasiV)parishonxotirlikG) diqqatsizlik

D) retikulyar formasiya

5.Markaziy nerv tizimidagi qo'zg'alishi yoki tormozlanish jarayonlarining vaqt o'tishi bilan dastlabki paydo bo'lgan uchastkasiga to'planish qonuni nima deb ataladi?

A)dominantaB)nerv jarayonlarining induksiyasiV)nervjarayonlarining konsentrasiyasiG) parishonxotirlik

D) retikulyar formasiya

6.Yo'naltirish tushunchasining mazmuni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) mazkur faoliyatga butunlay berilishi B) ana shu faoliyatning tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganligini saqlab va qo'llab ?uvvatlash tushuniladi V) shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan obekt ustida to'planishidir G) psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati bo'lib, obektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi D) diqqat xossasi bo'lib asab tizimi charchaganda shikastlanganda vujudga keladi.

7.Psixik faoliyatning yo'naltirish tushunchasiga berilgan tarif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) mazkur faoliyatga butunlay berilishB) ana shu faoliyatning tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganini saqlab va qo'llab quvvatlash tushuniladiV) shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan obekt ustida to'planishidirG) psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati bo'lib, obektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladiD) diqqat xossasi bo'lib asab tizimi charchaganda shikastlanganda vujudga keladi

8.Diqqatning nerv fiziologik asosi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?

A) I.P.Pavlov, A.A.UxtomiskiyB) A.A.Uxtomiskiy, I.M.SechenovV) I.P.Pavlov, I.M.SechenovG) I.P.Pavlov, A.R.LuriyaD) A.R.Luriya, N.M.Brenshteyn

9.I.P.Pavlovning takidlashicha diqqatning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) shartli reflekslarB)shartsiz reflekslarV) bu nima refleksiG) nerv jarayonlarining induksiyasiD) dominanta

10.Nerv jarayonlarining induksiyasi qonuni qaysi olim tomonidan kashf qilingan?

A) I.M.SechenovB) I.P.PavlovV) A.R.LuriyaG) A.A.UxtomiskiyD) D.B. Neblisin

11.To'satdan tasir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatga ……aytiladi.

A) ixtiyoriyB) ixiyorsizV) ixtiyordan so'nggi diqqatG) bo'linuvchanlik

D) konsentrasiyasi

12.Bolalar uyquga yotgan jim-jit xonaga hamalib qolgan arining g'ing'illab uchishi va deraza oynasiga urilishi hali uxlayotgan bolalarning diqqatini……. ravishda o'ziga jalb etadi.

A) ixtiyoriyB) ixtiyoriydan so'nggi diqqatV) ixtiyorsizG) bo'linuvchanlik

D) konsentrasiyasi

13.Ixtiyorsiz diqqaning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) orientirovka refleksiB) tekshirish refleksiV) bu nima refleksiG) dominanta

D) orientirovka yoki tekshirish refleksi

14.Diqqatning yuzaga kelishida qaysi jarayon muhim rol o'ynaydi?

A) sezgiB) idrokV) xotiraG) nutqD) tafakkur

15. …….. deb oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni malum narsa hamda hodisalarga qaratilishiga aytiladi.

A) ixtiyoriyB) ixiyorsizV) ixtiyoriydan keyingi diqqatG) bo'linuvchanlik

D) konsentrasiyasi

16. Ixtiyoriy diqqatning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alishi

B) ikkinchi signallar sistemasiV) shartsiz va shartli reflekslarG) miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alishi va ikkinchi signallar sistemasi D) Barcha javoblar to'g'ri

17. Insonda diqqat ko'lamining keng bo'lishi nimalarga bog'liq?

A) sezgi va idrokka B) tajribasigaV) turmush tajribasigaG) narsa va hodisalarni chuqur aks ettirilishigaD) barcha javoblar to'g'ri

18. ……. deb odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi.

A) diqqatning ko'lami B) diqqatning bo'linuvchanligi V) diqqatning konsentrasiyasi G) diqqatning kuchi va barqarorligi D) diqqatning taqsimlanganligi

19. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi ko'proq nimalarga bog'liq?

A) diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari va ahamiyatiga B) diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizgaV) nerv sistemasining ayrim xususiyatlariga va odamning ayni chog'dagi holatigaG) diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, ahamiyatiga va diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizga bog'liqD) Barcha javoblar to'g'ri

20. ……. ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi.

A) diqqatning ko'lami B) diqqatning bo'linuvchanligi V) diqqatning konsentrasiyasi G) diqqatning kuchi va barqarorligi D) diqqatning taqsimlanganligi

11- MAVZU: XOTIRA.

REJA:

11.1.Xotira jarayoni haqida tushuncha
11.2.Xotira jarayonining nerv-fiziologik asoslari
11.3.Xotira jarayonining turlari
11.4.Xotira jarayonlari
11.5.Xotira tasavvurlari

Tayanch iboralar

Amneziya (lot. A - inkor etish, mnesus - xotira) - miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati.

Assosiasiya (lot. associatio - birlashtirmok) - psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik, qarama - qarshilik va b.).

Mantiqiy xotira - xotira turlaridan, materialni ma'no tomondan o'zaro bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.

Mexanik xotira (yunon. Mechane - qurol, mashina) - materialning ma'nosiga tushunmagai holda

takrorlashdan iborat xotira.

Operativ xotira (lot. oreratio - harakat) - xotira turlaridan biri. By ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi.

Paramneziya (yunon. rara - oldida, yonida mnosis - eslash) - sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo'lib tuyo'lishidan iborat xotira kasalligi.

Proaktiv tormozlanish (lot. proaktivus - o'ta faol. yunon. tormoz) - avvalgi faoliyatning qayta - qayta kun takrorlanishi natijasida keyingi materiallarni esga tushirishning yomonlashuvi.

Reminissensiya (lot. reminiscentia - eslamoq) - avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushishidan iborat xotira jarayoni, ya'ni vaqtinchalik unutish holati.

Retroaktiv tormozlanish - (lot. Retru - orqaga, activus - faol, harakatchan) - oldin eslab qolingan materiallarni keyingi faoliyat ta'sirida vaqtincha unutish.

Tanib olish - oldin esda qoldirilgan narsalarni qayta idrok qilish orqali obraz tariqasida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni.

Uzoq muddatli xotira - xotira turlaridan. Bu bilimlarni, shu bilan birga ko'nikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni ta'minlaydi, hamda g'oyat ko'p hajmdagi axborotni esda tutish bilan xarakterlanadi.

Unutish - oldin esda olib qolingan ma'lumotlarni keyinchalik qayta esga tushira olish imkoniyatining yo'qligi jarayoni.

Xotira - aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon.

Esga tushirish - xotira jarayonlaridai biri, buning natijasida oldin esda olib qolingan bilimlarni faollashtirish yuzaga keladi.

Esda olib qolish - yangi qabul qilingan axborotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog'langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

Qisqa muddatli xotira - qisqa muddatga esda qoldirish ta'minlaydigan xotira turi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

5. Psychology / Henry Gleitman, James Gross, Daniel Reisberg. — 8th ed. Psychology—Textbooks BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110

www.wwnorton.com

11.1.Xotira jarayoni haqida tushuncha

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. "Indvidning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi". Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor **E.G'.G'oziev** tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. *"Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir".*

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng hamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Memory

Genghis Khan got around. At the dawn of the 13th century, the Mongolian warrior conquered the largest empire the world had ever known: an expanse stretching from the Sea of Japan in the east to the Caspian Sea in the west, from Siberia in the north to India in the south. To conquer this territory and then maintain his domination, the emperor had to formulate complex plans. This created a problem: His soldiers were illiterate peasants, scattered over thousands of miles. How could he spread his complicated orders through the ranks quickly, simply, and without error? His solution: Put the orders in a song. All the Khan's soldiers learned a small set of melodies, which they practiced as they traversed the mountains and steppes. Then, when the time for fighting arrived, commanders would set their orders to the tune of one of these melodies. The soldiers' task was simple: memorize a few new verses for an old song, rather than a series of entirely unfamiliar, abstract instructions. And if any one of the soldiers forgot the lyrics, hundreds of others could sing him the next line. Using this scheme, the soldiers crooned their battle instructions, and large segments of Eurasia fell.

Xotira

Chingizxon haqida. XIII asr oxirida mug'ul imperiyasi dunyoning yeng katta imperiyalaridan biri bo'lib, u Yapon dengizidan Kaspiy dengizigacha, shimoldan sibir, janubdan Hindistongacha yoyilgan. Bu hududlarni boshqarish va ustunlik qilish uchun mukammal rejalar kerak bo'lgan, lekin muammolar ham bor edi: uning askarlari savodsiz dehqonlar va minglab milga yoyilib ketgan edi. U murakkab buyruqlarni qanday qilib tez, oddiy va xatosiz bajartirgan. Uning yechimi: ohahglarga bog'liq bo'lgan. Xonning askarlari bir necha qo'shiqlar to'plamini bilar edi. Ular bu qo'shiqlarni tog' va yurgan yo'llarida xirgoyi qilar edi. O'shandan keyin ular jangga kirganlarida komandiri shunchaki askarlariga qo'shiqni aytishni buyurgan. Askarlarga berilgan topshiriq juda oddiy: eski bir qo'shiqning bir necha qismini eslab qolishi kerak va agar qaysidir askar qatorni unutsa yuzlab askarlarga qo'shilib aytishi mumkin bo'lgan.

Memory

ACQUISITION, STORAGE, RETRIEVAL

Any act of remembering begins with *acquisition,* the process of gathering information and placing it into memory. The next aspect of memory is *storage,* the holding of information in some enduring form in the mind for later use. The final phase is *retrieval,* the point at which we draw information from storage and use it in some fashion.

STORAGE

More research is needed to explore how the *memory trace* is actually represented in the brain. However, evidence suggests that different elements of a single memory (what things looked like, how one felt) may be stored in different brain sites.

Xotira

O'zlashtirish, saqlash, qidiruv.

Har bir ish eslash va o'zlashtirish bilan boshlanadi va ma'lumot to'plash jarayonida uni xotiraga joylaydi. Keying ko'rinishi miyyada saqlash, malumotning miyaning biror qismida ushlab turilishi uni keyinroq ishlatish demakdir. So'ngi bosqich bu qidiruv, buni mohiyati biz yaratgan ma'lumotni saqlashdan va uni yangicha ishlatishdir.

Saqlash

Ko'plab shaxslar qanday qilib, xotirani kuchli, iziga tushib miyaning vakili bo'lishni o'rganishni hohlaydi. Ammo, dalillar shuni ko'rsatadiki har-xil narsalar miyani signali ya'ni ko'rgan narsalar miyyani biror joyida bo'ladi.[14] *(Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com)*

[14] *Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com*

Shaxsning yo’nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko’rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko’pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo’qligini ko’rsatadi. Masalan, o’quvchilar hamma fanlarni bir xil o’zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o’qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emosional munosabati ham katta ta'sir ko’rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o’sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog’liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o’zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko’nikmaa va odatlariga ham bog’liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog’liqdir. Shaxs o’z oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalari asosida o’zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

These examples remind us that—with just a bit of work—we can get enormous amounts of information into our memories, and then recall that information, in detail, for a very long time. But there’s also a darker side to memory: Sometimes we remember things that never happened at all. Indeed, far more often than we realize, our memories blend together separate incidents, introduce rogue details, and incorporate others’ versions of events into our own recall. In this chapter, you’ll learn how these memory errors arise and what they tell us about remembering. How far off track can memory go? In one study, researchers planted in participants a memory of getting lost in the mall as a child, then being brought home safely by a friendly stranger. Nothing of the sort had happened to anyone in the study, but they came to vividly “remember” it anyhow. Other studies have planted false memories of vicious animal attacks, and even—in one remarkable study—a false memory of a hotair balloon ride.

Bu sxemadan foydalangan holda askarlar jangovor o’rgatilib, tayyorlangan va Evropani zab etgan. Bu misol bizga shuni anglatadiki, xotiramiz ustida bir ozgina ishlasak, juda katta ma’lumotni eslab qolamiz, keyinchalik esa u uzoq vaqt davomida bizga xizmat qiladi. Lekin xotiramizning bitta salbiy tomoni bor: ba’zida biz umuman bo’lmagan narsalarni ham eslab qolamiz. Darhaqiqat biz xotiramiz hodisalarni bir-biri bilan aralashtiradi, yolg`on narsalar bilan boyitadi va bir eslagan voqealarga boshqa narsalar qo`shilib, biz anglaganlarimizdan yiroqlashamiz .

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to’plash bilan bog’liqdir. To’plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

11.2.Xotiraning nerv-fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o’zgaruvchanlik, qo’zqatuvchilar ta'sirida o’zida go’yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo’lib, uning darajasi har xil bo’ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o’rab olgan borliqni faol biluvchi kishi o’z miyasi faoliyatini to’xtovsiz kuchaytiradi. Shu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamning toliqishiga sabab bo’ladi. Dam olgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o’tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o’sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining

ko’rsatkichi bosh miya po’stlog’ida muvaqqat nerv alohalarini tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv alohalari assosiasiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Assosiasiya bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea hodisalarning o’zaro bog’lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa buyumlar bilan bog’lash orqali amalga oshiriladi. Bu o’rinda akademik **I.P.Pavlovning** quyidagi so’zlari juda xarakterlidir. *"Muvaqqat nerv bog’lanishlari - deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o’zimizda ham bo’ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bo’lmasa harflar, so’zlar va fikrlar o’rtasida paydo bo’ladigan bog’lanishlar-ki, bu bog’lanishlarni psixologlar assosiasiyalar deb ataydilar".*

Xotira, ya'ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo’lgan obrazlar o’rtasida assosiasiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bois inson xotirasidagi assosiasiyalar 3 turga ajratiladi. Bular**yondoshlik assosiasiyasi, o’xshashlik assosiasiyasi va qarama-qarshilik assosiasiyalaridan** iboratdir. Yondoshlik assosiasiyasining asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi. Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assosiasiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo’ladi. Masalan, bog’chada bolasi har kuni o’zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini

idrok qiladi. Keyinchalik, ya'ni katta bo’lgandan so’ng bog’chasini eslasa tarbiyachi opasi va aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog’cha guruhi ko’z o’ngida gavdalanadi.

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o’rtasida ma'lum o’xshashlik bo’lsa, bu narsalar o’rtasida o’xshashlik assosiasiyasi hosil bo’ladi. Masalan, bola dastavval bog’chaga kelgan paytida bog’cha mudirasining tashqi ko’rinishi, ovozi va munosabatlarini o’z onasiga o’xshatishi mumkin. Keyinchalik bola onasini ko’rganda, mudira opasini va aksincha mudira

opasini ko’rganda onasini eslaydigan bo’lib qoladi. Bu ikkala odamning bola tasavvuridagi obrazlari o’rtasida assosiasiya hosil bo’ladi.

Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o’rtasida qarama-qarshibelgilar va xususiyatlar bo’lsa, bunday narsalar o’rtasida qarama-qarshilik assosiasiyasi yuz beradi. Masalan yoz-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o’rtasida qarama-qarshilik assosiasiyalari hosil bo’ladi.

Shunday qilib, xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po’stida hosil bo’ladigan shartli reflekslar, turli assosiativ bog’lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assosiasiyalar hosil bo’lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assosiasiyalarning hosil bo’lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo’ladi.

Xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlari xususida to’xtalar ekanmiz, so’nggi yillarda texnikaning g’oyat tez rivojlanishi natijasida turli esda olib qoluvchi apparatlarga bo’lgan ehtiyoj benihoya ko’payib ketganligini ta'kidlash joiz. Bu o’z navbatida xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini psixolog va fiziologlardan tashqari injenerlar, bioximiklar, genetiklar hamda kibernetiklar tomonidan o’rganilishiga olib keldi. Natijada xotiraning nerv fiziologik mexanizmlarini tushuntiruvchi bir qancha yangi nazariyalar maydonga keldi. Ana shunday nazariyalardan eng muhimi molekulalarning o’zgarishi bilan bog’liq bo’lgan bioximik nazariyadir. Bu nazariyaga ko’ra biror narsani esda olib qolish va esda saqlab turish maxsus tuzilishni o’zgarishi bilan bog’liqdir. O’tkazilgan tekshirishlarga ko’ra, biror narsa esda olib qolinganda, asosan nerv hujayralarining

(neyronlarning) dendrit shoxlari tarkibida o’zgarish yuzaga keladi. Ular qandaydir boshqacharoq tuzilishga kirib oladilar. Dendritlar tuzilishidagi hosil bo’lgan o’zgarish darrov o’tib ketadigan bo’lmay, ancha mustahkam bo’ladi. Shu sababli esda olib qolgan narsa uzoq vaqt xotirada saqlanib turadi.

11.3.Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo’lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko’rinishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog’liqligi olinadi. Shu o’rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari

turlicha klassifikasiya qilinadi. Jumladan, **A.V.Petrovskiy** tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida quyidagi klassifikasiya uchraydi:

- ***Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab:***harakat, emosional, obrazli va so'z mantiq xotira.
- ***Faoliyatning maqsadlariga ko'ra:*** ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.
- ***Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra:*** qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira klassifikasiyasi qayd qilinadi:

- ✓ ***Psixik faolligiga ko'ra:*** ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.
- ✓ ***Faoliyat maqsadiga ko'ra:***harakat, emosional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.
- ✓ ***Muddatiga ko'ra:***uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

E.G'.G'oziev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikasiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra:
a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
b) obrazli xotira;
v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
g) so'z-mantiq xotira.
2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:
a) ixtiyorsiz;
b) ixtiyoriy;
v) mexanik.
3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:
a) qisqa muddatli xotira;
b) uzoq muddatli xotira;
v) operativ (tezkor) xotira.
4. Ruhiy faoliyat qo'zqatuvchisining sifatiga ko'ra:
a) musiqiy;
b) eshitish xotirasi;
5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:
a) fenomenal;
b) kasbiy.

Keltirilgan xotira turlarini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:



Harakat xotirasi – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib harakatlarda,hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqalarni esda qoldirish, mustahamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

Xotiraning bosh qa turlariga qaraganda, harakat xotirasi ba'zi odamlarda aniq ravshan ustunlik qilishi uchrab turadi. Psixologiya fanida klassik misolga aylanib qolgan ushbu holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: bir musiqa ishqibozi musihalarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yaqindagina eshitgan operani faqat pantomimika tarzidagina qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular o'zlarida harakat xotirasining borligini umuman payhamaydilar. Mazkur xotira turining g'oyat ahamiyati shundan iboratki, u yurish, yozish, ifodali harakat malakalari bilan bir qatorda har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, o'zini har gal "boshdan boshlab" o'rganar edi. Figurali uchish, langar bilan sakrash, gimnastika, chopish, xatti-harakatlar, badiiy gimnastika bilan shug'ullanish harakat xotirasini taqozo etadi. Jismoniy chaqqonlik, mehnat mahorati, "oltin qo'llar", ziyrak ko'zlar, egiluvchanlik va ko'zatuvchanlikka ega bo'lish yuksak, barqarorharakat xotirasi mavjudligining alomati bo'lib hisoblanadi.

His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Voqelikdagi narsa va hodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish, esda saqlash, esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira turi deb ataladi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlanib qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi.

Hissiy xotira o'zining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma'lum ma'noda ajralib turadi. har bir odamga o'z turmush tajribasidan ma'lumki, ko'pincha, qachonlardir o'qigan kitoblar, tomosha qilgan kinofilmlar faqat "taassurotlar", bog'lanishlar zanjirini yechishning dastlabki tuguni sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun hissiy xotira ijtimoiy ahamiyat kasb etib, umumiylik alohida olingan odamlar kayfiyatlari

bir-birlariga o'xshashligi, iliq ruhiy muhitni vujudga keltirish yoki noxush kechinmalar to'lqinini barpo etish ehtimoli to'g'risida mulohaza yuritilayotgan alomati ostida ijtimoiy guruhiy, jamoaviy, barqaror va beqaror kayfiyatni vujudga keltiradi.

Obrazli xotira - tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar, ranglar shakllar, bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

Psixologiya fanida obrazli xotiraning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat.

Izchil obrazlar sensor xotiraning eng sodda ko'rinishi yoki shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi quyidagilardan tuziladi: agar sub'ektga bir necha daqiqa oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan 10-15 sekund yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so'ng tekshiruvchi oldidan kvadrat olib quyilsa, u qizil kvadrat o'rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko'rishda davom etadi. Asosan bu shakl ko'pligi rangda tovlanadi. Mazkur iz o'sha zahoti, ba'zan bir necha sekunddan keyin paydo bo'lib, 15 sekunddan to 45-60 sekundgacha o'sha ob'ektda saqlanib turadi, shundan so'ng asta-sekin oqara boshlaydi. Natijada o'zining aniq qon turini yo'qotadi,

keyinchalik mutlaqo yo’qolib ketadi. Goho butunlay yo’qolishi uchun qaytadan paydo bo’lishi mumkin.

Odamlarning individual psixologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo’lishi ko’zga tashlanadi.

O’zining kelib chiqishi, kuchliligi jihatidan izchil obrazlar salbiy va ijobiy turlarga bo’linadi. Agar kuchli ravishda odam qizil rangga qarab turib, so’ngra nigohini oq qog’ozga ko’chirsa, u holda ob'ektda ko’k-yashil rang paydo bo’lganday ko’rinadi. Izchil obrazlarning ushbu turi salbiy, izchil obrazlar deb ataladi. Bu holatni yana bir misol orqali tushuntirilsa, quyidagi ketma-ketlik hodisasi namoyon bo’ladi. Qorong’u xonada ko’z oldida bir narsaga, masalan, qo’l yaqinlashtirilsa so’ngra qisqa muddatli (0,5 sek) elektr chiroqi yoqilsa, bu holda chiroq o’chgandan keyin odam bir necha daqiqa davomida narsalarning aniq obrazini ko’rishda davom etadi. Mazkur obraz o’z rangida bir qancha muddat saqlanib, so’ng ko’zdan yo’qoladi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining sodda izlariga misol bo’la oladi. Chunonchi, hodisalarga qarabo’zaytirish ixtiyoriy ravishda qayta tiklash mumkin emas. Binobarin, izchil obrazlar ushbu xotiraning murakkabroq turlaridan ana shu jihatlari bilan farqlanadi.

Izchil obrazlarning eshitish turi orqali sezishda kuzatish mumkin, lekin bu vaziyatda izchil obrazlar kuchliroq namoyon bo’lishini va qisqa muddat davom etishi kuzatiladi.

Eydetik obrazlar psixologiyada izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlash an'ana tusiga kirgan bo’lib, "eydos" yunoncha "obraz" degan ma'noni anglatadi. Xotiraning bu turi, ya'ni eydetik obrazlar o’z vaqtida nemis psiholgiya maktabining namoyondalari aka-uka Yenishlar nomidan ta'riflab berildi. Ba'zi odamlar shu davrlarda kuzatilgan narsa yoki suratlar ko’z o’ngidan olib qo’yilsa ham surat siymosi uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Mazkur narsa va jismlarning aniq obrazlari, tasvirlarni kuzatish mumkin. Bu

hodisa jahon psixologiya fanida tajribada tekshirib ko’rilgan. Tajribada tekshiriluvchiga 3-4 minut davomida rasm ko’rsatilgan va tasvir olib qo’yilgandan so’ng uning tarkibiy qismlari, tuzilishi haqida qatnashchilarga savollar berilgan. Bu jarayonlarda tekshiruvchilar birorta savolga javob bera olmagan bo’lsalar, aniq texnik obrazga ega bo’lgan ishtirokchilar esa rasmni davom etishgandek har bir savolga aniq javob berishga erishganlar.

Tajribalarning ko’rsatishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin. Mabodo ularning yo’llari yopilib qolgan bo’lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliklarsiz ularning siymosi qayta tiklanishi mumkin.

Rus psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo’lish hodisasi **A.R. Luriya** tomonidan ko’p yillar davomida o’rganilgan va shunga ko’ra eydetik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo’lib, sub'ektlarning oldiga qo’yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o’zgartirish mumkin.

ACQUISITION, STORAGE, RETRIEVAL

Each of us has a huge number of memories.We can recall what we did yesterday, or last summer. We can remember what the capital of France is, or what the chemical formula is for water.We remember how to ride a bicycle and how to throw a baseball. These examples—remembering *episodes,* remembering *general facts,* and remembering *skills* or *procedures*—actually draw on different memory systems; but it also turns out that the various types of memory have some things in common, so let’s begin with the common elements.

Any act of remembering requires success at three aspects of the memory process. First, in order to remember, you must learn something—that is, you must put some information into your memory. This point seems obvious, but it deserves emphasis because many failures of memory are, in fact, failures in this initial stage of *acquisition.* For example, imagine meeting someone at a party, being told his name, and moments later realizing that you don’t have a clue what his name is—even though you just heard it! This common (but embarrassing) experience is probably not the result of ultrarapid forgetting. Instead, it’s likely to stem from a failure in acquisition. You were exposed to the name but barely paid attention to it and, as a result, never learned it in the first place.

The next aspect of remembering is *storage*. To be remembered, an experience must leave some record in the nervous system. This record—known as the memory trace—is squirreled away and held in some enduring form for later use. One question to be asked here is how permanent this storage is: Once information is in storage, does it stay there forever? Or does information in storage gradually fade away? We'll tackle these questions later in this chapter. The final aspect of remembering is *retrieval*, the process through which youdraw information from storage and use it.

Sometimes, retrieval takes the form of recall—a process in which you retrieve information from memory in response to some cue or question (Figure 8.1A). Trying to answer a question like "What is Sue's boyfriend's name?" or "Can you remember the last time you were in California?" requires recall. A different way to retrieve information is through recognition (Figure 8.1B). In this kind of retrieval, you're presented with a name, fact, or situation and are asked if you have encountered it before. "Is this the man you saw at the bank robbery?" or "Was the movie you saw called *Memento*?" are questions requiring recognition. Recognition can also be tested with multiple items: "Which of these pictures shows the man you saw earlier?" This latter format obviously resembles a multiple-choice exam, and in fact multiplechoice testing in the classroom probes your ability to recognize previously learned material. In contrast, exams that rely on essays or short answers emphasize recall.

Acquistion – egallangan

Storage – xotira

Retrieval- izlash

Har birimizda kuchli va katta xotiralar bor. Biz o`tgan yozda yoki kecha nima qilganimizni eslay olamiz. Biz Fransiya poytaxtini yoki suvning kimyoviy formulasini eslay olamiz , Bu misollar – eslash epozodlar eslashning uni faktlari va eslash mahorati yoki bo`lmasam muolajalar- haqiqatdan ham turli xil xotiralar shakillangani, lekin umumiy xotiralar ham. Keling xotiraning umumiy elementlaridan boshlaymiz.

Eslashning turli xil fakti xotira jarayonning 3 ta aspektini so`raydi.

1 Biror nima o`qib undan xotirangizga biror ma`lumot oling. Bu aniqday ko`rinadi, lekin yaxshilab etibor berish kerak. Chunki juda ko'p mufoqqiyatsizliklar xotiraning pastligiga bog'liq.

Masalan tasavvur qiling, siz mehmonga yoki uchrashuvga borishingiz kerak, deylik uni ismini birdan esdan chiqardingiz, xatto uni ismini eshitgansiz ham eslaysiz. Bu umumiy tajriba.

2 Xottiraning keying aspektini saqlash . Eslash uchun sizga biror miyangizga manba eslatuvchi kerak.

3 Oxirgi aspekti esa izlash qidirish qaysiki siz egllagan, saqlagan bilimlaringizdan foydalanasiz.

Aka-uka Yenishlar tomonidan o'tkazilgan oddiy tajribada eydetik xotiraga ega bo'lgan tekshiruvchiga olma va undan sal uzoqroqda joylashgan ilmoq tasvirlangan rasm ko'rsatilgan. Rasm o'rtasidan bo'lib, qo'yilgandan keyin tekshiruvchida olmani olib qo'yish istagi kuchayib borayotgani so'ralgan. Muayyan yo'l-yo'riq berilgandan keyin tekshiruvchi mana bunday holatni tasvirlab beradi: ilmoq olmaga yaqinlashib, uni iladi va ixtiyorsiz ravishda qatnashchi tomon tortadi. Xullas, eydetik obrazlar harakatchan bo'lib, sub'ektning ruhiy ko'rsatmasi ostida sifat va miqdor o'zgarishiga yuz tutadi. Ilmiy tekshirishlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar bolalik va o'spirinlik davrlarida muayyan muddat xukm suradi va vaqtning o'tishi bilan asta-sekin so'na boradi.

Psixofarmokologik tadqiqotlarining ko'rsatishicha, eydetik obrazlarni kuchaytiruvchi kaliy ionlari va shuningdek uning kuchsizlantiruvchi kalsiy ionlari moddalari mavjuddir. Ilmiy izlanishlardan olingan miqdoriy materiallar eydetik obraz paydo bo'lishining psixologik ildizlarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib hisoblanadi va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz. Inson daraxt, meva, gul to'g'risida tasavvurga ega ekanligi shuni ko'rsatadiki, uning ilgarigi tajribalari sub'ektning ongida shu obrazlarning izlarini qoldirgan.

Ilmiy tushunchalar talqin qilinganda tasavvur obrazlari eydetik obrazlarga juda yaqindek tuyo'ladi. Lekin eydetik obrazlar haqidagi psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvur obrazlari unga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan ajratuvchi farq tasavvur obrazlarining polimodallik xususiyatidir. Buning asosiy mohiyati tasavvur obrazlari ko'rish, eshitish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Masalan, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi, mazasi, oqirligi, vaznini o'zaro birlashtirib aks etadi.

Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, u narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarni aqliy jihatdan qayta ishlashni o'z tarkibiga kiritadi va jismlarning asosiy xususiyatlari ajratilib, ma'lum kategoriyaga birlashtiriladi. Inson gul obrazini faqatgina esga tushirmaydi, balki uni muayyan bir so'z yoki tushuncha bilan aytadi, nomlaydi, xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi, aniq bir kategoriya mohiyatiga kiritadi.

Demak, tasavvur obrazlarida odamning xotirasi idrok qilingan narsalarning izini sust ravishda saqlab balki, bir qator tasavvur bilan boyitadi, narsa mazmuni va mohiyatini tahlil qilib, u haqida o'z bilimlari, tushunchalari kabilarni tajriba bilan bog'lovchi ijodiy sermahsul faoliyatni amalga oshiradi. Bularning barchasi irodaviy sifatlar, aqliy zo'riqish, asabiy taranglashuv natijasida ruyobga chiqishidan dalolat beradi.Tasavvur obrazlari xotiraning murakkab faoliyati mahsuli bo'lib, ular izchil yoki eydetik obrazlarga nisbatan murakkab psixologik hodisadir.

Tasavvur obrazlari xotira izlarining murakkab turi bo'lib uning aqliy jarayon bilan yaqinligi inson bilish faoliyatini muhim tarkibiy qismidan iborat ekanligidan dalolat beradi.

So'z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalanishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar ma'lumot, axborot, xabar, material ma'no jihatidan qayta ishlanmasa, u holda materialni so'zma-so'z o'zlashtirish, mantiqiy o'rganish bo'lmasdan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

So'z-mantiq xotirasining vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimi asosiy hisoblanadi. Chunki so'z mantiq xotirasi faqat insongagina xos bo'lgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi o'zining sodda shakllari bilan hayvonlarga ham taalluqli bo'lgan harakat, his-tuyg'u va obrazli xotiralardan sifat, ham miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan so'z-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan ularga nisbatan yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, boshqa turlarning rivojlanishi so'z mantiq xotirasining takomillashuviga o'zviy bog'liqdir. So'z-mantiq xotirasining o'sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari ham uchraydi. Shu bois xotira faoliyatini amalga oshirayotgan faollik xususiyatlari bilan o'zviy bog'liq ravishda turlarga ajratiladi. Masalan, faoliyat maqsadiga ko'ra xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirilishidan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Ko'pincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayon ma'lum kerakli topshiriq yoki vazifa qo'yilsa, esda olib qolishga etaqlovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematik topshiriqlarini yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz. Mazkur so'z mantiq xotirada asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hech qanday o'rin ham qolmaydi. Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddat bo'lsa-da, esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Esda olib qolishni maqsad qilib qo'yish esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Serb psixologi **Radosavlevich** o'z tadqiqotida quyidagi hodisani bayon etadi. Tajribada tekshiriluvchidan biri sinovda qo'llanilayotgan tilni tushunmaganligi tufayli uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmagan. Buning oqibatida uncha katta bo'lmagan tadqiqot materiali 46 marta o'qib berilganiga

qaramay, esda olib qolinmagan. Tajribaning keyingi bosqichida vazifa tekshiriluvchiga tushuntirib berilgandan so'ng u material bilan olti marta o'ib, tanishib, uni takrorlab, qismga ajratib esga qayta tushirishga erishgan.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotining ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi. **Ixtiyorsiz xotiraning** turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri ma'lum maqsadsiz aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, ta'surotlarning ko'pchilik qismini aks ettirishdir. Shunga qaramasdan inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitlar, holatlar, vaziyatlarda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

So'nggi paytlarda rus va xorij psixologiyasida xotira borasidagi tadqiqotchilarning e'tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang'ich daqihalarida vujudga keladigan holatlar, jumladan tashqi taassurot izlarining mustahkamlanishigacha bo'lgan jarayonlar, holatlar, mexanizmlar, shuningdek, ularning mustahkamlanish muddatlarini ham o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Masalan, biror material xotirada mustahkam joy olish uchun uni sub'ekt tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqish zarur va materialni bunday ishlab chiqish uchun ma'lum darajada muddat talab etish tabiiydir. Ana shu muddat xotirada qayta tiklanilayotgan izlarni mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqindagina bo'lib o'tgan hodisalarning aks sadosi sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan daqihalarda, lahzalarda, ayni paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go'yo ko'rishda, eshitishda davom etayotgandek tuyo'ladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o'zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatli-ki, bu jarayonlarda esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, malumotlar, xabarlarni qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon odatda psixologiya fanida **qisqa muddatli xotira** deb ataladi.

Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlanib qolishi xarakterli bo'lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oraliqida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so'ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Hozir ilmiy adabiyotlarda qisqa muddatli xotirani quyidagi atamalar bilan nomlash uchraydi: "bir lahzalik", "dastlabki", "qisqa muddatli" va boshqalar.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat operativ xotira deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun quyidagi misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo'laqlarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

Mazkur holat matnni talaba yoki o'quvchi tomonidan o'qishda, uni ko'chirib yozishda, ijodiy fikr yuritishda, aqliy faoliyatni amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

11.4.Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. **Esda qoldirish** idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:

a) ixtiyoriy esda qoldirish;

b) ixtiyorsiz esda qoldirish.

Ixtiyorsiz esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. Masalan, tasodifiy hodisalar, karnay-surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi. Masalan, dars materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish va boshqalar. *Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:*

- ✓ maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;
- ✓ o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish;
- ✓ esda qoldirishning rasional usullaridan foydalanish, masalan, esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda hayotiy tajribalarni kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham ko'pincha noaniq bo'ladi, bunday esda olib qolingan narsa va hodisalar keyinchalik yanglish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlanishni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanilishi foydalidir.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

- Ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.
- Egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish.
- Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.
- Aralash holatda esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Mana shu yo'llar orqali eshitish, ko'rish, eshitish harakat, kombinotorlashtirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assosiasiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida ular xususiyatlariga binoan quyidagi:

- Sabab oqibat bog'lanish.
- Bo'lak va yaxlit munosabati.
- Qarama-qarshilik munosabati.
- Inkor etish holati.
- Adekvat yoki aniqlik turlarga ajratiladi.

Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. **A.A.Smirnov, P.I.Zinchenko** tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lishi mumkin. A.A.Smirnovning tajribalarida tekshirishlarga qaraganda ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holda ular ma'noli matnni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matnni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish unda uchraydigan ma'noviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yondashishdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. A.A.Smirnov o'tkazgan tajribasida shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus to'zib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash rejasi, pala-partish esda olib qolishdan ikki barobar samaraliroq ekan, psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ularni muallimning rahbarligida egallashadi. Aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qotib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'quv materiallarining ma'nosiga tushunib esda olib qolish yo'li oqilona yo'l bo'lib qolmasdan, balki u mexanik esda olib qolish jarayonidan o'zining samaradorligi bilan keskin darajada ajralib turadi.

Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki kechinmalarni xotirada saqlanish xususiyati tushuniladi. Kundalik hayotimizda kitob, jurnal, gazeta o'qiyotganimizda materialni esda olib qolish uchun shu materialning ma'nosiga tushunib olishga harakat qilamiz. Jamiki narsa insonga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, u taqdirda ularni esda olib qolish jarayoni juda qiyin kechadi. O'rganilayotgan materialning mazmuni va ma'nosiga tushunib olish uchun odam uni tahlil qilishga, umumlashtirishga harakat qiladi. A.A.Smirnov ta'kidlaganidek, materialni o'zlashtirib olish xuddi shu jarayonga yaqqol misoldir. Mualliflarning shaxsiy fikriga ko'ra o'zlashtirayotgan materiallarni esda olib qolish qiyinligi sababli ularni tushuna olmaslikdir. Tushunib olishning esda olib holishdagi ahamiyati xuddi shu bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiya fani to'plagan ma'lumotlarga qaraganda o'zlashtirilayotgan materialni mexanik tarzda egallashga nisbatan uning ma'nosini tushunib o'zlashtirish bir necha marta mahsuldordir.

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi muhimdir. Assosiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog**G.Ebbingao'z** jahon psixologiyasida birinchi bo'lib 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani, 1888 yilda intellektni ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani "sof" ko'rinishda o'rganishga harakat qilib ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan foydalandi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasi emas, balki mexanik xotirasiga nisbatan qo'llanishiga xos to'g'ri yo'nalishdir.

G.Ebbingao'zning bu tadqiqoti psixologiyada introspektiv (o'z-o'zini kuzatish yoki ichki kuzatish) metodiga qarama-qarshiqo'yilgan ilmiy tajribaviy metod yutuqi sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rtacha 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta so'z o'zaro bog'liq bo'lmagan so'zlardan foydalangan. Bu materialni o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9 1 nisbatga to'g'ri keladi.

Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrni tasdiqlaydi. A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikov va boshqalar bolalarning xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek, ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar.

I.P.Zinchenko, M.N.Shardakov, A.I.Lipkinalar tadqiqot ishlarining aksariyati shunga bag'ishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan hamda esda olib qolish tezligi, aniqligi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A.A.Smirnovning ta'kidlashicha, shu davrgacha hech kim hech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda esda olib qolishlari ko'rsatilmagan.

Nemis psixologi **Vilyam Shtern** (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. Bu mulohaza haqiqatdan ham to'g'ri, Meymon fikriga ko'ra, inson ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolishi esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarida o'z aksini topgan.

A.A.Smirnov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlarda va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib

qolishni alohida tekshirish har ikkala yosh davrida mazmunli va mazmunsiz materiallarni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolalarga nisbatan kattalarda ustunligi lekin, ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leontev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallarni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Esda olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay, materialni yaxshi olib qolinishi kishining jadal faoliyati bilan bog'liq. Ixtiyorsiz esda olib qolish faol irodaviy kuch sarflash hisobiga amalga oshadi. A.A.Smirnov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki bolalar hali tushunib olmagan materialni go'yo ma'nosi yashirinib yotgandek qabul qiladilar. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishga intilish mazmunini izlashga talabchanlikni uyg'otadi. Odatda ma'nosiz so'zlarni laboratoriya sharoitiga qaraganda kundalik turmushda puxtaroq eslab qolinadi.

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) materialni esda olib qolish darajasi yosh davrlari xususiyatiga ega emas, balki uning yakkahol shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir; 2) mexanik esda olib qolishning odat tusiga kirib qolishi ham yosh davrlarining xususiyati emasdir; 3) so'zlarni esda olib qolish, mexanik esda olib qolishning biron-bir xususiyatidir.

Esga tushirish va uning turlari.

O'tmishda idrok qilingan narsalar, his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishi **esga tushirish** deyiladi. Esga tushirishning nerv-fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning qo'zg'alishidir. Esga tushirishning *tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari* mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir. Tanish aniq va noaniq bo'lishi mumkin. Noaniq tanishda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz, holos. Masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qaerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. To'liq, aniq tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. Masalan, biz bir kishini ko'rib, uni taniy olmasak, uning familiyasini yoki ismini eshitsak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Eslash narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir. Masalan, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan ishlarimizni bemalol esga tushirishimiz mumkin. Eslash ham aniq va noaniq bo'ladi. Masalan, biz she'rni yoddan aytib bersak ham uni qaerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. Esga tushirish avval tanishdan boshlanadi. Masalan, imtihonga kirganda biletni ko'rib, uning savolini o'qib taniymiz. Demak, bunda predmetning nomi muhim rol o'ynar ekan. Bevosita esga tushirish materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat. Masalan, she'rni yod olganimizda bir necha satrni o'qigan kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab, xotiraning ko'lami aniqlanadi.

Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko'lami keng hisoblanadi. Masalan, artistlarda so'z va iboralarni esda tutib qolish xotirasining ko'lami keng bo'ladi. Hisob-kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tushirish xotirasining ko'lami keng bo'ladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolingan narsani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi. Masalan, yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. Shuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmaganda zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi.

Shunday qilib, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolib, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi **reministensiya** hodisasi (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg'ul bo'lganda miya charchashi yuz beradi. Charchash haddan tashqari oshishi natijasida nerv xujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialning ko'p qismi unutiladi. Materialni o'qib o'rganib olingandan keyinoq uni yaxshi xotirlay olmay, ammo oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin uni to'la xotirlay olishlikning sababi materialni o'qib, o'rganib olishda ro'y beradigan charchashdir.

Materialni eslash uchun bo'lgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ishga chalqib ketgan insonlarda tormozlanish tarqab ketadi. Shunda esga tushirish lozim bo'lgan narsa xotiraga kiradi. Materialni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtga bog'liq bo'ladi. Bu G.Ebbingao'z tomonidan aniqlangan bo'lib, unutish materialni yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi.

G.Ebbingao'z unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olgandan so'ng unutish sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'g'inlarni unutish ustida olib borilgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni maboynida xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narsa va hodisalarning o'zaro alohalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib ketilayotgan vaqtli bog'lanishlarni, ya'ni assosiasiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi. G.Ebbingao'zning izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tadqiqotlarning ko'rsatishicha, unutish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglanilganligiga bog'liqdir. Material qanchalik mazmundor anglanilgan tushunib olingan bo'lsa, u holda unutish ham shunchalik sekin kechadi. Lekin ma'noli materialga nisbatan ham unutish avval tez sur'atda bo'lib, keyinchalik esa u sekinlashadi. Biron-bir materialni o'zlashtirish yoki esda olib qolish insonning ehtiyojlari, qiziqishi, faoliyatning maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu material sekin unutiladi.

Unutishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligiga o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega emasligiga bog'liqlikdan tashqari yana bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. Shuningdek, ular shaxsning shaxsiy, individual xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar malum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, ba'zi odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa malum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda

uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi:

a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar.

Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

1) tez esda qoldirib, sekin unutish;

2) tez esda qoldirib, tez unutish;

3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;

4) sekin esda qoldirib, tez unutish.

11.5.Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga **xotira tasavvurlari** deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat.

Masalan, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: ertaqlar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, "ildiz", "o't" so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi. Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turtki tasirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turtki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi.

Nazorat savollari:

1. Xotira tushunchasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
2. Xotiraning nerv-fiziologik asosini nimalar tashkil qiladi?
3. Xotira turlarining mohiyatini ko'rsating?
4. Xotira jarayonlari mohiyatini izo?lang?
5. Xotira tasavvurlarining o'rnini qanday izohlaysiz?
6. Xotira borasidagi tadqiqotlarga misol keltiring.

Test topshiriqlari

1.Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyadagi muvaqqiyat bog'lanishlar B) miyada iz hosil bo'lishi V) ilgari idrok qilgan boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik ularni esga tushirishdan iborat jarayonG) kundalik bilimlarni esda olib qolishga

D) zarur vaqtda kerakli materialni esga tushira olish qobiliyati

2.Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgan?

A) esga tushirish B)esda olib qolish V) unutish G)esda saqlash D) barcha javoblar to'g'ri

3.Xotiraning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) ikkinchi signallar tizimi B) assosiasiyalar V) bosh miyaning po'stloq qismi

G) ketma-ketlik assosiasiyasi D) dinamik streotip

4.Qaysi qatorda assosiasiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyada iz hosil bo'lishi B) material izini yo'qolishi V) esda qoldirish va unutish tezligiga ko'ra G) xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea-hodisalarning o'zaro bog'lanishdir biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi D) barcha javoblar to'g'ri

5."Muvaqqat nerv bog'lanishlari hayvonot olamida va bizning o'zimizga ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir. Turli-tuman harakattaassurot bo'lmasa harflar so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlarni psixologlar assosiasiyalar deb ataydilar." Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) I.Pavlov B) I.Sechenov V) L.Vigotskiy G) A.Smirnov D) Galton

6.Assosiasiyalar nechta turga ajratiladi?

A) 2taketma-ketlik o'xshashlik B) 3ta ketma-ketlik o'xshashlik qarama-qarshilik

V)2ta fazoviy va vaqt G) 3ta fazoviy emosional harakat D) barcha javoblar to'g'ri

7.Narsa va hodisalarning fazoviy vaqt munosabatlari aks etadi. Mazkur fikr qaysi assosiasiyaga tegishli?

A) ketma-ketlik B)o'xshashlik V) qarama-qarshilik G) fazoviy D) harakat

8.Qaysi qatorda psixik faollik tabiatiga ko'ra xotira turlari berilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ G) harakat, ixtiyorsiz, operativ D) barcha javoblar to'g'ri

9.Qaysi qatorda faoliya maqsadiga ko'ra xotira turlari keltirilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ G) harakat, ixtiyorsiz, operativ D) barcha javoblar to'g'ri

10.Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra xotira turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ G) harakat, ixtiyorsiz, operativ D) barcha javoblar to'g'ri

11.Turli xil harakatni esda olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat esda olib qolish …….. deb ataladi.

A) harakat xotirasi B) hissiy xotira V) obrazli xotira G) ixtiyorsiz xotira

D) ixtiyoriy xotira

12.Tassavurlar tabiat va hayot manzaralari shu bilan birga tovush hidlar ta'mlar bilan bog'liq xotira …….....

A) harakat xotirasi B) hissiy xotira V) obrazli xotira G) ixtiyorsiz xotira

D) ixtiyoriy xotira

13.Idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini miya po'stida iz hosil qilishi…….. deb ataladi?

A) esda saqlash B) esga tushirish V) unutish G) esda olib qolish D) remensensiya

14.Esda qoldirish faolligiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?

A) 2ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz B) 3ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tasodifan V) maqsad qo'yish, o'quv materialini tushunish G) ixtiyoriy va beixtiyoriy D) barcha javoblar to'g'ri

15.Ixtiyoriy esda olib qoldirishda qanday usullardan foydalaniladi?

A) material va so'zning ta'sirchanligi B) ixtiyoriy va ixtiyorsiz tasodifan

V) maqsad qo'yish o'quv materialini tushunib esda qoldirish, esda qoldirishning rasional usullari G) maqsad qo'yish, esda qoldirishning rasional usullaridan foydalanish D) hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli

16.Beixtiyor esda qoldirishda qaysi jarayon asosiy rol o'ynaydi?

A) ehtiyoj B) tajriba V) shakl va hajmi G) qiziqish D) hissiy ta'sirchanliligi

17.O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qayta tiklanishi ……. deb ataladi?

A) esga tushirish B) tanish V) eslash G) bevosita esga tushirish D) vaqt o'tkazib esga tushirish

17. …….. ilgar idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida narsa yoki hodisaning esga tushirishdir?

A) esga tushirish B) tanish V) eslash G) bevosita esga tushirish D) vaqt o'tkazib esga tushirish

19.Narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga aytiladi?

A) esga tushirish B) tanish V) eslash G) bevosita esga tushirish D) vaqt o'tkazib esga tushirish

20.Materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat jarayon nima deb ataladi?

A) esga tushirish B) tanish V) eslash G) bevosita esga tushirish D) vaqt o'tkazib esga tushirish

12-MAVZU: XAYOL.

REJA:

12.1.Xayol haqida tushuncha
12.2.Xayol jarayonining nerv-fiziologik asoslari
12.3. Xayol jarayonlari
124.Xayol turlari
12.5.Xayol sifatlari

Tayanch iboralar

Agglyutinasiya (lot. Agglutinate - yopishtirmoq yelimlamoq) - mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir - biriga "yopishtirib" ho'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv parisi obrazi.

Aksentlash (yunon. Accentys – urg'u) - narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Giperbolizasiya (yunon. Hyperbole - kattalashtirmoq) - kattalashtirish bilan bog'liq xayol faoliyatining bir usuli.

Orzu - shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi. Orzu shaxsning ehtiyojlari, istak va intilishlari bilan bevosita bog'liq.

Tasavvur - sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol hissiy obrazi.

Xayol - mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

12.1.Xayol haqida tushuncha

Odam o'z hayoti davomida ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni tasavvur etibgina qolmay, balki hech qachon hayotida uchratmagan narsalarni ham tasavvur eta oladi. Boshqacha qilib aytganda, odam faqat ilgari idrok qilgan narsalarinigina eslash bilan cheklanib qolmay, balki shu paytgacha hech qaerda uchratmagan yangi narsalarini ham o'z hayotida yarata oladi.

Shuningdek, avlod-ajdodlarimizning hayotiga doir tarixiy kitoblarni o'qiyotganimizda yoki bo'lmasa, o'qituvchining uzoq chet el mamlakati haqidagi qiziharli gaplarini eshitar ekanmiz, yuqoridagi narsalarga nisbatan tasavvurlar hosil bo'ladi. Xayol qilish jarayonida idrok qilingan obrazlar orqali hosil qilingan tasavvurlar va bunday tasavvurlarni ongimizda xotira orqali orttirilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, xayol jarayonining bo'lishi uchun xotira tasavvurlarining

bo'lishi shart. Shuning uchun xayolning rivojlanishi insonning bilim boyligi, turmush tajribasi bilan bog'liq.

Xayol deb odamning ongida ilgaridan bor bo'lgan vaqtli alohalarning (assosiasiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi.

Xayol - obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.

Xayolning inson hayotidagi o'rni juda kattadir. Istalgan mehnat faoliyatini oladigan bo'lsak, xayolning ishtirokisiz deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, biror narsa yasash biror o'simlikni o'stirish uchun qo'lga kiritiladigan natijalarni oldindan bilish, ya'ni xayolda tasavvur etib ko'rish lozim bo'ladi. Shuning uchun xayol juda ko'p faoliyatlarning tarkibiy qismiga kiradi.

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emosional irodaviy holatlari bilan o'zviy bog'liq. Xayol idrok xotira tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan o'zviy bog'liq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog'liq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar, tushunchalar asosida ifodalanadi.

12.2.Xayol jarayonlarining nerv-fiziologik asoslari

Xayol qilish jarayoni juda ham murakkab aks ettirish jarayoni bo'lishiga qaramay, uning asosida yotgan fiziologik mexanizmlarni akademik. **I.P. Pavlovning** oliy nerv-faoliyati haqidagi ta'limoti asosida ma'lum darajada tushuntirib o'tish mumkin. Xayolning nerv fiziologik asosida ham miyaning po'stida ilgari hosil qilingan vaqtli alohalarning (assosiasiyalarning) yana qayta tiklanib, bir-biri bilan yangicha qo'shilish jarayoni yotadi. Shuni ham aytish kerakki, bosh miya yarim sharlarida ilgari hosil qilingan vaqtli alohalar birin-ketin tiklanadilar va binobarin ularning qo'shilishlari ham asta-sekin yuzaga keladi. Ana shuning natijasida bosh miyaning po'stida inson o'z shaxsiy hayotida hech qachon idrok qilmagan narsalarning obrazlari paydo bo'ladi. Bu obrazlarning ko'pi voqelikka mutlaqo to'g'ri kelmaydi va natijada tormozlanib holadilar. Boshqa birlari esa voqelikka to'g'ri kelganligi hamda inson faoliyati uchun miyadan yangi imkoniyatlar ochib bergani tufayli amaliy faoliyat natijalari bilan mustahkamlanadilar. Xayol qilish jarayoni hamisha nutq orqali amalga oshirilishi tufayli nutqning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signallar tizimining faoliyati ham faol qatnashadi. Bundan tashqari xayol qilish jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va

iroda jarayonlari ham ishtirok qiladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda xayolning (xususan ijodiy xayolning) nerv fiziologik mexanizmlarni to'la tushuntirib berish uchun yetarli ilmiy ma'lumotlar yo'q. hozirgi kunda fan va texnikaning juda tez temp bilan rivojlanishi ijodiy xayol jarayonining oldiga katta vazifalar qo'ymoqda. Masalan, kosmik fazoni zabt etish, insonning oyga chiqishi, murakkab aqlli mashinalarning yaratilishi va shu kabilar inson tafakkuri hamda ijodiy xayolning yuksak taraqqyoti natijasida qo'lga kiritilmoqda.

Odamning uyg'oq paytida yuzaga keladigan xayol jarayoni ma'lum darajada tartibot va ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun odam o'zining xayol qilish jarayonini oldidagi maqsad va vazifalarga bo'ysindira oladi. Odam o'zining bilimlari, tushunchalariga asoslangan holda xayoliy obrazlarning paydo bo'lishini idora qila oladi.

Bosh miya katta yarim sharlarining barcha tomonlari tormozlanib, odam uxlagan paytida ham xayol tush ko'rish shaklida yuzaga keladi. Odatda odam uxlay boshlagan paytida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nerv hujayralari hammadan oldin tormozlanadi. Uyqu bilan bog'liq bo'lgan tormozlanish jarayoni miyaning hamma joyiga baravar ravishda tarqalmaydi. Natijada ayrim joylar tormozlanmasdan holadi va kutilmagan darajada ajoyib munosabatlarga kirisha boshlaydi. Ana shuning uchun tush ko'rish ikkinchi signallar tizimining nazoratisiz juda betartib, pala-partish ravishda yuzaga keladigan assosiasiyalardan iborat bo'ladi.

12.3. Xayol jarayonlari

Xayol jarayonlari insonning tajribasi va bilim doirasi, shuningdek o'tmish tajribalari bilan belgilanadi. Shuningdek xayol jarayonlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi va ular yaqqol ifodalash maqsadida quyida jadval ko'rinishida aks ettirildi.



Agglyutinasiya - "elimlash" degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog'iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfinks obrazlari va boshqalar.

Giperbolizasiya - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. Masalan: Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

Tizimlashtirish - o'xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlash; tipiklashtirish-bir xil obrazlarni qaytarilishi bo'lib, har bir davr uchun tipik bo'lgan obrazlarni yaratish Masalan: A.Qahhor hikoyalari ("O'g'ri", "Bemor") A.Qodiriy ("O'tgan kunlar") romani kabilar.

Aksentlashtirish - ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratish Masalan: o'rtoqlik hazillari. Aksentlashtirish badiiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi.

Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro'y beradi. Chunki har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko'riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obrazlar hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega.

- ❖ Xayol tasavvurlari ongda paydo bo'ladi va barqaror bo'ladi.
- ❖ Xotira tasavvuridagi narsa doimo tanish narsadek his qilinadi. Xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg'ularini beradi.
- ❖ Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bilan bog'liq bo'lgani sababli yangilikni his qilish tuyg'ulari oqibatida vujudga keladi.

12.4.Xayol turlari

Odatda biz tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol deb xayolni bir necha turlarga ajratamiz. Aynan xayol turlarini quyidagi tarzda ifodalash muhim sanaladi.



Tasavvur xayolideb o'tmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Tasavvur xayolini odatda tiklovchi xayol deb ham yuritiladi. Tiklovchi yoki tasavvur xayolini inson hayotidagi roli g'oyat darajada kattadir. Agar tiklovchi xayol bo'lmaganda odam o'qiy ham olmagan bular edi. Biz juda ko'p narsalarni ko'rmagan, ya'ni bevosita idrok qilmagan bo'lsak, ham ularni tasavvur eta olamiz: bunda biz boshqa odamlarning aytib bo'lgan so'zlari asosida o'qigan kitoblarimiz asosida xayoliy tasavvur va obrazlar yaratamiz. Masalan, bolalar kitobchalardan o'qib berilgan ertaqlardagi qahramonlarni ularning bag'oyat botirliklarini, qo'rqoqliklarini va bir-birlariga yordam berishlarini xayoliy tasavvur orqali aks ettiradilar. Tiklovchi yoki tasavvur xayoli jarayonida odam ko'z oldiga keltirayotgan obrazning ob'ekti haqiqatdan ham muayyan bir joyda bo'lganligini anglatadi. Tasavvur yoki tiklovchi xayol bog'cha yoshidagi bolalarda ham bo'ladi. Masalan: ularga o'qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar, hikoyadagi afsonaviy qahramonlar, ularning baland g'oyalar ustidagi qurilgan qasrlari ko'z o'ngilarida gavdalana boshlaydi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha ko'rilmagan narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijodiy xayol obrazlari so'zlarda yoki moddiy ob'ektlarda tasvirlanishi mumkin. Ijodiy xayol mahsuli, ya'ni tasavvur va obrazlari san'atning hamma turlarida arxitekturada, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o'rtasidagi farq faqat nisbiy xarakterga egadir. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi tasavvur xayoli jarayonida ham aslida narsalarning obrazlari yangidan ijod qilinadi. Ana shuning uchun xayolning bu ikki turini bir-biridan batamom ajratib bo'lmaydi.

Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. ***Orzu*** ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilganshaklidir. Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimul turtkich hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. Masalan, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladiki, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashtirib, tilak va istaqlariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "quruq xayolparastlar" deb yuritiladi.

Xayol qilish jarayoni hamma bilish jarayonlaridagi kabi ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol turlariga bo'linadi.

Ixtiyorsiz xayol deb - odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol shu topdagi kuchli ehtiyoj tufayli maydonga keladi. Masalan: odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytida uning xayolida har turli taomlar, daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Odamning ayni shu chog'dagi hissiy holati, ya'ni his-tuyg'ulari ham ixtiyorsiz xayolning maydonga kelishiga sabab bo'ladi. Chunonchi, vahima yoki qo'rqinch hissi paytida odamning xayoliga qo'rqinchli narsalarning obrazlari kela boshlaydi.

Odamning tush ko'rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyatlaridan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odam uxlay boshlagan paytda bosh miya po'stining hamma joylari tormozlanmay, ayrim joylari ishlab turadi. Ana shu ishlab turgan joylaridagi nerv hujayralarida ilgari hosil qilingan obraz va tasavvurlar qayta tiklanib, odam tush ko'ra boshlaydi. Bunda miya po'stining eng asosiy markazlari (ikkinchi signallar tizimi) tormozlangan bo'lgani tufayli hech qanday nazorat bo'lmaydi. Natijada obraz va tasavvurlar bir-biri bilan allaqanday munosabatlarga kirib, odam palapartish tush ko'ra boshlaydi.

Ixtiyoriy xayol jarayonlari betartib ravishda, emas balki muayyan bir jarayonda o'tadi. Bu tartib odamning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari fikr hamda maslaqlari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Demak, ixtiyoriy xayol hamisha ma'lum maqsad va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday maqsad va vazifalar boshqalar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, rassom o'zi ishlamoqchi bo'lgan suratning mavzusini o'zi belgilaydi. Yozuvchi

yozmoqchi bo’lgan asarning mavzusini o’zi tanlaydi va o’zi badiiy obrazlarni yaratadi. Umuman san'at asarlarining hammasi ixtiyoriy xayol natijasida maydonga keladi.

Biroq shuni ham aytib o’tish kerakki, ixtiyoriy xayol ba'zan ixtiyorsiz xayolga o’tib ketishi mumkin. Shuning uchun ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayoldan batamom ajralgan holda ro’y bermaydi. Ixtiyoriy xayol jarayoni hamisha beixtiyor qilinadigan xayol daqihalarini o’z ichiga oladi. Masalan, rassomlar yoki kompozitorlar o’zlarining biror yangi asarlarini ixtiyoriy tarzda yaratayotganlarida ba'zan ixtiyorsiz ravishda ayrim fikrlarga berilib ketishlari mumkin.

Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.

12.5.Xayol sifatlari.

Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziya boyligi jihatidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun bo’ladigan doirasi bilan belgilanadi. Masalan, kishi san'at, texnika, sport, bilimga qiziqsa va ular haqida xayol qilsa, bunday kishining xayoli keng bo’ladi.

Xayolning unumdorligi biror narsaga nisbatan xayolning boyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng bo’lsa, u mazmundor ham bo’ladi. Xayol faoliyatning biror sohasida namoyon bo’ladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bog’liq.

Xayol kuchi kuchsiz va kuchli bo’ladi. Kuchli xayolda odam juda tez ta'sirlanadi. Masalan, biz "O’tgan kunlar" romanini, "Shaytanat" romanlarini o’qiganimizda xayol kuchli bo’lishi natijasida ta'sirlanamiz. Ilmiy asarni, zerikarli, hikoyalarni o’qiganmizda esa xayolimiz kuchsiz bo’ladi. Qiziqish kuchli bo’lsa, xayol ham kuchli bo’ladi. Bolalarning xayoli fantaziyaga boy bo’ladi. Mehnat faoliyati natijasida xayol sifatlari rivojlanadi.

Xayol kuchi quyidagilarga bog’liq bo’ladi.

- Xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaqlarning kuchiga bog’liq bo’ladi. Masalan: faqat shu bugungi kun haqida o’ylasa, odamning xayoli kuchsiz bo’ladi.
- Xayol kuchi hissiyotga bog’liq bo’ladi, hissiyot qanchalik kuchli bo’lsa, xayol shunchalik erkin bo’ladi. Xayol kuchi idrokka bog’liq bo’ladi. Biz idrok qilganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok qilsak, xayol kuchayib kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi. Masalan, ba'zan bir xayolga berilib, atrofdagi narsalarni ko’rmaymiz, eshitmaymiz.

Xayol kuchi kishining ahvoliga, asab tizimiga bog’liq bo’ladi, ya'ni asab tizimining tetikligiga, charchab qolganligiga, sog’ligiga va betobligiga bog’liq bo’ladi. Masalan: qarorat juda baland bo’lishi natijasida obrazlar juda yorqinlashib ketadi. Natijada bunday paytda odam alahsiraydi. Gallyusinasiya xayolning kuchli namoyon bo’lishidir.

Xayolning realligi - voqelikni to’g’ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi, geniylarni xayolining kuchi real xayoldir. Masalan, kosmosga uchish xayolni oldindan tasavvur etish. Xayolning realligi odamning tajribasiga, bilimiga, tafakkuriga bog’liq bo’ladi. Obrazlar amalga oshmasa, bu real xayol bo’lmaydi, balki fantastik xayol bo’ladi. Bolalarda xayol kattalarga taqlid qilish orqali o’sadi. Bolalarda fantaziya juda kuchli, masalan, ular oddiy cho’pni "uchqur ot" deb tasavvur qilib o’ynaydilar. Ularni qahramon deb his qiladilar. Yasli yoshiga nisbatan boqcha yoshidagi bolalar xayoli bir muncha kengroq bo’ladi. Ularda xayol asosan kengroq bo’ladi. Bola kattalarga taqlid qilib, shofyor, doktor bo’ladi va hokazo. Bog’cha yoshidagi bolalarda xayol ixtiyoriy bo’ladi. Masalan, katta odam bolaga kubiklardan uy yasash, rasm chizish kabi topshiriqlar beradi. Bog’cha yoshidagi bolalarning xayoli kattalar bilan muloqotda bo’lish ta'sirida o’sadi. Bolalar ertaqlarni tinglashni, voqealarni eshitishni yoqtiradilar.

Kattalarning fikrlarini eshitish natijasida bolalarda ular hali ko’rmagan narsalar to’g’risida obrazlar paydo bo’ladi. Bolalar o’yin vaqtida erkin obrazlarni yaratadilar.

Kichik yoshdagi bolalar xayolining o’sishi uchun tarbiyachining olib boradigan mashg’ulotlari, turli o’yinlarini tasavvur etishlari katta ahamiyatga ega. Asosan qiziqishlar xayolning o’sishiga yordam beradi.

Xayol faoliyati kuchli bo’lsa uning mazmuni kengroq idrok qilinadi. Xayol tasavvurlari esda olib qolish, esga tushirish bog’lanishlarini vujudga keltirish uchun tayanch bo’ladi. Tafakkur

jarayonidagi yaqqollik xayol faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Xayol faoliyati tufayli tug'iladigan hislar ko'pincha ancha kuchli va barqaror hislar bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Xayol tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Xayol jarayonlarining mohiyatini asoslang?
3. Xayol turlarining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
4. Xayol sifatlarining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
5. Xayolning xususiyatlarining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
6. Xayol shakllarining mazmunini izohlang?

Test topshiriqlari

1.Qaysi qatorda xayol turlari to'g'ri ko'rsatilgan?

A) mexanik, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tasavvurB) tasavvur, ijodiy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz

V) tasavvur, ijodiy, frenologik, emosionalG) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ijodiy, emosional

D) kasbiy, frenologik, emosional

2.O'tmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan lekin bizning turmushimizda shu paytgacha uchramagan ya'ni biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to'g'risida tasavvur va obrazlar yaratishga …….aytiladi.

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

3 …….tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turiga aytiladi.

A) ixtiyorsiz xayolB) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

4.O'quvchilarga o'qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar hikoyadagi afsonaviy qahramonlar ularning baland g'oyalar ustiga qurilgan qasrlari ko'z o'ngilarida gavdalana boshlaydi.

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

5.Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratayotganda uning xayoli qanday nom bilan ataladi?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

6. Ijodiy xayolning maxsus turi qanday nomlanadi?

A) tush ko'rish B) fantaziya V) orzu G) tiklovchi D) emosional

7.Odam o'zini oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan irodani ishga solmasdan qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishga …….aytiladi?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

8.Odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytda uning xayolida har turli taomlar daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Mazkur misol xayolning qaysi turiga taalluqli?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

9. Tush ko'rish xayolning qaysi turiga taalluqli?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

10. …….oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib, muayyan obraz va tasavurlarni yaratishga aytiladi?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

11.Ijodiy xayolning tilakdagi kelajakka qaratilganshakli bu …….

A) tush ko'rish B) fantaziya V) orzu G) tiklovchi D) emosional

12.Insonda tush ko’rishning asosiy sababi nimadan iborat?

A) ixtiyorsiz xayol bilan bog’liq bo’lib tasodifiy ro’y beradi.B) qattiq uxlamagan vaqtda yuzaga keladi.V) bosh miyada tormozlanmay qo’zg’algan holatda qolgan markazlardir.G) biz orzu qilgan kishilarimiz o’ylagan his qilgan narsalar haqida

D) tartibga solinmagan maqsadga qaratilmagan jarayon

13.Tush ko’rishning fiziologik asosi kim tomonidan o’rganilgan?

A) I.M.Sechenov B) I.P.Pavlov V) I.Kant G) B.Teplov D) Neblisin

14.Tush ko’rishning fiziologik asosini tushuntirishda quyidagi fikr ilgari suriladi ya'ni ilmiy taassurotlarning nervda qoldirgan izlari kutilmagan tarzda bir-biri bilan bog’lanishidir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) I.M.Sechenov B) I.P.Pavlov V) I.Kant G) B.Teplov D) Neblisin

15.Mazkur xayol turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) realistik xayol

D) fantastik xayol

16.Amalga oshmaydigan xayol turi qanday nom bilan ataladi?

A) ixtiyorsiz xayol B) ixtiyoriy xayol V) ijodiy xayol G) tasavvur xayol

D) fantastik xayol

17.Voqelikning kishilar faoliyati uchun bo’ladigan doirasi xayol sifatlaridan qaysi biriga tegishli?

A) xayolning kengligi B) xayolning mazmundorligi V) xayolning realligi

G) xayolning kuchi D) fantaziya

18.Biror narsaga nisbatan xayolning boyligi xilma-xilligi bilan belgilanadigan xayol sifati?

A) xayolning kengligi B) xayolning mazmundorligi V) xayolning realligi

G) xayolning kuchi D) fantaziya

19.Kishining ahvoliga asab tizimiga bog’liq bo’lib, ya'ni asab tizimining tipikligiga, charchab qolganligiga sog’liqiga betobligiga bogliq bo’ladigan xayol sifati?

A) xayolning kengligi B) xayolning mazmundorligi V) xayolning realligi

G) xayolning kuchiD) fantaziya

20. …….voqelikning to’g’ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi?

A) xayolning kengligi B) xayolning mazmundorligi V) xayolning realligi

G) xayolning kuchi D) fantaziya

13-MAVZU: TAFAKKUR.

REJA:

13.1.Tafakkur haqida tushuncha
13.2.Tafakkurning nerv-fiziologik asosi
13.3.Tafakkur operasiyalari
13.4.Tafakkur shakllari
13.5.Tafakkur turlari
13.6.Tafakkur sifatlari

Tayanch iboralar

Abstraksiya (lot. Abstractio mavxumlashtirish) - narsalarnnng o’ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o’rtasidagi bog’lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operasiyasi.

Amaliy tafakkur - ko’pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va xatti - harakatlarning maqsadini aniqlash, reja loyihalarni ishlab chiqish bilan bogliq.

Deduktsiya (lot. deductio - keltirib chiqarish) - umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy qulosa chiqarishdan iborat tafakkur shakli.

Induktsiya - (log. inductio - keltirib chiqarish) - jo’z'iy yoki yakka qollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakli.

Intuisiya (lot. intueri - yaxshilab, diqqat bilan qaramoq) voqelikni bilishning bevosita haqiqatga aylanishi bilan amalga oshiriladigan alohida usul bo'lib, uning yordamida muammoli vaziyatlar yechimini topish mumkin, u ijodiy faoliyat mexanizmi sifatida tushuntiriladi..

Ko'rgazmali obrazli tafakkur - tafakkur turlaridan biri, bu tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashni xarakterlab beradi.

Ko'rgazmali harakat tafakkuri - tafakkur turlaridan biri, narsa va xodisalar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda namoyon bo'ladi.

Nazariy tafakkur - tafakkur turlaridan biri, u ob'ektlarning xususiyatlarini, qonuniyatlarini ochishga qaratilgan bo'ladi.

Sintez - (yunon. sintbasis - birikish, qo'shilish) - tafakkurning yagona analitik - sintetik jarayonida yakka hodisalarni umumiylashtirishga qaratilgan fikr yuritish operasiyasi.

So'z - mantiqiy tafakkur - tafakkur turlaridan, bu mantiqiy operasiyalar, omillar yordamida tushunchalar orqali ifodalanadi.

Taqqoslash - narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operasiyasi.

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi.

Tahlil - tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'lib o'rganiladi.

Tushuncha - voqelikdagi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Umumlashtirish - voqelikdagi narsa va hodisalarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Xulosa chiqarish - tafakkurning mantiqiy shakllaridan, bunda bir qayta hukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi.

Yaqqol harakatli tafakkur - tafakkur turlaridan, u narsalar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda ifodalanadi.

Hukm - tafakkur - usullaridan, u narsa va hodisalar o'rtasida o'zapo biron-bir bog'lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110. www.wwnorton.com

5. Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com

13.1.Tafakkur haqida tushuncha

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, **tafakkur** deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.



Aynan tafakur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bavosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, holos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni taqin ham oqilona

amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, holos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M.V.Gamezo tomonidan "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan so'z vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

V.V.Bogoslovskiy taqriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning

umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, holos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari **F.N.Gonobolin, K.K.Platonov** darsliklarida ham uchraydi.

Keltirilgan ta'riflar orasida **O.K.Tixomirovning** darsligidagi ta'rif nisbatan to'liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: "Tafakkur - bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir".

Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Ularning ayrimlariga tavsifnoma berib o'tamiz. **S.L.Rubinshteyn** nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishidir. Muallif tafakkur operasiyalari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni sub'ekt faolligining paydo bo'lishi deb ataydi.

A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivasiyasi to'g'risidagi nazariy metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.

P.Ya.Galperin fikriga ko'ra, tafakkur -bu orientirlash-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya'ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub'ektning tafakkuriga orientirovka qilish jarayonini o'rganishga asoslanadi deb tushuntiradi. P.Ya.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi. **A.V.Brushlinskiy** tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi.

Thinking

Phoebe Ellsworth was facing a difficult decision. As a young professor at Yale University, she had received a tempting job offer from the University of Michigan. Should she stay or should she go? Following the advice of many experts in decision making, she took two large sheets of

paper—one for each university—and listed their positives and negatives, assigned numbers to each item according to how important it was to her, and then added up those numbers. But, with the numbers neatly summed, Ellsworth discovered she wasn't content with the result. "It's not coming out right!" she exclaimed to fellow psychologist Robert Zajonc. In the end, she went with her gut and made her decision based primarily on her feelings about the choice and not on her calculations. The decision has worked out well for her, and, three decades later, she's a distinguished professor of law and psychology at Michigan—where she studies, among many things, how emotions sway people's decisions about such crucial matters as murder trials. Meanwhile, Zajonc continued to research the interplay between feeling and thinking, and ended up arguing that cases like Ellsworth's are relatively common, so that, ironically, people rarely use only their minds to "make up their minds."

O`YLASH

Fibi Ellezvarsh qiyin vaziyatda edi va universitetda yosh professor edi. U Michigan universitetidan ishga taklif oldi. U borishi kerakmi. Juda ko`p ekspertlar tavsiyasiga ko`ra u 2 varaq qog`oz oldi va borish yoki bormaslikni ijobiy va salbiy tomonlarini yozdi. Keyin yozganlarini yaxshilarini yig`di va natijalardan qoniqmadi . Bu to`g`ri emas deya psixolog Robert Zeyonga shikoyat qildi. Nihoyat, u jasurlik bilan qo`rquvini yengib ichki sezgilari bilan tanladi, hisoblari bilan emas. ***(Psychology—Textbooks. I. Gross, James J., Ph.D. II. Reisberg, Daniel. III. Title. BF121.G58 2010. W.W. Norton & Company, Inc., 500 Fifth Avenue, New York, NY 10110.*** *www.wwnorton.com*

Thinking and Language

Thinking

1:What are the functions of concepts?

Cognitionis a term covering all the mental activities associated with thinking, knowing, remembering, and communicating. We use concepts,mental groupings of similar objects, events, ideas, or people, to simplify and order the world around us.

2:What strategies assist our problem solving, and what obstacles hinder it?

An algorithmis a time-consuming but thorough set of rules or procedures (such as a step-by-step description for evacuating a building during a fire) that guarantees a solution to a problem.

5:What is framing?

Framingis the way a question or statement is worded.

O'ylash va til. O'ylash

1.Tushunchalarning vazifasi nima ?

Bilish termini barcha aqilli mashg'ulotlarni o'ylash , bilish , eslash va aloqa qilish bilan qamrab oladi. Biz tushunchalarni turli yaqinroq guruhlarga bo'lamiz obyektlar, sabablar, g'oyalar yoki odamlar va atrofimizdagi butun dunyo.

2.Qaysi usul muamolarimizni hal qilishga yordam beradi va nimalarni kutib olamiz?

Vaqtni algaritmlash va oylash qonun-qoidalarni yoki ishlab chiqaruvchilarni qaysikim muamolardan kafolatlovchi xulosalar.

3.Fermerlik nima ?

Fermerlik savol yoli yoki davlatda suzlovchi. Qisqa so'zlarning farqlari bizning javoblarimiz qisqa demokratik. ***(Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** *www.worthpublishers.com*

13.2.Tafakkurning nerv-fiziologik asosi

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri

bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi.

I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida hozir bo'ladi, deb ta'kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy empirizmni va nihoyat odamning o'z tevaragidagi olamni va uning o'zini bilish uchun oliy qurol bo'lgan oliy tafakkur voq'e bo'ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv-fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, "avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir".

13.3.Tafakkur operasiyalari

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-ob'ektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning ob'ekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas.

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operasiyalarning asosiy turlaridir.

Analiz - shunday bir tafakkur operasiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil ob'ektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Allomalarimizning ta'kidlashicha, maymunning yong'oqni chaqishining o'ziyoq boshlang'ich, oddiy analizdir. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va va dars jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanadi. Masalan, buni quyidagi sxemada ko'rish mumkin. Muammoli vaziyatlarni yechish usullari



Dars jarayoni vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savodga o'rgatish nutqni tahlil qilishdan, gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani yechish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni topishdan boshlanadi. Agarda inson oldiga avtomashina motorining tuzilishini bilish vazifasi qo'yilsa, u holda bu topshiriqni hal qilish u motorni ayrim qismlarga ajratib, har bir qismni o'z navbatida alohida olib tekshirish lozim bo'ladi va hokazo.

Analiz va sintez jarayonlarining yuzaga kelishini quyidagicha izohlash mumkin.



Yuqorida aytib, o’tilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini tushunish uchun yolg’iz analizning o’zi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirgan holda bir-biriga ta'sir qilib turgan motor va mashinaning butunligicha olib tekshirgandagina uning motor yoki mashina ekanligini anglash mumkin.

Sintez - shunday bir tafakkur operasiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo’lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo’laqlarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo’laqlarini bir butun qilib ho’shishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan ko’rinib turibdi. Analiz aqliy bo’lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, birinchi sinf bolasi o’z harf haltasidagi keltirilgan harflardan foydalanib, bo’g’in, bo’g’inlardan so’z, so’zlardan gap, gaplardan qisqa axborot, undan esa hikoya to’zadi.

Analiz va sintez o’zaro bevosita mustahkam bog’langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo’lsa, uni sintez qilib bo’lmaydi, har qanday analiz predmetlarni narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash - shunday bir tafakkur operasiyasidirki, bu operasiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o’xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

XIX-XX asrlarda yashagan olim K.D.Ushinskiy taqqoslash jarayoni borasida quyidagilarni ta'kidlagan: "Agar siz tabiatni bir narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o’ziga juda o’xshash bo’lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o’zida juda uzoq bo’lgan narsalar bilan o’xshashligini topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsani tushunib olasiz".

Narsa va hodisalar o’rtasidagi o’xshashlik yoki farqni, teng yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat bo’lgan fikr yuritish operasiyasi, bilishning dastlabki va zarur vositasi bo’lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz taqqoslashning ta'limdagi roli to’g’risida shunday fikrlarni bildirgan edi. Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko’rish yo’li bilan bila olmasak, boshqa yo’l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo’lmagan biron bir narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa to’g’risida hech qanday fikr qila olmagan bular edik.

Taqqoslash operasiyasi ikki xil yo’l bilan amalga oshishi mumkin: amaliy aniq narsalarni bevosita solishtirish va nazariy tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash. Agar odam ikki boylam yukni qo’l bilan ko’tarib, bir necha xil taom mazasini qiyoslasa yoki ikki paykal paxtazor qosildorligini taqqoslasa, bu amaliy taqqoslash bo’ladi. Shuningdek, o’quvchilar ikki halam yoki ikki sterjenning uchini yog’ochga yoki qog’ozga solishtirsalar, u analogik holatga misol bo’la oladi. Bundan tashqari metr bilan masofani, tarozi bilan og’irlikni, termometr bilan qaroratni, teleskop bilan osmon jismlarini o’lchash paytida ham taqqoslash jarayoni vujudga keladi.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo’l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan to’planadigan bilimlarning aksariyati qo’l bilan ushlash, ko’z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglaniladi. Ular o’rtasida o’xshash va farqli alomat hamda belgilar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi. Demak, inson olayotgan keng ko’lamdagi axborotlar farqini fikran taqqoslash yordamida anglab yetadi. Jumladan, o’quvchilar dilda o’ylayotgan narsalarni fikran solishtirib ko’radilar. Ba'zan turli yoshdagi

kishilar o’z tengdoshlari xarakterida, qiziqishida, yurish turishida, muomalasida va boshqa xususiyatida o’xshashlik va tafovut borligini topadilar.

Abstraksiya - shunday fikr tafakkur operasiyasidirki, bu operasiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo’lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

Mazkur jarayonni quyidagi sxemada ham ko’rishimiz mumkin:



Abstraksiya jarayonida ob'ektdan ajratib olingan belgi, alomatning o’zi tafakkurning mustaqil ob'ekti bo’lib qoladi. Abstraksiya operasiyasi tahlil natijasida vujudga keladi. Masalan, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya'ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to’g’risida emas, balki devorning og’ligi to’g’risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yo’ldo’z, elektr, olov ba'zi planetalar, ayrim tosh va hokazolarning ko’z o’ngilarida yoritishni ko’zata turib ularning bitta umumiy belgisini, ya'ni yoritishni fikran ajratib olib, umuman yoritish to’g’risida mulohaza yuritiladi.

Buyumlarni narsa va hodisalarni jism va predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash paytida ham abstraksiyalash jarayoni yuzaga keladi. Bunda narsa va hodisalarning mavjud belgilariga, masalan tusiga, shakliga, tezligiga, og’irligiga, qiymatiga va shu kabi o’xshash sifatlarga qarab taqqoslanadi.

Abstraksiya operasiyasi bilan insonni qurollantirish intellektual jihatdan intensiv rivojlanishiga olib keladi, shuningdek mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

Umumlashtirish - tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o’xshash muhim belgilarning shu narsalar to’g’risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo’yicha yagona yo’nalishdagi nazariya mavjud emas. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo’lib o’rganadilar. Shuningdek, maktab ta'limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to’g’risida olimlar turlicha nuqtai nazardan yondashadilar. **S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov** tomonidan ta'limda nazariy jihatdan umumlashtirish usulini yoqlab chiqsalar, **N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiylar** ham nazariy, ham amaliy usulni qo’llashni tavsiya etmoqdalar. Ammo o’quv faoliyatining turli-tumanligi dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqazo qiladi.

Psixologiyada umumlashtirishning keng qo’llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hisssiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko’proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar ob'ektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Psixologlar noto’g’ri umumlashtirishning hissiy-konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta'kidlab kelmoqdalar. O’quvchi va talaba ba'zan predmetlarni muhim bo’lmagan belgisiga asoslanib noto’g’ri umumlashtiradilar, vaholanki, topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo’yilmaydi. Lekin bu nazariyaning qimoyachilari noto’g’ri umumlashtirishni alohida tur deb hisoblaydilar.

Umumlashtirish, abstraksiyalash operasiyasidan ajralgan holda sodir bo’lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo’lishi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalarning o’xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilardan

fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o’xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

Umumlashtirish jarayoni so’z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik **I.P.Pavlov** fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi tamoyili abstraksiyalash va shu bilan birga oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o’z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag’in analiz va sintez qilinaveradi. Fikr yuritishning umumlashtirish operasiyasi har xil asoslarga ko’ra turlarga bo’lib o’rganiladi. Umumlashtirishni mazmuniga ko’ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko’rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan. Tushunchali umumlashtirish orqali ob'ektiv qonuniyatlarni muhim belgilari bo’yicha birlashtirish amalga oshiriladi. Bunda muhim belgilar umumlashtirilib, ob'ektiv qonuniyatlarni ochish mumkin bo’ladi. Yaqqol-ko’rgazmali umumlashtirishda narsa va hodisalar tashqi hamda yaqqol belgilar bo’yicha umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish - hodisalarni ichki bog’lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operasiyasidir.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg’iz ob'ektlarga tadbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operasiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi. Insonlar dastavval tevarak atrofni aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo’lganlar, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo’lib isoblanadi.

Psixologlar tadqiqotlarining ko’rsatishiga qaraganda konkretlashtirish odamda ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka ob'ektga tadbiq etish amalga oshiriladi. Masalan, biz "oq" deganimizda ko’z oldimizga qor, qog’oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo’lgan umumiylikni ochishda

ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo’ri, o’zumni mevalar qatoriga stol-stul, divan va shu kabilarni mebellar qatoriga qo’shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog’ida odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o’zidir.

Klassifikasiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o’xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir. **D.I.Mendelevni** "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og’irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O’rganish uchun qulaylik tug’dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko’pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo’lishga to’g’ri keladi. Ko’pchilik narsalarni hodisalarni guruhlarga bo’lish klassifikasiyalash yoki turkumlarga bo’lish deb ataladi. Masalan, kutubxonada kitoblar muqovasiga, farmoyishning mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlariga bo’lish mumkin. O’quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari

bo’yicha va shu kabilarga qarab turkumlarga bo’ladilar.

Sistemalashtirish - tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o’rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o’tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo’la oladi. O’tmishda bo’lib o’tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo’la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasidir.

Maktab ta'limida o’zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo’lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bilimlar dastlab predmetlarning boblari, qismlari bo’yicha, so’ng yaxlit holda o’quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning ikkinchi bosqichida bir-biriga o’xshash predmetlarga oid bilimlar fikran tartibga solinadi. Uchinchi bosqichda bir necha predmetlar yuzasidan to’plangan bilimlar ma'lum tartibga tushadi, ularning o’xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishning to’rtinchi bosqichida darsdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlarda egallangan bilimlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi.

Demak, insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni

tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

13.4.Tafakkur shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi.

Hukmlar

Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr **hukm** deb ataladi.

Hukmlar ob'ektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi. Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar, alomatlar hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratib ko'rsatilsa bu **chin hukm** deb ataladi. Masalan, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir; metallar qizdirilganda kengayadi, degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o'tkazish qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir.

Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm **xato hukm** deb ataladi. Masalan, hozir tashqarida yomg'ir yog'yapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

- ***Hukmlar sifatiga ko'ra***: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm;
- ***Hukmlarning miqdoriga qarab***: yakka, jo'z'iy, xususiy va umumiy hukmga;
- ***Hukmlarning munosabatiga ko'ra***: shartli, ayruvchi, va qat'iy hukmlarga;
- ***Hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin.***

Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'lishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq. Masalan, ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin. Paxta rejasi to'lib qolsa kerak.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa bilan belgining aloqasi bog'liqligi borligi aks ettirilgan hukm **tasdiqlovchi hukm** deb ataladi. Masalan, O'zbekistonda pilla yetishtirilmaydi. Toshkentda oliy maktablar qurilmagan. Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajratilishi mumkin. Yakka, yolg'iz narsa va hodisa to'g'risidagi hukm **yakka hukm** deb ataladi. Masalan, Toshkent - O'zbekiston Respublikasi poytaxtidir; Amudaryo sersuv daryolardan biridir. Belgining biror turkumigagina taalluqliligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm **jo'z'iy hukm** deb ataladi. Masalan, ba'zi metallar elektr tokini o'tkazmaydilar. harzdor talabalar sessiyaga qo'yilmaydi. Jamoaning ayrim brigadalari majburiyatga yarasha mehnat qilmaydilar. Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to'g'risida tasdiqlab, yoki inkor qilib aytilgan hukm **umumiy hukm** deb ataladi. hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm **shartli hukm** deb ataladi. Masalan, agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u yaxshi va a'lo baholar oladi. Agar o'quvchi darsga diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashtira olmaydi. hukmda narsalar va hodisalar bir necha belgiga nisbatan berilib, shu belgilardan farqi bitta unga tegishli bo'lsa, bunday hukmga **ayruvchi hukm** deb ataladi. Masalan, jismlar yo qattiq, yoki suyuq, yoki gazsimon holda bo'ladi.

Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy shaklda aks ettirilsa qat'iy hukm deb ataladi. Masalan, bahorda barcha joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Yonish kimyoviy jarayondir.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o'z fikrlarini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin. Ehtimol, Marsda organik hayot bordir. XXI asrning oxirlarida fan-texnika yanada rivojlanib, taraqqiy etishi mumkin va boshqalar. Bunday hukmlar **ehtimollik hukmlari** deb ataladi. Narsalar bilan xususiyatlar o'rtasidagi aloqani taxminan emas, balki haqiqatdan aniq bilganimizda biz o'z fikrimizni mana bunday shaklda izhor qilamiz. Fakultet kutubxonasida ko'p yangi kitoblar mavjud. Maktabimizdagi kimyo xonasi juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan. Bunday hukmlar **voqelik (assertorlik) hukmlari** deb ataladi.

Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, butun dunyoda tinchlik g'alaba qozonishi muharrar, sezgilarning intensivligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Bunday hukmlar **zaruriy (apodiktik) hukmlar** deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa, voqelik, hodisa bilan uning xususiyati o'rtasida mustahkam bog'lanish borligini va bu bog'lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi. Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo'l bilan hosil qilinishi ta'kidlab o'tiladi. Birinchi yo'l bilan hukm hosil qilinganda idrok qilish zarur bo'lgan narsalarning bevosita o'zi ifodalanadi. Ikkinchi yo'l bilan esa bevosita mulohaza yuritish yordami bilan hukm amalga oshiriladi. Masalan, bu avtomobilning yangi modeli. Mazkur misolda hukm chiqarishning birlamchi yo'li aks ettirilgan. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jihatdan mulohaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular chiqaradigan hukmning to'g'riligi amaliyotda keyinchalik tasdiqlanadi. Bu ikkinchi yo'l bilan hukm chiqarishga misoldir.

Xulosa chiqarish

Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. **Xulosa chiqarish** shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Masalan, har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakatshaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan, demak issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm yakka hukm bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham xulosa chiqarish ham voqelikni bevosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan oldingi ikki hukmga asoslanib, uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shu sababdan xulosa chiqarishda fikr o'rtasidagi shunday bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiq hukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: ***induktiv, deduktiv va analogiya***.

Induktiv xulosa chiqarish - bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi, yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va hoidalar yaratiladi. Masalan, temir elektr tokini o'tkazadi, po'lat elektr tokini o'tkazadi, mis elektr tokini o'tkazadi, ruh elektr tokini o'tkazadi. Demak, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, degan umumiy xulosa chiqaramiz.

Deduktiv xulosa chiqarishda umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki jo'z'iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Temir metaldir. Demak, temir ham elektr tokini o'tkazadi.

Analogiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilarining o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqaramiz. Analogiya deb narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytiladi. Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg'on bo'lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko'pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, jo'z'iy ikki yakka hukmlarga asoslanib, jo'z'iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. Masalan, bog'cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi; adamlar darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg'a olib kelgan bo'lsalar kerak. Bu bolaning mulohazasini tahlil qilib ko'rsak, uning fikr yuritishi mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shoxidi bo'lamiz. O'tgan galda adam ismini aytib chaqirib kelgan edilar, yana chaqirayotirlar. Albatta, adam menga sovg'a olib kelganlar, deb xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda murakkab qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilmasa-da, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Tushunchalar

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi. **Tushuncha** deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishni tushunamiz. Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Shu sababli tushunchaning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yurtishga to'g'ri

keladi. Masalan, odam ongli mavjudotdir degan tushunchani oladigan bo'lsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinyapti.

Tushunchalar odamning turmush tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topa boradi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o'qish jarayonida bolada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalar tarkib toptirishdan iboratdir. Demak, katta odamlarga nisbatan bolalarda hali tushunchalar juda oz bo'ladi.

Odatda tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga ajratiladi. Alohida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masalan, stol, divan, qayrag'och, traktor va hokazo. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgantushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan, og'lik, o'zunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymati haqidagi tushunchalar va hokazo.

Tushunchalar ko'lami jihatidan 3 turga: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to'planma tushunchalarga bo'linadi. Yakka tushunchalar yakka narsa va hodisalar haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sirdaryo tushunchalarini misol qilib keltirsa bo'ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan, kitob, maktab, yo'ldo'z, talaba va boshqalar.

To'planma tushunchalar bir jinsda bo'lgan narsa va hodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan, paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiy to'planma tushunchalar bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Mo'zeyi tushunchasi, yakka to'planma tushunchaga oiddir. Guruh,

jamoa, halq, millat va boshqalar, umumiy to'planma tushunchasiga misol bo'la oladi. Yetti og'ayni yo'ldo'zlar to'plami, Hamza teatri jamoasi, Paxtakor futbol jamoasi kabilar yakka to'planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan so'z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan so'z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, halq degan tushuncha bir so'zdan, o'zbek halqi ikki so'zdan qahramon o'zbek halqi uch so'zdan, ozodlik uchun kurashayotgan halqlar, degan tushuncha to'rt so'zdan tashkil topgan.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya'ni klassifikasiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So'zlar, belgilar, simvollar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. **I.P.Pavlov** ta'biri bilan aytganda, so'z ikkinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi.

Shunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, atamalar yuzaga kelaveradi, iste'moldagilari esa yangi mazmun kasb etadi. Determinizm tamoyiliga binoan so'zlar yangi tushunchalar yaratilishiga vosita bo'lib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tushunchalar zamirida yangi so'zlar va iboralar vujudga keladi, yoinki yangicha talqin qilish kuchayadi. So'z bilan tushunchalarning chambarchas bog'lanishi va munosabati filogenezda ham ontogenezda ham operasional va funksional xususiyatlarni yo'qotmaydi.

13.5.Tafakkur turlari

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari xatti-harakat motivlari narsalarga qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli tumandir. Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikasiya qilinadi.

Professor E.G'.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

Tafakkur turlari	
Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli,
Topshiriq xarakteriga ko'ra	Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy
Fikr yoyiqligiga ko'ra	Konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv
Fikrning originallik darajasiga ko'ra	Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

V.Karimovaning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi.

Tafakkur turlari	
Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy
Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra	Nazariy, amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	Konvergent, divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	Reproduktiv, produktiv (ijodiy)

Shuningdek, ayrim adabiyotlarda tafakkur klassifikasiyasi quyidagi tarzda ham ifodalanadi.



A.V.Petrovskiy muharrirligida chop etilgan, "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkurni quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: *ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum nazariy tafakur* turlari va boshqalar.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar, keyinchlik unda nazariy faoliyat ajralib chiqqan. amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bog'langandir.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turiga psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-harakat tafakkuri odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytda fikrlash jarayonini nazarda tutadi. "Psixologik lug'atda" ko'rgazmali harakatli tafakkur amaliy tafakkurning bevosita idrok qilayotgan narsa va hodisalar haqida harakatlar yordami bilan amalga oshiriladigan fikrlash turi, deb tavsiflanadi.

Sof psixologik faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasak, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buning uchun insonning

ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishdan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davrini amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat negizida aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zlari o'ynayotgan o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilingan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laqlarga ajratilganlarni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ularni ob'ektni sindirib yoki bo'zib bo'lsa ham, ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi, mayli kuchli bo'ladi. Shu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha bo'zib, to'zatish yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazlitafakkurturi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'at"da ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E.G'oziev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko'pincha boqcha yoshidagi bolalarda, ya'ni 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan alohasi avvalgidek to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi. 7 yoshga yaqin bolalarga hamirdan qilingan mutlaqo bir xil, hajmi jihatidan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqada hamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to'la bo'ysunadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali-obrazli shaklda o'tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi hamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularning ichki bog'lanishlari o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Ob'ektlarni fazoda joylashgan o'rni tashqi, nomuhim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlarni bo'yining baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab***ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur***

turlariga ajratiladi. Intuisiya deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri ham kiradi. Moddiy borliqni adekvat aks ettirish, fikr yuritish, tanqidiy va sinchkov bo'lishni taqazo etadi. Binobarin, narsa va hodisalarni atroflicha bilish uchun ob'ektiv baho berish zarurati tug'iladi, bu esa o'z navbatida fikr yuritish ko'lami keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam bo'lishini talab qiladi.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab

turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shirin his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir matn yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib, aqliy mehnat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Ulug' rus olimi **D.I.Mendeleevning** hikoya qilishicha, u elementlar davri tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kecha-yu, uch kundo'z betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D.I.Mendeleev uyqudan, uyg'onib, bir parcha qog';ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'ygan.

Ko'pincha psixolog va fiziologlarning ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda echimini hech kutilmaganda yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonlarining nihoyasiga yetishidir deb baholamoqda.

Yirik fiziolog hamda psixolog**V.M.Bexterevning** izoqlashicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan masala to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishidan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab barqaror psixik holati hukm surishidir.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur ***yaqqol-obrazli tafakkur*** deb ataladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oily matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, abstrakt tafakkur yordamida mulohaza borliq to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur ***nazariy tafakkur*** deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan ob'ektlarning mohiyati, mazmuni mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek ularning ahamiyati va funksiya hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb nomlash an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Masalan, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sovet psixologlari tomonidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sovet psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiylar, keyinchalik S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Galperin, R.G.Natadze, D.B.El'konin, V.V.Davidov, A.M.Matyushkin va boshqalar shug'ullanganlar.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab olamiz. Shuning uchun quyosh va oy tutilishini, yo'ldo'zlar tizimini harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan ***umumlashgan tafakkur*** deb ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratilishiga yo'naltirilgan fikr yuritiladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarini, aqliy harakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar faoliyatidagi konspekt yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ustida ishlash kabilar amaliy tafakkurga yaqqol misoldir.

Muayyan fikrni chin yoki yolg'onligini ob'ektiv dalillar bilan isbotlash o'rniga, inson shaxsining ijobiy yoki salbiy sifatlari bilangina cheklanib qolishdan iborat tafakkur turi avtoritar tafakkur turi deb ataladi. U ko'pincha odamlarning muayyan soha bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining yetarli darajada o'smaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, psixologiyada bir-birlari bilan o'zviy ravishda bog'langan mulohaza yuritishdan iborat tafakkur jarayonini diskursiv tafakkur deb ataladi.

Ijodiy tafakkur - murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga gumon va hayajon, shubha qislaridan halos etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi:

qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tadbiq qilish va boshqalar.

Ijodiy fikrlashni ta'minlovchi omillar:

Ψ Fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo'lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak.

Ψ Muammo yoki masalani hal qilish zarur bo'lgan barcha bilimlarni tadbiq qilish uchun intilish.

Ψ Masalaga, muammoga taalluqli gipoteza olg'a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to'g'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda variasiyalar haqidagi mulohaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratiladi va hokazo.

Ψ Muammo oldiga qo'yilgan farazni tekshirish zarurati tug'iladi. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish ob'ektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar taxmin qilinadi yoki o'ylab topiladi.

Ψ Muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarni to'g'riligiga qanoat hosil qilish uchun echuvchi, uni tekshirish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi.

Psixolog**V.A.Kruteskiy** ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o'quvchilar o'quv faoliyatida sinab ko'rgan. Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V.A.Kruteskiy turlicha nom bilan ataydi:

1. Savol aniq qilib qo'yilmagan masalalar.
2. Berilganlari yetishmaydigan masalalar.
3. Ortiqcha ma'lumotlari bo'lgan masalalar.
4. Bir necha yo'l bilan yechiladigan masalalar.
5. Mazmuni o'zgarib turadigan masalalar.

6. Isbotlashga doir masalalar.
7. Fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga doir masalalar.

Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqish jarayoni bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi.

Psixologiya fanida tafakkurni ***realistik va autistik*** turlarga ajratiladi. ***Realistik tafakkur*** qurshab olgan atrof-muhitni o'rganishga, aks ettirishga qaratilgan fikr yuritish bo'lib, u mantiqiy qonun va qoidalar yordami bilan voqelikni in'ikos qiladi. ***Autistik tafakkur*** insonning hohish va istaqlarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tafakkur harakatlari o'sha shaxsning o'z tilaqlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan fikr yuritilishdan iborat individuallik yoki individualistik tafakkurdir.

Masala yechimini qabul qilishga va informasion tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan fikr yuritish ***vizual tafakkur*** deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiq harakatlar yoki anglanilmagan operasiyalar, chunonchi obrazlar manipulyasiyasi va transformasiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va "aqliy anglanish"dan namoyon bo'ladi.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri **Z.I.Kalmikova** o'z tadqiqotlarida tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi. Qisqa vaqt birligi ichida yangi orginal fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deb ataladi. Reproduktiv tafakkur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor holda" undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atoqli rus psixologi **B.G.Ananev** va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan taniqli psixolog**I.S.Yakimanskaya** tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda rasional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan o'zviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

14.6.Tafakkur sifatlari

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operasiyalarining munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyat-lari, sifatlariga bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlar kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insoning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to'g'risida ongda qay miqdorda, ko'lamda mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o'tilgan xarakterdagi g'oyalar to'lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo'ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafovutlanadi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to'liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo'sinda sistemalashganligiga qarab to'g'ri va rasional yo'l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni hamrab olgan tafakkur ***keng tafakkur*** deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon

yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. ***Tafakkurni mustaqilligi*** deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko'z

oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. ***Aqlning sertashabbusligi*** deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taaalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. ***Aqlning pishiqligi*** vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan eski yo'l hamda usullardan foriq bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi ob'ektiv va sub'ektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga, ba'zan etalonga asoslanib amalga oshsa, unday tanqidiylik ob'ektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub'ektiv xatolarga, umuman sub'ektivizmga oqib ketsa, bunday holda sub'ektiv tanqidiylik deyiladi. Sub'ektiv tanqidiylik salbiy oqibatlarga olib keladi, shuningdek insonlar o'rtasida anglashilmovchilik g'ovini vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona rasional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar tayyor mahsulotlar quliga aylanadilar, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'rniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan holi emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan o'zviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lami va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmoqimiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob bera boshlashi kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga - insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz salbiy emosiyalar uning tafakkurini

tormozlab, muvaffaqqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funksiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan o'zviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni ajratib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Tafakkur operasiyalarini ajratib ko'rsating?
3. Tafkkur shakllari nimalarda ko'rinadi?
4. Tafakkur sifatlarining mazmunini izohlang?
5. Tafakkurning turlarining mohiyatini izohlang?
6. Tafakkurdagi individual farqlar nimalarda ko'rinadi?

Test topshiriqlari

1.Qaysi olim tafakkurni predmetli amaliy faoliyat deb ataydi?

A) M.V. Gamezo B) A.V. Petrovskiy V) S.L. Rubishteyn G) A.N. Leontev

D) P.Ya. Galperin

2.Shakliga ko'ra tafakkur qanday turlarga ajratiladi?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazliB) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsizV) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv,diskursivG) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviyD) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq

3.Fikr yoyiqligiga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazliB) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsizV) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv,diskursivG) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviyD) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq

4.Topshiriq xarakteriga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazliB) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsizV) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv,diskursivG) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviyD) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq

5.Fikrning orginallik darajasiga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazliB) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsizV) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv,diskursivG) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviyD) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'z-mantiq

6.Insonning tevarak atrofdan moddiy voqelik to'g'risida ongida qay miqdorda (ko'lamda) muloxazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nima deb ataladi?

A) mazmundorligi B) mustahkamligiV) epchillikG) samaradorlikD) tezligi

7.....moddiy dunyodagi narsa hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, sharoitlari ularning o'zaro bog'lanishlari munosabatlarini tafakkurimizda to'liq aks etishimizga aytiladi.

A) mazmundorligi B) mustahkamligiV) chuqurligiG) kengligi D) mustaqilligi

8."Tafakkur sub'ekt faoliyatining paydo bo'lishi" degan g'oyani ilgari surgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) M.V. Gamezo B) A.V. Petrovskiy V) S.L. Rubinshteyn G) A.N. Leontev

D) P.Ya. Galperin

9.Tafakkur-bu orienterlash-tadqiot faoliyatini orienterovka jarayonidir, ya'ni orienterovka jarayoni, orienterovka faoliyat. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) M.V. Gamezo B) A.V. Petrovskiy V) S.L. Rubinshteyn G) A.N. Leontev

D) P.Ya. Galperin

10.Qaysi olim o'z tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi?

A) A.V. Petrovskiy B) S.L. Rubinshteyn V) A.N. Leontev G) P.Ya. Galperin

D) A.V. Brushlinskiy

11.Qaysi qatorda tafakkur tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) insonning fikrlash faoliyati bo'lib atrof-hodisalarni to'la anglashga yordam beradi. B) muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan fikrlash faoliyati.V) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik munosabat va farqli jihatlarini ongda aks ettirilishi.

G) barcha javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob berilmagan

12.....shunday bir tafakkur operasiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy va xususiyatlarni tahlil qilamiz.

A) analiz B) sintez V) taqqoslash G) klassifikasiya D) abstraksiyalash

13..... shunday bir tafakkur operasiyasidirki narsa va hodisalarning ongimizda bo'lingan, ajralgan ayrim qismlarini bo'laqlarini fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib butun holga keltiradi.

A) analiz B) sintez V) taqqoslash G) klassifikasiya D) abstraksiyalash

14..... shunday bir tafakkur operasiyasidirki, bu operasiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

A) analiz B) sintez V) taqqoslash G) klassifikasiya D) abstraksiyalash

15." Agar siz tabiatning biror narsasini ravshan tushunib, olishni istasangiz uning o'ziga juda o'xshash bo'lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o'zidan juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashlik topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim hamma belgilarini payqab olasiz demak shu narsani tushunib olasiz" mazkur fikr qaysi tafakkur operasiyasining mazmunini ochib berishga qaratilgan ?.

A) analiz B) sintez V) taqqoslash G) klassifikasiya D) umumlashtirish

16.Bu operasiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlanadi. Mazkur fikr qaysi fikrlash operasiyasiga tegishli?

A) analiz B) abstraksiyalash V) taqqoslash G) klassifikasiya D) umumlashtirish

17.Qaysi qatorda umumlashtirishning turlari to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nazariy va amaliy B) tushunchali va hissiy-konkret V) o'xshashlik va umumiylik G) ob'ektiv va sub'ektiv D) umumiy va xususiy

18.Psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat alomatlarini topish va shu umumiylik asosida birlashtirish tushuniladi. Mazkur fikr qaysi fikrlash operasiyasiga tegishli?

A) abstraksiyalash B) umumlashtirish V) klassifikasiyalash G) konkretlashtirish

D) sistemalashtirish

19.Predmetlarni obe'ktiv muhim belgi asosida umumlashtiradi. Mazkur umumiylashtirish qanday nomlanadi?

A) ob'ektiv B) sub'ektiv V) tushunchali G) hissiy-konkret D) xususiy

20.Predmetlar topshiriq talabiga tashqi belgi bilan umumiylashtirish nima deb nomlanadi?

A) ob'ektiv B) sub'ektiv V) tushunchali G) hissiy-konkret D) xususiy

14-MAVZU: EMOTSIONAL JARAYONLAR. HISSIYOT.

Reja:

14.1.Hissiyot haqida tushuncha

14.2.Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari

14.3.Hissiy holatlarning ifodalanishi

14.4.Yuksak hislar

Tayanch iboralar

Ambivalentlik (yunon. Ambi - tevarak, ikki tomondan, lot. valentia - kuch) - bir vaqtda qarama - qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi (mas., kulgu va qayg'u, xursandlik va kulfat).

Apatiya (yunon. Apatheia - hissiyotsizlik) - kishining tevarak - atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishilarsiz befarq holati.

Astenik (yunon, astheneia - kuchsizlik, holsizlik) - shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Asteniya (yunon. Astheneia - kuchsizlik, holsizlik) - kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish.

Affekt (lot. Affektus - ruhiy - hayajon, ehtiros) - kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat.

Kayfiyat - birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

Senzitivlik (lot. sensus hissiyot) - turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

Stenik hislar (yunon. Sthenos kuch) - shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va x.k.)

Stress (ing. Stress - zo'riqish) - kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

Emotsiya (nor. emavere – uyg'otish, to'lqinlantirish) - odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

Hissiyot - odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com

14.1.Hissiyot haqida tushuncha

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni hamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga sub'ekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni bo'zib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga

xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Theories of Emotion

What are the components of an emotion?

Emotionsare psychological responses of the whole organism involving an interplay among (1) physiological arousal, (2) expressive behaviors, and (3) conscious experience

Expressed Emotion

How do we communicate nonverbally?

Much of our communication is through the silent language of the body. Even very thin (seconds-long) filmed slices of behavior can reveal feelings.

What is the function of fear, and how do we learn fears? Fear has adaptive value because it helps us avoid threats and, when necessary, cope with them. We are predisposed to some fears, and we learn others through conditioning and observation.

Hissiyot (emotsiya), Tushkunlik va Sog'lik.

Hissiyot haqida qarashlar. 1.Hissiyotning tarkibiy qisimlari nima ?

Emotsiya psixalogiyada butun organizm bilan reaksiyaga kirishib quydagilar bilan o'zaro bog'lab turadi:1)pisixologik uyg'onish; 2) ma'noli hatti-harakatlar; 3) Tushunarli tajriba. His qilingan hissiyot. Biz so'zsiz insonlar bilan qanday aloqadamiz?

Sizning so'zsiz insonlar bilan ko'plab aloqalaringiz tananing jimligi bilan bogliq. Hattoki eng qisqa lag'zada ko'ringan hatti-harakat hissiyotga tasir etishi mumkin. Qo'rquvning vazifasi nima va biz uni qanday o'rganamiz?

Qo'rquv moslashuvchan davolovchiga xususiyatga ega, chunki u tushkunlikdan bizga yordam beradi, qachon kerak bo'lsa uni yoqotadi. Biz ba'zi qurquvlarga ishonamiz va boshqa shart va kuzatishlarni o'ylaymiz.

(Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. *www.worthpublishers.com*

Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; **A.V.Petrovskiy** tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida **hissiyot** - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. **M.Vohidovning** "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida **hissiyot** deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. **Q.Turg'unov** muallifligidagi lug'atda **hissiyot-**shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor **E.G'oziev** muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida **hissiyot-** odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob'ektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z- o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak; jumladan professor E.G.'G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida **emotsiya-**odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya - shaxsning voqelikka o’z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog’liq bo’lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko’rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo’lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni hamrab oladi.

Hissiyotlar o’zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog’liq bo’lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg’usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini bo’zib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo’ladi.

Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy- tarixiy sharoit bilan bog’liq bo’ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o’zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo’ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo’ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug’ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o’ziga ta'sir qilib, uni o’zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o’zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o’zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o’rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi xursand, ruhi tetik bo’lganda ishi ham barakali bo’ladi, aksincha odamning dili ham, qandaydir tashvishli yoki g’amgin bo’lganda qo’li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo’lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg’ularga boy, tafakkuri o’tkir, nutqi burro bo’ladi.

Hissiyot odamda sodir bo’layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo’lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo’zg’ovchilardan aniq bo’lib ajraladi, ba'zilari bir-birlari bilan qo’shilib ketadi va paydo bo’lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg’otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo’zg’atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo’ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning **impressiv tomoni** deb ataladi. **Impressiv** so’zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan buziladigan dinamik streotiplar orqali biror hissiyot va emosional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli reflekslar, nerv bog’lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning "o’zgarishi" salbiy emosional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko’p tana o’zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o’zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning ob'ektiv ko’rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo’lgan, ya'ni ovozning o’zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo’ladigan jarayonning qayta o’zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emosional harakatlarning **ekspressiv tomoni** deb ataladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo’lib uchraydi. Masalan, yoqimli- yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g’azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar sub'ektiv xarakterga ega bo’ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo’ladi. Masalan, hushchaqchaq odam bilan g’amgin odamning yuz ifodasini ko’z oldimizga keltirib ko’rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki taraflamalik deb ataladi. **Ambivalentlik** - lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir ob'ektning o’ziga nisbatan bir vaqtning o’zida paydo bo’ladigan bir-biriga qarama - qarshi emosional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shilib va biri ikkinchisiga o'tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

14.2.Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqqan paytida esa rangi o'chib, haltirab ketadi, xattoki odamning ovozida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekresiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo'rqish paytida "Yuragi orqaga tortib ketdi", "Sovuq ter bosib ketdi" kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oraliqi bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: *"Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak".*

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli bo'zib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab qismni tashkil qiladi.

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqaliboshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Inson va hayvonlardagi emotsiyalar

Odam his-tuyg'ulari bilan hayvon hissiyotlari o'rtasida juda katta farq bo'ladi. Odamda juda ko'p miqdorda his-tuyg'ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda uchramaydi. Shuning uchun ham odam ham xayvon uchun umumiy bo'lgan g'azablanish, qo'rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik,

xursandchilik, g’amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi. Shu o’rinda S.Shexterning emosional faktorlarning paydo bo’lishi kognitiv-fiziologik konsepsiyasini keltirib o’tish joiz.



Insoniy emotsiyalar "insoniylashtirilgan" ijtimoiy sharoit bilan bog’liq holda namoyon bo’ladi. Emotsiyalarning "insoniylashuvi" shunday namoyon bo’ladiki, ichdan kechadigan hissiyotlar mazmuni, juda boy va murakkabdir. Odamlar bilan mehnat, siyosat, madaniyati, oilaviy hayot o’rtasida paydo bo’lgan munosabatlarning ko’pligi, sof insoniy hissiyotlarning paydo bo’lishiga olib keladi.

Ular bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshiga ochiq ko’ngillik bilan jilmayish, keksalar va nogironlarga hurmat bilan joy berishni o’rgatdi. Odam o’z hissiyotlarini o’zi boshqaradi. Ba'zi kishilar emotsiyalarini yashirish niyatida qarama-qarshiemotsiyalarni ifodalaydilar. Masalan, qayg’urish yoki qattiq og’riq paytida kulimsirash, kulgilari kelgan paytda yuzlarini jiddiy, o’ychan holga keltira oladilar. Lekin o’zining imo- ishoralari va mimikalarini boshqara olishga qaraganda nafas olish, qon aylanish va ovqat hazm qilish tizimidagi o’zgarishlarni ushlab qolish juda qiyin bo’ladi. Odam xayajonlangan paytda bir maromda nafas ola biladi, ko’z yoshlarini ushlab qola oladi, lekin rangini o’zgartirish yoki qizartirishga qodir emas. Ammo emotsiyalarni paydo qiluvchi narsalardan o’zini chalg’itishi mumkin.

14.3.Hissiy holatlarning ifodalanishi

Hissiy holatlarning ifodalanishi ***birinchidan,*** ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo’l, oyoq harakatlari), ***ikkinchidan*** organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o’zgarishida, ***uchinchidan*** tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o’zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo’ladigan o’zgarishlarni o’z tarkibiga oladi.

His-tuyg’ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o’zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so’lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o’zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o’zgarishlari, "ovoz mimikasi" va gaplar tarkibining sintaksis o’zgarishi, "tutilmasdan gapirish", yoki alohida"silliqlik" hamda "ifodalilik"ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o’zining to’la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emosional kechinmalari vaqtida nutqining tezligi o’zgaradi. Ko’pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o’zgaradi. O’tkazilgan tekshirishlar shuni ko’rsatadiki, g’amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so’zlashgan kishining tovushi ham bo’linib-bo’linib chiqadi.

Hislarni kechirish shakllari

Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo’ladi. Ba'zan hissiyot to’satdan, darhol paydo bo’ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo’lib ketadi, darhol g’azabga keladi,

achchiqlanadi va hokozo. Lekin ba'zan shu hissiyotlar o'zi dafa'tan qo'zg'almaydi, balki asta-sekin tug'ila boshlaydi. Shunday hissiy kechinmalarning qay darajada tez paydo bo'lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo'lmaydi. Emosional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirilganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislattuzilishiga sabab bo'lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo'lishi va o'tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: *hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat* va boshqalar.

Hissiy ton. hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida **hissiy ton** sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi. Professor E.G'.G'oziev tomonidan **hissiy ton**-u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Q.Turg'unov lug'atida **hissiy ton** - hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emosional bo'yoq yoqimli va yoqimsiz kechinma bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'g'langan hissiyot. Masalan, og'riq bir qator qo'zg'ovchilar yaqqol ifodalangan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi. Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar **stenik** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs "parvoz qiladi", "yo'ldo'zni narvonsiz oladi", kimlargadir holis yordam qilishga shoshadi. Faollik qilib, tinchimaslik uning sifatiga aylanadi. Q.Turg'unov lug'atida stenik hisga quyidagi ta'riflar uchraydi: **stenik hislar** - shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat **astenik** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emosional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o'zining aniq tashqi ifodasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Emosional o'zgarishlar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko'rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g'azablanganligini yoxud biror narsadan qo'rqib ketganini va shu kabi his-tuyg'ularning ko'pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlari **ifodali harakatlar** deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosiy o'rinni ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rin egallaydi.

Birinchidan, emotsiyalar nafas olish a'zolarining ishlarida o'zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg'ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va ampilitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtida-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;

b) faol xafalikda 9 marta;

v) qo'rqishda 64 marta;

d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emotsiya imo - ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlarida ko'rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-basqara va qad-qomatning o'zgarishlari, ayrim tashqi sekresiya bezlarining faoliyati yosh, so'lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ya'ni ularning tezligi, kuchi, koordinasiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'idir.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. *"Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi*" - degan edi. Leanardo da-Vinchi.

Rus psixologi **P.M.Yakobson** tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatga, shuningdek, ko'zning qanchalik chaqnab turishiga bog'liqdir. Ko'zning qanchalik chaqnashi ko'z yoshining miqdori, ko'z shilliq pardasidagi tomirlarning kattalashuvi bilan belgilanadi. Maskaning tagida ko'rinib turgan ko'z o'zining ifodasini yo'qotgan bo'ladi. Ko'z, lab, qovoq, qoshning har xil holati, hattoodam chehrasini ham turli qiyofaga kiritadi.

Odam hissiyotlarini bildirishning eng nozigi va eng kuchlisi san'at, xususan, mo'zika bilan lirik she'rlardir, ularni tom ma'noda hissiyotning tili deyish mumkin.

Odam o'zini va gavda harakatlarini, shuningdek tovushni ataylab chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi "muayyan hissiyotlarni o'zi kechirmayotgan bo'lsa ham o'sha hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar qila oladi.

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarida badanning xilma-xil ifodali harakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'amginligi muhim ahamiyatga ega. Shunchaki bir xo'mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish kabi ifodali harakatlar kishining maqsadini anglatadi.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi. Jumladan Q.Turg'unov lug'atida shaxsning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan nisbatan barqaror umumiy emosional holati, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi, deb ta'kidlanadi. Professor E.G'.G'oziev fikricha, **kayfiyat** shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emosional holatdir. Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmaydi. Odam bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish- yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Qilayotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan yomon baho odamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, birinchi navbatda odamning sihat-salomatligi bilan ham bog'liqdir. Masalan, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat choq bo'lmaydi.

Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi, ya'ni xushchaqchaqlik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchaq, g'amgin, sertashvish deb turli guruhlarga bo'linadilar. Lekin shuni aytish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini bo'zib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda "sirkasi suv ko'tarmaydigan" yoki "jahli burnini uchida turadigan" odamlar deyishadi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga bo'zavermaydi.

Inson kayfiyatini paydo bo’lishiga va o’zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi ikkita omillarni tahlil qilish lozim: Ulardan bittasi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli bo’lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi); b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchisini bir manba sifatida talqin qilish mumkin, bu-sub'ektiv, shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o’qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi. Ichkikkinchi sub'ektiv munosabatlar, iliq psixologik muhit, muloqatmandlik maromi, rag’batlantirish, muloqot o’rnatish uslubi, shaxsiyatiga tegmaslik, teng huquqlilik, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokozo.

Affekt tushunchasiga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratadigan bo’lsak bu ham shaxsning kuchli emosional holatlari bilan bog’liqdir. Q.Turg’unovning lug’atida aytilishicha, affekt tez va kuchli paydo bo’lib, shiddat bilan o’tadigan qisqa muddatli emosional holatdir. A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida affekt haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo’luvchi, shaxsni tez hamrab oluvchi, jiddiy o’zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar ustidan irodaviy nazorat buzilishiga yetaqlovchi organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emosional jarayonlarga aytiladi. M.Vohidov darsligida affekt to’satdan tez paydo bo’lib, tez orada o’tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Affekt lotincha so’z bo’lib, ruhiy hayajon ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko’pincha to’satdan paydo bo’ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo’ladi va bunday holatda organizm bo’shashib, harakatsiz bo’lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko’pincha odam birdaniga qo’rqqanida, to’satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o’zini yo’qotib qo’yish ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarning barchasidan uzoqlashib, o’z hissiyotining oqibati to’g’risida ham o’ylamaydi, hatto tana o’zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay boradi. Kuchli zo’riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po’stini to’liq egallay boshlaydi, qo’zg’alish po’stloq osti nerv tugunlaridan oraliq miyada avj oladi, holos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g’azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o’zida kuchli hohish sezadi.

Ma'lumotlarning ko’rsatishicha ko’pincha hissiyotlar affektiv shaklda o’tishi tajribalarda sinab ko’rilgan. Jumladan: 1) teatr tomoshabinlarida; 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarda; 3) es-xushini yo’qotgan telbasimon odamlarda; 4) ilmiy kashfiyot laxzasida; 5) tasodifiy qizg’in uchrashuvlarda, jo’shqin shodliklarda mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o’zini tushunish, o’zini qo’lga olish, uddalash qurbiga ega bo’ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo’qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, o’ylamasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar ma'suliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo’ladi, lekin shaxs har bir harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o’tib bo’lgandan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, barcha narsalarga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affektiv qo’zg’alish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o’qtin-o’qtin kuchayishi yoki susayishi sodir bo’lib turishi mumkin.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress-ffektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko’ra kayfiyatlarga yaqin bo’lgan his-tuyg’ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Profssor E.G’ozievning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og’ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug’ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo’rig’ishlar sifatida ko’rsatiladi.

Stress - inson organizmini haddan tashqari zo’riqish natijasida paydo bo’ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko’rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1. ***Konstruktiv*** - biz turidagi (ko'pchilik orasida);
2. ***Destruktiv*** - men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlari va fiziologik tizimida stress holati bo'lmasligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni fiziologik va psixologik turlari mavjud. ***Fiziologik stress*** - bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Fiziologik stress organizm o'ta zo'riqishi, temperaturaning baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zida odam organizmida qattiq og'riq bo'lganda, og'riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo'rquv, xavotirlanish paydo bo'ladi va stress holatiga olib keladi.

Psixologik stress-odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress .

Psixologik stress informasion stress va emosional stress turlariga ajraladi.

Informasion stress axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi ikkilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo'riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo'riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatda tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta'sirni qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Emotsional stress-ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojarolar, to'satdan ishdan bo'shatish yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda) ko'rinadi.

Olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlar ko'proq stresslar hisoblanadi.

Falokat - bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar shuni ta'kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong'in bo'lishi kabi falokatlarning inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Hayotiy o'zgarishlar - bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. Masalan, yaqin kishisining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rnini yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inhirozli vaziyatni boshidan o'tkazsa, qattiq kasallanishi va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.

Kundalik tashvishlar - bu ish joylarida sodir bo'ladigan qiyinchiliklar, o'qish joylaridagi o'quvchilarning o'quvchilarga, o'qituvchilarning o'qituvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo'ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, mayda stresslar to'planib borib inson sog'liqiga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emosional va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin

Stress ayrim odamlarda yengil kechadi, ayrim odamlarda jiddiyroq, qiyinroq o'tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi: uning hosil bo'lishi stressli vaziyatga qay darajada munosabatda bo'lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog'liqdir. Masalan, optimist odamlar stress holatini taqdirning bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug'ildi, deb qabul qilar ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi va ular vaqtida ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar. Psixologlar **Maykl Shayer** va **Marlz Karver** fikricha, optimist inson eng og'ir, qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi, o'z organizmida stress moslashib olishiga yo'l qo'ymaydi.

Umuman olganda stress atamasi XX-asrning 40-yillariga kelib ommaviylashgan. Bunga sabab stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalanishni o'rganish, chunki stress turli salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Birinchi bo'lib stress bo'yicha 1932 yili fiziolog **Uolter Kennon** va 1936 yilda vrach Gans Sele chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. **U.Kennonning** gomeostaz nazariyasi asosida 1933 yilda "Psixika va tana" asari yaratildi. Bu asarda barcha tashqi sharoit o'zgarishlariga optimal (to'la) moslasha oladigan bir yaxlit organizm haqida yozilgan. Organizmdagi turli o'zgarishlar, ya'ni ochlik, qo'rquv, jahldorlik holatlarini ko'p yillar ko'zatib o'rganish natijasida "gomeostoz" ya'ni organizmni ichki holatini davomiyligi nazariyasi yaratildi. Uning fikricha, gemostoz va tashqi muhit ta'sirida asosiy o'rinni markaziy va vegetativ nerv tizimi egallaydi. Markaziy nerv tizimi tashqi-muhit, bilan vegetativ nerv tizimi esa gemeostoz holatini saqlab turadi. Bundan organizmni "qochishi va kurashishi" uchun energiya ishlab chiqaruvchi simpatoadrenal tizimi muhim rol o'ynaydi.

Quyida Jems Lange va Kenon-Bard nazariyasining mohiyati keltirilgan.



U.Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach **G.Sel'e** (1936-1976 yillar) o'zini 40 yillik ilmiy izlanishlari bilan U.Kennon nazariyalariga qo'shimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekinligini aytib o'tgan. G.Sel'e stress har doim ham zararli emas, ba'zan inson organizmiga yordam, ko'mak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qolganda odam yashash uchun kurashish o'z ehtiyojini qondirish uchun faollashib, o'zi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini o'rganib chiqqan.

G.Sel'eni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bog'liqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi.

- *xavotirlik bosqichi;*
- *moslashish bosqichi;*
- *o'ta charchash bosqichi.*

Xavotirlik bosqichida taloqning kichrayishi, yoq qavatining yo'qolishi, oshqozonda o'tkir yallig'lanishning sodir bo'lishi, buyrak tepasida likosidlarning kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga teri jarohatini pasayishi, ko'z yoshlanishi, so'lakning ajralishi kuzatiladi. Agarda ta'sir kuchli bo'lsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va to'qimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli ta'sir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar ta'sir kuchli bo'lsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

O'ta charchash bosqichi - organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga ko'ra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Chet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini ajratadilar. Ularning fikricha, ***ijtimoiy stress*** asosida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy yashash sharoiti yotadi. Ijtimoiy ziddiyatlar doimiy o'ziga ishonmaslik va keskinlikni yuzaga keltiradi.

14.4.Yuksak hislar

Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo'lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar ***yuksak hislar*** deyiladi. Yuksak hislar o'z tarkibiga birinchi soddaroq ko'rinishdagi turli hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik , axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo'lib, insonning mehnatga bo'lgan hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o'rinni egallaydi,

Mehnat faoliyatida shaxs:

1. *Biror maqsadni anglaydi.*
2. *Uni e'tirof qiladi yoki inkor etadi.*
3. *Maqsadga erishish yo'llarini baholaydi.*
4. *Uni tadbiq etish usullari va qurol vositalarini ma'kullaydi yoki ma'qullamaydi.*
5. *Ularning tanlanganligiga shubhalanadi.*
6. *Inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi va hokazo.*

Axloqiy hislar odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum axloqqa, ya'ni ijtimoiy axloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

Shaxsning yetakchi axloqiy hislaridan biri bu burch hissidir. Bu his odam yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oila, maktab, ishlab chiqarish, korxona) manfaatlari nuqtai nazaridan turib, harakat qilish lozimligini anglaganda ham kechiriladi. Odam o'zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichdan his qilib qayg'uradi. Kishilar hayoti va faoliyatida o'zaro yordamlashish, hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi.

O'rtoqlik munosabatlarining yuksak cho'qqisi do'stlik hissida namoyon bo'ladi. ***Do'stlik hissi*** o'rtog'iga mehribonlikda uni ko'rish u bilan gaplashish o'z fikr hislari bilan o'rtoqlashishda namoyon bo'ladi. Haqiqiy do'stlik hissi do'stga nisbatan yuksak talabchanlik bilan bog'liqdir. Xato va kamchiliklarni to'zatishga ham yordam berish, do'stlikka yaqin bo'lgan muhim axloqiy his muhabbat hissidir. Muhabbat jamiyatda nikoh va oilaning axloqiy psixologik asosi hisoblanadi.

Agar odamning jamiyatdagi xatti-harakatlari axloq normalariga mutlaqo zid bo'lsa, odam vijdon azobiga uchraydi. Vijdon azobi murakkab hissiy holatdir. Mobodo odam biror axloqsiz harakat qilib, vijdon azobiga uchrasa, undan qutilishi juda qiyin bo'ladi. Chunki vijdon azobiga uchragan

odam jamiyat oldida o’zining nohaqligini biladi va o’zini-o’zi so’roq qila boshlaydi. Shuning uchun odam o’zidan-o’zi qochib qutila olmagandek, vijdon azobidan ham hech qachon qochib keta olmaydi.

Ma'lumki, vijdon azobi kishining qalbida chuqur ichki kurash hissini tug’diradi. O’z xatti-harakatida axloq tamoyillariga amal qilmagan, uyati ham vijdoni bo’lmagan kishilarni "vijdonsiz" odamlar deyiladi. Kishi yomon bir ish qilib qo’yganligi bu kishining o’ziga munosib emasligini, anglashi bir tomondan vijdonini qiynaydi, vijdon azobiga soladi, ikkinchi tomondan axloq talablariga xilof ish qilish bilan boshqalardan malomatga qolishni, ularni o’rniga nisbatan salbiy xislat paydo qilishni ham tushunadi. Masalan, mazkur jarayonga quyidagi misolni keltirib o’tish joiz. AQSH prezidenti R. Trumen 1945 yili 6 avgustda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlashga buyruq bergan edi. Amerikaning birinchi darajali uchuvchisi Mayor Klod Izerli Xirosimaga atom bombasini tashlab 300 000 kishini yostig’ini quritishda ishtirok etdi. Atom bombasi zarbidan o’lgan yosh bolalarni hariyalarni, xotin-qizlarni o’z ko’zi bilan ko’rgan Izerli vataniga qaytganda "Xirosima qahramoni"ni sifatida uni tantana bilan kutib olishadi.

Izerlini vijdon azobi kundan kunga battarroq qiynay boshladi. U vijdonini tinchitmoq uchun nafaqadan, hamma mukofatlardan voz kechdi, o’ziga berilgan ordenlarni qaytarib bermoqchi bo’ldi. Pul to’plab Xirosimaga yordam yubordi. Ammo vijdon azobi hamon uni ezardi, ta'qib qilardi, kechalari uxlolmasdan o’zini o’zi o’ldirishga urinib ko’rardi. Ammo natija chiqmadi, zora hamasalar, deb jinoyat qildi. Nihoyat Klod Izerli aqldan ozibdi, deb uni jinnixonaga yotqizdilar. **Estetik hislar** ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. ***Estetik his*** deganda biz go’zallikni idrok qilish, go’zallikdan zavqlanish va go’zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo’lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog’ manzaralari yaylovlarda qo’y va qo’zichoqlarning o’tlab yurishlari, baland qorli qoyalarni uzoqlardan mag’rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug’diradi yoki xuddi dengizdek ko’z ilg’amaydigan ko’m-ko’k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo’lib ko’rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko’tarinki ruh tug’diradi.

Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go’zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyjanoblik va razillik, nozik yoki dag’al hodisalar sifatida munosabatda bo’ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo’ladi va o’ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi.

Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko’p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, mo’zika va xaykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug’diradi. Bundan tashqari odamlarning o’zaro bir-birlari bilan bo’lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo’la oladi. Odamning qiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo’la oladi. Masalan, dag’al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o’rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko’p manbalarga ega bo’lgan murakkab hissiyotlardandir.

Intellektual hissiyotlar ham o’z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo’lgan hissiyotlardir. Intellektual hissiyotlar odamning bilish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan hissiyotlar bo’lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo’lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o’zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g’oya hamda e'tiqodlarni hayotga tadbiq qilish uchun bo’lgan kurashning qiyin daqihalarida unga madad bo’ladi.

Nazorat savollari:

1. Hissiyot tushunchasining mazmunini izohlang?
2. His-tuyg’ularning vazifalari nimalarda ko’rinadi?
3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?

4. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar o'rtasidagi farqni izohlang?
5. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
6. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?

Test topshiriqlari

1**. ..... tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo'ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.**

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyotG) affect D)stress

2.Unchalik kuchli bo'lmagan lekin juda uzoq vaqt davom etadigan hissiy holat bu.....

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G) affekt D) stress

3. .....to'satdan paydo bo'lib tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli holatdir.

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G) affect D) stress

4.....uzoq davom etadigan anchagina kuchli hissiy holatdir.

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G)affekt D)stress

5.....bu oddiy psixik holat bo'lib u inson organizmini umumiy holatidan yuzaga keladi va ehtiyojlarni qondirish jarayonida mavjud bo'ladi.

A) emotsiya B) kayfiyat V) stress G) hissiyot D) affekt

6. His-tuyg'u psixik holat bo'lib u qanday xususiyatlar bilan belgilanadi?

A) qoniqish yoki qoniqmaslik holatini mavjud bo'lishi; B) ijobiy va salbiy hislar;

V) nerv keskinligini yuzaga kelishi va keskinlikni yumshatish; G) barcha javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob berilmagan

7.Emosional holatlarning xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) shaxsni ob'ektga ijobiy munosabati; B) salbiy munosabati; V) ikkilamchi munosabat; G) barcha javoblar tog'ri D) to'g'ri javob berilmagan

8. His-tuyg'uni yuzaga keltiruvchi sabab bu.....

A) faollik B) qo'zg'atuvchi kuch V) kuchli ta'sirot G) stimul D) motivasion doira

9.Faolligiga ko'ra hislar qanday turlarga ajratiladi?

A)kuchli va kuchsiz, ijobiy va salbiy B) mimika va pantomimika V) apatiya va ekspressiya G) astenik va stenik D) salbiy va ijobiy

10.Inson faolligini oshiruvchi uni umumiy energiyasiga asos soluvchi hislar bu.....

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

11.Shaxsdagi faollikni ortga qaytaruvchi hislar bu.....

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

12.Shaxsdagi befarqlik, beparvolik holati bu.....

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

13..... hislarning spesifik namoyon bo'lishi bo'lib, u ovozdan mimika pantomimika yig'i, kulguda namoyon bo'ladi.

A) astenik B) apatiya V) stenik G) eksperssiya D) mimika

14.....insonni yuztuzilishida ifodalanishi bo'lib bunda idrok etilayotgan narsaga nisbatan munosabat aks etadi.

A) astenik B) stenik V) mimika G) pantomimika D) eksperssiya

15.....emosional holat bo'lib, u biror bir maqsadiga intilganda yuzaga keladi.

A) ko'tarinqiliq B) astenik V) stenik G) pantomimika D) eksperssiya

16.Munozarada asabiylashib affektiv holatga tushgan kishini tilini og'iz bo'shliqida 10 marotaba aylantirishini tavsiya etadi. Mazkur fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

A) L. N. Tolstoy B) I .M. Sechenov V) I. S. Turgenov G) I. P. Pavlov D) G. Sele

17.....ular jamiyat axloq normalariga bo'ysunishi yoki bo'ysunmaslik bilan namoyon bo'ladi.

A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar

D) to'g'ri javob berilmagan

18.....inson tomonidan bilish faoliyati jarayonini his etish holatidir.

A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar

D) to'g'ri javob berilmagan

19.Vatanparvarlik, milliy g'urur, tilga hurmat, milliy qadriyatlarga hurmat kabilar qaysi hislar tarkibiga kiradi?

A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar

D) to'g'ri javob berilmagan

20.G'ayrat, qiziqish, quvonch, g'urur, yangilikka intilish kabi hislar qanday hislar tarkibiga kiradi?

A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar

D) to'g'ri javoblar berilmagan

15-MAVZU: IRODA PSIXOLOGIYASI.

REJA:

15.1.Iroda haqida tushuncha

15.2.Irodaning nerv-fiziologik asoslari

15.3.Irodaviy akt va uning tuzilishi

15.4.Shaxsning irodaviy sifatlari

Tayanch iboralar

Abuliya (yunon. Abule - irodani inkor etmoq) - eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

Iroda erkinligi - falsafiy - ahloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o'z - o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq.

Lokus nazorat (lot. lokus joy) - odamning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko'rish (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki o'zining qobiliyatlarini intilishlardan ko'rish xislati (internal, ichki lokus nazorati).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

15.1.Iroda haqida tushuncha

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy to'zum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi.

Odam tevarak - atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha

harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan *birinchisi* ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, *ikkinchisi* ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovoqini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida ***iroda*** - bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ta'riflanishicha, ***iroda*** - shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, ***iroda*** deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'.G'ozievning "Umumiy psixologiya " darsligida ***iroda***-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Irodaviy harakatlar bosqichlari



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida aktni amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati ob'ektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy harakatlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni **irodaviy harakat** deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini engish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

15.2.Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat".

Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand- nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir" - degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo'shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta'minlash maqsadida odam vaqti - vaqti bilan dam olib turishi kerak.

15.3.Irodaviy akt va uning tuzilishi

Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin.



Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga yetishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.

Maqsad ko'zlash kishining avvalo shaxsiy (biologik va madaniy ruhiy) ehtiyojlariga bog'liq. Ko'pincha kishining maqsad ko'zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga, yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, kishi qiyin ahvolga tushib qolsa, shu ahvolidan bir amallab qutilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga barham berish, bir nima qilish, bir nima ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'ya oladi. Kishi jamoat tartibini birov bo'zayotganligiga bevosita guvoh bo'lishi va tartib bo'zuvchilarga qarshi kurash uchun shu onda qandaydir choralar ko'rishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin. Masalan, kelib chiqadigan ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi-kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi-yu, lekin qanday maqsadga yetishilayotganini, binobarin, shu maqsadga erishishga doir yo'l-yo'riqlarni aniq bilmaydi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga allanima kerakligini his qilib turadi-yu, bu narsani nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya'ni uni tasavvur qilolmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday odamning o'zi ba'zan "menga bir narsa kerak, bir narsa yetishmayapti, ammo bu narsaning nima ekanligini o'zim ham bilmayman" degan gapni ko'ngildan o'tkazadi. Boshqa kishilar to'g'risida ham: "nima istayotganini o'zi bilmaydi" deymiz.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini bu maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirish ham mumkin emas.

Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar ***tilak-havaslar*** deb ataladi. Ammo odam o'z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga yetishish yo'llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin. Bunday to'la anglanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa cheksiz orzu bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan (xayolparast insonlarda) bunday tilak havaslar ko'ngildan kechirish orqali orzu (fantaziya) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslari to'lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo xo'rsinadilar, armon qiladilar, o'zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko'pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko'rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko'rsatishmaydi.

Harakat yo'llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomila anglaniladi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo'lib qoladi. Bunday intilish holati ba'zan hohish deb ataladi. Kishi biror ishni qilmoqchiman, falon ishni bajarmoqchiman, o'qishga kirmoqchiman va hokazo deb gapirar ekan buning ma'nosi shuki, mazkur kishi o'z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga yetish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga yetish mumkinligini, ma'lum bir yo'ldan ish ko'rishga tayyorligini va qilinadigan harakatlarining oqibatini kam anglaydi.

Shunday kishilar borki, ularda muayyan tilak-havaslar tarzida tamomila anglanilgan intilishlar doimo katta o'rin tutadi. Bunday kishilar o'zlariga nimalar kerakligini, nimani hoxlayotganliklarini, nima ish qilmoqchiliklarini va uni qanday bajarish kerakligini hamisha biladilar. Bunday kishilar o'z oldilariga hamisha aniq maqsad qo'yadilar va shu maqsadga yarasha ish ko'radilar. Bunday kishilarni ma'lum maqsadni ko'zlaydigan kishilar deyiladi. Ma'lum maqsadni ko'zlash kishining ijobiy sifatidir. Bu sifatni taraqqiy ettirish, irodani tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning vazifalaridan biridir.

Har bir kishining anglab, bilib, ko'ngildan kechiradigan ehtiyojlari ko'p, uning vazifalari va intilishlari ham kam emas. Shuning uchun kishida xilma-xil maqsadlarda doimo zohir bo'lib turadi va bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish istagi tug'iladi. Har bir kishida amaliy va nazariy vazifalar vujudga kelib turadi va ana shu vazifalarni hal etish kerak bo'ladi. Barovar amalga oshirib bo'lmaydigan bir necha maqsad kelib chiqqanda, qanday bo'lmasin faqat bittasini tanlab olib boshqa

maqsadlarni qo'yib turishga to'g'ri keladi. Qaysi maqsadni oldinroq, boshqasini esa keyinroq amalga oshirish masalasini hal qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi maqsadlarni esa qo'yib turishga to'g'ri keladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, kishi oldida bir-biriga zid keladigan bir nechta maqsad ko'ndalang turadi va shu maqsadlardan birini tanlab olish shart bo'ladi. Masalan, yigit yoki qiz maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirib o'qisam, degan masalani hal etayotganda turli maqsadlar va ularga yetish yo'llari degan maqsadlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ichki "kurash" ro'y berishi mumkin.

Maqsad qo'yish bilan bir vaqtda yoki undan keyin shu maqsadga qaysi yo'l, usul va vositalar bilan yengish masalasi kelib chiqadi.

Kundalik turmushimizda yoki faoliyatimizda maqsad qo'yish bilan birga uni amalga oshirish usullari darrov anglanadi. Shuning uchun bu yerda maqsad qo'yish bilan to'ppa-to'g'ri harakat boshlanib ketishi mumkin. Masalan, kishi qo'liga halam olishni hoxlasa, uni bemalol olishi mumkin, uxlagisi kelsa yotadi va hokazo. Oddiy ixtiyoriy harakatlar shu bilan ta'riflanadi. Ammo yangi maqsadlarni qo'yishda o'sha maqsad usullarini qidirib topish, tasavvur qilish va o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu yerda maqsad bitta bo'lgani holda unga bir necha yo'l va usul bilan yetishish mumkin. Qanday bo'lmasin eng yaxshi yo'l va usulni tanlab olishga to'g'ri keladi. Ayrim ixtiyoriy harakatlarning murakkabligi shular jumlasidan kelib chiqadi.

Bir necha maqsad ko'ngilga kelib, shulardan biriga turli yo'l va usullar bilan erishish mumkin bo'lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun muayyan eng muvofiq yo'lni tanlab olishi kerak. Shunga ko'ra, ijtimoiy mehnat faoliyatda ham, kasb-korda ham, shaxsiy ishlarda ham, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatda ham kishi o'z intilishlarini va ixtiyoriy harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo'lib, aniq, muayyan va ravshan maqsadni belgilash, shuningdek shu maqsadga yetish uchun eng to'g'ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat. Rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo'lgan hamma harakatlar, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi. Odam asosiy rejaga ega bo'lgan bir qarorga kelishi, maqsadiga yetishishi mumkin.

Harakat motivlari va motivlar kurashi. Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ***ish-harakat motivlari*** deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (irodadan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi. Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir, kishining intilishi va hohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar ixtiyoriy motivlarga kiradi. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda ularning ma'qul yoki noma'qul ekanligi chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa ***harakatning motivi*** deb ataladi.

"Motiv - deb yozadi I.P.Ivanov - kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir".

Maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash jarayonida odatda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Tafakkur faoliyati (fikr qilish) bu yerda asosan har bir motivga "qarshi "yoki "tarafdor"likni muhokama qilib asoslashdan iborat bo'ladi. Kishi motivlarni muhokama qilishda va asoslab berganda odatda ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining xatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir faktlardan tamoyil va qoidalardan foydalanadi. Motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish ***motivatsiyalash*** deb ataladi.

Maqsadni va unga erishish yo'lini tanlash jarayonida hissiyot turtki rolini o'ynaydi. Hissiyot ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot kishining intilishlarini faollashtiradi va susaytiradi, hissiyot biron maqsadni, biron harakat yo'lini tanlab olishga turtki beradi.

Maqsadlarga erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon ***motivlar kurashi*** deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, masalan, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutilishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatidan qutilish yo'lini yengillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlariga, axloq qoidalariga

amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'ymasligi yoki undan qutilishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak - teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat sezgirlikdir. Masalan, o'rta maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qaysi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirishi mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal iluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzdagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladiki, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish - qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qarorni yuzaki yoki ***bo'sh qaror***deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak sifatidir. Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darjada o'ylamaslikdan, emosional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operasiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar. kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi. Ayrim hollarda esa o'z vaqtida ijro etilmay qoladi. Kishining ba'zi bir holatlarida a'zoyi-badani bo'shashib turganda, xafalik chog'ida o'z kuchlari va imkoniyatlaridan hafsalasi pir bo'lib turganda qaror ha deganda bajarilavermaydi. qarorni bajarishda ro'y beruvchi to'sqinliklar oldindan nazarda tutilmaganda yoki maqsadning o'zi vaziyat o'zgarishi bilan kerak bo'lmay qolganda shunday bo'ladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki odam ko'pgina qaror qabul qiladi, ammo qarorning ijrosi cho'zilib ketadi, paysalga solinadi, boshqa muddatlarga ko'chiriladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar ko'pincha niyatlar deb ataladi. Ancha vaqtdan keyin, lekin muayyan muddat o'tgach ijro etiladigan qarorlar ham niyatlar deb ataladi. Masalan, o'quvchi yoki

talaba o’quv yilining boshida barcha imtihonlarni faqat "a'lo" baholar bilan topshirishga qaror qilishi mumkin.

Irodaviy zo’r berish. Qabul qilingan qaror to’g’ridan-to’g’ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo’r berish ham kerak.

Irodaviy zo’r berish ongning avvalo nerv-muskul apparatining zo’riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi ko’rinishlarida namoyon bo’ladi. Irodaviy zo’r berishning ana shu ifodali tomoni odamning iroda holatini tasvirlovchi badiiy asarlarda gavdalantirilganini ko’p uchratish mumkin.

Ba'zi odam irodaviy zo’r berolmagani sababligina qabul qilgan qarorni muddatida ijro etolmaydi. Bunday hollarda "bajarsammikan yoki yo’qmi" degan yangi kurash ham boradi. Zo’r berish uchun yana kuch sarflashga to’g’ri keladi. Kuch sarflay olmaslik yoki bu masalada ikkilanish irodaning shu paytdagi bo’shligini ko’rsatadi. Qabul qilingan qarorni zo’r berish yo’li bilan ijro etish irodaning muhim belgisi hisoblanadi.

Irodaning o’ziga xosligi ongli ravishda zo’r berishning biron darajasida bajariladigan harakatlardan iborat. Irodaviy zo’r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo’lida uchraydigan to’siqlarni engishda namoyon bo’ladi. Kishining irodasi juda katta to’siqlarni yengishga to’g’ri kelganda, ayniqsa yaqqol ko’rinadi. Irodaviy zo’r berish va irodaviy harakatlar yo’li bilan yengishga to’g’ri keladigan to’sqinliklar ikki xil: ichki va tashqi to’sqinliklarga bo’linishi mumkin.

Irodaviy zo’r berish yo’li bilan yengishga to’g’ri keladigan ichki to’siqlar odam organizmi va psixikasining holatidir. Odam tinch harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo’lishi mumkin, masalan, dam olish, uxlash, charchash, kasallik paytida shunday holat bo’ladi. Biron ish bilan shug’ullanmay harakatsiz o’tirishga, ya'ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdan hisoblanadi.

Irodaviy zo’r berish yo’li bilan avvalo organizmning passiv holatini o’zgartirish uni faol holatga keltirish zarur bo’ladi. Masalan, o’rnida yotgan kishi (motivlar kurashi) turlicha qaror qiladi va o’zini majbur qilib o’rnidan turadi. Yalhovlikni yengish uchun ba'zan juda ko’p zo’r berishga to’g’ri keladi.

Irodaviy zo’r berish yo’li bilan kishining aqliy faoliyatini ham faol holatga keltiriladi. Masalan, ma'ro’za boshlanishi bilan talaba darhol irodaviy kuchni ishga solib, diqqatni bir joyga to’playdi, irodaning barqarorligini saqlab qoladi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

"Harakat qilish o’ziga qanday o’rgatilgan bo’lsa - deydi I.M.Sechenov - harakatni to’xtatib qolishni boshqarishga ham shunday o’rganmoq kerak".

Kishi irodaviy zo’r berish yo’li bilan ixtiyorsiz faollikni batamom yo’qotib yubormaydi, balki shu faollik ko’rinishlarini faqat o’zgartiradi, yoki bosib qo’yadi. Ixtiyorsiz faollik ko’rinishlarini bosilishi ***vazminlik*** deb ataladi.

Iroda-avvalo kishining o’zini qo’lga ola bilishi, o’z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini bosa bilishi demakdir. Iroda kishining o’z- o’zini idora qila olishi, o’z xulqi va faoliyatini anglab, bilib tartibga solish va boshqara olish qobiliyati demakdir.

Kishining ichki to’siqlarni yenga olish, o’zini boshqarish va o’z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odatda ***ichki iroda*** deb yuritiladi. Kishi irodaviy zo’r berish yo’li bilan tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydigan tashqi to’siqlarni yengishi zarur bo’ladi. Kishi o’z oldiga qo’yilgan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotgan to’sqinliklarni yengib o’tadi, voqelikni o’z maqsadiga muvofiq ravishda o’zgartiradi va uni o’z ehtiyojlariga moslashtiradi. Insonning to’siqlarni, tashqi qiyinchiliklarini yenga olish qobiliyati ***tashqi iroda*** deb ataladi.

Ammo irodani faqat shartli ravishda ichki va tashqi deb ikkiga bo’lish mumkin. Inson irodasi bitta, lekin u tashqi olamdagi o’zgartirish va boshqarishga qaratilishi bilan birga shaxsiy, sub'ektiv holatlarni va jarayonlarni boshqarishga qaratilishi ham mumkin. Modomiki, shunday ekan, tashqi to’sqinliklarni yengish ichki to’sqinliklarni yengish bilan chambarchas bog’liqdir.

Inson tashqi olamga ta'sir etar ekan, tashqi olam hodisalarini boshqarish bilan bir vaqtda o’zini, o’z organizmini, qo’l-oyoq muskullarini ham boshqaradi, ularning tarangligini kuchaytiradi yoki susaytiradi, ularning harakatlarini uyg’unlashtiradi, butun organizmning moslashish vaziyatini vujudga keltiradi va zarur paytda bu vaziyatni o’zgartiradi va hokazo. Shu bilan birga ixtiyoriy harakatlar,

asosan mehnat faoliyatida odamning ixtiyoriy faollik ko’rinishlarini to’xtatib va bosib turishga to’g’ri keladi. Shuning uchun odamning irodaviy zo’r berishi va ixtiyoriy harakatlari tashqi to’sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan bir vaqtda organizmning ichki ahvolini ham o’zgartiradi. Inson tevarak-atrofdagi voqelikni o’zgartirar ekan, o’zini-o’z vujudini ham o’zgartiradi.

Irodaviy harakatlar bajarilgandan keyin ularga baho beriladi. Qaror ijro etilgandan keyin, ba'zan esa qarorni bajarish jarayonida ham ko’pincha harakatlarga baho berish, qarorni qanday ijro etilganligiga baho berish kerak bo’ladi. Qarorni ijro etish yuzasidan qilingan baho berish qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ishni ma'qullash, oqlash yoki qoralashdan iborat bo’ladi. Bu baho qabul qilingan qaror yoki bajarilgan harakatlardan mamnun bo’lish yoki mamnun bo’lmaslik tufayli kelib chiqqan maxsus hissiy kechinmalarda ifodalanadi. Salbiy baho ko’pincha qilingan ishlarga pushaymon bo’lish, achinish, uyalish va afsuslanish kabi hislar tug’ilishiga sabab bo’ladi. Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga beriladigan baho qabul qilingan qarorni yoki bajarilgan harakatlarni ma'qullovchi, oqlovchi yoki qoralovchi maxsus hukmlarda ifodalanadi.

Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa nuqtai nazardan baho beriladi. Mana shunday baho berishdan kelib chiqadigan his va hukmlarda kishining dunyoqarashi, axloqiy sifatlari va tamoyillari, shu bilan birga xarakteri va qiziqish - havaslari ham yaqqol namoyon bo’ladi.

Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarda kishining o’zi baho beribgina qolmaydi, balki kishi qaysi jamiyatda yashasa va ishlasa o’sha jamiyat ham baho beradi.

Odam qilgan yoki qilayotgan ish harakatlariga tevarak-atrofdagi kishilar ijobiy baho bergandan keyin ichki ma'naviy qanoat his qiladi xursand bo’ladi va kuchiga kuch qo’shilgandek bo’ladi. Ayrim ish-harakatlariga salbiy baho berilganda esa kishi o’ziga xos uyalish hissini ko’nglidan kechiradi va vijdon azobiga uchraydi.

Qilingan ish-harakatga berilgan baho kishining faoliyatida katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyati uchun rag’bat va motiv bo’lib qoladi. Salbiy baho odatda ayni faoliyatni to’xtatish yoki o’zgartirishga motiv bo’ladi. Ijobiy baho faoliyatni davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilashga, jumladan mehnat unumdorligini oshirishga rag’batlantiradi.

15.4.Shaxsning irodaviy sifatlari

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo’ladi. Irodaviy sifatlarning klassifikasiyasi sxema tarzida quyidagicha ifodalanadi.



Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari ***xarakterxislatlari*** deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak.

Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakterxislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hohishlarni farq qilamiz.

Iroda kuchi ravshan va aniq maqsad qo'yishda, shuningdek mazkur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush tajribasiga, bilimiga va umumiy saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real xayollar (fantaziya)ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol' o'ynaydi.

Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorni mustahkamligida, sabotlilikda ko'rinadi. Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat'iyatlik va sabotlik kuchli iroda belgilaridandir. Qat'iyatsizlik ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik ***kuchsiz iroda*** belgilaridandir.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi axloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Jasorat shunday qarorki, u go'yo ish-harakatga aylanadi. Bu ish-harakat esa kuchli zo'r berishni talab qiladi. Xarakterxislati bo'lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o'ylab ish ko'rishiga qarab, bu dadillik maxsus tusga kiradi.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda ijobiy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni ***mulohazakor kishilar*** deb ataymiz.

Odatda o’zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyatli kishilardir. Bunday kishilar odatda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va kalta o’ylashi bilan ajralib turadilar. Kishi uncha ikkilanmasdan o’ylab, e'tibor bilan to’g’ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning ijobiy xislati bo’ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to’g’ri keladigan ish - harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog’langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko’rinadi. Qat'iyatsizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatsizlikda kishi sustlik bilan bir qarorga keladi, qabul qilgan qarorini ko’pincha o’z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to’g’riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda ikkilanadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog’langan bo’lsa, shunday ahvolga tushadi. Shu sababli qat'iyatsiz kishilar ko’pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo’lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug’diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog’liq bo’lib, xarakterning ijobiy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo’lgan kishilar qabul qilgan qarorlarini odatda o’zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo’ymaydilar. Bu kishilar va'dalarining ustidan chiqadilar, aytgan so’zlarini albatta qiladilar, ularning gapi bilan ishi bir bo’ladi. Ularga ishonsa bo’ladigan subutli insonlardir.

Qabul qilingan qarorlarini ko’pincha bekor qiladigan, bergan va'dalarini ustidan chiqmaydigan, aytgan so’zidan tonadigan kishilar subutsiz hisoblanadi.

Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog’liq bo’lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo’lsa o’sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo’ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xarakteri kuchli deb bo’lmaydi. Balki shu sifatlari bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xarakteri qat'iy deb ataladi. Iroda kuchi va qat'iyati odamning o’zini

tuta bilishida, jasurligida, matonatida va chidamliligida namoyon bo’ladi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o’z vaqtida bajarishda ko’rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish, galdan-galga qoldiraverish, boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Lekin qabul qilingan qarorni bajarish har qanday qilingan ish-harakatning, irodaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to’siqlar yengilganiga va shu yo’l bilan qanday natijalarga erishilganligiga qarab aniqlanadi. Irodaviy zo’r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining ob'ektiv ko’rsatkichi bo’lib xizmat qiladi.

Kishi katta to’sqinliklarni, qiyinchiliklarni, qarshiliklarni irodaviy zo’r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan bartaraf qilib, zo’r muvafaqqiyatlarga erishsa, bu kishi irodasi kuchli ekanligini ko’rsatadi.

Kosmonovtlar mislsiz iroda kuchini butun jahonga namoyish qilishadi. Bu qahramonlar kosmik parvozlarga tayyorlanish davrida ham, parvoz paytida ham o’z irodalarining yuksak sifatlarini namoyish etadilar. Bu qahramonlar kuchli iroda va uning xilma-xil ko’rinishlari o’z xarakterining asosiy xislati bo’lgan kishilarning yorqin misolidir.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arzimas to’sqinliklarni ham bartaraf qila olmasligida ko’rinadi. Masalan, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biror zarur ishni boshlashga o’zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi odatda ***irodasizlik*** deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o’zini tuta bilishda, jasurlik, sabot va matonat, chidam va toqatda namoyon bo’ladi.

O’zini tuta bilish nomidan ham bilinib turibdiki, kishining o’zini idora qila bilishi va o’zini qo’lga ola bilishi demakdir. O’zini tuta bilish kishining oldiga qo’ygan maqsadlariga yetishuvida to’sqinlik qiluvchi, irodasini bo’shashtiruvchi ichki holatlarni yengishda ko’rinadigan kuchli irodadir. Bunday holatlarga masalan, qo’rqish, o’z kuchlariga ishonmaslik, zerikish, qayg’urish hissi kiradi. Bunday holatlar kishini faoliyat ko’rsatmaslikka rahbatlantiradi yoki qo’yilgan maqsadlarga qarama-qarshibo’lgan g’ayri ixtiyoriy harakatlarda o’z ifodasini topadi. Bunday holatlar har kimda bo’ladi.

Ammo odamning shaxs sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u o'zidan ana shu salbiy va keraksiz holatlarni iroda kuchi bilan o'zgartira oldi yoki bartaraf qila oladi. Bu borada K.D.Ushinskiy quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "qo'rquvni his qilmasdan xavf-xatarga o'zini uradigan kishi mard emas, balki eng kuchli qo'rquvni ham bosa oladigan va qo'rquv ta'siriga berilmagan, xavf-xatarni o'ylamaydigan kishi marddir".

O'zini tuta bilish kishi xarakterining xislati bo'lib, asosan ichki irodaning namoyon bo'lishidan iborat. Bu xislat kishining o'z xulq-atvorini nazorat qila bilishda o'zini, o'z harakatlarini, nutqini qo'lga ola bilishida, shu sharoitda keraksiz yoki zararli deb qaraladigan harakatlardan o'zini tiya bilishida ifodalanadi. Xarakter shu xislatiga ega bo'lgan kishilar o'zlarini qo'lga ola biladilar. Ular o'zlarini tuta biladilar, ular uyushqoq kishilardir.

O'zini tuta bilmaslik irodaning kuchsizligini yaqqol ko'rsatuvchi belgidir. Odam o'zini qo'lga ola bilmaganda o'z mayllarini, ixtiyorsiz harakatlarini nazorat qila olmaganda g'ayri ixtiyoriy faollik ko'rinishlari reflekslar, instinktlar, tasodifan ko'ngildan kechadigan hislar, qo'rquv, hadik-shubha, gumon, g'azab, rashk, ichiqoralik, affektiv holatlar va shu kabilar kishi irodasini bo'g'ib qo'yadi. Bunday hollarda odam o'zini tiya olmay qoladi.

O'zini tiya olmaslikning eng yomon ko'rinishi bo'zuqlikdir. Bo'zuqlik butunlay instinktlar va salbiy emotsiyalar ta'sirida bo'lish demakdir.

Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfli bo'lgan to'sqinliklarni bartaraf qilishda ko'rinadigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal o'zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o'zini tuta bilishga chambarchas bog'liq. Jasurlik bor joyda o'zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o'zini tuta bilsa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo'lida mutassil jasurlik ko'rsatish, dovyuraqlik ***jasorat*** deyiladi.

O'zining hayoti uchun xatarli to'sqinliklarni yengishga doimo tayyor turgan va shunday to'sqinliklarni yenga oladigan kishilarni jasur kishilar deb ataymiz. Bular xavf-xatardan cho'chimaydigan, xarakteri kuchli, dovyurak, botir kishilardir.

Jasurlikning yo'qligi irodaning kuchsizligini ko'rsatadi. Buni qo'rqoqlik, ***nomardlik*** deb ataymiz. Irodasi kuchsiz bo'lgan bunday kishilar odatda qo'rqoq, ***yuraksiz kishilar*** deb ataladi. Sabot, matonat ma'lum maqsadga yetishda ko'pincha uzoq vaqt davomida irodamizga ta'sir etib turuvchi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Irodaning bunday ko'rinishi shaxsning eng muhim sifati bo'lib, iroda kuchining yaqqolligini ko'rsatadi.

Sabot, matonat - qandaydir bir aniq maqsadni ko'zlab, muntazam ravishda irodaviy zo'r berish demakdir.

Ammo kishilarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, kishi o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yetib bo'lmaydigan yoki kishiga shunday bo'lib tuyo'ladigan to'sqinliklarga uchrab qoladi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilgan qarorni o'zgartiradi, bekor qiladi, u qiyinchiliklardan qo'rqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan voz kechishi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, talaba to'satdan o'qishni tashlaydi. Ilgari tanlagan ehtiyojidan voz kechadi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay, o'lda-jo'lda qoldirib ketadi.

Kishi o'z harakat, maqsadini yaxshi o'ylamaganda maqsadga yetishsa, yordam bera oladigan vosita va usullarni puxta o'ylamaganda, o'zining kuch - imkoniyatlarini yetarli yoki to'g'ri hisobga olmaganda odamda belgilangan maqsaddan shu tariqa qaytadi, irodasida chekinadi. Dastlabki muvaffaqiyatsizlikka haddan tashqari katta ahamiyat berilganda, bu muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri, yoki yengil baho berilganda, unga faqat salbiy tomondan qaraganda shunday bo'ladi. Kishi muvaffaqiyatsizlikka uchrash bilan bir vaqtda o'z kuchlariga, o'z imkoniyatlariga, o'z qobiliyatlariga ishonmaganda odam "ruhi tushib", o'zini passivlikka qo'l qovushtirib o'tirishga mahkum etadi. Albatta umuman irodasi kuchsiz kishilarda shunday bo'ladi. Bunday kishilar irodasining o'smaganligi, etarlicha tarbiyalanmaganligi bilan farq qiladi.

Ammo irodali mavjudot bo'lgan odam hayot va faoliyatida jamiyat yoki o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadidan qaytmasligi ham mumkin. U iroda kuchiga zo'r berib, to'sqinliklarga qarshi kurashni kuchaytirishi, qabul qilingan qaroriga yarasha uzoq vaqt ish ko'rishi mumkin. Barcha to'sqinlik va qiyinchiliklarga qaramay u zarur natijani qo'lga kiritmoq uchun dam-badam, orada vaqt o'tkazib zo'r berishi, g'ayratini ko'rsatib ishlashi mumkin.

Kutilgan maqsadga yetishda katta qiyinchiliklar va yengib bo'lmaydigan to'siqlar bo'lsa, kishi shu maqsadga yetishi uchun zarur yo'l, vosita va usullarni o'zgartirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Katta to'sqinliklarni bartaraf qilib, uzoq qunt qilib, maqsadga yetishda ko'rinadigan bunday iroda kuchi ***sabot-matonat*** deb ataladi. Shunday iroda sifatiga ega bo'lgan kishi esa sabot-matonatli, kuchli irodali, qat'iy xarakterli kishi deb ataladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qib, o'rganishning muvaffaqiyati sabot-matonatga bog'liq. Bilimli bo'lmoq uchun sabot-matonat kerak. Har bir sohada-texnika, san'at, mo'zika, sport va shu kabi sohalarda bilim va malaka ortirmoq uchun sabot-matonat kerak.

Sabot-matonat xarakterning eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo'lida qanday qiyinchilik va to'sqinliklar bo'lishidan qat'iy nazar shu maqsadga erishishida o'z ifodasini topadi.

Xarakterxislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi.

Sabot-matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamisha oxiriga yetkaza biladilar. Ular o'zlariga nisbatan ham boshqa kishilarga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Sabot-matonatli kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ruhini tushirmaydi, balki aksincha, maqsadga erishish uchun ishga yanada qat'iyroq kirishadi, shu maqsadga erishishning yangi yo'l va vositalarini izlab topadi.

Sabot-matonatli kishilar o'ziga va boshqa kishilarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadilar. Ular belgilangan yo'ldan yurishlariga to'sqinlik qila oladigan hamma narsaga qarshi tura oladigan, bu to'sqinliklarni yenga oladigan matonatli kishilardir.

Sabot-matonat irodaning chidam va toqat degan sifati bilan ham chambarchas bog'liq.

Maqsadga yetishda bartaraf qilinadigan to'sqinlik va qiyinchiliklar kishidan kuch va vaqt sarf qilishni talab etibgina qolmay, balki ko'pincha jismoniy va ruhiy azob beradi ham.

Kishining o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilaversa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda chidam va toqat deb ataladi. Odamning organizmidagi yemirilish jarayonlarini yengishda ifodalanadigan ajoyib iroda o'zini tuta bilish va matonatda ko'rinadi. Bu borada quyidagi misolni keltirib o'tish joiz.

Sobiq sovet uchuvchisi Alievning bir o'zi havo jangida dushmanning yettita samolyotiga qarshi mardonavor kurashdi va hammasini urib tushirdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu jangda Alievning samolyotini dushman o'qlari teshib yuborgan edi. Aliev o'zi bir necha bor yaralandi. Ammo u o'zini yo'qotib qo'ymay, samolyoti bilan o'z aerodromiga borib qo'ndi. Aerodromiga yetib borguncha dushman egallab olgan yerlardan uchib o'tishi kerak edi. Dushmanning zenit to'plari Alievning samolyotini qattiq o'qqa tutdi va samolyotining bir necha joyini snaryad parchalari teshib yubordi. Uchuvchi yana bir necha marta yaralandi. Lekin Aliev bu safar ham sarosimaga tushmay samolyotini boshqarib boraverdi va uni o'z aerodromiga eson-omon qo'ndirdi. Samolyot kabinasi ochilganda uchuvchi o'lgan edi. U ikki qo'lidan, oyog'idan, kuragidan, yelkasidan, orqasidan, jag'idan va boshidan yaralangan edi. Vrachning aniqlashishicha, og'ir yarador bo'lgan Alievning bu holda ucha olishi sira mumkin emas edi. Ammo Aliev samolyotini boshqarib, aerodromga to'g'ri qo'na olgan. Uchuvchining irodasi va o'zini tuta bilishi tufayli o'qning yemiruvchi kuchlaridan g'olib kelib, umrining so'nggi daqihalarini cho'zishga erisha oldi.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa mashaqqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar .

Bunday xarakterli kishilarga optimallik kayfiyati, hayotga quvnoqlik bilan qarash, porloq kelajakka doim ishonch bilan boish, boshqa kishilarga o'z kuchlari va mehnat imkoniyatlariga yetishish kabi xislatlar xosdir.

O'zini tuta bilish jasurlik sabot-matonat, chidam va toqatda ko'rinadigan kuchli iroda mardlik deb ataladi. Shu sifatlar bilan farq qiladigan kishilar esa ***mard kishilar*** deb ataladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko’p bo’ladiki, bunda odam zarur paytida o’zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko’rsata olmaydi. Xarakterxislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki ***irodasiz kishilar*** deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki ***chidamsiz kishilar*** deyiladi. Bularhattoarzimas qiyinchilik va to’sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o’z oldiga qo’ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to’xtatadigan, o’z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo’rqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko’rsatmaydilar. Bular cho’chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o’zidan ko’ra tashqi sharoitga bog’liq bo’ladi.

Bunday xarakterxislatlarga ega bo’lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo’lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko’radilar, bu kishilarning fikricha, o’zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo’ladilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilaring irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko’riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epchillik, mohirlik bilan hisobga olish va ko’pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko’ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo’ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo’yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo’l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi. Mustaqillik qilinilmagan va qilinilgan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko’rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to’g’riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko’z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko’rinadi. Tanqidiy ko’z bilan mulohaza yuritish xarakterxislati bo’lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko’rinadi, xarakterning shu xislati bo’lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko’rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko’rsatadi. qaysarlik qilayotgan odam yo buyurilgan ishni qilmasdan, o’z bilganini qilaveradi yoki buyurilgan ishni teskarisini qiladi.

Intizomlilik - xarakterxislati bo’lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o’z ixtiyori bilan bo’ysina bilishda ko’rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o’z burchiga ongli ravishda bo’ysinishda o’z ifodasini topadi.

Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo’lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so’zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga itoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko’rsatadi. Iroda kuchi katta to’sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko’rsatish, mustaqillik, dadillik ko’rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o’z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to’sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axlohiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning axloqiyligi deganda odatda kishi o’z oldiga qanday maqsadlar qo’yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo’lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda

aytilgan so’zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko’rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, o’zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatlari deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda o’z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi.

Kishining chinakam axloqiyligi ma'naviy qiyofasi, so’zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning o’ziga mehr qo’yishida namoyon bo’ladi.

O’zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarida har doim axloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

Nazorat savollari

1. Iroda tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari nimalarda ko’rinadi?
3. Iroda nazariyalarining mohiyatiga ta'rif bering?
4. Irodaviy akt va uning tuzilishini mazmunini ko’rsating?
5. Shaxsning irodaviy sifatlariga nimalar kiradi?
6. Irodaning individual xususiyatlarining mazmunini izohlang?

Test topshiriqlari

1.Qaysi qatorda iroda tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) maqsadga erishish uchun zarur bo’lgan irodaviy zo’r berish B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash V) ong tomonidan to’liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar G) maqsadga erishish yo’lida turgan qarama qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo’r berish bilan bog’liq bo’lgan va ma'lum maqsadga yo’naltirilgan ongli harakatlar D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo’ladigan ruhiy aks ettirish shakli

2.Qaysi qatorda irodaviy harakat tushunchasining mazmuni keltirilgan?

A) maqsadga erishish uchun zarur bo’lgan irodaviy zo’r berish B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash V) ong tomonidan to’liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar G) maqsadga erishish yo’lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo’r berish bilan bog’liq bo’lgan va ma'lum maqsadga yo’naltirilgan ongli harakatlar D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo’ladigan ruhiy aks ettirish shakli

3. Qaysi qatorda iroda kuchi tushunchasining mazmuni keltirilgan?

A) maqsadga erishish uchun zarur bo’lgan irodaviy zo’r berish B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash V) ong tomonidan to’liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar G) maqsadga erishish yo’lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo’r berish bilan bog’liq bo’lgan va ma'lum maqsadga yo’naltirilgan ongli harakatlar D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo’ladigan ruhiy aks ettirish shakli

4.Qaysi qatorda impulsiv harakat tushunchasining mazmuni keltirilgan?

A) maqsadga erishish uchun zarur bo’lgan irodaviy zo’r berish B) muammoning hal etishning biror usulini tanlash V) ong tomonidan to’liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar G) maqsadga erishish yo’lida turgan qarama-qarshiliklarni bartarf qilish uchun zo’r berish bilan bog’liq bo’lgan va ma'lum maqsadga yo’naltirilgan ongli harakatlar D) ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish uchun xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo’ladigan ruhiy aks ettirish shakli

5.Insondagi irodaviy harakat qanday tamoyilga asoslanadi?

A) ong va faoliyat birligi B) ongni faoliyatda rivojlanishi V) determinism

G) evolyusion qonuniyatga D) hech qanday tamoyilga

6.Iroda erkinligi ta'limotiga ko'ra …….

A)irodaviy harakatlar odamga irsiy yo'l bilan beriladi. B) irodaviy harakatlar inson shaxsiga ongiga bog'liq emas V) irodaviy harakatlar ilohiy kuchga bog'liq

G) odamning irodasi azaldan belgilangandir.D) irodaviy harakatlar hech qanday sababga bog'liq emas

7. Irodaviy harakatlarning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) bosh miya katta yarim sharlari po'stining shartli reflekslari va ikkinchi signallar tizimi B) ikkinchi signallari tizimi V) oliy nerv faoliyati tiplari G) shartsiz va shartli reflekslar D) dinamik sterotip

8.Iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishga boshqarishga imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Aflotun B) Arastu V) Suqrot G) V.A.Ivannikov D) V.I.Selivanov

9.Iroda borasidagi tadqiqotlar qachondan boshlandi?

A) inson ongining mohiyatini kashf qilinishi B) iroda borasidagi muayyan bilimlarni to'planganligi V) inson ongining mohiyatini kashf qilinishi va iroda borasidagi muayyan bilimlarni to'planganligi G) shaxs muammosiga qiziqishning ortib borishi bilan D) barcha javoblar to'g'ri

10.Iroda va aql aynan bir narsadir. Mazkur fikr muallif qaysi qatorda keltirilgan?

A) Gobss B) Spinoza V) U.Djems G) V.Vundt D) V.I. Selivanov

11.Irodani negizida appersepsiya aktining sub'ekt tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etishi yotadi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

A) Gobss B) Spinoza V) U.Djems G) V.Vundt D) V.I. Selivanov

12.Irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

A) Gobss B) Spinoza V) U.Djems G) V.Vundt D) V.I. Selivanov

13.V.Vundt tomonidan iroda borasidagi konsepsiyasi qanday nom bilan nomlanadi?

A) tarixiy madaniy B) aqliy harakatlarni bosqichma bosqich shakllantirish nazariyasi V) emotsional G) emotsional yoki affektiv D) affektiv kognitiv

14.V.I.Selivanov tomonidan iroda borasidagi xulosasi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) iroda - bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini-o'zi boshqarishshakllarini anglashning tavsifidirB) iroda - insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir.V) iroda - bu amaliy ong o'zgaruvchan va qayta quriluvchi olam shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir.G) iroda - bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, omma qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanadi.D) barcha javoblar to'g'ri

15.Iroda ongli bajarilishi maqsadga yo'naltirilgan harakatni amalga oshirish uchun ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib ketish imkoniyati borligini bilish deb ta'riflanadi. Mazkur ta'rif muallifi qaysi qatorda keltirilgan?

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.A.Kruteskiy G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

16.Iroda - inson xulq-atvoridagi reaktivlik va faollikning o'zaro ko'rinishidir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.A.Kruteskiy G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

17.Qaysi olim o'z asarlarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobtqadamlik mustaqillik qati'yatlilik sabr-toqatlilik intizomlilik dadillik jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi?

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.A.Kruteskiy G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

18.Qaysi olim irodaning muhim sifatlariga mustaqillik qat'yatlilik tirishqoqlik o'zini uddalashlarni kiritadi?

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.A.Krutetskiy G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

19.Irodaviy sifatlar muammosiga turlicha yondashib quyidagi sifatlarga ajratgan psixolog olimni aniqlang, ya'ni irodaviy sifatlarga sobitqadamlik va tashabbuskorlik tashkillashganlik va intizomlilik urinchoqlik va tirishqoqlik dadillik va qat'iyatlilik chidamlilik va o'zini uddalashga botirlik va jasoratlik va boshqalar.

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.A.Kruteskiy G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

20.Qaysi olim tomonidan iroda sifatlarini tasniflashni amalga oshirilgan?

A) V.A.Selivanov B) V.A. Ivannikov V) V.K.Kalin G) P.M.Yakobson

D) A.I.Shcherbakov

16- MAVZU:SHAXSNING INDIVIDUAL- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.TEMPERAMENT

Reja:

16.1.Temperament haqida tushuncha
16.2.Temperamentning fiziologik asoslari
16.3.Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishi.
16.4.Faoliyatning individual uslubi va temperament

Tayanch tushunchalar

Labillik(lot. Labilis – beqaror, o'zgaruvchan) – nerv hujayralarining tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish xususiyati.

Melanxolik (yunon. Melas – qora, chole – o't, safro) – temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

Rigidlik (lot. Regidus – qattiq ustahkam) – sub'ektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar.

Sangvinik (yunon. Sanguis qon) – temperament turlaridan. By tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mexribonlik qilish xislatlari bilan tavsiflanadi.

Temperament (lot. Temperamentum – qismlarning bir-biriga munosabati) – shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. By kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Flegmatik (yunon. Flegma balg'am, shilimshiq modda) – temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emosional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Holerik (yunon. Chole – safro, sarik o't) – temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012

16.1.Temperament haqida tushuncha

Insonning ruhiy olami beto’xtov harakatlar majmuasidan iborat bo’lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular o’zluksiz zanjir tizimiga o’xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to’g’risidagi taassurotlar, o’tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaqlar, maqsad va tilaqlar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar o’zluksiz tarzda o’zaro o’rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko’lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo’lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo’lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko’rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o’rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta'kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko’rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o’ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiq:

1. Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o’laroq, aynan shu shaxsning o’zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.
2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo’lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) davomida yoki uning muayyan bir bo’lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'iy nazar) barqaror, o’zgarmas va mustahkamdir.
3. Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o’zaro bir-biri bilan g’ayriqonuniy ravishda birlashgan bo’lmasdan, balki ular o’zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o’ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Rim faylasufi va shifokori Klaudio Galen qadimgi grek-yunon nazariyasiga asoslanib odam tanasining ishlash tizimini tushuntirib berishga harakat qilib ko’rdi.

Yumor kelib chiqishi qadimgi olim Empidokl (miloddan avvalgi 495-435) davriga borib taqaladi va uning fikricha dunyodagi asosiy to’rt element: yer, suv, olov, havo dunyodagi jamiki jonzotlarning ish faoliyatini aniqlab berishi haqida aytib o’tgan. Tibbiyot otasi Gippokrat esa bu nazariyaga asosan odam tanasidagi holatlarni tahlil qilgan va aynan shu holat “Yumor” (grekcha “tana suyuqligi”) tarzida atalgan. Ikki asrdan so’ng esa Galen shaxsiyatdagi yumorizm nazariyasini tadbiq qilib chiqdi va kengaytirdi. U tanadagi yumorlar soni va xulq-atvor moyilliklari yoki temperamentlarning faoliyati o’rtasidagi bog’liqlik to’g’risida gapirdi. Galenning to’rt temperament (sangvinik, melonxolik, flegmatik, xolirik) tanadagi yumorlar darajasiga qarab asoslangan. (*THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012)*



Psixologiya fanida ***temperament xususiyatlari*** deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460 - 356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

16.2.Temperamentning fiziologik asoslari

Qadimgi yunon olimi **Gippokrat** ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

1. ***O'tning xususiyati*** - quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.

2. ***Qonning xususiyati-***issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.

3. ***Qora o'tning xususiyati***-namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.

4. ***Balg'amning*** (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.



316–21 Walter Mischel 326–27

Melancholic: sad, fearful, depressed, poetic, and artistic.

Phlegmatic: slow, quiet, shy, rational, and consistent.

Choleric: fiery, energetic, and passionate.

Sanguine: warm-hearted, cheerful, optimistic, and confident.

Imbalances in the humors determine personality type as well as inclinations toward certain illnesses.

If one of the humors develops excessively, the corresponding personality type begins to dominate. A sanguine person has too much blood (*sanguis* in Latin) and is warm-hearted, cheerful, optimistic, and confident, but can be selfish. A phlegmatic person, suffering from excess phlegm (*phlegmatikós* in Greek), is quiet, kind, cool, rational, and consistent, but can be slow and shy. The choleric (from the Greek *kholé*, meaning bile) personality is fiery, suffering from excess yellow bile. Lastly, the melancholic (from the Greek *melas kholé*), who suffers from an excess of black bile, is recognized by poetic and artistic leanings, which are often also accompanied by sadness and fear.

Imbalance in the humors

According to Galen, some people are born predisposed to certain temperaments. However, since temperamental problems are caused by imbalances of the humors, he claimed they can be cured by diet and exercise. In more extreme cases, cures may include purging and blood-letting. For example, a person acting selfishly is overly sanguine, and has too much blood; this is remedied by cutting down on meat, or by making small cuts into the veins to release blood.

Galen's doctrines dominated medicine until the Renaissance, when they began to decline in the light of better research. In 1543, the physician Andreas Vesalius (1514–1564), practicing in Italy, found more than 200 errors in Galen's descriptions of anatomy, but although Galen's medical ideas were discredited, he later influenced 20th-century psychologists. In 1947, Hans Eysenck concluded that temperament is biologically based, and noted that the two personality traits he identified—neuroticism and extraversion—echoed the ancient temperaments.

Although humorism is no longer part of psychology, Galen's idea that many physical and mental illnesses are connected forms the basis of some modern therapies. ■

Galen

Claudius Galenus, better known as "Galen of Pergamon" (now Bergama in Turkey) was a Roman physician, surgeon, and philosopher. His father, Aelius Nicon, was a wealthy Greek architect who provided him with a good education and opportunities to travel. Galen settled in Rome and served emperors, including Marcus Aurelius, as principal physician. He learned about trauma care while treating professional gladiators, and wrote more than 500 books on medicine. He believed the best way to learn was through dissecting animals and studying anatomy. However, although Galen discovered the functions of many internal organs, he made mistakes because he assumed that the bodies of animals (such as monkeys and pigs) were exactly like those of humans. There is debate over the date of his death, but Galen was at least 70 when he died.

Key works

c.190 CE *The Temperaments*
c.190 CE *The Natural Faculties*
c.190 CE *Three Treatises on the Nature of Science*

Copyrighted Material

Agar suyuqlikning birortasi ortib borsa, ma'lum shaxsiyat turi, temperament yuqoriroq bo'ladi. Sangviniklarning qoni ko'p, shuning uchun ular mehribon, xushchaqchaq, optimist va o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori, lekin bu turdagi odamlar hudbin bo'lishadi. Flegmatik tinch, g'amxo'r, jaxli tez va shu bilan birga uyalchang hamdir. Xolirik xushchaqchaq, odamshinavanda bo'lsa, Melonxoliklar ijodiy sohada peshqadam bo'lishadi. Suyuqlikning nomutanosibligi Galenning fikricha, biz odamlar ma'lum temperament asosida dunyoga keladi. Ba'zan, temperamentlar o'rtasidagi muommo yumorlar orasidagi nomutanosiblik sababli vujudga keladi va bu holat xilta hamda mashq orqali yaxshilanishi mumkin.Galenning qarashlari. Uyg'onish davrigacha juda keng yoyilgandi, ammo 1543-yilda Andren Visaltuis (1514-1564) Italiyada faoliyat olib borarkan, Galen anatomiyasida 200 dan ortiq xato kamchiliklar topadi. (***THE PSYCHOLOGY book big ideas simply explained New York 2012)***

Gippokrat ta'limotiga muvofiq har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi holerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda balg'am, melanholikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, holerik, flegmatik, melanholik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda



Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi **I.P.Pavlov** (1849-1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini xususiyatlari mohiyatidandir. Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsatadi:

1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;

2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;

3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat.

1. Kuchli, muvozanatli, epchil;

2. Kuchli, muvozanatsiz, epchil;

3. Kuchli, muvozanatli, sust;

4. Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri **B.M.Teplov** (1896 - 1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik hirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyondalari tomonidan ijobiy va

tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

16.3.Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishi.

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo'li bilan shartlangan tip-bu genotip demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar, juda ko'p bo'lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o'rganish natijasida topilgandir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan.

I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha nerv sistemasi tiplarining va Gippokrat ta'limoti bo'yicha temperamentning o'zaro munosabatlari

Temperament tiplari	Nervsistemasinin gkuchi	Nerv tizimining muvozanati	Nerv tizimining ildamligi
Holerik	Kuchli jo'shqin	Muvozanatsiz qizg'in	Serharakat
Sangvinik	Kuchli serharakat	Muvozanatli	Serharakat
Flegmatik	Kuchli vazmin	Muvozanatli	Inert (sust)
Melanholik	Kuchsiz	Muvozanatsiz tormozli	Serharakat yoki inert

Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) tushuniladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning soda majmuasi emas, balkim azkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin

Nerv sistemasi va temperamentning bog'liqligi

Nerv tizimining turlari	**Kuchli**			**Kuchsiz**
		Jonli	Inert	
Nerv jarayonlari xususiyatlari	Kuch Vazmin lik harakatlanish	Kuchli Harakatlanish	Kuchli Harakatlanish	Kuchsiz Sust Harakatchan yoki sust
Temperament	Holerik	Sangvinik	Flegmatik	Melanholik

Temperament va psixik reaksiyaning bog'liqlig

	Reaktsiya	
Temperament	Tezkorlik	Kuch
Sangvinik	Tez	o'rta
Holerik	Tez	haddan tashqari
Flegmatik	Sekin	kuchli
Melanholik	Sekin	kuchsiz

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.



1.Senzitivlik (lotincha Sensus - sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

2.Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emosional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emosionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

3.Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishga qarab fikr yuritiladi.

4.Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5.Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatliligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6.Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshisifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

7.Ekstravertlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan

kechinmalarga bog'liq, chunonchi favqulotdagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Temperament tiplarining tavsifnomasi

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatlari, holatlari ro'y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bular-bo'lmas narsalarga qattiq xoholab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basqarasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payhamaydi. Aktivligi yuksak, juda qayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. o'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashq taassurotlarga javob beradi.

Holerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatiylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik - senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini bo'zish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini bo'zmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. qayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. harakatlarining

tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanholik - yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. o'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, ho'lini yuvib qo'ltig'iga urib g'o'ya qoladi. G'ayratsiz qatiy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

16.4.Faoliyatning individual uslubi va temperament

Faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib optiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki boshqa sabablarga, shaxsiy tajriba jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarga ham bog'liqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tug'ma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Faoliyatning individual uslubi asosini asab tizimi xususiyatlari yig'indisi tashkil qiladi. Faoliyatning individual uslubiga kiruvchi ikki xil xususiyatlar mavjud.

1. Asab tizimi individual xususiyatlari nuqsonlarining o'rnini to'ldiruvchi tajriba jarayonida shakllangan xususiyatlar.

2. Insonda mavjud layoqat va qobiliyatlardan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar.

Temperamentning xususiyati faollikning samaradorligida emas, balki usullarning o'ziga xosligidadir. Shu ma'noda **Ye.A.Klimov** tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, stanokchi, to'quvchilarning ishini kuzatish natijalari muhim sanalgan. Ma'lum bo'ldiki, bir necha stanokda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishadilar. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshixususiyatli

kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Faollikning individual uslubini **V.S.Merlin, Ye.A.Klimovlar** o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmasligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalariga erishishiga yordam beradigan o'zining yo'llari va usularini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlari ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shilib ketishi aniq bo'ladi. Chunonchi, holerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki holerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmatik yoki melanholik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. o'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlanib, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.

Nazorat savollari:

1.Temperament tushunchasining mohiyatini asoslang?
2.Oliy nerv faoliyati tipi va temperament o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating?
3.Temperament xususiyatlariga ta'rif bering?
4.Temperament tiplarining mohiyatini izohlang?
5.Faoliyatning indvidual uslubi va temperament o'rtasidagi munosabatni aniqlang?
6.Temperament borasidagi psixologik nazariyalarning mohiyatini asoslang?

Test topshiriqlari

1.Temperament tushunchasining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) lotincha "aralashma"B) yunoncha "qorishma"V) yunoncha "aralashma"
G) lotincha "nisbatlar aralashmasi"D) yunoncha "qismlarning nisbati"

2.Temperament borasidagi dastlabki ta'limot kim tomonidan yaratilgan?

A) Gippokrat B) GalenV) I.P.PavlovG) LesgaftD) I.M.Sechenov

3 ……. fikricha insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi?

A) Galen B) U.Sheldon V) Lestgaft G) Gippokrat D) I.P.Pavlov

4.Gippokrat fikricha inson organizmdagi suyuqliklar nechta guruhga ajratiladi?

A) 2ta B) 3 taV) 5 ta G) 6 ta D) 4 ta

5.O'tning xususiyati qurug'likdir uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

A) holerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanholik D) bu xarakter xususiyati

6.Qonning xususiyati issiqlikdir uning vazifasi tanani isitib turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

A) holerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanholik D) bu xarakter xususiyati

7.Qora o'tning xususiyati namlikdir uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

A) holerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanholik D) bu xarakter xususiyati

8.Balg'amning xususiyati badanni sovutib turishdan iboratdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

A) holerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanholik D) bu xarakter xususiyati

9.Temperamentning fiziologik asoslari qaysi olim tomonidan keng doirada tadqiq qilgan?

A) I.M.Sechenov B) I.P.Pvalov V) I.Kant G) Lestgaft D) Gippokrat

10.Qaysi qatorda temperament tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo’ladigan individual xususiyatdir B) shaxsning hissiy qo’zg’aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig’indisi V) shaxsda his-tuyg’ularning paydo bo’lishi tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo’ladigan individual psixologik xususiyatlarning majmuasidirG) barcha javob to’g’ri D) to’g’ri javobllar berilmagan

11.Temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) temperamentning ayni bir xil xususiyatlari xuddi bir odamning o’zida faoliyatning har xil turlarida va har turli maqsadlarda namoyon bo’ladi.

B) temperamentning xususiyatlari odam hayotining butun davomida va ma'lum bir qismida barqaror va o’zgarmasdir.V)mazkur odamlarda temperamentning turli xususiyatlari bir-biri bilan tasodifan birlashmay balki bir-biri bilan qonuniy bog’langan bo’lib bu xususiyatlar temperament tipini aniqlovchi muhim tuzilmani hosil qiladi. G) barcha javoblar to’g’ri D) to’g’ri javob berilmagan

12. Qaysi qatorda temperament xususiyatlariga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) bir inson psixik faoliyati tezligini ifodalovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlari B) odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo’ladigan individul xususiyatlar V) shaxs faoliyati xulq-atvorining tezligi va hissiy tomonini ifodalovchi shaxsning barqaror xususiyatlari yig’indisiG) hissiy qo’zg’aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual psixologik xususiyatlari majmuidir.D) barcha javoblar to’g’ri

13.Qaysi qatorda I.P.Pavlov tomonidan klassifikasiya qilingan temperament tiplari ko’rsatilgan?

A) qo’zg’alish va tormozlanish jarayonining kuchi B) qo’zg’alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o’rtasidagi muvozanatlilik darajasi V)qo’zg’alishning tormozlanish bilan almashinishning tezligi yoki nerv jarayonining harakatchanligi

G) barcha javoblar to’g’ri D) to’g’ri javob berilmagan

14.I.P.Pavlov tomonidan ajratib ko’rsatilgan asab tizimining tipii qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) kuchli muvozanatsiz epchil B) kuchli muvozanatli epchil V) kuchli muvozanatli sustG) kuchsiz muvozanatsiz sust D) barcha javoblar to’g’ri

15.Temperamentga bog’liq bo’lgan asab tizimining ochilgan tiplari inson va hayvonlar uchun umumiy bo’lib, ular……..tiplar deb ataladi?

A) aralash B) umumiy V) qorishma G) yakkahol D) konstruktiv

16. Temperamentning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) shartli reflekslar B) oliy nerv faoliyat tiplari V) asab tizimining umumiy tiplari

G) shartsiz reflekslar D) barcha javoblar to’g’ri

17.Temperament asab tizimining umumiy tipiga emas, balki tana gavda tuzilishining nisbatiga bog’liq deb hisoblaydilar. Mazkur nazariya tarafdorlari qaysi qatorda keltirilgan?

A) I.M.Sechenov va I.P.Pavlov B) Galton va Galen V) Lestgaft va I.Kant

G) Krechmer va Sheldon D) Arastu va Gippokrat

18.Psixik reaksiyani yuzaga keltirish uchun zarur bo’lgan nihoyatda kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab xulosa chiqarish ……..deb ataladi?

A) senzitivlik B) reaktivlik V) faollik G) reaktivlik va faollikning o’zaro munosabati D) reaksiya tempi

19. …….bir xil kuch bilan ta'sir qiluvchi tashqi va ichki taassurotlarga odam qanday kuch bilan emosional reaksiya qilishiga qarab xulosa chiqarish ya'ni hissiylik va ta'sirlanuvchanlik.

A) senzitivlik B) reaktivlik V) faollik G) reaktivlik va faollikning o’zaro munosabati D) reaksiya tempi

20……..odam qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarini amalga oshirilishida tashqi hamda ichki qarshiliklarni faollik bilan yengishdir?

A) senzitivlik B) reaktivlik V) faollik G) reaktivlik va faollikning o’zaro munosabati D) reaksiya tempi

17-MAVZU: XARAKTER VA SHAXS

REJA:

17.1.Xarakter haqida tushuncha.
17.2.Xarakterning fiziologik asoslari
17.3.Xarakter tarkibi
17.4.Xarakter aktsentuatsiyasi
17.5.Xarakter tipologiyasi
17.6.Xarakterning shakllanishi

Tayanch iboralar

Genotip (yunon. Genos - kelib chiqish, typos - namuna) - ota - onadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

Dinamik stereotip (yunon. dynamikos - kuchli, stereos - qattiq tipos - iz) - bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi.

Introversiya - shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.

Milliy xarakter (yunon. cxarakter - xususiyat, belgi) - biror bir millatga xos xususiyatlar.

Milliy sterotip (yunon. Stereos - qattiq typos - iz shakl) - ma'lum illatning obrazi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, xulq - atvorini namoyon qiladi.

Fenomen (yunon. phainomenon - yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) - his-tuyg'ular tajribasi bilan payhaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha;

Fiziognomika (yunon. physis - tabiat, gnomon - biluvchi) - insonning tashqi ko'rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o'rtasidagi qatiy bog'liqlik.

Xiromantiya (yunon, cher - qo'l, man - fol) - odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish.

Xarakter(yunon. cxarakter - xususiyat, belgi) - kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z - o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. cxarakter - xususiyat, belgi, lot. accentus – urg'u) - xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi).

Ekstraversiya (lot. Extra - haddan tashqari, verso - o'zgarish) - shaxsning tevarak - atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA

17.1.Xarakter haqida tushuncha.

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. "Xarakter" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib " tamg'a, belgi " degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakterxislatlarida ifodasini topadi. Shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakterxislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunonchi aqlning topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi kabi individual psixologik xususiyatlar bunga misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqarorxususiyatlari majmuasi xarakter deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakterdeganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakterxislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakterxislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakterxislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshiharakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqihalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni, shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muhimvazifasidir. Shaxsning qa'tiyatlilik, tanqidiylik, fahm- farosat, ko'zatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. Odatda shaxsning munosabatlari xarakterxislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilini aniqlash imkoniyatiga ega:

- ✓ Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarning o'ziga xos xislati uning munosabatlariga bog'liq.
- ✓ Har qanday favquloddagi tipik (muhitdagi) xarakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir.
- ✓ Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga:

1. diqqatning to'planishiga;
2. harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga;
3. irodaviy zo'r berishga;
4. usullar mahsuldorligiga;
5. aqlning ishtirokiga bog'liq.

The main aims of trait research include identifying and conceptualizing important personality traits, accurately measuring individual differences in traits, and ultimately using traits to understand behavior. Trait research also examines the developmental antecedents of personality and seeks to predict short-term behaviors (e.g., delay of gratification and cooperation with others in a group task) and long-term outcomes (e.g., job performance, health, and divorce). Perhaps the most well-known area of trait research concerns the Big Five personality traits: extraversion, neuroticism, conscientiousness, agreeableness, and openness or intellect or culture, which can be measured by any of several different, widely-used questionnaires (McCrae & Costa, 1987; Saucier & Goldberg, 2003). Research suggests that individuals' standing on the Big Five begins to stabilize in their thirties (Caspi, Roberts, & Shiner, 2005), but continue to change to a smaller degree thereafter. Basic traits (including traits in addition to the Big Five) that continue to rise between ages 30 and 70 include social dominance, agreeableness, conscientiousness, and emotional stability.

Openness to experience appears to remain about stable, on average, and social vitality goes down over this period (Roberts, Walton & Viechtbauer, 2006). Traits like these predict a wide-range of important behaviors and life outcomes, such as happiness, social adjustment, marital satisfaction, career choice, job performance, and civic engagement (Ozer & Benet-Martinez, 2006; Roberts, Kuncel, Shiner, Caspi & Goldberg, 2007).

Тадқиқотнинг асосий бош мақсади: шахсни ўзини англаш, турли қобилиятларини шакллантириш ва охир оқибатда ўзлигини тушуниш демакдир. Бундан ташқари чизиқли ёндашув шуни ўрганадики, шахс ўтмишини англашини ривожлантиради, қисқа фурсат ичида хулқ-атворларни башорат қилади (масалан, одоб ахлоқни, гуруҳ муаммоларини бошқалар билан биргаликда бажариш ва ишбилармонлик қобилиятлари) ва узоқдаги натижаларни олдиндан билади.(Масалан, ишга бўлган лаёқат, соғлиқни сақлаш, оилавий муносабатлар). Чизиқли ёндашувнинг энг машҳур қисми шахсга хос 5 та асосий хусусиятлардир: экстраверт, нейротизм, маслаҳатгўй, мададгўй, очиққўнгил (ёки қадриятларни қўллаб қувватловчи. Қайсики англашмовчиликларни бартараф этувчи.) (McCrae & Costa, 1987; Saucier & Goldberg, 2003). Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, шахслар 30 ёшларда бу 5 асосий хусусиятни бир маромга келтиради, лекин баъзи ўзгаришлар рўй беради. (Caspi, Roberts, & Shiner, 2005) Инсоннинг ёши улғайган сари 30-70 ёшлар оралиғида ижтимоий ҳукмронлик каби хислатларни ўзлаштиради. Тажрибалар шуни кўрсатадики, очиққўнгиллилик муқим бўлади, ҳар доим ўртада туради, ижтимоий муҳитни сусайтиради. (Roberts, Walton & Viechtbauer, 2006) Чизиқли ёндашувнинг камчилиги шундаки, одоб-ахлоққа таъриф бериш чоғида уларнинг қаердан келганини билдирмайди. (Pervin, 1994). Мисол учун шахс доимий қайғуради ва тушкунликка бўлган кучли таъсир юқори асабий эканлигини англатади. Аммо, нейротизмнинг ўзи қаердан келиб чиққан деган савол туғилиши мумкин. Қанақа психологик механизм нейротизмни қўллаб-қувватлайди ва юзага келтиради? (*Personality in Social Psychology Gilbert, D. & Fiske, S. (Eds.), The Handbook of Social Psychology (5th Ed.). David C. Funder Lisa A. Fast. Department of Psychology. University if California, Riverside. Riverside, CA. 92521.USA*)

17.2.Xarakterning fiziologik asoslari

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xarakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakterxislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali muharrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi-fenotip xarakteridir. Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakterxislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun **I.P.Pavlovning** ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi xulqini ham idora qiladi. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xarakterpsixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir. Xarakterning mazmunini tashkil qilgan

tomonlarini yoritilishi tufayli, psixologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xarakterxislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri - xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir. Ma'lumki, I.P.Pavlov ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotipni hosil qilish mumkin. Xarakter stereotiplar va so'lak ajralishidan iborat

ijobiy va tormozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitda esa qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm ko'chirish mexanizmi deyiladi. Ko'chirish

mexanizmining mohiyati shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy nerv sistemasida har xil funksional holat paydo bo'ladi, chunonchi, ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga

keladi va bunda ovqatlanish bilan bog'liq dominanta tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alish tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Hayvonlardagi mazkur hodisalarning shaxs xarakteri xislatlari namoyon bo'lishi bilan o'xshashligi mavjud. Bular: 1) ular hayvonlar va odamlar uchun stereotip xususiyatga ega; 2) sharoitga bog'liq holda odamlarda va hayvonlarda bir qo'zg'ovchiga javoban xilma-xil stereotip xususiyatli reaksiyalar tizimi vujudga keladi; 3) funksional holatlar har ikkalasida ham barqaror va doimiy xususiyat kasb etadi. Funksional holatlar hosil bo'lishining tashqi omillariga asoslanib, xarakterxislatlari shakllanishining fiziologik sharoitlaridan biri-ko'chish mexanizmi asosida dinamik stereotiplarning vujudga kelishidir.

Xarakterxislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq nerv tizimining shartli

reflektor funksional holati shaxsning sharoitiga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. Masalan, tajribaga nisbatan tekshiriluvchining munosabati o'zgartirilsa, unda nerv jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak nerv tizimining funksional holati o'zgaradi. Shunday qilib, xarakterxislatlarining asosi ko'chish mexanizmi insonlarda hayvonlarnikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarakterxislatlarining namoyon bo'lishi bilan nerv tizimiga qiyoslansa, u holda birinchisining ruyobga chiqishi o'zgacha fiziologik sharoitga asoslanishi mumkin. Sobiq sovet psixologiyasida ta'kidlanishicha, nerv sistemasi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jihatdan zid harakat usullariga mos tushadi. **B.M.Teplov, V.M.Merlin, Ye.A.Klimovlarning** tadqiqotlarida o'qish, sport va mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakterxislatlari paydo bo'lishining o'zgacha fiziologik sharoiti nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, nerv tizimining umumiy tipi - bu temperamentning fiziologik asosi hamdir. Shuning uchun temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xislatlarining ruyobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlov tajribasining ko'rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta'sir hukm surganda nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirish yoki, aksincha, halaqit berishi mumkin.

17.3.Xarakter tarkibi

Shaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakterxislatlarining muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashhis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. "Simptom" yunon symptoma belgi, mos tushish, "kompleks" lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshisimptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoklik, o'zbilarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakterxislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

- ✓ Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar).
- ✓ Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar).

- ✓ Narsalarga bo’lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo’lish kabilar).
- ✓ Odamning o’z-o’ziga bo’lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag’rurlik, o’zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo’lgan boshqa juda ko’p xususiyatlar ham mavjud: o’ziga ishonish, o’zbilarmonlik, o’ziga bino qo’yish, maqtanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o’zaro bog’liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo’lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo’lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko’rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o’zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o’zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir.

Agar tashqi sharoitning o’zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo’lib, o’zgarib qoladigan bo’lsa, unday paytda odamning xatti-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bular edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo’lishiga qaramay uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikligi ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo’lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog’liq bo’lgan xislatlaridan, bu sifatlar alohida ko’rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, g’at'iyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o’zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, ma'suliyatni his qilish, o’z-o’zini tanqid qilish axloqiy xislatlardir.

17.4.Xarakter aktsentuatsiyasi

Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda ***xarakterning aksentuatsiyasi*** (ortiqcha urg’u berilishi) deb ataladi.

Xarakterga ortiqcha urg’u berilishi ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo’lgani holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi o’ta noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o’zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptasiyaga to’sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to’g’ri davolash sharoitlarida ba'zi to’zatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo’rindir.

Xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg’u berilishi) turlarini tasniflash ancha murakkablik tug’diradi va har xil nomenklaturasi bo’yicha bir-biriga mos kelmaydi. (K.Leongard, A.Lichko). Lekin aksentuatsiyalashgan xususiyatlarning tavsifi ma'lum darajada bir xil bo’lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvaffaqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya ("shizofreniya xususiyatlaqi", "epilepsiya" xususiyatlari va hokazo) bilan to’g’ridan- to’g’ri o’xshashlik bo’lishidan qochgan holda ortiqcha urg’u beriladigan xususiyatlar ro’yxatini keltirish imkoniyatini beradi. Xarakterni ortiqcha urg’u berilgan holda baholash psixiatrning emas, balki pedagogning diqqatini jalb qilishini taqozo etadi, garchi aksentuatsiya muammosining o’rtacha qo’yilishi tarixi psixiatriya va psixonevrologiyaga borib tahalganda ham shunday hisoblanadi.

Nemis psixiatri K.Leongard fikricha, 20-50% kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aktsentuatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. o'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi.

K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi:

- ***Gipertim tip*** - haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.
- ***Distim tip*** - kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.
- ***Sikloid tip*** - kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.
- ***Qo'zg'aluvchan tip*** - muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.
- ***Kuchaytiruvchi tip*** - kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil.
- ***Pedant tip -*** ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.
- ***Xavotirli tip*** - kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.
- ***Emotiv tip*** - tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g'amxo'r, ma'suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.
- ***Namoyishkorona (demonstrativ) tip*** - muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi,hokimiyat va maqtovni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq-atvorga ega.
- ***Ekzaltirlashgan tip-*** o'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.
- ***Ekstrovertlashgan tip*** - muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.
- ***Introvertlashgan tip*** - muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustaqkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va to'zatish mumkin.

17.5.Xarakter tipologiyasi

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari **U.Sheldon, E.Fromm, K.Leongard** va **A.E.Lichkolar** tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etilgan. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan.

1.Inson xarakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo'la boshlaydi va butun hayot davomida barqaror bo'lib boradi.

2.Xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3.Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin.

E.Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitusiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ularning har biri shaxsni ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham, aslida hech qanday ilmiy asoslab bo'lmaydi.

1.Astenik tip - Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishli, o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriq kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi nozik, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2.Atletik tip - skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtachadan yuqori, baland bo'yli, keng elkali, kuchli ko'krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

3.Piknik tip - bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E.Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruhiy kasallik o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E.Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqalituzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

17.6.Xarakterning shakllanishi

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi (egizaqlar). Egizaqlar temperament xususiyatlari jihatdan o'xshasalar ham xarakterxislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini ko'zatadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakterxislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlarga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta. o'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta ma'suliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish, ijobiy tomonlarini tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamentini o'zi idora qilishiga o'rgatishi lozim. o'z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tarzda hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, sexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakterxislatlari tarbiyalanib yetishadi. Kishi jamoada bir-bir bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterni bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi.

Bunday sharoit kishini o’z xarakterini o’zi tarbiyalash, jumladan, o’z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo’lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o’z xarakteri va uning sifatlari uchun o’zi javobgardir. o’z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko’zda tutmog’i lozim. o’z kamchiliklariga iqror bo’lish kamchiliklarini yo’qotishga boshlaydi.

Nazorat savollari:

1. Xarakter tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Xarakterning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
3. Xarakter tipologiyasining mazmuni nimalarda ko’rinadi?
4. Xarakter aksentuatsiyasining mazmunini asoslang?
5. Xarakter tarkibini nimalar tashkil qiladi?
6. Xarakterning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko’rsating?

Test topshiriqlari

1.Xarakter tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang?

A) tag’ma, qiyofa, xislat B) tamg’a, xususiyat, qiyofa V) xususiyat, qiyofa, aralashma G) aralashma, tamg’a, urug’ D) qiyofa, urug’, xislat

2. Qaysi qatorda xarakter tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo’ladigan tipik sharoitlarda ko’rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlar yig’indisi B) shaxsning voqelikka bo’lgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo’ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig’indisi V) shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida tevarak-atrofdagi olamga o’z-o’ziga bo’lgan munosabatlarda namoyon bo’ladigan individual psixologik xususiyat G) to’g’ri javob berilmagan D) barcha javoblar to’g’ri

3.Xarakterning fiziologik asosi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) asab tizimining tipi B) individual hayot jarayonida asab tizimining o’zgargan xususiyatlari V) dinamik sterotip G) barcha javoblar to’g’ri D) to’g’ri javob berilmagan

4.Xarakterning fiziologik asosini tushunishda qaysi olimning nazariyasi muhim ahamiyatga ega?

A) I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati borasidagi nazariyasi B) I.M.Sechenovning shartli reflekslar borasidagi nazariyasi V) I.P.Pavlovning ikkinchi signallar sistemasi haqidagi nazariyasi G) B.Teplovning oliy nerv faoliyati funksiyalari borasidagi nazariyasi D) L.S.Vigotskiyning tarixiy madaniy konsepsiyasi

5.Xarakter tipologiyasi birinchi marta qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?

A) E.Krechmer B) E.FrommV) K.Leongard G) U.Sheldon D) A.Lichko

6. Inson xarakterining barcha tipologiyalari qanday g’oyalarga asoslanadi?

A) inson xarakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo’la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo’lib boradiB) xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iboratV) ko’pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin G) to’g’ri javob berilmagan

D) barcha javoblar to’g’ri

7.E.Krechmer inson tana tuzilishiga ko’ra qanday tiplarga ajratadi?

A) gipertim, distim, sikloid B) astenik, atletik, qo’zg’aluvchan V) xavotirli,emotiv, piknik G) astenik,atletik,piknik D) sikloid, emotiv, pedant tip

8.E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq astenik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo’lmagan gavda tuzilishi o’rtacha yoki undan balandroq bo’yli oriq kishilardir B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o’rtadan yuqori baland bo’yli keng yelkali kuchli ko’krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh ko’krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir. G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o’zini

olib qochadigan uyda yolg’iz qolishni yoqtiradi. D) kayfiyati tez o’zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o’xshab qoladi.

9.E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq atletik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo’lmagan gavda tuzilishi o’rtacha yoki undan balandroq bo’yli oriq kishilardir B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o’rtadan yuqori baland bo’yli keng yelkali kuchli ko’krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh ko’krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir. G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o’zini olib qochadigan uyda yolg’iz qolishni yoqtiradi. D) kayfiyati tez o’zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o’xshab qoladi.

10.E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq piknik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo’lmagan gavda tuzilishi o’rtacha yoki undan balandroq bo’yli oriq kishilardir B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o’rtadan yuqori baland bo’yli keng yelkali kuchli ko’krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh kukrak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir. G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o’zini olib qochadigan uyda yolg’iz qolishni yoqtiradi. D) kayfiyati tez o’zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o’xshab qoladi.

11.Xarakter xususiyatlari nechta tizimga farqlanadi?

A) 2ta B) 6ta V) 4ta G) 8 ta D) 5ta

12.Qaysi qatorda xarakter xususiyatlari tarkibidagi tizim to’g’ri ko’rsatilgan?

A) jamoa va ayrim odamlarga bo’lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar

B) mehnatga bo’lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar V) narsalarga bo’lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar G) odamning o’z-o’ziga bo’lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar D) barcha javoblar to’g’ri

13.Qaysi qatorda jamoa va ayrim odamlarga bo’lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo’lish G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag’rurlik o’zini katta olish kamtarlik D) barcha javoblar to’g’ri

14.Qaysi qatorda mehnata bo’lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik V) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo’lish G) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag’rurlik o’zini katta olish kamtarlik D) barcha javoblar to’g’ri

15.Qaysi qatorda narsalarga bo’lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlik B) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehhnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlikV) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo’lishG) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag’rurlik o’zini katta olish kamtarlik D) barcha javoblar to’g’ri

16.Qaysi qatorda odamning o’z-o’ziga bo’lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar keltirilgan?

A) yaxshilik, mehribonlik talabchanlik, takabburlikB) mehnatsevarlik yalqovlik vijdonlilik mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlikV) ozodalik yoki ifloslik narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo’lishG) izzat-nafslilik shuhratparastlik mag’rurlik o’zini katta olish kamtarlik D) barcha javoblar to’g’ri

17. Xarakter tarkibida nechta xil xususiyatlar guruhini ajratish mumkin?

A) 2ta B) 6ta V) 4 ta G) 3 ta D) hech qanday guruhlarga ajratilmaydi.

18. Xarakterning plastikligi necha xil ma'noga ega?

A) 2ta B) 6ta V) 4 ta G) 3 ta D) hech qanday guruhlarga ajratilmaydi.

19.Qaysi qatorda xarakter xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?

A) barqarorligi plastikligi o'zgaruvchanligi B) chuqurligi kuchi va faolligi barqaror va o'zgaruvchanligi V) axloqiy irodaviy G) barcha javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob berilmagan

20. Biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarining yomonlashishiga olib kelishidir. Mazkur ta'rif qaysi tushunchaning mazmunini belgilab beradi?

A) xarakter B) xarakter xususiyatlari V) xarakter aksentuatsiyasi G) manmanlik

D) qaysarlik

18-MAVZU: QOBILIYAT VA SHAXS TAJRIBASI.

REJA:

18.1.Qobiliyat haqida tushuncha.

18.2.Qobiliyatlarning miqdor va sifat tavsifi

18.3.Qobiliyatlar tasnifi

18.4.Qobiliyatlar tarkibi

18.5.Talantning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Tayanch iboralar

Aqliy rivojlanish mezoni (ong IQ - aqliy yosh (AYo) va xronologik yosh (XYo) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon. A.r.m. ushbu formula orqali aniqlanadi:

JQ = x 100

Intellektning biror bir yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin.

Geniallik (lot. Genius - aql zakovat, buyuk iste'dod) - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

Zehn, layoqat - nerv tizimining ba'zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo'lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug'ma tabiiy zaminidir.

Iste'dod - shaxsning ma'lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Kommunitkasion qobiliyatlar - kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobiliyat.

Layoqat - nerv tiziminnig ba'zi irsiy determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlanishining dastlabki yakka tug'ma, tabiiy zaminidir.

Mayl - shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Musiqiy qobiliyat - shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.

Umumiy iste'dod - kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining o'ziga xosligi darajasini belgilab beradi.

Frenologiya (yunon. phren - ong, logos - ta'limot) - odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Qobiliyatlar - shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

4. Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010. www.worthpublishers.com.

18.1.Qobiliyat haqida tushuncha.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib oq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. o'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib toppish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Masalan, Albert Enshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda kata yutuqlar qo'lga kiritiladi. qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. qobiliyatko'nikmadaro'yobgachiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malalakalar yetishmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik bu endi qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.



What Is Intelligence?

1:What argues for and against considering intelligence asone general mental ability?

Factor analysisis a statistical procedure that has revealed some underlying commonalities in different mental abilities. Spearman named this common factor the g factor. Thurstone

argued against defining intelligence so narrowly as just one score. He identified seven different clusters of mental abilities. Yet there remained a tendency for high scorers in one of his clusters to score high in other clusters as well. Our gscores seem most predictive in novel situations and do not much

correlate with skills in evolutionarily familiar situations.

2:How do Gardner's and Sternberg's theories of multiple intelligences differ?

Gardner proposes eight independent intelligences: linguistic, logical-mathematical, musical, spatial, bodily-kinesthetic, intrapersonal, interpersonal, and naturalist. Sternberg's theory has proposed three intelligence domains: analytical (academic problem-solving), creative, and practical. (For more on the single-intelligence/multiple intelligences debate, see Table 10.2).

3:What is creativity, and what fosters it?

Creativityis the ability to produce novel and valuable ideas. It correlates somewhat with intelligence, but beyond a score of 120, that correlation dwindles. It also correlates with expertise, imaginative thinking skills, a venturesome personality, intrinsic motivation, and the support offered by a creative environment.

4:What makes up emotional intelligence?

Emotional intelligenceis the ability to perceive, understand, manage, and use emotions. Those with higher emotional intelligence achieve greater personal and professional success. However, critics question whether we stretch the idea of intelligence too far when we apply it to emotions.

5:To what extent is intelligence related to brain anatomy and neural processing speed?

Recent studies indicate some correlation (about +.33) between brain size (adjusted for body size) and intelligence score. Highly educated or intelligent people exhibit an above-average

volume of synapses and gray matter. People who score high on intelligence teststend also to have speedy brains that retrieve information and perceive stimuli quickly.

Assessing Intelligence

6:When and why were intelligence tests created?

In France in 1904, Alfred Binet started the modern intelligencetesting movement by developing questions that helped predict children's future progress in the Paris school system. Lewis

Terman of Stanford University revised Binet's work for use in the United States. Terman believed his Stanford-Binet could help guide people toward appropriate opportunities, but more than Binet, he believed intelligence is inherited. During the early part of the twentieth century, intelligence tests were sometimes used to "document" scientists' assumptions about the innate inferiority of certain ethnic and immigrant groups.

7:What's the difference between aptitude and achievement tests, and how can we develop and evaluate them?

Aptitude testsare designed to predict what you can learn. Achievement testsare designed to assess what you have learned. TheWAIS (Wechsler Adult Intelligence Scale), an aptitude test, is the most widely used intelligence test for adults. Such tests must be standardized,by giving the test to a representative sample of future test-takers to establish a basis for meaningful score comparisons. The distribution of test scores often form a normal,bell-shapedcurve. Tests must also be reliable,by yielding consistent scores (on two halves of the test, or when people are retested). And they must be valid. A valid test measures or predicts what it is supposed to. Content validityis the extent to which a test samples the pertinent behavior (as a driving test measures driving ability). Predictive validityis the extent to which the test predicts a behavior it is designed to predict (aptitude tests have predictive ability if they can predict future achievements).

The Dynamics of Intelligence

8:How stable are intelligence scores over the life span?

The stability of intelligence test scores increases with age. By age 4, scores fluctuate somewhat but begin to predict adolescent and adult scores. At about age 7, scores become fairly stable and consistent.

9:What are the traits of those at the low and high intelligence extremes?

Those with intelligence test scores below 70, the cut-off mark for the diagnosis of mental retardation (now often called intellectual disability), vary from near-normal to those requiring constant aid and supervision. Down syndromeis a form of retardation with a physical cause—an extra copy of chromosome

21. High-scoring people, contrary to popular myths, tend to be healthy and well-adjusted, as well as unusually successful academically. Schools sometimes "track" such children, separating them from those with lower scores. Such programs can become self-fulfilling prophecies as children live up to—or down to—others' perceptions of their ability. Genetic and Environmental Influences on

Intelligence

10:What does evidence reveal about hereditary and environmental influences on intelligence?

Studies of twins, family members, and adoptees together point to a significant hereditary contribution to intelligence scores. The search is under way for genes that together contribute to intelligence. Yet research also provides evidence of environmental influence. The intelligence test scores of fraternal twins raised together are more similar than those of other siblings, and the scores of identical twins raised apart are slightly less similar (though still very highly correlated) than the scores of identical twins raised together. Other studies, of children reared in extremely impoverished, enriched, or culturally different environments, indicate that life experiences can significantly influence intelligence test performance.

11:How and why do gender and racial groups differ in mental ability scores?

Males and females average the same in overall intelligence. There are, however, some small but intriguing gender differences in specific abilities. Girls are better spellers, more verbally fluent, better at locating objects, better at detecting emotions, and more sensitive to touch, taste, and color. Boys outperform girls at spatial ability and related mathematics, though girls outperform boys in math computation. Boys also outnumber girls at the low and high extremes of mental abilities. Psychologists debate evolutionary, brain-based, and cultural explanations of such gender differences. As a group, Whites score higher than their Hispanic and Black counterparts, though the gap is not as great as it was half a century and more ago. The evidence suggests that environmental differences are largely, perhaps entirely responsible for these group differences.

12:Are intelligence tests inappropriately biased?

Aptitude tests aim to predict how well a test-taker will perform in a given situation. So they are necessarily "biased" in the sense that they are sensitive to performance differences caused by cultural experience. But bias can also mean what psychologists commonly mean by the term—that a test predicts less accurately for one group than for another. In this sense of the term, most experts consider the major aptitude tests unbiased. Stereotype threat,a self-confirming concern that one will be evaluated based on a negative stereotype, affects performance on all kinds of tests.

Aql, qobiliyat nima?

1) Nima uchun va bir umumiy aqliy qobiliyati sifatida aql hisobga qarshi bahs yuritadi? Factor turli aqliy qobiliyatlarini ba'zi asosiy umumiy manfaatlar nozil qilgan bir statistik tartibini analysisis. Spearman bu umumiy omil g omil ismli. Thurstone faqat bir ball, shuning uchun ozgina aql belgilab qarshi ilgari surdi. U ruhiy qobiliyatlarini etti xil guruhlarini aniqladi. Hali bor, shuningdek, boshqa Klaster yuqori gol uning klaster birida yuqori to'pурarlar uchun moyilligini qoldi. Bizning g bal yangi vaziyatlarda eng bashoratli ko'rinadi va ko'p evolyutsion tanish vaziyatlarda ko'nikmalarini bilan bog'liq emas.

2) Bir necha aql Gardner va Sternberg ning nazariyasi qanday farq qiladi? til,- mantiqiy matematik, musiqa, bo'shliqqa oid, tana-kinestetik, pastki, kişilerarası va tabiatshunos: Gardner sakkiz mustaqil aql taklif etdi (akademik muammo hal qilish), ijodiy, amaliy: Sternberg nazariyasi uch razvedka domenlarni taklif etdi. (Bitta-razvedka ko'p ongli munozara haqida ko'proq uchun, jadval 10,2 qarang).

3) Nima u ijodkorlik va nima uni uyg'otayotgan? Ijod yangi va qimmatli g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyatidir. Bu aql bilan ba'zi nima bog'liq, lekin 120 hisobida tashqarida, deb korrelyatsiya degan. Bundan tashqari, ekspertiza, obrazli fikrlash ko'nikmalarini, bir xavfli shaxsi, ichki turtki va ijodiy muhit taklif qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq.

4) Nimani hissiy aql tashkil etadi? , Sezmagan tushunish, boshqarish va his-tuyg'ularini foydalanish qobiliyati intelligenceis hissiy. yuqori hissiy aql bilan birga bo'lganlar katta shaxsiy va professional muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Biroq, tanqidchilar, biz his-tuyg'ular, uni qo'llash qachon biz ham uzoq razvedka g'oyasini uzatmoqchi shubhalana boshlagan.

5) Qay darajada aql miya anatomiyasi va asab ishlash tezligi bilan bog'liq? Oxirgi ish (tana kattaligi uchun o'rnatiladi) miya hajmi va razvedka hisobida orasida ayrim bog'liqlik (taxminan +.33) ko'rsatadi. Oliy ma'lumotli yoki aqlli odamlar Nerv va kulrang materiyaning bir yuqorida o'rtacha hajmi namoyish. razvedka teststend yuqori ball Odamlar ham ma'lumot olish va tez yanada rag'batlantirish, sezmagan tez miyalariga ega bo'lishi. baholash Intelligence

6) Qachon va nima uchun Maxfiy sinovlari tashkil etildi? 1904 yilda Fransiyada, Alfred Binet Parij maktab tizimida bolalar kelajakda taraqqiyot oldindan yordam berdi, deb rivojlanayotgan savollarga tomonidan zamonaviy intelligencetesting harakatini boshladi. Stanford universitetining Lyuis Terman Amerika Qo'shma Shtatlarida foydalanish uchun Binet ishini qayta ko'rib. uning Stenford-Binet tegishli imkoniyatlar sari hidoyat odamlarga yordam mumkin Terman'ın lekin ko'proq Binet ko'ra, u razvedka meros iymon. XX asr boshlarida davomida, razvedka testlar ba'zan ayrim etnik va immigratsion guruhlar tabiiy xor haqida "hujjat" olimlarning taxminlarga ishlatildi.

7) Nima ko'nikma va muvaffaqiyat testlar o'rtasidagi farq, va qanday qilib biz ishlab chiqish va ularni baholash mumkin? Salohiyatining yuksak samaralarining amaldagi testsare siz o'rganishimiz mumkin, nima bashorat qilish uchun mo'ljallangan. Agar o'rgangan nima baholash uchun mo'ljallangan muvaffaqiyat testsare. WAIS (Wechsler Adult Intelligence Scale), talablarga mesh, kattalar uchun eng keng tarqalgan razvedka test hisoblanadi. Bunday test mazmunli ball solishtirish uchun asos barpo etish bo'lajak test-tutsa, albbatta, bir namuna sinov berib, standartlashtirilgan bo'lishi kerak. test ballar tarqatish ko'pincha oddiy qo'ng'iroq shapedcurve tashkil etadi. Testlar ham (ikki sinov yarmi yoki odamlar test tobe bo'lsa haqida) izchil ball berayotir tomonidan, ishonchli bo'lishi kerak. Va ular, A amal test chora-tadbirlar joriy bo'lishi yoki kerak nima bashorat kerak. Tarkib qanchalik validityis qaysi bir sinov namunalari (qobiliyatini haydash Haydash test chora-tadbirlari kabi) muvofiq xatti. Bashoratli sinov (test ko'nikma ular kelajakda yutuqlarini oldindan mumkin, agar bashoratli qobiliyatiga ega) intellekt dinamikasi oldindan uchun mo'ljallangan bir xatti bashorat qay darajada.

8) Hayot davomida razvedka bal qanday barqaror bo'ladi? aql besh ballar barqarorlik yoshi bilan ortadi. yoshi 4 bal o'zgarayapti o'smir va kattalar ballar oldindan boshlaydi. Nima lekin ba'zi yoshi haqida 7 bal adolatli barqaror va izchil bo'lib.

9) Past va yuqori razvedka haqida kishilarning xususiyatlari qanday? 70 Quyidagi razvedka test ball bilan birga bo'lganlar, (endi tez-tez intellektual nogironlik deb ataladi) ruhiy rivojlanishdan orqada diagnostikasi uchun kesilgan-off belgisi doimiy yordam va nazorat talab kishilarga near- normal dan farq qiladi. Down mashhur afsonaning zid xromosoma 21. Yuqori xavfli odamlar, qo'shimcha nusxasi, ilmiy sog'lom va og'ir, shuningdek ayniqsa muvaffaqiyatli bo'lish istagi jismoniy sabab bilan orqada bir shakl syndromeis. Maktablar ba'zan kam ball bilan birga bo'lganlar, ularni ajratib, bunday bolalarni "kuzatish". Bunday dasturlar o'zini

bolalar to-- yashashga sifatida bashoratlarni amalga yoki-boshqalarning o'z qobiliyatini idrok pastga bo'lishi mumkin. Intellekt haqida genetik va atrof-muhit ta'siri.

10) Dalillar aql haqida irsiy va ekologik ta'sirlarga haqida nima deyiladi? egizaklar, oila a'zolari va adoptees faoliyatlari birga razvedka ballar uchun muhim irsiy hissasi ishora. qidiruv birga aql hissa genlar uchun yo'l ostidadir. Biroq tadqiqot ham ekologik ta'siri dalolat beradi.

egizaklar boshqa birodarlar ko'ra ko'proq o'xshaydi, va bir-biridan ko'tardi xil egizak ballar oz birga ko'tarib xil egizak ball ortiq (hali ham juda yuqori bog'liq bo'lsa-da,) kamroq o'xshash. Boshqa tadqiqotlar, boyitilgan, juda qashshoq, yoki madaniy turli muhitlarda yetishtiriladigan bolalar, hayot tajribalari sezilarli darajada aql mesh faoliyatini ta'sir qilishi mumkin, deb ko'rsatadi.

11) Qanday nega gender va irqiy guruhlar ruhiy qobiliyatini ball farq qilasiz? Erkak va urg'ochi umumiy aql ham bir xil o'rtacha o'ziga xos qobiliyatlarini ba'zi kichik, ammo qiziqarli gender farqlar, ammo, bor. Qizlar yaxshiroq aniqlash tuyg'ular da yaxshiroq joylashtirish ob'ektlari, yaxshiroq spellers, ko'proq og'zaki ravon, va teginish ko'proq sezgir, ta'mi va rang bo'ladi. qizlar matematika hisoblash o'g'il outperform da Boys, fazoviy qobiliyati va tegishli matematika qizlar ancha ustun turadi. Boys ham aqliy qobiliyatlarini past va yuqori haddan da qizlarni ko'proq. Psixologlar bunday gender farqlar, evolyutsion miya asoslangan va madaniy tushuntirishlar turib tortishadiganlari bor. u ko'proq oldin yarim asr bo'ldi va farq katta emas-da bir guruh sifatida, Real Madrid, ularning ispan va qora nisbatan yuqori ball. dalillar ekologik farqlar, asosan, ushbu guruh farqlar uchun, ehtimol, butunlay mas'ul bo'lgan, deb taklif qiladi.

12.Razvedka noto'g'ritest xulosa oladimi? Salohiyatining yuksak samaralarining amaldagi testlar bir sinov-taker berilgan vaziyatda amalga qanday yaxshi bashorat qilish niyatidamiz. Bas, ular madaniy tajriba oqibatida ishlashi farqlar sezgir ma'noda albatta "xulosa" bo'ladi. Lekin qiyshiq ham psixologlar, tez-tez tomonidan degani nima degani mumkin muddatli-bir test kamroq aniq boshqa uchun bir necha guruh uchun bashorat. muddati Shu ma'noda, eng ekspertlar yirik ko'nikma xolis sinaydi ko'rib. Nomozov tahdid bir salbiy olamiga hukmronlik asosida baholanadi, deb o'z-o'zini tasdiqlovchi tashvish, testlar barcha turlari bo'yicha faoliyatini ta'sir qiladi. ***(Psychology. David G. Myers. Hope College Holland, Michigan, WORTH PUBLISHERS. New York 2010.*** www.worthpublishers.com

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, uqishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyat nimu muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatliligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yok iyordamchi xususiyatlarni farq qilishlozim.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchandir.

18.2.Qobiliyatlarning miqdor va sifat tavsifi

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil

sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o’z qobiliyatlari bo’yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o’rtasidagi farqlar sifat va miqdor jiqatidan bo’lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo’yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo’sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog’lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O’quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo’lishini va binobarin o’quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o’quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo’llar bilan borishga imkon beruvchi "o’zgaruvchan miqdor" to’plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig’indisi sifatida ko’riladi. Bir xususiyatlarni o’rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o’zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin. Pedagog va psixolog Skolovinskiy ko’r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyatini emas, balki adabiy qobiliyat bilan, boshqarish yordami bilan to’ldirish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o’zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o’lchash muammosi bilan ko’proq chet el psixologlari (Kettell, Termen, Spirmen) va boshqalar shug’ullanganlar. Ular kattalarda qobiliyatni o’lchash usuli sifatida aqliy iste'dod

testlaridan foydalanganlar. Bolaning aqliy iste'dod koeffisenti

I Q aqliy yoshi

Bolaning haqiqiy yoshi

Bu usul odamning aqliy qobiliyatlar egasi ekanligini emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashtirib bo’lmaydigan biror bir xildagi ma'lumotlar, ko’nikma va malakalar borligini namoyon qiladi.

L.S.Vigotskiy bu usulni tanqid qilib, o’zining kelajak taraqqiyot zonasini belgilash "metodi" deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo’lmaydi. Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo’ladi.

18.3.Qobiliyatlar tasnifi

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1.Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo’lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo’lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2.Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo’lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o’z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo’linadi.

3.Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo’l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo’linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo’lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto’g’ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat

ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, holos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q.



Nihoyat, shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlarni tan oladilar. Umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spesifik zehn nishonalariga mos tushishi mumkin.

Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uch turga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb klassifikasiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi.

Ilmiy qobiliyat abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizik, matematik qobiliyat, ximiya, filosofiya, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar.

Badiiy qobiliyat sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'limini, o'tkir emosional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

Amaliy qobiliyat praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar mavhum, mantiqiy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi.

O'quv qobiliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxs - shakllanishi, pedagogik ta'sirlar samaradorligini ortishida ijobiy rol o'ynaydi.

Ijodiy qobiliyatlar moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarini yaratish, yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo'ladi.

18.4.Qobiliyatlar tarkibi

Odam egallaydigan faoliyat uning xususiyatlariga yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat taraqqiyotining juda yuksak darajasida bo'lsa ham qondira olmaydi. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyatlar tarkibi aniq faoliyat talabi bilan belgilanadi va har turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat, adabiy qobiliyat, pedagogik, musiqaviy, ixtirochilik va shifokorlik qobiliyatlari tuzilishi maxsus tarkibga ega. Aniq qobiliyatlar tarkibini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari orasida ayrimlari yetakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini egallaydi. Masalan, pedagogik qobiliyatlar tarkibida yetakchi sifat pedagogik takt, ko'zatuvchanlik, bolalarni sevish, ularga nisbatan yuksak talabchanlik, bilimlarni berishga ehtiyoj, yordamchi tarzda tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Har turli qobiliyatlarda bir emas, balki bir necha turdagi faoliyat turlari talablariga javob beradigan birmuncha umumiy sifatlarni ajratishimiz mumkin, bundan tashqari, mazkur faoliyatni bir muncha torroq doirasi uchun javob beruvchi maxsus sifatlarni ajratishimiz mumkin. Bu narsa ularda har tomonlama qobiliyatlar borligi, har turli kasblar, mashg'ulotlarning keng sohalariga doir umumiy qobiliyatlar borligi haqida gapirish imkonini beradi. Bu ikkinchi signallar tizimi haqidagi ta'limot bilan bog'liqdir.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u hoh ta'lim, hoh mehnat, hoh o'yin, hoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyaan talablar qo'yadi va ularning hamkorligidagi sa'i-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat qanchalik ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlarni uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganlik tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi aynan haqiqatdir. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz.

1***) Matematik qobiliyat*** matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qishartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, unumlilik, masala yechishda fikr yuritishni epchilligi kabilar.

2) Adabiy qobiliyat nafosat hislarining yuksak taraqqiyoti darajasi xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonligini, "til zehni", behisob xayolan ruhiyatga qiziquvchanlik, intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan manbalari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi **I.P.Pavlov** o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taallu?li ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi. Birinchi signallar tizimi obrazlar, emosiyalardan va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqidaso'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi I.P.Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq

qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson "badiiy" tipga taaluqlidir;

2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa, bu shaxs "fikrlovchi" tipga mansubdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson "aralash" tipga mansub odamdir.

Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. "Badiiy tip" uchun bevosita u taassurotlar jonli tasavvur, yorqin idrok, qis-tuyg'ular (emosiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

2. "Fikrlovchi tip" uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqlning yengilmasligini bildirmaydi, lekin bu o'rinda gap psixika obrazli jabhalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida beradi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, shaxsning ikkinchi signallar tizimidan ustunlik qiladi va bu ustuvorlik mutloqlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkurning o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqning aks ettirish jarayoni so'zlar, fikrlov vositasida ro'yobga chiqariladi.

Qobiliyatlarning tabiiy asoslari

Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi.

Qobiliyatning tug'maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qilmaydi. Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi a'zolariga va funksional xususiyatlariga layoqat deb ataladi. Layoqat ko'p qirralidir. Shaxs tomonidan qo'yilgan talablarning tabiatiga bog'liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatlari miya yarim sharlarida o'zining maxsus qat'iy markazlariga ega, ya'ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do'mboqchalarni shunchaki paypaslab ko'rish orqali go'yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi. Layoqatning miya miqdori, massasi va og'irligiga bog'liqligi haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining o'rtacha og'irligi 1400 grammga yaqin bo'ladi. U.S. Turgenev miyasining og'irligi 2001 gramm, D.G Bayronniki 1800 grammni, mashhur ximik Yu.Libixniki 1360 grammni, yozuvchi Afransniki 1017 gramni tashkil qilgan. Eng katta miya aqliy jihatdan nuqsoni bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan.

1675 yilda **F.Galtonning** "Talantning irsiyatga bog'liqligi qonunlari va oqibatlari" degan kitobi nashr etildi. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning harindoshlik alohalarini o'rganib, talant ota-onadan irsiyat yo'li orqali o'tadi degan xulosaga kelgan. Biroq Galtonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Baxlar oilasida musiqaga bo'lgan talant dastavval 1550 yilda ma'lum bo'lgan. Bu talant 1800 yillarda yashagan qandaydir Regina Susanadan so'ng tamom bo'lgan. Umuman Baxlar oilasida 57 dan ko'p musiqachi bo'lgan. Ularning 20 tasi mashhur bo'lgan.

Bend degan skripkachilar oilasida 9 ta mashhur musiqachi bo'lgan. Goydon oilasida 2 ta mashhur musiqachi bo'lgan. Ko'pchilik qollarda mashhur odamlarning nasl-nasablarini o'rganish biologik irsiyatdan emas, balki hayot sharoitining nasdan naslga o'tishidan, ya'ni hobiliyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi ma'lum bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi faraz mahsuldor bo'lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste'dodli nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risida faraz ham haqiqatga yaqindir.

18.5.Talantning paydo bo’lishi va rivojlanishi

Talantning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat degan ma'noni anglatib, muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta'kidlab o’tiladi, chunonchi shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga talant deyiladi.

Talantning asosiy belgilari:

a) muvaffaqiyatni ta'minlash;

b) faoliyatni mustaqil bajarish;

v) originallik unsurining mavjudligi qobiliyat hamda iste'dodlar yiqindisidan iborat ekanligi;

d) individual psixologik xislatliligi;

e) ijtmoiy turmushni o’zgartiruvchi yaratuvchilik imkoniyati kabilar.

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o’tish talant tuzilishini yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi.

1) talant - bu shaxs psixik xislatlarining shunday birikmasidirki, uni a)alohida yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; v) hattonoyob sifat tariqasida o’lchab bo’lmaydi.

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud ekanligi hamda yetarli darajada taraqqiy etganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o’rnini bosib yuborishi (konsensasiya qilish) mumkin. Moskvaning umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o’quvchilarning talanti, iste'dod tushunchasi o’rganilgan. Aniqlangan muhim qobiliyatlar yig’indisi aql iste'dod tuzilishini vujudga keltirilgan. Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagicha bosqichlardan iborat bo’lishi mumkin:

A) bunday shaxsning birinchi xususiyati ziyraqlik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir.

B) shaxsning ikkinchi xususiyati uning mehnatga tayyorgarligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir.

V) insonning uchinchi xususiyati unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartibligi, tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldorligi. Ma'lumotlar tahlilining ko’rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatlardan tashqari aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to’ldiriladi. Talant o’zining umumiy va maxsus sifatlari yig’indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant - katta ijodiy va zo’r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba ko’nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti va hayotiy tajriba zaruriy ko’nikma malakalar yig’indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishdir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo’lishidir.

Agar jamiyat taraqqiyoti bunday kishilarga muhtoj bo’lsa bunday kishilarning paydo bo’lish imkoniyati tug’iladi. Iste'dod qobiliyatlar yig’indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan yakka qobiliyatlar garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo’lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Bu haqda g’oyat o’tkir fenomenal xotiraga ega bo’lgan kishilar haqida o’tkazilgan tadqiqotlar dalolat beradi. Moskvalik psixologlar bir necha yillar davomida ko’zatgan shaxslar o’zida xotiradan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirmadi va shuning uchun u o’zining ajoyib qobiliyatlarga mos keladigan ijobiy muvaffaqiyatga erisha olmadi.

Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasidirki, u qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi muhim ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki yetarli taraqqiy etmaganligi iste'dod sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'rni bosib boriladi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:



Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. qobiliyatlar ilk davrlardanoq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan mutaxassis (mo'zikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li, bilan uchinchidan, umumlashgan aqliy operasiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operasiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlasin. To'rtinchidan, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan. Beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki?, bu alomatlari dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qat'iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potensial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan, maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Qobiliyat turli rivojlanish darajasiga ega bo'lishi mumkin. Ilmiy abstraksiyalash qobiliyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi; reproduktiv va ijodiy aks ettirish darajalari. o'z qobiliyatini rivojlantirishning birinchi darajasidagi kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi. Faoliyatni

o’rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan kishi esa yangilik yaratishga qodirdir. Bu darajalarni tekshirishga metafizik munosabatda bo’lish yaramaydi albatta, birinchidan har qanday reproduktiv aks ettirish, faoliyat ijodiy faoliyat elementlarini ijodiy aks ettirish faoliyati esa reproduktiv faoliyat elementlarini, o’z ichiga hamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo’lmaydi. Ikkinchidan, yuqorida aytilgan darajalar ham qandaydir o’zgarmas va qotib qolgan narsalar emas. Kishi bilimlarni o’zlashtirib, ko’nikma hosil qilish jarayonida faoliyat bir darajadan ikkinchi darajaga o’tib turadi. qobiliyatning tabiiy manbai ham mavjud bo’lib va u tabiiy zehn deb yuritiladi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyatlar tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Qobiliyatlarning sifati va miqdor tavsifi nimalarda ko’rinadi?
3. Qobiliyatlar tuzilishini tarkibini ko’rsating?
4. Qobiliyat borasidagi nazariyalarning mazmuni nimalarda ko’rinadi?
5. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini ajratib ko’rsating?
6. Qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar nimalar bilan belgilanadi?

Test topshiriqlari

1. I.P.Pavlov insonlarni qanday tiplarga ajratadi?

A) badiiy fikrlovchi o’rta B) mavhum mantiqiy V) jonli tasavvur yorqin idrokli

G) badiiy fikrlovchi aralash D) fikrlovchi o’rta yetakchi

2. I.Pavlov insonlarni tiplarga ajratishda nimalarni asos qilib oladi?

A) shartli reflekslar B) shartsiz reflekslar V) oliy nerv faoliyati tiplari

G) birinchi va ikkinchi signallar tizimi D) nerv jarayonlarining qonuniyatlari

3. I.P.Pavlov ikkinchi signallar sistemasini qanday nom bilan ataydi?

A) signallarning signali B) birinchi signallar tizimi V) ikkinchi signallar tizimi

G) fikrlovchi signallar tizimi D) badiiy signallar tizimi

4.Shaxsning psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi ustunlik qilsa bu inson qanday tipga taalluqli bo’ladi?

A) badiiy tipga B) fikrlovchi tipga V) o’rta tipga G) obrazli D) mulohazali

5.Agarda ikkinchi signallar tizimi ustunlik qilsa bu inson qanday tipga taalluqli bo’ladi deb o’ylaysiz?

A) badiiy tipga B) fikrlovchi tipga V) o’rta tipga G) obrazli D) mulohazali

6.Agarda har ikkala signallar tizimi aralashib kegan bo’lsa, bu inson qanday tipga taalluqli?

A) badiiy tipga B) fikrlovchi tipga V) o’rta tipga G) obrazli D) mulohazali

7.Bu tip uchun taassurotlar jonli tasavvur yorqin idrok his-tuyg’ular emosiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir?

A) badiiy tipga B) fikrlovchi tipga V) o’rta tipga G) obrazli D) muloqazali

8.Bu tip uchun mavhumlarning mantiqiy tizimlarning nazariy mulohazalarining metodologik muammolarning ustunligi xosdir?

A) badiiy tipga B) fikrlovchi tipga V) o’rta tipga G) obrazli D) mulohazali

9.Qobiliyatning tabiati va tashhis qilish yo’llarini tekshirishga muvofiq bo’lgan olim qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) V.P.Yagunkova B) V.A.Kruteskiy V) S.P.Kudryasev G) F.Galton

D) A.V.Kovalyov

10. Qaysi olim tomonidan matematik qobiliyatlar o’rganilgan?

A) V.P.Yagunkova B) V.A.Kruteskiy V) S.P.KudryasevG) F.Galton

D) A.V.Kovalyov

11.O’zbek psixologlaridan qaysi olim texnik qobiliyatlar muammosi bilan shug’ullangan?

A) V.KarimovaB) B.Qodirov V) M.Davletshin G) G’.ShoumarovD) R.Sunnatova

12. Qaysi qatorda qobiliyat tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo’llanilishini ifodalovchi layoqat B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasiV) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyatiG) shaxsning biror faoliyatga bo’lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyatiD) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo’lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik-fiziologik xususiyati

13. Qaysi qatorda layoqat tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo’llanilishini ifodalovchi layoqatB) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasiV) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati

G) shaxsning biror faoliyatga bo’lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyatiD) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo’lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik- fiziologk xususiyati

14.Qaysi qatorda talant tushunchasiga to’g’ri ta'rif berilgan?

A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo’llanilishini ifodalovchi layoqat B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasiV) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati

G) shaxsning biror faoliyatga bo’lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyati D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo’lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik-fiziologk xususiyati

15. Faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati nima deb ataladi?

A) talent B) qobiliyat V) doholik G) layoqat D) iqtidor

16.Odamlar va hayvonlar uchun asos bo’lib idrok qilish xotirada saqlash oddiy muloqotga kirisha olish bilan bog’liq qobiliyat turi nima deb ataladi?

A) maxsus qobiliyatlar B) umumiy qobiliyatlar V) xususiy qobiliyatlar

G) nazariy qobiliyatlar D) tabiiy qobiliyatlar

17.Ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo’lib, ijtimoiy muhitdagi qayot va taraqqiyotni belgilovchi qobiliyat turi qanday nom bilan yuritiladi?

A) maxsus qobiliyatlar B) umumiy qobiliyatlar V) xususiy qobiliyatlar G) nazariy qobiliyatlar D) tabiiy qobiliyatlar

18.Insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi qo’l harakatlarining aniqligi bilan bog’liq qobiliyat turi qaysi qatorda ko’rsatilgan?

A) maxsus qobiliyatlar B) umumiy qobiliyatlar V) xususiy qobiliyatlar G) nazariy qobiliyatlar D) tabiiy qobiliyatlar

19."Qobiliyatlar tug’ma ravishda beriladigan bo’ladi va odam foydalanadigan barcha bilimlar uning absolyut bilimlar ideal olamida bo’lishligi haqidagi tasavvurlardan iboratdir" degan edi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko’rsatilgan.

A) Platon B) Gall V) Dekart G) I.Pavlov D) Spermin

20. …… fikricha odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatlari miya yarim sharlarida o’zining maxsus qat'iy markazlari mavjud ekan, ya'ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miyaning tegishli qismlarining miqdoriga to’g’ridan-to’g’ri bog’liqdir?

A) Platon B) Gall V) Dekart G) I.Pavlov D) Spermin

19- MA’RUZA:YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI

REJA:

19.1.Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti va vazifalari.

19.2.Fan sifatida yosh davrlari psixologiyasi va pedagogikpsixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.

19.3.Hozirgi zamon yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifalari.

Tayanch iboralar

Yosh — individning ma'lum, aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichlarda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi.

Yosh davriini inqirozlari(grekcha - burilishpayti) –bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tishdagi to'qnashuvli vaziyat.

Zehn — shaxs maxsus qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun asos bo'ladigan anatomik-fiziologik imkoniyat.

Identik (aynan o'xshashlik), (qadimiy lot. o'xshash, birhil) — ikkita buyum yoki hodisaning bir-biriga o'xshashligi

O'z-o'zini nazorat qilish- shaxsning o'z ijtimoiy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati.

O'rganish, bilish - orttirilgan individual tajriba jarayoni va natijasi.

O'z-o'zini tuta bilish- shaxsning muayyan sharoitlardagi ortiqcha fikrlari, his-tuygulari, xatti-harakatlarini ongli ravishda tiyib turish, o'z fikri, hissiyoti va harakatlarini maqsadga yo'naltira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

O'z-o'zini tarbiyalash- shaxsning o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy axloq. Nuqtai nazaridan taqdil qilish qobiliyati orqali o'zida ijobiy xarakter xislatlarini tarkib toptirishga qaratilgan ijobiy faoliyat.

O'z-o'zini nazorat qilish- shaxsning o'z ijtimoiy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.B.M.Umarov**.** Psixologiya: Darslik. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun. // G'.B.Shoumarovning umumiy tahriri ostida. **–** T.: O'zDJTU. 2011 – 380 bet.

2.F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.// M.G.Davletshinnning tahriri ostida Darslik. Toshkent -2009.334 b

3.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.

19.1. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Mustaqillik – boy ma'naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari ta'lim-tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Bu borada, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya -hozirgi zamon psixologiya fanining rivojlangan sohalaridan bo'lib, bu o'rinda muhim o'rin egallaydi, zero u inson ruhiy olamining tabiati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mushtarak, bir-biriga uzviy bogliqdir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni - ulqayib borayottan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Biroq, shunday bo'lsa-da, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari qisoblanib, ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir.

Ontogenez ~ (yunoncha,. optos-mavjud, jon, zot; genezis- kelib chiqish, paydo bo'lish) - individning paydo bo'lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Yoshning ulqayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlari, undagi yetakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar - yosh davrlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va

tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlari psixologiyasi fani bu borada ham o'z-o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun va moqiyatidan kelib chiqqan holda o'rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir.

Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar yosh davrlari psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi, chunonchi: bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (gerontopsixologiya) psixologiyasi kabi sohalardir. Yosh davrlari psixologiyasi fanining nazariy vazifalari shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kiritilgan ilmiy dalillarini ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiq etishni tashkil etadi.

Bu borada, ayniqsa, pedagogik psixologiya birmuncha ulkan yutuqlarga erishdi. Pedagogik psixologiyaning ta'limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'ngi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta'lim tizimlarida ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan, muammoli interfaol ta'lim metodlari) keng joriy qilinmoqda.

Pedagogik psixologiya – psixologiya ilmining tarmoqi sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir.

Bolalar va yoshlarning maktabdagi hamda ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va qatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandir. Pedagogik psixologiyaning predmeti maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek, pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jiqatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari, asbob-uskunalar va maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham pedagogik psixologiya o'rganadi. Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri - maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu hol yangi ta'lim dasturiga o'tish munosabati bilan bog'liqdir.Pedagogik psixologiya shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi.

Shuningdek, "Pedagogik-psixologiya" ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi bo'lgan - o'qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlarini ham o'rganadi. Bunda o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlariga urqu berish bilan birga, uning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi.

Yosh davrlari psixologiyasi ham pedagogik psixologiya singari umumiy psixologik qonuniyatlarni yoritib beradigan, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganadigan umumiy psixologiyaga asoslanadi.

Shu bois, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada to'plangan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

19.2. Fan sifatida yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.

Yosh avlodning ta'lim va tarbiya bilan boqliq psixologik muammolari yirik olimlar, faylasuf va yozuvchilarini ham muntazam jalb etib kelgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XI-XII asrlar diniy-axloqiy ta'limotlar zamirida yoritilgandir. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq turli asarlarda shakllanib kelgan. V.N.Tatishev, A.N.Radishev, N.I.Novikov va boshqalarning asarlaridagi dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotniig o'ziga xos xususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo'qrilgandir. Rus tarixchisi V.N.Tatishevning "Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'qrisida suhbat" kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarning ahamiyati, til va nutqning mavqei, yosh davrlarining xususiyatlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

A.N.Radishev birinchilar qatori bola psixik taraqqiyotini tabiiy-ilmiy yo'sinda asoslab berishga urindi. Uning "Peterburgdan Moskvaga sayohat" kitobi bu borada pedagogik-psixologik asarlar sirasidan munosib o'rin egallaydi. Yozuvchining fikricha, inson tashqi muhit haqidagi taassurotlarini sezgilar orqali idrok etadi, shu yo'sinda uning tafakkuri, ulg'ayib shakllanadi.

N.I.Novikov bashariyat farovonligini ko'zlab, yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng tarqibot etish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalamoq zarur deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his-tuyq'u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyada yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixida K.D.Ushinskiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha psixologiya fanining asosiy vazifasi tarbiyaning maqsadini aniqlashga, ta'lim-tarbiya natijalarini to'qri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o'rin tutadi deb aytadi. K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya predmetidir" nomli asarida pedagogik ta'sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik xususiyatlari, uning o'ziga xos tomonlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda N.F.Kapterev, N.A.Sikorskiy, AP.Nechaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, P.P.Blonskiy singari olimlar bu borada o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Ta'kidlash joizki, ayniqsa, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, AR.Luriya, A.N Leontev, M.YA.Basovlar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi, psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqei singari ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kun yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining tayanch tushunchalaridandir.

O'tgan asrning o'rtalarida vujudga kelgan turli nazariyalar, qarashlar, o'quv faoliyati va ta'limning talqinlari (D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Galperin, Z.I.Kalmikova, N.F.Talizina, D.B.Elkonin V.V.Davidov, L.V.Zankov, L.N.Landa, A.A.Lyublinskaya, N.V.Ko'zmina va boshqalar) nafaqat pedagogik tajribani, balki psixologiya fanining bu tarmog'ini ilmiy-amaliy boyitishga asos bo'ldi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda o'quv materialini o'zlashtirishning mexanizmlari (S.L.Rubinshteyn, N.Kabanova-Meller, L.B.Itelson); xotira qaqida (P.I.Zinchenko, A.A.Smirnov, V.Ya.Lyaudis); tafakkur (N.F.Shemyakin, A.M.Matyushkin); idrok (Yu.B.Gippenreyter); bolalarda nutqning rivojlanishi (M.I.Lisina, A.A.Venger); shaxsning rivojlanishi (B.G.Ananev, L.I.Bojovich, V.S.Muxina); muloqot va nutq (V.A.Artemov, A.A.Leontev, V.A.Kan-Kalik); psixik rivojlanishning davrlari (P.P.Blonskiy, A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, B.G.Ananev, A.V.Petrovskiy); o'quvchilariing aqliy faoliyati va iste'dod muammolari (A.ABodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy) ga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar bu fanning yanada rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan boqliq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi.

Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldilar. Bu borada

E.Meyerman, S.Holl, K.Byo'ler, E.Klapared, E.Dyurkgeym, P.Jane, J.Piaje, A,Vallon, Dj.Bruner va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Olmon psixologi E.Meyerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki tazyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi, Uning fikricha eksperimental pedagogikaning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilmoqi darkor.

Amerikalik psixolog-olim S.Holl har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenezda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Holl o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olg'a suradi.

Filogenez - (yunoncha, phyle- qabila, genesis- kelib chiqish, paydo bo'lish)- muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni.

Shveysariyalik psixolog E.Klapared "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

Franso'zpsixologi E.Dyurkgeym, ulg'ayish – kishilarning his-tuygularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

Yana bir franso'zpsixologi P.Janening fikriga ko'ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidaga turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg'ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida qatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakathamkorligidagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik psixolog Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uktiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayk, Dj.Uotson, F.Galgton, A.Bine, A.Anastazi, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Bu ta'limotlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda.

Respublikamizdagi yetakchi oliygohlarning kafedra va laboratoriyalarida yosh davrlari va ta'lim tarbiyaning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jiqozlangan sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Mazkur muammolarning yechimi hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Voqidov, MT.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynutdinov, B.Kodirov, R.I.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Jumladan, o'quvchilarning texnik qobiliyatlari, o'quv motivlari, zamonaviy maktab o'quvchisining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari A.Jabborov, F.I.Haydarov, M.M.Mavlonovlar tomonidan, tafakkur va ta'limni boshqarish muammosi E.G.G'ozievning tashabbusida, iste'dodli o'quvchilar va kasb tanlash muammosi B;R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilmoqda.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida unga ta'sir ko'rsatib kelgan barcha nazariyalar, ilmiy va amaliy ma'lumotlar, yo'nalishlar hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda va fanning istiqbolida muhim ilmiy-nazariy manba hisoblanib qolishi, tabiiydir

19.3. Hozirgi zamon yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifalari.

Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fani hampsixologiya ilmining boshqa sohalari singari o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik konuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina holisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Muammoning qo'yilishi. Har qanday ilmiy tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni taxlil qilishdan boshlanadi.

2. Tadqiqot metodikasini tanlash. Psixologik tadqiqotlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan metodni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.

3. Ma'lumotlarni to'plash. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos bo'lishi yoki ularni to'plash maqsadga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talablar - bu ularning holisona, to'la va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoni har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. Ma'lumotlarni qayta ishlash. To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma'lumotlardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va xokazo), foizlari aniqlanadi, sonlarga oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o'z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni topishda esa variasion statistika metodlari qo'llaniladi.

5. Qonuniyatlarning ifodalanishi. Bu tadqiqotning birmuncha murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki, bu bosqichda ma'lumotlarning moxiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, bosqich ma'lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi.

6. Qonuniyatni amalda qo'llash. Aniqlangan qonuniyatlar ma'lum bir amaliyot soxasida qo'llaniladi. Amalda qo'llash aniqlangan qonuniyatning to'g'riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida shaxsiy kuzatishlari va boshqalarning tajribalarini umumiylashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo'lmaydi, ya'ni, muhimligi, aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi.

Metod - (yunoncha, methods-tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Tajribada qo'llaniladigan metodlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Kuzatish metodi. Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdagi hayotva sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir.

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini-o'zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

a) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;

b) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;

v) sinaluvchining yoshi, jinsi haqida ma'lumotlar to'planadi;

g) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;

d) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;

e) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya etiladi; yokikuzatishning shakli (yakka, gurux, jamoa) tayinlanadi;

1) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suxbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) tayyor qilinadi.

Kuzatish orqali turli odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, nutq faoliyati va xokazolari o'rganiladi.

Ammo, o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi.

2. Eksperiment metodi. Sun'iy hosil qilingan psixologik sharoitda namoyon bo'luvchi psixik faoliyatni tahlil qilishdan iboratdir. Eksperimentator yoki tajriba o'tkazuvchi psixik faoliyatning o'ziga kerakli xodisasini maxsus tarzda hosil qiladi hamda uning namoyon bo'lish sharti va xarakterini belgilaydi. Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi.

Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy yaratgan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilarning ish qobiliyatlari, o'zaro munosabatlarini, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi.

Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (ba'zida gurux yoki jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatkichli va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari, qurilmalarlar, moslamalar mavjud. Ko'pincha elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, elektroensefalo-gramma kabilardan foydalaniladi. Laboratoriya metodi yordamida diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emosional hamda irodaviy va aqliy zo'rihish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, haydovchi, operator, elektronlar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi) ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emosional-irodaviy zo'riqish, jiddiylik, tajanglik sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

3. Psixologik-pedagogik eksperiment - o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o'rganishdir.

Mazkur eksperiment o'quvchilarni maxsus uyushtirilgan ta'lim sharoitida maqsadga muvofik, ulardan o'zgarishlarni kuzatishni taqozo etadi. Bu eksperiment aniqlovchi va tarkib toptiruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, maxsus uyushtirilgan ta'lim tarkib toptiruvchi eksperiment jarayonida olib boriladi. U quyidagi tuzilishga ega: eksperimentator yoki tadqiqot olib boruvchi, sinaluvchilar, faraz, reja, yo'l-yo'riq, tajribaning bir-biriga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan, o'zgaruvchan, nazorat qilinadigan va qilinmaydigan qismlardan iborat. Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlari: farazni ilgari surish, metodikani tanlash, eksperimentni rejalashtirish, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil etish va izoxlashdan iboratdir.

4. Anketa metodi. Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarning munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch turda o'tkaziladi.

Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi.

Ikkinchi turida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan soxaga qiziqishlari va qobiliyatlarini o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Biroq unda olinadigan ma'lumotlar doimo holisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunday kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

5. Suxbat metodi erkin, nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir. Bu metod yordamida inson psixikasini o'rganishda suxbatning maqsadi va

vazifasi belgilanadi, uning obtekti va sub'ekti tanlanadi, yakka shaxslar, gurux va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi.

Suxbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suxbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

6. Test metodi. Test - inglizcha "sinash", ".tekshirish" degan ma'noni anglatadi, Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol yoki jumboqlar test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasb egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining maxoratiga va qiziqishiga, to'plangan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy taxlil qila bilishiga bog'liqdir.

1905 yil franso'zpsixologlari A.Bine va A.Simonlar insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi bo'llanila boshlandi. Hozirgi zamon nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Veksler, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarida berilgan bilim va malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emosiyasi, qiziqishi, motivasiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs "loyixasi" (proektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib, shaxs xususiyatining "loyixasi" ishlab chiqiladi) kiradi.

7. Biografik (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar biografik metod orqali o'rganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, xujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxs haqida to'la tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suxbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora egishi

(o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishish jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

8. Sosiometrik metod. Bu metod kichik gurux a'zolari o'rtasidagi bevosita emosional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi, Unga amerikalik sosiolog

Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruxdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so'raladi.

Tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruxlardagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali gurux a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari maktabdagi o'quvchilar jamoasi, mehnat lagerlari, oliy maktablar, mehnat jamolari va turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi shu metod yordamida o'rganiladi. Umuman olganda, sosiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruxlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Abu Nasr Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv" asarini mutolaa qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma bayon eting:

a)insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.

b)irodaviy fazilatlarni shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, ta'lim va tarbiyaning kuchi haqida.

v)yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani egallashi to'g'risida.

2. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.

3. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning moxiyatini yoritib bering.

4. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat. Uning istiqboli haqida nima deya olasiz.

5. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

Test topshiriqlari

1. Yosh davrlari psixologiyasi nimani o'rganadi.

A) Insonda turli psixik jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning turli xil faoliyatlarini va shaxsning tarkib topishini;

B) Inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu soxadagi ma'lumotlarni to'plash;

V) Ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

2. Yosh davrlari psixologiyasining vazifalari nimalardan iborat.

A) Maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini,bu jarayonda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchida faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir;

B) Shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladigan psixik faoliyat, holatlar va shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdir;

V) Inson hayotyo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlarini o'rganish.

3."Pedagogik psixologiya"- bu

A) Ta'lim-tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonunitlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir;

B) Psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixik xususiyatlarini o'rganuvchi fandir;

V) Inson uzoq umr ko'rishining sirlarini - gerontopsixologik qonuniyatlarni ochish va targ'ib qiluvchi fandir.

4."Pedagogik psixologiya" fanining muhim vazifalari nimalardan iborat.

A) Psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishini o'rganadi;

B) Inson bilish faoliyati rivojlanishi, unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq aks ettirishdan iborat;

V) Maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqarishdan iborat.

5. Inson ruhiyati,tana va kalbning birligi, inson organizmi tuzilishi,undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi haqida qimmatli ma'lumotlarni bizgacha qoldirgan donishmand kim?

A) Yusuf Xos Xojib;

B) Abu Ali Ibn Sino;

V) Abu Rayxon Beruniy.

6."Yosh va pedagogik psixologiya"fanining metodlarini aniqlang.

A) Tabiiy metod,ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, laboratoriya metodi, qonuniyatlarni qo'llash;

B) Suxbat metodi, test metodi, ma'lumotlarni qayta ishlash, psixologik-pedagogik eksperiment, qonuniyatlarni amalda ko'llash, anketa metodi;

V) Kuzatish metodi, eksperiment, psixologik-pedagogik eksperiment, anketa metodi, suhbat metodi, test metodi, biografik (tarjimai hol) metodi, sosiometrik metod.

7. Yosh davrlar psixologiyasi nimani o'rganadi?

A) turli yoshdagi odamlarning psixik rivojlanish jarayonini shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdir.

B) insonda turli psixik jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini uning turli xil faoliyatlarini va shaxsni tarkib topishini.

V) inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash.

G) inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu rivojlanishning bosqichlarini.

D) shaxsning kamol topish qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta'sirini o'rganish.

8. Yosh psixologiyasining asosiy tamoyillarini toping.

A) psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning mahsulidir.

B) psixikaning negizida miyaning reflektorlik faoliyati yotadi.

V) psixikani tadqiq qilish insonning butun ongli faoliyatini uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o'rganishdir.

G) determenizm, ongni faoliyatda rivojlanishi, ong va faoliyat birligi.

D) barchajavoblarto'g'ri

9. Ilmiy tadqiqot metodlarining sharhlash guruhiga qaysi metodlar kiradi?

A) kuzatish, test, so'rovnoma, genetik.

B) genetik, donalash.

V) sosiometrik, langtyud.

G) test, ko'ndalang kesim.

D) to'g'ri javob berilmagan.

10. Rekapitulyasiya qonunining mohiyati va uning asoschisi?

A) S.Holi ontogenez filogenezning muhitm bosqichlarini takrorlaydi.

B) V.Shtern bola shaxsining kamol topish bosqichlari.

V) E.Krechmer insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya.

G) Z.Freyd shaxsning barcha xatti-harakatlarining ongsiz yuzaga kelishi.

D) F.Myo'ller va E.Gekkel biologik yetilish bosh omil sifatida.

11. L.I.Bojovich shaxs kamol topishini yosh davrlarga bo'lishda qaysi omilni asosiy deb biladi?

A) inqiroz.

B) ontogenetik tamoyil.

V) faoliyat.

G) motiv.

D) barcha javoblar to'g'ri.

12. Chahaloqlik davriga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar kim?

A) M.P.Denisova, N.L.Figurin, V.S.Muxina.

B) V.S.Muxina, L.S.Ko'zmina, D.B.Elkonin.

V) I.P.Pavlov, N.L.Figurin, I.M.Sechenov.

G) V.S.Muxina, Ye.A.Arkin, Leytes.

D) barcha javoblar to'g'ri.

20- MAVZU:SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA TARBIYASI HAQIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI.

REJA:

20.1. Komil inson tarbiyasi - Sharq mutafakkirlarining talqinida.

20.2.Sharq mutafakkirlarining ruhiy jarayonlar haqidagi fikrlari

20.3.SharqUyg'onishdavri nomoyondalarining ta'lim-tarbiya haqida qarashlari.

20.1. Komil inson tarbiyasi - Sharq mutafakkirlarining talqinida.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya alohida predmet sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o'rtasida olib borilgan doimiy kurash katta ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida

qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O’tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo’nalishda o’rganmagan bo’lsalar-da, biroq allomalarning qo’lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo’lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan boqliq bo’lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o’zaro uzviy boqliq bo’lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug’ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o’z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo’ladi, deb ta'kidlaydi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o’zaro bir-biriga bog’liqdir; ular alohida sodir bo’ladigan ikki jarayon bo’lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to’la aqliy rivojlanish bo’lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo’ladi, rivojlanishni o’z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug’ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo’ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo’lish

bilan bir vaqtda o’zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatga, inobatga oladi.

Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo’lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o’zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg’a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko’ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning "tabiiy" shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so’ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, "madaniy" shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asl moxiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning raxbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi "ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi" degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: "Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas", - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo’lmagan jarayonlardir, degan yo’nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o’rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o’quvchilarning aqliy rivojlanishi to’g’ridan-to’g’ri maktab dasturi mazmuniga bog’liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o’quvchilarda o’z-o’zini va o’zining aqliy faoliyatinn nazorat qilish yuzaga keladi.

Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, N.AMenchinskaya, A.A.Lyublinskaya, E.G’.G’ozievlar o’z tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o’zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug’ilish, tabiiydir.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning moxiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan esqiliq va yangilik o’rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o’rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o’sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o’zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o’rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o’rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o’quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo’lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog’liqligi o’rtasida ziddiyat mavjuddir, o’smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o’ziga o’zi baho berishi va o’z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo’lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o’rtasida, shuningdek, o’zining jamoadagi real mavqei to’g’risidagi ichki kechinmasi o’rtasida; katta odamlar hayotida to’la huquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o’z imkoniyatlarining mos kelmasligi o’rtasida paydo bo’ladi.

Ko’rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik. faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko’tariladi. Ehtiyojqondiriladi - ziddiyat yo’qoladi. Biroq qondirilganehtiyoj, yangi ehtiyojni tug’diradi.

Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o’zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik xodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko’payishi yoki kamayishidan iborat bo’lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo’lishi bilan bog’liqdirdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko’rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o’ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog’liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda, psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning moxiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to’xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo’nalishlarida rivojlanish uchun nig’oyatda qulay sharoitlar paydo bo’ladi va bu sharoitlarning ba'zilari vaqtinchalik, o’tkinchi xarakterda bo’ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo’lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar, xususiyatlar, hayotiy tajriba ham sabab bo’ladi. Shunday qilib, bolaning, maktab o’quvchisining psixik rivojlanishi - murakkab taraqqiyot jarayonidir.

21.3. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqalash muammolari

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo’yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning moxiyatini turlicha yoritadi.

Ma'lumki, har bir davr o’zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o’ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo’lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o’zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o’z navbatida, o’zidan keyingi davrning paydo bo’lishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Shu o’rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg’u berib o’tish maqsadga muvofiqdir.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o’z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko’nikishdan iborat bo’lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi: 1) sensomotor intellekti - tug’ilgandan 2 yoshgacha; 2) operasiyagacha tafakkur davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha; 3) aniq operasiyalar davri - 7, 8 yoshdan - 11, 12 yoshgacha; 4) rasmiy operasiyalar davri.

Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi: 1) xomilaning ona qornidagi davri; 2) impulsiv harakat davri - tug’ilgandan 6 oylikkacha; 3) his-tuyg'u davri (emosional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha; 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg;unlashuvi) davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha; 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha; 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha; 7) jinsiy yetilish va o’spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananev singari yirik psixologlarning asarlarida o’z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug’ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o’zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan muloxaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruxlarga ajratish va ularning moxiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chahaloqlik davri inqirozi.
2. Go’daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik muloxazalar bildirgan. Biroq, bu muloxazalarda ancha munozarali, baxsli o'rinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidagi muloxazali va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi.

Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli, nazariyaning asosiy moxiyatini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1. Go'daklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha - yetakchi faoliyat - bevosita emosional muloqot;
2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - yetakchi faoliyat - predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;
3. Makgabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o'yinlar;
4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qish;
5. Kichik o'smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;
6. Katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - yetakchi faoliyat - o'qish, kasb tanlash davri.

D.B.Elkonin tasnifini ko'pchilik psixologlar tomonidan e'tirof etilsa-da, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud.

Umuman D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o'rin tutadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasi A.A.Lyublinskaya inson kamolotini yosh davrlarga ajratishda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi:

1. Chahaloqlik davri - tug'ilgandan bir oylikkacha;
2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;
4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha;
5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
6. O'rta maktab yoshi davri (o'spirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha;
7. Katta maktab yoshi davri-15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyandasi V.A.Kruteskiy insonning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta'kidlaydi:

1. Chahaloqlik (tug'ilgandan 10 kunlikkacha);
2. Go'daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
4. Bog'chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
5. Bog'cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);
7. O'smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha).

Yuqoridagi har ikkala tasnif puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat'iynazar inson kamolotini to'la ifodalab berishga ojizlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, holos. Ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay ular o'rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili AV.Petrovskiy

inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) tug'ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bog'cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha,
3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha.
5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi.

Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi extimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin. Hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri - tug'ilgandan 3 yoshgacha;
2. Bog'cha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;
3. Kichik maktab yoshi davri - 6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;
5. Ilk o'spirinlik (kollej va lisey o'quvchilari)- 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta, ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa xo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsada, hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

Tayanch tushunchalar

Men-konsepsiya(lot. conceptio - qabuletish, - odamning o'zi tug'risida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan tassurotlartizimi. Men konsepsiyasi asosida odam boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va o'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydi.

Motivasiya - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui

Psixika(yunon.psychikos - ruhiy) - yuksakdarajadatashkiltopganmateriya - miyaningfunksiyasi. Uningmoxnyatityug'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, irodavaboshqalarko'rinishidaaksettirshdaniborat.

Psixikjarayonlar- uyokibupsixikmaxsulotvanatijalarni (psixikobrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyotvax.k.) hosilqiluvchi, shakllantiruvchivarivojlantiruvchijarayon.

Psixodiagnostika - (Yunon diagnostikos - bilishgaqodir) - shaxsningindividualpsnhologikxususiyatlarinianiqlovchivao'lchashniishlabchiqaruvchipsixologiyausuli.

Introversiya- shaxsningo'zfikrlari, sezgilari, kechinmalariningo'z-o'zigatayanishi

Konsepsiya(lot. conseptio – idrok etmoq) – faoliyat maqsadlari o'z ichida saqlanib qolgan, faqat o'zi uchungina xizmat qiladigan moslanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish qobiliyati.

Nazorat uchun savollar.

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering.
2. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz.
3. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat.
4. Yetakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz.
5. Yosh davrlarini tasniflab bering.
6. Yosh davrlarini tabaqalashhaqidagi turli nazariyalar haqida ma'lumot bering

Test topshiriqlari:

1. "Ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi" degan fikrni ilgari surgan olimni aniklang?

A) V. Shtern;

B) J. Piaje;

V) L.S. Vigotskiy.

2. Inson shaxsining tarkib topishi asosan nechta omillarning ta'siriga bog'liqdir?

A) 3 ta

B) 2 ta

V) 4 ta.

3.O'quv faoliyati - bu shunday faoliyatki-

A) U kelajakka yo'naltirilgan rivojini belgilaydi;

B) U bevosita, kishilarni ijod qilishga, mehnat bilan shuxullanishga undaydi;

V) Unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi.

4. "Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas" - bu fikrni ilgari surgan olimni aniklang?

A) P.P.Blonskiy;

B) V.V.Davidov;

V) L.S.Vigotskiy.

5. Yosh davrlarini tabakalash bo'yicha qaysi psixolog olimlar ish olib borganlar?

A) L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Lyublinskaya;

B) B.G.Ananev, D.B.Elkonin, A.V.Petrovskiy;

V) Barcha javoblar to'g'ri.

6. Yosh davrlari to'g'ri tasniflangan qatorni aniqlang?

A) Chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik,kichik maktab yoshi, o'smirlik, ilk o'spirinlik, o'spirinlik davri, yetuklik, keksalik davri;

B) Chaqaloqlik, kichik maktabgacha davr, o'smirlik davri, ilk yoshlik davri, yetuklik, keksalik davri;

V) Bolalik, Bog'cha yoshi,maktabgacha davr, o'spirinlik davri, yoshlik, o'smirlik, yetuklik davri.

7.Bolapsixikrivojlanishinita'minlovchiqonuniyatlar.

A) bilish jarayonlarining intensivligi, integrasiya, kompensasiya.

B) aqliy qobiliyatlar, senzetiv, noniksligi.

V) yetakchi faoliyat senzetivlik, plastiklik.

G) notekisligi, integrasiyasi, plastiklik va kompensasiya.

D) notekisligi, senzetiv, integrasiyasidir.

8. Qaysi qatorda L.S.Vigotskiy tomonidan fanga kiritilgan aqliy rivojlanishning aktual rivojlanish darajasi to'g'ri berilgan.

A) o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanishi darajasini ko'zlamasdan bir muncha orqaga ketishi.

B) o'quvchi tafakkuriga uning mavjud imkoniyatlarini bir muncha oshiradigan talablar qo'yishi.

V) u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilinishi kerak degan qoidaga asoslanadilar.

G) o'quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'quvchining qanday topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olish bilan xarakterlanadi.

D) bolani nimanidir bajara olmasligi unga amaliy ko'makni berish.

9. Qaysi tadqiqotchi olimning o'tkazgan tadqiqoti natijasiga ko'ra tug'ilishi davrida kelganda bolaning miya po'stlog'i faoliyat ko'rsata boshlasada, aslida u na anatomik va na funksional jihatdan rivojlanganligini ko'rsatadi?

A) L.I.Bojovich

B) D.B.Elkonin

V) N.M.Shchelavanov

G) J.Piaje
D) Holl
10. U.Djems 1902 yilda o'zining qaysi asarida yosh davrining xususiyatlari haqida fikr yuritdi?
A) «Bola psixologiyasi va eksperemental pedagogika»
B) «O'qituvchilar bilan psixologiya to'g'risida suhbat»
V) «Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati»
G) «Oila tarbiyasi qomusi»
D) «Erkin tarbiya»
11. Bir xil yoshdagi insonda ruhiy jarayonlarni turlicha kechishi qanday nomlanadi?
A) germatriya
B) geroxroniya
V) invalyusiya
G) getrofroniya
D) gerantologiya

22- MAVZU:MAKTABGACHA YOSH DAVRI PSIXOLOGIYASI

REJA:

22.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti.
22.2. Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari.
22.3. Bog'cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi.
22.4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.
22.5. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi.

22.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr Bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik Bog'cha yoshi), (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta Bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi.

Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katga yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqi faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki ko'rtaqlarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola o'zluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustaxkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog’cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bog’cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to’la o’zlashtirganlari va xaddan tashqariharakatchanliklari tufayli ularda o’zlariga yaqin bo’lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo’lish ehtiyoji tuqiladi.

Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi Bog’chadagi o’rtoqlari va qo’ni-qo’shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo’lib o’ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo’lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog’cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo’lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko’rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog’cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o’sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan murakkab psixik hodisa desa bo’ladi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug’ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o’z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhimxislatlarni o’stirishga va mustaxkamlashiga yordam beradi.

22.2. Bog’cha yoshidagi bolalar o’yinining psixologik xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o’yindir.Bog’cha yoshidagi bolalarning o’yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko’p olimlarning diqqatini o’ziga jalb qilib kelmoqda.

Bog’cha yoshidagi bolalar o’zlarining o’yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg’a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg’ayib, mustaqi harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo’yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog’cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo’lishga intiladi.

Bu o’rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o’zining haddi sig’adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo’lgan, o’zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig’maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo’lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o’zi haydagisi, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo’lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo’lgisi keladi. Tabiiyki bola o’zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini hamhaqiqiy yo’l bilan qondira olmaydi. Bu o’rinda savol tug’iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o’rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo’l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o’yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izoxlab berish mumkin:

.- birinchidan, bolalarning o’yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o’yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o’yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog’liqdir;

- ikkinchidan esa, bolalar o’yin jarayonida o’z ixtiyorlaridagi narsalarni, o’zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo’lgan narsalarga aylantirib, xoxlaganlaricha erkin faoliyatda bo’ladilar. Bolalarning o’yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O’yin bolalar hayotida shunday ko’p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo’lgan mehnatham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o’yin faoliyatida aniq bo’ladi. Shuni ham ta'kidlab o’tish kerakki, o’yin faqat tashxi muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o’yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari hamshakllanadi. Demak, bog’chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko’p jihatdan bolalarning o’yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog’liqdir. Shunday qilib, o’yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o’zi, o’yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda: xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo''jizadek ko'rinadi.

Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, milisionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks etgiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik gurux bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar holos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, o'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin.

Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakter kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamdaharakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va ko'zatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo'lib boradi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir gurux odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, "poezd" o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yin, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi.

Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalilik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir.

Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko’ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog’cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiyholatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o’yin faoliyatining o’ziga xos bir shakli bo’lib hisoblanadi. Bola avvalo ko’rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o’zi biladigan, xotirasidagi va o’zi o’ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo’lib, aynan shunday o’yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustaxkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o’yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo’lib, aynan shunday o’yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustaxkamlanadi.

Katta bog’cha yoshida konstruktorlik o’yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o’yinda bola sodda mehnat ko’nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo’lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa oxangiga mos -ritmik harakatlar qilishga o’rganadilar. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

-predmetlarni o’rganishi;

-individual predmetli o’yinlar, jamoa syujetli-rolli o’yinlar;

-individual va guruhiy ijod;

-musobaqa o’yinlari;

-muloqot o’yinlari;

-uy mehnati.

Bog’cha yoshidagi bolalarning o’yin faoliyatlari haqida gapirilganda, albatta ularning o’yinchoqlariga ham alohida ahamiyat berish kerak.

Bolalarga o’yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko’proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, 1-3 yoshdagi bolalar hali tashqi muhitni juda oz o’zlashtirgan bo’ladilar. Ular hali ko’p narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga turli shaklli, qo’l matorikalarini, emosional, aqliy, axloqiy jihatdan rivojlantiradigan o’yinchoqlarni berish foydalidir.

O’yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo’lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o’zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo’lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo’lishi kerak bo’ladi. Bularga bola yuqorida ko’rsatib o’tganimizdek, o’yin faoliyati orqali erishadi.

22.3. Bog’cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi

Bog’cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o’yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar va shu singari o’yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir.

Bog’cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko’zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog’cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo’ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o’rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to’g’ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko’rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o’rnini to’g’ri idrok qilishga;

3. Tasvirlangan narsalar o’rtasidagi munosabatlarni to’g’ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo’ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir.

Bog’cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo’ladi. Bog’cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o’sib borishi uchun o’yin juda katta ahamiyatga ega. O’yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to’plab, o’z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o’z oldiga qo’ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi.

Bog’cha yoshidagi bolalar o’zlari uchun ahamiyatga ega bo’lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog’cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o’ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning bog’cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog’cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko’payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo’lishi, uchinchidan esa, bog’cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqi harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo’lishlaridir.

Bog’cha yoshidagi bolalarda har soxaga doir savollarning tug’ilish, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o’z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so’na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug’ilish tufayli paydo bo’ladi. Ko’pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, "ko’p maxmadona bo’lma", "sen bunday gaplarni qaerdan o’rganding", deb koyib beradilar. Natijada bola o’ksinib, o’z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg’ulotlar va sayoxatlarda kattalarning o’zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayoxatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayoxatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko’rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so’z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo’lsa, 3 yashar bolaning so’z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so’z zaxirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog’cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog’cha yoshidagi bolalar nutqining o’sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko’p jihatdan bog’liq.

Kattalar bolalar nutqini o’stirish bilan shug’ullanar ekanlar, bog’cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o’z nutq sifatlarini to’la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati hamhali to’la takomillashmagan bo’ladi. Tili chuchuklikni to’zatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to’la va to’g’ri talaffo’z etib, ravon til bilan gaplashishdir.

22.4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi

Bog’cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko’ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig’ida bo’lib, bola emosional jihatdan o’z-o’zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog’liqdir; ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o’z-o’zini boshqarish; uchinchi davr - esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat’iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug’ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo’lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o’tadi va mustaxkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo’lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog’cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog’liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog’liq bo’lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko’nikma va malakalarni egallash bilan bog’liq bo’lgan o’qish motivlari qo’yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o’rnida paydo bo’ladi. O’zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo’ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o’yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan raxbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo’lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko’rinadi.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o’z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyinhisoblanib, ularni yaxshi o’zlashtirishi uchun syujetli-rolli o’yinlar yordam berishi mumkin. Bog’cha yoshining oxirlariga kelib, ko’pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog’liq bo’lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mexribon bo’lish xususiyati hamshakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko’p hollarda o’z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oraliqida bolalar o’zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o’z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o’zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o’z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o’zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O’z-o’zini anglash layoqati katta bog’cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo’lganini va kelajakda qanday bo’lishini fikrlab ko’rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda qanday bo’lgan edim?", "Men katta bo’lganimda qanday bo’laman?" singari savollarida ko’rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo’lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o’rta bog’cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi.U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli his0blangan - iroda, mustaqilik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog’cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o’rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo’yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o’rnata olishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo’lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivasion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o’zgarishlari, ularning o’z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o’zini-o’zi anglashi kabi hislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholarining g’oyatda ahamiyatlidir.

Bog’cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o’yin faoliyatlarida o’sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog’cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo’lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo’lmas edi. Bog’cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg’ulotlarda ham o’sadi. Masalan, bog’cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, xumdan turli narsalar qurib o’ynashni va rasm solishni yaxshi ko’radilar. Ana shunday mashg’ulotlar bolalar xayolining o’sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog’cha yoshidagi bolalar xayolining o’sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaqlardir. Bolalar hayvonlar xaqidagi turli ertaqlarni eshitganlarida shu ertaqlardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog’cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg’ular g’oyat kuchli va juda tez namoyon bo’ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg’ulari ko’p jihatdan ularning organik

ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zqaydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarning burch hissi - "nima yaxshi-yu", "nima yomon"ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamotchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

22.5. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi.

Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, chanxida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar.

6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustaxkamlash, ularni surunkali kasalliklardan halos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Aqliy tayyorgarlik. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim xodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavxeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar xo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmogi lozim. Katta Bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, halam va ruchkalar sotib olib berishadi"', "Maktabda o'rtoklarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi", "Maktabning tashxi ramzlari, shubxasiz maktabdagi bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi", "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman". Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, Bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir

majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shuxullanayotganligini bilishi nig'oyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi.

Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. har bir bola bolalar jamoasiga xo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini o'zox vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga o'zox vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar.

Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar.

Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan o'zox vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emosional motivasion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi.

U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi.

Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Tayanch tushunchalar

EMPATIYa (ing. h.amdardlik, o'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish) – insonning boshqalar his-hayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emosional javob bera olish qobiliyati.

O'YIN – inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan taraqqiyotining bolalik davriga xos bo'lgan maxsus turi.

O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISh- shaxsning o'z ijtimoiy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati.

O'RGANISh, BILISh - orttirilgan individual tajriba jarayoni va natijasi.

HAYoL – mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, avval idrok qilinmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazlarini yaratishdan iborat bo'lgan ongli faoliyat. Hayol inson ijodiy faoliyatining asosidir.

HARAKAT – maqsadga munofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi, ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan biri.

Nazorat uchun savollar

1. Bog'cha yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari.
2. Bog'cha davrida bola shaxsining rivojlanishi shart-sharoitlari.
3. Bog'cha yoshidagi bola faoliyatining psixologik xususiyatlari.
4. Bog'cha yoshdagi bolada xulq motivlarining rivojlanishi va o'ziga baho berishining shakllanishi.
5. Bog'cha yoshidagi bolada bilish jarayonining rivojlanishi.
6. Bog'cha yoshdagi bolaning maktabdagi ta'limga psixologik tayyorgarligi.

Test topshiriqlari:

1. Maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o’z ichiga oladi.

A) 3 -7 yosh;

B) 4 -5 yosh;

V) 6 -7 yosh.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy xususiyati nima.

A) Mulokotchanligi;

B) harakatchanligi va taqlidchanligi;

V) Tashabbuskorligi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xarakterxislatlaridan qaysilari faol rivojlana boshlaydi.

A) Iroda, mustakillik,tashabbuskorlik;

B) Mas'uliyatlilik, qiziquvchanlik;

V) Mulokotga kirishuvchanlik.

4. Eng avvalo bola maktabga qaysijihatdan tayyor bo’lishi kerak.

A) Aqliyjihatdan;

B) Axloqiyjihatdan;

V) Jismoniy jihatdan.

5. Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorgarligi qanday xususiyatlarda ifodalanadi.

A) Bolada o’z xatti - harakatini boshqarish imkoniyati o’sganligida;

B) Bola hissiyoti va irodasi rivojlanishidagi darajaning shakllanganligida;

V) Shaxsning bilish faoliyati va turli psixik sifatlarini o’sishi uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar xajmining bolada

shakllanganligida.

6. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar qaysilar.

A) Luxat boyligining ortishi, diqqat va xotira xajmining kengayishi;

B) Bolada ikkinchi signal sistemasining jadal rivojlanib borishi va tafakkurning shakllanishi;

V) Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi yangi ijtimoiy sharoitning kelib chikishi, o’z - o’zini tushunish va baholashning o’sishi, o’quv

faoliyati elementlarinig o’zlashtirilishi.

7.«Bolalardakengko’lamlivako’pmiqdordagiparametrlarnitanish, idrokqilishniortishikattayoshdagiodamlarbilanmuloqotgakirishishmayli, tuyg’usivaistiginikuchaytiradi» – bufikrniilgarisurganolimnitoping.

A) Simon

B) A.Bine

V) I.A.Pavlov

G) V.Vallon

D) D.B.Elkonin

8. An’anaviy jihatdan olganda bolaning maktabga tayyorligi qaysi aspektlarda ko’riladi?

A) intellektual yetuklik, biologik yetuklik.

B) emosional yetuklik, ijtimoiy yetuklik.

V) intellektual, biologik, ijtimoiy.

G) intellektual, emosional, ijtimoiy.

D) to’g’ri javob ko’rsatilmagan

9.Maktabgacha tarbiya yoshida yuzaga keladigan inqirozning xarakterli belgilari nimalardan iborat?

A) bir yosh davridan boshqa davrga o’tishdagi qiyinchilikdan.

B) bolaning hohish-istaqlarining qondirilmasligi.

V) kattalar ta’siridan qutilish.

G) bolaning xohishi bilan bu hohishning harakatda ifodalanishi o’zaro mos tuzilmasligi.

D) bola shaxsida o’jarlik, qaysarlik kattalarga itoatkorlik bilan belgilanadi.

10. Bola shaxsini ta’limga psixologik tayyorgarligi deganda nimalar nazarda tutiladi?

A) bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga tayyorligi.
B) bolaning idrokining o'tkirligi, ravshanligi diqqat xususiyatlarini rivojlanishi.
V) muayyan reja asosida tartibli ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan o'zaro mantiqiy bog'liqlik.
G) maktabda o'qish hohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishi.
D) bola shaxsining ham psixik, ham jismoniy yetukligi bilan belgilanadi.

23-MAVZU:KICHIK MAKTAB YOSH DAVRI PSIXOLOGIYASI

REJA:

23.1.Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi.
23.2.Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi.
23.3.O'quv faoliyatining xususiyatlari.
23.4.Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi.

23.1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi.

Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi raxbarligida inson ongining turli funksiyalari mazmunini egallaydi, insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslaxatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi.

O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar.

Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xoxlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rqo'vni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi

bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarabbaholanishini tushuna boshlaydilar.

23.2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va boxlovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumlalarini murakkab grammatik tizimda to'za oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki ular o'z fikrlarini bayon etish uchun gina emas, balki o'z suxbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda bolaning yozma nutqi ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar xakida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqi ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhimjihatlarini ajratib olish, reja tuzish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z xotalarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqiligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar.

Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi.

Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligani anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildira oladi. O'quv faoliyati psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqi tus ola boshlaydi.

Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkablik tuxdiradi.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi.

Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan

biri - uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o’z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlar ustida uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustaxkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqi aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashxlar bajarish, takrorlash irodaviy zo’r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to’plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidaga bola ma'lum darajada o’z faoliyatini o’zi mustaqil rivojlantira oladi. U o’z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni so’z bilan ifodalab bera oladi.

Rejalashtirish so’zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so’zsiz o’z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivasiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog’lomligida, uning bilish faolligida ko’rish mumkin.

Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o’rganishga qaratilgan bo’ladi. Bola o’ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-xodisalari va bog’liqlaridan xabardor bo’lishga intiladi. Masalan, bola o’zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho’qishi, qaysilari esa so’zishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo’lsa, u shunchalik ko’p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo’ladi. Bolani xor, yomxir qanday yohishi, xuyosh kechasi xaerda bo’lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo’lgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning "Nima uchun?", "qanday qilib?", "Nima orqali?" kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o’zlari ko’rib turgan narsa haqidachuqurrox fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko’rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo’lgan davr hisoblanadi, Aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi-individ ijtimoiy munosabatlar bilan o’zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o’qishga o’tishi uning atrof-hayotdagi narsa-xodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o’zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, muloxaza yuritish, xukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini bo’llashdek o’ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o’smirlardan farq qiladi.

Ta'lim jarayonida tafakkur operasiyalariga, mustaqi fikrlashga o’rgatish kichik maktab yoshdagi o’quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

Dars jarayonida o’qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so’raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo’lgan taqdirdagina o’quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlari qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so’ralgan. Bolalar suv miqdorini,bir-biri bilan teng bo’lgan idishlarda ko’rganlaridan so’nggina o’z javoblari noto’g’riligini bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va xikoyalar to’qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo’ladi. Ayrim o’quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshyalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko’pincha o’zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar, Bu tasavvurlar zamirida ularning qo’rquvnini yengishi, do’st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo’lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko’pincha xayolga beriladi. Masalan, mexribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o’zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo’lishini, bu uyga o’g’rilar kelib holsa, u qaxramonlik qilishini tasavvur qiladi. O’z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o’zining kelgusi xatti-harakatlari

motivasiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katga. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubxasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

23.3. O'quv faoliyatining xususiyatlari

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emosional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar raxbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi.

Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z moxiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub moxiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona laxzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan o'zviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayili, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponetlari: o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan (V.V.Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish layoqati ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi.

O'quvchilar o'quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil etilishiga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individul jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqi fikrlashi va mustaqi faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb his0blangan. Lekin so'nggi yillarda sobixq ittifoq davlatlarida, shuningdek, Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg'or o'qituvchilarning ishlarida guruhiy bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqilikni ta'minlanishi

zarurligi tasdiqlangan. So’nggi yillardagi olib boriligan tadqiqotlar tafakkur mustaqiligini faoliyat sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy to’zatishlar kiritdi.O’quvchilarning o’zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruhiy o’quv faoliyati tafakkur mustaqiligini rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishi aniqlangan.

Taniqli pedagog va psixologlarning ilmiy asarlarida o’quvchining o’quv faoliyatidagi mustaqiligi uchun shart - sharoitlarni yaratish nixoyatda ahamiyatli ekanligi haqida fikrlar mavjud. Shunday shart - sharoitlardan biri boshlang’ich davrda o’quv faoliyatini jamoaviy faoliyat sifatida tashkil yetilishidir. Quyidagi belgilar mavjud bo’lgan taqdirdagina ishni jamoaviy deb hisoblash mumkin.

1. O’qituvchi tomonidan berilgan o’quv vazifasi yoki alohida bir mikrogruppa tomonidan baravar bajarish qabul qilinsa.
2. Vazifalarni o’zaro taqsimlagan holda birgalikda biron-bir ish bajarilsa.
3. O’zaro nazorat va ma'suliyat mavjudligi.
4. Ishlarni taqsimlashni tashkil etish va uning kechishini o’quvchilarning o’zlari nazorat etishlari.

Frontal ishda (ma'ruza xikoya qilib berish , frontal so’rovnoma va x.k...) bunda o’qituvchi butun sinfga teng ravishda ta'sir ko’rsatishga harakat qiladi. Bunday holatda o’quvchi bilan muloqot o’qituvchining tashabbusi bilan, lekin juda kam miqdorda amalga oshiriladi. Individual ishda (darslik bilan mustaqi ishlash, misol , masala yechish, mashqlarni bajarish va x.k...) o’qituvchi bilan to’g’ridan to’g’ri muloqot yo’q. Bunday holda ko’pincha o’quvchi - o’quvchi, ya'ni sinfdoshi bilan muloqotga yo’l qo’yilmaydi yoki cheklanadi. Shunday qilib, bugungi kunda dars ta'lim jarayonida o’quvchilarning jamoaviy muloqoti imkonyatlaridan yetarli foydalanilmaydi. Dars o’quvchining to’liq mustaqiligi va faolligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. O’quvchilar asta sekinlik bilan o’quv faoliyatining sub'ekti sifatida yangi imkoniyatlarini o’zlari uchun ochib boradilar. Bu jarayonda o’quvchi o’z faoliyati samaraliroq bo’lishi uchun o’z-o’zini nazorat etishga yo’naltirishga harakat qiladi.O’quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo’llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zaxoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. O’quv faoliyatida nazorat va o’z-o’zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda o’quv harakatlarini mustaqi rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, boshlang’ich sinf o’quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo’l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo’llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o’quv, harakatlarini bajarishga o’rgatilmaganligining natijasidir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib muloxaza yuritishning va bu uslubdan o’quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib muloxaza yuritish va o’z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o’sishiga xizmat qilib, kishi o’z muloxazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda aqliy va o’quv materialini o’zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To’g’ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o’rta maktab dasturida ko’rsatalgan bilimlarga nisbatan ko’proq bilimlarni tushunishlari va o’zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o’quv materialini o’zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko’zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida past o’zlashtirish sabablari va o’qishidagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog’liqdir:

1) bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
2) erkin va mustaqi harakat qilish darajasining pastligi;
3) motvasion sohalarining yetarli rivojlanmaganligi;
4) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar;
5) maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
6) o’zaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar;
7) shaxs xususiyatlardagi og’ishishlar.Kichik maktab yoshidagi bolalar o’qishidagi qiyinchiliklar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivasion va hissiy va irodaviy sohalarda aks etadi.Bu qiyinchiliklar o’zaro bir-biri bilan bog’liq.Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni ham kamayishiga olib keladi. N.S.Leytes muloxazalariga ko’ra inson yoshi ulg’aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko’tarilishi, uquvchanlik xususiyati esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o’smir va o’spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o’smir va

o’spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlangich sinf o’quvchilariga nisbatan yuqoridir. O’qituvchining munosabat uslubi o’quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko’rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchi faolligining asosan uch xil ko’rinishi mavjud bo’lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

O’qituvchining dars jarayonida har bir o’quvchiga ta'sir ko’rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O’quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o’qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko’proq ravishda normativ talablar qo’yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o’zini to’liq anglashi va o’z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o’qituvchigina bolaga me'yorlar qo’yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o’z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang’ich sinfda o’quvchilar o’qituvchi tomonidan qo’yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to’la amal qilishga harakat qiladilar.

Bola uchun o’qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo’ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o’z-o’zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko’rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o’quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O’qituvchining o’quvchilarga ta'sir ko’rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo’llik bo’lib, bunda o’qituvchi o’quvchilarini so’zsiz o’ziga bo’ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qatiqqo’llik qilayotganini yoki o’quvchilariga nima uchun o’zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o’quvchilarni o’z xatti-harakatlarini mustaqi boshqarishga ham o’rgatmaydi, o’qituvchi dars davomida o’quvchilaridan jim o’tirishini, savollarga doimo qo’l ko’tarib, o’qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o’qituvchining ko’rsatmalarini so’zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o’quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o’quv rejasi asosida dars o’tadilar. Dars davomida ham baxs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o’qituvchining fikri singdiriladi. O’quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo’zg’aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o’qituvchini sinfdan, o’quvchidan uzoqlashtiradi.

Emosional sovuqlik sinfda intizomli o’quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini hamyuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o’zlashtirish ko’rsatkichini berishi, lekin bu o’zlashtirish, asosan, xotira sababli bo’lib, lekin mustaqi tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo’ladi, unda doimiy xavotirlik o’ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Avtoritar uslubdagi o’qituvchining o’quvchilari o’qituvchi sinfda bo’lmagan vaqtlarda o’z-o’zini boshqarish malakasi bo’lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo’ysunmaydilar. Bu, asosan, to’polonda namoyon bo’ladi. Bu uslub o’qituvchining mustaxkam irodasini ko’rsatadi, lekin bu irodada natijasida o’quvchida "ustozim meni yaxshi ko’radi" degan fikri emas, balki qo’rquv hissi mavjud bo’ladi.

Demokratik uslub o’qituvchi bilan o’quvchi o’rtasida do’stona munosabat o’rnatilishiga asos bo’ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvafaqqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emosiyani, o’ziga ishonch, o’z muvafaqqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do’stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o’zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg’otgan holda, o’zi uchun o’zi harakat qilishi lozimligini anglatadi, o’zini-o’zi boshqarishga, o’z xatti-harakatini o’zi nazorat qilishga o’rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o’qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo’q bo’lgan o’qituvchilarga xos bo’lgan uslubdir. Bunday o’qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o’z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o’zini tutadi. Bola o’z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo’llab bo’lmaydi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy maxoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emosional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi.

Jismoniy faollik - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishdagi tabiiy ehtiyojidir. Bu yoshdagi bolalar nig'oyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki, psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Psixik faollik deganda, bolani o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. O'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala-munosabat uslubining ahamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql soxibi, ziyrak, sezgir, mexribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufo'zi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir.

23.4. Boshlangich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nig'oyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyojhisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar.Shuningdek o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustaxkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqilik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda

mehnatsevarlik, asosan, o’qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustaxkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o’zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi.

Bu davrda mustaqilikning poydevori yuzaga kelib, o’quv vazifalarini mustaqi bajarish layoqati yuzaga keladi. Kichik maktab davrida boshqarishdan o’z-o’zini boshqarishga o’tishi nixoyatda muhimdir.

Mustaqilikka moyillikning rivojlanishi ikki yo’nalish asosida amalga oshiriladi.

1. Mustaqilikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bog’liq. Bu bog’liqlik mustaqilikka bo’lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari soxasida va qadriyatlarda ifodalangan mustaqilik mazmuni xarakterida ifodalanali.

2. Mustaqilikning shaxs xislati sifatida shakllanishida individual xususiyatlar, shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda shaxsning qobiliyatlariga , uning faolligiga bog’liq bo’ladi.

Bolada mustaqilik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog’liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq, xususiyatli bo’lsa, unda asta-sekinlik bilan bo’ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustaxkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqilikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o’zlashtiradi. Mustaqilikni shakllantirish uchun bolaga mustaqi bajaradigan ishlarni ko’proq topshirish va unga ishonch bildirish nig’oyatda muhimdir.Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqi bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o’zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb qis qilsin. Ana shu his bolada mustaqi bo’lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7-11 yoshli bolalar o’zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o’z-o’zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustaxkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o’zlarining ismlariga yanada ko’proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o’zining tashqi ko’rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o’z-o’zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, aynixsa, xizlar o’zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o’quvchining o’quv faoliyati jarayonida o’zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o’zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o’z faoliyatini o’zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo’lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi, o’quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o’zgaradi. Bunda do’stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo’lib qoladi. Axloqiy his-tuygular va shaxsning irodaviy xususiyatlari hamshakllanadi.

5-6 yoshlarda ko’zga tashlangan bolalarning xususiyatlari kichik maktab yillari davomida rivojlanadi va mustaxkamlanadi. O’smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko’pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo’ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko’rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko’nikma va malakalari takomillashadi.

3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko’zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayotu chun nihoyatda ahamiyatli bo’lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustaxkamlanadi, bu esa o’z-o’zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to’liq shakllanib bo’lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo’llaniladigan uslublardan ham foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o’qituvchi bilan bo’ladigan munosabati katta ta'sir ko’rsatadi. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o’rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg’izholda sevimli mashg’ulotlari bilan shug’ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqilik fazilatlari shakllanadi.

Tayanch tushunchalar

Refleksiya- o’z-o’zinikuzatishturibo’lib, undashaxsiypsixikholatanalizqilinadi.

Regidlik(lot. qotib qolgan) (Psixologiyada) hulq-atvorning turlaridan biri bo’lib, unda hulq-atvorning ma’lum bir holatlari qayta va qayta takrorlanadi.

Rivojlanishning yaqin zonasi- murakkab vazifani hal etishda bolaning mustaqilligi (aktual rivojlanishi darajasi) hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidagi farqini bildiradi. Bu tushuncha L.S. Vigotskiy tomonidan keltirilgan bo'lib, unda asosan rivojlanishning yaqin zonasini yaratish orkali bolaning psixik rivojlanishi ortadi.

Semantik (grekcha - tasvirlovchi) - ma'noli, so'zning dea'nosiga qaratilgan, ma'noga ega bo'lgan.

Senzitiv (o'rta lot. hissiy)

Yosh davri- ta'lim-tarbiya jarayoni orqali psixikaning samaradorligini ta'minlovchi optimal imkoniyat davri.

Sensorika (lot. his-tuyg'u) hissiy idrokelementlariningyig'indisi (hisqilish, idrokqilish, tasavvuretish).

sensor yakkalanish - informasiyaning yetishmasligi tufayli organizmning jiddiy funksional buzilishi.

Sezgi — sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon.

Individuallik- har bir insonni boshqa insondan farqlab turuvchi xususiyatlar yig'indisi, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Ichki nutq, - nutq faoliyatining bir turib o'lib, unda nutq ichdan, ovoz chiqarmasdan ifodalanadi.

Iroda - insonning biror-bir harakatlarni bajarishga qaratilgan maqsad sari ongli intilishi.

Idrok— sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning ongimizda butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayon.

Nazorat uchun savollar:

1.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
2.Maktabga ijgimoiy-psixologik moslashuv yo'llari qanday
3.Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati.
4.O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
5.Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladiganyangilanishlar.

Test topshiriqlari:

1. Kichik maktab yoshi davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi.
A) 6 -7 yosh;
B) 9 - 10 yosh;
V) 6 - 10 yosh.
2. Kichik maktab yoshida yuzaga keladigan yangi o'zgarishlar nimalardan iborat.
A) Erkinlik, ish - harakat va fikrlarning ichki rejasi,
B) Erkinlik, refleksiya va katta bo'lganligini his etish;
V) Erkinlik, tanqidiylik, o'z fikrlarining haqqoniyligini asoslab bera olish.
3. Kichik maktab yoshi davrida yetakchi faoliyat qaysi.
A) Predmetli faoliyat;
B) O'yin va mehnat faoliyati;
V) O'qish faoliyati.
4. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta'limning rolini aniqlang.
A) Jamoa shakldagi mulokot va faoliyatning shakllanishi;
B) Ko'zatuvchanlik, ixtiyoriy diqqat, ijodiy xayol,mavxum tafakkurning shakllanishi;
V) Bilish jarayonlarining rivojlanishi, ta'lim olishdagi muammolarni yechishda tafakkur jarayonining shakllanishi.
5. Kichik maktab yoshidagi bolalarning taraqqiyoti nimalardan iborat.
A) O'z "men"ini va o'z psixologik xususiyatlarini anglay boshlaydi;
B) Axlok normalari va xulk - atvor qoidalarini egallaydi;
V) O'z- o'zini tarbiyalash elementlari yuzaga keladi, mustakillikka erishishga intiladi, o'zining shaxsiy hissiyotlarini bilish ehtiyojlari

paydo bo’ladi.

6. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda nima orqali ta'limga bo’lgan munosabat yanada faol namoyon bo’ladi.

A) Dunyoqarashorqali;

B) Qiziqishorqali;

V) qobiliyatorqali.

7.N.D.Levitovtomonidanishlabchiqilgano’zlashtirishkomponentlarito’g’riberilganqatornianiqlang.

A) tafakkurtanqidiyligi, bilishfaolligi, o’qishganisbatanijobiymunosabat.

B) bilish motivlarini rivojlanishi qiziquvchanlik, o’quv materialini anglash tushunish.

V) o’qishga ijobiy munosabat – hissiy tanishish, materialni faol qayta ishlash.

G) diqqatning barqarorligi, ko’zatuvchanlik qiziqishning chuqurligi.

D) shaxsning motevasion doirasi bilishga nisbatan qiziquvchanlik aqliy faolik.

8. Ta’lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni ilgari surgan olimni toping.

A) V.Shtern

B) J.Piaje

V) D.Bruner

G) D.B.Elkonin

D) L.S.Vigotskiy

9. Bola psixik rivojlanishini ta’minlovchi qonuniyatlar.

A) bilish jarayonlarining intensivligi, integrasiya, kompensasiya.

B) aqliy qobiliyatlar, senzetiv, noniksligi.

V) yetakchi faoliyat senzetivlik, plastiklik.

G) notekisligi, integrasiyasi, plastiklik va kompensasiya.

D) notekisligi, senzetiv, integrasiyasidir.

10. Qaysi qatorda L.S.Vigotskiy tomonidan fanga kiritilgan aqliy rivojlanishning aktual rivojlanish darajasi to’g’ri berilgan.

A) o’quvchi qo’lga kiritib bo’lgan rivojlanishi darajasini ko’zlamasdan bir muncha orqaga ketishi.

B) o’quvchi tafakkuriga uning mavjud imkoniyatlarini bir muncha oshiradigan talablar qo’yishi.

V) u erishgan va yaxshi o’zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilinishi kerak degan qoidaga asoslanadilar.

G) o’quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo’lib, u o’quvchining qanday topshiriqlarni to’la mustaqil bajara olish bilan xarakterlanadi.

D) bolani nimanidir bajara olmasligi unga amaliy ko’makni berish

24-MAVZU: O’SMIRLIK YOSH DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

24.1.O’smirlik yoshining psixologik xususiyatlari.

24.2.O’smirlarning intellektual rivojlanishi.

24.3.O’smirlik davrida shaxsning shakllanishi.

24.4.O’smirlik davrida yangi xislatlarning paydo bo’lishi.

24.1. O’smirlik yoshining psixologik xususiyatlari

O’smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo’lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o’quvchilarda o’smirlik yoshiga o’tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o’smir bola emas, biroq katta ham emas" - ayni shu ta'rif o’smirlik davrining muhimxarakterini bildiradi.Bu yoshda o’smir rivojida keskin o’zgarishlar ro’y bera boshlaydi. Bu o’zgarishlar fiziologik hamda psixologik o’zgarishlardir. Fiziologik o’zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog’liq ravishda

tanadagi barcha a'zolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, xujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi.

Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekresiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekresiya bezlarining (qalxonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida halio'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smirlik davri "o'tish davri", "krizis davr", "qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari hamkuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni "psixik rivojlanishdagi krizis" deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izoxlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xosdir.

Kattalarga nisbatan yomon munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir.

Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi.Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar.

O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari mumkin. Katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini qulay his qilmaydi. Bunday holatlarga tushgan o'smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir.Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeio'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi.Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvnini yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi deyiladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat - bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi.

O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o'smirlarning xaq-huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e'tirozlariga o'zlari ham qattiq qayg'uradilar. Ular muloqotda

kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi.

O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hechqachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala-munosabatiga qattiq norozilik bildiradi, o'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitasiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitasiya, taqlidchanlik qiladilar.

Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruxida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruxiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruxning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Gurux ko'pincha o'smirda "Biz" hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustaxkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushungan holda va aql bilan raxbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu raxbarlik kattaning hohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotida mustaqi holdaharakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyin.

Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni hamqiyinchilik bilan yengadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi.

O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish maxoratiga bog'liq. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirishi qiyin. Buning uchun o'quvchi o'quv materialining mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim. Bu davrda bolalarning idroki, diqqati va tasavvurlari rivojlanadi, lekin bu rivojlanish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan holda kechadi.

Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo'ladi. O'smirlik davrida o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi va unda boshqa odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. O'yin faoliyati asta-sekin kamayib, yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o'zini-o'zi boshqarishga intilishi

kuchayadi. Bir so’z bilan aytganda, o’smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi.

24.2. O’smirlarning intellektual rivojlanishi

O’smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so’z boyligining oshishi hisobiga bo’lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun moxiyatini anglashlari hisobiga bo’ladi. Bu davrda o’smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o’smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi.O’smirni ko’pincha muomalada so’zlarni ishlatish qoidalari - ""qanday qilib to’g’ri yozish kerak?" "qanday qilib yaxshroq aytish mumkin?" , "Nima deyish kerak?", kabi savollar juda qiziqtiradi. O’smirlar maktabdagi o’qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o’smirning bir tomondan o’z nutqini nazorat etishga o’rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini bo’zishlari mumkinligini bilishlariga va o’zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

O’smir so’zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va moxiyatiga juda qiziqadi. U endi o’z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardan so’zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o’smir uchun o’qituvchi, albatta, namuna bo’lishi shartdir.

Aynan maktab ta'limi o’smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo’nalishini sifat jihatidan o’zgarishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq, og’zaki, ham yozma mavjud bo’lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o’quv jarayonlarining to’g’ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o’smir nutqining to’g’ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o’zlashtirishga harakat bu o’smirnnng muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O’smirlik davrida o’qish malakalari, yozma va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o’qish to’g’ri, tez va ifodali bo’lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko’tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so’zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og’zaki - muloxaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o’zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o’smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo’yicha mustaqi holda insho yoza oladilar. O’smirlarning nutqi to’la tafakkur bilan bog’liq holatida amalga oshiriladi.

5-6 sinflardagi o’quvchilar og’zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar.

Diqqat. Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik xilsa, o’smirlik davrida bola o’z diqqatini o’zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o’quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O’smir o’z diqqatini to’la ravishda o’zi uchun ahamiyatli bo’lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo’lgan faoliyatlarga qarata oladi. O’smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo’lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o’qituvchi tomonidan doimo qo’llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko’tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o’smirning dars jarayonida o’z tengdoshlari orasida o’zini ko’rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o’smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo’lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, o’smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo’ladi. Aynan 13-14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig’i keskin ko’tariladi. Bunday holatlarda o’smir atrofdagi narsa va voqealarga to’liq diqqatini qarata olmaydi, diqqatning ko’rinishlariga o’smirlik erishish va yo’qotish bo’yicha to’la qarama-qarshibo’lgan davr hisoblanadi. O’smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo’la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o’quvchilar atrof-olamdagi bog’lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o’smirning bilishga bo’lgan qiziqishida progress sodir bo’ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyatpaydo bo’ladi.

Maktabda o’qitiladigan fanlar o’smir uchun o’z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo’lib xizmat qiladi.

J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayotuch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi.

O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ulardan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, muloxazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

- tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqa shu kabi sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdanoq rivojlantira borish nihoyatda muhim. O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas balki boshqaruvchi, mustaqi yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqilikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqi ravishda hisob-kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin, o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez yo'llab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida iitellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi himmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqiligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.

24.3. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi

Jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta'sir o'tkazadi. Lekin, bu bevosita ta'sirdir.

Ijtimoiy omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yoshidan o'rta maktabga o'tish, ya'ni yakka o'qituvchi raxbarligidan ko'pchilik o'qituvchilar tasarrufiga o'tish va muloqotdagi o'zgarishlar ijtimoiy foydali ishlarni kengaytirib borish, mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish, shu bilan birga bolaning oiladagi o'rni ham o'zgarishidir. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o'sib borishi munosabati bilan o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, u endi oilaviy muammolar muxokamasida ham ishtirok eta boshlaydi. Katta o'smirlarga nisbatan kichik o'smirlarda paydo bo'ladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilishi bilan emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-ko'y, ya'ni ijtimoiy sharoitlar ta'siri bilan bog'lash zarur. Shu ijtimoiy sharoit ulardagi psixologik iqlimni o'zgartirish bilan, kichik o'smirdagi yomon xulq-atvor, o'jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi salbiy xislatlarning oldini olishi mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar kichik o'smirdagi bu o'zgarishlar - urushqoqlik va salbiy alomatlar o'jarliklarining iddizlari qaerdan kelib chiqqani va nima bilan bog'langanligi, nimaning ta'siri ekanligini bilmay turib, noto'g'ri tashhis va xulosalar chiqaradilar va bu esa aksariyat holda fojiaga olib kelishi mumkin.

Aslida o’smir yoshidagi bolalarning psixik holatlarini va psixik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, psixik muammolarini erkin va to’g’ri yechishlari uchun yordam berish, ularga psixologik yondashish zarur. Kichik o’smir yoshdagilar bilan ishlayotganda o’quvchining har bir tashqi va ichki reaksiyasi ortida uning o’z psixologik sabablari borligini bilish muhimdir. Bu "madaniyatsiz", "zararli", "tushunib bo’lmaydigan" deb nom olgan xatti-harakatlar bir qarashda shunday baholanadi, lekin bu xatti-harakatlar shaxs qaror topishi maxsus bosqichi uchun xos xususiyatdir. Kichik o’smir psixologik "mexanizmi" sxematik ravishda quyidagicha baholanadi. Endokrin garmonlarini paydo bo’lishi va ularning markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishi bilan bog’liqdir bo’lgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalarning faolligini jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi, hamda bolada o’zini kattalardek his etish, mustaqi bo’lish tuyg’ularini tuyush uchun qulay shart-sharoitlarni olib keladi. Biroq, psixik rivojlanishning bu bosqichida ham bola hali mustaqi harakat qilishga to’la tayyor bo’lmaydi. Asosiy ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri o’z mustaqiligini imkoniyatidan ortiq darajada baholashdir. O’z imkoniyatlarini ortiqcha baholash bilan kichik o’smirning psixik imkoniyatlari o’rtasida tafovut paydo bo’ladi. Bu ziddiyatni hal etilishi qanday sodir bo’ladi va u bolani tashqi ko’rinishi xulq-atvorida qanday namoyon bo’ladi.

Ma'lumki, har bir bolaning munosabatlari aniq ishlarda ko’rinadi, mustaxkamlanadi va qayd etiladi. Bola o’zidagi mustaqilikni shakllantirish uchun o’zi mustaqi ishlarni bajarishga to’g’ri keladi. Lekin, ikkinchi tomondan bir marta mustaqi ish bajarish uchun mavjud shart-sharoitlardan holi bo’lishga harakat qiladi. Bola boshqa mexanizmlarga ega emas. Bular o’smirning o’z kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligini bildiradi. Bu belgilar mana shu yoshda kishini mustaqi harakat qilishga qodir bo’lishga, ayni hollarda tevarak atrofdagi kishilarga qarshi borib, o’zini xaq ekanligini qattiq turib himoya qilishga, boshqa hollarda esa vaziyatni vazminlik bilan qabul qilishga dav'at etadi. Kichik o’smirda o’z-o’zini hurmat qilish va o’zini anglashni shakllantirishni bir qancha yo’llari mavjud.

Masalan: bu davrda kattalarga taqlid qilish yoki oilada o’z hurmatini talab qilish, o’z so’zini o’tkazish, o’zini hurmatli, obro’li katta yoshli kishini obraziga o’xshatib rivojlantirish kuchli bo’ladi. Ularga biror so’z yoki tanbex bilan murojaat qilsangiz, u o’zini mustaqil fikrlay olishi va biror ishni albatta uddasidan chiqa oladigandek ko’rsatadi. Vaholanki, hali o’smirni psixologik imkoniyatlari yetarli emas yoki rivojlanmagan bo’lishi mumkin. Kattalar, o’qituvchilar o’smirdagi bu jarayonni psixologik nuqtai nazaridan baholay olishimiz, unga soxta pedagogik, yuzaki yondashmay, aksincha, unga o’z imkoniyatlarini o’stirishga o’z ichki va tashqi qobiliyatlarini to’g’ri rivojlantirishga yo’naltirishimiz muhim.

O’smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o’zini endi kichkina bola emas,balki katta bo’lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu yoshda kattalar o’smirlarni bilib-bilmay qo’yayotgan kamchilik va xatolarini ko’pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo’l bilan yondashgan holda yordam berish uni "katta bo’lib qolganlik" tuyg’usini so’ndirib emas, balki katta odam qanday bo’lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur.

Demak, bu o’smirni to’laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo’lgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bog’liq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to’g’ri tushunmog’i va bolalarni o’zlarini katta tutishlariga to’sqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy baholashga intilishi kerak.

O’smirlarni o’z tengdoshlari bilan muloqotda bo’lishi g’oyat katta ahamiyatga egadir. O’z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan munosabat asosida o’smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o’taydi. O’zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini o’zligini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatlidir. O’smirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari bo’yicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimroqdir. O’z sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko’proq ishonadi. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg’u bermagan holda o’zi hohlagan kishisi bilan do’st bo’lish huquqini talab etadi. O’z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o’z shaxsini erkinlik bilan to’la namoyon eta oladi. Shaxsiy erkinlikni u katta bo’lish huquqi deb anglaydi. Ota- onalarning o’smirga shu erkinlikni bermasligi yoki o’smirning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozisiyada bo’ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o’smirlarda g’ururhissishakllana boshlaydi. Albatta, g’urur me'yor va qoidalari kattalardan o’rganiladi, lekin o’z g’ururini qanday himoya qilishi

o’smirlarning alohida nazoratida bo’ladi. O’smirlar orasida sodiqlik va to’g’rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik o’z so’ziga bevafolik, egoizm, qizqanchiqlik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaqlash unga qarshi baykot e'lon qilish va uni yolg’izlatib qo’yish shaklida bo’lishi mumkin. O’smirlar o’zini hurmat qilishini, o’z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

24.4. O’smirlarning psixik rivojlanishida yangi xislatlarning paydo bo’lishi

O’smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o’smirlar uchun hayot davomida kerak bo’ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko’rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko’tariladi. Nutq rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o’zining barcha ko’rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O’smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o’rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.O’smirlik davriga juda ko’p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturini o’zlashtirish va boshqa ishlar bilan bog’liq turli masalalarni yechishda ko’zga tashlanadigan o’smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo’yicha fikrlashga undaydi, o’smirlarning o’zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, o’z majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muxokamasida infantillik (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat)ni kuzatish mumkin.

5-6 sinf o’quvchilariga sinfdagi o’zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, o’quvchilar o’z tashqi ko’rinishlariga, shuningdek qarama-qarshijinsdagi bolalar va ular bilan o’zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o’quvchilarida esa o’z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi.

8-sinf o’quvchilari esa mustaqilik, o’ziga xoslik, do’stlik va o’rtoqlik bilan bog’liq bo’ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. O’smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirishi mumkin.

O’smirlik davrida o’quv fanlarini turli o’qituvchilar o’qitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatni baholashning yangi mezonlari hamshakllana boshlaydi. O’smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o’quv materialini qiziqarli va tushunarli yo’l bilan yetkaza oladigan, o’quvchilarni ajratmaydigan, o’qituvchilarni ko’proq hurmat qiladilar va yaxshi ko’radilar. Ular o’qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o’zgarishlar amalga oshadi. Ilk o’smirlik davrida ko’pchilik o’smirlar o’zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo’lgan sari o’smirning o’z-o’ziga bergan bahosi differensial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o’zini tutishga va ayrim xatti-harakatlari)da namoyon bo’la boshlaydi.

XIX asrning 60 yillarida o’smir davri pedagogik psixologiyasi to’la ravishda prinsiplari ishlab chiqilishi ilmiy yo’lga qo’yildi. Komil insonni shakllantirish uchun mana shu davrda o’smir yoshida bolani kompleks o’rganishni ilmiylashtirildi.

Bolani to’laqonli rivojlantirishga katta urg’u berildi. Aqlan bu ishni bajarishda pedagogika yoki psixologiya emas, boshqa fanlarning roli ham bilinadi.

O’smirlik yoshi rivojlanishida 3 ta fanga tayanadi:

1.Psixologiya

2.Fiziologiya

3.Logika

Bular quyidagi fanlar o’rtasida bog’lanib o’rganiladi ya’ni medisina va didaktikaning roli beqiyosdir.

Pedagogika va psixologiyaning bog’lanishi bolalarning o’smir yoshlarda har qanday fikrlarning paydo bo’lishida asos bo’lgan. Bu narsa pedagogika va psixologiya degan termin paydo bo’libdi. Fan sifatida ko’pgina muammolar va ishlanmalarni olib kelinishiga sabab bo’ladi.

Pedagogika bilan fiziologiyaning bog’liqligi ham psixologik jihatdan insonni yangicha tarbiya olishiga chorlaydi. Aqliy tarbiyaga katta yordam boradi. Shu bilan birgalikda shaxsning gigiyenik

normalari ishlab chiqildi. Psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam berdi. Bu esa maktab gigiyenasi alohida fan tarmog'I sifatida shakllanishiga olib keldi.

Pedagogika va logika o'rtasidagi aloqa psixologiya mantiqiy rivojlanishi natijasida yangicha yondoshishi ya'ni, masalalarni hal qilishning didaktik yo'llari bilan o'smirlik yoshida mantiqiy yo'llarini o'rganish paydo bo'ldi. Shunday qilib mana shularning ildizi bolani har tomonlama o'rganish va ularning rivojlanishda qonuniy to'g'ri ekanligi va optimal yo'llar yaratildi.

Bolani o'rganishda juda ham katta qiziqishlarga sabab bo'lgan narsa shunda ko'rindiki, umumiy psixologiyaning rivojlanishiga katta yo'l ochildi.

Voqelikka bo'lgan ongli munosabatning uchunan usishi bilan o'smirlarning o'qishga bo'lgan ongli munosabatlari sezilarli darajada kuchayadi. O'zlarining o'qish faoliyatlarida ular sekin-astalik bilan shaxsiy ma'no kasb etadigan haqiqiy, chuqur bilimlar bilan yangicha munosabatlarda boglangan yangi, yuksakroq bosqichga kutariladilar. Rus psixologlarining tadqiqotlari shuni belgilab berdiki, o'smirlar o'qish faoliyatining motivlari murakkab tuzilishga egadir. O'smirlar o'qish faoliyatining motivlari tarkibiga keng ijtimoiy motivlar (bilim orttirishning ijtimoiy jihatdan muhim ekanini anglash, mustakil hayot va mehnatga tayyorlanish uchun o'qish zarurligi), aslida muvaffaqiyatga intilish, izzat nafs bilan bogliqbo'lgan bilish motivlari va shaxsiy motivlar (bolalar jamoasida obru qozonishga intilish va raxbarlik rolini o'ynash) birga qushilib ketgandir. Bunda ba'zan qarama-qarshilikkuzatiladi: bilim orttirishga bo'lgan intilish maktabdagi o'qishga befarq yoki hattosalbiy munosabatda bo'lish bilan, maktabdagi baholarga «xushchaqchaq-mensimaslik» (D.B.Elkonin) munosabati bilan aralashib qushilib ketishi mumkin. Bu o'qishdagi u yoki bu xildagi muvaffaqiyatsizlikka, o'qituvchi bilan bo'lgan nizoga nisbatan o'ziga xos reaksiya bo'lishi mumkin. O'smir odatda o'zining o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklarini qattiq ichdan kechiradi, lekin uning izzat nafsi ba'zan bu muvaffaqiyatsizlikka bo'lganhaqiqiy munosabatni niqoblash hohishini tugdiradi. Natijada o'quvchio'qishdagi muvaffaqiyatlarga o'zini mutlaqo befarqdek va beparvodek tutadi, hattosoxta mardlik kursatmoqchi bo'ladi. O'smirning o'qishlarining paydo bo'lishi (kitob o'qish, shaxmat o'ynash, filyatiliya, ya'ni marka tuplash va boshqalar) bilan tushuntirish mumkin.

Diqqatning taraqqiy etishi ma'lum ziddiyatlari bilan: bir tomondan, o'smirlik yoshida barqaror, ixtiyoriy diqqatning tarkib topishi bilan, boshqa tomondan, o'smirdagi taassurotlar, kechinmalar, jo'shqin aktivlik va impulsivlik ko'pincha beqaror diqqatga olib borishi bilan, uning tez chalg'ishi bilan ajralib turadi. Hamma narsa ish sharoitiga, materialning mazmuniga, o'quvchining kayfiyati va psixik holatiga, uning ishga bo'lgan munosabatiga bogliqdir. Diqqatning tanlovchilik qobiliyati, ya'ni uning turlicha xarakteristikasi usha narsaga bo'lgan qiziqish ko'lami va darajasiga bog'liqbo'lishi o'smirda juda yaqqol ifodalangan. Bu darsda (o'zi yoqtirmagan darsda) e'tiborsiz va parishonxotir bo'lib o'tirgan o'quvchi boshqa, o'zi yaxshi ko'rgan darsda nixoyatda, hushyor, fikrini bir yerga tuplab olib, hech narsaga mutlaqo chalg'imasdan bemalol ishlashi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, o'smirlik yoshida diqqatning ko'lami, shuningdek, diqqatni bir operasiyadan boshqa operasiyaga qaratish, faoliyatning bir turidan boshqa turiga jalb etish qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli o'larok, o'smir uchun odatda o'z faoliyatini o'zgartirishga qandaydir alohida psixologik tayyorgarlik ko'rish talab etilmaydi.

Diqqatni tashkil etishning eng yaxshi usuli o'qituvchining qandaydir alohida usullarni qullanishga emas, balki o'qish faoliyatini o'smirda diqqatni uzoq vaqt mobaynida biror narsaga chalg'itish uchun na vaqt, na istak va na imkoniyat qolmaydigan qilib uyushtira olishiga bog'liqdir. Qiziqarli ish, qiziqarli dars o'smirni shunchalik qamrab olishga qodirki, u juda o'zok vaqt davomida zur ishtiyoq bilan ishlaydi. Shunisi ham borki, o'smir uchun qiziqarlibo'lgan narsa-hamisha ham shunchaki qiziqarli narsa emas. Ishning bir turidan boshqa turiga vaqti-vaqti bilan o'tib turiladigan mazmunli mashgulotlar, aktiv bilish faoliyati-ana shu narsa darsni o'smir uchun qiziqarli darsga aylantiradi, ana shuning o'zi uning diqqatini uyushtirishga yordam beradi. N.F.Dobrinin va uning xodimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'smirlar irodaviy zo'r berish bilan ushlab turiladigan ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat deb ataladigan diqqatga tobora ko'proq o'tib bormoqdalar. Bu diqqat oldindan o'ylab ko'yilgan va muayyan maqsadga qaratilgan diqqatbo'lib, ishga «kashfiyotlar»ga bo'lganqiziqishning asta-sekin ortib boishi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra ham bu diqqatni tutib turish uchun irodaviy kuch sarflash talab etilmaydi.

O’smirlik yoshida fikrlash faoliyatida muhim siljishlar yuz beradi. Kichik maktab yoshida erishilgan tafakkur taraqqiyotining darajasi o’smirga fan asoslarini muvaffaqiyatli va sistemali o’rganish imkonini beradi. O’rganiladigan fanlarning mazmuni va o’quv kurslari tuzilishining mantiki bilimlarni o’zlashtirishning yangi xarakterini, mustaqil tafakkurga tayanishni talab etadi, abstraksiyalash va umumlashtirish, taqqoslash, muloxaza yuritish, xulosalar chiqarish, isbotlash qobiliyati zarur bo’ladi. Biroq, shuni nazarda tutish kerakki, hamma o’smirlar ham isbotlovchi tafakkurga osongina o’tavermaydilar. Ulardan ba’zilariga, masalan, umumlashtirilgan geometrik isbot goyasining o’zi tushunarli bo’lmaydi: o’zingning haq yoki noxaq ekanligingni ko’rib turib ishonch hosil ilganingdan keyin isbotlab o’tirishning nima keragi bor ? O’smirlardan biri xayron bulib, bunday deb javob bergan: «O’qituvchi doskaga ikkita teng uchburchakni chizadi va ularning teng ekanligini uzoq vaqtgacha tushuntirib o’tiradi».

Umumlashtirilgan va muxokamali tafakkurni taraqqiy ettirish uchun matematikani o’qitish juda muhimdir. Algebrani sistemali tarzda o’rgana boshlash umumlashmani umumlashtirish bilan bog’liq bo’lgan yuqoriroq darajasiga o’tishga yoki ikki baravar abstraksiyaga o’tishga rag’batlantiradi (arifmetika predmetidan soni abstraksiyalashdir). Geometriyani o’rganish fikrlash, isbot qila bilish, mantiqan qat’iy asoslash ko’nikmalarini o’stiradi.

Tayanchiboralar.

Kommunikasiya (lot. axborot) - muloqat, axborot berish, aloqa qilish.

Konfabulyasiya (lot. vaysayman) - yorqin obrazli xarakterga ega bo’lgan yolg’on fantastik fikrni bildirish.

Konformlik (lot. moye keluvchi) - psixologiya va sosiologiyada ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, shaxsni guruh bilan ham ichki ham tashqi tomondan rozi bo’lishi. Ikkinchidan, tashqi tarafdan to’la rozilik bo’lsa ham, ichki tomondagi qarashlar qarama-qarshiligi.

Konsepsiya(lot. idrok etmoq) - qarashlar sistemasi, farazlar yig’indisi.

Konflikt(lot. to’knashuv) - qarama-qarshi yo’nalishdagi fikrlar, kishilar va guruhlar orasidagi kuchli salbiy hissiy kechinmalarni keltirib chikaruvchi to’qnashuv.

Korrelyasiya(qadimiy lot. o’zaro munosabat) - predmet, voqyea, xulq-atvorlarning o’zaro munosabati, o’zaro yordam, o’zaro aloqa, o’zaro bog’liqligi.

Kasb-hunar konsultasiyasi- jamiyat ehtiyoji va yoshlarning qiziqish va iste’dodlariga qarab turli kasblar haqida ilmiy tashkil etilgan ma’lumotlarni berish.

Kasb-hunarga yo’nalish berish- yoshlarning ishga joylashishda hohishi, qiziqishi, shakllangan qobiliyati, layoqatiga qarab psixologik, pedagogik va tibbiy tadbirlarni o’tkazish.

Yosh davr iinqirozlari (grekcha – burilish payti) –bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o’tishdagi to’qnashuvli vaziyat.

Zehn — shaxs maxsus qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun asos bo’ladigan anatomik-fiziologik imkoniyat.

Identik (aynan o’xshashlik), (qadimiy lot. o’xshash, birhil) — ikki tabu yum yoki hodisaning bir-biriga o’xshashligi

Nazorat uchun savollar.

1. O’smirlik davrining asosiy psixik xususiyatlari.
2. O’smirlik davridagi yetakchi faoliyat turi.
3. O’quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o’smirdagi bilish jarayonlarining rivojlanishi.
4. O’smirlik davri krizisi, sabablari va namoyon bo’lishi.
5."Tarbiyasi qiyin" o’smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondoshuv.
6. O’smirlik yoshida individual yondoshuvning psixologik jihatlari.

Test topshiriqlari:

1. O’smirlik davri necha yoshlarda ro’y beradi.

A) 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha;

B) 17 yoshdan 19yoshgacha;

V) 7-10 yoshdan 16-17 yoshgacha.

2. O’smirlik yoshiga o’tishda yuzaga keladigan asosiy qayta shakllanish nimalardan iborat.

A) Bolaning tasavvurlari o’z bolaligi xakida emas, balki o’zining katta bo’lganligini his etishidan;

B) Negativizm, janjallik holatlari, o’zini bola deb hisoblashni istamasligida;

V) Mustakillikka intilish, tevarak-atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatlarda bo’lishida.

3. O’smirlar bilan kattalar o’rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari nimalarda aks etadi.

A) Ota - onalarning o’smirlarni "kattalashish" darajasini og’ir kechirishlarida;

B) Kattalarda o’smirlarga nisbatan bo’ladigan munosabatlar kichkina bolaga bo’llgan munosabatdek saqlanib qolishida;

V) O’smirlarning moddiy tomondan kattalarga butunlay bog’liqdir bo’lib turishida.

4. O’smirlik yoshida o’zaro munosabatlarning xususiyatlari va "tanglik" davrining kechishi nima bilan aniqlanadi.

A) O’smirning ijtimoiy mavqei kattalar olamiga o’tishi bilan;

B) O’smir organizmida anatom - fiziologik o’zgarishlarning xarakteri bilan;

V) O’smirda o’qish motivlarining asta - sekin tarkib topishi bilan.

5. O’smirlik davrida aqliy rivojlanish nimalarda aks etadi.

A) Nutqning faollashuvi, dunyoqarashning o’sishida;

B) Bilish jarayonlari rivojlanishining jadallashishida;

V) Barcha javoblar to’g’ri.

6."Tarbiyasi qiyin" o’smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlang.

A) Shaxsning psixik o’sishidagi kamchiliklar, irodaning bo’shligi;

B) Shaxsning biologik nuqsonlari, shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar, psixik kamolotidagi, maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar, maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar;

V) Oilaviy nizolar, oilada pedagogik - psixologik bilimlarning yetishmasligi va tengqurlarining ta'siri.

7.Qaysi olim tomonidan o’smirlik davrida do’stlik tuyg’ularini tadqiq qilib, uni nechta shaklga bo’ladi?

A) I.V.Straxov; birodarlik, do’stlik, urishqoqlik.

B) D.B.Elkonin; tengdoshlik, mardonaviylik, boshqaruvchilik.

V) V.A.Kruniskiy; mardonavor o’rtoqlik va talabchan do’stlikdir.

G) I.V.Straxov; ulfatchilik, o’rtoqlik va do’stlikka.

D) N.S.Lukin; mardonavor, ulfatchilik va do’stlik.

8. Ijtimoiy akselerasiya nazariyasining asoschisi kim va uning mohiyati?

A) jamiyat rivojlanishida shaharlarning rolini ortishi. L.S.Vigotskiy.

B) hozirgi kishilarning bilim hajmini oldingilar bilan taqqoslash orqali bolalarni o’sishda tezlashishi. A.A.Markosyan.

V) jamiyatda axborotlar oqimini ko’payishi, shaxsning psixik rivojlanishiga ta’sir qiladi. A.A.Markosyan.

G) quyosh nurining bevosita ta’siri. Chet el olimlari.

D) ijtimoiy hayotda turmushda keskin o’zgarishlar sodir bo’lgani insonlarni turli millatlar aralash nikohga kirishishi natijasida. Chet el olimlari.

9. O’smirlik davri psixik o’sishni harakatga keltiruvchi kuchlar.

A) uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o’rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo’lishidir.

B) jamoat tashkilotlari maktab jamoasi ta’lim jarayonini qo’yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o’rtasidagi ziddiyatdan iborat.

V) ijtimoiy hayotda maktab jamoasida tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqyei ta’sirida.

G) turli qarama-qarshiliklar ziddiyatlar shuningdek ahloqiy aqliy nafosat jihatdan tez o’sishi.

D) barcha javoblar to’g’ri.

10. N.D.Levitov tomonidan ishlab chiqilgan o'zlashtirish komponentlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

A) tafakkur tanqidiyligi, bilish faolligi, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat.

B) bilish motivlarini rivojlanishi qiziquvchanlik, o'quv materialini anglash tushunish.

V) o'qishga ijobiy munosabat – hissiy tanishish, materialni faol qayta ishlash.

G) diqqatning barqarorligi, ko'zatuvchanlik qiziqishning chuqurligi.

D) shaxsning motevasion doirasi bilishga nisbatan qiziquvchanlik aqliy faolik.

25-MAVZU: O'SPIRINLIK YOSH DAVRI PSIXOLOGIYASI

REJA:

25.1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.

25.2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish.

25.3. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.

25.1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari

Mazkur davrning bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy hayotda faol, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tikodning shakllanishiga, yuksak insoniy his–tuyguning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi.

Hayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb – hunar o'rganish, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qaxramonlik kursatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatlardir.Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning axloqiy, aqliy, etsetik jihatdan tez o`sishi bartaraf qilinadi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi etakchi omil yuqori sinf o`quvchisi faoliyatining xususiyati, moxiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O'spirinlarda avvalo o`zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hol shunchaki o`sishni bildirmaydi. O'spirinda o`zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yoshdagi o`quvchilarning o`zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroqbaholash imkoniyatiga ega bo`ladilar. O'spirino'smirga qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to`laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilonabaholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo`ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga gayritabiiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o'spirinlar o'z xatti–harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga pas baho beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar. O'smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o'zqadr-qimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, o'spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni anglash, holisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O'spirin o`zining ezgu niyatini baholashda jamoada o'z urnini belgilash nuqtai – nazaridan yondoshadi, chunonchi, «o`zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?», «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo'la olamanmi?», «Jamiyatning taraqqiyotiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?» degan savollarga javob qidiradi. O`quvchida o`zining fazilati to`g`risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi unga juda utsalik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. Shundagina jamoada utsozga, do'stlariga chuqur hurmat, minnatdorchilik tuygulari uygonadi.

O'spirin o`quvchida o`zini anglash zamirida o'z–o`zini tarbiyalash itsagi tug`iladi va bu ishning yo'llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O'zlariga ma'qul

ma’naviy – psixologik qiyofaga ega bo’lish uchun oqilona o’lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

O’spirinda ideallar bir necha ko’rinishda namoyon bo’lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qaxramonlari timsolida o’zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o’spirin yigitlar va qizlarda farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko’pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qaxramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko`taradilar. Ammo ayrim o`quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo’lto’sar, hiylagar quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo`ladilar.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko’rsatishicha, ba’zi hollarda ilk o’spirinlar o’zlarini qo’rqmas, jasur qilib ko’rsatishga, noo’rin harakatlarga moyil bo`ladilar.

Ilk o’spirinlar ma’naviy xislatlarga, axloqiy mezonlar moxiyatiga jiddiy munosabatda bo`ladilar. Masalan, burch, vijdon, gurur, qadr–qimmat, faxrlanish, ma’suliyat, or–nomus kabi tushunchalarni chuqur taxlil qila oladilar. Lekin hammalari emas. Axloqiy ma’naviy qarashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar sog’lom muhit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta o’ylab tashkil qilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish – turishlarga, illatlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi. O’spirinlarda balogatga etish tuygusi takomillashib borib o`zining o’rnini belgilash va ma’naviy dunyosini ifodalash tuygusiga aylanadi. Bu hol uning o`zini alohida shaxs ekanligi, o`ziga xos xislatini tan olinishini itsashida aks etadi.

Bu yoshda shaxs sifatlari shakllanishida maktab muhiti, ayniqsa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar kuchli ta’sir etadi. Maktab va sinf jamoalari ta’sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiklik, laganbardorlik, dangasalik, g’ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O’spirin har bir ishda etakchi, birinchi bo’lish itsagi bilan yashaydi. Lekin har doim ham uddasidan chiqa olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun o’spirin quyidagi xislatlarga ega bo’lishi kerak.

a) axloqiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, qat’iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o’z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O’spirinlarda mavjud bo`lgan yana bir muhimxislat ularda yuksak darajadagi do’tslik, o’rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta’sir o’tkazish mezoni hisoblanadi.

O’spirin o`quvchilarda tabiat, san’at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go’zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta’sirlanish, ma’naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo`ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni tulkinlantiradigan musiqa, nozik his–tuygu, ezgulik hislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, etsetik hislar ularning ma’naviyatidagi qo’pol, noxush, xunuk va yoqimsiz qiliqlarning yo’qolishiga yordam beradi. Shunga qaramayo’spirin yigit va qizlar orasida etsetik tuygusi to`la shakllanmagan, noto`g`ri tasavvurga ega bo`lgan shaxslar ham uchraydi.

O’spirin o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan harqaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o’zlashtirish imkoniyatiga va uni o’qitish metodikasiga bog’liq bo`ladi.

O’spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo’l va vositalari ta’lim jarayonida etakchi rol o’ynay boshlaydi. O’spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma’nosi hamda moxiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar.

O’spirin barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf qilishda dars jarayoni katta imkoniyatlarga ega. Darsda o’quv

materialini bayon qilishda mazmuni ixcham, mantiqiy bog'langan bo'lishini ta'minlash, o`quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab olingan qoidalardan iborat bo`lib qolmay, uning «o'z so`zi bilan» izoxlanishini talab qilinishi kerak. Tinglangan yoki o'qilgan materialda mustaqil xulosa chiqarishni talab qiladigan holatlar bo'lishiga alohida e'tibor berilishi kerak.

Ilk o'spirinlik yoshidagi o`quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'garak va fakultativ mashgulotlar muhim ahamiyatga ega. O'spirin o`quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun o'qituvchilar, sinf raxbarlarining siymolari muhim rol o'ynaydi. Buning uchun birinchidan, o'qituvchilar o'spirinlarda o'rganilayotgan narsa va xodisalarning ob'ektivligi, haqqoniyligi, to`g`riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o'rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o'qituvchilari ularni narsa xodisalar to`g`risida original fikr yuritishga yo'llashlari kerak. Uchinchidan, o`quvchilarning mashgulotlarda qo`llanaverib ma'naviy eskirgan bir qolipdagi so`zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. Turtinchidan, fan o'qituvchilari o'spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan yana biri – ko'rsatmali vositalar, ya'ni fototsendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika tugaragi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashkari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqaliham ayrim kasblarga qiziqish uygotish mumkin.

Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yunaltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o'qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofdagi ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo`llab o`quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishni; mehnatga ishtiyoq uygotishni; darslarda kasblar xaqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan o`quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

Qishloq maktablarida kasb tanlash buyicha imkoniyatlar ham mavjud. Chunonchi yozda yuqori sinf o`quvchilarini ishlab chiqarishga bemalol jalb etish mumkin. Bunda jismoniy mehnatga o'spirinlarni qiziqtirish, mehnat natijasidan bahramand etish, ularda mamnuniyat hissini tarkib toptirish, ularda rejali mehnat qilish ko'nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va ma'suliyat hissini tarkib toptirish lozim.

Kasb tanlashda o'spirin yigit qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad – bosh maqsad deb ataladi va umumhalq mehnatiga o'z ulushimni qo'shaolamanmi?, qanday inson bo`lib etishaman? Hayot va faoliyat ideallari nimalar bo'lishi lozim? degan fikrlardan iborat bo`ladi. Bundan tashqari yaqin va yaqqol maqsadlar ham mavjud.

Ilk o'spirinlik yoshida inson uchun eng muhimhissiyot – sevgi vujudga keladi. U o'rtoqlik, do'stlik tuygulari zamirida paydo bo`ladi.

O'spirinlik davrida vujudga keladigan his – tuygularni to`g`ri idora etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini bo'lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to`g`ri anglatish yaxshi natija beradi.

O'qituvchilar va ota – onalar o'spirin yigit va qizlarga sevgining ikki turi – shaxvoniy tuygu zamirida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do'stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo`ladigan haqiqiy sevgi borligini tushuntirishlari lozim.

O'spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda maktab bilan oilaning hamkorligi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. O'spirinlarga oila qurishhaqida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadoqat bo'lishi kerakligini uqtirish bilan birga ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bo`lgan qiyinchiliklardan ham ogohlantirish kerak

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar; maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob yo'llaydilar. Ularning

diqqatini ko’proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o’quvchilar uchun axloqiy masalalarni echish manbai - bu ular uchun o’qituvchilar bo’lsa, o’smirlar bu savollarga javobni ko’proq tengdoshlari davrasida qidiradilar o’spirin yoshdagilar esa savollarga to’g`ri javobni topishda ko’proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko’pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommaviy, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san’at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo’lib hisoblanadi. Bugungi o’spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos.Ular haqqoniy bo’lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar Masalan: o’tgan yillardek “haqqoniylik bu hammaga bir xil emas, har kimning imkoniyatiga qarab va hammaning ishiga yoki manfaatlariga qo’shgan hissasiga qarab belgilanadi”, deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib, juda ko’p o’smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma’lum axloq normalari qat’iylashgan xususiyatlariga ega bo’ladilar.

O’spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar buyicha ma’lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko’p yillardan beri o’spirinlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o’spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bo’lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko’proq erkin va mustaqil bo’lishga intiluvchi yoshlardir.

O’spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o’z harakatlarini yo’lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o’spirinning o’zini anglashining o’sishida namoyon bo’ladi. o’zini anglash murakkab psixologik struktura bo’lib, quyidagilarni o’z ichiga oladi.

- birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet ta’siridan paydo bo’lgan sezgilari o’z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;
- ikkinchidan, o’zining shaxsiy "Men” ligini aktiv faoliyati asosida anglashi;
- uchinchidan, o’zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi;
- to’rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o’z-o’ziga baho berishning ma’lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funktsional va genetik bog`langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma’lumki, bir vaqtning o’zida shakllanmaydi. Bolaning “men”ligini anglashi taxmini 3 yoshda paydo bo’ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va hokazo, o’zining psixik sifatlarini anglash va o’z-o’ziga berish o’spirinlik yoshida, borgan sari ko’proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O’spirinlar har joyda o’zini ko’rsatish xususiyatiga ega bo’lgan o’smirlik vaqtidayoq, o’zlarining shaxsiy xususiyatlarini ko’zata boshlaydilar. Ya’ni o’zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo’yining pastligi yoki aksinchasi, semizlik, yuzidagi husunbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech etiladigan o’g`il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o’z obrazi - bu o’spirinlikning o’zini anglashi ancha muhim komponent bo’lib hisoblanadi.

O’spirin o’quvchining o’smirlik davridagi boladan o’zgacharoq yana bir xususiyati - bu, murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o’z qadr-qimmatani e’zozlashi, sezish va fahmlashga ko’proq moyilligidir. O’spirin o’quvchida o’zini anglashi negizida o’zini tarbiyalash istagi tug`iladi. Natijada unda o’z-o’zidi tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko’rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o’z-o’zini tarbiyalash jarayoni o’spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga etgan kishilarga xos ko’pqirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo’naltirilgan bo’ladi. O’quvchilar o’zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o’quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning yana bir fazilatlari va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o’z-o’zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma’naviy-ruhiy qiyofalash shakllantirishga intiladilar. O’spirin o’quvchilarning o’z-o’zini tarbiyalash jarayoni. O’quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining ta’siri doirasida bulmog`i shart. Toki o’z-o’zini tarbiyalashning, takomillashtirishi jamoada munosib o’rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O’z-o’zini tarbiyalash to’g`ri, izga solib yuborish uchun uyg`un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta’sir jamoa majburiyati, o’zaro yordam va nazorat qilish, o’zaro va

tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy, turmushda uchraydigan ba'zi bir yaramas yurish-turish ko'rishmlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta'siri yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi ko'rash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O'spirinlarda balog`atga etganlik tuyg`usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg`usi bosib o'tadi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, tasviriy sanoatga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga, maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar, o'quv va mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqayddik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqoqlik, g`ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlik, mas'uliyatlik, o'z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etish orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do`st va dushmanlarining kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki, o'spirinlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Ba'zan o'spirinlar o'zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga haddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan. Lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'spirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa o'spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan ibdrat, Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o'z-o'zini, hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofasini shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va na'munaning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

25.2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlari mulohaza yurgizib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivasiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqotsingari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi ko'zatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish hamo'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quvrejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga

munosabati ham o’zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo’la boshlaydilar. O’spirin o’quvchilarning o’quv fanlariga munosabatlari quyidagi holatlarga bog’liqdir:

1. Fanning dunyoqarashdagi roliga.
2. Fanning bilishdagi ahamiyatiga.
3. Fanning ijtimoiy ahamiyatiga.
4. Fanning amaliy ahamiyatiga.
5. Fanning o’zlashtirish darajasiga.
6. Fanning o’zlashtirish uslubiyotiga.

O’spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko’lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. O’spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiyxotirasi, esda olib qolishining oqilona yo’li sifatida ta'lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o’spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o’quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O’spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o’qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o’rganib boradi. O’spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o’spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik to’g’risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Tafakkurning chuqurligi deganda esa, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning o’zaro bog’lanish va munosabatlari o’spirinning fikrlash faoliyatida to’liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o’zining mazmundorligi va chuqurligi sifatlari bilan bog’liq bo’ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o’spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o’z oldiga yangi vazifalar qo’ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqilhal qilish xususiyatini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo’yilgan savolga to’liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi.

Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo’lib, o’quvmateriallarini o’zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun o’qish faoliyatlarida faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o’stirib borish kerak.

Ta'limda onglilik o’quvchining yuqori darajasidagi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko’rsatib o’zlashtirganda, o’quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo’llashga hamo’rganadilar. O’quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy taqlil qilishva ularga baho berish usullarini maxsus o’rgatish muqim va zarurdir. Bu o’rinda o’quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, to’g’ri rahbarlik qilgan holda rivojlantirish lozim. O’spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir.

O’spirin adabiy asarlarni o’qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga kirishishga o’rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o’zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlari uning fikrlashi, mustaqil o’ylashi, to’g’ri ?ukm va xulosalar chiqarishi, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir.

O’spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammo yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o’zginasidir. Turmushda uchraydigan noo’rin tanqidiylik esa o’spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O’qituvchining asosiy vazifasi o’quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko’tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtai-nazardan qarashni o’rgatishdan iborat. O’spirinlarda moddiy dunyo to’g’risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o’quvmateriallarini puxta o’zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko’nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to’g’risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O’spirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. qobiliyatning o’sishi bilimlar, ko’nikmalar, malakalarning sifatiga bog’liq bo’lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo’shilib ketadi. Demak, maktabda o’tiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg’ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o’spirinlar o’zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Bularning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini o’sishiga, aqliy imkoniyatlarining vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashiga muhim shart-sharoit yaratadi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, o’smirlik yoshida o’quvchilar aqliy faoliyatining omillari va usullari bilan qurollangan bo’ladilar.

Shunga ko’ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo’shgan bo’ladi. O’spirinlar u yoki bu kasbni o’z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat'iylik, o’zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy xislatlarga ega bo’lishlari kerak. Mehnatqilishda mu?addas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunaro’rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko’rsatadi.

O’spirinlar aqliy rivojlanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to’g’ri rejalashtirish mumkin emas. O’spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo’lsagina, u o’z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko’ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi.

Hozirgi yigit va qizlarni 30-40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiy saviyalari naqadar o’sganligini ko’rish mumkin.

O’spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng va ko’pqirralidir. O’spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o’zi tanlagan kasb va yo’nalish shuningdek, hayotiyrejalariga asoslangandir. O’spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog’onaga ko’tarila boshlaydi. Bu esa o’spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo’lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

O’spirinlarning dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir.

Ma'lum bir kasbda faoliyat ko’rsatishni boshlayotgan o’spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamdaaxloqiy jihatdan tayyor bo’lishi kerak.

O’smirlik davrining oxirlari va o’spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko’nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko’nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to’g’ridan-to’g’ribog’liq.

Har qanday kasbiy ko’nikma va malakalarning o’sishi, avvalo, o’spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog’liq. Shuning uchun hambu davrdagi o’spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalarga uchun muloqatga kirishish ehtiyojining mavjudligi hamjuda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo’nalishlari bo’yicha mashg’ul bo’lmagan o’spirinlargina ko’proq tengdoshlari bilan muloqatda bo’lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug’ullana oladilar. Ilk o’spirinlik davrini kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O’zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto’g’rihaletilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizhayoti uchun ham, jamiyat uchun hamkatta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o’spirinlar o’z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emosional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Tafakkur rivojlanishi bilan birga o`quvchining nutq faoliyati ham o’sadi. Bu esa o`quvchida o’z fikrini to`g`ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi. Nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lugat boyligini yanada oshiradi.

O’spirin adabiy asarlarni o’qish va tushunish orqalimustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o’rganib boradi.

Katta maktab yoshidagi o`quvchi aqlining tanqidiyligida og'machilikka moyillik kuchli bo`ladi. Ogmachilikning eng asosiy sabablaridan biri–voqelikning moxiyatini ilmiy jihatdan to`g`ri tushunolmaslikdir. Aqlning va tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o`quvchining o`ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, muloxaza doirasining kengligiga, nutqqobiliyatiga, shaxsiy nuktai-nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyati va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bo'lishiga, mavjud o'qishko'nikmasi va malaqlariga alohida e'tibor berishi lozim.

Aqltanqidiyligining rivojlanishi yuqori sinf o`quvchilari moddiy dunyoni, atrof–muhitni o'rganishga, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollik da'vat etadi.

Ilk o'spirinlik tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak atrofdagi voqelik buyicha muloxazalar, muxokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari o`zaro boglanishi va munosabatlari o'spirinning fikrlashida to'liq aks ettirish tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o`zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo`ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, o'spirin tashabbuskorlik bilan o'z oldiga vazifalar qo'ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda o'spirining o'z oldiga yangi goya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni topishga intilishni anglaymiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo`llay olishda eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo`ladi. Agar o`quvchi muayyan vaqt ichida ma'lum soxa uchun qimmatli, yangi fikrlarni aytgan bulsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. O'spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchida, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mutsaxkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishiga, muvaqqat boglanishning tezligiga, turli his-tuygularning mavjudligiga, o`quvchining diqqati va qiziqishiga; ikkinchidan, o'spirinning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalariga bog'lidir. O'spirinqobiliyati,layokati va itse'dodi ta'lim jarayonida va mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik itse'dodli ekanligini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashning tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Qobiliyatning o`sishi, bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo`lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qushilib ketadi.

O'spirinlar biror xodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan qaray boshlaydilar. Darsliklardan o'qigan va o'qituvchidan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarga ishonish va ulardan qanoathosil qilish uchun faol harakat qiladilar. Tafakkurni oqilonayo'llar bilan o'stirish uchun favqo`lodda holatlarda o`quvchining mazkur xususiyatini yomonlamay, balki uni ragbatlantirish to`g`riroq bo`ladi.

Shunday qilib ta'lim jarayonida turli fanlarni o'qitishtufayli keng qo`lamli bilimlar tizimi o'zlashtirilishi orqali yuqori sinf o`quvchilarida tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mazmundorligi, maxsuldorligi ortadi.

Endigina o`sib kelayotgan o'spirin o`quvchilar kasbga qanday yondoshadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi o'gil-qizlar hayotda mustaqilqadam tashlash to`g`risida aniq asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to`g`ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavak-kaliga ish ko`radilar. Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, jiddiy –ijtimoiy sutslik holatlari vujudga keladi.

O`quvchilar maktabda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, harqaysio'spirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Biroq ularning hammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni hohlayvermaydi. Maktabda yer kurrasini o'rganiladi, biroq barcha o`quvchilar sayyohbo'lishni itsamaydi.

Katta yoshdagi maktab o`quvchilaridan biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularga har – xil kasblarga qiziqish vujudga keladi.

Yuqori sinf o`quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, itse'dodlari asosida tanlagan kasblariga to`g`ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining o'tsalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak.

O'rta maktabni bitirgunicha hamma o`quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb – hunarga har-xil munosbatlar hosilbo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash buyicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi:

a) biror o'quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish itsagi (o`ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda); v) shaxsiy qobiliyatini rukach qilish; g)oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; yo) moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani; j) o'quv yurti kurinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Shuningdek boshqa turdagi motivlar masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to`g`risidagi ma'lumoti, o`zining sixat salomatligi, asab tizimining va temperamentining xususiyati va xokazolar hambo'lishi mumkin.

O'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bulmasligi sababli ular ko`proq xatoga yo'lqo'yadilar. O'zqobiliyatlarini oqilonabaholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat kila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroqhozir mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik–psixologik omillarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofikdir:

Kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lunda qilib ifodalash.

O'qituvchining kasblar buyicha tashviqot ishlarini olib borishi.

O'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish.

Mehnat ta'limi darslarida yuqori sinf o`quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uygotish.

Psixodiagnotsik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

Joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish.

Kasb tanlash targ'iboti yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik tayyorlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yunaltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yunaltirish uchun kasb turlarini «inson-tabiat», «inson-texnika», «inson-inson», «inson-badiiy obraz» singari komplekslarni tavsiya qiladi.

25.3. Ilk o'spirinlik davri yoshlarining shaxs xususiyatlari

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxs xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaqlariga munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib hamkasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar jo'da ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai - o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasidan qidiradilar. O'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy, publisistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga hamreal tarzda yondoshadilar. Lisey va kollejni tugallash vaqtiga kelib, juda ko'p o'smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qatiylashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri

o’spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o’spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlar bo’lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko’proq erkin va mustaqil bo’lishga intiluvchi yoshlardir.

O’spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o’z hatti-harakatlarini yo’lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o’spirin o’zini anglashining o’sishida namoyon bo’ladi. O’zini anglash murakkab psixologik struktura bo’lib, quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- birinchidan, bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydobo’lgan sezgilari o’z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;
- ikkinchidan, o’zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyatiasosida anglashi;
- uchinchidan, o’zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi;
- to’rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o’z-o’ziga bahoberishningma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog’langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o’zida shakllanmaydi.

Bolaning "men"ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo’ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, menga, menda va hokazo.

O’spirinlar har joyda o’zini ko’rsatish xususiyatiga ega bo’lgan o’smirlik vaqtidayoq, o’zlarining shaxsiy xususiyatlarini ko’zata boshlaydilar. Ya'ni o’zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo’yining pastligi yoki aksinchasi, semizlik, yuzidagi husnbo’zarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o’g’il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o’z obrazi - bu o’spirinlikning o’zini anglashi ancha muhimkomponent bo’lib hisoblanadi. O’zining psixik sifatlarini anglash va o’z-o’ziga baho berish o’spirinlik yoshida, borgan sari ko’proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O’spirinlikda o’z shaxsiy xislatlariga bahoberish kuchayadi, o’spirin hamo’smir singari o’z qadr-qimmatini, uning nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini bilgisi keladi. O’ziga baho berish ikkita usulda bo’ladi.

1. Kishi o’zi qo’lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o’zini yo’qotmadi yoki yosh bolani yong’indan qutqazdi - "Men qo’rqoq emasman". Ma'lum qiyintopshiriqni bajardi. "Men qobiliyatliman" - deydi. Axloqqa oid bunday hatti-harakatlar, o’spirinning o’z qat'iyligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, ya'ni o’zi va xatti harakatlarini boshqalarning ishlari, fikrlai bilan solishtirishdan iboratdir. Masalan: o’quvchilar tomonidan "mardlik" deb ma'qullangan xatti-harakatni o’qituvchi"qalbaki o’rtoqlik" deb aytdi. Bunda bolalar o’z xatti-harakatlari to’g’risida o’ylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Hatto kattalarning o’zini anglashi ham qarama-qarshiliklardan xoli emas. Bu holat ayniqsa o’spirinlarda yanada kuchliroq bo’ladi. Ba'zi o’spirinlar o’zini ko’rsatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko’proq uchraydi. Bu holat shaxsda mohiyat jihatidan tubdan o’zgargan tarzda o’z shaxsining ma'naviy-ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi, maqsad va vazifalarini anglashi, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi.

Undagi o’z-o’zini anglash, turmush, yashash, o’qish, mehnat va sport faoliyatlari tarzida namoyon bo’ladi. O’quv muassasa, mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muomala ko’lamining kengayishi o’spirinning o’ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xususiyatlarini oqilona baholashi, qo’yilayotgan talablarga javob berish,uning o’z-o’zini anglashini jadallashtiradi. O’spirin o’quvchilarining o’z-o’zini anglashga aloqador o’ziga xos xususiyatlari mavjud, ular dastavval o’zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo’ladilar.

O’spirin o’quvchining o’smirlik davridagi boladan farqli yana bir xususiyati - bu, murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o’z qadr-qimmatini e'zozlashiga ko’proq moyilligidir.O’spirin o’quvchida o’zini anglashi negizida o’zini tarbiyalash istagi tug’iladi.

Natijada unda o’z-o’zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko’rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o’z-o’zini tarbiyalash jarayoni o’spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga

yetgan kishilarga xos ko’p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo’naltirilgan bo’ladi. O’quvchilar o’zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o’quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlari va xislatlarini hosil qilishga harakatqiladilar; o’z-o’zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O’spirin o’quvchilarning o’z-o’zini tarbiyalash jarayoni o’quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida bo’lmog’i shart. Toki o’z-o’zini tarbiyalashning takomillashtirishi jamoada munosib o’rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O’z-o’zini tarbiyalashni to’g’ri izga solib yuborish uchun uyg’un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta'sir o’tkazish jamoa majburiyati, o’zaro yordam va nazorat qilish, o’zaro baholash va tanqid qilishkabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba'zi bir salbiy yurish-turish ko’rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O’spirinlarda balog’atga yetganlik tuyg’usi takomillashib borib, o’z-o’zini qaror toptirish, o’z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg’usi o’sib boradi. Bu narsa ularning alohidashaxs ekanligini tan olishga intilishida o’z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo’yish, tasviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakatqiladilar. O’quvva mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo’rqoqlik, g’ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O’spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, o’z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi.

O’spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo’ladi. O’zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o’zini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladilar. Do’st va dushmanlarining kimligi, o’z istaklari, o’zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki, o’spirinlarning hamma savollari anglangan bo’lmaydi. Ba'zan o’spirinlar o’zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o’z oldilariga haddan tashqari ko’p vazifalar qo’yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo’ladi. Mana bulardan ko’rinib turibdiki, o’spirinlar o’z-o’zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o’zida aks ettira boradilar. Bu esa o’spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

Yuqorida ko’rsatib o’tilganidek, shaxsning erta o’spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o’z-o’zini hurmatlash, o’z-o’ziga baho berish hamda o’zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O’spirinlar o’zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar.

Ularni o’z-o’zini tarbiyalash borasida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o’g’ilbolalar - qaxramonlik, yaxshi ota, tadbirkor, o’qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdagi obrazlarni o’zlariga ideal deb bilsalar,qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. O’zaro munosabat va emosional hayot o’z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o’spirinning o’zi hal qila olmaydi. Bu masalani o’spirinning ota-onasi, o’z tengqurlari, o’qituvchilar ishtirokida ularning qo’llab-quvvatlashida hal qilishi mumkin .

Demak ilk o’spirinlik davri katta mustaqilhayotga qadam qo’yish bo’sag’asidir.

Tayanch iboralar.

Kinestetik sezgilar(grekcha - harakat, sezgi) – gavdaning fazodagi holatini, ayrim organlarning harakatlarini aks ettiruvchi sezgi turlari.

Kognisiya – tashki muhit, o’zi va o’zining xulq-atvoriga taalluqli fikr, turli bilimlar.

Kolliziya (lot. tuknashuv) - qarama-qarshi qiziqish, intilish, fikrlar to’qnashuvi.

Kommunikasiya (lot. axborot) - muloqat, axborot berish, aloqa qilish.

Konfabulyasiya (lot. vaysayman) - yorqin obrazli xarakterga ega bo’lgan yolg’on fantastik fikrni bildirish.

Konformlik (lot. moye keluvchi) - psixologiya va sosiologiyada ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, shaxsni guruh bilan ham ichki ham tashqi tomondan rozi bo'lishi. Ikkinchidan, tashqi tarafdan to'la rozilik bo'lsa ham, ichki tomondagi qarashlar qarama-qarshiligi.

Konsepsiya (lot. idrok etmoq) - qarashlar sistemasi, farazlar yig'indisi.

Konflikt(lot. to'knashuv) - qarama-qarshiyo'nalishdagifikrlar, kishilarvaguruhlarorasidagikuchlisalbiyhissiykechinmalarnikeltiribchikaruvchito'knashuv

Motiv (lot. harakatlantiraman) — odamning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan, uni muayyan xatti-harakatga undaydigan bosh sabab.

Muammoli vaziyat- kishining ma'lum psixologik holatini xarakterlaydi, kishining oldida yangi faoliyat maqsadlari paydo bo'lganda, uni tafakkurni ishga solishga, chora-tadbirlarni topishga undaydi.

Malaka — ongli faoliyatning ko'p takrorlanish yoki ko'p mashq qilish natijasida avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi, tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajariladigan harakat.

Negativizm (bolalar psixologiyasida lot. Inkor qilaman) — atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qarshilik ko'rsatishi: ikki xil negativizm mavjud: passiv (qaysarlik) — taklif etilayotgan faoliyat bola tomonidan bajarilmasligi, aktiv shaxsiy negativizm bolaning qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan faoliyatni bajarishi.

Nazorat uchun savollar.

1. Ilk o'spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyatlari.
2. O'spirinlikdagi aqliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlaro'rtasidagi bog'liqlik.
3. Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.
4. O'spirinlik davrida kasb tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Test topshiriqlari:

1. Ilk o'spirinlik davri qanday ta'riflanadi.

A) Yetuklik davri;

B) "Kamolot bo'sag'asi" ;

V) Ilk balog'at davri.

2. Ijtimoiy psixologik holatbo'lgan o'spirinlik qanday ifodalanadi.

A) O'spirin o'z xulk - atvorida amal qiladigan axloqiy prinsiplar, e'tikod, tushunchalar tez sur'atlar bilan shakllanish davri;

B) Bu o'spirinning kattalar jamoasining to'lik a'zosi bo'lishga tayyorgarligini sub'ektiv boshdan kechirishi sifatida kattalik hissining yuzaga kelishi davri;

V) Bu o'spirinning fuqaro sifatida tarkib topishi, uning ijtimoiy hayotga faol ko'shilishi davri.

3. O'spirinlik davrida yuzaga keladigan yangi xususiyatlar nimalardan iborat.

A) E'tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda, axloqiy ideallar hampaydo bo'ladi;

B) O'qishga ongli munosabati o'sadi va his-tuyg'usilarning boyligi, turli-tumanligi bilan farqqiladi;

V) Mustaqillikka intilish hamda o'zining katta bo'lib qolganligini ko'rsatish istagida namoyon bo'luvchi, o'ziga xos kattalik hissining vujudga kelishidir.

4."Akselerasiya" terminining ma'nosi nima.

A) Tiklash;

B) Tezlatish;

V) Umumlashtirish.

5. O'spirinlik davrida qobiliyatning qanday turlari rivojlanadi.

A) Tabiiy qobiliyatlar;

B) Umumiy va maxsus layokatlar;

V) Nazariy va amaliy qobiliyatlar.

6. O'spirinlik davri qandaypsixologik xususiyatlari bilan boshqa davrlardan farqqiladi.

A) Mustaqillikka bo'lgan ehtiyoji ortadi;

B) Tafakkuri, idroki, qiziqishlari, qobiliyati yanada rivojlanadi;

V) Jismoniy hamdaaqliyjihatdan voyaga yetadi, kamolotga erishadi, dunyoqarashi, o’z-o’zini boshqarish kabi yetuk xususiyatlari tarkib topgan bo’ladi.

7. ..... yoshdagibolaidrokningo’tkirligi, ishonuvchanligi, xotiraningkuchliligi, tafakkurningyaqqolligibilanboshqayoshdagibolalardanajralibturadi.

A) kichik maktab yoshi

B) o’spirinlik

V) o’smirlik

G) chaqaloqlik

D) go’daklik

8.O’spirinlardagio’zinianglashturmushqaysifaoliyattaqazosibilannamoyonbo’ladi?

A) turmush, o’qish, mehnat, sport.

B) turmush, o’yin, mehnat, muloqot.

V) aytishuv, o’qish, sport, mehnat.

G) kasb egallash, ta’lim, mehnat.

D) barcha javoblar to’g’ri.

9. O’spirin psixikasidagi jiddiy kamchiliklar nimalardan iborat?

A) adabiy qahramon qiyofasini ifodalay olmasligi.

B) barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi.

V) nazariy tafakkurni shakllanmaganligi.

G) o’qituvchi o’quvchida mustaqil fikrlashini rivojlantirmaganligi.

D) tanqidga duch kelishi.

10. Tarbiya tizimida va ishlab chiqarishda psixologiya bo’yicha bilimsizlik va chala savodlilikni yo’qotishda hozirgi davrimizning muhim talabi nima?

A) bolalar ruhiyatidan hariyalar ma’naviyatigacha nazariy va amaliy bilimlarni egallash.

B) bolalar ruhiyatining amaliy bilimlarini egallash.

V) hariyalar ma’naviyati nazariy bilimlarin egallash.

G) bolalar ruhiyatini nazariy bilimlarini egallash.

D) to’g’ri javob yo’q.

26- MAVZU: TA’LIM PSIXOLOGIYASI

Reja:

26.1. O’quv faoliyatining psixologik mohiyati.

26.2. O’qish motivlari.

26.3. Bilimlarni o’zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari.

26.4. Ta'limning noan'anaviy usullari. Mustaqil tafakkurni rivojlantirish.

26.5. Ko’nikma va malakalarni shakllantirish.

26.6. O’quv faoliyatini boshqarish.

26.1. O’quv faoliyatining psixologik mohiyati

Ta’lim psixologiyasi shaxsning bilimlarni egallash, mustahkamlash uslublaridan iborat faoliyat jarayonini qamrab oluvchi qator savollarning tuzilishini o’rganadi, shuningdek, ularning natijasida odamning individual tajriba, bilim, malaka va ko’nikmalari shakllanadi. Inson dunyo bilan hamkorlikdan nimadir yangi narsa o’rganish va o’z ehtiyojlarini qondirish uslublarini takomillashtirib borganligi sababli ham bilim olishga bo’lgan intilish insonning butun umri davomida ta’qib etib boradi, chunki odam har bir amaliyot bilimini hayotdan o’rganadi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim olish har bir faoliyatda mavjud bo’lib, u subyektning shakllanish jarayonini o’z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, ta’lim olish yetarli darajada keng tushunchadir, u o’z ichiga nafaqat ta’lim olishning uyushtirilgan shakllarini, (maktab, kurslar, oliygoh), balki inson tomonidan kundalik hayotda egallayotgan bilim va malakalarni ham o’z ichiga oladi.

Boshqa faoliyat turlari bo’lmish o’yin va mehnatdan o’zining maxsusligi mohiyati bilan ajralib turuvchi bu faoliyatni psixologik faoliyati sifatida yondoshilganda, o’qish faoliyatining uyushgan

shakllarini ko'riladi. Uning eng muhim jihati shuki, u istalgan boshqa bir faoliyatga insonni tayyorlaydi va uning asosi bo'lib hisoblanadi.

Psixologlarning bu boradagi izlanishlariga ko'p bo'lgani yo'q (taxminan 50 yillardan boshlangan) va bu sohada hali u darajada sezilarli ishlar qilingan emas. Ammo o'qish faoliyatini tashkil qilish uchun asos yetarli darajada shakllangan, va ular o'qitish nazariyasining aniq savol-muammolariga psixologiyaning bir yoqlama yondoshishiga yo'l qo'yadi.

O'qish faoliyatining nazariyasining asosini va psixologiya o'qitish metodikalarini ishlab chiqishda qanday ahamiyatga ega?

Avvalombor psixologiyaning qaysi sohasida ishlashdan qat'iy nazar, o'qituvchi o'qish faoliyati nazariyalarining asosiy qonun qoidalarini bilish zarur. Bu bilim egallab olish qoidalari va o'qitish metodikalarini to'g'ri tuzish uchun juda muhim. O'qish faoliyati psixologiyada ilmiy tushuncha sifatida bir yaqqol ifodaga ega emas. Sovet pedagogikasi va psixologiyasining «klassik» nazariyalarida- bu «kichik maktab yoshdagi yetakchi faoliyat», «ijtimoiy faollikning asosiy shakli» sifatida e'tirof etiladi

Ijobiy psixologiyaning amaliyotdagi asoslari

Stefan Jozef

Bu bo'limning maqsadi, ijobiy psixologiyani, ta'lim psixologiyasidagi o'rnini o'rganish hamda uni to'liqligcha o'z o'rnida tushuntirishda psixologiya nechog'li amaliyotdagi boshlang'ich poydevor tushunchalarini anglashga yo'naltiriladi. Shunga qaramay doimo optimal faoliyat ko'rsatishga qiziquvchi psixologlar bo'lgan. Buning oqibatida yaqin kunlardan boshlab "Ijobiy psixologiya" chuqur o'rganila boshladi. Ijobiy psixologiya tushunchasi Martin E.P. Selegman tomonidan o'zining yetakchiligida Amerika psixologik asatsatsiyasida kelajakdagi psixologik tadqiqotlar haqidagi tushunchasini (tasavvurlarini) izohlash uchun qo'llagan. (Selegman E 1999). Selegmanning aniqlashicha psixologiya 2-jahon urushi oqibatida e'tiborsiz qolgan. Aqliy kasalliklarni davolash davolashga ko'proq unumli va mahsuldor hayot kechirishga undash, qobiliyatli insonlarni aniqlash va ularni tarbiyalash kabi muhim bo'limlari nazardan chetda qolgan va oqibatda unutilgan.

Bu bo'limda ijtimoiy psixologiyaning psixologik ta'limdan nimadan boshlanishi va qanday qilib har bir narsaning tomonlarining qabul qilish tushuniladi.Stefen Jozef "Meni tushunhimcha nazariy ijtimoiy psixologiya qaytadan o'rganib, tahlil qilganimizda unga bo'lgan tasavvurlarimiz qanchalik kelajagi bor ekanini bilishimiz mumkin. "

Ta'lim psixologiyasi va ijobiy psixologiyaning interfeysi.

Ta'lim psixologiyasi uchun ijobiy psixologiyani ta'sirini o'rganishdan oldin, ikkinchi bir ta'rif haqida qisqacha aks ettirish foydalidir. Ta'lim psixologiyasining vazifasi ta'lim sohasida tajribali, yosh insonlar turli muammolarni hal qilishdan iborat. Ta'lim psixologiyasining maqsadi yoshlarning bilim olishini, muvaffaqiyatga va tinchlikka ularning kengroq psixologik va zamonaviy adabiyotlardan olgan bilimlarini tasvirlash orqali, ularning maxsus tadqiqotlarini yoshlarga, o'rganish jarayonida va ijtimoiy va bilishga oid jarayonlarda yaxshilashdir.

Ta'lim psixologiyasining roli muammolarni hal qilishga qaramasdan, ijobiy psixologiya nafaqat yomon (holat) hulqni tuzatish emas, balki ijobiy sifatlarni paydo qilishdan iborat. "Ijobiy " ta'lim psixologiyasining predmeti optimal vazifalarga erishish tomon intilishi belgilangan bo'ladi. Ko'plab psixologlar o'zlarining nima qilishlarini belgilaydilar, biroq boshqalar uchun bu o'zlarining o'rni haqida o'ylashining yangi yo'lidir. Ushbu yangi yondashuv ta'lim psixologiyasinin yuqoridagi ta'rifi bilan tinchlik terminining ishlatilishi ko'rsatilgan. Shunday ekan, tinchlik nima? An'analarga ko'ra, ko'plab psixologlar bu atamani falokatni, kasalliklarni va hokazolarga qaraganda baxtiyorlik, mamnuniyat va boshqa ijobiy holatlarda ishlatadilar. Shunday qilib ijobiy psixologiya istiqbolida ta'lim psixologiyasining o'rni nafaqat qanday qilib xalokatlarni oldini olish, kasallikni davolash va kuchsizlikni tuzatish va boshqalar emas, yaxshi bo'lishga ko'maklashish, sog'liqni saqlash va quvvatni paydo qilishdir.

Ijobiy psixologiya kelajagini o'zlashtirish.

Muhokamani davom etirsam, ijobiy psixologiya faoliyati bilan ta'lim psixologiyasining bog'liqligi shundaki amaliyotdagi g'oyalarini qayta sinab ko'rishga undaydi. Biroq men muhokamani davom etirishdan oldin ijobiy psixologiyani o'zlashtirishda amaliyot qanday qilib bizni o'zgartirishni boshlaydigan bir qancha aniq misollar ko'rsatmoqchiman.

Ta'lim psixologiyasining vazifasi ham to'g'ridan-to'g'ri bola bilan (masalan baholash va maslahat berish va boshqa ishtiroklar) yoki bilvosita ota-onalar bilan, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari bilan ishlashdir.

Boholash va ishtirok etish.

Bevosita ishlar baholashning bir qancha shakllarini, muammolarni yechish orqali mahoratli kasbdoshlar bilan o'rganishni, nazorat qilish, suhbat yoki test mashg'ulotlarini qamrab oladi. Ijobiy psixologiya istiqboli baholashning yangi yo'lini o'ylashni tashkil etadi. Masalan, men yuqorida muxokama qilib o'tgan "tinchlik" tushunchasi milliy jihatdan ta'lim psixologiyasida psixopatologiyaning ishtirok etmasligiga aloqador, lekin ijobiy psixologiya istiqbolida u ijobiy subyektiv va psixologik holatlarning ishtirok etishiga bog'liq.

Ijobiy psixologiya an'analariga turli xil o'lchovlar kiradi. Qaysiki tajribali psixolog tezda, foydali yo'lini topa oladigan bu yerda ("Lopez va Snyderzoozni ko'ring "). Bu mavzu chegarasida, maxsus o'lchovlar tizimida, qismni ma'nosini olib ochib beradi, lekin biz nima bo'lishini bilish uchun shunday o'lchov birligidan qisqa misol ko'ramiz. Bolalarning orzusi shkalasi (BOSH) (Snyder yet al. 1997) 6 ta mavzu bo'yicha (qachonki menda muammo bo'lsa, hal qilish uchun bir nechta yo'ldan foydalanaman) 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan yosh bolalarga o'tkaziladi.

Bunga erishish qiyin, ayniqsa psixologiya haqida ham bilganlar uchun.

Ijobiy psixologiyani istiqbolli rivojlanishida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Tegishli sifatga ega emas va yana ham ehtiyot bo'lish kerak bo'ladi. Lekin bu ijobiy psixologiya istiqbolidan paydo bo'ladi. Bu kengroq auditoriya g'oyalarini rag'batlantirish ishlari haqidagi optemal vazifalar. Bunda ko'p narsalar qilish kerak va YePS mahalliy boshqaruv organlari oldida muhim rol o'ynaydi. YEPS, tashkilotlar va siyosatni rejalashtirish savollari bo'yicha, ishchilar maslahat guruhlariga qo'shilishi, maslahatlashish uchun tez-tez murojat qiladi. Shu sababli ideal holatda bo'ladi va bu ijobiy psixologiyani prinsiplarini shakllantirish, boshqalariga ham tasir ko'rsatish uchun targ'ib qilinadi.

Misol uchun: aytib o'tiladiki maktablarda hissiy razvedka dasturlarini osonlashtirish targ'ib qilish kerak bo'lgan ish hisoblanadi. Garchi, biz ehtiyot bo'lishimiz kerak. Bunday dasturlarda qatnashishimiz hissiy savodxonlikni oshirish uchun va bu bolalarning ijtimoiy, xulq-atvorini o'sishiga xalaqit bermaydi.

Biz nimani o'ylab qilishimiz, qo'shimcha qiyinchilikka ega, ijobiy psixologiyada bu chuqur masalalarni ko'taradi. Endi aynan shu bilan murojat qilaman.Oxir-oqibatda, psixologiyaning amaliyoti inson tabiyatining konkiret falsafasidir. Keyingi bo'limlarda, men an'anaviy psixologiya tibbiy model inson qarashlari haqida tasavurlarim, ijobiy psixologiyadan insonning ko'ra bilishi farqi, bunda ichki motivatsiyaning o'sishi va rivojlanishida.

Bizni ko'rinishimiz, shu haqidaki, boshqalarga qanday yordam berish, axloqiy ko'ra bilishlardan qocha bo'lmasligi va bu shubhasiz, amaliyotdagi barcha shifokor psixologlarning g'oyalarini gullaydi, boshqa odamga yordam berish uchun . YEP ning yosh inson hayotidagi kuchi, qiyin vaziyatlarda noto'g'ri baholashi. Boshqalarga yordam berganda, biz oxirgi yordam deb hisoblaymiz, idealogik nazariyadan qaraganda.

Ijobiy psixologiya istiqbolli yangi g'oyalar misolidir, va buning dalili biz turli narsalar haqida fikrlarni gapira boshlaymiz, har xil narsalar haqida hozir bilganlarimizni. Biz to'g'ri o'ylaganimizdek, bizda savollar tug'ula boshlaydi. Biz savollar beramiz, ma'lumot va biz ularga javob olamiz.

Selegman,(2002, 2003) zamonaviy psixologiyaning katta qismida Freyd nazariyalari ustunlik qiladi.

Shunga qaramay, ijobiy psixologiya falsafiy qiziqish va idealogik taxminlar,

-Birinchi holatda, insonlar Primitev institutlar orqali bashqariladi. Bu hollatda Freyd ko'rinishdagi reflekslar bo'ladi.

Jamiyatning maqsadi esa destruktiv instinktlarni o'z ichiga qamrab oladi.

-Ikkinchi holatda, ko’rinishicha insonning tabiiy va meros bo’lishi konstruktiv holatni o’z ichiga oladi.

-Uchunchi holat, bu toyifadagi odamlarda evolyutsion darajadagi konsturuktiv kuchlar mavjudki, ular insoni o’z imkoniyatlarini ayri boshlashga boshlaydi.

Bu holatdan jamiyatning maqsadi ijtimoiy, atrof-muhit hodisalarini yig’ib olishga qaratilgan bo’ladi.

D.B.ElkoninvaV.Davidovning ta’kidlashicha o’qish faoliyati – bu o’quvchining nazariy bilimlar - o’zlashtirishga qaratilgan va fikrlashning o’sishini ta’minlaydigan faoliyatlaridan biri sifatida ko’rsatiladi. O’qish faoliyati o’quvchining o’zi amalga oshirib o’zini o’zgartirish uchun maxsus tashkil qilingan faoliyat bo’lagidir. O’qish faoliyatining muhim qismi o’quv topshiriq hisoblanadi. Topshiriq yechilish jarayonida, har bir amaliy mashg’ulotdagi kabi, o’quvchi tomonidan o’rganilayotgan obyektda yoki bu haqdagi tasavvurda ma’lum bir o’zgarishlar yuzaga keladi, ammo natijada subyektning o’zi o’zgaradi. O’quv topshirig’I subyektda oldindan berilgan o’zgarish sodir bo’lgandagina yechimi topilgan deb hisoblash mumin. O’qish faoliyati jarayonida (yosh avlod) o’quvchilar kattalarning tarbiyasiga tayanadi, o’rganadi. Harbir yosh avlod dunyo haqidagi bilimlarni bevosita uni o’rab turgan borliqdan oladi, ammo yoshlar bu bilimlarni o’zi yaratmaydi, balki ularni katta avlodlardan «narsa (buyumlar), maxsus tashkilot va yangi avlodning bu narsalar bilan bog’liq faoliyati orqali» oladi.

O’quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O’quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo’luvchi uzluksiz jarayondir.

Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o’quvfaoliyatida o’sishini ta'kidlaydi.

D.B.Elkonin esa o’quvfaoliyatining xususiyatlarini ko’rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o’zini namoyon bo’lish shakliga ko’ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi.

O’quvfaoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o’quvchida o’zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo’lishi darkor. Bu motivlar bevosita o’quvchi shaxsining o’sishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo’lishi kerak. O’quvfaoliyati ta'lim, o’qish va o’rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog’liqdir. Ta'lim o’qituvchi va o’quvchi hamkorligidagi o’quvfaoliyati, o’qituvchining bilim, ko’nikma va malakalarini o’quvchilarga o’rgatish jarayonidir.

Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o’zlashtirishga qaratilgandir. O’qish va o’rgatish tushunchalari o’quvfaoliyati bilan bog’liq bo’lib, ular bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishga, o’rgatishga xizmat qiladi.

O’quv faoliyatining besh elementi mavjud:

1. O’quv motivlari.
2. O’quv topshiriqlari.
3. O’quv harakatlari.
4. O’qituvchining nazorati.
5. O’qituvchining baholashi.

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o’quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta-sekinlik bilan o’quvchining o’ziga o’qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o’tkazilishidir.

Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo’lib, u o’quvchilarning o’quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta'limning maqsadi - nima uchun o’qitish kerak?
2. Ta'limning mazmuni - nimaga o’qitish kerak?
3. Ta'limniig metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo’llari.
4. Ta'lim beruvchi.
5. O’quvchi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo’lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning

o’zlashtirilishi: faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o’zlashtirilishiga; maqsadga muvofik keladigan usullar va jarayonlarni to’g’ri tanlash va foydalanishga bog’liq.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivasiya.
2. Ma'lumot usullari.
3. Ma'lumotning tushunarliligi.
4. Xotira.
5. Ma'lumotni qo’llash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi yosh davrlari vapedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo’lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko’nikmalarni bosqichma-bosqichrivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

P.Ya.Gal'perin nazariyasi bo’yicha bilimlarni o’zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivasiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- birinchi turda - hatti-harakatlarni o’zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi,ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;
- ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to’la tushunilishi va material bilan bog’liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;
- uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o’zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni ilmiy tushunchalarni o’zlashtirilishini tashkil qiladi.

Bunda o’quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o’zlashtirilishi lozim bo’lib, bu o’z o’rnida xususiydan umumiy bilimlarga o’tilishni ta'minlaydi. Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog’liq bo’lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan lar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta'limning psixolik asoslari muammosi ko’pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog’liq bo’ladi. Avvalo o’quvchining o’qishga bo’lgan munosabatiga to’xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg’ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo’lida namoyon bo’ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o’quvchilar diqqatini yo’lga solishni talab etadi. Darslarda ko’rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o’quvchilarning darsda o’tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o’quvchilarning diqqati o’zgarib turadi. O’qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o’quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamdaularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko’p jihatdan o’qituvchitomonidan beriladigan ko’rsatmalarga ham bog’liq. O’qituvchining roli shundan iboratki, u o’quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqattushunib olish kifoya qilishini, nimani so’zma-so’z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o’z so’zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko’rsatib o’tishi lozim. Kuzatishlar ko’rsatadiki, bunday ko’rsatmalar berilmaganda, o’quvchilarda ko’pincha noto’g’ri tasavvurlar vujudga keladi.

O’qitishning emosionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emosional jarayon.

Agar o’quvchilarga berilayotgan axborot ularda hechqandayhis-tuyg’usi uyg’otmasa, uni o’quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o’quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqidahamborishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o’quvfaoliyatini juda samarali qiladi. O’quvchilar emosional ruhdagi materialni durustroq o’zlashtirib oladilar.

O’tkazilgan tajribalar o’quvchilar hechqandayhis-tuyg’usiuyg’ot maydigan materialga qaraganda, emosional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko’rsatadi. O’qituvchio’quvjarayonining emosional tomoni haqidahamg’o’rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhimahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g’oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o’zlashtirilishiga erishish uchun o’quvchilarning o’quvfaoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg’ular o’quvmehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Fafsala bilan bajarilgan beg’araz munozara paydo bo’ladi, bahslashiladi, befarqqaragan yoki undan ham salbiy munosabatda bo’lgan ishga esa, hechqanday hafsala bo’lmaydi.

Jamiyatimizdagi mehnat–haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o’quvchilarida o’quvmehnatiga ijobiy munosabat uyg’otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko’maklashish kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo’llaganlar: "Talaba -to’ldirilib turilishi kerak bo’lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo’lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o’qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o’tgan ta'lim metodlari: muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo’llanishi kerak. Ta'lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo’lgan shaxsni shakllantirish bo’lib, yuqorida aytib o’tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash'allar paydo bo’lishini ta'minlab beradi.

Ta'lim jarayonida o’quvchilarning bilishga qiziqishlari g’oyat katta rol o’ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o’quvchilarning emosional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo’nalishidir.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o’quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o’qituvchi o’z o’quvchilarida o’z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakatqiladi. Qiziqishlar orqali o’quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo’ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o’zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo’lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Qiziqishlar o’quvchilar hayotida katta rol o’ynaydi. Ular o’quvfaoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlardir. Qiziqishlar maktab o’quvchisiga fan asoslarini durustroq o’zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o’sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi.

O’qituvchilarning vazifasi o’quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o’zi bilan shug’ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug’ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir.

O’quvchilarning muayyan maqsadni ko’zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg’itadigan narsalar bilan shug’ullanishdan o’zini tiya olishida, unda o’qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo’ladigan iroda, ta'lim jarayonida alohidaahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o’z oldiga qo’ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo’lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o’z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta'lim jarayonida o’quvmaterialiga bo’lgan diqqatning barqaror bo’lishida irodaviy zo’r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o’quvchida maktab va uyda o’tkaziladigan mashg’ulotlarga tayyor turishda namoyon bo’ladi. O’quvmaterialini o’rganish, eslab qolishva o’quvchining irodaviy zo’r berishiga bog’liq. Iroda o’quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, qo’yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo’ladi. Ular o’quvchilarda ko’nikma, va malakalarni hosilqilishda hamtarkib topadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o’quvchilar tomonidan berilgan materialning o’zlashtirilishi ko’p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog’liqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur

shartidir. Ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardan irodaviy o'stirish omillaridan biridir. Bunda o'quvchilarning kundalik rejimi, o'qish va oqilonadam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turishda katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan mavhum tafakkurga, mavhum tafakkurdan esa amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng ob'ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko'rib chihishimiz lozim bo'lgan narsa o'quvmateralini idrok qilishjarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishi bo'lib, idrok etish jarayoni ta'limda turli shakllarda o'qituvchining og'zaki hikoya qilishida, suhbat o'tkazishda, ma'ruza o'qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamdaboshqa qo'llanmalarni o'qitishtarzida o'tishi mumkin. Shuni alohidata'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir.

Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda hamyosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

26.2. O'qish motivlari

Motiv - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir.

Motivasiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari "nima uchun?" "nimaga?", "qandaymaqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quvfaoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvmotivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. O'quvfaoliyati motivasiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: Ichki manbalar. Ular insoniy tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma axborotga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Talabalar ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. Bog'cha, maktab, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasini bo'lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshdan u o'qishi kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar - shaxs faoliyatini belgilovchi ob'ektiv shart-sharoitlardir, masalan, boy kutubxona bolani ko'p kitob o'qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlari tizimi ustanovkalari, g'oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning ketishiga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivasiyasini tashkil etadi. V.A.Kruteskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarini alohida ifodalaydi:

a) Biror o'quvfaniga qiziqish;
b) Vatanga foyda keltirish istagi;
v) Shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
g) Oilaviy an'analarga rioya qilish;
d) Do'st-birodarlarga ergashish;
ye) Moddiy ta'minlash va hokazolar.

26.3. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari

Ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishidir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va

N. F. Talizina tomonidan o’rganilgan. Ular aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar.

Mualliflar aqliy hatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo’lishini izohlab berdilar. Aqliy hatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o’z ifodasini topadi. Aqliy hatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko’rgazmalardan olgan tasavvurlari to’g’risida o’quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa, sub'ekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operasiya, usul tariqasida namoyon bo’ladi. Ma'lumki, o’quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko’payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o’z-o’zidan ma'lum bo’lmoqda.

To’rtinchi bosqichda bajarilgan hatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi.

Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o’tiladi. Bundan ravshan ko’rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta'lim hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O’quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o’zlashtirib borishga va o’qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o’sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirish muammosi birinchi o’ringa chiqib bormoqda. Ta'lim jarayonida o’zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog’liq:

1. Ta'lim mazmuniga.
2. O’quv rejalari, dasturlari, darsliklar va o’quv qo’llanmalarining mavjudligiga;

Ta'lim metodikalarini takomillashganligiga;

O’qituvchi mahoratiga;

O’quvchining individual psixologik xususiyatlariga.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o’quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o’zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo’llashmuhimahamiyatga egadir.

27.4. Ta'limning noan'anaviy usullari. Mustaqil tafakkurni rivojlantirish

Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko’ra ta'limning quyidagacha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv-ko’rsatmalilik metodi - bu metod reproduktiv metod bo’lib, unda faoliyat o’qituvchi tomonidan olib boriladi, o’quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo’lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu - dasturlashtirilgan ta'limdir. Reproduktiv metodda o’quvchi faoliyat ko’rsatib, unda o’quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

Muammoli ta'lim metodi - o’qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqalio’quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodni takomillashtirish yo’llaridan biri, ishchan o’yinlarni tashkil etishdan iboratdir. Qisman izlanish metodi - o’qituvchinazorati ostida tashkil etiladigan metod bo’lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o’quvchi ijod qiladi.

Tadqiqot metodi - o’qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo’lib, u o’quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformasiyasini talab etadi.

Ta'lim jarayoni tashkil etishning o’ziga xos metodlaridan biri ishchan o’yinlardir. Ishchan o’yinlar munosabatlar tizimini modellashtirish, faoliyat xarakter istikasini tashkil etishga yordam beradi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta'kidlanadi. Pedagogik texnologiya - bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo’lib, unda ta'lim jarayonini tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o’zaro munosabati ta'limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo’ladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo’lish mumkin;

- Ta'lim-tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo’yiladigan ijtimoiytalablar;
- hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- Ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;

- Ta'lim jarayonini differensiasiyalashtirish;

- Ijodiylik.

O’quvchini mustaqil ta'lim olishga o’z-o’zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir.

Ta'lim jarayonida o’quvchining mustaqil ta'lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'lim masalaning qo’yilishi, yechish, o’z-o’zini nazorat va baholashning yo’llarini o’quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi.

O’quvchilarda mantiqiytafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operasiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o’qituvchining: "Nima uchun?", "qandaymaqsadda?", "Sabablari qanday?", "Natija nima uchun shunday bo’ldi?-"singari savollarning muhokamasi orqaliamalga oshirilishi mumkin. O’qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqilholda topish va ularni yechish uchun o’z loyihalarini tuzish va himoya qilisho’quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo’lishiga xizmat qiladi.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o’rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo’lishi muharrar.Albatta, bilim kerak, ammo, bilim o’z yo’liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamon o’quvmuassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o’rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish - bu insonning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

Mazmundorlik (boyligi, chuqurligi, hukmga boyligi).

Fikrlashning kengligi (keng va tor) va chuqurligi, nazariya va amaliyotning o’zviyligiga bog’liqdir. Amaliyot, hukmning to’g’riligi mezonidir.

Fikrlashning mustaqilligi - umumiy tajribani ?o’llay olish, shaxsiy fikrga ega bo’lish, tajribaga munosabat bildirish.

Aqlning tashabbuskorligi.Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart yechishdan qochish.

6. Aqlning tanqidiyligi, o’z ishini aniq baholay olish, uni o’lchash.

Aqlning mahsuldorligi.

Fikrning ketma-ketligi.

Tafakkurning tezligi.

Aql haqidaayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan. "Ulug’ aql egalari o’z oldilariga maqsad qo’yadilar, qolgan odamlar o’z istaqlari ortidai ergashadilar" (Vashington Irving).

"Aql - bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir" (K.D.Ushinskiy).

Yuqoridaaytib o’tilgan barcha sifatlar yosh o’zgargan sari o’zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo’lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta'minlaydi.

26.5. Ko’nikma va malakalarni shakllantirish

Ko’nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o’zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko’nikma va malakalarni hosilqiladilar.

Ko’nikma – mashq qilish natijasida yuzaga kelgan hatti-harakatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko’nikma bosh miyaning katta yarim sharlari po’stlog’ida hosilbo’lib, vaqtinchalik nerv bog’lanishlarining barqaror tizimining funksiyasini ta'minlaydi.

Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o’zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafaqatko’nikmalar, balki malakalar hamyuzaga keladi.

Malaka - oldinga qo’yilgan maqsad va hatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usulidir. Malakalar hatti-harakatning maqsad va konkret shart-sharoitlariga tegishli bo’lgan holda doimo suyanadi. Odam ishni qanchalik yaxshi bilsa, uni shunchalik malakali amalga oshiradi va undan foydalanadi.

Ko’nikma va malakalar hatti-harakat uslubi bo’la turib, ma'lum faoliyat turiga qarab ishlab chiqarish, o’quv, ijtimoiy, sport, tashkiliy, texnik faoliyat, ilmiy faoliyat, san'at sohasidagi ko’nikmalar va boshqalar bo’lishi mumkin. Lekin, barcha faoliyat turlarida qo’llaniladigan ko’nikma va malakalar

mavjud: bular - harakat, sensor, aqliy ko’nikma va malakalardir. harakat ko’nikmalariga jismoniy mehnat, sport va o’quvko’nikmalari (xat yozish, tez o’qish va hokazo) kiradi.

Sensor ko’nikma va malakalarga o’lchov, yorug’lik, ovoz va simvolik ma'lumotlarni tez va to’g’ri qabul qilishbilan bog’liq bo’lgan va boshqarish markazlarida takrorlab borishlar kiradi.

Aqliy ko’nikma va malakalarga- usullari, malakalarni rivojlantirish, og’zaki va yozma hisob-kitobni ishlab chiqish, harakatlarga yo’naltirish, kitob bilan ishlash, arxiv materiallarini yig’ish, ilmiy tajriba o’tkazish va hokazo. Ko’nikmalar mashq qilish natijasida yuzaga keladi, ya'ni bunda maqsad sari yo’naltirilgan (doimiy) qaytarish mustahkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi.

Inson tomonidan egallangan ko’nikma va malakalar yangi ko’nikmalarni shakllantirishiga ta'sir ko’rsatadi.

Qonuniyatlar:

1. Ko’nikma hosil bo’lishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyon bo’ladi.
2. Ko’nikmalarning ko’chishi. Ijobiy ko’nikmalarning yangilarini shakllanishiga ta'siri ko’chish deyiladi. Ko’nikmalardagi salbiyta'sir esa interferensiya deb ataladi, bunda eski ko’nikmayangisining shakllanishiga halaqit beradi.
3. Ko’nikmani progressiv va regressiv - ko’nikma uzoqvaqt miqdorida xizmat qilishi uchun undan foydalanish lozim. Aks holda deavtomatlashtirish yuzaga kelib, zarur harakatlar o’z tezligi, yangiligi, aniqligi va avtomatlashtirilgan harakatlarni ta'minlovchi xususiyatlarini yo’qotadi.

Odatlar bu shunday hatti-harakatlarki, ular o’z-o’zidan, avtomatik tarzda yuz beradi. Odatlarni insonning madaniy va aloqiy xulqida ahamiyati katta.

Ta'lim boshqariladigan jarayoni bo’lib, bunda har bir bolaning harakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o’qituvchihar bir bosqichda o’quvchining bilimlarini malakalarini o’zlashtirish haqidaaxborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o’zlashtirishga qarab taqdim etiladi.

26.6. O’quv faoliyatini boshqarish

Boshqaruv bu shunday yo’naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo’yadi. Shunday ekan, o’qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini to’g’ri va oqilonaboshqara olishi o’quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda kattadir.

Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O’quvjarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko’zda tutadi. Ulardan birinchisi, o’quvjarayonini to’g’ri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o’quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, o’quv jarayonini boshqarishning:

- birinchi vazifasi tashkiliy bo’lib, o’quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo’yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish;
- ikkinchi vazifasi - bevosita o’quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo’naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir.

Shuningdek, bu vazifa o’quvchilarni ko’tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o’quvjarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham o’z ichiga oladi. Afsuski, ko’p yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e'tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologikdir. Bu vazifa o’quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo’lgan ijtimoiy-psixologik holatva xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Bu holatva xususiyatlar o’quvchilarni o’zaro jipslashtirish, nazorat, o’z-o’zini boshqarish, shuningdek, mustaqil ta'lim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

O’quvjarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallash lozim:

1.Berilgan o’quv topshirig’ini yechish uchun vositalar tanlash.

2.Topshiriqlarni yechish jarayonida o’z-o’zini nazorat qilish.

3.O’zlashtirilgan bilimlar, malakalar, ko’nikmalar sifatini

4.O’quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish.

5.O’z oldiga maqsadqo’ya olish.

6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqligini ko’ra olish.

O’qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'anaviy o’qitishusuli -bunda o’qituvchimuammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlaydi va muammoni yechib beradi. O’quvchi esa masalani yechish yo’llarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda o’quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim o’qitishning muammoli usulida o’qituvchio’quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O’quvchi esa muammoni tushunadi, uni yechish yo’llarini qidiradi va uni yechadi. Bunday hollarda o’quvchi tafakkurining mahsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

O’quvchining o’qishga bo’lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o’qituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

1 O’quvjarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o’quvchi faol harakatqilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o’zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O’quvchilarga bir xil o’qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan qochish kerak.

3.O’rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo’lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o’quvchining o’zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak.

4.Yangi material qanchalar o’quvchi tomonidan avval o’zlashtirilgan bilimlar bilan bog’liq bo’lsa, u o’quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo’ladi.

5. Haddan ziyod qiyin material o’quvchida qiziqish uyg’otmaydi. Berilayotgan bilimlar o’quvchining kuchi yetadigan darajada bo’lishi lozim.

O’qituvchio’rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko’rsatish, o’quvchining o’quvfaolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o’yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo’lavermaydi, shuning uchun o’quvchilarda iroda, qatiylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o’quvchining kelgusida o’z-o’zini nazorat qilishga, o’z-o’zini baholashga va mustaqil ta'lim olishga asos bo’lishi kerak.

Tayanch iboralar

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko’nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish - obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni.

Ta’lim – o’quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni– shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari– ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyutervaboshqalar) va subyektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni – o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

Nazorat uchun savollar.

1. O’quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2.Ta'lim jarayonida bilimlarni o’zlashtirish nimaga bog’liq?

3.O’qish motivlari va motivasiyaga izoh bering.

4.O’quvfaoliyati motivasiyasining manbalariga nimalar kiradi?

5. Bilimlarni o’zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari nimalardan iborat?

6. Ta'lim faoliyatiga ko’ra ta'limning qandaymetodlarini bilasiz?

7. Ko’nikma va malakalar ta'lim jarayonida qandayshakllantiriladi ?

8. O’quv-faoliyatini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

Test topshiriqlari:

1. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda nima nazarda tutiladi.

A) Ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari,o’quvmotivlari, o’qituvchining baholashi;

B) Ta'limning maqsadi-nima uchun o’qitish kerak? Ta'limning mazmuni-nimaga o’qitish kerak? Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo’llari,ta'lim beruvchi, o’quvchi;

V) Bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi.

2. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati nimalarga bog’liq.

A) Ta'limning maqsadi-nima uchun o’qitish kerak? Ta'limning mazmuni-nimaga o’kitish kerak?Ta'limning metodlari,usullari va pedagogik mulokot yo’llari, ta'lim beruvchi, o’quvchi;

B) Motivasiya,ma'lumot usullari, ma'lumotning tushunarliligi, ma'lumotlarni qo’llash;

V) Ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o’quvmotivlari, o’qituvchining baholashi.

3. O’quv faoliyatining elementlarini to’g’ri belgilang.

A) Motivasiya, xotira, o’quvtopshiriklari, o’qituvchining nazorati;

B) Ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o’quvmotivlari, o’qituvchining baholashi;

V) O’quv motivlari, o’quv topshiriqlari, o’quvharakatlari, o’qituvchining nazorati, o’qituvchining baholashi.

4. P.Ya.Galperin nazariyasi bo’yicha bilimlarni o’zlashtirish jarayoni nechta bosqichdan iborat.

A) 5 ta;

B) 6 ta;

V) 7 ta.

5.Ta'lim jarayonida tushunchalarning shakllanishi qandayyuzaga keladi.

A) Bilishga qaratilgan masalalarni yechishdagi faol faoliyatda;

B) Muammoning qo’yilishi, uning yechimi, taxminan shakllantirish va tekshirishda;

V) Narsa va hodisalarning funksional xususiyatlarini tushunib olishda.

6.O’quv faoliyati motivasiyasining manbalari qaysilar.

A) Ichki, tashqi, shaxsiy motivlar;

B) Bilim, ko’nikma va malakalar;

V) Ustanovka, qadriyatlar, orttirilgan qobiliyatlar.

6.N.D.Levitov tomonidan ishlab chiqilgan o’zlashtirish komponentlari to’g’ri berilgan qatorni aniqlang.

A) tafakkur tanqidiyligi, bilish faolligi, o’qishga nisbatan ijobiy munosabat.

B) bilish motivlarini rivojlanishi qiziquvchanlik, o’quv materialini anglash tushunish.

V) o’qishga ijobiy munosabat – hissiy tanishish, materialni faol qayta ishlash.

G) diqqatning barqarorligi, ko’zatuvchanlik, qiziqishning chuqurligi.

D) shaxsning motivasion doirasi, bilishga nisbatan qiziquvchanlik, aqliy faolik.

7. Ta’lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni ilgari surgan olimni toping.

A) V.Shtern

B) J.Piaje

V) D.Bruner

G) D.B.Elkonin

D) L.S.Vigotskiy

8. Bola psixik rivojlanishini ta’minlovchi qonuniyatlar.

A) bilish jarayonlarining intensivligi, integrasiya, kompensasiya.

B) aqliy qobiliyatlar, senzetiv, notekisligi.

V) yetakchi faoliyat senzetivlik, plastiklik.

G) notekisligi, integrasiyasi, plastiklik va kompensasiya.

D) notekisligi, senzetiv, integrasiyasidir.

8.N.D.Levitov tomonidan ishlab chiqilgan o'zlashtirish komponentlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

A) tafakkur tanqidiyligi, bilish faolligi, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat.

B) bilish motivlarini rivojlanishi qiziquvchanlik, o'quv materialini anglash tushunish.

V) o'qishga ijobiy munosabat – hissiy tanishish, materialni faol qayta ishlash.

G) diqqatning barqarorligi, qo'zg'atuvchanlik qiziqishning chuqurligi.

D) shaxsning motivasion doirasi bilishga nisbatan qiziquvchanlik, aqliy faolik

27- MAVZU: INTERFAOL TA'LIM METODLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

REJA:

27.**1.**Interfaol ta'lim shakllari va ularni samarali amalga oshirishdagi pedagogik-psixologiktalablar.

27.2.Interfaol ta'lim metodlari va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

27.3.Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash.

27. 4.Interfaol ta'lim usullaridan namunalar

27.1. Interfaol ta'lim shakllari va ularni samarali amalga oshirishdagi pedagogik-psixologik talablar

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning *foydali jihatlari* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
-o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda «erkin assosiasiyalar»ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning o'zi ma'lum ratsional «mag'zni» ajratib oladi.

*Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi.*Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka», inglizchasiga «brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimasi yo'q, lekin uni «miyaga hujum» yoki «fikrlar to'qnashuvi», «fikrlar jangi maydoni» deb atash mumkin.

Bu usulni birinchi marta amerikalik olim A.Ogborn 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o'ziga xos yechimi bo'lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Biroq, to'g'ri tashkil etilgan breynshtormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda *quyidagi qoidalarga* rioya qilish kerak:

Jumlalar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.

Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan holidir.

Mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.

Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.

Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiniki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir.

Fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan guruh katta bo'lgan sharoitda bahs yuritirishda ham generator, ya'ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki, o'tkazilgan tekshiruvlar va ko'plab sinov mashg'ulotlarining ko'rsatishicha, aynan shu guruhda breynshtorming usulining qo'llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks holda muhim muammolar bo'yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo'ladi. Bu usul ayniqsa, kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi - o'qituvchining roli katta. Amaliy mashg'ulotlarni bahs – munozara shaklida o'tkazilishi bolalarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun savollar berilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg'ulot boshlanishidan avval ularning o'zlarini erkin tutishlari uchun ayrim yengillashtiruvchi mashqlar, boshqacha qilib aytganda, psixogimnastik mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ana shu maqsadda o'tkaziladigan *psixogimnastik mashqlarga* quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'qituvchi guruhni aylana shaklida turishlari suraydi va a'zolarni navbatma-navbat o'rtaga chiqib, guruh bilan xoxlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishni so'raydi. Keyin guruhdan kimning salomi ko'proq yoqqanini so'raydi.

2. Guruh a'zolari o'qituvchi atrofida yarim aylana shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a'zolari o'rtaga chiqib, xohlagan a'zo bilan so'zsiz, lekin ochiqyuz bilan mimika vositasida salomlashish va biror fikrni bildirishi so'raladi.

3. Hamma doira shaklida o'tiradi va o'qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot qatnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o'sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so'ng irg'itiladi. O'qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara qatnashchilari o'rtasida o'zaro tanglikning bo'lmasligi va o'z fikrini bayon etayotganda o'qituvchidan tortinmasligi uchun o'ziga xos trening hisoblanadi.

O'qituvchi munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin;

v) munozara ishtirokchilarning o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

g) fikr bayon etishda kerak bo'lsa, tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin;

d) munozara paytida ko’p yozish shart emas;

ye) agar biror narsa tushunarli bo’lmasa, uni so’rashdan tortinmang;

j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo’lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas»ligi unutmaylik!

Bahs turlari.Yozma bahs o’tkazish usullari. Agar mashg’ulotlar bir-birlarini yaxshi tanimaydigan boshlang’ich guruhlarda boshlangan bo’lsa, «tanishish» mashqlarini o’tkazish, albatta ishni kichik guruhlardan boshlash lozim. Bunda erkin yo’naltirilmagan bahs shaklini qo’llash o’rinliroq. Bunda o’qituvchi ishtirokchilarga bir-birlarini yaxshi tanib olsalar, birgalikda harakat qilsalar, umumiy ish uchun manfaatli bo’lgan natijalarga erishish mumkinligini tushuntirishi lozim.

Agar ishtirokchilar biror yangi ma’lumotlarga ega bo’lish, murakkabroq masala yuzasidan umumiy nuqtai nazarga ega bo’lish va mantiqiy xulosalarga erishishni maqsad qilgan bo’lsalar, unda dars avvalida o’qituvchi yoki oldindan tayyorgarlik ko’rgan guruh a’zosi ma’ro’za qilishi, ma’ro’za yuzasidan keyin bahs uyushtirilishi, dars oxirida imkon bo’lsa, o’qituvchi o’zi tayyorlagan tarqatma materiallarini har bir a’zoga berishi kerak. Faollashtiruvchi usullar materiallar qo’lga berilgach, ishga solinadi.

Agar darsning yoki amaliy mashg’ulotning maqsadi tinglovchilardagi aniq qobiliyatlarni rivojlantirish, malakalarni oshirish va yangi tajribadan foydalanish bo’lsa, unda bahsning predmeti avvalo tajriba almashinuvga qaratilishi, bunda ayrim mashqlar ham bajarilishi, ularning natijalari tahlil qilinishi, rolli o’yinlarni bajarishgacha olib borilishi kerak. Bunda o’qituvchining roli ancha mas’uliyatli bo’lib, u mashg’ulotgacha konkret yo’riqnomalarni o’quvchilarga berishi va guruh ishini muntazam ko’zatib, nazorat qilib turadi.

Agar munozara darslarining maqsadi - ishtirokchilarning yangi, mustaqil fikrlarga kelishi, ularni shaxsiy tajriba va vaziyatlarga bog’lab aytib berishlariga olib kelish bo’lsa, unda o’qituvchi «Men»- munozaradaman» holatida guruhli bahsni kichik guruhlarda tashkil etishi, ularda alohida holatlar va vaziyatlarning tahliliga barchaning diqqatini qaratishi, ishtirokchilarni turli rollarni tasavvur qilishga majbur qila olishi va oldindan tayyorlab qo’yilgan savolnomalarni dars oxirida tarqatib, shakllangan yangi g’oyani ajratib olishi kerak. Demak, bu shakldagi ish har bir ishtirokchidan puxta tayyorgarlikni va aniq ko’nikmalarni talab qiladi.

Bahs shaklida mashg’ulot o’tkazganda, qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta. Qarorlarningsamaralibo’lishiuchunquyidagilarniyoddatutishkerak:

- mashg’ulot boshlanishidan oldin o’qituvchi tahlil qilinishi lozim bo’lgan muammoni belgilaydi va unga qay tarzda munosabat bildirilishi lozimligini tushuntiradi;
- qisqa bo’lsa-da, bu muammoning oldingi darslarga bog’liqligi, uyga berilgan vazifa, muhokama qilinadigan masalaga oid muhim faktlar esga tushiriladi;
- bahs qatnashchilari kichik guruhchalarga (4-5 kishi) bo’linib, mashg’ulot oxirida fikrlar umumlashtirilishi uchun qog’ozlar taxt qilib qo’yiladi;
- guruhda ishlash mobaynida bildirilgan fikrlarning afzal va kamchilik tomonlari haqidagi o’z mulohazalarini og’zaki yoki yozma tarzda qarorlar shaklida bayon etadilar;
- ish yakunida guruhning vakillari o’z guruhining ishi to’g’risida gapirib, ularni boshqalarniki bilan qiyoslaydi. Zarurat bo’lsa, o’qituvchi har bir guruhning qarorlarini o’zaro qiyoslab, savollarga javob beradi, noaniqroq qarorlarga o’z munosabatini bildiradi.

Bu usul o’quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish, munozara madaniyatini oshirish va har bir fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. O’qituvchi esa o’quvchi yoki talabalarning bilimlarini asosli baholash va bilimdonlikni to’la ma’noda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu usul ayniqsa, milliy g’oya va milliy mafkurani shakllantiruvchi fanlar - ijtimoiy – gumanitar fanlar yuzasidan o’tkazilsa yanada samarali bo’ladi.

The interface of educational psychology and Positive Psychology

Before examining the implications of Positive Psychology for educational psychology, it is useful to reflect briefly on a definition of the latter. The task of an EP is to tackle the various problems experienced by young people in education. EPs aim to enhance a young person’s learning, achievement and well-being by drawing on their knowledge of the wider psychological and

developmental literature, as well as their understanding of its specific applications to young people, the learning process, and relevant social and cognitive processes.

Although the role of the EP is to tackle problems, the goal of the Positive Psychological approach is not simply to repair the worst but to also build positive qualities. The objectives of a 'positive' EP would therefore be stated in terms of striving toward achieving optimal functioning. Many educational psychologists will nod in agreement since this is what they have always done; however, for others this will be a new way of thinking about their role. This new approach is illustrated in the above definition of educational psychology with its use of the term'well-being'. So, what is well-being? Traditionally, many psychologists have used this term to refer to the absence of distress, illness, and so on, rather than to the presence of positive states of happiness, satisfaction, and so on. Thus, from a Positive Psychological perspective, the role of the EP is not only about how to alleviate distress, treat illness and repair weakness, and so on, but is also about how to facilitate well-being, promote health and build strengths.

Adopting the Positive Psychology perspective

As I will go on to discuss, the main implication of the Positive Psychology movement for EPs is that it provokes us to re-examine the ideas behind practice. However, before I move on to consider that, I will first give some concrete examples to show how practice begins to change when we adopt the Positive Psychological framework.

The work of an EP can either be directly with a child (for example, through assessment and counselling and other interventions) or indirectly through working with parents, teachers and other professionals. So, how can we begin to bring the Positive Psychological framework to these tasks?

Assessment and intervention

Direct work involves some form of assessment to explore the presenting problem through consultation with professional colleagues, observation, interview, or use of test materials. The Positive Psychology perspective offers new ways of thinking about such assessment. For example, as I've already discussed, the term 'well-being' has been traditionally used in educational psychology to refer to the absence of psychopathology, but from the Positive Psychology perspective it refers to the presence of positive subjective and psychological states. At the most basic level we therefore begin to reconfigure the goals of our practice differently, and thus need new assessment instruments alongside the traditional ones in the armory of educational psychology.

A variety of measures now exist within the Positive Psychology tradition that educational psychologists will find useful here (see Lopez and Snyder 2003). It is beyond the scope of this chapter to go into detail on a range of specific measures, but we can provide here a brief example of one such measure in order to illustrate what can be done. The Children's Hope Scale (CHS) (Snyder *et al*. 1997) is a six-item (e.g. 'when I have a problem, I can come up with lots of ways to solve it') self-report measure for young people aged 7 through to 14 years. The task is to build such measures into intervention plans and to therefore be able to evaluate their success in relation to Positive Psychology goals.We no longer think simply about the alleviation of the problem as the goal, but also about moving beyond this to achieving optimal functioning. For example, strategies for accentuating hope can be of much practical utility and interest to educational psychologists (see Lopez *et al*. 2004).

There is now a need for further research and measurement development related to the practice of a 'Positive Educational Psychology'. As our thinking shifts towards this perspective, our goals for intervention change. Other areas of research activity of particular interest to educational psychologists now include: _ the facilitation of curiousity (Kashdan and Fincham 2004) _ developing wisdom (Baltes, Gluck and Kunzmann 2002; Kunzmann 2004; Sternberg 1998) _ flow (Csikszentmihalyi 1990), and how to facilitate emotional intelligence (Salovey, Caruso and Mayer 2004). Emotional intelligence has received considerable attention already through school-based programmes (see, e.g. Graczyk *et al*. 2000; Topping, Holmes and Bremner 2000). Given the importance of emotional literacy for society in general (not only as a means to increase academic performance, but also to increase positive citizenship), it is surprising that this is not taken more seriously at the level of policy.

Ta'lim psixologiyasi va ijobiy psixologiyaning interfeysi.

Ta’lim psixologiyasi uchun ijobiy psixologiyani ta’sirini o’rganishdan oldin, ikkinchi bir ta’rif haqida qisqacha aks ettirish foydalidir. Ta’lim psixologiyasining vazifasi ta’lim sohasida tajribali, yosh insonlar turli muammolarni hal qilishdan iborat. Ta’lim psixologiyasining maqsadi yoshlarning bilim olishini, muvaffaqiyatga va tinchlikka ularning kengroq psixologik va zamonaviy adabiyotlardan olgan bilimlarini tasvirlash orqali, ularning maxsus tadqiqotlarini yoshlarga, o’rganish jarayonida va ijtimoiy va bilishga oid jarayonlarda yaxshilashdir.

Ta’lim psixologiyasining roli muammolarni hal qilishga qaramasdan, ijobiy psixologiya nafaqat yomon (holat) hulqni tuzatish emas, balki ijobiy sifatlarni paydo qilishdan iborat. “Ijobiy ” ta’lim psixologiyasining predmeti optimal vazifalarga erishish tomon intilishi belgilangan bo’ladi. Ko’plab psixologlar o’zlarining nima qilishlarini belgilaydilar, biroq boshqalar uchun bu o’zlarining o’rni haqida o’ylashining yangi yulidir. Ushbu yangi yondashuv ta’lim psixologiyasini yuqoridagi ta’rifi bilan tinchlik terminining ishlatilishi ko’rsatilgan. Shunday ekan, tinchlik nima? An’analarga ko’ra, ko’plab psixologlar bu atamani falokatnt, kasalliklarni va hokazolarga qaraganda baxtiyorlik, mamnuniyat va boshqa ijobiy holatlarda ishlatadilar. Shunday qilib ijobiy psixologiya istiqbolida ta’lim psixologiyasining o’rni nafaqat qanday qilib xalokatlarni oldini olish, kasallikni davolash va kuchsizlikni tuzatish va boshqalar emas, yaxshi bo’lishga ko’maklashish, sog’liqni saqlash va quvvatni paydo qilishdir.

Ijobiy psixologiya kelajagini o’zlashtirish.

Muhokamani davom etirsam, ijobiy psixologiya faoliyati bilan ta’lim psixologiyasining bog’liqligi shundaki amaliyotdagi g’oyalarini qayta sinab ko’rishga undaydi. Biroq men muhokamani davom etirishdan oldin ijobiy psixologiyani o’zlashtirishda amaliyot qandayqilib bizni o’zgartirishni boshlaydigan bir qancha aniq misollar ko’rsatmoqchiman.

Ta’lim psixologiyasining vazifasi ham to’g’ridan-to’g’ri bola bilan (masalan baholash va maslahat berish va boshqa ishtiroklar) yoki bilvosita ota-onalar bilan, o’qituvchilar va boshqa kasb egalari bilan ishlashdir.

Boholash va ishtirok etish.

Bevosita ishlar baholashning bir qancha shakllarini, muammolarni yechish orqali mahoratli kasbdoshlar bilan o’rganishni, nazorat qilish, suhbat yoki test mashg’ulotlarini qamrab oladi. Ijobiy psixologiya istiqboli baholashning yangi yo’lini o’ylashni tashkil etadi. Masalan, men yuqorida muxokama qilib o’tgan “tinchlik” tushunchasi milliy jihatdan ta’lim psixologiyasida psixopatologiyaning ishtirok etmasligiga aloqador, lekin ijobiy psixologiya istiqbolida u ijobiy subyektiv va psixologik holatlarning ishtirok etishiga bog’liq.

Ijobiy psixologiya an’analariga turli xil o’lchovlar kiradi. Qaysiki tajribali psixolog tezda, foydali yo’lini topa oladigan bu yerda (“Lopez va Snyderzoozni ko’ring ”). Bu mavzu chegarasida, maxsus o’lchovlar tizimida, qismni ma’nosini olib ochib beradi, lekin biz nima bo’lishini bilish uchun shunday o’lchov birligidan qisqa misol ko’ramiz. Bolalarning orzusi shkalasi (BOSH) (Snyder yet al. 1997) 6 ta mavzu bo’yicha (qachonki menda muammo bo’lsa, hal qilish uchun bir nechta yo’ldan foydalanaman) 7 yoshdan 14 yoshgacha bo’lgan yosh bolalarga o’tkaziladi.

Bunga erishish qiyin, ayniqsa psixologiya haqida ham bilganlar uchun.

Ijobiy psixologiyani istiqbolli rivojlanishida qo’shimcha qiyinchiliklar tug’diradi. Tegishli sifatga ega emas va yana ham ehtiyot bo’lish kerak bo’ladi. Lekin bu ijobiy psixologiya istiqbolidan paydo bo’ladi. Bu kengroq auditoriya g’oyalarini rag’batlantirish ishlari haqidagi optimal vazifalar. Bunda ko’p narsalar qilish kerak va YePS mahalliy boshqaruv organlari oldida muhim rol o’ynaydi. YEPS, tashkilotlar va siyosatni rejalashtirish savollari boricha, ishchilar maslahat guruhlariga qo’shilishi, maslahatlashish uchun tez-tez murojat qiladi. Shu sababli ideal holatda bo’ladi va bu ijobiy psixologiyani prinsiplarini shakllantirish, boshqalariga ham tasir ko’rsatish uchun targ’ib qilinadi.

Misol uchun: aytib o’tiladiki maktablarda hissiy razvedka dasturlarini osonlashtirish targ’ib qilish kerak bo’lgan ish hisoblanadi. Garchi, biz ehtiyot bo’lishimiz kerak. Bunday dasturlarda qatnashishimiz hissiy savodxonlikni oshirish uchun va bu bolalarning ijtimoiy, xulq-atvorini o’sishiga xalaqit bermaydi.

Biz nimani o’ylab qilishimiz, qushimcha qiyinchilikka ega, ijobiy psixologiyada bu chuqur masalalarni ko’taradi. Endi aynan shu bilan murojat qilaman. (Frameworks for Practice in Educational

Psychology A Textbook for Trainees and Practitioners *Edited by Barbara Kelly, LisaWoolfson and James Boyle* Jessica Kingsley Publishers London and Philadelphia. Copyright © Jessica Kingsley Publishers 2008. *www.jkp.com*)

O'quvchilar oldindan mavzu bilan tanishtiriladilar, uyga berilgan topshiriqlar orasida qay biri yozma tarzda o'tkazilishi ma'lum qilinadi. Yozma bahs o'tkaziladigan kuni o'qituvchi uni quyidagi tarzda amalga oshiradi:

1. O'qituvchi guruhni ikkiga bo'ladi va ularni alohida qatorlarga o'tkazadi. Har bir guruh mavzu bo'yicha qaysi nuqtai nazarni himoya qilishini ma'lum qiladi. Masalan, birinchi guruh bolalarning aqliy darajalarini muntazzam o'lchab turish va shu orqali ta'lim muassasalariga jalb etishni himoya qilsa, ikkinchi guruh – bu fikrni asosli tarzda inkor qiladi.

2. Shundan so'ng o'qituvchi qarama-qarshi guruh a'zolarini juftlaydi va ularga nomeri yozilgan varaqlarni tarqatadi. Har bir ishtirokchiga biror fikrni yozma asoslashga 5 daqiqadan beriladi. Yozma dalillar ravon tushunarli tilda, asosli tarzda yozilishi kerak.

3. Yozilgan varaqchalar qarama-qarshisheriklarga beriladi. Ular o'z «raqiblari» fikriga qarshi fikrni 8-10 daqiqa mobaynida o'ylab, yozishlari kerak bo'ladi va narigi tomondagi sherigiga beradi.

4. Yozma dalillar almashinuvining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, har safar har bir o'quvchi sherigining dalil-isbotini diqqat bilan o'rganib chiqib, javob qaytaradi. Oxirgi raundda o'quvchilarning o'zlariga yakunlash imkoni beriladi va yozma ishlar yig'ib olinadi.

5. O'qituvchi yozma baholarni yakunlashda tomonlarga «qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isboti qaysilar bo'ldi?» deb so'raydi va o'quvchilar bilan oldindan kelishgan holda ular bilimlarini yakka-yakka yoki guruhiy baholaydi.

Yuqorida keltirilgan yozma bahslarni o'tkazish tamoyillari Fred Nyumen materiallari asosida tayyorlandi. O'ylaymizki, bizning sharoitimizda ham bu usullar ancha samara beradi.

27.2.Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy – psixologik shartlari

Ma'lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi - ta'lim oluvchida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir. Bu narsa ma'lumotlar almashinuvi orqali ro'y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

- monolog;
- dialog;
- polilog.

Monolog - ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi – talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir. Ayni shu usul ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vosita ekanligi to'g'risida ongimizga o'rnashib qolgan tasavvur mavjud. Bu holatda gapiruvchi ma'lumotlarning asosiy tayanch manbai hisoblanadi va faqat undangina faollik talab qilinadi. Monolog egasi esa o'zi mustaqil tarzda ma'lumot mazmunini tinglovchilarga yetkazish va o'z mavqyeini ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi. Lekin auditoriya, ya'ni tinglovchilar unga nisbatan ancha passiv mavqyeida bo'ladilar va bu narsa ma'lumotning faqat kichik bir qisminigina idrokqilish va eslab qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bu kamchilikning oldini olish uchun auditoriyani faollashtirishning boshqa yo'llarini qidirishga majbur bo'ladi.

Dialog - o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligi ta'minlanadi. Ya'ni, tinglovchilar o'quv jarayonining obyektidan uning subyektiga aylanadilar.

Dialog jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o'zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o'qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususda bilimlar va tasavvurlarga ega bo'lishini inobatda olishi zarur, aks holda o'zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin.

Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o'zi shini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu holat dialogning eng muhim psixologik ahamiyatidir.

Polilog – guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o'quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchi sifatida o'quvchilar yoki talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko'proq nazariy xarakterli bo'lib, yangi g'oyalarda nularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurarti bo'lganda qo'l keladi. Lekin, bu usul mashg'ulotlar yoki muloqot darslar endi boshlangan paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas, chunki polilog uchun o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash tajribasidan tashqari yoshlarga o'sha soha yuzasidan ma'lum bilimlar majmui hamda hamkorlikda ishlash tajribasi zarur. Dialog va polilog texnikasini yaxshi egallagan muallim munozara yoki bahsni samarali tashkil etishga layoqatli bo'ladi.

27.3. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish

Bahsning samarali bo'lishi eng avvalo bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog'liq. Tinglovchi va muzokorada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqyelarining mohiyati muhim bo'lganligi bois biz ushbu holatlarni keltiramiz:

Sinf sharoiti. Bu - an'anaviy dars o'tkazish shakli bo'lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko'rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o'qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqyelari, mas'uliyati turlicha bo'ladi. Bu sharoitda bahs o'tkazish mumkin emas. Chunki sinfda oxirgi qatorda o'tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqyei - «Men»-o'yindan tashqarida» bo'ladi. Endigi vazifa «Men»-o'yindan tashqarida»vaziyatni «Men»-o'yinda» deb ataluvchi holatga keltirish hisoblanadi.

«Men»-o'yinda» tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o'rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo'ladi, hatto boshlovchi ham «qatorda» o'tiradi. «Ishchanlik o'yinlar» va boshqa rolli o'yinlar ana shunday sharoitda o'tkazilishi mumkin.

«Men»- munozarada» deb ataluvchi bu holat ayni bahs – munozaralar o'tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

«Men» - hamkorlikdaman» degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a'zolari to'rt-besh kishidan bo'lib, alohida stollar atrofidao'tirib, har bir guruh o'z qarorini chiqaradi. «Munozara klublari» faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Bu keltirilgan har bir holat bahs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

Demak, dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirish lozim bo'lgan bilim, malaka va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg'ulotni boshlashi kerak. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy sinfda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning samaradorligi deyarli yo'q, chunki ular oldingi qatorlarda o'tirgan tinglovchilarning faolligigagina yo'naltirilgan, qolganlar «o'yindan tashqari» holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning ***erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq senariyli disput*** turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir («disput» so'zining lug'aviy ma'nosi - «fikrlayapman», «tortishayapman», degan ma'noni bildiradi). Kichik guruhlardagi munozaralardagi asosiy narsa – guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimini batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmasligi zarur. Bunday munozaralar turli sharoitda ko'pincha

bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ishxonalarida va b.k.) o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar bahslashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu holda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo'linadi. Birinchi guruh - ***«fikrlarni jamlovchilar» - generatorlar*** guruhi deyiladi; ikkinchisi - **«tanqidchilar»**va uchinchi guruh - ***«fikrlarni tezlatuvchilar - katalizatorlar»*** deb ataladi. Har bir ajralgan guruhninig o'ziga xos funksiyalari bor: «generatorlar» o'rtaga tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rtaga holis tashlaydilar. Guruh a'zolaridan biri - lider – ularni jamlab, fikrlar ikkiga bo'lingan taqdirda ham ularni umumlashtirib bayon etadi. So'ngra o'yinga «tanqidchilar» kirishadi. Ularning vazifasi – eshitgan fikrlariga tanqidiy munosabat bildirish, ya'ni tanqidiy nuqtai nazardan ular ichidagi «mag'zini» va «puchak» fikrlarnisaralash. Shundan keyin vaziyatga qarab, yana so'z «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo hisobga olinmay qolgan jihatlar yoki noo'rin fikr bo'lsa, yoki mohiyatan shu mavzuga aloqador bo'lgan, lekin ikkala tomon hisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar diqqatini aynan shunga qaratishi kerak. So'ngra «tezlatuvchilar» bahsni davom ettirishga ruxsat berib, agar uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruhnnig o'yiniga holis baho bergan holda munozarani to'xtatishi mumkin. Ular ko'pincha ikkala guruh uchun holis orbitirlar - «hakamlar» rolini o'ynaydilar.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruhida axloqiy ma'naviy mavzuda bahs uyushtirganda, yuqoridagi usulni qo'llash imkoniyati bo'lsa, suhbatdoshlar***uchburchak shakldagi berk stol*** atrofiga o'tirishlari mumkin. Demak, bahslashuvchilarning joylashishlari ham bu o'rinda ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli ayniqsa kattadir. Chunki, u har bir guruhdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmog'i, kerak bo'lsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiqtarzda yo'naltirib turmog'i lozim. Kichik guruhdagidan farqli ularoq, katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruhga yon bosmasligi yoki ularni o'zining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks holda, u o'zining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va bahsning yo'nalishini bo'zib qo'yishi mumkin.

27. 4.Interfaol ta'lim usullaridan namunalar

"АҚЛИЙ ҲУЖУМ" методи



"Aqliy hujum" metodi- biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarini ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxs erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

*"Aqliy hujum"*metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy vaziyatli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi.

"Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda –yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.

3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda-mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

1.Bildirilgan fikr-g’oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2.Bildirilgan har qanday fikr-g’oyalar, ular hatto to’g’ri bo’lmasa ham inobatga olinadi.

3.Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

4-rasm “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi



“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlari so’raladi;

2.Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3.Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog’ozlarga yoki doskaga) to’planadi;

4.Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;

5.Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum”metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalarvizuallashtirilibboriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.

“*Aqliy hujum”metodiningkamchiliklari:*

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“КИЧИК ГУРУҲЛАРДА ИШЛАШ” методи

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

*“Kichik guruhlarda ishlash”*metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki, ta’lim beruvchi bir vaqtning o’zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi.

5-rasm. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmas



“Kichik guruhlarda ishlash”metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo’nalishi aniqlanadi. Mavzu bo’yicha bir-biriga bog’liq bo’lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo’linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

1.Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko’rsatmalar beriladivayo’naltirib turiladi.

2.Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

3.Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

4.Kichikguruhlarbaholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o’qitish mazmunini yaxshi o’zlashtirishga olib keladi;
- muloqotgakirishishko’nikmasinitakomillashtiradi;
- vaqtnitejashimkoniyatimavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o’z-o’zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo’ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo’lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo’ladi;
- guruhlararo o’zaro salbiy raqobatlar paydo bo’lishi mumkin;
- guruh ichida o’zaro nizo paydo bo’lishi mumkin.

“ДАВРА СУҲБАТИ” методи

“Davra suhbati” metodi –aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o’z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o’qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko’z aloqasi”ni o’rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og’zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og’zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so’raydi va aylana bo’ylab har bir ta’lim oluvchi o’z fikr-mulohazalarini og’zaki bayon etadilar. So’zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo’lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo’lingandan so’ng muhokama qilinadi.

6-rasm.”Davrasuhbatimetodi”ishtirokchilariningjoylashishtartibi



Белгилар:
1-таълим олувчилар
2-айлана стол

Yozma davra suhbatida (6-rasm) ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog’ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo’yicha o’z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi. Shundan so’ng konvertni soat yo’nalishi bo’yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o’zjavobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo’yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo’ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig’ib olinib, tahlil qilinadi.

7-rasm. “Davrasuhbati” metodiniamalgaoshirishusullari



“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg’ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg’ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda nechta ta’lim oluvchi bo’lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari” tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo’yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o’z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo’yicha o’z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo’nalishi bo’yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo’yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo’ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o’ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig’ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo’yicha o’zlarining bilimlarini qisqava aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu

“ИШБОП ЎЙИН” методи

bo’yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o’zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

- o’tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- ta’lim oluvchi o’zining baholanish mas’uliyatini his etadi;
- o’z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbati”metodining kamchiliklari:

- ko’p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o’zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo’lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo’lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Ishbop o’yin” metodi **–**berilgan topshiriqlarga ko’ra, o’yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitasiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O’yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitasiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o’yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko’ra ishtirokchilar o’z faoliyatlarini o’zgartirish imkoniyatiga ham ega bo’ladi. Ishbop o’yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo’ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o’yin davomida o’zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o’z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o’yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o’zining vazifasi bo’yicha qaror qabul qiladi, so’ngra guruh bilan maslahatlashadi. O’yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

8-rasm. “Ishbopo’yin” metodini o’tkazish tartibi



“Ishbopo’yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo’riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

1. Ta’lim oluvchilarni o’yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
2. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
3. Ta’lim oluvchilar o’z rollari bo’yicha tayyorgarlik ko’radilar.
4. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o’yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o’yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
5. O’yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
6. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o’z vazifasini to’g’ri bajarishi, berilgan vaziyatda o’zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko’rsata olishi kerak.

“Ishbop o’yin”metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o’z qarashlari va xulqlari orqalii foda etishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchining boshlang’ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar o’z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

“Ishbop o’yin”metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- vaqtko’psarflanadi;
- tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchining his-hayajoni to’g’ri qaror qabul qilishga halaqit berishi mumkin.
-

“РОЛЛИ ЎЙИН” методи

“Rolli o’yin” metodi-ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko’rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o’yinlarning ishbop o’yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.Shu bilan birga “Rolli o’yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbopo’yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o’zlari hal etadilar.

Rolli o’yinda ham ishbop o’yin kabi muammoni yechish bo’yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo’lga qo’yiladi. Rolli o’yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o’yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo’lishi lozim. Chunki rollarni o’ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o’yinlar o’quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivasiyani shakllantirishga yordam beradi.

9-rasm.“Rollio’yin” metodining o’tkazilish tartibi

“Rolli o’yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha o’yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o’yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O’yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O’yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o’z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni ko’zatib turadilar.
5. O’yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Ko’zatuvchi bo’lgan ta’lim oluvchilar o’z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o’yinga xulosa qilinadi.

Ushbumetodniqo’llashuchunssenariyt’limberuvchitomonidanishlabchiqiladi.

“Rollio’yin” metodiningafzalliktomonlari:

- o’quvjarayonidata’limoluvchilardamotivasiya (qiziqish)nishakllantirishgayordamberadi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olishni o’rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o’yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko’pvaqttalabetiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o’yinga tayyorgarligi turlicha bo’lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“

“Loyiha” metodi- bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo’yicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va



amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo’lishi mumkin, lekin har bir loyiha o’quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo’lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo’llay olishni talab qiladigan topshiriq bo’lishi kerak.

12-rasm. “Loyiha” metodiningbosqichlari



“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo’yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig’adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo’yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo’yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o’zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni

quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash

jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- Yakka tartibdagi ish;
- Kichik guruhiy ish;
- Jamoa ishi.

MULOQOT TRENINGI

Ushbu trening o'quvchi–talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'zfikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lgan holda o'tkaziladi.

Muloqot trengini o'tkazish bosqichlari

O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi

1-bosqich:

-o'qituvchi ishni o'tkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, «Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: «Sharq yoki Yevropa?». Shu mavzuni o'rtaga tashlab tinglovchilardan Sharq madaniyati va Yevropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi.Ularni shu tartibda guruhlarga bo'ladi.

2-bosqich:

-har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari bo'yicha kerakli materiallar, dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofilm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruh talabalarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan holda vaqt beradi.

3-bosqich:

-guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach o'qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib, ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi.Guruhvakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

4-bosqich:

-mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi.Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Har ikkala himoya vaqtida o'qituvchi iloji boricha o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarning to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5-bosqich:

-guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar,misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida,shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

6-bosqich:

-o'qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zinining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini taxlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi. Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv–seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'zfikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

FSMU texnologiyasini o'tkazish bosqichlari

1 – bosqich:

- o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

- o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi;

- mashg'ulot davomida har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2 – bosqich:

- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizning bayoniga sabab ko'rsating;

M–ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozni FSMU ning 4 – bosqichi bo'yicha o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

3 – bosqich:

- har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, trener ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga ajratish usullarining biridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;

- o'qituvchi har bir kichik guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4 – bosqich:

- kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

- guruh a’zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo’yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko’radilar;

- fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o’z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 – bosqich:

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o’qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba’zi bo’limlarni isbotlashi, ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o’tishi mumkin.

6 – bosqich:

- o’qituvchi mashg’ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o’z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi;

- ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarni o’rgandingiz?

- ushbu texnologiyaning o’quv jarayoniga qo’llanilishi qanday samara berdi?

- ushbu texnologiyaning qo’llanilishi talaba-o’quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

- ushbu texnologiyani o’quv jarayonining qaysi bosqichida qo’llash ma’qul va nima uchun?

IZOH: yuqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener (o’qituvchi) tomonidan tinglovchilarga yoki talaba-o’quvchilarga berilishi mumkin.

FSMU TEXNOLOGIYASI

(F) – Fikringizni bayon eting;

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko’rsating;

(M) – Ko’rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

BLIS-SO’ROV TEXNOLOGIYASI

Blis-pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada talaba-o’quvchilarga o’rganilgan butun mavzu yoki uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo’yicha tuzilgan savollarga javob (og’zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko’rinishida) berishlari taklif etiladi. Masalan, genetika fanidan o’tilgan «Hujayra tuzilishi» mavzusining oxirida quyidagi savollar bo’yicha blis-surov o’tkazish mumkin:

1. Hujayraning irsiyatda qanday ahamiyati bor?
2. Hujayraning shakli va o’lchami qanday bo’lishi mumkin?
3. Hujayraning ximiyaviy tarkibi qanday moddalardan tashkil topgan?
4. Hujayra organoidlari va ularning vazifalari nimalardan iborat?

BLIS – O’YIN TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya o’quvchi–talabalarni harakatlar ketma–ketligini to’g’ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma–xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o’quvchi–talabalar o’zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o’tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to’liq sharoit yaratib beradi.

Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodi

Akademik guruh jami talabalar sonidan kelib chiqqan holda 4-5 kishidan tashkil topadigan bir necha kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhning talab darajasida o’quv faoliyati ko’rsata olish uchun uning tarkibida bilimlarni o’zlashtirish bo’yicha bitta yaxshi, bitta undan sustroq talaba-o’quvchining bo’lishi shart. Qolganlari qobiliyatlari va bilim darajalari bo’yicha sust o’qiydigan talaba-o’quvchilar bo’lishi mumkin. Yaxshi o’zlashtiruvchi talaba-o’quvchi kichik guruhning sardori bo’lib, o’z navbatida sheriklarining ma’lum hajmdagi bilimlarni o’zlashtirishlari bo’yicha o’qituvchiga yordamchilar hisoblanadi. Har bir talaba-o’quvchining darsga tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda barcha sheriklarining baholanishi o’qituvchi tomonidan o’quv yili boshida hammaga e’lon qilinadi.

Kichik guruhdagi talabalarning fan bo’yicha butun o’quv faoliyati qat’iy o’zaro mas’uliyatga asoslangan bo’lib «Birkishi hamma uchun, hamma birkishi uchun» shiori ostida boradi. Chunki sardorlarga joriy nazorat bo’yicha rag’batlantiruvchi ballarni qo’yishda kichik guruhlar talaba-

o’quvchilarining uyga berilgan topshiriqlarni bajarganlikdarajalari, ayniqsa sust o’zlashtiruvchi talabalarning mavzu bo’yicha o’qituvchi va boshqalarning savollariga og’zaki yoki yozma javob berishlari, masala yechimini tushuntira olishlari e’tiborgaolinadi. Uy vazifasini ko’proq sus to’zlashtiruvchi, biroq bilim olishga ishtiyoqi bor talaba-o’quvchilardan so’rab, kichik guruhning barcha talaba-o’quvchilarini uning javobini e’tiborga olgan holda baholash katta ta’limiy va tarbiyaviy samara beradi. Sust o’zlashtiruvchilarni yaxshi tayyorlagan kichik guruh sardorlariga eng yuqori ball qo’yiladi. Natijada sardorlarga ham tabaqalashtirilgan ball qo’yishga erishiladi. Kichik guruhdan biror talaba-o’quvchi uy vazifasini bajarmagan yoki qisman bajargan bo’lsa, bu kamchilikni yo’qotish uchun uning sardori yoki barcha sheriklarini bir-ikki marta qo’yiladigan ballardan mahrum etib, o’sha mavzuni qayta ishlab darsdan keyin topshiradigan qilish kifoya. O’qituvchining uy vazifasini nega tayyorlamay kelding deyishi bilan bu gapni kichik guruh talabalarining jamoa bo’lib norozi ohangda sheriklariga aytishi orasida juda katta tarbiyaviy farq bor.

Bitta kichik guruhga kirgan talaba-o’quvchilar auditoriyaning ma’lum qismidagi ketma-ket qo’yilgan partalarda birgalikda, sardor esa orqadagi partaning o’qituvchi borib yordam ko’rsatishi va o’zining kelib o’qituvchidan yoki boshqa kichik guruh sardoridan yordam olishi uchun qulay qismida o’tiradi. Ikkita parta bir-biriga qaratib qo’yilsa talaba-o’quvchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun yanada qulay bo’ladi. Sardorning amaliy mashg’ulot paytida auditoriya bo’ylab erkin harakatlanib, o’qituvchi va boshqa sardorlar bilan hamkorlikda vujudga kelgan tushunmovchilikni hal qilish bo’yicha muloqotda bo’lishiga ruxsat etiladi. Biroq, o’qituvchi huzuriga birdaniga bir nechta emas faqat bitta sardorning kelishiga yo’l qo’yiladi.

Bir kichik guruh qo’yilgan muammoni (masalani) hal etgach, uning to’g’riligini o’qituvchi tomonidan tekshirilib, sardorga sheriklariga o’rgatish taklif qilinadi. Uning o’rgatishi jarayonida masalani yecha olmagan guruhchalarning sardorlari ham shu guruhga kelib qo’shiladi, so’ngra o’zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga o’rgatishadi.

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta’sir o’tkazish insonda o’z vaqtida o’zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o’zini anglash tuyg’usi qancha erta uyg’onsa, shaxsiy nuqtainazar, o’z huquqini his etish,o’zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo’ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o’jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to’siq vujudga keladi. Shaxslararo munosabatdagi qarama-qarshilik, inqiroz rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir.

Ta’limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirish yosh psixologiyasining qonuniyatlariga suyanmog’I zarur. Bolalar jamoasi, oila muhiti, mehnat jamoalarida shaxslararo iliq munosabatni shakllantirish yosh davri xususiyatlarini inobatga olishning mahsuli sanaladi.

O’zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko’rsatilgandek o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijod qilishi, izlanishini ta’minlaydigan faol o’qitish usullarini qo’llash hozirgi zamon talabidir. O’quvchi-talabalarning bilim, malaka va ko’nikmalarini mazmunan takomillashtirish va sifatini yaxshilash uchun yangi pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga qo’llash maqsadga muvofiqdir. Har qanday interfaol ta’lim usullari bilan ishlash insondan aqliy harakat qilishni talab qiladi. Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli – tuman harakatlar bo’lib, ular yordamida har qanday yangi pedagogik texnologiyalarni egallash orqali bilimdonlikning barcha ko’rinishlarini mukammallashtirish mumkin bo’ladi.

Tayanch tushunchalar

Pedagogik faoliyat- ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik o’yin – bilim olishga qaratilgan va ma’lum bir pedagogik natijani ko’zlagan hamda ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi

Texnologiya-tushunchasi yunoncha «mahorat»,«san’at»,«tushuncha», «o’rganish» demakdir. Texnologiya tushunchasi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologiya operasiyalar va mahsulotni tayyorlash mazmuni (sirlari) bilan bog’langan. Texnologiya so’zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalar haqida bilimlar yig’indisi, shuningdek, obyektda sodir bo’ladigan sifat o’zgarishlari tushuniladi.

Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim jarayoni texnologiyalashtirilgan deyiladi. Texnologiyalashtirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lmagan faqat o'quvchi (talaba) ning shaxsi ehtyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta'lim jarayonidir. O'quvchi (talaba) ta'lim jarayoni markazida turadi. Bunda darsni kim olib borayapti (tajribali o'qituvchimi yoki yosh o'qituvchimi) qat'iy nazar ko'zlangan yakuniy natija (maqsadga ko'ra)ga erishish kafolatlanishi lozim. Ta'limda o'qituvchi faqat ijrochi vazifasini bajaradi.

Innovasionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovasionlik - ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

Muloqotning yangi vaziyati – bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqyeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Nazorat uchun savollar:

1.Interfaol ta'lim metodlari deganda nimani tushuasiz?

2. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik qonuniyatlari deganda nima nazarda tutiladi?

3.Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik omillari nimalarda namoyon bo'ladi?

4.Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslarini bayon eting?

5.Interfaol ta'lim shakllarini samarali amalga oshirishga qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar nimalardan iborat?

6. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish to'g'risida shaxsiy mulohazalaringizni yozma tarzda bayon eting?

7.Interfaol ta'lim metodlaridan namunalar keltiring?

8.Breynshtorming metodi qanday metod?

Test topshiriqlari

1.Yangi pedagogik texnologiyalar prinsipiga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

a)Loyihalash o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talablar

b)Bu pedagogik faoliyatni muntazam, o'zgarib, rivojlanib, yangilanib turishi

v)O'qitish va tarbiyalash jarayonini loyihalashgan ko'rinishi

d)Didaktik jarayonni tartibga solib turadigan me'yoriy talablar

2. «Aqliy hujum» metodining mohiyati nimada?

a)Jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga ajratish

b)Talabada tafakkurni rivojlantirish

v)Qisqa vaqtda kata axborotni o'zlashtirish

d)Yangi tajriba va metodlar bilan tanishish

3. «Munozara» metodidan ko'zlangan maqsad?

a)O'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi

b)O'quvchilarda mustaqil fikrlash o'sadi

v)Vaziyat, muammoni analiz, sintez qilishni o'rganadi

d)Muammo yechimini topadi, axborot to'planadi

4. Mavzuli-rolli o'yinlar orqali bolada qanday ruhiy jarayonlar tarkib topadi?

a)Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlashi, hayol surishi va axloqiy sifatlar tarkib topadi

b)Harakat ko'nikmalari va odatlari tarkib topadi

v)Ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi

d)Bolani ta'lim jarayoniga tayyorlaydi

5. Didaktik o'yinlarning turi va ahamiyatini ko'rsating.

a)Bilish jarayonini rivojlantiradi; so'zli, mantiqiy, predmetli

b)Harakat ko'nikmasi va odatlarini tarkib toptiradi; so'zli, mantiqiy, simvolik

v)Ruhiy jarayonlarni shakllantiradi; mimikali, ko'rgazmali, so'zli

d)Bola shaxsini, ichki imkoniyatlarini ochib beradi; so'zli, mantiqiy, predmetli

6. Integral texnologiya nima?

a)Yo'nalishi aniq ta'lim-tarbiya maqsadini yechishga qaratilgan integral holiga keltirilgan, kuchli texnologiyani vujudga kelishi

b)Ta'limdagi interfaol metodlarning bog'liqligi

v)Amaliyotga joriy etiladigan pedagogik tizim loyihasi

d)O'qitish natijalarini oldindan belgilash, rejalashtirish

7. Aniq vaziyatlarning psixologik tahlilida yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni.

a)Muammoni tez, oson, tushunarli, esda qolarli yechimining topilishini ta'minlaydi

b)Ta'limning samaradorligini oshirish

v)Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish

d)O'quvchilarda mantiqiy xotirani rivojlantirish

8. Noan'anaviy va an'anaviy ma'ro'zalarning metodik va psixologik ahamiyatliligi.

a)Bir xillikdan chiqish, ta'limda interfaol, innovasiyalardan foydalanish, ta'lim oluvchilar faolligini oshirish

b)Mustaqil, tanqidiy fikrlashni o'rgatish

v)Bilim jarayonlarini rivojlantirish, qiziqtirish

d)O'qituvchini tinglashi va ma'lumotlarni tez o'zlashtirishi

9. Davra suhbatining turlarini sanang.

a)Bahs, debat, disput, munozara

b)Savol-javob, disput, muammoli vaziyat

v)Debat, ma'ro'za, yig'ilish, muhokama

10. Faol ta'lim metodlarini nazariy asosini nima tashkil etadi?

a)Ilg'or pedagoglar ish tajribasi, yangi pedagogik texnologiya, chet el ta'lim yangiliklari

b)Darslik, ilmiy-badiiy adabiyotlar

v)«Qadrlar tayyorlash milliy dasturi», darslik

d)«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, adabiyotlar

11. Psixologiya fanini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ijobiy tomonlari.

a)Ko'rgazmali, elektron vositalar orqali tushunish, uzoq, mantiqiy, oson tushunish, fan samaradorligining oshishi

b)Zamon talablariga mos qadrlar tayyorlash

v)Ta'lim tizimining osonlashishi, vaqtdan yutish

d)Ta'lim standartlarini bajarish, ijtimoiy buyurtma uchun ishlash

12. Pedagogik texnologiya asrimizning nechanchi yillarida va qaysi davlatda birinchi bo'lib vujudga keldi?

a)60-yillarida AQShda

b)70-yillarida Britaniyada

v)80-yillarida Afrikada

d)50-yillarida Daniyada

28-MAVZU: KASB TA'LIMI PSIXOLOGIYASI

REJA:

28.1.Kasb ta'limi psixologiyasining predmeti

28.2.Kasb ta'limi psixologiyasi haqida tushuncha.

28.3.Kasb tanlashga yo'llash va kasbiy maslaxatlar.

28.4.Kasbga yaroklilikni aniklash muammolari.

28.5.Kasb egallash va moslashish bosqichlari.

28.1.Kasb ta’limi psixologiyasining predmeti

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o’z hissasini qo’shib yashashi va shu orqali jamiyatda o’zligini namoyon etishi ya’ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o’z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo’lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko’ra biror bir kasb sohasida ta’lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi.

Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo’lib, unda inson manfaatlari yo’lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o’ta muhim bosqichi bo’lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo’lgan davrini o’z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog’liq emas, u ma’lum yoshga kelib o’z-o’zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko’nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o’quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo’llanmalar, tarqatma materallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o’quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo’llash imkoniga ega bo’lamiz.

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to’g’risida o’ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta’lim-tarbiya o’quvchining turli fanlarga bo’lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo’lgan qiziqishi tez seziladi, ya’ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O’smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko’pgina o’quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma’lum bo’ladi: ular “Men shifokor bo’laman”, “Bizning o’g’limiz, qizimiz, tibbiyot insititutiga hujjat topshiradi. Shunday bo’lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ruyobga chiqishi bo’yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi. Omadsizlikka uchrasa-chi? Ayrim o’quvchilar uchun to’qqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo’nalishlarini tanlash – eng dolzarb masala bo’lib qoladi.

Ko’pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo’lsam ekan yoki qaysi sohani mutaxassisi bo’lsam ekan? – degan savolni o’z oldilariga qo’yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o’quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo’lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib yetmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunda kasb dunyosida o’z o’rnini qidirish o’zgacha ma’noga ega bo’ladi.

Kasb-hunar kollejiga kirgan yoshlar uchun kasb tanlash muammosi to’liq yechilmagan bo’ladi. Ularning bir qismi tanlovning to’g’riligiga o’qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari – mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari kasb bo’yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo’yicha ish topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qo’shilib qoladi. Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb bo’lib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, kelajakka nisbatan ishonchsizlik, bilan qarash mehnat olamida o’zini topishida ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lgan o’quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo’ladi. Kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini kasb talablari bo’yicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar bo’yicha kasbiy tanlov o’tkaziladi. Uning bajarilishi

bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi ya'ni unga ko'ra kasbning normativ tavsiflarini belgilab olish psixologik xususiyat va sifatlarini aniqlash lozim.

Bo'lajak mutaxassis shaxsida yangi a'zolari orasida, turli yoshdagi kishilar bo'lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko'nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O'zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Shaxs psixologik tuzilishidagi keskin o'zgarishlar kishining hayotini ham o'zgartiradi. Oldingi – "maktab – oila –jamiyat" tizimi o'rnida yangi ya'ni "kasb-oilai jtimoiy-iqtisodiy sharoitlar" vaziyati kelib chiqadi. Endi shaxs rivojlanishida kasb-muhit omili muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Har bir kishining hayotida kasbiy rivojlanish bo'yicha o'zgartiruvchi normativ vaqtlar mavjud bo'ladi. Masalan; kasb-hunar kollejiga kirish, uni tugatish, ishga kirish, mehnatga bo'lgan layoqatini yo'qotish, majburiy ishdan bo'shash va boshqalar. Bunday voqealarining paydo bo'lishi bexosdan yoki qandaydir sharoitlar tufayli, gohida esa mutaxassislik sababi natijasida bo'ladi. Ko'p hollarda normativ bo'lmagan voqealar kasbiy istalmagan noxush voqealar, hisoblanadi.

O'z kasbini ustasi bo'lishga erishish variantlari ko'p bo'lib, bu borada talaygina muammolar paydo bo'ladi. Shaxsning kasbiy rivojlanishi turli xilda namoyon bo'lishini qanday tushuntirib bersa bo'ladi? Nega bir kishi hayoti davomida ma'lum bir kasbga sodiq qoladi, boshqasi esa yillar davomida mehnat turlarini o'zgartirib turadi? Kasbni o'zgartirish sabablari (qanday) nimada? Kasbdan qoniqish, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi, lavozimlardan ko'tarilishi qanday omillarga bog'liq? Qanday qilib kasb ustasi bo'lish mumkin? Insonning kasbiy hayotini o'zgarishida shu savollarga javob berish kerak bo'ladi.

Shu bois talaygina muammolar ishsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa ertangi kunga bo'lgan ishonchsizlik psixologik zo'riqishni kuchaytiradi. Bunda ko'pgina ishsizlar uchun kasbini o'zgartirish muammosi kelib chiqadi. Yangi kasbni shakllanishi jarayonida kasbiy qarashlar shaxs xususiyatlarining o'zgarishini talab etadi.

Har bir kishining kasbiy hayotida kasbiy rivojlanish inqirozlari uchrab turadi. Bir necha yil davomida ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatish mutaxassisning kasbidan zerikish holatlarini keltirib chiqaradi. Kasbiy tiklanish shaxs faolligini susaytiradi, hordiq chiqarish imkoniyatlarini qidirishga olib keladi.

Bir xil kasbiy faoliyati jarayonida mutaxassisda muhim kasbiy fazilatlar rivojlana boshlaydi.

Shaxsning o'z kasbiy ustasi bo'lishi faoliyat mahsuldorligiga ta'sir etadi. Qanday qilib mutaxassisning ishga bo'lgan layoqatini saqlab qolish, gohida esa tiklash mumkin. Ma'lumki, mutaxassis muntazam ravishda kasbiy psixologik tomonidan yordamga muhtoj bo'ladi.

Jamiyatimiz uchun dolzarb psixologik muammolardan biri-bu ishchining nafaqaga chiqishi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi yangi ijtimoiy vazifa – nafaqaxo'rlar uchun psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ular psixologik ko'mak va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar.

28.2.Kasb ta'limi psixologiyasining rivojlanishi.

Mustakil O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya ishlarini islox qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini qanchalik yaxshi bilgan mutaxassislarga bog'liq. Yuqorida sanalgan muammolarni halqilishda qator gumanitar va maxsus fanlar yordam beradi. Pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, muxandislik (injenerlik) psixologiyasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi singari fanlar shular jumlasidandir.

Ishchini kasb faoliyati bilan bog'liqbo'lganharqanday masala uning kasb maxorati, texnikani qanchalik egallaganligi darajasi, kasbini sevishi darajasi bilan bog'liq. Ilmiy texnika taraqqiyoti (ITT) hozirgi kunda texnikaning tobora jadallashib borayotgan texnika bilan bog'liq, uni yaratish va ishlatish ko'nikmalarini egallagan shaxsni tayyorlashni kun tartibiga keskin qilib ko'ymokda. Bu muammoni oz bo'lsada tezrok halqilish tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'z maxoratlarini yoshlarga, o'z o'rinbosarlariga qay darajada bera olishlariga bog'liq.

Shuning uchun bugungi muxandis ham o'z kasb sirlarini, ham shu kasb maxoratini yoshlarga bera olishi lozim. U umumiy psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-ta'limi va uning psixologiyasini bilishi talab qilinadi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi insonning u yoki bu faoliyat turida ishlashi uchun o'zida mavjud bo'lgan ham jismoniy, ham intellektual potensial imkoniyatlariga ega yoki ega emasliklarini aniqlash juda muhim.Aql, fikr yuritish tezligi ya'ni reaksiyasi ko'p masalani hal qilish yoki uddalay olmaslik sababi bo'lishi mumkin. Buni aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bilan muxandislik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi shug'ulanadi.

Boshqa har qanday mehnat qurollari singari texnika ham inson imkoniyatlariga maksimal darajada moslashtirilishi kerak. Bu eng avvalo mehnatning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, keyinroq ishchining salomatligi va nixoyat ishlab chiqarishda texnikani qo'llanish hisobiga mehnat samaradorligini orttirish masalasi bilan bog'liqdir. Odam va texnika munosabatlari bir-biriga mosligi masalalarini mehnatpsixologiyasi, uning tarmogi muxandislik psixologiyasi o'rganadi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muxandislik psixologik talablarini hisobga olishni, eng muhimi texnika inson imkoniyatlarini qay darajada hisobga olganligini, ya'ni, tex-nikaning gumanizasiyalashuvini hisobga olishini bilib ishga yondoshuvi masalalarini anik tasavvur qilishi bilan bog'liq. Bu muammo muxandislik psixologiyasida o'rganiladigan markaziy bosh mavzu odam – mashinaga tizimi OMT–- (ruscha SChM – «sistema chelovek-mashina») hisoblanadi. Odam-mashina tizimi va uning asosiy muammolari kasb ta'limi o'qituvchisi va kasb ta'limi ustasi maxoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil qiladi.

Muhandislik psixologiyasi mehnat psixologiyasining bir tarmogi bo'lib, u odam va mashina o'zaro axborot almashuvidagi o'zaro ta'sir utkazishning obyektiv qonuniyatlarini, ularni amaliy qullanish va «jamoa-odam-mashina» tizimini loyihalash va ekspluatasiya qilish muammolarini o'rganadi.

Muxandislik psixologiyasi muammolari XX asrning 20 – 30 yillaridan boshlab o'rganila boshladi.Dastlab tramvay-vagon xaydovchisi, telefonistka, ko'tarma kran mashinisti, uchuvchi faoliyatini o'rganish bilan boshlandi. Chet elda 40 – yillardan boshlab keng o'rganila boshlandi. Muxandislik psixologiyasi buyicha birinchi ilmiy – tadqiqot laboratoriyasi 50 – yillarda Leningrad universiteti qoshida tashkil etilgan.

Muxandislik psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

-Odam funksiyasini «odam-mashina» tizimida taxlil qilish, operator faoliyati strukturasi klassifi-kasiyasini o'rganish;

-Odam-operator axborotlar almashinish jarayonlarini o'rganish (odamning axborotlarni qaytaishlash jarayonining asosiy 4 bosqichini o'z ichiga oladi: axborotni qabulqilish, qayta ishlash, qaror qabulqilish, boshqarish ta'sirini amalgaoshirish);

-Operator ish o'rinlarini tashkil qilish prinsiplarini ishlab chiqish;

-«Odam-mashina» tizimi samaradorligiga psixologik omillarning ta'sirini o'rganish;

-«Jamoa-mashina» tizimida operatorlarni tanlash va tayyorlash prinsip va metodlarini ishlab chiqish. (Kasb tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: kasb ta'limi, jamoani shakllantirish, trenirovka –mashqqilish);

-«Jamoa–odam–mashina» tizimini muxandislik – psixologik loyihalash va baholash;

-Muxandislik – psixologik ishlamalarining iqtisodiy samarasini aniqlash va hokazolar.

28.2.Kasb tanlashga yo'llash va kasbiy maslaxatlar.

Kasb tanlashga yo'llash. Kasb ta'limi psixologiyasining asosiy muammosi – shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo'llash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.

Professiografiya. Insonga quyiladigan talablar nuqtai-nazaridan kasblar va uning o'z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflanishi professiografiya deyiladi.

Professiografiya natijasi professiogramma bulib, bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruxiga quyishi mumkin bo'lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammaning bir qismini psixologik professiogramma, qolgan bir qismini – inson psixikasiga quyiladigan talablar, ya'ni kasb qobiliyatlari ro'yxati tashkil qiladi. Professiografiya kasblar klassifikasiyasini ham o'z ichiga oladi, bu turli mezonlari bilan ifodalanadi: texnologik, gigiyenik, psixologik va boshqalar. Harqanday kasbni o'rganish va tavsiflash har doim ma'lum maqsadni ko'zlaydi va shu maqsadga buysunadi.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan xillarda bo'lishi mumkin: kadrlar tayyorgarligini asoslashga, gigiyenik sharoitlarni hisobga olish va uni soglomlashtirishga; kasb tanlashni asoslashga; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovni asoslashga; mehnatga baho berish normativlarini, mehnat xavfsizligi saviyasini ko'tarish va boshqalar.

Mehnatni tadqiqqilish bilan shug'ullanadigan fanlar (medisina, mehnat fiziologiyasi, mehnatpsixologiyasi va boshqalar). Professiografiya o'z oldiga turlicha vazifalarni qo'yadi. Mehnatpsixologiyasi soxasidagi barcha tadqiqotlar, xox nazariy xox amaliy vazifalarni quymasin, eng avvalo konkret kasb faoliyatini o'rganishdan boshlanadi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, ilmiy-texnika taraqqiyoti munosabati bilan mehnat faoliyati sharoitlarigina emas, mehnat mazmuni hamo'zgarib bormoqda. Masalan, teplovoz va parovoz mashinisti kasbi kechagisi va bugungisi bilan bir xil emas. Kasb faoliyati o'zgarishiga qarab kasb professiogrammaga mos keladigan kasb psixogrammasi hamo'zgarishi kerak.Ayrim kasblar yuqolib borsa, yangilari paydo bo'lib boradi, yoki o'zgarib boradi.Shuning uchun professiografiya ishlari hech qachon tugamaydi.

28.3.Kasbga yaroklilikni aniklash muammolari.

Kasb tanlashga yo'llash va kasb maslahatlarini uyushtirish. Kasb tanlashga yo'llash eng avvalo odam imkoniyatlari va uyashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o'rganishdan boshlanadi.Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytiladi.

Mehnat ekspertizasi – bu odamning konkret kasb bo'yicha mehnatga yaroqliligini ma'lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir.

Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi quyidagilarga bog'liq bo'lishi mumkin: yoshiga; tegishli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishga; mazkur kasb buyicha ishlashga qiziqish va iste'dodi mavjud bo'lishiga. Bundan tashqari yashayotgan sotsial muhit va jinsiga hambog'liqbo'lishi mumkin.

Mehnat ekspertizasiga turli mutaxassislar va tashkilotlar jalb qilinadi: vrachlar, psixologlar, pedagoglar, injenerlar va boshqa mutaxassislar qabul komissiyalari, xodimlar bo'limi, tibbiy ekspert komissiyalari (VTEK–vrachebno–trudovaya ekspertnaya komissiya), harbiy vrachlik komissiyalari–VVK), lokomotiv mashinistlari, shofyorlar, shaxtyorlar va boshqalarni tanlash komissiyalari va boshqalar.

Mehnat ekspertizasi tashkiliy shakllaridan qat'iynazar quyidagi umumiy masalalarni halqilish bilan shugullanadi:

-Odam ma'lum ishni boshlab keta oladimi?

-Tegishli lavozimda ishni davom ettira oladimi?

-Odamdan qaysi soxa yoki vazifada foydalanish ma'qul?

-Baxtsiz xodisa yuz berganda, bunga odam qay darajada aloqador, ishga qabul qilingan, tayinlanganlar – chi?

Mehnat faoliyatining barcha turlarida mehnat ekspertizasining asosiy vazifasi quyidagilardir:

-Odamning yoshiga, salomatligiga, ma'lumotiga, psixologik va boshqa xususiyatlariga mos kelmaydigan ishga kirib qolishning oldini olish;

-Mazkur kasbga eng qobiliyatli kishini tanlab olish;

-Tasodifan shu kasbni tanlab ishga kirgan odamni o'zvaqtida chetlatish, davolanishga, mos keladigan boshqa ishga o'tkazish;

-Odamning qaysi kasbga yaroqli ekanligini bildirib, u – yoki bu faoliyat turini tavsiya qilish.

Psixodiagnostika ma'lumotlari asosida prognostik psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi.

Bu talablarni har bir pedagog va ota–onalarning bilishi va amal qilishi, ayniksa bolaning 9–sinfni tugatish va hayotyo'lini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Mehnat ekspertizasining navbatdagi turi retrospektiv mehnat ekspertizasi deyiladi (Retrospektiv–o'tmishga nazar solish ma'nosida).

Retrospektiv mehnat ekspertizasi kuzatuvchining o'tmishi–o'quv va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, baholash va uning xatolarini aniqlashga, ayrim ko'ngilsiz holatlarga sabab bo'lganholatlarni (avariya, brak maxsulot, travma) va o'rganishga xizmat qiladi. Bu o'quvchi yoki ishchining kelgusi mehnat faoliyatini belgilab olishida katta ahamiyatga ega. Mehnat ekspertizasi bir vaqtning o'zida kasbga yo'llash muammolarini halqilishga ham yordam beradi.

Kasb tanlashga yo'llash–bu psixologik–pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari majmui bulib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy manfaatlarga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir. Kishining qobiliyatariga mos kelmaydigan kasb tunlashi ko'pincha fojialarga sabab bulib shaxs uchun moddiy, ma'naviy zarar yetkazishi bilan jamiyatga hamqimmatga tushishi mumkin. Oila va jamiyat mablagini sovurish, kadrlar qunimsizligi, qayta tayyorlash harakatidagi qarajatlarning ortishi va x.

Kasb tanlashga yo'llash muammolari odamlarni azaldan tashvishlantirib kelgan. Kasb tanlash davlat ahamiyatiga ega masala ekanligi birinchi marta Ispaniyada 1575 yilda Xuan Uarte tomonidan o'rtaga quyilgan edi. Davlat bu masala bilan shugullanadigan odamlar va tashkilotlar bo'lishi kerakligini taklif qilgan edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qator mamlakatlar olimlari va jamoat arboblari (AKSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya va boshqalar) yirik ishlab chiqarish sanoat korxonalari uchun yoshlardan maxsus tayyorgarlik ko'rgan kadrlarni tanlab olish, o'qitish, kasb o'rgatish zarurligi masalasini qo'ydilar. Asrimizning 60 – yillaridan boshlab bu mavzuda V.N.Shubkin, L.L. Kon-dratyeva , L. V. Botyakova, G. G. Golubev, A. Ye. Golomshtok (Rossiya), K. Davlatov, V. Chichkov, A. Ismoilov, N. Shodiyev (O'zbekiston) va boshqalar shug'ullandilar. Bu dolzarb vazifani halqilish maktabdagi politexnik ta'lim zimmasiga yuklatildi, biroq kutilgan natijani har doim ham beravermadi.Kasb tanlashga yo'llash maslaxat berishdan nariga o'tmadi.

K. K. Platonov kasb tanlashga yo'llashning kompleks dasturini ishlab chikib, bu «kasb tanlashga yo'llash uchburchagi» sxemasini taklif qildi. Uning bir tomoni kasblarning kishi va uning organizmiga qo'yadigan talablari. Ikkinchi tomoni bozor imkoniyatlari (mehnat bozor talablari, qaysi kasbdagilar kerakligi). Uchinchi tomoni o'smirqobiliyatlarini bilish va davlat siyosatida hisobga olishdan iborat.

Kasbiy maslaxat – (profkonsultasiya) kasbga yunaltirish tizimining bir qismi bo'lib, odamning qobiliyatlarini o'rganishga, tegishli maslaxatlar berishga, batafsil shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uch bosqichi bor: tayyorlov, hal qiluvchi (yakunlovchi) va aniqlovchi.

MS: Kasb tanlash va kasbga moslashish qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?

Tayyorlov bosqichida oiladagi, maktabdagi o'rganish – o'qish davridagi oladigan maslaxatlar.

Yakunlovchi tayyorgarlik 9 – sinfdagi olib boriladigan ishlar (o'qishni davom ettirish shaklini tanlash bilan bog'liq).Aniqlovchi kasbiy maslaxat o'rta maktab doirasidan tashqariga chiqadi.Bu kollejda, litseyda, oliy o'quv yurtida davom etadi.

Kasbiy tanlov – mehnat prognostik ekspertizasi shakli bo'lib, odamning qaysi kasbga yaroqliligi haqida kafolat berish bilan bog'liq jarayon. Eng muhimi qaysi kasb uning uchun nomaqbul, zararli ekanligini ogohlantirishdir. Kasbiy tanlov natijalari kasb-hunar bilim yurtlarida hisobga olinib o'quvchiqaysi kasb buyicha o'qishi yoki boshqa soxaga ishga o'tkazilishi muxokama qilinadi.

Kasb qobiliyati vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin.Shuning uchun zarur sharoitlar yaratish, kelgusi faoliyat turini belgilab olishga maslaxat berilishi mumkin.

Kasbiy maslaxatning pirovard natijasi shaxs moyilligini aniqlashdir. Moyillik shaxs sifati bo'lib, uning tarkibiga ma'lum faoliyatga qiziqish va uni bajarishga intilish, o'z – o'ziga asoslangan baho berishdir. Moyillikning ikki turi bor: potensial va faol moyillik. Potensial moyillik ko'pincha kishini yashiringan imkoniyatlari bilan bog'liq, hattoo'ziham bilmasligi mumkin.Faol moyillik bevosita ish jarayonida namoyon bo'ladigan qiziqish bilan bog'liq.

28.5.Kasb egallash va moslashish bosqichlari

Profadaptasiya, uning asosiy va moxiyati. Kasb tanlashga yo'llashning hal qiluvchi davri o'quvchini biror kasb ichiga asta sekin kirib borishi, moslashuvi bosqichidir.Bunda o'quvchi shogirdlikdan malakali ishchi darajasi sari takomillashib boradi. Profadaptasiyaning ikki bosqichi bor: tayyorgarlik va bevosita kasb egallash bosqichi. Tayyorgarlik o'quv jarayonida umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganadi, ayrim konkret ko'nikmalarni hosilqiladi. Bu biologik, sosial – psixologik adaptasiya ko'rinishiga ega.Korxonada bevosita ishlab chiqarishda profadaptasiya nixoyasiga yetkaziladi.

Profadaptasiyani muvoffakiyatli nixoyasiga yetishi uch narsaga bog'liq:

-Kollej o'qituvchilari va ustalarining o'z sohalariga qanday tayyorlashlariga nazariy va amaliy bilim berishlari, ko'nikma va malaka hosilqilishlari, kasbga qiziqish uyg'ota olishlari.

-Ishchilar va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabat shakli.

-O'quvchi borib tushgan mehnat jamoasidagi sotsial psixologik muhit (sinchkov, mexribon, loqayd, yangi bolaga ishonchsizlik bilan qarash va xokazo.)

Sosial psixologik adaptasiya jarayonida bilish, emosional va amaliy aspektlar farqlanadi.

Novatorlik va rasionalizatorlik xususiyatlarini aniklash. Kasbiy adaptasiya malakali ishchi yetishuvi bilan nixoyasiga yetadi.Bunda eng ko'zga tashlanadigan sifat ishchining ijodiy mehnatqilishidir.

Novatorlik – ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga intilish.

Rasionalizatorlik – ijodiy mehnatqilish orqali kam mablag' va kuch sarflagan holdako'p va sifatli maxsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

Tayanch iboralar:

Kasb – shaxsning jamiyat a'zosi sifatida yashash manbai bo'lib xizmat qiladigan doimiy mashg'ulot yoki faoliyat turi.

Kasb kasalligi – muayyan kasb sohasidagi psixik yoki shu kasbning ko'pchilik vakillariga xos bo'lgan kasallik.

Kasb psixologiyasi – mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'lim.

Kasb tanlashga yo'llash – pedagoglar, psixologlar, vrachlar va boshqa mutaxassislarning yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslahati, tushuntirishlari kabi tadbirlar tizimi.

Kasbga qiziqishlar – shaxsning ma'lum bir kasbga nisbatan doimiy va barqaror motivlashtirilgan qiziqishidan iborat individual xususiyati.

Kasbga layoqatlilik – shaxsning muayyan kasbga yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy va psixik sifatlar yig'indisi.

Kasbga tayyorgarlik – muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini ta'minlovchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka, odat, sifat, xususiyatlar, mehnat tajribasi va xulq normalariga ega bo'lishlik.

Kasbga tegishli ma'lumot – mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, amaliy ko'nikma, malaka va odatlar tizimi

Nazorat savollari:

1. Kasbga ta'rif bering?
2. Kasbiy ta'lim psixologiyasi nimani o'rganadi?
3. Kasbga yo'llash kim tomonidan amalga oshiriladi?
4. Kasbga yaroqlilik qanday aniqlanadi?
5. Mehnat ekspertizasi nima?

Test topshiriqlari:

1.Novatorlik – bu nima?

A) ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng sunggi yutuqlaridan foydalanishga intilish.

B) Kasb tanlashga yo'llashning hal qiluvchi davri o'quvchini biror kasb ichiga asta sekin kirib borishi, moslashuvi bosqichidir

V) shaxsning jamiyat a'zosi sifatida yashash manbai bo'lib xizmat qiladigan doimiy mashg'ulot yoki faoliyat turi.

D) shaxs moyilligini aniklashdir

2.– ijodiy mehnat qilish orqali kam mablag' va kuch sarflagan holda ko'p va sifatli maxsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

A) Rasionalizatorlik

B) Novatorlik

V) Professiografiya

D) Retrospektiv

3.Kasbiy maslahat necha bosqichda amalga oshiriladi?

A) 5 B) 2V) 6D) 3

4.....– bu odamning konkret kasb buyicha mehnatga yaroqliligini ma'lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir.

A)Profadaptasiya

B) Kasbiy maslahat

V) Mehnatekspertizasi

D) Professiogramma

5. Muxandislik psixologiyasi nimani tadqiq qiladi?

A) shaxsning ma'lum bir kasbga nisbatan doimiy va barqaror motivlashtirilgan qiziqishidan iborat individual xususiyatini o'rganadi.

B)mehnat psixologiyasining bir tarmogi bulib, u odam va mashina o'zaro axborot almashuvidagi o'zaro ta'sir utkazishning obyektiv qonuniyatlarini, ularni amaliy qullanish va «jamoa-odam-mashina» tizimini loyihalash va ekspluatasiya qilish muammolarinio'rganadi.

V) Ishchilar va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabat shaklinio'rganadi.

D) mehnat prognostik ekspertizasi shakli bo'lib, odamning qaysi kasbga yaroqliligi haqida kafolat berish bilan bog'liq jarayonni o'rganadi.

6. Kasb tanlashga yo'llash–bu .....

A) ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga intilish.

B) shaxsning muayyan kasbga yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy va psixik sifatlar yig'indisi.

V) psixologik–pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari majmui bulib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy manfaatlarga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir

- o’qituvchining o’z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o’z yurti, ona tilisi, o’z halqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g’oyasida yashashidan iboratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

- oliyjanobligi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;

- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatliligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamdaumuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoqmuhimahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqtham bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha halq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalqta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qandaymuloqatda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Maktab direktori esa, bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

32.2. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qatiy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar.

O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liqtashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liqxislatlariga qarabxarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bularqanday xislatlarekan?

Ko’pchilik psixologlar, shu bilan birga o’zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o’qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V.Ko’zmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, O’zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o’qituvchilik kasbini atroflicha o’rganib, ancha batafsil ko’rsatmalar berish imkoniyatini yaratadi. Bunda gap o’qituvchilik kasbining professiogramma (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatpsixologik tomonidan o’rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilganqisqa va har tomonlama batafsil ko’rsatib berilgan hujjatga professiogramma deyiladi). Professiogramma psixologik nu?q nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (aniq birorta kasb bo’yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo’lgan mazmundagi barcha tomonlarini o’z ichiga olishi kerak) ustida boradi.

O’qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o’qituvchiga qo’yiladigan maxsus talablarni o’z ichiga qamrab olishi lozim.

Bo’lajak o’qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo’yilishini bilishi va shu asosida o’quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o’quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo’yicha o’qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamroqulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o’zbek tili va adabiyoti, o’zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o’qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qatormutaxassisliklar bo’yicha o’qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini, ya'ni namunasini aniqlab olish imkoniyatini berdi. Har bir mutaxassislik bo’yicha o’qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o’qituvchi-murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlardan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holdao’qituvchining quyidagi xislatlari ko’rsatib berilishi lozim.

1) O’qituvchining shaxsiy xislatlari:

-bolalarni yaxshi ko’rish, ularni sevish;

-amaliy-psixologik aql-farosatlilik;

-mehnatsevarlik;

-jamoat ishlarida faollik;

-mehribonlik;

-kamtarlik;

-odamiylik, dilkashlik;

-uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo’lish;

-o’z bilimlarini oshirishga intilish.

2) Kasbiga xos bilimlari:

-ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;

-psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;

-etnopsixologik bilimlarni egallashi;

-hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;

-hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi;

-maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;

-o’z fanini o’qitishmetodikasini bilishi;

-o’quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;

-ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3) O’z kasbiga xos xislatlari:

-milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

-zamonaviy maktabda olib boriladigan o’quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf- odatlarning ahamiyatini tushunishi;

-o’qituvchining ko’zatuvchanligi;

-o’z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;

-pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;

-o’ziga tanqidiy munosabatda bo’la olishi;
-o’zini qo’lga ola bilishi, o’zini tuta olishi;
-pedagogik takt;
-nutqning emosional ifodalanishi;
4) Shaxsiy - pedagogik uddaburonligi:
-dars mashg’ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
-o’quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
-ta'lim va tarbiya jarayonida o’quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
-pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
-bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o’z faoliyatini rejalashtira bilishi;
-o’quv maqsadlarini rejalashtira olishi;
-o’zini talim-tarbiya ishlariga tayyorlash tizimni rejalashtira olishi.
5) Tashkilotchilik malakalari:
-bolalar jamoasini uyushtira bilishi;
-turli sharoit va vaziyatlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;
-bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
-amaliy masalalarni hal etishda o’zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo’llay olishi.
6) Kommunikativ malakalari:
- bolalarii o’ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o’zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog’lashni bilishi.
7) Gnostik malakalari:
- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o’zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o’qituvchilarning tajribalarini o’rganib, undan nazariy va amaliy tomondan to’g’ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o’quvchilarni to’g’ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi.
8) Ijodiy xislatlari:
- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
- o’quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o’zini o’quvchi o’rniga qo’yib, bo’lib o’tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
- o’zining o’quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko’ra bilishga intilish;
Shunday qilib, ko’rsatib o’tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi:
-shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo’nalishi;
-pedagogik mahorat va qobiliyati;
-xarakterining psixologik xususiyatlari;
-bilish faoliyati;
-o’qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

Professiogramma yoshlarga o’zlarining kelgusida o’qituvchilik kasbini to’g’ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

Professiogrammani kasbga xos ravishda o’qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko’nikmalarga,ayniksa, shaxsning qandayqobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog’liq ekanligini albatta ko’rsatish zarurdir.

Mana shu professiogrammaga asosan bo’lajak mutaxassis - o’qituvchilarning sifat jihatidan o’z kasbiga nakadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

Tayyorlangan o’qituvchi shaxsining yuqoridagi ana shu talablarga mos kelish yoki kelmasligi, oliy pedagogika maktablarining qandayo’qituvchi tayyorgarligini ko’rsatib beradi.

Pedagogik kasb, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, oqibat natijada esa, pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi.

32.3. Pedagogik qobiliyatlar

Qobiliyat - bu kishining biror faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanaolishini aniqlab beradi. Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday? Quyida bu masalani ko'rib chiqamiz.

Uzoqyillar olib borilgan tadqiqotlar, pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratliligini ko'rsatib berdi.

Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhimo'rin egallaydigan qator komponentlarni,ya'ni tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib,oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqishuyg'otib, ularda mustaqil, faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonrok, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroqqilibo'quvchilarga moslashtirib bera oladi.

O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar odatda: "o'qituvchining eng muhimtomoni ham uning hamma narsani aniq, ravshan va tushunarli qilib berishida,bunday o'qituvchinig qo'lida mazza qilib o'qiging keladi","Unisi esa hechham aniqtushuntirib bera olmas edi", O'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noanik mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqtirmaymiz"- deydilar.

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat shunchaki bilimlarni osonrok, hammabop va tushunarli qilibo'quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatigina emas, balki, shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil ishlari, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo'naltirib turishdan iborat bo'lgan qobiliyatni ham o'z ichiga oladi.

Mana shu qobiliyatlar orasida o'quvchilar psixologiyasiga xos doimiy ustanovka (yo'naltirish) yotadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning taraqqiyot darajalarini hisobga olgan holda bolalarning nimani bilishi, yoki nimani bilmasligini, nimalarni allaqachon esdan chiqarganliklarini tasavvur qila oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniksa,xafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hechqandayalohidatushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi galda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun hamo'quv materialini o'zlariga qarab tanlaydilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchilar esa, o'zlarini o'quvchilar o'rniga qo'yib, kattalar uchun aniq, ravshan va tushunarli bo'lgan material o'quvchilar uchun noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin degan nuqtai-nazarda bo'ladilar.

Shuning uchun ham bunday o'qituvchilar materialning xarakteri va uni bayon etish usullarini alohidao'ylab ko'rib rejalashtiradilar. Materialni bayon etish jarayonida qobiliyatli o'qituvchi uchun o'quvchilarning qandaytushunayotganliklari va zarur bo'lganda dars bayonotiga alohidae'tibor berishga intilayotganliklari kabi qatorbelgilariga qarabto'g'ri tasavvur qilib, xulosa chiqara oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohidako'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so'ng esa matnni o'quvchilarga yengil va ularning o'zlashtirishlari uchun qulay qilib tuzish tavsiya etiladi.

Qobiliyatli o'qituvchi shu bilan bir qatorda materialni o'zlashtirish, o'quvchilarga bir oz nafas olib, o'zlariga kelib olishlari va o'z diqqat-e'tiborlarini bir joyga qo'yib, ayrim qo'z''alishlarni "so'ndirib", boshqalarni esa jadallashtirib, ularning bo'shashganligini, sustligini va loqaydligini

yengishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini ham nazarda tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi.

Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishni vujudga keltirib, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarlicha idrok qilinmaydi.

2. Akademik qobiliyatlar - matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir. Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamdaozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim, saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng erudisiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

Bunday o'qituvchilar haqidao'quvchilar: "Mahmud aka xuddi professorning o'zginasi-ya. Biz uning bilmagan birorta sohasi bormikin deb tez-tez o'ylab turamiz. Darslarga u butun vujudi bilan kirishib ketadi" deydilar. Ba'zan o'quvchilar o'z o'qituvchisi xaqida "Baqir-chaqir qiladi-yu, ammo zarracha bilimi yo'q" deb butunlay teskarisini aytsalar, juda alam qiladi.

3. Perseptiv qobiliyatlar - bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Qobiliyatli o'qituvchi bolalarning harqandaymayda-chuyda hatti-harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamdaularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi. Ana shunday hollarda o'quvchilar: "Muxabbat opa kimningdir kayfiyatida o'zgarishlar bo'lsa yoki kimdir darsga tayyorlanmasdan kelgan bo'lsa, ko'ziga qaraboq bilib oladi", "Biznnng o'qituvchimiz hech qayoqqa qaramasa ham, hamma narsani ko'rib turadi" deydilar.

4. Nutqqobiliyati - kishining o'z tuyg'usi-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi - nutqorqaliberiladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi. ("Biz uchun adabiyot o'qituvchimiz - Nazira opaning darsini eshitishdan katta lazzat yo'q.

Nazira opamlar shu qadar yaxshi va chiroyli qlib gapiradilarki, hatto tanaffusga chalinadigan qo'ng'iroqhamhalaqit beradi").

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqto'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, o'quvchilar javobini, ularning hatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqto'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohidaajralib turishi lozim. O'qituvchi nutqi, uning talaffuzianiq, ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning fikru-zikri va diqqat-e'tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo'lsin.

Buning uchun esa o'qituvchi o'rtaga savol tashlab, asta sekinlik bilan o'quvchilarni to'g'ri javobga olib keladi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini faollashtiruvchi: ("Bunda ayniqsa ziyrak bo'ling!", "o'ylab, yana o'ylab ko'ring!") so'z va iboralarni o'z me'yorida ishlatadi.

O'qituvchio'zun jumlalarni, murakkab og'zaki izohlarni, qiyin atamalarni va zarurati bo'lmasa, turli ta'riflarni ishlatmasligi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi shuni hamhisobga olishi kerakki, o'qituvchining lo'nda-lo'nda bo'lib chiqqan qisqa nutqi ko'p hollarda o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolar ekan. O'qituvchining o'z o'rnida ishlatiladigan hazil aralash va xayrixoxlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi o'quvchilarni juda jonlantirib, o'quvchilar tomonidan o'ta yaxshi qabul qilinar ekan.

Qobiliyatli o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan, intonasiyali va ifodali, emosiyaga boy, dona-dona bo'lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo'masligi lozim. Bir xil ohangdagi ezma nutqo'quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va bexafsala qilib qo'yadi. Bu

bilan birga bunday nutq I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga ko’ra, doimiy ta'sir etuvchan qo’zg’ovchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlari po’stida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, o’quvchini ezma va uyquchan qilib qo’yadi. Nutq tezligi ko’p jihatdan o’qituvchining individual psixologik xususiyatiga bog’liq. Ayrim o’qituvchilar tez gapirsalar, boshqalari sekin gapiradilar. Ammo o’qituvchio’quvchilarning bilimlarni egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq -o’rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim.

Shoshqaloqnutq bilim o’zlashtirishga halaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi va muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O’ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi. Nutqning balandligi - qattiq gapirish ham xuddi shu singari hollarga olib keladi. Haddan tashqariqattiq, keskin, baqirib gapirish o’quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. Mana shu yerda sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiyning "...o’qituvchinutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo’pol yoki qattiq bo’lishi mumkin emas, Dars paytida o’qituvchining o’zini tuta olmasligi ishni bo’zishi mumkin..." degan nasihatini keltirishimiz juda o’rinli bulardi. O’qituvchining bo’sh, past ovozi yomon eshitiladi. Nutqi, imo-ishoralar, turli keskin harakatlar o’quvchilarni jonlantiradi. Bu tariqa imo-ishoralar va harakatlar tajribali o’qituvchilarda o’z me'yorida ishlatiladi. Lekin bir xildagi tinimsiz harakatlarning haddan tashqari ko’p bo’lishi kishining asabiga tegadi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - bu birinchidan, o’quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o’zining shaxsiy ishini to’g’ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O’quvchilar o’z o’qituvchilari haqidaturlicha fikrda bo’ladilar. Jumladan, ayrim o’quvchilar: "...Biz Azim akani juda yaxshi ko’ramiz. Ular sinfimizda bir vaqtning ichida, juda tezlik bilan ishchanlik kayfiyatini uyushtirib, barchamizni o’zining puxtaligi, ozodaligi, epchilligi va tadbirkorligi bilan hayratda qoldiradilar" desalar, ayrim o’quvchilar: "Sobir akamlar bizning ixlosimizni qaytarib, hafsalamizni bir pul qiladilar. Ular ko’p ishga urinadilar-u, ammo birortasini ham oxiriga yetkazmaydi..." deydilar. Ba'zan ayrim o’quvchilarning o’z o’qituvchisi haqida: "...Nodira opamlar biz bilan xuddi ona tovuqdek ovora bo’ladilar. Agar biz sho’xlik qila boshlasak, ular o’zlarini ko’rmaslikka, payqamaslikka solardilar. Ajoyib ayol edi-yu, ammo uning darsida hechkim hech narsa bilmas edi-da..." degan fikrlarni ham eshitish mumkin.

O’qituvchining o’z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o’z ishini to’g’ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o’qituvchilarda vaqtga nisbatan o’ziga xos sezuvchanlik - ishni vaqtbo’yicha to’g’ri taqsimlab, mo’ljallangan vaqtdan to’g’ri foydalana olish ko’nikmasi paydo bo’ladi. Dars davomida, albatta, ko’p hollarda vaqtni behuda yo’qotish ham mumkin. Lekin bu yo’qolgan dars rejasini tuzatish zaruriyati tuzilgan hollarda bo’lishi mumkin. Tajribali o’qituvchilar vaqtni seza bilishni o’rganish uchun dars rejasini yoki matnda vaqtni nazorat qilishuchun belgilar olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10, 20, 30 va boshqa daqiqalari davomida mabodo, ko’zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo’shimcha materialларn tayyorlash yoki vaqt yetmay qolgan taqdirda qandaymaterialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar.

6. Avtoritar qobiliyati - bu o’quvchilarga bevosita emosional - irodaviy ta'sir etib, ularda obro’ orttira bilishdan iborat qobiliyatdir. (Garchand, o’qituvchining o’z fanini mukammal bilishi, sezgirligi va xushmuomalaligi asosida qozoniladi).

Avtoritar qobiliyato’qituvchining rostgo’yligi, irodaviy uddaburonligi, o’zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamdaqatorshaxsiy xislatlarga, shu bilan birga o’quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o’quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga hambog’liqdir.

O’quvchilar (ayniqsa, o’g’ilbolalar, o’spirinlar - buni alohidata'kidlab o’tishi kerak) talab qilishni biladigan, o’quvchilarni majbur qilmagan va do’q-po’pisa qilmagan, shu bilan birga behuda rasmiyatchilikka yo’l qo’ymagan holda o’z aytganini qildira oladigan o’qituvchilarni juda hurmatqiladilar. Shu munosabat bilan, o’quvchilarning o’qituvchilar haqida ayrim fikrlarini misol qilib keltiramiz:

"Uning ajoyib bor - u hechqanday zarda va baqiriq, chaqiriqsiz ishlay oladi"; "Biz uni jiddiyliga, vazminligi va talabchanligi uchun juda yaxshi ko’ramiz. U hamma vaqtshunchaki muloyimgina,

sipogina talab qiladi, ammo uning talabi shu qadar ta'sirchanki, unga quloq solmaslik mumkin emas"; "Bizning matematika o'qituvchimiz hamma vaqtyuvosh,"osoyishta, o'zini tutgan va shu bilan bir qatorda butun sinfga ajoyib ta'sir eta oladi"; "Kimyo o'qituvchimizning obro'siga e'tibor etmay ko'ringchi, u harqandaysharoitda ham o'z aytganiga erishadi"; "Nig'mat aka bizga ustunlik bilan ta'sir etadi. U hadeb talab qilavermaydi, agar talab qiladigan bo'lsalar unda bo'yin tovlab bo'lmaydi", yoki o'quvchilarning o'z o'qituvchilari haqidagi mana bunday fikrlari: "Polvon aka maktabimizdan ketganiga biz xursand bo'ldik. U bizni do'q-po'pisa, baqiriq-chaqiriq, buyruqbozlik bilan qo'lga olaman deb o'ylardi-yu, ammo bizni bardosh berishgagina majbur etardi, xolos".

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning maktab ta'limi jarayonida olib borilayotgan ishlarning ahvoli to'g'risida juda achinib aytgan fikrlarini keltirish o'rinli bo'lur edi: "Mabodo biror o'quvchio'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqato'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi, prinsip ham tayyor: "mening aytganim - aytgan, deganim - degan".

Shu bilan bir qatorda o'quvchilar o'qituvchining bo'shligi, landavurligi, laqmaligi, soddalarcha ishonuvchanligi, sustkashligi, ortiqcha riyogarchiligi, irodasizligi kabi xislatlarni baralla qoralaydilar: "yaxshi odamu, lekin o'ta bo'sh, uni aldab ketish hechgap emas"; "Tushunib bo'lmaydi, birda juda qattiqqo'l, talabchan, ba'zan hechqanday talab degan narsa yo'q"; "Juda bo'shang, lanj, uni ko'rishing bilan uyqung keladi"...

7. Kommunikativ qobiliyati - bu bolalar bilan muloqatda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilganqobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V.Straxov benihoyat katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, bunda muhimi -o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Pedagogik taktning yaqqolifodalaridan biri - harqanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni (rag'batlantirsh, jazolash, pand-nasihat) his eta bilishdan iboratdir. Farosatli o'qituvchi bolalarga e'tibor berib, ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. "U biz bilan hayron qolarli darajada, ajoyib, yaqindo'stlarcha yaqinmunosabatda bo'ladi"; "Bizning tarix o'qituvchimizning kuchli tomoni - har kimga qandayyondoshishini bilar edi"; "Eng yomoni - o'qituvchining o'quvchilar oldida xushomadgo'ylik qilishidir.

Bizning zoologiya o'qituvchimiz Farida opamlar shundaylardan edi: ular nimaiki qilib bo'lsa-da, bolalarni o'ziga qaratish uchun xushomadgo'ylik qilardi! Nega ular o'zlarini shunchalik kamsitib yerga uradi deb o'ylar edim. Axir ular o'z fanini yaxshi bilardiku"; "Ibrohim aka esa, qarabsanki, hechnarsadan hech narsa yo'q, kishi diliga ozor berar, tushirib qolar yoki behudaga urishib, koyib berar edi".

Pedagogik taktning yo'qligi ko'pincha og'ir oqibatlarga olib keladi. Toshkent maktablaridan birida ona tili va adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga juda ko'p talablarni qo'yganu, ammo hechqandayizchillik bilmagan: bir vazifa berib turib, shu zahotiyoqboshqa talablarni qo'ya boshlagan. Arzimagan xatolar, tartib bo'zishlar ro'y bersa, shu zahotiyoq mazmunan va shakljihatdan o'ta qo'pol va alam qiladigan keskin gaplarni qilib, "2" qo'yardi. Masalan, daftarning chetida qoldirilgan joyning xatoligi yoki intizom bo'zganlik kabi va arzimagan narsalar uchun yopishgani-yopishgan edi.

O'qituvchining bu hatti-harakatlari uchun o'quvchilarda dard, alam to'lib toshgandi. Ko'p o'tmay o'quvchilarning noroziligi va ?at'iy e'tirozi ochi?dan-ochi? namoyishkorona bildirilib, o'qituvchiga ?ulo? solmaydigan, ataylab intizom bo'zadigan va o'qituvchini keskin tanqidqiladigan bo'lib ?oldilar. Bunday achinarli a?vol faqatana o'sha o'qituvchi maktabdan ketgandan keyingina to'zatildi,

O’qituvchining pedagogik takti masalasi munosabati bilan shuni ham aytish joizki, qachon o’quvchilar o’qituvchining ijobiy xislatlari to’g’risida gapirar ekanlar, ular hamisha o’qituvchining adolatliligi kabi xislatlarini birinchi o’ringa qo’yadilar.

"Ko’p hollarda nohaq ish qiladilar - biror masalani yaxshilab tekshirib ko’rmasdan ish tutadilar". O’qituvchining bunday xislatiga o’quvchilar nechukdir achinishli talabchanlik munosabatida bo’ladilar. O’qituvchining adolatsizligi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu to’g’rida har qaysimiz maktab amaliyotidan qandaydir tasavvurga egamiz.

8. Pedagogik xayol - bu kishining o’quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o’z ish-harakatlarining natijasini oldindan ko’ra bilishda namoyon bo’ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyato’qituvchi ma'lum o’quvchidan kelgusida kim chiqishini ko’z oldiga keltirishda, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarni rivojlanishini oldindan ko’ra bilishida namoyon bo’ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o’quvchilarga bo’lgan ishonch bilan bog’liqdir. Shuning uchun hamo’quvchilar ayrim o’qituvchilar to’g’risida: "Ahmad akamlar, chamasi ichimizdagi eng yaramaslarga ham ishonchlarini yo’qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik", degan fikrlarni izhor qiladilar.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - bu qobiliyat bir vaqtning o’zida diqqatni bir qanchafaoliyatga qarata olishda namoyon bo’lib, o’qituvchi ishida g’oyat muhimahamiyatga egadir. Qobiliyatli, tajribali o’qituvchi o’zining diqqat-e'tiborini o’quvmaterialini qandaybayon etilishiga, uning mazmuniga, o’z fikrlarini atroflicha qilib qandayochib berishga yoki o’quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o’zida barcha o’quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan-toliqmaganligiga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o’quvchilarning intizomini ko’zatadi hamda oqibat natijada o’zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish-turishiga, o’zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e'tibor beradi.

Tajribasiz o’qituvchi, ko’pincha o’quvmaterialini bayon etishga berilib ketib, o’quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo’yadi, agar, bordiyu, o’quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o’z bayonotining izchilligini yo’qotib qo’yadi.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan qobiliyatlardan tashqari,o’qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qator ijobiy xislatlariga ega bo’lishi lozim.

U o’quvchilarni tarbiyalar ekan, o’zining xulq-atvori, yurish-turishi, xullas, butun o’qituvchilik shaxsi bilan o’quvchilarga o’rnak bo’lishi kerak.

O’qituvchining o’zini qo’lga ola bilishi muhimahamiyatga egadir.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o’qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarini olib qaraydigan bo’lsak, bularning barchasi ham o’ta muhimomillardir. Jumladan, o’qituvchining tashqi qiyofasi uning obro’si shakllanishiga ta'sir etadi. O’qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, saranjom - sarishtaligi, o’zini chiroyli tutishi qaddi-komati va yurish-turishlari o’quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

32.4. O’qituvchining o’z malakasini oshirib borishining muammolari

Muhimdavlat vazifasini - "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o’qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI-asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o’sib rivojlana boradi.

Hozirgi jamiyatimizda o’qituvchining mustakil ravishda bilimlarni egallab, o’z malakasini oshirib borishi - bir tomondan o’qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko’rsatsa, ikkinchi tomondan muhimvazifa ekanligidan dalolat beradi - chunki, bu kechiktirib bo’lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtai-nazardan o’qituvchi doimiy ravishda o’z bilimlarini oshirish bilan shug’ullanishi zarurdir. Chunki o’qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo’larkan, u birinchidan, odamlarni ko’pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o’z qarashlari bo’yicha to’g’ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o’qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko’p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o’qituvchining

o’zi axborotlar olish uchun o’quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o’ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo’lish imkoniyatiga ega bo’lib, ko’pincha o’z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

O’qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o’z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to’ldirib, o’zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi.

Odatda aksariyat o’qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o’qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko’p hollarda bunday motivlar o’qituvchilarni qanday o’qitib va qanday tarbiyalash kerak, degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o’zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug’ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko’zga tashlanib turgan ayhim hollardan ko’z yuma olmaymiz. Masalan, o’qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo’lib, o’z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug’ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o’qituvchilar o’sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Bu mammoni haletishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda halq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish instutlarining tarmoqlari joriy etilgan,bularA.Avloniy nomidagi halq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish markaziy instituti,Toshkent shaharhalq talimi xodimlarining malakasini oshirish instituti va viloyatlardagi halq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir. Halq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o’qituvchikadrlarning malakasini oshirish, o’qituvchikadrlarni o’zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko’nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iktisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotini oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir.

O’qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlaridandir.

Sharq mutafakkirlari o’qituvchi o’zi o’qib tursagina - o’qituvchi bo’la oladi, agar u o’qishni to’xtatib qo’yar ekan, unda o’qituvchilik ham o’ladi, deb juda haqqoniy aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qanday bo’lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o’qituvchilar yaxshilab bilib olishlari lozim.

Tayanch iboralar

O’zlashtirish –ta’lim jarayonida ustuvor o’rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O’rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko’nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar

O’qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi shaxs.

O’qish – ma’lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o’rganish jarayoni; o’quvchilar tomonidan o’quv faoliyati usullarini egallab olishga yo’naltirilgan faoliyat

O’quvchilar jamoasi – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o’quvchilar birlashmasi, guruhi.

O’quvchilarning o’z-o’zini boshqarishi - o’quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari

Fuqorolik tarbiyasi – fuqorolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o’quvchilarda yuksak darajadagi fuqorolik madaniyatini shakllantirish, ularnihalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqorolar etib tarbiyalashdan iborat

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi

Nazorat uchun savollar.

1.Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalarini yoritib bering.

2.Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigantalablarni eslating.

3.O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarini asoslab bering.

4.O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari haqidatushuncha bering.

5.O'qituvchining o'z malakasini oshirib borishining psixologik muammolariga izo? bering.

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik faoliyatning xususiyatlari nimalardan iborat.

A) Yosh avlodni tarbiyalashni oldiga maqsadqilib qo'ygan, jamiyatning katta yoshdagi a'zolarining faoliyatidir;

B) Didaktika, xususiy metodika, tarbiya nazariyasi kabi pedagogika fani sohalarining tadqiqotob'ektidir;

V) Ijtimoiy tajribani va insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarni o'zlashtirish va qo'llashda o'quvchiga pedagogning rahbarligi.

2.O'qituvchining shaxsiy xislatlarini to'g'ri belgilang.

A) Ko'zatuvchanligi, diqqat e'tiborini taqsimlay olishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning emosional ifodalanishi;

B) Bolalarni yaxshi ko'rishi, mehnatsevarlik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik;

V) Bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olish, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi.

3. O'qituvchining o'z kasbiga xos xususiyatlarini to'g'ri belgilang.

A)O'qituvchining kuzatuvchanligi, o'z diqqat etiborini taqsimlay olishi, pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning ifodalanishi, o'zini tuta olishi;

B) Bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;

V) Bolalarni yaxshi ko'rishi, mehnatsevarlik , mexribonlik ,kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik, amaliy - psixologik aql.

4. Pedagogik qobiliyatlarga nimalar kiradi.

A) Bolalarni yaxshi ko'rishi, mehnatsevarlik,mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, uddaburonlik, jamoat ishlarida faollik;

B)O'qituvchining ko'zatuvchanligi, o'z diqqat e'tiborini taksimlay olishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, pedagogik takt, nutqning emosional ifodalanishi

V) Didaktik qobiliyatlar,akademik qobiliyatlar, perseptiv qobiliyatlar, nutqqobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyati, kommunikativ qobiliyati, pedagogik xayol,diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

5. Pedagogik muloqot deganda nimani tushunasiz.

A) Bolalar va pedagogik jamoada yaxshi psixologik iqlimni yaratishga yo'naltirilgan, dars va darsdan tashqari paytda o'qituvchining o'quvchilar bilan professional muloqotini;

B) O'quvtarbiyaviy vazifalarni hamda jamiyatning hozirgi zamon maktablariga qo'ygan talablarni bajarish maqsadida o'qituvchining o'quvchilar, ota - onalar bilan olib boradigan muloqoti;

V) Ma'lum axborot almashish, o'quvtarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro munosabatlarni tashkil qilishdan iborat bo'lgan pedagog va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir tizimi, usullari va ko'nikmalarini.

6.Pedagogik takt nima.

A) harqanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni (rag'bantlantirish, jazolash, pand - nasixat) his eta bilishdan iboratdir.

B) O’quvchilar bilan muloqotda bo’lishga, ularga yondashish uchun to’g’ri yo’l topa bilishga harakatqilish qobliyati.

V) O’quvchilarga bevosida emosional - irodaviy ta'sir etib, ularda obro’ orttira bilishdan iborat qobiliyatlarga ega bo’lishi kerak.

V) Didaktik qobiliyatlar,akademik qobiliyatlar, perseptiv qobiliyatlar, nutqqobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyati, kommunikativ qobiliyati, pedagogik xayol,diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.